

Shuhrat Sirojiddinov
Gulbahor Ashurova

NIZOMIY GANJAVIY VA ALISHER NAVOIY IJODIDA TURKONA TAFAKKUR VA G'OYAVIY BADIYY ASOS



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

O‘ZBEKISTONDAKI HAYDAR ALIEV NOMIDAGI
OZARBAYJON MADANIYAT MARKAZI

SHUHRAT SIROJIDDINOV
GULBAHOR ASHUROVA

“NIZOMIY GANJAVIY VA ALISHER NAVOIY
IJDIDA TURKONA TAFAKKUR VA G‘OYAVIY
BADIY ASOS”

monografiya

*Kitob Ozarbayjon Respublikasining O‘zbekistondagi
Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat Markazi loyihasi
asosida chop etildi*

TOSHKENT
VNESHINVESTPROM
2021

UO‘K: 23.265.6

KBK:83.2

S 48

Shuhrat Sirojiddinov, Gulbahor Ashurova

Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodida Turkona tafakkur va g‘oyaviy badiiy asos/ Shuhrat Sirojiddinov, Gulbahor Ashurova. - Toshkent: “VNESHINVESTPROM” nashriyoti, 2021 - 376 b.

Loyiha rahbari va so‘zboshi muallifi:

Samir ABBASOV

O‘zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat Markazi rahbari

Ilmiy muharrir:

Rafael HUSEYNOV

Akademik

Taqrizchilar:

Boqijon TO‘XLIEV

*filologiya fanlari doktori,
professor*

Nurboy JABBOROV

*filologiya fanlari doktori,
professor*

Nashr ga mas’ul:

Karimulla MAMMAD-ZADE

*filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori*

Dizayner

Nadir Alimirzayev

© O‘zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi
Ozarbayjon Madaniyat Markazi, 2021

ISBN 978-9943-7956-9-3

“VNESHINVESTPROM” nashriyoti, 2021

Ozarbayjon Respublikasining Prezidenti Ilhom Alievning 5 yanvar 2021 yil kunidagi Qaroriga muvofiq daho shoir shayx Nizomiy Ganjaviyning 880 yillik yubileyi sharafiga Ozarbayjonda 2021 yil “Nizomiy Ganjaviy yili” deb e’lon qilindi. Ayni zamonda, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 19 oktabr 2020 yildagi tarixiy Qarorida buyuk shoir va mutafakkir Amir Alisher Navoiyning 580 yillik yubileyini keng miqyosda nishonlash haqidagi fikrlar o‘z aksini topgan. Har ikki Qaror turkiy adabiyotga va mumtoz adabiy-madaniy sohaga berilgan yuksak e’tibor va ehtirom ramzidir.

Ushbu monografiyada dunyo adabiyotining va turkiy xalqlarining dohiy namoyondalaridan bo‘lgan Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy merosi, uning o‘rganilishi, har ikki shoir va mutafakkirning badiiy-falsafiy qarashlari, sharq madaniyati, turkiy milliy-madaniy merosga qo‘shgan hissasi, hassos she’riyati va ikki “Xamsa”dagi o‘ziga xosliklar tadqiq etiladi.

SO'ZBOSHI

IKKI XALQNING BUYUK SIYMOLARI

Turkiy dunyo jahonga buyuk olimlar, faylasuflar, shoir va yozuvchilarni in'om etgan. Ana shunday iste'dod sohiblaridan Ozarbayjonning atoqli shoiri, mutafakkir va faylasuf Ilyos Yusuf o'g'li Nizomiy Ganjaviy va o'zbek adabiyotining daho shoiri, iftixari Hazrat Alisher Navoiydir.

Hazrat Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoi Sharq adabiyotida go'zal asarlar bitib turkiy xalqlar adabiyoti rivojiga buyuk hissa qo'shdilar. Ulug' shoirlarning "Xamsa" asarlarida turkiy tafakkur, turkiy ruh aks etgani ma'lum!

Oradan 880 yil o'tganiga qaramay, Nizomiy hali ham yuksak zirvadadir, xalqimiz ma'naviyatining ajralmas qismiga aylangan buyuk san'atkorning porloq merosi asrlar osha Sharqning betakror madaniy qadriyatlari xazinasida o'ziga xos munosib o'rin egallab turibdi. Nizomiy dahosi, Nizomiy siymosini biron bir mezon yoki meyor bilan o'lchab bo'lmaydi. Nizomiy betakror asarlar yaratishi bilan birga tilshunoslik, adabiyotshunoslik, faylasuf sifatida ham bu sohalar rivojiga "Xamsa" dostonlari ichiga singdirilgan mohiyat va g'oyalar bilan ulkan hissa qo'shdi. Uning ko'p qirrali iste'dod sohibi ekanligiga hech bir kimsa shubha qilmaydi. Men Nizomiyni azim bir dendizga qiyoslayman. Bu dengizda suzish uchun ko'proq ilm zahmatini chekish lozim.

O'z asarlarining asosiy qismini fors tilida yaratganiga qaramay, Nizomiy Ganjaviy jahon madaniyati va san'atiga misli ko'rilmagan hissa qo'shgan dohiy turk shoiri. Chunki o'sha davrlarda rasmi va she'riyat tili fors tili edi. Shu bilan birga Nizomiyning turkiy devoni ham bo'lgani ilmiy asoslab berilgan. Misr mamlakati Qohira shahrining "Darb ul-majomir" saroyidagi "Hadiviya" nomli mashhur kitobxonada Nizomiyning juda nodir qadimiy qo'lyozmalar saqlanadi.

Nizomiy Ganjaviy she'riyatda xamsachilikni boshlab bergan buyuk so'z ustozidir. "Xamsa"si esa uning nomini butun jahonga mashhur etgan shoh asaridir.

O'ttiz ming baytdan tashkil topgan besh dostonni Nizomiy Ganjaviy 1179–1200 yillar orasida yaratdi. Daho Nizomiy Ganjaviy asarlarini tahlil qilganda uning Ozarbayjonning, Turk dunyosining porloq siymosi ekaniga yana bir bor shohid bo'lamiz. Nizomiy Ganjaviy o'z ijodida buyuk mehr bilan tasvirlagan turkiy-ozarbayjonlar: Nushoba, Maxinbonu, Shirin, Fitna, Sulton Sanjar bilan yuzma-yuz kelgan kekxa ayol, shuningdek Xorazm va Sag'lab go'zallari kabi obrazlar ulug' shoirning davrga xos milliy mavqeini namoyon etadi.

Turkiy dunyo mamlakatlaridan biri va ilm-fan, madaniyat, ma'naviyat markazi bo'lgan Ozarbayjonning Ganja shahri dunyoga bergan, butun insoniyatni hayratda qoldirgan, favqulodda, ta'rifiqa so'z ojiz iste'dod sohibi buyuk Nizomiy Ganjaviy bilan faxrlanamiz. Nizomiy – muhabbat kuychisi. U yaratgan asarlarda haqiqiy sevgi, sof muhabbat aks etadi. Nizomiy kuylagan asl sevgi, go'zal muhabbat dunyodagi haqiqiy muhabbatni tarannum etgan qissalarning betakror namunasi.

Yuksak samolarning ishqdir mehrobi,
Ey dunyo, ishqsiz hech qadring bormi?
Gar ishqsiz bo'lsaydi xilqatning joni,
Borlik qamramasdi butun dunyoni.

Ishqsiz bu dunyo sovuq mozordir,
Faqat ishq uyida halovat bordir.
Bormi ishq o'tidan go'zalroq hislar?
Usiz na gul kular, na bulut yig'lar.

Nizomiy vafotidan so'ng uning "Xamsa"si Sharq adabiyoti taraqqiyotiga kuchli ta'sir qildi. O'zbek, tojik, ozarbayjon, sharq shoirlaridan ko'plari "Xamsa" yozishga kirishdilar. Ayniqsa, Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy

Nizomiy Ganjaviy an'analarini ijodiy davom ettirib, katta yutuqlarni qo'lga kiritganlar. Xususan, hazrat Alisher Navoiyning turkiy tilda yozilgan xamsasi beqiyosdir.

O'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy ham chin ma'noda Nizomiy ijodiy an'analarini rivojlantirgan, uning panjasiga panja urgan mutafakkirdir. Alisher Navoiy asarlari Ozarbayjonda XV asrdan boshlab mehr va muhabbat bilan o'qib kelinmoqda. Asrlar davomida xalqimiz Navoiyni o'z shoirlari qatorida ko'rib keladi. U bilan zamondosh Kishvari, Xulqiy singari ozar shoirlari Navoiyning ta'siri ostida kamol topganlar. Buyuk Fuzuliy ham o'z "Layli va Majnun" asarining muqaddimasida uning nomini Nizomiy va Abu Nuvas singari Sharqning buyuk shoirlari qatorida zikr etadi. Mirzo Fatali Oxundov ham o'z maqolalarida Navoiyni oqil va dono davlat arbobi sifatida e'tirof etadi. Alisher Navoiy buyuk Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviyni o'zining sevimli ustozlaridan biri sifatida e'tirof etgan. Fuzuliy esa Navoiyga o'zini bir shogird sifatida bilgan.

Ozarbayjon va o'zbek xalqlari orasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar uzoq va boy tarixga ega. Bugungi kunda tobora gullab-yashnayotgan Ozarbayjon va o'zbek adabiy aloqalari taraqqiyotida buyuk ozar shoiri Nizomiy Ganjaviy va mutafakkir shoir Alisher Navoiyning merosi muhim o'rin tutadi. Navoiy Shayx Nizomiyning "Xamsa"sga turkiy tilida javob yozgan va uni o'zining ustozlari deb bilgan. Alisher Navoiy turk xalqlari adabiyotini o'rta asrlarda taraqqiyotida munosib hissasini qo'shgan. Uni hamma janrlarda mukammal asarlar bitgan yetuk san'atkor sifatida e'tirof etilgan.

Navoiyga qadar turkiy adabiyotda Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Xorazmiy, Qutb, Sayfi Saroiy, Lutfiy, Haydar Xorazmiy, Durbek, Gadoiy, Atoiy, Sakkokiy kabi san'atkorlar lirik asarlari bilan shuhrat qozondi. Lekin Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" nomli to'rt qismdan iborat devoni boshqa ijodkorlarning asarlaridan ham yuksak darajaga ko'tarilgan edi. XIV-XV asrlarda yashab ijod etgan o'zbek shoirlari Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy ijodida Nizomiy Ganjaviyning ta'siri ko'p. Yana bir o'zbek mutafakkir shoiri

Alisher Navoiyning ijodida Nizomiyning ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. Navoiy "Xamsa"si o'zidan avval yaratilgan asarlarning yuksak namunadir. Bu asar, haqli ravishda, o'zbek xalqining madaniyati va adabiyotini yangi bir bosqichga olib chiqdi.

Alisher Navoiyning adabiy merosi Ozarbayjonda qanchalik nashr etilib, sevib o'qilsa, Nizomiy, Fuzuliy ijodi ham O'zbekistonda shunday e'zozlanadi. Ozarbayjonlik M.Fuzuliy, Q.Zokir, F.Kamina, M.Vidadiy, S.Shirvoniy, M.Sobir kabi iste'dodli ijodkorlar Alisher Navoiyni o'ziga ustod sifatida e'tirof etib kelgan.

Ozarbayjonda taniqli adabiyotshunos olimlarimizdan Faridunbey Ko'charli, akademik Hamid Arasli, professorlar Panoh Xalilov, Jannat Nag'iyeva, Xalil Rza Uluturk, Komil Vali Narimono'g'li, Ramiz Asqar, Almaz Ulvi, Tarlon Quliyev va boshqalar Alisher Navoiy adabiy merosini tadqiq etib, o'rganib Ozarbayjon adabiyoti va adabiyotshunosligida yangicha bir sahifa ochdilar. Aytish mumkinki, Ozarbayjon adabiyotshunosligida navoiyshunoslik sohasida bir qator ishlar amalga oshirildiki, uning miqyosi katta hajmni tashkil etadi. Agar XX asr adabiyot tarixini varaqlasak, bunga o'zimiz ham guvoh bo'lamiz. Chunki, navoiyshunoslikka oid materiallar salmoqli.

F.Ko'pruluzoda, B.Cho'banzoda, S.Mumtoz, I.Hikmat va boshqa taniqli adabiyotshunoslarning Navoiy adabiy merosi, shaxsiyati haqida 1926-yilda nashr ettirgan maqolalari juda katta ahamiyat kasb etadi. "Ozarbayjon adabiyoti jamiyati" nashriyoti 1926-yilda "Navoiy – Mir Alisher Navoiy" nomli maqolalar to'plamini nashr etdi. Hamid Araslining "Nizomiy va Navoiy", "Navoiy va Ozarbayjon adabiyoti", "Alisher Navoiy", "Alisher Navoiy va uning adabiy merosi", "Navoiy va Fuzuliy", "Buyuk shoir" singari maqolalari Navoiy ijodiy merosini Ozarbayjon adabiyotshunosligida o'rganishda qimmatli manba bo'lib kelmoqda.

Muhammad Orifning "Alisher Navoiy – buyuk o'zbek shoiri" maqolasida mana bu fikrlarga duch kelamiz: "Navoiy buyuk bir shoir edi. Adabiyotning san'atining har bir sohasida o'z

iste'dodini namoyon etdi. U yaxshi me'mor hamdir. Shuningdek, Navoiy iste'dodli rassom va musiqashunosdir. Umuman olganda, Alisher Navoiy buyuk vatanparvar va insonparvar edi”.

Ozarbayjon-o'zbek adabiy aloqalari borasida dissertatsiya yoqlagan G'ulomhusayn Aliyevning “Ozarbayjon-o'zbek adabiy aloqalaridan”, “Ozarbayjon-o'zbek adabiy aloqalariga doir” maqolalari ham yirik tadqiqotlar sirasiga kiradi.

1947-yilda Alisher Navoiyning “Sab'ai sayyor” dostonidagi ikki hikoya, 1948-yilda esa “Farhod va Shirin” dostoni Ozarbayjon tilida nashrdan chiqadi. “Farhod va Shirin” dostonini M.Rahim, M.Dilboziy, N.Rafibeyli, A.Ziyotoy va A.Vohidlar tarjima qilishgan. Bu nashrga akademik Hamid Arasli tomonidan yozilgan “Farhod va Shirin” nomli so'zboshida asar mavzusi, uning falsafiy va badiiy ahamiyati xususida batafsil fikr yuritilgan. Bu asar 1968-yilda shu variant asosida qayta nashr etildi. Bu kitobga ham Hamid Arasli so'zboshi yozgan. Sharhlar va tahrir ham ushbu olimga tegishlidir. 1979-yilda Alikbar Ziyotoy mazkur asarni asliyatdan, ya'ni o'zbek tilidan tarjima qiladi va “Yozuvchi” nashriyotida nashr etiladi.

O'zbekiston Davlat mukofoti laureati, professor Laziz Qayumov akademik Hamid Araslining navoiyshunoslik sohasidagi xizmatlarini e'tirof etib, shunday yozgan edi: “Iste'dodli Ozarbayjon olimlari orasida taniqlililar ko'p. Ulardan biri ham Ozarbayjon, ham o'zbek adabiyotining chuqur bilimdoni bo'lgan Hamid Araslidir. Navoiyshunoslarning har yil bo'ladigan an'anaviy anjuanlarida uning ma'ruzalari madaniyat va ilm-fan taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Olimning ilmiy rahbarligi ostida bir qator shogirdlari nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan. Hamid Arasli har doim shogirdlariga o'z ko'magi va maslahatlarini ayamaydi. Uning ko'p unvonlari yonida O'zbekistonning “Xizmat ko'rsatgan fan arbobi” nomli mukofot uning xizmatlariga berilgan yuksak bahodir”.

Alisher Navoiyning hayot va faoliyatining, adabiy va ilmiy merosining Ozarbayjonda o'rganilishi haqida gap borar ekan, filologiya fanlari doktori, professor Jannat Nag'iyevaning

xizmatlarini e'tirof etmay bo'lmaydi. Olimning Navoiy ijodi haqidagi bir qator tadqiqotlari navoiyshunoslik sohasining alohida sahifasini tashkil etadi. Ma'lumki, Navoiy o'z zamonasida boy kutubxona barpo etgan. Bu kutubxonadan Ozarbayjon klassik ijodkorlarining ham asarlari o'rin olgan. Jannat Nag'iyeva "Klassiklarimizning asarlari Navoiy kutubxonasida" nomli ilmiy tadqiqotida bu haqida kengroq to'xtalib o'tadi: "Navoiy bosh vazirligi davrida buyuk bir kutubxona barpo etdi va unda dunyoning eng nodir asarlarini to'pladi. Ozarbayjon klassiklaridan Xoqoniy, Nizomiy, Nasimiy kabi dunyoga mashhur ijodkorlarning asarlari maxsus xattotlarga ko'chirtirilib kutubxona fondiga topshirilgan. Nizomiyning bizgacha yetib kelgan "Xamsa"sining eng qadimiy va mukammal nusxasi ham ushbu kutubxonadan joy olgan. Sharqning eng mohir xattot va miniatyurachi rassomlarini saroyga da'vat etgan Navoiy go'zal va nodir qo'lyozma nusxalarni o'z kutubxonasiga jamlashga erishgan. Bu nodir qo'lyozma asarlar ichida eng qimmatlisi Nizomiy asarlaridirk, bu Navoiyning Nizomiy ijodiga bo'lgan cheksiz muhabbati va ehtiromi natijasi desak xato qilmagan bo'lamiz".

Navoiy butun ijodi davomida Nizomiy asarlariga murojaat qildi, ulardan ta'sirlandi, ilhomlandi. Nizomiy adabiy merosi O'zbekistonda Navoiy davriga qadar ham keng o'rganilgan va sevib o'qilgan.

Bu yil ulug' shoir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi munosabati bilan o'zbek adabiyotining Ozarbayjondagi yaqin do'sti, turkolog olim, Xalqaro Bobur mukofoti laureati, professor, tarjimon Ramiz Askar shoarning "Xamsa"sini tarixda ilk bor ozarbayjon tiliga to'liq tarjima qildi. Shuningdek Ramiz Askar Navoiy xamsasini batafsil tadqiq etib, o'z ishlanishlarini alohida kitobga jamladi. Iste'dodli olim shorning "Mahbub ul-qulub" asarini ham ozarbayjon tiliga tarjima qildi va bu asar shu yil Bokuda nashr etildi.

O'zbek adabiyotining buyuk mutafakkiri Alisher Navoiy shaxsi va ijodini o'rganish ozarbayjon olimasi, OMFA-ning Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti professori Almaz Ulvi Binnatova tadqiqotlarida asosiy o'rin tutadi. Olima atoqli shoir

asarlarining turli qirralarini diqqat bilan, mukammal tadqiq etib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotshunosligimizning Navoiy ijodi bilan bog'liq sahifasi tadqiqotlar, kitoblar bilan boyib bormoqda. Navoiy ijodi hali ko'p asrlar tadqiqotlar uchun mavzu bo'la olishiga shak-shubha yo'q. Ikki xalqning buyuk shoirlari bugun mustaqillik davrida ham yurtlarimiz orasidagi do'stlikning mustahkamlanishiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar...

Ulug' ma'rifatparvar shoir Nizomiy Ganjaviyning tavalludiga 880 yil to'lishi munosabati bilan Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev o'z farmonida 2021 yilni "Nizomiy yili" deb e'lon qildi. Nizomiy yubileyiga bag'ishlangan tadbirlar nafaqat Ozarbayjonda, balki butun dunyoda o'tkazilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning farmoniga binoan qardosh O'zbekistonda va butun dunyoda buyuk shoir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi keng nishonlanmoqda.

Biz, O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi, har ikki shoirimizga bag'ishlangan ko'plab tadbirlar o'tkazish va loyihalarni amalga oshirish niyatidamiz.

Ulug' zakovat sohibi Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa" asari O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat Markazi loyihasi bilan tarixda birinchi marta o'zbek tiliga tarjima qilindi va nashr etildi.

O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan bu asarlar o'zbek o'smirlari va yoshlariga kelajakda Nizomiy Ganjaviy bilan yaqindan tanishish va uning asarlarini o'qish imkonini beradi va qardosh mamlakat tadqiqotchilarining o'rganishi uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Alisher Navoiy merosini targ'ib qilish maqsadida O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat Markazi loyihasi bilan "Alisher Navoiy hikmatlari" kitobi ozarbayjon tiliga tarjima qilinib, Bokuda nashr etildi. Bundan tashqari, Madaniyat Markazimiz loyihasiga bilan ozarbayjon

olimi, tarjimon Ramiz Askar tomonidan tayyorlangan Alisher Navoiy "Besh risola" nomli darslik Ozarbayjonda chop etildi.

Bu loyihalarning davomi sifatida "Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiyning shaxsiyati do'stona va adabiy aloqalarimiz muqaddimasi" xalqaro musobaqasini e'lon qilingan.

Musobaqada har ikki o'lkada faoliyat yuritayotgan universitetlar, fan va madaniyat muassasalari, olimlar va tadqiqotchilar, shoir va rassomlar, san'at arboblari, jurnalistlar ishtiroki nazarda tutilmoqda.

Musobaqa quyidagi nominasiyalar - "Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodi: Turkiy olamning g'urur manbai, jahon she'riyatining zirvasi" mavzusida ilmiy monografiya va ilmiy-tadqiqot asari, bu mavzuda eng yaxshi esse, Ozarbayjon va O'zbekiston matbuotida (sayt, gazeta, jurnal) va televizion kanallarda eng maroqli maqolalar va televizion dasturlar bo'yicha o'tkaziladi.

Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat Markazi tashabbusi va loyihasi bilan O'zbekistonda "Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy: adabiyot va san'at kunlari" o'tkaziladi.

Bu adabiyot va san'at kunlari doirasida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida "Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodi - Turkiy olaming faxr-iftixori, jahon adabiyotining cho'qqisi" mavzusida xalqaro konferentsiya bo'lib o'tadi. Shuningdek, buyuk Nizomiy Ganjaviyning o'zbek tiliga birinchi marta tarjima qilingan "Xamsa" asarining taqdimoti o'tkaziladi.

An'anaga ko'ra, buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiyning ozarbayjonlik turkolog, professor Ramiz Asker tomonidan ozarbayjon tiliga tarjima qilingan "Xamsa" sining taqdimoti o'tkaziladi.

"Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy: adabiyot va san'at kunlari" doirasida O'zbekistonning yetakchi kutubxonalariga Nizomiy Ganjaviyning o'zbek tiliga tarjima qilingan "Xamsa" kitobi hamda shoir ijodiga oid kitoblar taqdim etiladi.

Fikrimizcha, mutafakkir shoirlar Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiyning adabiy merosini o'rganish va targ'ib qilish

barcha davrlar uchun dolzarb bo'lib qoladi, bu esa adabiyotshunoslar oldida yanada salmoqli manbalarni o'rganish va ochishni talabga aylantiradi.

*Samir Abbosov,
O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi
Ozərbayjon Madaniyat Markazi direktori,
Faxriy madaniyat xodimi*

**Ozərbayjon Respublikasida 2021 yilning
“Nizomiy Ganjaviy” yili deb e’lon qilinishi haqida
Ozərbayjon Respublikasi Prezidentining**

Qarori

Dunyo adabiyotining yirik namoyandasi, buyuk ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy insoniyat badiiy tafakkur yilnomasida yangi sahifa ochgan nodir shaxslardan biridir. Xalqimiz ma’naviyatining ajralmas qismiga aylangan buyuk so’z san’atkorining yorqin merosi asrlar davomida Sharqning mislsiz madaniy boyliklari qatorida munosib o’rni saqlab kelgan. Nizomiy Ganjaviy butun hayoti davomida o’sha davrning eng muhim madaniy markazlaridan biri bo’lgan Ganja shahrida yashab ijod qilgan va Yaqin Sharqning falsafiy-ijtimoiy va badiiy-estetik tafakkuri tarixini boyitib ajoyib so’z san’ati marvaridlarini yaratgan.

Nizomiy Ganjaviyning mashhur “Xamsa” asari jahon she’riy va falsafiy tafakkurining cho’qqisidir. Mutafakkir shoir ko’plab izdoshlaridan iborat katta adabiy maktabning poydevorini qo’ydi. Dunyoning eng mashhur kutubxona va muzeylarni bezab turgan Nizomiy asarlari Sharq miniatyura san’atining rivojlanishiga ham turtki berdi. Nizomiy dahosi doimo jahon sharqshunosligi diqqat markazida bo’lgan. Kitoblarini chop etish borasida juda ko’p ishlar qilindi. Asarlarining ilmiy-tanqidiy matni tayyorlandi, yuqori did va saviyadagi dizayn va ommaviy tirajda kitoblar nashr etildi.

Adabiyot va san’atda Nizomiyning unutilmas obrazi yaratildi. Mutafakkir shoirning maqbarasi uning tug’ilgan shahri Ganjada, haykallari Boku, Toshkent, Sankt - Peterburg va Rimda o’rnatilgan. Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasi Adabiyot instituti va Ozarbayjon adabiyoti milliy muzeyi Nizomiy Ganjaviy nomi bilan atalgan. Buyuk Britaniyaning Oksford universitetining Nizomiy Ganjaviy nomidagi markazi muvaffaqiyatli ishlamoqda.

Mamlakatimizda Nizomiy Ganjaviyning yubileyi doimo nishonlanib kelgan. Buyuk shoirning 800 yilligi uning merosini o'rganish va targ'ib qilishda burilish nuqtasi bo'ldi. Ozarbayjon mumtoz adabiy va madaniy merosiga har doim milliy g'oya va vatanparvarlik nuqtai nazaridan yondashgan umummilliy rahbar lider Haydar Aliev ham o'z davrida Nizomiy merosiga alohida e'tibor qaratgan.

1979 yilda Haydar Aliev tashabbusi bilan qabul qilingan "Buyuk ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy merosini o'rganish, nashr etish va targ'ib qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori Nizomiy ijodini o'rganish va targ'ib qilishning yangi istiqbollarini ochdi.

1981 yilda buyuk yo'lboshchining bevosita tashabbusi va ishtiroki bilan o'tkazilgan o'lmas so'z san'atkorining 840 yilligini nishonlash mamlakat madaniy hayotida muhim voqeaga aylandi.

2011 yilda Nizomiy Ganjaviy tavalludining 870 yilligi davlat miqyosida bir qator tadbirlar bilan keng nishonlandi. 2021 yilda buyuk shoir va mutafakkir Nizomiy Ganjaviy tavalludining 880 yilligi nishonlanadi. Ozarbayjon Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 32-bandiga binoan, milliy-na'naviy fazilat, so'z va g'oyalarning qudratli ustozining faoliyati yuksak qadrlanib qaror qilinadi:

1. Ozarbayjon Respublikasida 2021 yil "Nizomiy Ganjaviy yili" deb e'lon qilinsin.
2. Ozarbayjon Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Nizomiy Ganjaviy yili" bilan bog'liq harakatlar rejasini ishlab chiqsin va amalga oshirsin.

Ilhom Aliev,
Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti
Boku shahri, 2021 yil 5 yanvar.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori

Buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o'rin tutadi. Ulug' shoir o'zining she'riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g'oyalarni, ona tilimizning beqiyos so'z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o'rin egalladi.

So'nggi yillarda Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodiy merosini har tomonlama chuqur o'rganish, uning o'lmas asarlarini yurtimizda va xorijiy mamlakatlarda keng targ'ib qilish hamda xotirasini abadiylashtirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, shoir tug'ilgan qutlug' 9 fevral sanasini har yili adabiyot va ma'rifat bayrami sifatida yuksak darajada nishonlash an'anasi qaror topdi. Ulug' so'z san'atkorining asarlari muntazam nashr etilib, navoiyshunoslik sohasida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda, respublika va xalqaro miqyosda ilmiy anjumanlar o'tkazilmoqda.

Shu bilan birga, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil etilgani, mamlakatimiz hamda bir qator xorijiy davlatlarda haykallari o'rnatilgani, asarlar to'plami to'liq nashrdan chiqarilgani, poytaxtimiz markazidagi ulug' bobomizning muazzam me'moriy yodgorligiga mutanosib ravishda Adiblar xiyoboni barpo etilgani madaniy hayotimizdagi ulkan voqealarga aylandi.

Jonajon Vatanimiz «Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari» degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning butunlay yangi bosqichiga qadam qo'yib, yangi Uyg'onish davri

— Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan bugungi kunda Alisher Navoiyning bezavol adabiy merosi misolida o‘zbek adabiyoti va madaniyatini chuqur o‘rganish va ommalashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Alisher Navoiy asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g‘oyalarning jahon tamaddunida tutgan o‘rnini hamda o‘sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarini tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatini nazarda tutib, shuningdek, ulug‘ shoir va mutafakkirning adabiy-ilmiiy merosini mamlakatimizda va xalqaro miqyosda yanada chuqur tadqiq qilish va keng targ‘ib etish maqsadida:

Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda keng jamoatchilik vakillarining 2021 yilda buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

*Shavkat Mirziyoev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Toshkent sh., 2020 yil 19 oktabr,
PQ-4865-son*

MUQADDIMA

Mehrli va rahmli Alloh nomi bilan
boshlaymiz.

Jahon adabiyotining dohiy namoyondalaridan bo'lgan Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy merosining o'rganilishi hamisha olim-tadqiqotchilarning diqqat marqazida bo'lgan. Har ikki shoir va mutafakkirning badiiy-falsafiy qarashlari Sharq madaniyatining, turkiy milliy-madaniy merosning eng porloq namunasi bo'lib, umumbashariy qiymat hamda muhim ahamiyatga molikdir.

Mustaqillik yillari mumtoz badiiy merosimizni yangi nuqtai nazar bilan xolis tadqiq va targ'ib etish davri bo'lganligini izohlashga hojat yo'q, deb o'ylaymiz. Chunki sobiq sho'ro saltanati zamonida o'tmish adabiyotni to'laqonli tarzda o'rganish, ommaga tanitish yo'lidagi to'siq, qarshilik va mafkuraviy ta'qiblarni o'ylashning o'ziyoq, mustaqilligimiz eshik ochgan imkoniyat hamda imtiyozlarni atroflicha tasavvur qilishga undaydi.

Mustaqillik va mumtoz adabiyot tadqiqi mavzui – fikr miqyosi ancha keng, fakt va ma'lumotlarga boy, yangi, hattoki munozarali tushunchalarni nazardan o'tkazishni ifodalaydigan mavzu. Xalqimiz istiqlolni qo'lga kiritgunga qadar ham mumtoz san'atkorlarimiz asarlari tekshirilib, ko'plab nashrlar amalga oshirilgan. Bu jarayonning yutuq va kamchiliklarini ham xolis baholash kerak. Ana shunda "qanday o'rganilgan? Ko'zlangan bosh maqsad nima edi?" degan savollarga haqqoniy javob qaytarish zaruriyatga aylanadi. Va tabiiyki, ilmda erishilgan yutuq hamda yangiliklar o'z-o'zidan o'tmishdagi ahvolni tanqidiy baholashni ham ko'ndalang qilib qo'yadi.

Mumtoz badiiy matnlar biz bilganimiz, ko'nikkanimizdan tashqari boshqacha munosabat, tahlil va talqinda o'zga bir usul hamda uslubda isb ko'rishni talab qiladi. Adabiyotshunoslik fani mustaqillik ruhi, erkin fikr zavqi, qalban va ma'nan yurt, millat

taqdiriga bogʻliqlikdir. Zero, ozod va mustaqil mamlakatning ilm-fani birinchi galda did va saviyasi baland, sergʻayrat shaxsiyatlarni kamol toptirishga xizmat etishi lozim.

Turkiy adabiyot tarixida “Xamsa” dostonlari shayx Nizomiy Ganjaviy qurgan – adabiy imoratning markaziy ustunlaridan biridir. Qariyb toʻqqiz yuz yildan beri insonlar, xususan, turkiy qavm farzandlari, tabiati ziyo bilan qorilgan, basirati ochiq, maʼrifatga tashna har bir qalb egasi bu buyuk obidani nafaqat koʻrib, tamosho qilish, balki uning baland va xushhavo ayvonlarida orom olish, bezovta ruhiga xotirjamlik baxsh etish uchun ushbu maskandan qoʻnimgoh istaydilar. Shu maqsadda Nizomiy Ganjaviy qoldirgan adabiy meros asrlar osha oʻqib-oʻrganilib, tadqiq etilib kelinmoqda. Buyuk “Xamsa” vaqt siriovidan muvaffaqiyat bilan oʻtib insoniyatni turli zamon va makonda hamon oʻziga chorlab turgani ayon haqiqatdir.

Maʼlumki, Ozarbayjon Respublikasining Prezidenti janob Ilhom Alievning 5 yanvar 2021 yil kunidagi Qarori bilan buyuk shoir Nizomiy Ganjaviyning 880 yillik yubileyi sharafiga Ozarbayjonda 2021 yil “Nizomiy Ganjaviy yili” deb eʼlon qilindi. Ayni zamonda, Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 19 oktabr 2020 yildagi tarixiy Qarorida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning 580 yillik yubileyini keng miqyosda nishonlash haqidagi fikrlar oʻz aksini topgan. Har ikki Qaror turkiy adabiyotga va mumtoz adabiy-madaniy sohaga berilgan yuksak eʼtibor va ehtirom ramzidir. Biz taraqqiyotning yangi davriga qadam qoʻydik. Oʻzbekiston prezidentining tashabbusi bilan Oʻzbekistonning Turkiy tili davlatlar hamkorlik kengashiga aʼzo boʻlishi bu borada yuksalish bosqichini boshlab berdi. Oʻzaro hamkorlik yoʻlidagi bu qutlugʻ qadam amaliy samarasini bera boshladi. Oʻzbekiston va Ozarbayjon oʻrtasidagi madaniy-adabiy hamkorlik aloqalari borasida erishilayotgan natijalar buning yorqin isbotidir.

Ozarbayjon va Oʻzbekiston bugun xalqaro aloqalar maydonida muhim rol oʻynamoqda. Ularning adabiy va madaniy hamkorligi butun Sharq oʻlkalari uchun namunaga aylanib

ulgurgan. Inchunin, adabiy aloqalarimiz tarixi va bugungi jarayonini tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. Toshkentdagi Nizomiy Ganjaviy haykali xalqimizning Nizomiy dahosiga bo'lgan hurmati, qardosh ozarbayjon xalqiga, qadimiy tarixi, madaniyati, asrlar osha sinalgan mustahkam irodasi, yorqin kelajagiga hurmat va ishonch ramzidir. Shuningdek, Bakuda Alisher Navoiyga qo'yilgan muhtasham haykal ham ozarbayjon xalqining o'zbek xalqiga bo'lgan chuqur ehtiromi ifodasidir. Buyuk ozarbayjon shoiri shayx Nizomiy Ganjaviy turkiy millatning benazir mutafakkiri sifatida jahon adabiyotidagi noyob poetik hodisa – xamsachilikni boshlab berdi. Garchi o'z "Xamsa"sini forsiyda bitgan bo'lsa ham, ulug' shoirning "Panj ganj"ida turkiy tafakkur, turkiy ruh aks etgani ma'lum (Nacafzada 2019). Ulug' o'zbek mutafakkiri hazrat Alisher Navoiy esa o'z "Xamsa"si bilan Nizomiy Ganjaviy boshlagan poetik an'anani yangilash barobarida yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tardi. Ozarbayjon-o'zbek adabiy aloqalariga doir e'tiborga molik ilmiy tadqiqotlar muallifi professor Almaz Ulviyning yozishicha, Alisher Navoiy Nizomiy an'alarini izchil davom ettirish bilan cheklanmay, turkiy adabiyotning taraqqiyot darajasini yanada yuksaltirdi (Ulviy 2016, 17). Zero, Navoiy "...butun ijodi davomida Nizomiy san'atidan ilhom olgan, unga buyuk hurmat bilan qaragan." (Sirojiddinov 2019, 642)¹.

Mumtoz adabiyotining buyuk siymolaridan bo'lgan Nizomiy Ganjaviy va Alisher o'zidan keyingi davr ijodkorlari uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qildilar. Har ikki shoirning jahoniy shuhrati "Xamsa"siga kiritilgan asarlari o'z mavzusi, ilmiy-falsafiy fikrlari bilan diqqatga sazovordir. Ozarbayjon tarixi va madaniyatida doim milliy g'oya va vatanparvarlik mavqei bilan yondoshgan Haydar Aliev Nizomiy Ganjaviy merosiga alohida diqqat qaratganligi tahsinga sazovordir. Tarixga nazar tashlansa, liderning Ozarbayjonda 1979 yilda "Buyuk ozarbayjon

¹ Н.Жабборов–“Низомий Ганжавий ва Алишер Навоийнинг ижод концепсиясига доир карашларидаги муштараклик ва ўзига хослик”Т. Жахон адабиёти журнали, 2021, 192- Б.

shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy merosini o'rganish, nashr etish va targ'ib qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori bu sohada yangi istiqbollarni ochdi. 1981' yilda esa, Haydar Aliev tashabbusi va ishtirokida o'tkazilgan Nizomiy Ganjaviyning 840 yillik yubiley marosimi mamlakat madaniy hayotida muhim voqeaga aylangani tarixdan ayondir.

Haydar Aliev merosi va an'alarining davomchisi Ilhom Alievning tegishli Farmoni bilan 2011 yilda Nizomiy Ganjaviy tavalludining 870 yilligiga bag'ishlangan bir qator tadbirlar bo'lib o'tgan. 2021 yil Ozarbayjonda va xorijda shayx Nizomiy Ganjaviyning 880 yillik yubileyi keng miqyosda nishonlanishi ushbu monografiyaning yozilishi bilan bog'liq jarayonda kechdi.

2021 yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorida hazrat Alisher Navoiy tavalludining 580 yillik to'yi alohida e'tiborga molik bo'ldi. Qarorda ta'kidlanganidek, buyuk shoir va mutafakkir, taniqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning beqiyos ijodiy merosi o'zbek, turk va jahon adabiyoti, milliy madaniyat va adabiy-estetik rivojida alohida e'tibor berilishi nazarda tutilgan. Bu sana O'zbekistonda xukumat siyosati darajasida keng nishonlanmoqda. O'zbekiston Prezidenti Qarorida ta'kidlanganidek, buyuk shoir va mutafakkir, taniqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning beqiyos ijodiy merosi o'zbek, turk va jahon adabiyoti, milliy madaniyat va adabiy-estetik rivojida alohida ahamiyatga ega. Yuqorida aytib o'tilgan fikrlar bilan belgilangan vazifalarga muvofiq, Bakuda Ozarbayjon Fanlar Akademiyasi Nizomiy nomidagi Adabiyot institutida har ikki shoirning yubileylari sharafiga "Nizomiy va Navoiy merosining umumbashariy ahamiyati, manbalari" mavzusida Xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazildi. O'zbekistonlik olimlar ham bu konferensiyada ishtirok etdi.

Shuningdek, Toshkentda ham 2021 yil dekabr oyida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida "Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodi –

Turkiy she'riyating faxri, jahon adabiyotining durdonasidir" mavzusidagi xalqaro konferensiya o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

Ushbu monografiya ikki buyuk daho Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy merosining o'rganilishi, ikki o'lkada ularga qaratilgan e'tibor, ijodkorlarning adabiy-falsafiy qarashlari, sharq madaniyati, turkiy milliy-madaniy merosga qo'shgan hissasi, "Xamsa"lardagi o'ziga xos jihatlarning yoritilishi bilan ahamiyatlidir.

SHAYX NIZOMIY GANJAVIY HAQIDA

Sharq mumtoz she'riyati, dunyo badiiy tafakkurining buyuk namoyandasi Shayx Nizomiy Ganjaviy – shoir, adib, olim, musiqashunos, adabiyotshunos, muarrix, faylasuf, mutasavvif alloma edi. Uning keng qamrovli ijodiyotida X-XI asrgacha yashagan so'z san'atkorlari an'analarini ijodiy davom ettirib, o'z she'riyatini yangi pog'onaga ko'targan edi. Nizomiyning badiiy ijod tajribasini teran ilm va irfon, qoyaday sarbaland butun shaxsiyatdan ayri holda tasavvur qilish mumkin emas.

Asrdosh va izdoshlarning Nizomiy Ganjaviyga bergan ta'rif, tavsif va baholari bir joyga jamlansa, nainki o'z zamonida, undan keyingi davrlarda ham Nizomiyga teng, Nizomiyning joyini egallashga munosib Shaxs topilmaydi degan, degan xulosaga kelish shubhasizdir. Nizomiy shu qadar benazir, shu darajada noyob shaxsiyat.

Shayx Nizomiy Ganjaviy sharq mumtoz adabiyotining beshigini tebratgan, xamsachilik kashshofi, "ummul Xamsa" ya'ni "Xamsa"lar onasini yaratgan ijodkor hisoblanadi. Uning to'liq nomi Abumuhammad Ilyos ibn Yusuf ibn Zakiiy Muayyad bo'lib, 1141 yili Ozarbayjoning Ganja shahrida tug'ilgan.

Bo'lajak shoir ota-onadan yosh yetim qoladi. Uni boqish va tarbiyalashni tog'asi Xoja Umar o'z zimmasiga olib, imkon qadar jiyanining ilm egallashiga ko'maklashadi. U turli ilmlarni o'zlashtirishga ishtiyoqmand bo'lib, Qur'anni yod oladi. Keyin fiqh, tarix, jug'rofiya, falsafa, mantiq va adabdan ta'lim olib, ularning har birida ustod darajasiga yetishadi. Tabiiy fanlar, xususan, tabobat va ilmu nujum (astronomiya)ni tamomila o'ziniki qilib oladi. Zamonaviy ilmlardan tashqari, qadimgi yunon falsafasi va adabiyoti, eroniy xalqlarning islomdan oldingi so'z san'ati, xalifalik davri ilmiy-adabiy asarlari, yahudiy va nasroniy xalqlar tarixi, Kavkaz xalqlarining o'tmishidan ham yetarli ma'lumotga ega edi. Uni yetuk matematik sifatida e'tirof etardilar. Kimyo fanini chuqur bilar, hoziq tabib ham edi. Galen,

Gippokrat, Zakariyo Roziy, Abu Ali ibn Sino kabi tib sohasi bilimdonlarining asarlaridan yaxshi xabardor edi. U dehqonchilik va bog'dorchilik ilmlaridan ham bahramand bo'lgan. Umuman, shoir she'riyati uning turli ilmlarni chuqur bilganligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham zamondoshlari uni hakim deb ulug'laganlar. Bu haqda she'rlaridan birida shoirning o'zi shunday yozgan edi:

Har chi az daqiqahoi nujum
Ba yakoyak nuhuftahoi ulum
Xondamu har varaq, ki mejustam
Chun turo yoftam varaq shustam.

Mazmuni: "Nujum ilmi va umuman barcha ilmlarni eng nozik nuqtalarigacha varaqma-varaq o'qib chiqar ekan, maqsadim ular vositasida Seni topish edi. Seni topgach, bu ilmlarning barchasidan qo'limni yuvdim".

Nizomiy davri o'zining taloto'plari, notinchliklariga qaramay, Kavkaz, Eron va O'rta Osiyo xalqlari tamadduni davri edi. Jumladan, XII asrda Ozarbayjon adabiyotining taniqli namoyandalari Abula'lo Ganjaviy, Iziddin Shirvoniy, Mahastiy Ganjaviy, Mujiriddin Baylaqoniy, Xoqoniy Shirvoniy, Avhadiddin Anvari, Rashididdin Vatvot, Jamoliddin Abdurazzoq, Farididdin Attor, Kamoliddin Ismoil kabi shoirlar yashab, ijod qildilar. Nizomiy ularning ko'pi bilan yaqin aloqada bo'lib, Xoqoniy bilan esa qalin do'st edi.

Bu davrda Xuroson va Movarounnahrning ko'plab shaharlari, jumladan, Ganjada ham javonmardlik yoki axiylik nomi bilan mashhur harakat keng yoyilgan. Harakat a'zolari asosan kosib va hunarmandlardan iborat bo'lib, ular zolim hukmdor va amaldorlarga qarshi kurashar, keng xalq ommasining manfaatlarini himoya qilar, kambag'al va bechoralarni qo'llab-quvvatlar edi. Ezgulik, adolat, insof, muruvvat, saxovat, lutfu karamni shior qilib olgan bu toifa ilmu ma'rifatga katta ahamiyat bergan. Nizomiy bu harakat qoidalarini hurmat qilar va ularga moyil edi. Nizomiy shaxsiyati, dunyoqa-rashi va ijtimoiy aqidalari shu tashkilot g'oyalari, kosib va hunarmandlar ta'sirida

kamol topdi. Shoir asarlaridagi javonmardlik g'oyalari tasviri shuning mahsulidir.

Nizomiyning hayoti boshdan-oxir Ganja shahrida o'tgan. Bir gal Iroq sultoni Tug'ulshohning da'vatiga binoan Tabrizga safar qilgan, biroq u yerda uch kundan ortiq turolmagan. U saroy xizmatiga kirmay, o'z umrini erkinlik va xilvatnishinlikda o'tkazgan. Lekin o'sha davr hukmdorlari unga sovg'a-salomlar yuborib turganlar. Chunonchi, Darband hokimi Boybars ibn Malik Muzaffar 1169 yili tuhfa qatorida unga Ofoq ismli bir kanizakni ham tuhfa qiladi. U shoirning cho'risi emas, balki umr yo'ldoshi, maslahatchisi, ilhomchisiga aylandi. Nizomiya Muhammad ismli o'g'il hadya etgan Ofoq 1180 yili bevaqt vafot etadi. Shoir eng aziz kishisi bo'lgan bu ayol muhabbati va hurmatini bir umr xotirasida saqlab, "Xusrav va Shirin" dostonidagi Shirin timsolida uning yorqin siyosini abadiylashtiradi. "Shirin obrazi Nizomiyning Ofoq uchun qo'ygan haykali edi. Nizomiy Ofoqqa bo'lgan qaynoq his-tuyg'ularini keksalik yillarida yaratgan "Iskandarnoma" dostonida ham dard bilan eslaydi"².

Nizomiy Ganjaviy yoshlikdan matematika va astronomiyaga juda qiziqqan va shu soxa buyicha bilimlar olgan. U arab va fors tillarini mukammal bilgan. Bu davrda Ozarbayjonda Shirvon Toxir sulolasi xukmronlik qilardi. Ular shoirni uz saroylariga taklif qildi, lekin Nizomiy bu taklifni rad etib, erkin ijod qilishni ma'qul ko'rgan.

Shoironing ijodi lirik she'rlar yozish bilan boshlanadi. Bu she'rlarning ko'pchiligi ishqiy mavzudagi g'azallar edi. Masalan, uning "Qaydaki sen bor, qamar nadarkor, Kingaki sen yor, shakar na darkor" matla'i bilan boshlanuvchi g'azali shoir hayotligi paytidayoq hofizlar tomonidan qo'shiq qilib aytilgan degan ma'lumotlar bor. Shoir lirik she'rlarida ham o'z zamonasidan shikoyat qilib, uni "adolatsiz jamiyat" deb ataydi, adolatli shohni orzu qiladi. Nizomiy Ganjaviy lirikaning turli

² Эркинов С., Ганихонов М. Низомий Ганжавий. – Тошкент: "Фан", 1992. 10-бет.

janrlarida ijod qilgan, u ko'plab ruboiy, qit'a, qasidalar xam yozgan. Lekin shoirni dunyoga tanitgan, uning "Xamsa" asari bo'ldi. Sharq adabiyotida xamsachilik an'anasi uzoq tarixga ega bo'lib, ushbu an'anani ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy boshlab bergan. Nizomiy yaratgan "Xamsa" faqatgina o'z xalqi adabiyoti uchungina emas, balki Sharq xalqlari adabiyotida ham yangi sahifani ochdi. Nizomiydan keyin "Xamsa" yaratish kuchli bir adabiy an'anaga aylandi. Xamsa yaratish uchun besh doston yozibgina qolmasdan, balki Nizomiy dostonlarining janri, nomlanishi, kompozitsiyasi, syujeti, vazni, obrazlariga monand bo'lishi, ammo Nizomiy "Xamsa"ning takrori bo'lmasligi lozim edi. "Xamsa" yaratishga qo'l urgan har bir ijodkor so'z san'ati taraqqiyotida yangi pog'onaga ko'tarila olgan namuna bo'lishi kerak. Bunday murakkab an'ana tufayli o'nlab shoirlar xamsa yaratgan bo'lsalarda ularning aksariyati bu sohada muvaffaqiyat qozona olmadi. Nizomiydan keyin faqatgina uch shoir ulug' xamsanavis bo'lib, Nizomiy qatoridan o'rin olishga muayassar bo'ldi. Bular hind shoiri Xisrav Dehlaviy, tojik shoiri Abdurahmon Jomiy va ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiydir.

Bu badiiy ijodda katta mahorat maktabi sanalgan. "Xamsa" dostonlarining har biri mavzui, qahramonlari, hatto qo'yilgan masalalarigacha aniqlikka ega bo'lib, bu janrda ijod qilgan yozuvchi o'z mahoratini ana shu an'anaviy vositalar yordamida ko'rsatishi, shu orqali o'z davri ideallarini ifodalashi lozim bo'lgan. An'anaga ko'ra, "Xamsa"dagi birinchi dostonning asosini falsafiy-axloqiy masalalar tashkil etgan. Ikkinchi-uchinchi dostonlar sevgi voqealari orqali aks ettirilgan, ijtimoiy-ma'naviy masalalarni yorituvchi mavzu asosida uyushgan. To'rtinchi doston sarguzasht asar bo'lib, unda adolatli shoh masalasi ko'tarilgan. So'nggi doston avvalgilarining xulosasi, umumlashmasi bo'lib, unda ijodkorning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlari aks etgan. Sharqda badiiy qimmat turlicha bo'lgan 50 dan ortiq "Xamsa"lar vujudga kelgan. "Xamsa"ning alohida dostonlariga javoblar ham yozilgan. Lekin bizgacha bu asarlarning hammasi ham yetib kelgan emas.

“Xamsa” dostonlaridan faqat birigagina javob yozib, yuksak darajada shuhrat qozongan ijodkorlar ham bo‘lgan (Fuzuliy, “Layli va Majnun”). “Xamsa”larda eng ko‘p dostonlar “Layli va Majnun” mavzuida yaratilgan. Keyingi o‘rinlarda tegishli ravishda “Xusrav va Shirin”, “Mahzan ul asror”, “Iskandarnoma”, “Haft paykar” mavzuidagi dostonlar turadi. Xamsanavislar o‘z asarlarida epikromanik, qahramonlik yoki tasavvufiy, sufiylik mavzuini birinchi uringa qo‘yganlar. Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”sining syujet va mavzulari turli xalqlar badiiy adabiyotlariga ta’sir etib, bugunga qadar olti yuzdan ortiq “Xamsa” qahramonlari ishtirok etgan asarlar yaratilgan.

Nizomiydan keyin xamsanavislikda turkiy, urdu, pushtu, kurd va boshqa tillarda ham xamsalar yaratilganligi manbalarda aytilgan. Davrlar o‘tishi bilan muayyan ijtimoiy-siyosiy sharoitda belgilangan mavzu, syujet, kompozitsiya, obrazlarga ega bo‘lgan “Xamsa” dostonlarining mazmuni, tarkibi o‘zgarib borgan. “Xamsa” an’anasi Kavkazorti, O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Pokiston va Hindiston mamlakatlarida davom ettirilgan. Turkiy xalqlar adabiyotida “Xamsa” yozishga qiziqish XIII-XIV asrlardan boshlangan. Qutb Xorazmiy Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostonini, Haydar Xorazmiy she’riy shaklini saqlagan holda ayrim o‘zgarishlar bilan “Mahzan ularsor” dostonini turkiy tilga tarjima qilgan. Turkiy (o‘zbek) tilida “Hayrat ulabrur”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” nomlari bilan “Xamsa” yaratgan Alisher Navoiy turkiy xalqlar adabiyotida “Xamsa” janri takomilini Nizomiy Ganjaviy darajasiga ko‘tardi. Navoiy o‘zigacha bo‘lgan buyuk xamsanavislar — Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dexlaviy va Abdurahmon Jomiylarni o‘ziga ustoz deb bildi va ularning ijodini g‘oyaviy-badiiy an’analarini mahorat bilan rivojlantirdi. Nizomiy “Xamsa”si turli xalqlar dostonchiligining keyingi taraqqiyotiga ijobiy ta’sir qilgan. O‘zbek shoiri Xoja (“Maqsad ul atvor”), turk shoiri Lomiy va uyg‘ur shoiri Nizoriy (“Farhod va Shirin”), ozarbayjon shoiri Fuzuliy (“Layli va Majnun”) dostonlarini yaratganlar.

NIZOMIY MAQBARASI

Nizomiy maqbarasi - buyuk Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy tavallud topgan Ganja shahri yaqinida joylashgan. Maqbara 20 m balandlikda, silindr shaklida marmar bino va atrofidagi park bilan birga tamirlangan. Maqbara yaqinida shoirning boqiy asarlarini tarannum etuvchi bronzadan yasalgan obida joylashgan. Nizomiy qabri ustida qadimdan oq ohak toshdan maqbara qurilgan edi. Ilk maqbara qurilishi XIII-XIV asrlarga tegishli deb tahmin qilinadi. Maqbara Oltin Arslon tomonidan Nizomiyga sovg'a qilingan Hamdon - hozirgi Ahmadli qishlogi hududida va bu hududga mahalliy aholi hozir ham "Shayx tekisligi", "Shix tekisligi" deyishgan. "Shix tekisligi" da olib borilgan arxeologik qazilmalar shuni tasdiqlaydiki, bu hudud vaqtida Ganja shahrining faxriy xiyoboni bo'lgan. Bu yerda Shayx Nizomiyning maqbarasi atrofida Ganja shahrining boshqa mashhur shaxslarning ham maqbaralari joylashgan.

XIX asr boshlarida Rossiya imperiyasining Kavkazda olib borgan mustamlakachilik siyosati natijasida Ganja xonligi tanazzulga uchragach, 1826-yilda "Shix tekisligi" da yuz bergan mashhur Yelizavetpol jangi vaqti maqbara jiddiy shikastlanadi va tamirlangani sababli xaroba holatiga kelib qolgan. XIX asr 40-yillarida butunlay vayron bolish xavfi ostida qolgan maqbaraning jiddiy tamirlash lozimligini ko'rgan Qorabog xonligi tarixchisi Mirzabey Adigozal XIX asr ortalarida maqbarani ta'mirlatib, uning qulab tushgan gumbazi orniga yangi gumbaz qurdiradi. Keyinchalik gumbaz general Yodgorzoda tomonidan qayta qurilgan.

XX asr boshlarida esa Adigozal naslidan bo'lgan va Ganja politsiya boshligi sifatida faoliyat korsatgan Ajdarbey

Adigozalov-Goraniy gumbazni tamirlatadi. Bundan keyin maqbara butunlay qarovsiz qolgani sababli vayron boladi. 1875 yilda Eron valiahdi Farhod Mirzo Qachar buyuk shoir ziyoratiga kelishi va maqbara holatini o'zining "Yol yoriqnomasi" kitobida ham shunday tasvirlardi: "Biz yetti chaqirim yol bosganimizdan song uncha katta bolmagan gumbaz kordik. Gumbazning yarmi vayron bolgan edi. Bu shayx Nizomiyning mozori edi. Bu yerdan Ganjaga yetti chaqirim qolgandi. Men shosha-shosha qabr tomonga ketdim. Faqat uning yaqinidagi qoriqchilar gumbaz yonida shunchalik ko'p otliq yiqqan edilarki, ichkariga kirishning imkoni bolmadi".

1879 yilda Makka ziyoratiga borgan Sayyid Azim. Shirvoniy Nizomiy maqbarasini ziyorat qiladi va uning achinarli holatidan tasirlanib,shoirning mashhur ruboiysini oqiydi:

Ey Şeyx Nizami, ey nizami dađılan.

Ey Gəncədə izzü – ehtişamı dađılan.

Olmayıbdır cahanda bir səninlə məntək,

Bayti, evi, məktəbi, kəlamı dađılan.



Ey, Shayx Nizomiy, ey nizomi to'kilgan,

Ey, Ganjada izzatu-ehtiromi to'kilgan.

Bo'lmagan jahonda bir senla manimdek,

Bayti, uyi, maktabi, kalomi to'kilgan.

1947-yilda shoirning mozori ustida tavalludining 750 yilligiga bagishlab obida barpo etildi. Maqbara 1990-1991-yillarda qaytadan qurildi. Nizomiy Ganjaviy maqbarasi kompleksiga qo'riqxonaga maqomi berilgan.



“Nizomiy “Xamsa”ning ilk dostoni “Maxzan ul-asror”ni 1173-1176 yillar orasida yozgan va Kichik Osiyodagi Erzinjon

shahrining hokimi Bahromshohga yo'llagan.³ Doston Bahromshohga ma'qul tushib, shoirga talay in'om-chson jo'natgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Nizomiyning muxoliflari bu tuhfani talon-toroj etganlar. Shuning uchun ham shoirning moddiy ahvoli umrining oxirigacha og'irligicha qolgan"⁴.

Qizil Arslon ham hech qanday daromad kelmaydigan Hamdo'yon qishlog'ini Nizomiya muhrlab beradi. Buni eshitganlardan biri uzunligi va eni yarim farsah keladigan bu qishloqning yillik daromadi uning xarjiga ham yetmasligini pisanda qiladi. Shoir shu yerning o'zidayoq ushbu yorliqni duch kelgan bir kishining qo'lga berib, jo'nab qoladi.

Nizomiyning nomini jahonga mashhur qilgan uning besh dostonni o'z ichiga olgan "Xamsa"si bo'ldi. Bu dostonlar – "Maxzan ul-asror" ("Sirlar xazinasini"), "Xusrav va Shirin", "Layli va Majnun", "Haft paykar" ("Yetti go'zal") va "Iskandarnoma" (u "Sharafnoma" va "Iqbolnoma" nomli ikki qismdan tashkil topgan)dan iborat. Abdurahmon Jomiy ta'biri bilan aytganda, shoirning "Xamsa"da "qo'lga kiritgan nazokati va latofati hech kimga muyassar bo'lmagan, balki, umuman, odamzod qudratidan tashqari"⁵. Alisher Navoiy esa "ul nazmlar agarchi zohir yuzidin afsonadur, ammo haqiqat yuzidin haqoyiq kashfi va maorif bayonig'a bahonadur"⁶, deb ta'rif-laydi.

Nizomiyning she'rlar devoni bizgacha yetib kelmagan. Shoirning lirik she'rlari turli bayoz va to'lamlardan topib

³ Ergash Ochilov. Ko'ngil olamiga sayohat. Maxzanul asror so'zboshisi. Bako.2021.3-B.

⁴ Хомидий Х. Кўхна Шарк дарғалари. – Тошкент: "Шарк", 138-бет.

⁵ Абдурахмон Жомий. Баҳористон (Ш.Шомухамедов таржимаси). – Тошкент: "Ёзувчи", 1997. 84-бет.

⁶ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик. 17-жилд (Насойим ул-мухаббат). – Тошкент: "Фан", 2001. 470-бет.

jamlangan. Chunonchi, uning Eronda nashr etilgan birinchi devonida 12 qasida, 137 gʻazal, 9 qitʻa, 46 ruboiy mavjud boʻlsa, ikkinchi nashrida 16 qasida, 192 gʻazal, 5 qitʻa, 68 ruboiy va 17 bayt parokanda sheʼrlar bor. Shu ikki nashr asosida Tojikistonda J.Dodalishoev ham Nizomiy devonini nashr etgan. Dushanbe-da nashr etilgan shoir asarlarining 5 jildligida esa 55 gʻazal, 5 qasida, 2 qitʻa, 9 ruboiysi mavjud⁷. Holbuki, Davlatshoh Samarqandiy Nizomiy devoni 20 ming bayt sheʼrni oʻz ichiga olgan, deb koʻrsatadi.

XV asrda Nizomiyning lirik sheʼrlari keng oʻquvchilar ommasiga maʼlum boʻlmagan boʻlsa kerakki, Navoiy Nizomiyning masnaviy ustasi sifatida baholagan holda, lirik shoir sifatida tilga olmaydi. “Mahbub ul-qulub”dagi shoirlar tasnifotida ham uning nomini uchratmaymiz. Lekin “Xamsa” dostonlaridan barchasining muqaddima qismida va “Saddi Iskanda-riy” xotimasida Navoiy Nizomiyning ustoz shoir sifatida madh etib, uning sheʼriy mahorati va badiiy balogʻatini taʼrif-tavsif qiladi. Chunonchi. “Hayrat ul-abror”da Nizomiyga alohida bob bagʻishlab, uni, jumladan, quyidagi soʻzlar bilan taʼriflaydi:

Ganja quyoshiki koʻtargach alam,
Ayladi soʻz mamlakatin yakqalam...
Koʻp kishi ham qildi tatabbuʻ havas,
Sarvu gul oʻtrusigʻa kelturdi xas...

“Farhod va Shirin” dostonida ham Nizomiy va Dehlaviyga alohida bob bagʻishlaydi. Jumladan, Nizomiyning – fil, oʻzini – pashshaga oʻxshatib, “Xamsa” yaratishda uning ruhidan madad soʻraydi:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasigʻa panja urmoq.

⁷ Қаранг: Низомий Ганжавий. Куллиёт. Дар панж жилд. Жилди 5. Иқболнома. Махзан ул-асрор. Девони ашъор. – Душанбе, 1984. С. 397–440.

“Saddi Iskandariy” dostoni nihoyasida esa shoir bir tush ko‘rgani va Nizomiy uni “Xamsa” yozganini qo‘llab, muborakbod etganini yozadi.

“Nasoyim ul-muhabbat”da Nizomiyni shayxlar qatorida tilga oladi:

“Mashhur mundoqdurki, alar suluk ayyomida qirq arba’in chiqaribdurlar va to‘rt arba’inni bir daraxt ustida chiqaribdurlar. Har oyina bu nav’ mufrit riyozatlar tortmag‘uncha bu nav’ besh ganjki, alarg‘a nasib bo‘lubdurki, ko‘p ab’yoti alfoz jazolatidin va ma’noyu tarkib salosatidin desa bo‘lurki, e’joz sarhadiga yetibdur, kishining ilkiga kirmak imkon emas va umrlari o‘tmishdan o‘tgan ekandur...”⁸.

Nizomiy she‘rlari faqat badiiy jihatdan go‘zal va mukammal bo‘libgina qolmay, ularda o‘z zamonining barcha ilmu hunarlarini egallagan mutafakkir olim va hayotda katta tajribaga ega bo‘lgan donishmand insonning teran va purhikmat so‘zlari o‘z aksini topganligini ko‘ramiz. Uni nafaqat turkiy-forsiy yoxud umuman Sharq, balki jahon so‘z san‘atining ustozlari darajasiga ko‘targan jihatlardan biri shunda. Zero, shoir she‘rlarida biz go‘zal she‘riy san‘atlarni ham, har taraflama keng va chuqur ilmiy fikr va mulohazalarni ham, hayotiy kuzatish va hikmatlarni ham uchratamiz – ular ko‘pincha o‘zaro omuxta bo‘lib, bu she‘rlarning yuksak badiiyati va teran mazmundorligini ta‘minlagan. Chunonchi, quyidagi ruboiy nafaqat zamonasining barcha ilg‘or ilmlarini egallagan mutafakkir olim, ayni paytda, hayotning butun achchiq-chuchugini totgan, katta turmush tajribasiga ega, jamiyatning taraqqiyot qonunlarini teran tushunadigan donishmand insonning qalbi qa‘ridan chiqib, qog‘ozga to‘kilgan dono fikrlardir:

Adl ast, ki bunyodi zafarho boshad,
Zulm ast, ki mo‘jibi zararho boshad.

⁸ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 17-жилд. 471-бет.

Jud ast, ki pardadori har ayb buvad,
Buxl ast, ki sarpo'shi hunarho boshad.

Tarjimasi:

Bil, adlu adolat zafarlar sababi,
Bil, zulmu sitam barcha zararlar sababi.
Bil, xayru saxo aybu gunohni yopgay,
Pastligu xasislik kadarlar sababi.

Barcha o'tmish mutafakkirlari kabi Nizomiy ijodida ham insonga bir marta beriladigan umrni qadrlash, uni ezgu ishlarga bag'ishlash, bu jahon ayvonida o'zidan yaxshi nom qoldirishga da'vat etish motivlari yetakchi o'rin tutadi:

Ba harza medihi barbod umri nozanin, k-az vay
Ba hosil metavon kardan hayoti jovidoniro.
Ba jon naxridai jonro az on qadrash namedoni,
Ki hindu qadr nashnosad matoi roygoniro.

Mazmuni: "Shunday go'zal umrni yelga sovurasan-a, axir, u orqali abadiy hayotni ta'minlash mumkin-ku?! Xuddi hindu tekin narsaning qadrini bilmaganday, joningni jon evaziga qo'lga kiritmaganing uchun ham uning qadriga yetmaysan".

G'azallaridan birida shoir bu o'tkinchi dunyo, notangi zamon insonning ulug'vor maqsadlari, ilohiy muhabbati va ular yo'lidagi ezgu intilishlari oldida hech narsaga arzimastligini aytadi. Chunki inson o'zining ibratli hayoti, ezgu ishlari, sermazmun ijodi bilan nomini mangulikka naqsh etishi mumkin – g'addor zamon va yovuz odamlar esa unga xalaqit berishdan boshqasiga yaramaydilar:

Xush zi, ki zamona g'am nayar zad,
Andeshai beshu kam nayar zad.
Vaznash hama nimjav nasanjad,
Dodash hama yak sitam nayar zad.

Tarjimasi:

Shod yasha, bu zamon g'amga arzimas,
Qisilmagil, ko'pu kamga arzimas.
Arpa donicha ham turmaydi o'zi,
Sitami ko'z yoshu namga arzimas.

Ma'lumki, Sharq mumtoz shoirlari ijodida o'zining she'riyatda tutgan o'rnidan, o'z mahorati va balog'atidan faxrlanib yozilgan she'r va baytlar ko'p uchraydi. Chunonchi, Nizomiy yozadi:

Base ko'shid bulbul bo Nizomiy,
Chu bishnid in g'azal, minqor barbast.

Mazmuni: "Nizomiyga yetaman, deb bulbul juda ko'p sa'y-harakat qildi, lekin ushbu g'azalni eshitdi-yu, xomush bo'ldi".

Darhaqiqat, Nizomiyning ustoz deb bilgan, unga ergashgan, unga taqlid qilgan shoirlar ko'p, lekin ularning hech biri Nizomiy ko'tarilgan shohsupa-ga ko'tarilmagan.

Nizomiy Ganjaviy nomi qadimdan xalqimiz orasida mashhur, ta'bir joiz bo'lsa, u o'zbekning o'z shoiriga aylanib ketgan. Alisher Navoiyгина emas, barcha mumtoz shoirlarimizning o'zlariga ustoz deb bilishgan. XIV asr o'rtalaridayoq Qutb Xorazmiy uning eng mashhur dostoni "Xusrav va Shirin"ni tilimizga mahorat bilan tarjima qilgan edi. Oradan bir asr o'tgach, Haydar Xorazmiy xamsa asoschisining "Maxzan ul-asror" dostoniga javoban "Gulshan ul-asror" asarini yaratadi. O'z "Xamsa"ning besh dostonini besh buyuk salafi (Nizomiy, Xusrav, Xoju, Ashraf, Jomiy)ga tatabbu sifatida yaratgan Navoiy "Hayrat ul-abror"ni aynan "Maxzan ul-asror"ga javob tariqasida yozadi. "Xamsa" panjasig'a panja urupmen. Avvalkim, "Hayrat ul-abror" bog'ida tab'im gullar ochibdur, Shayx Nizomiy ruhi "Maxzan ul-asror"ning boshimga durlar sohibdur", – deb yozadi shoirning o'zi bu haqda "Muhokamat ul-lug'atayn"

asarida⁹. Zabardast shoir va mohir mutarjim Muhammadrizo Ogahiy “Haft paykar”ni erkin nasriy tarjima qiladi. “Iskandarnoma” dostoni ham o‘tmishda ilmu adab ahlining diqqati-ni o‘ziga jalb etgan. Jumladan, “Shohnoma” tarjimoni, shoir va adib Shohi Hijron “Qissai Doroi Zarrinkamar” asarida “Iqbolnoma”ning muxtasar mazmunini bayon etgan. Nurmuhammad Buxoriy, Mulla Fozil Xomushiyklar ham Nizomiy “Xamsa”sini sharhlar ekanlar, “Iskandarnoma”ni batafsilroq tahlil qilishga harakat etishgan”¹⁰.

1947 yil Nizomiyning 800 yillik yubileyi sobiq Ittifoq miqyosida keng nishonlangan. Shu munosabat bilan O‘zbekistonda ham shoir “Xamsa”si dostonlari tarjimasidan namunalar – “Xusrav va Shirin” (Qutb tarjimasini), “Maxzan ul-asror” (Haydar Xorazmiy tarjimasini)¹¹, “Haft paykar” (Ogahiy tarjimasini) hamda “Layli va Majnun” (N.Oxundiy, Xislat va Muhammadjonovlar tarjimasini)dan parchalar Maqsud Shayxzoda so‘zboshisi bilan alohida to‘plam holida nashr qilindi¹². Keyinchalik taniqli tarjimon, fors-tojik adabiyoti bilimdoni Shoislom Shomuhamedov shoirning 2 qasidasi, 20 g‘azali, 8 qit‘asi, 49 ruboiysi, 74 hikmati hamda “Maxzan ul-asror” va “Haft paykar” dostonlaridan parchalar tarjima qilib, “Sharq klassiklari merosidan” seriyasida chop ettirdi¹³. Fors-tojik shoirlari asarlarining o‘zbekcha tarjimalaridan tartib berilgan

⁹ Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. 10-жилд. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги наشريёт-матбаа ижодий уйи, 2011. 526-бет.

¹⁰ Хомидий Х. Ганжалик пир // “Сино” журнали, 2002 йил, 7-сон, 31-бет.

¹¹ Хайдар Хоразмиининг “Гулшан ул-асрор” маснавийси “Махзан ул-асрор” дostonи таъсирида ёзилган мустақил асар бўлиб, у узок йиллар мобайнида янглиш равишда Низомий “Хамса”си илк дostonининг таржимаси ҳисобланиб келди ва унинг ушбу тўпламга кириб қолиши ҳам шу хаго қарашлар натижасидир. – Э.О.

¹² Қаранг: Низомий Ганжавий. Гулдаста (“Панж ганж”дан парчалар). – Тошкент, 1947.

¹³ Қаранг: Низомий шеърятдан. – Тошкент. 1983.

“Injular ummoni” to‘plamida Ganja pirining yana 2 g‘azali¹⁴ va “Xusrav va Shirin” dostonidan Shirin ta‘rifiga bag‘ishlangan parcha Sh.Shomuhamedov tarjimasida beril-gan¹⁵. Jonibek Suvonqulov “Iqbolnoma” masnaviysini tilimizga o‘girgan bo‘lsa¹⁶, Olimjon Bo‘riev shoirning “Panj ganj”iga kiruvchi “Layli va Majnun”, “Xusrav va Shirin” hamda “Maxzan ul-asror” dostonlarini o‘zbek o‘quvchilari e‘tiboriga havola etdi¹⁷. “Maxzan ul-asror”ga yozgan she‘riy so‘ngso‘zidan ma‘lum bo‘lishicha, u buyuk salafi “Xamsa”sini to‘liq tarjima qilgan. Biz buyuk so‘z san‘atkorining 15 ta ruboiysini o‘z an‘anaviy vaznida tarjima qilganmiz¹⁸.

Eng quvonchli voqea 2017-2018 yillarda Haydar Aliev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat markazining rahbari Samir Abbasovning loyihasi asosida O‘zbekiston Xalq shoiri Jamol Kamol shayx Nizomiy Ganjaviyning buyuk “Xamsa” asarini to‘lik olti dostonni o‘z vaznida, aruz qoidalari asosida tarjima qildi. Ushbu asar Toshkentda va Baku shahrida to‘liq holda nashr etildi. (Nashrga tayyorlovchi va muharrir G.Ashurova). Qariyb to‘qqiz asrdan so‘ng Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa” asarining o‘zbek kitobxonlariga o‘zbek tilida taqdim etilishi muhim tarixiy voqelikdir!

O‘zbekistonda Nizomiy hayoti va ijodini o‘rganish bo‘yicha ham qator ishlar amalga oshirilgan. Navoiy bilan bog‘lab o‘rganilgan ishlardan tashqari, bevosita qardosh shoir merosining o‘zi, adabiy aloqa va badiiy ta‘sir masalalari, asarlarining tarjimalari yuzasida V.Zohidov, N.Mallaev, Sh.Shomuhamedov,

¹⁴ Qarant: Инжулар уммони. 256-бет.

¹⁵ Ўша ерда. 272–275-бетлар.

¹⁶ Qarant: Низомий Ганжавий. Икболнома. – Тошкент: “ART FLEX”, 2009.

¹⁷ Qarant: Низомий Ганжавий. Лайли ва Мажнун. – Техрон, 2005; Низомий Ганжавий. Хусрав ва Ширин. – Техрон, 2005; Низомий Ганжавий. Махзан ул-асрор. – Тошкент: “CHASHMA PRINT”, 2013.

¹⁸ Qarant: Низомий Ганжавий. Рубоийлар // Донишмандлар тухфаси. Рубоийлар (Э.Очилов таржимаси). – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2009. 96–100-бетлар.

S.Erkinov, M.G'anixonov, S.G'anieva, H.Hornidiy, E.Ochilov, K.Mullaxo'jaeva, O.Jo'raboevlar u yoki bu darajada tadqiqotlar olib borganlar. Ozar adibi Muhammad Sayid O'rdubodiyning Nizomiy haqidagi ikki kitobdan iborat "Qilich qa qalam" romani Nazira Alieva va Muhsin Hamidovlar tomonidan o'zbekchaga o'girilib nashr qilingan¹⁹.

Alisher Navoiy shayx Nizomiy haqida ustozining sha'ni-shavkatini ulug'lovchi mana bunday so'zlarni aytganda to'la haq edi:

*Yo rab, bu maoniy durrining ummoni,
Bu donishu fazl gavharining koni.*

*Kim aylading oni olam ahli joni,
Olam elig'a bu jonni tut arzoniy.*

Ko'p shoiru adiblar ijodga o'zlaricha qiziqib ketib, nafsni tanish, ranj va mashaqqat otashida toblanib shaxsiyat yaratishni umuman xayolga ham keltirishmaydi. Bu xususda keng mushohada yuritgan shayx Aziziddin Nasafiy shunday deydi: "Barcha insonlar bu olamda zindondadirlar. Payg'ambar, vali, sulton, malik – hamma-hammasi bog'langan. Ba'zisining bir, ayrimining ikki, boshqa birovining o'n, yana birlarining yuz, ba'zisining esa ming zanjiri bordir. Bu jahonda zanjir-tuzoqsiz odamning o'zi yo'q. Ammo bir zanjirli ming zanjirligiga nisbatan erkin, azob va iztirbi ham uning ozroqdir". Sharq shoirlari orasida badiiy va ilmiy asarlari, shaxsiy hayot tajribalari orqali ushbu savollarga to'laqonli javob bera bilgan mutafakkirlardan biri shayx Nizomiy Ganjaviy edi.

¹⁹ Қаранг: Маллаев Н. Низомий Ганжавий мероси ва унинг маърифий тарбиявий аҳамияти. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1985; Эркинов С., Ганохонов М. Низомий Ганжавий.– Тошкент: "Фан", 1992; Ҳомидий Х. Ганжалик пир // "Сино" журнали, 2002 йил, Куз (№ 7), 31–35-бетлар; Низомий ва Ўзбек адабиёти (Илмий анжуман материаллари). – Тошкент: Илм университет, 2007; Ўрдубодий М.С. Қилич ва қалам. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат наприёти, 1970.

*Umrest, ki ba hazor man hastii man,
Man mego'yam, vale nadonam "man" chist?*

Mazmuni: Bir umrki, mening mavjudligim ming manda kechadi. Man deyman, ammo "man" nima? Bilmayman.

Sodda qilib aytganda, Nizomiy Ganjaviy ijodiyotining o'zak g'oyasi Ishq. Haqiqiy ishq nuri, zavq-shavqi ila basiratni ochish. Ko'ngil nazarini ma'no, mohiyat olamiga qaratish.

*O'z jamoliga nazar tashlab, tamosho qildi ishq,
Nom berib, oshiq ila ma'shuqni paydo qildi ishq.*

*Erdi oshiq botinu ma'shuq zohir, etdi aks,
Sirri botinni zuhur aylab, huvaydo qildi ishq.*

*O'zida ul o'zni ko'rdi, jilvalar ko'rsin debon,
Senu menga bir ajib mir'oti dunyo qildi ishq...*

Chinakam soflik – Dildagi soflik. Ruhda, ko'ngilda go'zallik bo'lmasa, zobiriy go'zalliklar shuurga keng yo'l ochib berolmaydi. Hazrat Nizomiyning "gul jamoli"dan "dil jamoli"ni ustun qo'yib, munavvar ko'ngil husni bilan dunyoni hayron qoldir, deyishida olam-olam ma'no yashiringan:

Jamoli dil talab kun, ne jamoli gul, ki gar chun hur

Jamoli dil shavad tobon, shavand ofoq hayronash.

Nizomiy Ganjaviy ruhoniyatida go'yo zamin va samo, g'ayb va shahodat olami birlashib, ajralmas bir uyg'unlik kasb etgan. Nizomiy Ganjaviy tasvirlarida ruh bir shu'la, bir nur va bir ziyodir. Ruh, shaklan goh qirmizi, goh qora, goh oq yo sariq o'laroq turli-turli ranglarda ko'rinadi. Bunday vaqtlarda u moddani tamsil etadi. Zero, ruhga rang berguvchi moddadir. Ruh

uchun vaqt, zamon degan chegara yo'q. Xayol, tafakkur singari parvozi ko'p oson va yengil. Tafakkur qaerda bo'lsa, ruh ham o'sha yerda. Anglaydigan, xatosiz tushunadigan ruh bo'lib, tafakkur unga ergashuvchi. Modda ruhga to'siq bo'lolmaydi. Ruh hamma joyga bora oladi, havodan, suvdan, olov va tuproqdan bemalol oshib o'tadi. Ruh bo'linib parchalanmaydi, lekin quyosh har tomondan ko'ringanidek, ruh ham ayni bir paytda turli joylarga parvoz aylashga qodir. Nizomiy Ganjaviy nuqtai nazarida ma'no e'tibori ila inson ulug' olam bo'lgani bois Olloh uni hayot, ilm, iroda, qudrat, his etish, ko'rish, kalom kabi o'zining so'ngsiz sifatlaridan bir qanchasiga sherik etgan va o'zini insonda shu sifatlar ila bilgan, bildirgan. Komil inson, bu olamning ruhi va olam uning jasadi yanglig'dirki, doimo ruhni axtaradi, izlaydi, orzu qiladi. Shuning uchun insonning birinchi va asosiy vazifasi, ma'naviy-axloqiy burchi nafsu shahvat ofatlaridan qutulmoqdir. Har qaerdaki nafs va shahvat seli to'fon qilsa. baxtu iqbol xonasi ham barbod bo'lur, deydi shoir:

*Seli shahvat har kujo to'fon kunad,
Xonai iqbolro vayron kunad.*

Nizomiy Ganjaviy olamini bilgan – Haqni ham, xalqni ham biladi. Nizomiyni o'qigan va tushungan – haqiqatning zohirini ham, botinini ham tushunadi. Ko'ngil zavolini ham, kamolini ham his qiladi. Bularni chuqur anglashda Navoiyning Nizomiy Ganjaviy haqidagi fikr-mulohalari yaqindan ko'mak va ilhom beradi.

Shoirning o'zi esa butun umri mobaynida da'vo, iddao, shaxsiy g'arazdan forig' yashagan. Tafakkur, amal, munosabat, mehr-muhabbat xolisligida Nizomiy Ganjaviy samo kishisiday taassurot qoldiradi. U odam va odamiyatga nisbatan dushmanlik, bepisandlik, zolimlikni umuman qabul qilolmaydi. Uningcha, boshqalarga haqsizlik o'tkazib, ularga past nazarda qarash itlik va yirtqichlik. Bu itlik va yirtqichlikka sabab esa aqlsizlikdir.

Agar odamiylik ko'z, og'iz, eshitish va ko'rish bilan belgilansa, devor naqshlari bilan insoniylik o'rtasida hech farq qolmaydi. Chunki yeb, ichib, yotib, g'azab va nafsga qul bo'lish insoniylik olamidan bexabar, jahl zulmatidan hech qutulolmaydigan hayvonga ham xosdir. Ulkan ijodiy shaxsiyat har qanaqa sharoit, jon ezuvchi har qanday vaziyatda ham katta orzu-umid, yorug' xayollar bilan yashaydi. Bu holat uni ba'zan xilvat yo uzlatga undasa, goho safar va sayohatlarga chorlaydi.

Nizomiy Ganjaviy tasavvuf ilmining chinakam bilimdoni, shayx, mutasavvif shoir. Lekin u jaholat, riyo yo'liga kirgan so'fiylar bilan hech murosa qilmagan. Haq visoliga erishish iddaosi ila hamma narsani yig'ishtirib, safsata sotishni kasb etib olgan so'fiy va darveshlar tarafida bo'lmagan.

Xalqni unutib Haq deguvchi, bu dunyoga nafrat ila boqib oxirat saodatiga ko'z tikuvchilar Nizomiy Ganjaviy maslagidan yiroq kimsalar edi. Badbinlik, tekinxo'rlik, suratparastlik, ortiqcha shikastalik, ma'naviy muteliklarga u aslo yon berolmasdi. Olloh va payg'ambar, ishq va sof vijdon hukmi ila yashash tarafdori edi.

Nizomiy Ganjaviy serqirra va sermahsul iste'dod sohibi. Ilmda uning asarlari soni ellikdan ortiqligi qayd etilgan. Nizomiy Ganjaviy mumtoz she'riyatning g'azal, ruboiy, qit'a va boshqa janrlarida ilhom bilan ijod qilgan. Ishq, irfon, komillik g'oyalarini u yangicha munosabat, yangicha ohang va bo'yoqlarda tasvirlab bergan. "Mening she'rim, - deydi u, - ishq azobi va qon yutishning bayonidir. G'azallar devonim emas ular, mening qilgan ishlarim, chekkan g'am-g'ussalarim".

Shoirning qalb holati, iztirob harorati, shaxsiy fazilatlarini she'rda nechog'lik yorqinroq aksini topsa, samimiyat o'shanicha ortadi. Shoir hamma narsaga inontirsa-yu, samimiyatga, xususan, dard va iztirob samimiyligiga inontirib bilmasa, qilgan mehnati besamar. An'anaviy yo'lda ijod qilishning qaltis jihatlaridan biri ana shu. Qaysi lirik janrda qalam yuritmasin, Nizomiy Ganjaviy buni hisobga olgan. Shuning uchun she'riyatda Nizomiy

Ganjaviy tajribalari timsolida soddalik va samimiyatning yangi marralarini ishg'ol aylagan edi deyish mumkin.

Hayot fayzi, umrning sir-asrori, ishq hikmati, oshiqlik g'am-azobi, ma'shuqaning nozu itobi, orifning sukuti, g'aribning hasrati, faqirning shavqi, yulduzlarning charaqlashi, g'urubning mahzunligi, tunning shukuhi, samovotning cheksizligi – bularning barisi she'r. Turfa ko'zli buloqlarning shildirashi, dengizlarning sokin shovullashi, shamollarning qo'shig'i, yaproqlar va gullarning o'pishishi, bulbullarning nolasi – bu musiqa. Vahdati vujud ta'limotiga tayanib Nizomiy Ganjaviy ana shu haqiqat, manzara va musiqalarni inson ruhi, qalbi, tafakkur sirlarini ochishga xizmat qildiradi. Avomga maqbul, olomon saviyasiga muvofiq tushadigan she'rni u sust va xom she'r deb hisoblagan.

G'azal, ruboiy janridagi she'rlari Nizomiy Ganjaviyning lirik salohiyatini namoyish etgan bo'lsa, "Xamsa" dostonlari epik mahoratini ko'rsatgan. "Maxzanul asror" ("Sirlar xazinasi"), "Xusrav va Shirin", "Layli va Majnun", "Haft paykar" ("Yetti go'zal"), "Iskandarnoma" ichidagi "Sharafnoma" va "Iqbolnoma" singari asarlarida falsafa, axloq, ishq, irfon va tasavvuf, jamiyat va siyosat, shaxs erki va saltanat singari masalalardan bahs yuritilgan. Keyinchalik ular "Xamsa" nomi ostida birlashtirilib shuhrat tutgan.

Bashariyat qadim Sharqdan har qancha minnatdor bo'lsa arziydi. Sharq barcha buyuk insonlarga beshik. Jahondagi eng muhtasham madaniyat, ilm-fan koshonalari dastlab Sharqda bino etilgan.

Adabiyot, san'at, musiqa orqali o'zni tanishni inson ilk bora mashriqzaminda amalga oshirgan. Xullas, aytsa-aytgulik haqiqat va hodisotlar ko'p. Ularga erishish qanday kechgan? Deyarli birortasi ham yengil va oson bo'lmagan. Hammasining ortida mashaqqat, fidoiylik, azob-uqubat va shijoat yashirindir. Shoirning taassuf va alam bilan mana bunday misralarni bitishiga balki sabab shudir:

Man, ki qone' shudam ba donai xesh,
Sarvaram chun sadaf ba xonai xesh.
Sarvari beh, ki yori man boshad,
Sarparasti chi kori man boshad.
Sher az on poyai buzurgi yoft,
Ki sar az tavqi sarparasti toft.

Sh. Shomuhamedov tarjimasi:

O'z rizqim donidan qilib qanoat,
Sadafdek xonamda sarvarman faqat.
Birovlarga muhtoj bo'lgandan, ming bor –
Yaxshi-ku qanoat bo'lsa menga yor.
O'zga homiyligin sher etib inkor,
Mavjudot ichinda bo'ldi ulug'vor.

Nizomiy Ganjaviy 1209 yili 12 martda 68 yoshida Ozarbayjonning Ganja shahrida hayotdan ko'z yumadi. Bunday ulug' va betimsol zotlarning vafoti – hayotdagi eng og'ir ayriliq, ulkan yo'qotishdir. Nizomiy Ganjaviy singari shaxslarning qabriga jasad bilan birga boshqa hech qachon topib, hech vaqt qaytarib bo'lmas ma'no va tafakkur maxzani ham dafn etiladi. Ularning hayotdagi o'rni ham, ma'naviy mavqei ham o'lgan kunidan boshlab g'oyatda aniq bilinadi. Chunki ular yetgan tafakkur yuksakligiga o'zga birov yetolmaydi, ular qilgan ishni ayni tarzda boshqa birov eplolmaydi.

Bu dunyoda o'zi qanday yashash kerak? Nega buyuk Shaxslarning qismati kulfat, g'am-g'ussa bilan limmo-lim to'la? Odam Atodan boshlab payg'ambarlar va din ulug'larining boshlariga kelgan falokatlarni xotirlang: Hazrati Odam jannat ne'matlaridan mahrum etilgan; Ibrohim Xalilullohga o'g'lining boshini kesish amr qilingan; Ya'qub alayhissalom o'g'lidan ajralib achchiq-achchiq ko'z yosh to'kkan; Hazrati Yusuf quduq ichida balolarga giriftor bo'lgan; Muammad alayhissalomning oyoqlari Toifda qonga belanib, Uhud kuni tishlari sindirilgan; Abu Bakr zaharlab o'ldirilgan; Umar shahid etilgan; Qur'oni

karinni jamlagan Usmon tolei ham shunday bo'lgan; Hazrati Ali qilich zarbidan o'lgan; Hasan zaharlanib, Husaynning boshi kesilgan... Nechun bunday? Oллоh haqiqatda ham sevgan bandalariga qayg'u va jafoni ravo ko'radimi? Mutasavviflarga ko'ra, "Oллоh so'ngsiz lutf sohibi bo'lganligi bois, yomonlik undan emas, ashyodan yuzaga keladi. Inoyat Olllohning insonlarni yomonlikdan muhofaza etishdagi lutfidir. Bizni yaxshilik va mukamallikka yo'naltiradigan – bu yomonlikning muvjudligi".

Mavlono Jaloliddin Rumiy muammoni yanada oydinlashtirib, butun mas'uliyatni inson zimmasiga yuklaydi:

*Olam az mo hast shud n-ye mo az o'
Boda az mo mast shud n-ye mo az o'.*

Mazmuni: Olam bizdan paydo bo'ldi, biz undan emas. Boda bizdan mast bo'ldi, biz undan emas.

Darhaqiqat, inson har narsa uchun o'lehov va mezondir: u o'zgartiradi, tahlil qiladi, hukm yuritadi, hakamlilik etadi, nigohdan o'tkazadi, muhofaza aylaydi. Bir-birovini e'zozlab, madh qilgan ham udir, tahqirlab, qiynagan ham u. Rang, ohang, shodlik, tanazzul va taraqqiyot, fikr va xayol, umid va umidsizlik – hammasi inson olami. Inson ma'no va mohiyatdir. Jomiy ijodiyotida rang-barang shakllarda teran yoritilgan bosh haqiqat ham xuddi shu.

*Payi on rav, ki orifi ma'nist,
Mardi orif ba do'sty avlist.*

Nizomiy Ganjaviy hayoti va ijodiyoti dunyoning qator mamlakatlarida ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan, asarlaridan namunalar g'arb va sharqning turli tillariga tarjima qilingan. Nizomiyshunoslik ayniqsa XX asrda Ozarboyjonda, O'zbekistonda, Rossiyada, Eronda, Tojikistonda ancha taraqqiy topgan. Bu o'rinda Ye.E.Bertels, A.Hikmat, A.Mirzaev, A.Nasriddinov, A.Afsahzod, M.Rajabov, A.Sattorov, A.Guliev,

G.Alieva kabi rus, eron, tojik va ozar olimlarining tadqiqotlarini eslatib o'tish mumkin. Nizomiyshunoslik bo'yicha O'zbekistonda ham bir qancha xayrli ishlar amalga oshirilgan. Nizomiy Ganjaviy ijodiyoti taniqli olimlar P.Shamsiev, Sh.Shomuhamedov, N.Mallaev, A.Qayumov, N.Mallaev, B.Valixo'jaev, R.Vohidov, S.G'anieva, H.Homidiy, Sh.Sirojiddinov, I.Haqqulov, Jamol Kamol, H.Boltaboev, B.To'xliiev, N. Jabborov, I.Ismoilov va boshqalarning maqola va risolalarida Nizomiy ijodi turli rakurslardan tadqiq etilgan.

Hazrat Nizomiyning ma'no duru gavharlari bilan to'lib-toshgan ijod xazinasi bizga nechog'lik qadrli bo'lsa, uning Alisher Navoiyning Nizomiy Ganjaviy ijodiga e'tibori ehtiromlidir. Nizomiy va Navoiyga o'xshab dunyoqarashi – dunyoqarashiga, shaxsiyati – shaxsiyatiga, maslagi – maslagiga bog'lanib, ijodiyoti va mahorati o'zaro uyg'unlik kasb etgan ikki millat, ikki adabiyot vakili asarlarining g'oya va mundarijasi mushtarakdir. Shayx Nizomiy Ganjaviy merosini o'qib-o'rgansak, Navoiy asarlarining mohiyatini tushunish yanada oydinlashadi.

Nizomiy Ganjaviy ilmiy-adabiy merosi qadim-qadimdan o'zbek xalqini qiziqtirgan, o'qib-o'rganishga ishtiyoq uyg'otib kelgan. Mumtoz adabiyotda nom qozongan biror bir shoirimiz yo'qki, Nizomiy Ganjaviy she'riyat maktabidan saboq olmagan bo'lsin. Bu to'xtab qolmaydigan jarayon bo'lib, hamisha she'riyatning asosi va quvvati baland intilishidir.

O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA NIZOMIY GANJAVIY IJODINI O'RGANISH MASALASI

O'zbek adabiyotshunosligida Ilyos Nizomiy ijodini o'rganish²⁰ uzoq tarixga ega. Bu boradagi ishlar, dastlab, tarjima yo'sinida boshlangan bo'lib, Qutb XIV asr o'rtalarida Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostonini turkiy tilga o'girdi. XV asrda esa Haydar Xorazmiy "Maxzan ul-asror"ga javoban "Gulshan ul-asror" asarini yozdi. Keyingi ishlar adabiyotshunoslikka yaqin, ko'proq memuar xarakterda bo'ldi. Muratov adabiyotning o'ziga xos jihatlaridan biri shuki, aksariyat ijodkorlar bir paytda adabiyotshunos sifatida ham namoyon bo'ladi. Xususan, Alisher Navoiy "Xamsa" debochalarida Nizomiyga alohida boblar ajratadi, devonlari tarkibidagi ko'plab lirik asarlarda uni tilga oladi. Navoiyning mazkur yodnomalari vaf, madh va hurmat ifodasigina emas, Nizomiy ijodi haqidagi, umuman, badiiy ijod haqidagi adabiy qarashlar ifodasi, Nizomiy ijodiga berilgan badiiy-estetik baho ham edi. Navoiyga qadar biror o'zbek adibi yoki adabiyotshunosi Nizomiy "Xamsa"ga bu qadar kerig to'xtalgan emas. Shu bois Nizomiy beshligining o'zbek adabiyotida maxsus o'rganilishi masalasini Navoiydan boshlash to'g'ri bo'ladi.

Davlatshoh Samarqandiyning XV asrda yaratilgan "Tazkirat ush-shuaro"sida ham Nizomiyga maxsus bob ajratilgan bo'lib, unda shoir shaxsiyati, ijodining hajmi va salmog'i, "Panjganji"ni to'g'risida muxtasar ma'lumotlar beriladi. Masalan, Nizomiy "Xamsa"si xususida shunday yozadi: "Va dar ro'zgori shayx "Xamsa"-ro jam nakarda budand va har yak doston judo bud, to ba'd az vafoti shayx in kitobro dar yak jild jam kardand va fuzalo "Xamsa" nom nihodand" [Давлатшох 2015, 136]. XVIII asrda kelib "Xamsa" yozishni maqsad qilgan Nishotiy ham

²⁰ Bu haqda qarang: (Mazkur qism I. Ismoilov maqolasidan olindi). Nizomiy "Iskandarnoma"sining o'zbek adabiyotshunosligida o'rganilishi. T. 2020.

“Husn va Dil” dostonining IX bobida xamsanavislik an’anasiga muvofiq salafлари “Xisrav bila Shayx Nizomiy va Mir Kabir bila hazrati Jomiy”larning zikrini keltiradi [Нишотий 1967, 440]. XIX asrga kelib Muhammadrizo Ogahiy “Hafl paykar”ni nasriy yo’lda tarjima qildi. So’ng mutarjim Shoh Hijron “Qissayi Dorobi Zarrinkamar” asarida “Iqbolnoma”ning ixcham bayonini bergan bo’lsa, Nurmuhammad Buxoriy va Mulla Fozil Homushiyalar Nizomiy “Xamsa”sini sharhlash jarayonida “Iskandarnoma”ga batafsil to’xtab o’tganlar [Ганджавий 2009, 7]. Jadidlar davriga kelib Fitrat Nizomiy ijodining, xususan, “Xusrav va Shirin” dostonining sujeti va manbalariga e’tibor qaratdi [Фитрат 2000, 131-132].

O’ttizinchi yillar so’ngiga kelib Nizomiy tavalludiga 800 yil to’lishi munosabati bilan uning adabiy merosini o’rganish hamda ilmiy-nazariy asosda tadqiq etish ishlari O’zbekistonda ham jadallashdi. 1940-yillar atrofida qardosh respublikalarda bir nechta ilmiy tadqiqotlar yaratildi [Маллаев 2015, 3]. Biroq bu davrda jiddiy tadqiqot ko’zga tashlanmaydi.

1947-yili urush tufayli kechiktirilgan yubiley nishonlandi. Shu yili M. Shayxzoda so’zboshisi bilan “Guldasta” (“Panj ganj”dan parchalar) kitobi, 1948-yili esa V. Zohidovning “Dunyo adabiyotining nuroniy siymosi” risolasi chop etildi [Зохидов 1948, 62]. Bu adabiyotshunosligimizda Nizomiy ijodi haqidagi dastlabki maxsus risola edi. Shundan so’ng saksoninchi yillar boshiga qadar Nizomiy ijodiga oid keng qamrovli ishlar ko’rinmaydi. Ammo 1956-yili Moskvada o’zbek nizomiyshunosligiga bevosita aloqador bo’lgan Y. E. Bertelsning “Nizomiy” deb nomlangan monografiyasi e’lon qilindi [Бертелс 1956].

1982-yili Sh. Shomuhamedov shoir lirikasidan qilgan bir necha tarjimalarini jamlab “Nizomiy she’riyatidan” nomi ostida chop etdi [Низомий ше’риятдан 1982], mutarjim ayni shu yillarda Nizomiy she’rlari, “Maxzan ul-asror” va “Hafl paykar”dan qilgan tarjimalarini “Sharq klassiklari merosidan” turkumida ham nashr qildirdi. F. Sulaymonova 1985-yili

“Nizomiy “Xamsa”siga ishlangan rasmlar” nomli qo‘llanma tayyorladi. Va nihoyat, 1985 yilga kelib N. Mallayevning o‘zbek adabiyotshunosligida birinchilardan bo‘lib, Nizomiy hayoti va ijodi haqida nisbatan tugal ma’lumot beruvchi, ilmiy tahlil va kuzatishlarga boy “Nizomiy Ganjaviy merosi va uning ma’rifiy-tarbiyaviy ahamiyati” nomli tadqiqoti e’lon qilindi [Маллаев 1985]²¹.

F. Sulaymonova 1991-yil “Aql va tafakkur kuchi” nomli risolasida yana Nizomiy ijodi haqida maxsus to‘xtalib, X. Dehlaviy, A. Jomiyilar ijodi bilan qiyosan tahlil etdi [Сулаймонова 1991, 5-26]. 1994-yilda esa M. G‘anixonov “Nizomiy va Qutb “Xusrav va Shirin” dostonlarining qiyosiy tahlili” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi²². Shundan so‘ng 2002 va 2007 yillarda Nizomiy ijodiga bag‘ishlab Toshkentda o‘tkazilgan ilmiy anjuman materiallari to‘plam holida nashr etildi [Ганжалик даҳо 2002; Низомий ва ўзбек адабиёти 2007]. Akademik Aziz Qayumov ham “Haft paykar” xususida o‘z tadqiqotlarini e’lon qildi [Qayumov 2009]. Keyingi yillarda Olimjon Bo‘riyev Nizomiy “Panj ganj”ini, Jonibek Subhon esa “Iqbolnoma”ni o‘zbek tiliga tarjima qilgan bo‘lsa, 2019 yilda Jamol Kamol Nizomiy “Xamsa”si tarjimasini tamomladi. O‘zbek adabiyotshunosligida Nizomiy ijodini o‘rganish borasida qilingan ishlar faqat shulardan iborat emas, shoir ijodi haqida bulardan boshqa ishlar ham mavjud, ammo ularning aksariyati so‘zboshi, maqola va tezislardan iborat [Имомназаров 1991; 2013; Ҳомидий 1999; Ёркин 2012].

Ma’lum bo‘ldiki, adabiyotshunosligimizda Nizomiy ijodi borasida qilingan ishlar shoir merosining salmog‘i va ko‘lamiga

²¹ N. Mallayevning mazkur tadqiqoti 2015-yil qayta nashr etildi.

²² 1994 yili Samarqandda I. Salimovning “Alisher Navoiyning badiiy obraz yaratish mahorati” (“Saddi Iskandariy” misolida) mavzusidagi va 1996 yil Y. Azimovning “Abdurahmon Jomiy “Xiradnomayi Iskandariy” dostonining qiyosiy-tipologik tahlili” mavzusidagi nomzodlik ishlari yuzaga keldi. Har ikki ishda mavzu taqozosiga ko‘ra Nizomiy ijodiga murojaat qilingan bo‘lsa-da, shoir ijodining maxsus ilmiy tahlili kuzatilmaydi.

nisbatan yetarli emas. XI asr va undan keyingi davr turkiy adabiyotning rivoji, qonuniyatlari va o'ziga xosliklarini aniqlashda, xususan, o'zbek adabiyotida butun bir davrni tashkil etuvchi Navoiy merosi tadqiqida Nizomiy ijodi muhim o'rin tutar ekan, uning ijodini yanada chuqur tadqiq etish dolzarb bo'lib turaveradi.

Bu boradagi ishlarning zarurlaridan biri Nizomiy va Navoiy "Xamsa"larining qiyosiy tahlilidir. Adabiyotshunosligimiz bugunga qadar mazkur masalada ham muayyan natijalarga erishgan. Jumladan, M. Muslihiddinov to'rt xamsanavis – Nizomiy, Dexlaviy, Jomiy va Navoiy "Xamasa"larining ilk dostonlarini qiyosiy o'rgandi [Муслихиддинов 2005]. Tahlillar "Xayrat ul-abror", "Maxzan ul-asror", "Matla ul-anvor" va "Tuhfat ul-ahror" dostonlarida komil inson talqini va tasvirida har bir shoirga xos xususiy va mushtarak tomonlarni yoritishga qaratildi. S. Erkinov Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni va, umuman, Farhod obrazi mavjud bo'lgan asarlarning tarixi va shu silsilada Farhod qissasining Navoiyga xos talqini masalasini monografik yo'sinda tekshirdi [Эркинов 1971]. Tadqiqotda Sharq adabiyotida Navoiygacha yaratilgan "Xusrav va Shirin", "Farhodnoma" nomlari bilan mashhur bo'lgan asarlarni ko'zdan kechirish, o'rta asr Sharq adabiyotida Farhod qissasining paydo bo'lishi, qissaning genezisi hamda g'oyat murakkab rivojlanish bosqichlarini belgilash kabi masalalar yoritildi. Keyinchalik T. Ahmedov Navoiy "Xamsa"sining uchinchi dostoni "Layli va Majnun"ni qiyosiy o'rgandi [Ахмедов 1970]. Tadqiqotda "Layli va Majnun" haqida Navoiyga qadar turkiy tilda yaratilgan dostonlar, arab manbalaridagi rivoyatlar va fors-tojik tilida ijod qilingan asarlar, xususan, salaflarining shu mavzudagi dostonlari tahlil etilgan. "Layli va Majnun" to'g'risida bundan keyingi jiddiy ish sifatida S. Narzullayevaning "Sharq xalqlari adabiyoti tarixida "Layli va Majnun" mavzusi" nomli tadqiqotini eslash zarur [Нарзуллаева 1988].

Shundan keyin S. Hasanovning Navoiy “Sab’ayi sayyor” dostoni o’rganilgan tadqiqoti yuzaga keldi [Hasanov 1991]. Unda Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy, Navoiy, qisman Ashraf bahromnomalarining syujeti, kompozitsiyasi, Bahrom obrazining evolyutsiyasi, dostonlardagi hikoyatlar genezisi, ijodkorning badiiy mahorati masalalari tahlil qilingan²³.

Afsuski, Alisher Navoiy “Xamsa”sining so’nggi dostoni “Saddi Iskandariy” haqida bunday deb bo’lmaydi. Hozirga qadar Navoiyning ushbu dostoni Nizomiy “Iskandarnoma”si bilan qiyoslab o’rganilmagan. Qayd etish kerakki, 1996-yil Y. Azimovning “Abdurahmon Jomiy “Xiradnomayi Iskandariy” dostonining qiyosiy-tipologik tahlili” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida Jomiy va Navoiyning “Iskandarnoma”lari muqoyasa qilingan, o’rni bilan Nizomiy “Iskandarnoma”si ham tahlil etilgan. O’zbek adabiyotshunosligida mazkur dissertatsiyadan boshqa “Saddi Iskandariy” asosida amalga oshirilgan qiyosiy tahlilni bilmaymiz. Vaholanki, Navoiy dostonini nafaqat Jomiy “Hiradnoma”si, balki Nizomiy, Xusrav, Sheroziy, Ahmadiy va boshqa ko’plab shu mavzudagi Sharq va G’arbda yaratilgan asarlar bilan solishtirib o’rganish juda boy va qimmatli xulosalarga asos bo’ladi.

Masalaning yana bir jihati shuki, o’zbek adabiyotshunosligida Nizomiy “Iskandarnoma”si maxsus o’rganilgan emas. N. Mallayev o’z risolasidagina dostoniga maxsus o’rin ajratib, ancha batafsil tahlil etgan. V. Zohidovning risolasida esa, asosan, Nizomiyning “panteistik monizmi” yoki shoir ijodining ijtimoiy mohiyati haqida so’z yuritilgan, “Iskandarnoma” maxsus tahlil etilgan emas. Nizomiy “Iskandarnoma”si haqida adabiyotshunosligimizdagi boshqa qaydlar ham shu xarakterda bo’lib, aksariyat hollarda u yoki bu masala munosabati bilan tilga olinuvchi bir-ikki satrlik, ko’pi

²³ Mazkur tadqiqot bilan deyarli bir vaqtda B.Murtazoyevning “Alisher Navoiy “Sab’ayi sayyor” va Xusrav Dehlaviy “Hasht behisht” dostonlarining qiyosiy tahlili” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi ham himoya qilingan. Tadqiqotda Nizomiy ijodiga ham murojaat etilgan.

bilan yarim-bir sahifa atrofidagi umumiy fikrlardir. O‘zbek va ozar adabiy aloqalari tekshirilgan kam sonli ishlarda [Шарипов 1968], o‘zbek va fors-tojik adabiy aloqalarini maxsus tekshirgan E. Shodiyevning ishlarida Nizomiy va Navoiy ijodi borasida umumiy fikrlar ko‘zga tashlanadi, lekin “Iskandarnoma”lar xususida maxsus kuzatishlar uchramaydi [Шодиев 167; 1990; 1969; 1989]. O‘z davrida bunday tadqiqotlarga ehtiyoj bo‘lmagan bo‘lishi yoki qardosh va chet tillarda yoritilgan ishlar ilmiy jamoatchilikni qanoatlantirgan bo‘lishi mumkin. Ammo bugunga kelib bu masalalar ustida qaytadan bosh qotirish hamda mavhum yoki ataylab chetlab o‘tilgan jihatlariga diqqat qilib, kompleks tarzda obyektiv muqoyasa qilish davri yetdi.

Adabiyotshunosligimizda Nizomiy “Iskandarnoma”si to‘g‘risida maxsus tadqiqot mavjud bo‘lmasada, maxsus qarashlar bor. V. Zohidov risolasida “Iskandar Nizomiyning komil, ideal shohi, u dunyoni o‘z adolati bilan fath egan” [Зохидов 1948, 28] tarzida ko‘proq Nizomiy ijodining umumiy mazmuni haqida fikr yuritadi. N. Mallayev esa Nizomiy “Iskandarnoma”ni yozishda o‘z oldiga qanday vazifalarni qo‘ygani haqida shunday yozadi: “Nizomiy bu dostonida ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlarini yakunlash hamda adolatli va ma‘rifatparvar podshoning mukammal obrazini yaratish vazifasini qo‘yadi” [Маллаев 2015, 61]. Olim ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlarni yakunlash deganda avvalgi to‘rt dostonida ilgari surilgan qarashlarni nazarda tutadi, ya‘ni Nizomiy avvalgi dostonlarida bayon qilgan fikr-u mulohazalarini so‘nggi dostonda umumlashtiradi, qarashlariga xulosaviy mavqe va epik ko‘lam beradi. Shu sabab ham asari hajmi 10 000 baytdan oshgan edi.

N. Mallayev Iskandar obrazining yaratilish tarixi haqida so‘zlar ekan, Iskandarning vafotidan ko‘p o‘tmay hamkorlari Klitarx va Onesikrit biografiyasini yozib chiqqani va bu asosda Plutarxning (46 – 126) biografik asari yaratilganini to‘g‘ri qayd etadi. Keyinchalik Iskandar haqidagi gaplar tarixiy kitoblardan tashqari turli afsona va rivoyatlarning ham mavzusi bo‘la boshlaydi, aslida, Iskandarning askarlari u haqda rivoyatlar to‘qib

tarqatishgan va mana shu jarayonda tarixiy haqiqatga uydirmalar qo‘shilib ketgan, deydi olim. So‘ngra Iskandarning vrachi Kallisfenga nisbat beriluvchi roman yaratilgani va u ko‘pgina sharq tillariga, Yuliy Valeriyning lotincha tarjimasini orqali Yevropaga tarqalgani aytiladi. Sharqda bir muddat Iskandar haqida salbiy hukm saqlangan bo‘lsada, bu uzoqqa cho‘zilmaydi. Chunki tarixda Ahamoniylar yengilmas degan nom bilan shuhrat qozongan edi, Aleksandr Droni mag‘lub etgach bu fikr puchga chiqadi. Buni sezdirmaslik uchun fors tarixchilari Iskandarni ahamoniylar sulolasidan chiqqan hukmdor sifatida talqin qila boshlaydi. Masalan, “Xudoynamak”da shunday talqinlar mavjud bo‘lgan [Маллаев 1976, 492].

N. Mallayevning fikricha, bu qarashlar rivojlanib Firdavsiyning “Shohnoma”siga o‘tadi. Shu tariqa Iskandar Sharqda ijobiy obraz sifatida qayta nom topadi, “...bu obraz ayrim elementlari bilan tarixiy Iskandarga – Aleksandr Makedonskiyga o‘xshasa ham, lekin u tarixiy Iskandarning aynan o‘zi emas. Shu bilan birga, u og‘zaki va yozma adabiyotda yaratilgan Iskandar obrazining takrori ham emas” [Маллаев 2015, 66]. Albatta, Nizomiy Iskandari o‘ziga qadar yaratilgan qahramonlardan o‘sib chiqqan, ammo yangi ijodkorning maqsad va istaklarini singdirgan original obraz edi.

F. Sulaymonova esa o‘z risolasida Nizomiy “Iskandarnoma”sining yaratilishi va undan ko‘zlangan maqsad haqida shunday yozadi: “Iskandarnoma”ning real Aleksandr tarixiga hech qanday aloqasi yo‘q. Shoirning asosiy maqsadi ideal hokim, faylasuf-shoh, nabi-shoh, butun insoniyat uchun baxt-soadat izlagan donishmand obrazini yaratish edi [Сулаймонова 1991, 25]. Nazarimizda, olima shoir maqsadining ko‘pgina jihatlarini to‘g‘ri ta’kidlagani holda, nima uchundir Iskandar obrazining Aleksandr Makedonskiy shaxsiyati va tarixi bilan aloqador ekanligini inkor etadi. Bu borada Nizomiy muqaddimada to‘xtalib, Iskandarning nasabidan tortib butun jahongirliги afsona-yu rivoyatlarga qorishib ketgani va diqqat bilan yahudiy, nasroniy va pahlaviy tillaridagi manbalarni

o'rgangan va ularning qaysi birida haqiqatni ko'rgan bo'lsa, ana o'sha ma'lumotlarni asariga kiritgani, unga nazm yo'li bilan bezak berganini aytadi. Ya'ni Nizomiyning o'zi bosh qahramonining tarixi va haqiqati bilan jiddiy qiziqqan, shunday ekan, Iskandar obrazining Aleksandr Makedonskiyga bo'lgan aloqasini rad etib bo'lmaydi, aksincha o'zaro qiyoslab o'rganish masalaning ayrim jihatlarini tushinishda yordam beradi. Bizningcha, adabiyotshunos bunda Iskandarning obrazlik maqomini nazarda tutgan. Ta'kidlash kerakki, xorijlik sharqshunoslar tomonidan Aleksandr Makedonskiy va sharq adabiyoti masalalari keng o'rganilgan [Бертеле 1965; Кастюхин 1972; Гафуров... 1980; Алиев 1985].

Nizomiy merosining o'zbek adabiyotshunosligida o'rganilishi borasida yana shuni ham aytish mumkinki, O'zbekistonda Nizomiyning "Haft paykar" va "Xusrav va Shirin" dostonlari ko'proq o'rganilgan. Ammo so'nggi yillarda Nizomiy "Iskandarnoma"si bilan bog'liq ayrim tadqiqotlar yuzaga keldi. Masalan, 2019-yil I. Ismoilov Navoiyning "Saddi Iskandariy" va Nizomiyning "Iskandarnoma" dostonlarini komparativistik aspektda o'rganib, dissertatsiya himoya qildi. Xulosa shuki, Nizomiy "Iskandarnoma"sini maxsus tekshirish, ayniqsa, "Saddi Iskandariy" bilan qiyosiy aspektda yanada chuqurroq o'rganish Navoiy ijodi va bu orqali o'zbek adabiyoti tarixini yaxshiroq tasavvur qilish imkonini beradi.

FOYDALANILGANAN ADABIYOTLAR:

1. Алиев, Г. Ю. 1985. Темы и сюжеты Низами в литературах народов востока. Москва: Наука.
2. Ахмедов, Т. 1970. Алишер Навоийнинг "Лайли ва Мажнун" дostonи. Тошкент: Фан.
3. Бертельс, Е. Э. 1956. Низами. – Москва: Наука.
4. Бертельс, Е. Э. 1965. Роман об Александре и его главные версии на востоке. Избранные труды. Том 4. Москва: Наука.

5. Болтабоев, Ҳ. 2007. Низомий Ганжавий ижоди Фитрат талқинида. Илмий анжуман материаллари. Тошкент: Тошкент ислом университети.

6. Давлатшоҳи, Самарқандӣ. 2015. Тазкирату-ш-шуаро. Таҳияи Мухлиса Нуруллоева. – Хучанд: Ношир.

7. Эркинов, С. 1971. Навоий “Фарход ва Ширин”и ва унинг қиёсий таҳлили. Тошкент: Фан.

8. Фитрат, А. 2000. Фарход ва Ширин достони тўғрисида. Танланган асарлар. II жилд. Тошкент: Маънавият.

9. Гафуров, Б. Г., Цибукидис, Д. И. 1980. Александр Македонский и Восток. Москва: Наука.

10. Ганжавий, Низомий. 2009. Иқболнома. Ж. Субҳон таржимаси. Тошкент: ART FLEX.

Ганжалик даҳо 2002. Низомий номидаги ТДПУда ўтказилган илмий анжуман материаллари. Тошкент.

11. Ҳасанов, Б. 1991. Навоийнинг етти тухфаси. Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашрёт-матбаа бирлашмаси.

12. Ҳомидий, Ҳ. 1999. Кўхна Шарқ дарғалари. Тошкент: Шарқ.

13. Имомназаров, М. 2013. Мумтоз форс шеърияти. Тошкент.

14. Имомназаров, М. 1991. “Низомий Ганжавий”. Қишлоқ ҳақиқати газетаси, № 6.

15. Кастюхин, Е. А. 1972. Александр Македонский в литературной и фольклорной традиции. Москва: Наука.

16. Маллаев, Н. 2015. Низомий Ганжавий. Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашрети.

17. Маллаев, Н. 1976. Ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент: Ўқитувчи.

18. Муҳиддинов, М. 2005. Комил инсон – адабиёт идеали. Тошкент: Маънавият.

19. Нарзуллаева, С. 1988. Тема “Лейли и Меджнун” в истории литературы народов Советского Востока. Тошкент: Фан.

20. Низомий шеърятидан. Ш. Шомухамедов таржимаси. 1982. Тошкент: Ўзбекистон КП МК нашрети.

21. Низомий ва ўзбек адабиёти. 2007. Низомий номидаги ТДПУда ўтказилган илмий анжуман материаллари: ўзбекча ва форсча матнда. Тошкент: Тошкент ислом университети.

22. Нишотий. Хусн ва Дил. 1967. Нашрга тайёрловчилар Ҳ. Расул ва И. Ражабов. Тошкент: Гафур Гулом номидаги бадиий адабиёт нашрети.

23. Қаюмов, А. 2009. Асарлар. VIII жилд. Тошкент: MUMTOZ SO‘Z.

24. Сулаймонова, Ф. 1991. Ақл ва тафаккур кучи. Тошкент: Фан.

25. Ёркин, Муҳаммад Ҳалим. 2012. “Низомий Ганжавийнинг туркий девони”. Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 22 июн.

26. Зоҳидов, В. 1948. Дунё адабиётининг нуруний сиймоси. Тошкент: Ўздавнашр.

27. Шарипов, М. 1968. Навоий ва адабий алоқалар. Тошкент: Фан.

28. Шодиев, Э. 1967. Алишер Навоий ва унинг салафлари. Ленинобод.

29. Шодиев, Э. 1990. Алишер Навоийнинг форс-тожик тилидаги асарлари. Тошкент: Фан.

30. Шодиев, Э. 1969. Навоий ва ёш тожик адиблари. Тошкент: Ленинобод.

31. Шодиев, Э. 1989. Алишер Навоий ва форс-тожик адиблари. Тошкент: Ўқитувчи.

“MAXZANUL ASROR” DOSTONI HAQIDA

“Maxzan ul-asror” (“Sirlar xazinasi”) – Nizomiy “Xamsa”sining ilk dostoni bo‘lib, u hijriy 572 – milodiy 1175\76 yilda yozib tugallangan.²⁴ Bu haqda asar nihoyasida shoimning o‘zi shunday yozadi:

Etsam agar oy sanasin oshkor,
Kun yigirma to‘rtu avval bahor.

Yil esa hijratdin o‘tib ul zamon,
Besh yuzu yetmish iki erdi hamon.

“Maxzan ul-asror” mashhur mutasavvif adib Hakim Sanoiyning “Hadiqat ul-haqiqa” (“Haqiqat bog‘i”) dostoniga nazira tarzida bitilgan bo‘lsa-da, u kabi xafif bahrida emas, balki sare‘i musaddasi matviyi maqsur (mavquf) vazni (muftailun muftailun foilun (- V V - \ - V V - \ - V -)da yaratilgan bo‘lib, 2264 bayt (4528 misra)dan iborat. U ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ta‘limiy doston bo‘lib, so‘fiyona ruhdan xoli emas. Asar yagona syujet chizig‘iga ega emas. U 59 bob: 18 muqaddima, 20 maqolat va ularga ilova tarzida keltirilgan 20 hikoyat va xotimadan iborat. Ular: ikki munojot, Payg‘ambar vasfi, me‘roj ta‘rifi, to‘rt na‘t, Bahromshoh madhi, o‘zining ta‘zim adosidagi so‘zi, asarning maqomi va martabasi haqidagi fikri, so‘z fazilati bayoni, nazmning nasrdan afzalligi, ikki xilvat va ularning ikki samarasi, tungi ishrat xususida, yigirmatadan maqolat va hikoyat va xotima. Muqaddima qismlar garchi Sharq dostonchiligi an‘analariga ergashib yozilgan bo‘lsa-da, so‘z fazilati, nazm va nasr qiyosiga bag‘ishlangan boblar hamda ikki xilvatda muallifning dasturilamal xarakteridagi fikr va qarashlari ilgari surilgan. Maqolatlarda esa u insonning yaratilishi, hukmdorlik va adlu insof, dunyo hodisalari, shoh va xalq munosabati, keksalik va yoshlik, insoniylik fazilatları, yaratilish mohiyati, dunyoning

²⁴ Bu haqda qarang: Ochilov E.Ko‘ngil olamiga sayohat. Nizomiy Ganjaviy “Xamsa” asari, Bako-2021, 3-B.

bevafoligi, uning mazammati, tarkidunyo va tirikchilik tashvishlaridan najot topish, oxirzamon alomatlarini, gʻafolat tanqidi, hasadgoʻylar malomati, maslak yoʻlida sobitlik, ibodatu tajrid, munofiqnlarni yozgʻirish, oxirat bilan yuzlashish, zamon ahlining beadablighi kabi mavzularda bahs yuritadi. Shoir avval mavzuga oid oʻz fikru qarashlarini bayon etib, keyin soʻzlarining tasdigʻi uchun hikoyat keltiradi. Shu tariqa, muallif oʻquvchini oʻz sirlar xazinasiga “taklif etar ekan, uni jamiyat va inson hayotining biri oshkor, biri pinhon sirlari bilan yaqinroq tanishtirishni maqsad qilib qoʻyadi. Binobarin, “Maxzan ul-asror”ni shoirning hayotiy kuzatishlari asosidagi falsafiy, ijtimoiy va axloqiy qarashlarining badiiy majmuasi deyish mumkin”²⁵.

“Maxzan ul-asror” – Nizomiyning Alloh–Olam–Odam munosabatlari borasidagi koʻp yillik kuzatishlari va tafakkuri natijasida anglaganlari, hayot mohiyati va inson umrining mazmunini xususida oʻylaganlari, ideal jamiyat va komil inson haqida istaganlarining badiiy obraz va timsollar vositasidagi nazriy talqinidir.

Inson–hayot–jamiyat haqidagi qarashlari darj etilgan koʻngil daftaridir.

Ayni jihatdan, “Maxzan ul-asror” – shoirning oʻziga xos hayotnomasi, avlodlarga esa yoʻriqnomasidir.

Dunyoning barcha donishmandlari kabi, Nizomiy ham dunyoning mohiyati, hayotning mazmuni, insonning jamiyatdagi oʻrni, turli insoniy fazilat va illatlar kabi azaliy va abadiy muammolar qiziqtirgan, qiynagan, tafakkur ummoniga choʻmdirgan. Ayni hayotiy masalalar, odamlararo munosabatlar, inson xilqatining turfa tuslanishu turlanishlari toʻgʻrisidagi qarashlarini turli mavzularga ajratib, doston tuzilishini shakllantiradi. Diqqat qilinsa, adolatli jamiyat, odil hukmdor, komil inson tushunchalari shoir qarashlarining markazida turadi. Bu yoʻlda asosiy toʻsiq boʻlgan dunyo va insoniy illatlar tanqidi dostonida muhim oʻrin tutadi. Asarda asosiy eʼtibor dunyo

²⁵ Эркинов С., Ганихонов М. Низомий Ганжавий. – Тошкент: “Фан”, 1992. 20-бет.

mazammati va insoniy illatlar tanqidiga yo'naltirilganligi bejiz emas. Yigirma maqolatdan beshtasi, ya'ni to'rtidan biri dunyoga bag'ishlangani bejiz emas: "Dunyo hodisalari xususida" (3-maqolat), "Dunyo tashvishlaridan qutulish bayonida" (9-maqolat), "Dunyoning bevafoqligi bayonida" (11-maqolat), "Tuproq manzili bo'lmish dunyoga vido aytish" (12-maqolat), "Dunyoga ta'na-malomat yog'dirish" (13-maqolat). Insonning yaratilishi, tabiati, fazilat va illatlari bilan esa o'n uch maqolat – asarning teng yarmi bog'liq deyish mumkin: "Odam Atoning yaratilishi xususida" (1-maqolat), "Keksalik vafida" (5-maqolat), "Mavjudot e'tibori bayonida" (6-maqolat), "Odamiylikning butun xilqatlardan ustunligi" (7-maqolat), "Yaratilish bayonida" (8-maqolat), "Oxirzamon alomatlari bayonida" (10-maqolat), "G'aflatga malomat yog'dirish" (14-maqolat), "Hasadgo'ylarga malomat yog'dirish" (15-maqolat), "Maslak yo'lida jadal olg'a bosish bayonida" (16-maqolat), "Ibodatu tajrid bayonida" (17-maqolat), "Munofiqlarga malomat yog'dirish" (18-maqolat), "Oxirat ila yuzlashuv bayonida" (19-maqola), "Zamondoshlarning beadabligi bayonida" (20-maqolat). Aslida qolgan barcha boblar ham u yoki bu darajada inson bilan bog'liq. Shoh-xalq-jamiyat-adolat masalalari ham dostonning tayanch qismlaridan hisoblanadi: "Insof, adolat himoyasida shohga pandu nasihat" (2-maqolat), "Podshoning raiyatga husni rioyati bayonida" (4-maqolat). Lekin "Noumid podsho va uni Alloh afv etgani hikoyati" (1-maqolat), "Sulaymon va dehqon hikoyati" (3-maqolat), "Faridun va ohu hikoyati" (7-maqolat), "Zolim podsho va rostgo'y kishi hikoyati" (14-maqolat), "Yosh shahzoda va uning keksa dushmanlari hikoyati" (15-maqolat), "Jamshid va uning xos mahrami hikoyati" (18-maqolat), "Horun ar-Rashid va sartarosh hikoyati" (19-maqolat) kabi hikoyatlar boshqa maqolatlar ham ayni mavzudan ayri emasligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, muqaddima boblar hamda "Odam Atoning yaratilishi xususida" (1-maqolat), "Yaratilish bayonida" (8-maqolat), "Oxirzamon alomatlari bayonida" (10-maqolat), "Ibodatu tajrid bayonida" (17-maqolat), "Oxirat ila yuzlashuv

bayonida” (19-maqolat) va dunyo bilan bog‘liq maqolatlar, “Noumid podshoh va uni Alloh afv etgani hikoyati” (1-maqolat), “Tavbabezir zohid hikoyati” (9-maqolat), “Iso alayhissalom hikoyati” (10-maqolat), “Sohibnazar mo‘bad hikoyati” (11-maqolat), “Hoji va so‘fiy hikoyati” (13-maqolat), “Pir va murid hikoyati” (17-maqolat) kabi hikoyatlar asarning diniy-tasavvufiy asoslari ham mustahkamligidan dalolat beradi. “Nizomiy hayotda nima muqaddasu nima fahsh, inson nima uchun intilmog‘i, nimani rad qilmog‘i kerak degan savollarni o‘rtaga qo‘yar ekan, bu savollarga javob berishda Qur‘on suralariga murojaat qiladi, hadislarni asos qilib oladi, o‘zining uzoq yillik hayotiy kuzatishlaridan kelib chiqadi”²⁶.

Jaloliddin Rumiyning 6 kitobdan iborat “Masnaviyi ma‘naviy” nomli muazzam asari, Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr”, “Ilohiynoma”, “Asrornoma”, “Ushturnoma”, “Bulbulnoma”, “Pandnoma”, Hakim Sanoiyning “Sayr ul-ibod”, Mahmud Shabustariyning “Gulshani roz” singari forsiy so‘z san‘ati durdonalari tarjimasida qalami qayralib, malaka va tajriba hosil qilgan, mumtoz adabiyotning mohir tarjimoniga aylangan O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol “Maxzan ul-asror”ni ham o‘zi yaratilgan sare‘i musaddasi matviyi maqsur (mavquf) vaznining ayni o‘zi bilan tarjima qilib, tarjimada shakl va mazmun birligiga erishgan. Chunonchi:

Beh, ki suxan \ derpisan- \ d-ovari,
 To suxan az da-ast balan- d-ovari.
 – V V – \ – V V – \ – V –
 Yaxshi erur \ so‘zni pisan- \ d aylasang,
 So‘-o‘z maqo- \ mini balan- \ d aylasang.
 muftailun \ muftailun \ foilun

Bizda o‘tmish shoirlari asarlarini aruzda tarjima qilish talab etiladi. Chunki biz aruzdan butkul uzilib ketganimiz yo‘q. Binobarin, J.Kamolning asarni o‘z an‘anaviy vaznida tarjima qilishi o‘zini oqlagan. Ayni paytda, dostonni o‘z vaznida tarjima

²⁶ Эркинов С., Ганихонов М. Низомий Ганжавий. – Тошкент: “Фан”, 1992. 21-бет.

qilish mutarjimga muammo tug'dirmaganidek, uni o'z vazniga solib o'qish o'quvchiga ham qiyinchilik tug'dirmaydi. Chunki bu vazn ohang jihatidan 4x4x3 turoqli 11 hijoli barmoq vazniga yaqin va uni ayni vaznga solib o'qish mumkin:

4 4 3
Ahli qalam \ cheksa-da so'z \ ranjini,
So'zda ochur \ ikki jahon \ ganjini.

Badiiy tarjimada so'zlarni emas, balki ular qatida yashiringan ma'noni tarjima qilish muhim hisoblanadi. Lekin bu talab so'zma-so'z tarjimaning ahamiyatini butunlay inkor etmaydi. Matn inkon bergan o'rinda so'zma-so'z tarjima ham kerak, ba'zida hatto zarur ham. Chunki so'zma-so'z tarjima imkoniyati mavjud bo'lgan holda so'zni aylantirishga, aniq-tiniq anglashilib turgan ma'noni mavhumlashtirishga hojat yo'q. Xususan, yaqin va lug'at tarkibida umumiylik ko'p tillardan tarjimada bu imkoniyatdan samarali foydalanish kerak.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tarjimashunoslikdagi yaqin va uzoq tillar tushunchasi tilshunoslikdagi ayni tushunchadan farqlanadi. Agar tilshunoslikda bir oilaga mansub tillar yaqin yoki qardosh, boshqa-boshqa oilaga mansub tillar esa uzoq tillar hisoblansa, tarjimashunoslikda tillarning uzoq-yaqinligi ulardagi leksik jihatdan umumiylikning ko'p yoki ozligiga ko'ra belgilanadi. Chunki "qanday tildan bo'lmasin, badiiy asar tarjimasida original lingvistik xususiyatlarining asosiy omili sifatida leksika maydonga chiqadi"²⁷. Bu bejiz emas. Negaki, adabiyot so'z san'ati, badiiy matnning asosida esa so'z yotadi.

Ma'lumki, o'zbek tili turkiy, tojik tili esa eroniy tillar oilasiga mansub. Boshqa-boshqa oilalarga mansubligi jihatidan ular o'zaro uzoq tillar hisoblanadi. Lekin asrlar mobaynida bir jug'rofiy hududda yonma-yon yashab kelganlari, bir xil iqtisodiy-ijtimoiy muhitda rivojlanganlari, xo'jalik yuritish va turmush tarzidagi umumiyliklar, tarixi, dini, ruhiyati va madaniyatidagi

²⁷ Исомиддинов З. "Алдоқчи сўзлар" билан баҳс // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). 5-китоб. — Тошкент: Гафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. 154-бет.

mushtarakliklar, adabiyot va san'atining yagona an'analar asosida taraqqiy etgani bu ikki xalqning tili mutlaqo boshqa-boshqa oilalarga mansubligiga qaramay, ularda har tomonlama uyg'unlikning yuzaga kelishiga, leksik jihatdan umumiylikning paydo bo'lishiga olib kelgan. J.Kamol forsiy til bergan bu imkoniyatdan o'z tarjimalarida samarali foydalanadi: o'z o'rnida so'zma-so'z tarjima qiladi, o'z o'rnida ijodiy. Jumladan, quyidagi baytni so'zma-so'z tarjimaning yorqin va go'zal namunasi deyish mumkin:

Har ki rahe raft, nishone bidod,
Har ki bade kard, zamone bidod.

Kimki yurar yo'lga nishon bergusi,
Kimki yomon erdi, tovon bergusi.

Birinchi misra tarjimasi so'zma-so'z asliyatga muvofiq. Ikkinchi misra tarjimasida esa "zamon" so'zi "tovan" bilan almashtirilgan. Bunda "Yomonlik qilgan shu zamonning o'zida jazosini oladi" degan fikr qofiya talabi bilan "Yomon kishi yomonligining tovonini to'laydi" tarzida biroz o'zgartirib tarjima qilinganki, bu ham aslida "Yomon kishi jazosini oladi" degan hikmatning ayni o'zidir.

Quyidagi bayt tarjimasi xususida ham shunday deyish mumkin:

Tan chi shinosad, ki turo yor kist,
Dil buvad ogah, ki vafodor kist.

Tan sira bilgaymi, senga yor kim?
Dil o'zi ogoh – vafodor kim?

Bu yerda birinchi misradagi "Tan qaerdan biladi?" degan jumla "Tan sira bilgaymi?" deb olingani bilan bu ikki ibora ma'no jihatidan o'zaro mushtarakdir.

Tarjimon faqat asliyat mazmunini berishnigina emas, balki uning badiiy go'zalligini ham qayta yaratishni, asarning ta'sir kuchini ham saqlab qolishni va tarjimaning ham asliyat kabi jaranglab chiqishi, boshqa zaminda gullab meva bergan nihol

kabi o'zga tilda ham asliy tarovatini ko'z-ko'z qilishi, tarjima o'quvchisining ham shuurini to'liqlantirib, ko'nglidan joy olishiga erishishi kerakki, bunga faqat katta mahorat bilan amalga oshirilgan ijodiy tarjima orqali yetishiladi. Jamol Kamol o'z tarjimalarida bunga astoydil harakat qiladi. Quyidagi bayt tarjimasi buning yorqin namunasi:

Huqqa purovoz ba yak dur buvad,
Gung shavad chun shikamash pur buvad.

Baytning mazmuni: "Ichida birgina dur bo'lgan sadafning ovozi olamni buzadi. Holbuki, qorni durga to'lsa, u gungga aylanadi". Bu "Bo'sh idishning ovozi baland chiqadi, ichi to'la bo'lsa, xomush tortadi" degan xalq maqoliga o'xshash hikmatli so'zdir. Tarjimon o'zbek tilidagi nafis she'riyat tili uchun bir qadar qo'pol tuyulgan "qorin" va "gung" so'zlaridan voz kechib, bayt mazmunini sof o'zbekcha va go'zal ifodalar vositasida qayta shakllantiradi. Natijada chinakam o'zbekona tarjima dunyoga keladi:

Huqqada bir dur esa, solgay nido,
Dur ila liq to'lsa, chiqarmas sado.

Badiiy tarjimaning antinomiyalaridan biri shundaki, tarjimon matnga qanchalik yopishib olsa, uni so'zma-so'z tarjima qilishga urinsa, asliyatdan shunchalik uzoqlashadi, aksincha, matndan bir qadar chekinib, unga ijodiy yondashsa, muallifning so'zini emas, fikrini uqishga, asarning zohiriy ma'nosini emas, balki botiniy mazmunini aks ettirishga intilsa, asliyatga shuncha yaqinlashadi, go'zal va mukammal tarjima yaratadi. Chunonchi:

Quvvati ko'he zi g'ubore maxoh,
Otashi dege zi sharore maxoh.

Baytning mazmuni: "Changdan tog' kuchini, uchqundan o'choq o'tini tilarna" bo'lib, tarjimon ijodiy yondashuv asosida ritorik so'roq san'atini qo'llash bilan ma'noning ham bir parda baland va bir qadar ta'sirchan, ham o'zbek tilida jaranglab chiqishini ta'minlagan:

Quvvati tog' qayda, g'ubor qaydadir?
Qayda o'choq o'ti, sharor qaydadir?

Tarjimashunoslikda kompensatsiya degan tushuncha mavjud. Bu tarjimonning tarjima jarayonida qurbon berilgan bir tilga xos bo‘lib, ikkinchi tilga ko‘chirish qiyin bo‘lgan ko‘p ma’noli so‘z, ibora yoki badiiy san’atlarning o‘mini boshqa biror vosita bilan to‘ldirishga urinishi, boshqacha aytganda, tovon to‘lashi. Jumladan, quyidagi baytning mazmuni: “Sitam tilini cho‘zib, uyim eshigini o‘z muhri bilan bog‘ladi” bo‘lib, asliyatda konkret ifodalangan obrazli bu iborani o‘zbek tilida ifodalashga qiynalgan tarjimon uni umumlashtirib oladi, lekin buning evaziga ikki karra tovon to‘lagan: ham qoyilmaqom o‘zbekcha ifoda topgan, ham tarse’ san’atini qo‘llagan va tarjimaning muvaffaqiyatini ta’minlagan:

Dar sitamobodi zabonam nihod,
Mo‘hri sitam bar dari xonam nihod.

Qahru itob etdi yana qanchalar,
Ranju azob etdi yana qanchalar.

Jamol Kamolning tarjimon sifatidagi ibratli fazilati, uning tarjimalariga xos eng muhim xususiyat bu – ularning asliyatga shakl va mazmun jihatidan har tomonlama muvofiq bo‘lish barobarida, o‘zbek tilida xuddi original asar singari shirali til, ravon uslub va jozib ohangda jaranglab chiqishidan iborat.

“Maxzan ul-asror”dan mutafakkir shoirning ko‘p yillik hayotiy kuzatishlari, teran tafakkuri mahsuli bo‘lgan har biri xalq maqollariday jaranglovchi qator hikmatli so‘zlari ham o‘rin olganki, J.Kamol ularni ham qiyomiga yetkazib tarjima qilgan. Masalan:

Do‘stii har ki turo ravshan ast,
Chun dilat inkor kunad, dushman ast.

Kim u asl do‘st, senga ravshan erur,
Tortmasa ko‘ngling, o‘sha dushman erur.

O‘zbek tilida jaranglab chiqqan shoirning quyidagi hikmatli misralari ham o‘quvchilar ko‘nglidan joy olishi shubhasiz:

Mayni sen ichguvchi, zaharda ne ayb?
Aybni sen etguvchi, dahrda ne ayb?

* * *

Qoida-qonunga yo'q ersa qaror,
Baski buzilgaydi tamom ro'zgor.

* * *

Dushmani donoying etar qasdi jon,
Do'st go'lu nodon esa, andin yomon.

Albatta, tarjima qator kamchiliklardan ham xoli emas. Jumladan, J.Kamol tarjimalari uchun xos bo'lgan ikki kamchilikni ayni tarjimada ham ko'ramiz: biri – arxaik so'zlarni suiiste'mol qilish bo'lsa, ikkinchisi – qofiya borasidagi e'tiborsizligi. To'g'ri, u qator tushunarsiz arabiy-forsiy so'z va iboralarga matn osti havolasida izoh beradi. Lekin izohsiz qolgan bunday so'z va iboralar ham oz emas. Shu bilan birga, ba'zi misra va baytlarni tarjimasiz aynan qoldirib, matn osti havolasida ularga izoh beradi.

She'ning butun badiiy go'zalligi, tarovati, jarangi, ta'sirchanligi qofiya bilan. "Maxzan ul-asror" tarjimasida Jamol Kamol ko'plab pishiq-puxta, go'zal, ta'sirchan va ohorli qofiyalarni mahorat bilan topib qo'llagan: *qolmamish - lol emish, kamar - ko'rsalar, atay - jilmagay* kabilar shular jumlasidandir. Tabiiyki, bunday katta dostonni boshdan-oyoq to'q qofiyalar bilan tarjima qilish qiyin. Ming yillar davomida sayqal topgan bu she'riyatda ohorli qofiya topishning o'zi bo'lmaydi. Shuning uchunmi, tarjimon ko'plab baytlarni och qofiyalar bilan o'zbekchalashtiradi. E'tirof etish kerakki, och qofiyalar borasida ham tarjimon ancha mahorat ko'rsatgan. Bu ham o'ziga xos kashfiyot, bu ham adabiyotni boyitadi. Zero, siyqasi chiqqan to'q qofiyalardan ko'ra, ohorli och qofiya quloqqa yoqimli eshitiladi. Chunonchi, quyidagi och qofiyalar faqat Jamol Kamol tomonidan topib qo'llangan bo'lib, bu mutarjimning poetik kashfiyotlaridir: *mushtariy - singari, alif -*

raqib, quruq – guruh, omadi – qolmadi, maskani – kimsani, ufladi – uxladi, saxiy – gahi, dardingdanam – makringdanam, aybingga – aftingga, xullasi – sufrasi, taraf – atab, anharin – avvalin, hamon – tamom, paxtasi – pardasi, bo‘lماغay – qo‘llagay, pardani – davrani, g‘alvasin – qolmasin, sayrashar – aylashar, kimsamiz – hissamiz va hokazo.

Xalq ichida quloq qofiya degan tushuncha mavjud. Bu qofiyadosh bo‘lmasa-da, so‘zlarning ohangi va oxirgi harflariga ko‘ra o‘ziga xos uyg‘unlik kasb etishidir. Yozuvda ular aniq-tiniq farqlansa-da, talaffuzda qofiyadosh so‘zlarga o‘xshab eshitiladi. J.Kamol o‘z tarjimalarida ana shunday ovoz va ohangiga ko‘ra muayyan uyg‘unlik kasb etib, o‘zaro jarangdosh so‘zlarday eshitiladigan quloq qofiyalardan ham ko‘p foydalanadi. Ularga misol sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin: *eskidir – so‘z degil, kulchasi – parchasi, esa – necha, nargisi – olgusi, etmaging – to‘kmaging, izin – zug‘um, aslida – ustiga, qoplaron – za‘faron, kamarbasta – ermasdi, ko‘rmadik – buyuk, sabab – qavat, ishlarim – muztar edim, bandadir – xilvatdadir, kelmayin – o‘ylagin, diydadin – novdadin, ko‘ksidin – og‘zidin, kulgisi – kuychisi, orommidir – nomingdir ul, pardani – xirqani, fuzundin – o‘zimdin, kechqurun – o‘spirin va boshqalar.*

Biroq, barcha baytlar ham ana shunday to‘q va och qofiyalar bilan muvaffaqiyatli tarjima qilinmagan – tarjimon ko‘pincha mazmunga asosiy e‘tiborni qaratib, qofiyani nazardan qochiradi. Jumladan, quyidagi kabi so‘zlarni o‘zaro qofiya deb bo‘lmaydi: *hay – yasha, xushnudliging – o‘txo‘rliging, poyloqchilar – amal, qartayib – qiyin, jon – ham, aftoda – toza, tushirmoq – ko‘tarmoq, uyal – qadar, g‘am – baland, hama – ila, sabr – nafs, kamarband – muzayyan, ustiga – og‘ziga, galma-gal – keldilar, erdiki – bilakuzugi, parvonalar – tutdilar, olar – go‘zal, xun – to‘kmadim, sari – solgani, mahal – bexabar, mayparast – gavharfishon, mudom – bog‘bon, boshingdin – eshakdin, oldin – hozir, dildin – adamdin va boshqalar.* Bizningcha, bunday so‘zlar juftligi bilan

tugagan baytlarni qofiyasiz o'g'irilgan deyish mumkin. Bundan tarjimonning, Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda: "Qofiya ehtiyotig'a muqayyad emas"ligi²⁸ ma'lum bo'ladi. Holbuki, Sharq she'riyatida qofiyaga shunchalik katta e'tibor berilganki, hatto qofiya ilmi alohida fan tarmog'i sifatida rivojlangan.

Nizomiyning "Maxzan ul-asror" dostonini o'quvchi zamonaviy asar sifatida emas, balki mumtoz adabiyot namunasi kabi qabul qiladi va bu mantiqan to'g'ri ham. Zero, Nizomiyning o'tmish shoiri ekanligini esdan chiqarmaylik-da. Tarjimada qo'llanilgan ko'plab forsiy-arabiy so'zlarni esa Navoiy va Bobur merosxo'rlari bo'lgan xalqqa notanish deyish o'zimizni kamsitishdan boshqa narsa emas. Shuningdek, forsiy so'z va iboralarni ba'zan qofiya va vazn ham talab qilishini xotirdan faromush etmagan ma'qul.

Ustoz tarjimashunos G'.Salomov shunday yozadilar: "Bizda ko'p hollarda til lug'atining arxaik qatlamini qandaydir keraksiz, ba'zan hatto "zararli", ortiqcha narsa deb ham qaraladi. Vaholanki, bu tamomila to'g'ri emas. Arxaik so'zlar, V.G.Belinskiy ta'biri bilan aytganda, "haqiqiy, bebaho xazinadir". Chunki ular vositasida lug'atning ko'p ma'nolik xususiyati oshadi hamda maxsus she'riy ma'no va lisoniy muhit yaratish uchun katta imkoniyat yuzaga keladi".

Biz hali mumtoz so'z san'atidan butunlay uzilib ketganimiz yo'q. Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Fuzuliy, Ogahiy, Muqimiy, Furqat kabi shoirlar asarlarini xalqimiz sevib o'qiydi, ular maktablar va oliy o'quv yurtlari dasturiga kiritilgan. Binobarin, mumtoz adabiyotdan bahramand o'quvchilarda ma'lum darajada "arxaik" so'z jamg'armasi bo'ladi. Qolaversa, til nafaqat yangi qabul qilingan so'zlar, balki iste'moldan chiqib ketgan ba'zi so'zlarga qayta hayot bag'ishlash hisobiga ham boyishi shubhasiz. Tarjima jarayonida buni hisobga olish kerak. Mumtoz shoirlarni tarjimada o'ta zamonaviylashtirish ham o'zini oqlamaydi: ularni o'tmishdan butunlay ajratib olmagan holda,

²⁸ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик. 13-жилд.—Тошкент: "Фан", 1997. 63-бет.

zamonaviy tarjima qilish kerak. Ya'ni, ularning asarlari tarjimasini zamonaviy o'quvchi tushunsin, ayni paytda, qaysidir darajada an'anaviy unsurlar ham aks etib, bu asarlarning zamonaviy emas, balki mumtoz adabiyot namunasi ekanligini eslatib tursin. O'tmish adabiyot ruhida tarbiya topgan, Sharq mumtoz so'z san'atini yaxshi bilgan, qadim turkiy, arabiy va forsiy so'z zaxirasi boy mutarjim bu borada *oltin o'rtaliqu*ni topa olgan: o'z tarjimasida o'rni-o'rni bilan arxaik so'zlardan mahorat bilan foydalanib, tarjimaning badiiy jozibasini va estetik ta'sir quvvatini yanada oshirgan. Natijada o'zbek o'quvchisi Nizomiy dostonini bir vaqtning o'zida ham mumtoz, ham zamonaviy so'z san'ati namunasi sifatida qabul qiladi.

Bundan tashqari, tarjimada vazniy saktaliklar va ma'no bilan bog'liq xato-nuqsonlar ham oz emas. Lekin ko'rsatib o'tilgan qusurlar tarjimaning umumiy muvaffaqiyatiga soya solmaydi. Eng muhimi, jahon so'z san'ati durdona asarlaridan yana birining o'zbek tilida jaranglaganiyu milliy adabiyotimiz xazinasining navbatdagi oltin yombi bilan boyigani.

Tabiiyki, tarjimaning yutuqlari haqida ham, qusurlari haqida ham muxtasar bir so'zboshi doirasida batafsil fikr yuritishning imkoni yo'q. Kelgusida nafaqat "Maxzan ul-asror", balki umuman Nizomiy "Xamsa"sining barcha dostonlari tarjimalari va ularning Qutb Xorazmiy, Ogahiy, Jamol Kamol, Olimjon Bo'riev, Jonibek Suvonqulov va boshqa tarjimonlar tomonidan amalga oshirilgan barcha tarjima nusxalari va ularning qiyosiy tahlili bo'yicha bir necha yirik tadqiqotlar olib borilishi shubhasiz.

Nizomiy "Xamsa"si nafaqat ozar yoki Sharq adabiyoti, balki jahon so'z san'atining ham durdona asarlaridan biri hisoblanadi. Navoiy bobomiz sevib o'qigan, ta'sirlangan va tatabbu bog'lagan bu asarni uning vorislari bo'lmish o'zbek o'quvchilari ham ko'p yillardan buyon o'z tillarida maza qilib o'qishni orzu qilib kelar edilar. Lekin tor doiradagi mutaxassislargina tadqiqot olib borish taqozosi o'laroq uni asliyatda mutolaa qilganlar. Mustaqillik yillarida "Xamsa"

tarjimasi borasida sa'y-harakatlar boshlanib, taniqli tarjimon Olimjon Bo'riev avval "Layli va Majnun" va "Xusrav va Shirin", keyin esa "Maxzan ul-asror", Jonibek Suvonqulov esa "Iqbolnoma" dostonlarini o'zbek tiliga o'girdilar. Lekin adadi kamligidan bu tarjimalardan shoir muxlislarining ko'pchiligi bahramand bo'lganlari yo'q. Nihoyat Ozarbayjon Madaniyat markazi tashabbusi bilan O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol bu muazzam asarning to'liq tarjimasiga qo'l urdi. Umid qilamizki, o'z an'anaviy vaznida tarjima qilinib, shakl va mazmun birligi saqlangan bu tarjimalar katta adadlarda chop etilib, keng o'quvchilar ommasi qo'liga yetib boradi.

Jahon so'z san'atining durdona asarlariga har bir zamonning o'z talabi, har bir avlodning o'z ehtiyoji bo'ladi. Bu – yangi tarjimalarga yo'l ochadi. G.Salomov va Z.Isomiddinovlarning yozishlaricha, "tarjima paydo bo'lgan davrdan boshlab qayta tarjimaga ehtiyoj kelib chiqqan". Hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda mashhur asarlarning bir necha tarjimalari mavjud va bu hodisaga tabiiy hol sifatida qaraladi. Bunda, birinchidan, har bir tarjima asarning yangi qirrasini ochadi, o'zgacha talqinini vujudga keltiradi. Ikkinchidan, o'quvchi bu tarjimalar ichidan didiga qarab o'ziga yoqqanini tanlab o'qiydi. Uchinchidan, bu tarjimalarni asliyatga qiyoslash orqali ulardan qaysi birining asliyatga ko'proq muvofiqligi, tarjimonlarning mahorat darajalarini ham aniqlash mumkin bo'ladi. Binobarin, ushbu tarjima ham ulug' "Nizomiy panjasiga urilgan yana bir panja", "Maxzan ul-asror" qatida yashiringan ma'no qirralarini ochish, asarning yangi talqinini vujudga keltirish yo'lidagi navbatdagi urinishdir.

Shu bois ma'naviyatga tashna har bir inson bu chashmaga intiladi o'z imkoniyati va ehtiyojiga yarasha undan bahramand bo'lishga harakat qiladi. "Xamsa"dan har bir kitobxon nimanidir olgisi keladi. "Xamsa"ning turli davrlarda amalga oshirilgan turli shakllardagi nasriy talqinlari, xalqona ko'rinishdagi muqobillari aslida ana shu intilish hosilasi o'laroq paydo bo'lgan. Ular Nizomiy merosi muxlisleri tomonidan shoir an'analari, asarlarini

muayyan toifa o'quvchilari o'rtasida targ'ib va tadqiq etish, ommalashtirish kabi maqsadlarda amalga oshirilgan. Zero, bu mislsiz ulkan obidaning har tomonlama tadqiq etilishi, unga turli jihatlaridan yondashuvlar, turli toifalar uchun mo'ljallangan xilma-xil talqinlarini amalga oshirish badiiy adabiyotga hukumat miqyosida e'tibor kuchaygan bugungi davrda yanada muhimroqdir. Bugun Nizomiy ijodi, uning dunyoqarashiga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi, nihoyat uning ijodini bor bo'y-basti bilan haqqoniy tadqiq etish imkoniyati tug'ildi. "Xamsa" asliyatida turli davrlarda amalga oshirilgan talqinlarning har birida o'z davri talab va ehtiyojlari o'z aksini topgan. Shu bilan birga ularda boshlangan "Xamsa"ni tarjima qilish, nasriy bayonlarini yaratishning tadrijiy rivojlanish bosqichlari hama ko'zga tashlanadi. Ya'ni nasriy ifodalar borgan sari takomillashib, asliyatga yaqinlashib borgan. Biroq hech qanday hatto, eng yuksak saviyada amalga oshirilgan talqin ham asliyat o'mini bosolmaydi. Balki, asliyat asosida yaratilgan har qanday talqin yoki asar asliyatning u yoki bu xususiyatini o'zida aks ettiradigan uning xilma-xil talqinlari, 85 interperetatsiyalaridan biri bo'la oladi, xolos. Nizomiy uchun majozdan maqsad – haqiqat, majoz haqiqat uchun bir ko'prikdir, tafsilotlar asl muddaoni bildirishda bir vosita, xolos. Barcha talqinlar asliyatni xalqqa soddalashtirib tushuntirish, ommalashtirish jihatidan amalga oshirilgan. Falsafiy asarlar xalqona kitoblarga aylantirilgan. Biroq Nizomiy tutgan mavqeni, uning barcha g'oyalarini ommalashtirib, soddalashtirib bo'lmaydi. Sobiq sovet tuzumi davrida nizomiyshunoslikka bir qadar yutuqlar qo'lga kiritildi, albatta. Biroq bu ishlarda mafkuraviy mahdudliklar bor edi. Bu esa Nizomiyini idrok etishimizda ongimizda yana sun'iy to'siqlar paydo qildi, zohiran bu amallar bizni asliyatga ancha yaqinlashtirgan bo'lsa-da, asl mohiyatning buzib ko'rsatilishi, bizni asliyatdan yanada uzoqlashtirib yubordi. Shu bois hozirgi kunda nizomiyshunoslarimiz zimmasida turgan eng dolzarb vazifa – tuzum toqazosi bilan yozilgan talqinlardagi sobiq tuzum

mafkurasi izlarini yo'qotish. Bugungi mustaqillik davri o'zbek navoiyshunosligi takomil yo'lida o'zining ilg'or qadamlarini tashlayapti. Endi Nizomiyni va Navoiyni ommalashtirib, soddalashtirib talqin etishdan uning asarlari mohiyatini tadqiq etish, uning haqiqatlarini idrok etishga o'tish davri keldi. Endi Nizomiy va Navoiy shaxsini ulug' shoirning o'zi tutgan ma'rifatning yuksak maqomidan turib xalqqa ko'rsatish vaqti yetdi! Umuman, "Xamsa" dostonlarini tarjima qilish va nasriylashtirish an'anasi, bizningcha, nizomiyshunoslik va navoiyshunoslikning eng katta yutuqlaridan biridir. Bu nasriy bayonlarda o'tmishda she'riy asarlarni nasr yo'li bilan sharhlash, dostonlarni nasriylashtirish, ular asosida nasriy qissalar yaratish kabi amallarning eng yuksak fazilatlarini mujassam bo'lgan. Ular ana shu tajribalar, an'analar asosida bunyod etilgan. Asliyat mohiyatiga olib boradigan yagona yo'l ham uni nasr bilan tushuntirib berishdir. "Xamsa" dostonlarini bugungi kun o'quvchisi ehtiyojlariga muvofiq talqin etish, uni yanada mukammallashtirish uchun qadim sharh ilmidan qolgan meros nasriy bayonni asliyat bilan birga chop etish an'anasini qaytadan tiklash zarur. Albatta, bunda qirqinchi, elliginchi yillarda bo'lgani kabi har bir baytning nasriy mazmunini o'sha bayt bilan yonma-yon, qo'shsahifaning ikkinchi betida berish yo'lidan ham foydalanish mumkin. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi talqinlarda faqat asar syujetini soddalashtirib bayon etishga harakat qilingan bo'lsa, zamonaviy nasriy talqinlarda bevosita asliyatni xalq o'rtasida kengroq targ'ib etishga rag'bat seziladi. Har holda, Navoiy "Xamsa" sini Umar Boqiy, Mahzun, Mir Mahmud ibni Shohyunus kabi adiblarning asar zamiridagi voqea, syujet, qissani ajratib olib, shu asosda xalqona qissalar yaratish maqsadlari ham, Sadridin Ayniy, G'afur G'ulom, Alibek Rustamiy, Inoyat Maxsum, Abduqodir Hayitmetov, A.Hojjahmedov, Vahob Rahmonov²⁹ kabi olimlarning asliyat bayti bilan yonma-yon uning nasriy ifodasini keltirib, matnni

²⁹ Navoiy Алишер. Мукамал асарлар тўплами. 20 т. Т. 9. Хамса: Лайли ва Махнун. – Т.: Фан, 1992. – 356 б, 310-бет. 86

soddalashtirib izohlashlari ham Navoiy badiiy olamini anglash yo'lidagi sezilarli qadamlardir.

Nizomiy davri o'zining taloto'plari, notinchliklariga qaramay, Kavkaz, Eron va O'rta Osiyo xalqlari tamadduni davri edi. Jumladan, XII asrda Abula'lo Ganjaviy, Iziddin Shirvoniy, Mahastiy Ganjaviy, Mujiriddin Baylaqoniy, Xoqoniy Shirvoniy, Avhadiddin Anvari, Rashididdin Vatvot, Jamoliddin Abdurazzoq, Farididdin Attor, Kamoliddin Ismoil kabi shoirlar yashab, ijod qildilar. Nizomiy ularning ko'pi bilan yaqin aloqada bo'lib, Xoqoniy bilan esa qalin do'st edi.

Bu davrda Xuroson va Movarounnahrning ko'plab shaharlari, jumladan, Ganjada ham javonmardlik yoki axiylik nomi bilan mashhur harakat keng yoyilgan. Harakat a'zolari asosan kosib va hunarmandlardan iborat bo'lib, ular zolim hukmdor va amaldorlarga qarshi kurashar, keng xalq ommasining manfaatlarini himoya qilar, kambag'al va bechoralarni qo'llab-quvvatlar edi. Ezgulik, adolat, insof, muruvvat, saxovat, lutfu karamni shior qilib olgan bu toifa ilmu ma'rifatga katta ahamiyat bergan. Nizomiy bu harakat qoidalarini hurmat qilar va ularga moyil edi. Nizomiy shaxsiyati, dunyoqa-rashi va ijtimoiy aqidalari shu tashkilot g'oyalari, kosib va hunarmandlar ta'sirida kamol topdi. Shoir asarlaridagi javonmardlik g'oyalari tasviri shuning mahsulidir.

Nizomiy Ganjaviy nomi qadimdan xalqimiz orasida mashhur, ta'bir joiz bo'lsa, u o'zbekning o'z shoiriga aylanib ketgan. Alisher Navoiygina emas, barcha mumtoz shoirlarimiz uni o'zlariga ustoz deb bilishgan. XIV asr o'rtalaridayoq Qutb Xorazmiy uning eng mashhur dostoni "Xusrav va Shirin"ni ona tilimizga mahorat bilan tarjima qilgan edi. Oradan bir asr o'tgach, Haydar Xorazmiy xamsa asoschisining "Maxzan ul-asror" dostoniga javoban "Gulshan ul-asror" asarini yaratadi. O'z "Xamsa"sining besh dostonini besh buyuk salafi (Nizomiy, Xusrav, Xoiu, Ashraf, Jomiy)ga tatabbu sifatida yaratgan Navoiy "Hayrat ul-abror"ni aynan "Maxzan ul-asror"ga javob tariqasida yozadi. "Xamsa" panjasig'a panja urupmen. Avvalkim, "Hayrat

ul-abror” bog‘ida tab‘im gullar ochibdur, Shayx Nizomiy ruhi “Maxzan ul-asror”idin boshimga durlar sochibdur”, – deb yozadi shoirning o‘zi bu haqda “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida. Zabardast shoir va mohir mutarjim Muhammadrizo Ogahiy “Haft paykar”ni erkin nasriy tarjima qiladi. “Iskandarnoma” dostoni ham o‘tmishda ilmu adab ahlining diqqati-ni o‘ziga jalb etgan. Jumladan, “Shohnoma” tarjimoni, shoir va adib Shohi Hijron “Qissai Doroi Zarrinkamar” asarida “Iqbolnoma”ning muxtasar mazmunini bayon etgan. Nurmuhammad Buxoriy, Mulla Fozil Xomushiyilar ham Nizomiy “Xamsa”sini sharhlar ekanlar, “Iskandarnoma”ni batafsilroq tahlil qilishga harakat etishgan”. O‘zbekistonda Nizomiy hayoti va ijodini o‘rganish bo‘yicha ham qator ishlar amalga oshirilgan. Navoiy bilan bog‘lab o‘rganilgan ishlardan tashqari, bevosita qardosh shoir merosining o‘zi, adabiy aloqa va badiiy ta’sir masalalari, asarlarining tarjimalari yuzasida V.Zohidov, N.Mallaev, Sh.Shomuhamedov, S.Erkinov, M.G‘anixonov, S.G‘anieva, H.Homidiy, E.Ochilov, K.Mullaxo‘jaeva, O.Jo‘raboevlar u yoki bu darajada tadqiqotlar olib borganlar. Ozar adibi Muhammad Sayid O‘rdubodiyning Nizomiy haqidagi ikki kitobdan iborat “Qilich qa qalam” romani Nazira Alieva va Muhsin Hamidovlar tomonidan o‘zbekchaga o‘girilib nashr qilingan.

“Maxzan ul-asror” (“Sirlar xazinasini”) – Nizomiy “Xamsa”sining ilk dostoni bo‘lib, u hijriy 572 – milodiy 1175-76 yilda yozib tugallangan. Bu haqda asar nihoyasida shoirning o‘zi shunday yozadi:

Etsam agar oy sanasin oshkor,
Kun yigirma to‘rtu avval bahor.

Yil esa hijratdin o‘tib ul zamon,
Besh yuzu yetmish iki erdi hamon.

“Maxzan ul-asror” mashhur mutasavvif adib Hakim Sanoiyning “Hadiqat ul-haqiqa” (“Haqiqat bog‘i”) dostoniga nazira tarzida bitilgan bo‘lsa-da, u kabi xafif bahrida emas, balki

sare'i musaddasi matviyi maqsur (mavquf) vazni (muftailun muftailun foilun (- V V - \ - V V - \ - V -)da yaratilgan bo'lib, 2264 bayt (4528 misra)dan iborat. U ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ta'limiy doston bo'lib, so'fiyona ruhdan xoli emas. Asar yagona syujet chizig'iga ega emas. U 59 bob: 18 muqaddima, 20 maqolat va ularga ilova tarzida keltirilgan 20 hikoyat va xotimadan iborat. Ular: ikki munojot, Payg'ambar vasfi, me'roj ta'rifi, to'rt na't, Bahromshoh madhi, o'zining ta'zim adosidagi so'zi, asarning maqomi va martabasi haqidagi fikri, so'z fazilati bayoni, nazmning nasrdan afzalligi, ikki xilvat va ularning ikki samarasi, tungi ishrat xususida, yigirmatadan maqolat va hikoyat va xotima. Muqaddima qismlar garchi Sharq dostonchiligi an'analariga ergashib yozilgan bo'lsa-da, so'z fazilati, nazm va nasr qiyosiga bag'ishlangan boblar hamda ikki xilvatda muallifning dasturilamal xarakteridagi fikr va qarashlari ilgari surilgan. Maqolatlarda esa u insonning yaratilishi, hukmdorlik va adlu insof, dunyo hodisalari, shoh va xalq munosabati, keksalik va yoshlik, insoniylik fazilatlarini, yaratilish mohiyati, dunyoning bevafoqligi, uning mazammati, tarkidunyo va tirikchilik tashvishlaridan najot topish, oxirzamon alomatlarini, g'afolat tanqidi, hasadgo'ylar malomati, maslak yo'lida sobitlik, ibodatu tajrid, munofiqlarni yozg'irish, oxirat bilan yuzlashish, zamon ahlining beadabligi kabi mavzularda bahs yuritadi. Shoir avval mavzuga oid o'z fikru qarashlarini bayon etib, keyin so'zlarining tasdig'i uchun hikoyat keltiradi. Shu tariqa, muallif o'quvchini o'z sirlar xazinasiga "taklif etar ekan, uni jamiyat va inson hayotining biri oshkor, biri pinhon sirlari bilan yaqinroq tanishtirishni maqsad qilib qo'yadi. Binobarin, "Maxzan ul-asror"ni shoirming hayotiy kuzatishlari asosidagi falsafiy, ijtimoiy va axloqiy qarashlarining badiiy majmuasi deyish mumkin".

"Xamsa" - Nizomiyning Alloh - Olam - Odam munosabatlari borasidagi ko'p yillik kuzatishlari va tafakkuri natijasida anglaganlari, hayot mohiyati va inson umrining mazmuni xususida o'ylaganlari, ideal jamiyat va komil inson haqida istaganlarining badiiy obraz va timsollar vositasidagi

nazmiy talqinidir. Inson – hayot – jamiyat haqidagi qarashlari darj etilgan ko'ngil daftaridir.

Ayni jihatdan, "Maxzan ul-asror" – shoirning o'ziga xos hayotnomasi, avlodlarga esa yo'riqnomasidir. Dunyoning barcha donishmandlari kabi, Nizomiyni ham dunyoning mohiyati, hayotning mazmuni, insonning jamiyatdagi o'rnini, turli insoniy fazilat va illatlar kabi azaliy va abadiy muammolar qiziqtirgan, qiynagan, tafakkur ummoniga cho'mdirgan. Ayni hayotiy masalalar, odamlararo munosabatlar, inson xilqatining turfa tuslanishu turlanishlari to'g'risidagi qarashlarini turli mavzularga ajratib, doston tuzilishini shakllantiradi. Diqqat qilinsa, adolatli jamiyat, odil hukmdor, komil inson tushunchalari shoir qarashlarining markazida turadi. Bu yo'lda asosiy to'siq bo'lgan dunyo va insoniy illatlar tanqidi dostonda muhim o'rin tutadi. Asarda asosiy e'tibor dunyo mazammati va insoniy illatlar tanqidiga yo'naltirilganligi bejiz emas. Yigirma maqolatdan beshtasi, ya'ni to'rttdan biri dunyoga bag'ishlangani bejiz emas: "Dunyo hodisalari xususida" (3-maqolat), "Dunyo tashvishlaridan qutulish bayonida" (9-maqolat), "Dunyoning bevafoqligi bayonida" (11-maqolat), "Tuproq manzili bo'lmish dunyoga vido aytish" (12-maqolat), "Dunyoga ta'na-malomat yog'dirish" (13-maqolat). Insonning yaratilishi, tabiati, fazilat va illatlari bilan esa o'n uch maqolat – asarning teng yarmi bog'liq deyish mumkin: "Odam Atoning yaratilishi xususida" (1-maqolat), "Keksalik vasfida" (5-maqolat), "Mavjudot e'tibori bayonida" (6-maqolat), "Odamiylikning butun xilqatlardan ustunligi" (7-maqolat), "Yaratilish bayonida" (8-maqolat), "Oxirzamon alomatlari bayonida" (10-maqolat), "G'aflatga malomat yog'dirish" (14-maqolat), "Hasadgo'ylarga malomat yog'dirish" (15-maqolat), "Maslak yo'lida jadal olg'a bosish bayonida" (16-maqolat), "Ibodatu tajrid bayonida" (17-maqolat), "Munofiqlarga malomat yog'dirish" (18-maqolat), "Oxirat ila yuzlashuv bayonida" (19-maqola), "Zamondoshlarning beadabligi bayonida" (20-maqolat). Aslida qolgan barcha boblar ham u yoki bu darajada inson bilan bog'liq. Shoh – xalq –

jamiyat – adolat masalalari ham dostonning tayanch qismlaridan hisoblanadi: “Insof, adolat himoyasida shohga pandu nasihat” (2-maqolat), “Podshoning raiyatga husni rioyati bayonida” (4-maqolat). Lekin “Noumid podsho va uni Alloh afv etgani hikoyati” (1-maqolat), “Sulaymon va dehqon hikoyati” (3-maqolat), “Faridun va ohu hikoyati” (7-maqolat), “Zolim podsho va rostgo‘y kishi hikoyati” (14-maqolat), “Yosh shahzoda va uning keksa dushmanlari hikoyati” (15-maqolat), “Jamshid va uning xos mahrami hikoyati” (18-maqolat), “Horun ar-Rashid va sartarosh hikoyati” (19-maqolat) kabi hikoyatlar boshqa maqolatlar ham ayni mavzudan ayri emasligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, muqaddima boblar hamda “Odam Atoning yaratilishi xususida” (1-maqolat), “Yaratilish bayonida” (8-maqolat), “Oxirzamon alomatlari bayonida” (10-maqolat), “Ibodatu tajrid bayonida” (17-maqolat), “Oxirat ila yuzlashuv bayonida” (19-maqolat) va dunyo bilan bog‘liq maqolatlar, “Noumid podshoh va uni Alloh afv etgani hikoyati” (1-maqolat), “Taybabuzar zohid hikoyati” (9-maqolat), “Iso alayhissalom hikoyati” (10-maqolat), “Sohibnazar mo‘bad hikoyati” (11-maqolat), “Hoji va so‘fiy hikoyati” (13-maqolat), “Pir va murid hikoyati” (17-maqolat) kabi hikoyatlar asarning diniy-tasavvufiy asoslari ham mustahkamligidan dalolat beradi. “Nizomiy hayotda nima muqaddasu nima fahsh, inson nima uchun intilmog‘i, nimani rad qilmog‘i kerak degan savollarni o‘rtaga qo‘yar ekan, bu savollarga javob berishda Qur‘on suralariga murojaat qiladi, hadislarni asos qilib oladi, o‘zining uzoq yillik hayotiy kuzatishlaridan kelib chiqadi”. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida Nizomiy Ganjaviy “Xamsa” sini O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol amalga oshirdi.

Jaloliddin Rumiyning 6 kitobdan iborat “Masnaviyi ma‘naviy” nomli muazzam asari, Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr”, “Ilohiynoma”, “Asrornoma”, “Ushturnoma”, “Bulbulnoma”, “Pandnoma”, Hakim Sanoiyning “Sayr ul-ibod”, Mahmud Shabustariyning “Gulshani roz” singari forsiy so‘z san‘ati durdonalari tarjimasida qalami qayralib, malaka va tajriba

hosil qilgan, mumtoz adabiyotning mohir tarjimoniga aylangan Jamol Kamol "Xamsa"ning birinchi dostoni "Mazanul-asror"ni ham o'zi yaratilgan sare'i musaddasi matviyi maqsur (mavquf) vaznining ayni o'zi bilan tarjima qilib, tarjimada shakl va mazmun birligiga erishgan. Bizda o'tmish shoirlari asarlarini aruzda tarjima qilish talab etiladi. Chunki biz aruzdan butkul uzilib ketganimiz yo'q. Binobarin, J. Kamolning asarni o'z an'anaviy vaznida tarjima qilishi o'zini oqlagan. Ayni paytda, dostonni o'z vaznida tarjima qilish mutarjimga muammo tug'dirmaganidek, uni o'z vazniga solib o'qish o'quvchiga ham qiyinchilik tug'dirmaydi. Chunki bu vazn ohang jihatidan 4x4x3 turoqli 11 hijoli barmoq vazniga yaqin va uni ayni vaznga solib o'qish mumkin:

| | | |
|--|---|---|
| 4 | 4 | 3 |
| Ahli qalam \ cheksa-da so'z \ ranjini, | | |
| So'zda ochur \ ikki jahon \ ganjini. | | |

Badiiy tarjimada so'zlarni emas, balki ular qatida yashiringan ma'noni tarjima qilish muhim hisoblanadi. Lekin bu talab so'zma-so'z tarjimaning ahamiyatini butunlay inkor etmaydi. Matn imkon bergan o'rinda so'zma-so'z tarjima ham kerak, ba'zida hatto zarur ham. Chunki so'zma-so'z tarjima imkoniyati mavjud bo'lgan holda so'zni aylantirishga, aniq-tiniq anglashilib turgan ma'noni mavhumlashtirishga hojat yo'q. Xususan, yaqin va lug'at tarkibida umumiylik ko'p tillardan tarjimada bu imkoniyatdan samarali foydalanish kerak.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tarjimashunoslikdagi yaqin va uzoq tillar tushunchasi tilshunoslikdagi ayni tushunchadan farqlanadi. Agar tilshunoslikda bir oilaga mansub tillar yaqin yoki qardosh, boshqa-boshqa oilaga mansub tillar esa uzoq tillar hisoblansa, tarjimashunoslikda tillarning uzoq-yaqinligi ulardagi leksik jihatdan umumiylikning ko'p yoki ozligiga ko'ra belgilanadi. Chunki "qanday tildan bo'lmasin, badiiy asar tarjimasida original lingvistik xususiyatlarining asosiy omili sifatida leksika maydonga chiqadi". Bu bejiz emas. Negaki, adabiyot so'z san'ati, badiiy matnning asosida esa so'z yotadi.

Jamol Kamol nafaqat taniqli xalq shoiri, balki mohir tarjimon sifatida ozar shoiri Baxtiyor Vahobzodaning Fuzuliya bag'ishlangan "Shabi hijron" dostoni, Nasimiya bag'ishlangan "Faryod" dramasi va qator she'rlarini o'zbekchaga o'girib, yana jahon adabiyotining o'nlab durdona asarlarini qiyomiga yetkazib tarjima etganiga guvohmiz. O'z navbatida Bakuning "Yozuvchi" (Yazuvchi) nashriyoti Jamol Kamolning she'rlar, dostonlardan iborat "Quyosh chashmasi" 1980 yilda (Gunash chashmasi) kitobini Baxtiyor Vahobzoda so'zboshisi bilan kitobxonlarga taqdim etgan edi. Tarjimonlar - Baxtiyor Vahobzoda, Xalil Rizo, Ahad Muxtor...

Ushbu ijodiy hamkorlik bir muddat tanaffusdan so'ng yana davom etganligi diqqatga sazavordir. 2016 yilda Toshkentda faoliyat ko'rsatayotgan Haydar Aliev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi rahbari Samir Abbasov bilan shoir – tarjimon o'rtasida Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"sini o'zbek tiliga tarjima qilish xususida shartnoma imzolandi. Buning natijasi o'laroq, Nizomiy Ganjaviyning buyuk "Xamsa" asari originaldan o'zbek tiliga to'liq tarjima qilindi.

Nizomiy "Xamsa"sining o'zbek tiliga tarjima etilgani Ozarbayjon adabiy jamoatchiligini behad quvontirdi. Haydar Aliev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi homiyligida Ozarbayjon milliy majlisi Fan, ta'lim, madaniyat va adabiyot qo'mitasi rahbari Ganira Poshshaevaning dav'ati bilan tashkil etilgani "Ozarbayjon - o'zbek adabiy aloqalari" loyahasini amalga oshirish uchun 2017 yil Jamol Kamol Bakuga taklif etildi. "Xamsa"ning muharriri sifatida Gulbahor Ashurova va professor Roza Niyozmetova unga hamrohlik qildik. Jahon adabiyotining buyuk durdonasi sanalmish, Nizomiy qalamiga mansub "Xamsa"ning o'zbek tiliga o'g'irilishi Respublikamiz madaniy hayotida katta voqea bo'lgani shubhasiz.

NIZOMIY GANJAVIYNING “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONI.

Dunyodagi eng mahzun va eng ta'sirli ishq qissasi bo'lmish Layli va Majnunning hassos va qayg'uli, beqiyos va armonli muhabbati mavzuida ozarbayjon, o'zbek, turkman, turk, arab, fors-tojik, urdu, afg'on va boshqa ko'plab xalqlarning og'zaki va yozma adabiyotida, kino va teatrida turli janrlarda 120 dan ziyod asar yaratilgan³⁰.

Muhabbatning o'zi kabi qadimiy bu ko'hna ishq qissasi VII–VIII asrlardayoq shimoliy arab qabilalari – badaviylar orasida paydo bo'lib, X asrda yozma adabiyotga o'tgan. Ba'zi arab manbalari Majnunni tarixiy shaxs hisoblab, hatto uning vafoti sanasini ham ko'rsatadilar – 689 yil. Lekin Ibn Qalbiy (vafoti – 819) Majnun degan odam hech qachon yashab o'tmaganligi, bu obraz unga nisbat berilgan she'rlar kabi “Layli va Majnun” nomlari ostida mazkur dostoniga o'zining shaxsiy sevgisi tarixini joylagan umaviylar sulolasiga mansub bir yosh yigit tomonidan yaratilganligi haqida xabar bergan edi.

Majnunga nisbat berilgan she'rlar kabi, u haqdagi rivoyatlar ham arablar orasida keng tarqaladi. Shunga qaramay, arab adabiyotida bu syujet uzil-kesil shakllanib, nihoyasiga yetmagan edi. Chunki rivoyatlar alohida voqealar bayonidan iborat bo'lib, o'zaro bog'lanmagan. Odatda, ular u yoki bu she'rlarga berilgan izohlardan iborat bo'lgan. Ayni rivoyatlarning detallari o'zaro farqlansa-da, yagona mavzuda bo'lganligidan ularda syujetning asosiy chiziqlarini kuzatish mumkin. Rivoyatlarda Majnunga, uning shoirligiga asosiy urg'u berilgan. Chunki uning she'rlari xalq orasida keng tarqalgan va sevib o'qilgan. Rivoyatlar bu she'rlarning o'ziga xos izohi bo'lib, ulardagi u yoki bu ishora va sabablarni tushuntirib berishga xizmat qilgan. Layli esa asosiy rol o'ynamay, u yoki bu she'r yaratilishining sababchisi sifatida

³⁰ Bu haqda qarang: Ochilov E. “Nizomiyning sheh dostoni”. Bako-2019,3-B, Afsahzod A. Dostoni ishq va umed\Nizomii Ganjaviy. Kulliyot. Dar panj jild. Jildi duvvum. – Dushanbe: “Irfon”, 1982. S. 6.

gavdalanadi, xolos. Shoirlar va she'r to'plovchilarning Majnun bilan uchrashuvi lavhasi ayni jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi³¹. Voqean, Nizomiy Ganjaviy dostonida ham Majnunning shoirligiga keng urg'u beriladi. Layli ishqi uni otashin shoirga aylantiradi. Hassos oshiqona she'rlari butun Arab mamlakatlariga tarqaladi. Hatto Layli ham uni chaqirib, qo'shiqlarini yashirin joyda turib eshitadi. Uning she'rlari ta'rifini eshitgan Salom Bag'dodiy degan yigit u bilan ko'rishish va she'rlarini yozib olish uchun ikki marta Majnunning izlab keladi – sahruma-sahro kezib, uni topadi hamda she'rlarini yozib oladi va Bag'dodga eltib, she'riyat shinavandalariga tarqatadi.

Yonida bir-ikki oy turib ul,
Dardkash bo'lib unga, oldi ko'ngil.

Har baytki, eshitgay erdi undan,
O'n yildami yo shu oyu kundan,

Har qissayu qit'ayu qasida,
Yozgay edi shay etib jarida.

Bu dostonida Layli ham ta'bi nazmdan xoli bo'lmay, badiiy so'zni nozik tushunadi va o'zi ham she'rlar yozadi.

Laylida chunon malohat erdi.
Nazm ichra ajab fasohat erdi.

Dur erdi o'ziyu durga monand,
Baytlar to'qir erdi poku ravshan.

Afsonalarga ko'ra Majnunning butun hayoti odamlardan uzoqda – biyobonda kechadi.

Majnuni shikasta dasht aro zor,
Sargashta kezardi baxtidek xor.

³¹ Qarang: Бертельс Е.Э. “Лейли и Меджнун” // Родоначальник узбекской литературы (Сборник статей). – Ташкент, 1940. С. 30–49; Крачковский И.Ю. Ранняя история повести о Меджнуне и Лайле, в арабской литературе // Алишер Навои (Сборник статей). – М.–Л., 1946. С. 31–67.

Uning do'stu hamdamlari yovvoyi hayvonlar edi. Ular Majnunni muhofaza etadilar, xizmatini qiladilar. Majnun go'yo ularning shohu rahnamosi edi.

Andin kutishardi amru farmon,
Ul erdi misoli shoh Sulaymon.

Ba'zi manbalar, jumladan, Ibn Qutaybaning (vafoti – 880) “Kitob ush-she’r va-sh-shuaro” (“She’r va shoirlar haqida kitob”), Abulfaraj Isfahoniyning (vafoti – 967) “Kitob ul-ag’oni” (“Majnun haqida hikoyat” deb ham yuritiladi) asarlarida ma’lumot berilishicha, Majnun tarixiy shaxs bo’lib, u ayni laqabni olib, shu taxallus ostida she’rlar yozgan Qays Omiriy (Qays ibn Muod va Mahdiy ibn Mulavvah deb ham ko’rsatadilar)dir. IX–X asrlarga oid boshqa adabiy manbalar esa Qays Omiriy – Majnun sarguzashtlari haqida hikoya qiladi. Taxminan XI asrda Abubakr Volibiy nomli shaxs Majnun Omiriy devonini tuzib, rivoyatlardan foydalangan holda she’rlari asosida uning o’ziga xos sarguzashtnomasini yaratadi. Shundan keyin Majnun sarguzashtlari hammayoqqa mashhur bo’lib ketadi.

Layli va Majnun qissasiga ishoralar Sharq adabiyotida X asrdan e’tiboran Abu Abdullo Rudakiy, Robia binti Ka’b, Bobo Ko’hiy kabi shoirlar she’rlarida uchraydi. Jumladan, Rudakiy yozadi:

Bixandad lola ba sahro ba soni chehrai Laylo,
Bigiryad abr bar gardun ba soni didai Majnun.

“Sahroda lola Laylining ruxsori kabi jilva qiladi, ko’kda bulut Majnunning ko’zi kabi yig’laydi”.

XI–XII asrlardan boshlab Layli va Majnun muhabbati haqidagi sarguzashtning turli syujetlari bilan bog’liq rang-barang lavhalar Abdulloh Ansoriy, Nosir Xisrav, Zahir Foryobiy, Abulhasan Jullobiy, Hakim Sanoiy kabi adiblar ijodida uchraydi. XI asrdan e’tiboran Majnun fidoyi oshiq va solik ramzi o’laroq tasavvuf adabiyotida katta mavqe kasb etdi. XII asrdan “Layli va Majnun” qissasining shuhrati butun Sharq mamlakatlariga keng yoyiladi. Bunday hikoyat va rivoyatlar, afsona va qissalar Ozarbayjonda ham keng tarqaladi.

Layli va Majnun haqidagi 4022 baytdan iborat ilk muazzam doston atoqli ozar shoiri Nizomiy Ganjaviy tomonidan yoziladi. Shoir o'z dostonini yozishda o'zigacha yaratilgan barcha rivoyat va afsonalardan, Majnun devoni va boshqa asarlardan foydalanadi³².

OSHIQLARGA TUMOR BO'LGAN ASAR

“Layli va Majnun”ning “Kitob nazmining sababi” faslida yozilishicha, otashin g'azallari hamda “Xusrav va Shirin” dostoni bilan shubrat qozongan “jodusuxani jahon” Nizomiyga bir kuni “bir qasidaga bir mulkni bag'ishlaydigan” ma'rifatli va saxovatli Shirvonshoh Jalol ud-davla Abulmuzaffar Axsatan ibn Manuchehr maktub yo'llaydi. Shoh o'z maktubida shoir sha'niga maqtoqlar yog'dirib, qalamining qudratiga tahsinlar o'qiydi va bu so'z sehrigaridan Layli va Majnun ishq qissasini forsiy tilda ado etishini so'raydi. Shoir dastlab kishining jigar-bag'rini o'rtashdan boshqasiga yaramaydigan bu hazin va armonli ishq dostonini qalamga olishni xohlamaydi. Lekin 14 yashar o'g'li Muhammad uni bu asarni yozishga ilhomlantiradi.

4000 baytdan ziyod (ilmiy-tanqidiy matnga ko'ra 4022 bayt) muazzam “Layli va Majnun” dostonini 1188 yili may oyining oxirida boshlab, 24 sentabrda yozib tugatadi. Agar turli tashvishlar xalaqit bermaganida uni 4 oyda emas, balki ikki haftada yoza olishini aytadi.

In chor hazor bayt aksar
Shud gufta ba chor moh kamtar.
Gar shug'li digar harom budi,
Dar chordah shab tamom budi.

“Bu to'rt ming bayt to'rt oydan kamroq muddatda yozib tugatildi. Agarda boshqa har turli tashvishlar bo'lmaganida o'n to'rt kecha kifoya qilardi”.

³² Афсаҳзод А. Достони ишк ва умед. С. 5–26.

Doston debocha, Muhammad alayhissalom vasfi, Payg'ambar me'roji, koinotning yaratilishi, kitobning yozilish sababi, Shirvonshoh Axsaton ibn Manuchehr madhi, Alloh taologa ta'zimu tahsin, farzandini Shirvonshoh tarbiyasiga topshirgani, hasadgo'y va munkirlar dastidan shikoyat, muallif uzri, farzandi Muhammadga nasihat, o'tgan ayrim yaqinlar yodi kabi 12 ta an'anaviy bob bilan boshlanadi. Shundan so'nggina doston ibtidosi keladi. Arabda boy-badavlat va kuch-qudratli bir zot bo'lib, faqatgina tirmoqqa zor edi. Duo-iltijolari ijobat bo'lib, Xudo unga bir o'g'il beradi. Bolani yaxshi tarbiyalab, 10 yoshga to'lganida maktabga beradilar. U ishtiyoq bilan bilim oladi. Talabalar orasida boshqa qabiladan kelgan Layli ismli go'zal bir qiz ham bor edi. Ikki yoshning ko'ngli bir-biriga bog'lanib qoladi.

Qays mehriга moyil erdi mahvash,
Har ikki yurakni yoqdi otash.

Qays Laylining ishqida halovatini yo'qotib, ishqı ovoza bo'lgach, odamlar uni ta'na-malomat qilib, Majnun deb atay boshladilar. Qizni esa maktabga yubormay qo'yadilar. Majnun yaqin do'stlari bilan Layli makon tutgan Najd tog'iga uni ko'rgani borardi. Qo'shiq aytib, raqs tushib, tog' atrofida charx urardi. O'g'lining dardiga davo topish uchun otasi Layli xonadoniga sovchilikka boradi. Arabda shukuhli bu zotni katta tantana bilan kutib oladilar, lekin qizning qo'lini so'rab kelgani ma'lum bo'lgach, Laylining otasi: "Taklifingga jon deyishim mumkin, lekin bilib turib qanday qilib o'zimni o'tga uray? Axir, arablarning ayb qidirishu aybdor qilishga suyagi yo'qligini o'zing ham yaxshi bilasan-ku! Men ishq yo'lida es-hushini yo'qotgan o'g'lingga qizimni unashsam, el-yurt nima deydi?" – deb rad javobini beradi.

Bu gapni eshitgan Majnun uydan chiqib ketib, tog'u sahroni makon tutadi. Layli ishqida g'azallar to'qib, qo'shiq qilib aytib yuradi. Ko'ngli bir qadar taskin toparmikan deb, otasi uni Ka'ba ziyoratiga olib boradi. U esa boshiga tushgan ishq dardidan najot so'rash o'rniga ko'nglidagi Layli ishqini yanada ziyoda qilishini

tilab Alloh taologa munojot qiladi: “Menga ishq chashmasidan nur ber, ko‘zimni sira bu surmadan judo qilma! Agarchi ishq mayidan mast esam-da, to tirik ekanman, bundan ham battarroq oshiq qil! Har nafas Layli husniga ishqimni ziyoda qil! G‘amida shamdek kuysam-da, biror kunim uning g‘amisiz o‘tmasin!” – deb iltijo ila faryod chekadi:

Az chashmai ishq deh maro nur!
V-in surma makun zi chashmi man dur!
Garchi zi sharobi ishq mastam,
Oshiqtar iz in kun, ki hastam!..
Yo Rab, tu maro ba ro‘i Layli
Har lahza bideh ziyoda mayle!..
Garchi zi g‘amash chu sham so‘zam,
Ham be hami o‘ mabod ro‘zam!

O‘z muhabbati bilan qizini badnom qilgani uchun Laylining otasi Majnunning joniga qasd qilish niyatida ekanini eshitib, otasi uni izlab borib, bir toshning ustidan abgor holda topadi va unga nasihatlar qiladi. Lekin ishq mayidan mast Majnunga bu nasihatlar zarracha ta’sir etmaydi.

Bildiki, bu ishq adosi yo‘qdir,
Darddirki, uning davosi yo‘qdir.

Yuragini ishq o‘qi yaralagan Laylining ahvoli ham mushkul edi. Bir kuni u ko‘nglini bir qadar yozish uchun bog‘ sayriga chiqqanida Bani Asad qabilasidagi yosh va badavlat Ibn Salom uni ko‘rib, oshiq bo‘lib qoladi va uyiga sovchi yuboradi. Qizning otasi boy va nomdor yigitni kuyov qilishga rozi bo‘lib, faqat Laylining tuzalib, o‘ziga kelib olishi uchun biroz muhlat so‘raydi. Bundan Ibn Salom shod bo‘lib, yettinchi osmonda uchsa, Majnun vahshiy hayvonlar bilan do‘st tutinib, sahroma-sahro kezardi. Navfal degan qudratli va badavlat zot uning ahvolidan xabar topib, yordam qo‘lini cho‘zadi. Lekin taklifi rad etilgach, Layli qabilasiga qarshi urush ochadi. Bu urushda mag‘lub bo‘layotganini ko‘rib sulh taklif qiladi. Keyin Majnunning ta’nasi bilan Arab mamlakatlaridan sipoh to‘plab, ikkinchi marta jangga kirishadi. Bu gal uning qo‘li baland kelib, Laylining otasi

magʻlub boʻladi. Lekin u: “Qizimni keltirib beray – xohla qulingga bagʻishla, xohla gulxanda kuydir, xohla quduqqa tashla, xohla qonini toʻkib, koʻnglingni xushla, men hammasiga roziman, faqat oʻsha devonaga ravo koʻrmasang bas! Qizimni bir telbaga berib xarob qilguncha qoʻlimni uning qoniga boʻyaganim afzal!” – deydi Navfalning qoshiga kelib. Shundan keyin Navfal bu zulmu zoʻrikdan bir ish chiqmasligi, majburlab olingan qiz baxtli emas, balki baxtsiz boʻlishini bilib, qoʻshinini ortiga qaytaradi. Chunki ilk tanishuvdayoq Navfalga oʻz sevgisi haqida hikoya qilib bergan Majnunning oʻzi ahvolini eʼtirof etib aytgan ediki:

Ul qizning agarchi men adosi,
Devonaga bermagay anosi.

Oʻz navbatida, Laylining otasi qiziga borib maqtanadi:

Dediki: gʻanimga hiyla qildim,
Ul jinni balosidin qutuldim.

Majnun yana dashtu biyobonga chiqib ketadi. Shundan keyin otini berib, ovchining qoʻlidan ikki ohuni ozod qilgani, soʻng bor-budini bagʻishlab, bir maralni qutqargani haqidagi lavhalar keladi. Bir qora zogʻ bilan hasratlashadi. Bir kampir boʻyniga arqon solib, darvesh qiyofasida uni Layli qabilasiga boshlab boradi.

Boʻzlar edi yerga bosh urib u:

“Men gʻamingga juftu sendin ayru!”

Laylini katta toʻyu tantana bilan Ibn Salomga uzatadilar. Lekin u erini oʻziga yaqinlatmaydi: “Agar qoʻlingni uzatsang, seni ham, oʻzimni ham oʻldiraman!” – deb tahdid qilgach, bechora kuyov shunday goʻzalni koʻrib yurganiga shukr qilib yashayveradi. Bu xabarni Majnunga yetkazganlarida u xayolan mahbubasi bilan soʻzlashib, unga taʼna qiladi.

Yolgʻiz jigarbandining hasratida ado boʻlgan ota uni izlab biyobonga keladi. Ota-oʻgʻil oʻrtasida bahsu munozara boʻlib oʻtadi. Majnun: “Mening ishq yoʻlida devonaligim taqdiran boʻlib, bunda men ixtiyorsizman”, – deydi:

Holimni koʻrarda chekma nola,

O'g'lingni qazoga et havola!

Majnunni uyga qaytarolmagan ota paymonasi to'lganini aytib, noiloj u bilan vidolashadi. Otasi vafotidan xabar topgan Majnun uning qabri ustida tuni bilan yig'lab chiqadi-da, tong otishi bilan yana biyobonga chiqib ketadi va vahshiy hayvonlar bilan do'stlashib yuradi. Ichi dardu hasratga to'lib ketgan Majnun bir kecha avval sayyoralariga murojaat etib nola qiladi, keyin Parvardigorga yuzlanib iltijo.

Bir yo'lovchi xayrixoh bo'lib, Laylidan Majnunga, Majnundan Layliga xat tashiydi. Tog'asi Salim Omiriy biyobonga chiqib ketgan Majnun holidan hamisha xabar olib, unga taom yetkazib turar, lekin u bu taomlarni hayvonlarga ulashardi. Bir kuni tog'a uni izlab kelib, nasihat qiladi. Majnun esa u keltirgan taomni yemay, giyohlarga qanoat qilishini aytadi. Onasi ham Majnunni ko'rgani keladi va ko'p o'tmay u ham vafot etadi. Majnun ota-onasi qabriga borib faryod chekadi.

Layli Majnun ovozini eshitish, qo'shig'ini tinglash uchun chorlaydi. Lekin eri bor xotin bo'lgani uchun andisha qilib, uning oldiga chiqmaydi, panada turib qo'shig'ini eshitadi.

Yursam yana, ul halokatimdir,

Ishq mazhabida malomatimdir.

Majnun Layliga atab otashin qo'shiqlar kuylaydi.

Layli va Majnun muhabbati, Majnun Layli ishqida to'qigan yoniq qo'shiqlari hammayoqqa tarqalib, Bag'doddan Salom Bag'dodiy degan she'riyat shinavandasi "ishq shohi"ni izlab keladi va uning qo'shiqlarini yozib ketib, olib borib el orasiga tarqatadi.

Bu orada ichki dardi Ibn Salomni ado qilib, vafot etadi. Ko'p o'tmay Layli ham dunyodan ko'z yumadi. O'limidan oldin onasini yoniga chorlab, ko'nglini ochadi va Majnunga uning ishq bilan, unga sodiq holda bu dunyodan o'tganinni ayt va unga muruvvat ko'rsat deya vasiyat qiladi. Sevgilisining vafotini eshitgan Majnun uning qabriga ilondek chirmashib nolalar qiladi va shu yerda makon tutadi. Uning atrofini vahshiy hayvonlar o'rab olganidan odamlar yaqinlasholmaydilar.

Salom Bag‘dodiy yana Majnunni izlab keladi va uning yonida bir-ikki oy qolib, barcha she‘rlarini yozib oladi. Majnun ham Layli hajrida jon beradi. Lekin hayvonlar uni bir yilcha qo‘riqlaydilar-da, keyin umidlarini uzib, har qaysisi har yoqqa tarqalib ketadi. Qarindoshlari Majnunning vafotidan xabar topib keladilar va uning suyagini Layli yoniga dafn etadilar.

Go‘r – daxmada yo‘l ochib anga o‘ng,

Layli qoshiga qo‘ydilar so‘ng.

Doston Shirvonshoh nomiga yozilgan xotima bitan nihoyasiga yetadi.

Nizomiy asosan qayg‘uli ishq qissasini go‘zal va ta‘sirchan tarzda qalamga olishni maqsad qilgan – dostonda irfoniy qatlam chuqur emas. Albatta, Majnunning ota-onasini, o‘zini unutishi tasvirlangan lavhalarda tasavvufiy talqinlar bir qadar ko‘zga tashlanadi.

Otamsen agarchi, men g‘uloming,
Bilmasmen o‘shal ne erdi noming?

Yolg‘iz shu emas unutganim ul,
Bir yo‘la unutdim o‘zni butkul.

Yana sen tariqatda ustozim edingu men sensiz majoziy ishq bilan qovushdim deydi:

Ustodi tariqatim sen erding...
Sensiz shu majoz ila qovushdim...

Shuningdek, ma‘rifat, jomi jahonnamo, surat va siyrat, ikkilik, jom va may, oyina, o‘zlik, bexudlik, yo‘qlik kabi qator tasavvufiy timsol va istilohlar zikr etiladi. Majnun o‘zini ishq shohi deb ataydi. Dostonning “Majnun ishq nechuk ishq erdi?” deb atalgan bobida esa shunday yozadi:

Har lahza tilida nomi Layli,
Yo‘q boshqa suxanga zarra mayli.

Har kimsaki o‘zga so‘zni derdi,
Bermasdi javob, eshitmas erdi.

Keyinchalik ayni mavzuga murojaat qilgan har bir shoir Nizomiya ergashish, dostonni davom ettirish barobarida undagi qaysidir voqealarni rivojlantiradi, qaysidir lavha yoki obrazdan voz kechadi, yangi obraz va voqealar qo'shadi. Bu mushtarak va farqli, rivojlantirilgan va syujetdan chiqarib tashlangan, yangi qo'shilgan voqea va obrazlarning barchasi "Layli va Majnun" syujetining muttasil rivojlanib, takomillashib borganini ko'rsatadi. Mazkur dostonlarni qiyosiy o'rganish Layli va Majnun haqidagi asarlarning takomil bosqichlarini ko'rsatibgina qolmay, bir-birini ochadi va to'ldiradi. Birida yashirin qolgan yoki ishora qilib ketilgan voqea yoki holat boshqasida keng va chuqur o'z tasvirini topgan. Ayni jihatdan Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Ashraf, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliy, Fuzuliy va boshqalarning "Layli va Majnun" dostonlarini yonma-yon qo'yib o'qish bu g'amgin, lekin go'zal ishq qissasining bir-biridan go'zal talqinlari bilan tanishish imkonini yaratadi. Lekin bu go'zal va hassos ishq dostonining tamal toshini Nizomiy qo'ydi va uni Sharq so'z san'atining durdona asarlaridan biriga aylantirdi.

NIZOMIY "XAMSA"SI TARJIMALARI HAQIDA

Jahon so'z san'atining durdona asarlariga har bir zamonning o'z talabi, har bir avlodning o'z ehtiyoji bo'ladi. Bu – yangi tarjimalarga yo'l ochadi. Qayta tarjimaga quyidagi omillar sabab bo'ladi: 1. Davrlar o'tishi bilan har qanday tarjima lisoniy jihatdan eskiradi va yangi zamon o'quvchisi uni o'qishda qiynaladi, tushunishi mushkullashadi. 2. Har qanday mutarjimning ham buyuk so'z ustalari "panjasiga panja" urgisi, o'z imkoniyati, iste'dod kuchini sinab ko'rgisi keladi. 3. Ilgari vositachi til orqali tarjima qilingan asarlarni endilikda bevosita aslyatdan tarjima qilish keng quloch yozayapti. 4. Avvalgi tarjimalarning saviyasi pastligi, qisqartirib yoki o'zgartirib tarjima qilinganligi ham qayta tarjimalarni zarur qilib qo'yadi.

G'.Salomov va Z.Isomiddinovlarning yozishlaricha, "tarjima paydo bo'lgan davrdan boshlab qayta tarjimaga ehtiyoj kelib chiqqan"³³. Hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda mashhur asarlarning bir necha tarjimalari mavjud va bu hodisaga tabiiy hol sifatida qaraladi. Bizda esa bu borada hali ijobiy qarash to'la shakllanib ulgurgani yo'q. Biror asarni ikkinchi marta tarjima qilishga bel bog'lagan tarjimanni qo'llash o'rniga, "Tarjima qilinishini kutib yotgan qancha asarlar bor. Bir marta tarjima bo'lgan asarni qayta tarjima qilguncha o'shalarni tarjima qilsa bo'lmaydimi?" – deyishadi. Bugina emas. Bizda ba'zida u yoki bu tildan, u yoki bu adabiyotdan, u yoki bu adib ijodidan tarjima qaysidir tarjimoning go'yoki "shaxsiy mulk"iga aylangan – boshqalarning ularga daxl qilishi mumkin emas. Badiiy tarjima sohasidagi yakkahokimchilikdan qutulish, qayta tarjimalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash payti keldi. "Chunki tarjima nusxalari ko'paygan sayin buyuk ijodkorlar dahosining yangi-yangi qirralari ham ochilib borishi shubhasizdir"³⁴.

Tarjimashunoslikda shunday qoida mavjud: muayyan olingan asar yuzta tarjimon tomonidan tarjima qilinsa, yuz xil jaranglaydi! Chunki har bir tarjima asliyatning yangi bir qirrasini ochadi, o'zgacha bir talqinini vujudga keltiradi, o'zidan avvalgi nusxalarni qaysi bir jihatdan to'ldiradi. Shuning uchun bir asarning bir necha tarjimalari bo'lishi tarjimashunoslikda ijobiy hol hisoblanadi. Ayni jihatdan qayta tarjimalarni qo'llab-quvvatlash kerak. Masalan, Sa'diy "Guliston"ining turli davrlarda amalga oshirilgan 5 tarjima nusxasi mavjudligi uning oltinchi va hokazo tarjimalari bo'lishiga monelik qilmaydi, bil'aks davr

³³ Саломов Г., Исомиддинов З. Икки олам юки таржима // Таржима муаммолари (Мақолалар тўплами). Уч китобдан иборат. 2-китоб. – Тошкент-Самарканд, 1991. 7-бет.

³⁴ Орипов А. Орзуга айб йўқ...// Эҳтиёж фарзанди (Адабий мақолалар, суҳбатлар). – Тошкент: "Ёш гвардия", 1988.

talabi va o'quvchilar ehtiyoji nuqtai nazaridan yangi tarjimalarni taqozo qiladi. Yoki atoqli turkman shoiri Maxtunquli she'rlari 10 dan ziyod tarjimonlar tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan bo'lishiga qaramay, asliyatga shakl va mazmun jihatidan har tomonlama muvofiq tarjima yaratish yo'lida tarjimonlar o'rtasida ijodiy musobaqa sira to'xtamasligi shubhasiz.

Xamsachilik kashshofi Nizomiy Ganjaviy dostonlari ham qayta-qayta tarjima qilinib, ulardagi mazmun teranligi va ma'no rang-barangligi, yuksak badiiyat sirlari va shoir mahorati qirralari yangidan-yangi tarjimalar vositasida kashf etib borilaverishi kerak. Binobarin, buyuk so'z san'atkori "Xamsa"si ikkinchi tarjimasining paydo bo'layotganini o'zbek tarjima adabiyotidagi ijobiy hodisa sifatida baholash kerak. Natijada, aytaylik, "Xusrav va Shirin" dostonining uchinchi tarjima nusxasi paydo bo'ladi (Qutb Xorazmiy, Olimjon Bo'riev, Jamol Kamol). "Layli va Majnun" dostonining esa hozirda ikki tarjima nusxasiga egamiz. Bungacha esa undan parchalar tarjima qilingan.

1947 yil Nizomiyning 800 yillik yubileyi sobiq Ittifoq miqyosida keng nishonlandi. Shu munosabat bilan O'zbekistonda ham shoir "Xamsa"si dostonlari tarjimasidan namunalar – "Xusrav va Shirin" (Qutb tarjima-si), "Maxzan ul-asror" (Haydar Xorazmiy tarjimasi), "Haft paykar" (Ogahiy tarjimasi) hamda "Layli va Majnun" (N.Oxundiy, Xislat va M.Muhammadjonovlar tarjimasi)dan parchalar Maqsud Shayxzoda so'zboshisi bilan alohida to'plam holida "Guldasta" ("Panj ganj"dan parchalar) nomi ostida nashr qilindi. "Layli va Majnun" dostonidan N.Oxundiy, Xislat va M.Muhammadjonovlar parchalar tarjima qilganlar. Doston hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (maqsur) vaznida (maf'uvlu mafoilun mafoyl (faulun) – – – V \ V – V – / V – – ()) vaznida yozilgan bo'lib, tarjimonlar uni ayni vaznning o'zida o'zbekchalashtirganlar:

Gufti, ki ba shir bud shahde,
Yo bud mahu miyone mahde.

Go'yo asal ichra sut topib joy,
Yo yotgan emish beshikda bir oy.

Ko'rinib turibdiki, tarjimonlar asliyat vaznigina tarjimada saqlab qolmay, mazmuni ham asliga muvofiq mukammal tarzda yarata olganlar.

Olimjon Bo'riev Nizomiy "Xamsa"sini o'z aruziy vaznida to'liq tarjima qilib, o'zbek o'quvchilariga taqdim etdi³⁵. Chunonchi, "Layli va Majnun" dostonini O.Bo'riev ham asliga muvofiq jaranglata olgan:

Maydoni suxan marost imro'z,
Beh z-in suxane kujost imro'z.

Maydoni suxan bugun manimdir,
So'z durri demak bugun tanimdir.

Jamol Kamol ham dostonni u yozilgan vaznning o'zi bilan tarjima qilib, tarjimada shakl va mazmun birligini saqlashga nuvaffaq bo'lgan. Masalan:

Bud az sa- \ dafi digar \ qabila
Nosufta \ dure- sh ha- m \ tavila.

Bor erdi \ qatorda o'z- \ ga inju,
Kelmishdi \ bo'lak qabi- \ ladan u.

- - V \ V - V - \ V - -
maf'uvlu \ mafoilun \ mafoyil

Bu vazn barcha "Layli va Majnun" dostonlari uchun xos bo'lib, an'anaga ko'ra o'zbek she'riyatida kam qo'llanishiga qaramay, Alisher Navoiy ham ushbu mavzudagi dostonini shu vaznda yaratgan.

Nizomiy Ganjaviy nafaqat Sharq, balki jahon so'z san'atining ham zabardast namoyandalaridan biri. Binobarin, shoir asarlarining mukammal va barkamol tarjimalari o'zbek adabiyoti xazinasini boyitibgina qolmay, asrlar davomida jahon

³⁵ Qarang: Nizomiy Ganjaviy. Xamsa. Forsiydan Olimjon Bo'riev tarjimasi. – Toshkent: "Istiqlo'l nuri", 2016. – 684-bet.

talabi va o'quvchilar ehtiyoji nuqtai nazaridan yangi tarjimalarni taqozo qiladi. Yoki atoqli turkman shoiri Maxtumquli she'rlari 10 dan ziyod tarjimonlar tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan bo'lishiga qaramay, asliyatga shakl va mazmun jihatidan har tomonlama muvofiq tarjima yaratish yo'lida tarjimonlar o'rtasida ijodiy musobaqa sira to'xtamasligi shubhasiz.

Xamsachilik kashshofi Nizomiy Ganjaviy dostonlari ham qayta-qayta tarjima qilinib, ulardagi mazmun teranligi va ma'no rang-barangligi, yuksak badiiyat sirlari va shoir mahorati qirralari yangidan-yangi tarjimalar vositasida kashf etib borilaverishi kerak. Binobarin, buyuk so'z san'atkori "Xamsa"si ikkinchi tarjimasining paydo bo'layotganini o'zbek tarjima adabiyotidagi ijobiy hodisa sifatida baholash kerak. Natijada, aytaylik, "Xusrav va Shirin" dostonining uchinchi tarjima nusxasi paydo bo'ladi (Qutb Xorazmiy, Olimjon Bo'riev, Jamol Kamol). "Layli va Majnun" dostonining esa hozirda ikki tarjima nusxasiga egamiz. Bungacha esa undan parchalar tarjima qilingan.

1947 yil Nizomiyning 800 yillik yubileyi sobiq Ittifoq miqyosida keng nishonlandi. Shu munosabat bilan O'zbekistonda ham shoir "Xamsa"si dostonlari tarjimasidan namunalar – "Xusrav va Shirin" (Qutb tarjima-si), "Maxzan ul-asror" (Haydar Xorazmiy tarjimasi), "Haft paykar" (Ogahiy tarjimasi) hamda "Layli va Majnun" (N.Oxundiy, Xislat va M.Muhammadjonovlar tarjimasi)dan parchalar Maqsud Shayxzoda so'zboshisi bilan alohida to'plam holida "Guldasta" ("Panj ganj"dan parchalar) nomi ostida nashr qilindi. "Layli va Majnun" dostonidan N.Oxundiy, Xislat va M.Muhammadjonovlar parchalar tarjima qilganlar. Doston hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (maqsur) vaznida (maf'uvlu mafoilun mafoyil (faulun) – – – V \ V – V – / V – – ()) vaznida yozilgan bo'lib, tarjimonlar uni ayni vaznning o'zida o'zbekchalashtirganlar:

Gufti, ki ba shir bud shahde,
Yo bud mahu miyone mahde.

Go‘yo asal ichra sut topib joy,
Yo yotgan emish beshikda bir oy.

Ko‘rinib turibdiki, tarjimonlar asliyat vaznigina tarjimada saqlab qolmay, mazmuni ham asliga muvofiq mukammal tarzda yarata olganlar.

Olimjon Bo‘riev Nizomiy “Xamsa”sini o‘z aruziy vaznida to‘liq tarjima qilib, o‘zbek o‘quvchilariga taqdim etdi³⁵. Chunonchi, “Layli va Majnun” dostonini O.Bo‘riev ham asliga muvofiq jaranglata olgan:

Maydoni suxan marost imro‘z,
Beh z-in suxane kujost imro‘z.

Maydoni suxan bugun manimdir,
So‘z durri demak bugun tanimdir.

Jamol Kamol ham dostonni u yozilgan vaznning o‘zi bilan tarjima qilib, tarjimada shakl va mazmun birligini saqlashga muvaffaq bo‘lgan. Masalan:

Bud az sa- \ dafi digar \ qabila
Nosufta \ dure- sh ha- m \ tavila.

Bor erdi \ qatorda o‘z- \ ga inju,
Kelmishdi \ bo‘lak qabi- \ ladan u.

– – V \ V – V – \ V – –
maf‘uvlu \ mafoilun \ mafoyil

Bu vazn barcha “Layli va Majnun” dostonlari uchun xos bo‘lib, an‘anaga ko‘ra o‘zbek she‘riyatida kam qo‘llanishiga qaramay, Alisher Navoiy ham ushbu mavzudagi dostonini shu vaznda yaratgan.

Nizomiy Ganjaviy nafaqat Sharq, balki jahon so‘z san‘atining ham zabardast namoyandalaridan biri. Binobarin, shoir asarlarining mukammal va barkamol tarjimalari o‘zbek adabiyoti xazinasini boyitibgina qolmay, asrlar davomida jahon

³⁵ Qarang: Nizomiy Ganjaviy. Xamsa. Forsiydan Olimjon Bo‘riev tarjimasi. – Toshkent: “Istiqlol nuri”, 2016. – 684-bet.

ilmu adab ahlining hayratga solib kelgan buyuk o‘zbek adabiyoti oziqlangan manbalarni teran idrok etish, o‘zbek va ozarbayjon adabiyotlarining o‘zaro aloqalari va adabiy ta’sir masalalarini o‘rganish borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko‘p yillik tarjimonlik malakasi va ko‘plab durdona asarlar tarjimasida orttirgan mahorati qo‘l kelib, Jamol Kamol dostonni shavqu zavq bilan o‘zbekchalashtirgan – ham o‘z vaznida tarjima qilib, ham asarning ma’no nozikliklariyu muallifning daqiq taxayyuli mahsuli bo‘lgan teran fikrlarini o‘zbek o‘quvchilariga aniq-tiniq yetkazib, tarjimada shakl va mazmun birligini saqlashga erishgan. O‘zbek tilining so‘z boyligi va ma’no tovlanishlarini chuqur his qilib, ajoyib badiiy kashfiyotlar yaratgan. Chunonchi:

Ob archi hama zulol xezad,
Az xo‘rdani pur malol xezad.

Baytning mazmuni: “Suv har qancha toza va musaffo bo‘lmasin, ko‘p ichsa, joningga ziyon bo‘ladi”. Bu yerda “hamma” so‘zi “boshdan-oyoq, butunlay, tamomila, har qancha” ma’nolarida kelgan. Tarjimon uni “shirin” so‘zi bilan almashtirib, o‘zbekchada shoir fikrining yanada kuchli va ta’sirchan chiqishini ta’minlagan: “Suv har qancha chuchuk va tiniq bo‘lmasin, me’yoridan ortiq ichsa, jonga azob bo‘ladi”:

Suv garchi shirin, zilol kelgay,
Ko‘p ichsa uni, malol kelgay.

O‘z ishqining cheksizligini ta’kidlash uchun Majnun agar yer yuzidagi tuproq zarralarini sanash mumkin bo‘lsa, o‘shandagina mening ko‘nglimdan ishqni surib chiqarish mumkin deydi. Ayni mazmundagi bayt ham o‘zbekchada aniq-tiniq o‘z ifodasini topgan:

Ishq az dili man tavon supurdan,
Gar regi zamin tavon shumurdan.

Ishqimning adosi bo‘lgay unda,
Qunlar sanalursa gar zaminda.

Tarse' san'atiga asoslangan mana bu baytni ham mutarjim o'zbek tilida qoyimmaqom tarzda jaranglata olgan:

Juz nola kase nadosht hamdam,
Juz soya kase nayof mahram.

Bir noladin o'zga hamdami yo'q,
Bir soyadin o'zga mahrami yo'q.

Nizomiying tashbehu timsollar, obrazli iboralar, badiiy san'atlarga boy badiiy yuksak baytlarini ham Jamol Kamol asliga muvofiq go'zal va ta'sirchan tarzda tarjima qilishning uddasidan chiqqan:

Shab chun sari zulfi yor torik,
Rah chun tani do'stdor borik.

Yor zulfi kabi qoraydi kecha,
Yo'l -- oshig'i zor kabi ingichka.

Albatta, J.Kamol matnini bir qadar erkin talqin qilgan, ba'zida obrazli iboralarni oddiy tarjima qilgan o'rinlar ham yo'q emas. Masalan, quyidagi baytning mazmuni: "Tong qushi kabi nola qildi, kuni tunday qoraydi" bo'lib, birinchi misrani tarjimon "Yoshga to'la ko'ziga jahon tor bo'lib qoldi" tarzida umunlashtirib tarjima qiladi:

Nolid chu murg'i subhgohi,
Ro'zash chu shabe shud az siyohi.

Yoshli ko'ziga jahon toraydi,
Kunduz edi, tun kabi qoraydi.

Tarjimonning butun ijodkorligi matn doirasida bo'ladi -- uning matndan tashqari chiqishga haqqi yo'q. Lekin u adabiy til va jonli xalq nutqining boy imkoniyatlaridan foydalanib, asarni o'z ona tilida asliyatdagiday jaranglatishga, ba'zida hatto undan ham o'tkazib tarjima qilishga qodir. Asliyat bilan huquq talashar darajada yetuk, ba'zi jihatlardan hatto undan o'tib tushadigan go'zal tarjimalar tarjima amaliyotida ko'p topiladi. Jamol Kamol ham o'zining badiiy topilmalari bilan asarning ko'pgina

o‘rinlarini ana shunday asliyat bilan bahslashadigan darajada puxta va pishiq tarjima qilgan. Keng va chuqur bilim, katta hayotiy tajribaga ega, turmushning barcha achchiq-chuchugini totgan, inson fe‘lining butun “o‘ru qiri”ni o‘rgangan donishmand shoirning xalq maqollariday jaranglaydigan hikmatli baytu misralarini o‘zbekchada ham asliyatdagiday jaranglata olgan. Jumladan, quyidagi mazmunan teran, shaklan go‘zal, badiiy yuksak hikmatlar o‘zbek o‘quvchilarining ham ko‘nglidan mustahkam joy olib, ularning ma’naviy mulkiga aylanishi shubhasiz:

Har zarraki, garchi u g‘ubordir,
Dunyoda uning-da o‘rmi bordir.

* * *

Do‘stlar esa do‘stu hamjihat, shay,
Toshdan-da zilol chiqarsa bo‘lgay.

* * *

Kim senga yomonlik aylasa, hay.
O‘z joniga ul yomonlik etgay.

* * *

Dono kishi aylamas sira yod
Ul g‘amniki, dushmanni etar shod.

Jamol Kamol asosiy diqqatni asliyat ma’nosini tarjimada ham aniq-tiniq chiqarishga qaratganidan qoffiyaga ko‘pam e’tibor qaratmaydiganday tuyuladi. Aslida uning tarjimalardagi qoffiyani uch turkumga ajratish mumkin: to‘liq qoffiyalar, och qoffiyalar va quloq qoffiyalar. Albatta, quloq qoffiya haqida ilmiy adabiyotlarda biror-bir ma’lumot uchramaydi. Chunki u xalq ta’biri. Quloq qoffiya degani qoffiyadosh bo‘lmasa-da, qoffiya o‘rnida qo‘llangan so‘zlarning quloqqa qoffiyaday ohangdosh va jarangdosh eshitilishidir. Masalan:

Dar vaqti shudan hazor par dosht,
Chun omad, xor bar guzar dosht.

Borganda qanoti ming agarda,
Qaytarda tikan har qadamda.

Bu yerda Majnunning Layli sari borganda go'yo qanot bog'lab uchishiyu uning huzuridan qaytishda qadamiga tikan ekilgandek yo'lining sira unmasligi xususida so'z bormoqda. Ma'no asliyatga qoyinmaqom. Ammo "agarda" va "qadamda" so'zlari qoidaga ko'ra o'zaro qofiya bo'lmasa-da, ular o'qilganda quloqqa hamohang bo'lib eshitiladi. Quloq qofiya degani ana shu bo'ladi. Tarjimada yana "ishva – jilva", "uyquda – qo'ynida", "taxtni – qadahni", "g'alla – asra", "yo'lda – bo'yla", "yolg'iz – yo'lsiz", "so'ngra – so'lga", "bitsa – yo'qsa", "ravomi – olovni", "so'ngsiz – tekis", "sohib – munosib", "tojim – quvonchim", "nechukdir – kechibdir", "nozaniindir – azimdir", "totuv – ohu", "ortdi – topdi", "tarafdin – samardin", "g'ulomdir – qayondir", "hunarki – qadarki", "shubhasiz – foydasiz", "qadamni – chamanni", "qolding – muroding", "anduh – ayru", "ravodir – yondir" kabi ko'pdan-ko'p ana shunday quloq qofiyalariga duch kelamiz. O'qiganda ular qofiya emasday ko'rinsa-da, eshitganda qofiyaga o'xshab ketadi. Mumtoz adabiyotshunoslikda o'zaro ohangdosh bo'lmasa-da, arab harflari bilan bog'liq "x(v)ash – xush", "x(v)ad – xud" tarzidagi qofiyalar ilmiy jihatdan asoslanadi. Shunday ekan, uning aksi bo'lgan yozuvda hamqofiya bo'lmasa-da, eshitganda jarangdor bo'lgan xalq ijodiga daxldor quloq qofiyalarni ham oqlash kerakka o'xshaydi.

Albatta, to'q qofiya she'rga alohida joziba bag'ishlab, uning husnini ochadi, ya'ni jarangdorligini oshirib, ta'sirchanligini kuchaytiradi. Lekin hamisha ham ohorli va jarangdor qofiya topish oson emas, ba'zida hatto buning iloji ham yo'q. Shuning uchun tarjimonlar ko'pincha och qofiyaga murojaat qiladilar. To'q qofiya yaratish uchun ko'pincha tayyor – shablon qofiyalarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Och qofiya esa tarjimonning o'z kashfiyoti – shuning uchun u asosan ohorli bo'ladi. Siyqasi chiqqan to'q qofiyalar o'quvchini bezdiradi,

yangi och qotiyalar esa uni o'ziga tortadi. Jamol Kamol ijodida ham mahorat bilan topilgan och qofiyalarning butun bir silsilasiga duch kelamiz: "rassom – dashnom", "boshqa – toshga", "daqqa – badiha", "mag'lub – taklif", "larza – nayza", "xushkim – mushkin", "ulkim – o'lgum", "taqdir – tadbir", "ittifoq – ishtiyiq", "qayg'u – ayru", "mustamanddir – bilandir", "chamaudir – balanddir", "yurishni – qilichni", "xuruj – urush", "yoziq – tuzuk", "yo'riq – urug'", "harif – najib", "tariq – rafiq", "tarafdin – daraxtdin", "azaldin – nazardin", "raqib – g'arib", "jarang soz – jarangos", "ahd – gard", yuzdin – uzdim", "zud – juft", "pandni – tikanni", "qonim – qoyim", "dardni – zarbni", "kammi – g'amni", "tarafdin – daraxtdin", "jondin – tomdin", "monand – tamoman", "yiqsa – paxsa", "erdini – berding", "barcha – sajda", "payti – aytdi", "haqda – nuqta", "ko'rsam – o'sgan" va hokazo.

Ayni paytda, tarjimon ijodida ohang jihatidan bir-biriga mutlaqo yaqin kelmaydigan so'zlar ham qofiya sifatida ishlatib ketilaveradi: ular och qofiya ham, quloq qofiya ham – umuman qofiya emas: "toqat – tutmoq", "esang – o'rgat", "za'faronli – endi", "maskan – kim", "gul – ochiqdi", "so'rarman – nuridiydam", "shu onda – aroga", "zabunlik – odamiylik", "seldek – jarlik", "etsang – o'zingdan", "ayrilishdan – etsam", "suyishlar – tasallo", "toqat – alda", "istar – afzal", "falakda – arpa", "dur – oqil", "shirinlik – yanglig'", "suvdek – qumdek", "oqshom – imkon", "nondin – g'yohdin", "aslida – g'am", "avval – ofarinlar", "bir kun – ma'lum" hokazo.

Tabiiyki, "shitobon – biyobon", "ta'nalardin – nazardin", "toraydi – qoraydi", "aylagaymen – qayragaymen", "aytganimni – g'animni", "to'rga – zo'rg'a", "tingla – so'zing-la", "nodir – noravodir", "ayni – mayni", "ajoyib – g'oyib", "shul dam – ildam", "lozim – mulozim", "guruh – shukuh", "yovushgay – qovushgay", "butkul – tutgil", "dilrabodir – ravodir", "farishtasurat – zarurat", "emasmi – titramasmi", "mamnun – Majnun", "esardi – o'sardi", "viqorli

– e'tiborli", "nihoyat – himoyat", "shijoat – itoat", "nifoq – ittifoq", "holat – xijolat", "ziyo – to'tiyo", "rohat – hamoqat", "fursat – ko'rsat", "Layli – tufayli", "faromush – xomush", "qoyim – muloyim", "qovushdim – tushdim", "azim-da – zumda", "taom – tamom", "xasta – nafasda" kabi mag'zi to'q va pishiq-puxta qofiyalar tarjimada ko'pchilikni tashkil etadi.

Adabiy jamoatchilik orasida Jamol Kamol o'z tarjimalarida arabiy-forsiy so'zlarni haddan ziyod ko'p qo'llaydi degan fikrlar yuradi. Bu – bor gap. Lekin, eng muhimi, uning Sharq adabiyotining durdonalari bo'lmish badiiy barkamol asarlarni o'z aruziy vaznida tarjima qilib, o'zbek xalqining ma'naviy mulkiga aylantirayotganida. Biz shu paytgacha faqat nomini, ta'rifini eshitib kelayotgan buyuk so'z san'atkorlari asarlari bilan aynan uning qalami sharofati bilan tanishayapmiz. Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy", Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr", "Ilohiynoma", "Asrornoma", "Bulbulnoma", "Ushturnoma", "Pandnoma", Hakim Sanoiyning "Sayr ul-ibod", Alisher Navoiyning forsiy g'azal va qasidalarini, yana qator forsiyzabon shoirlarning g'azal va ruboiylari aynan uning qalami sharofati bilan o'zbek tilida jarangladi. Nizomiy "Xamsa"sining u tomonidan o'z aruziy vaznida amalga oshirilayotgan yangi tarjimasi zahmatkash mutarjimning o'zbek o'quvchilariga yangi tuhfasini hisoblanadi.

Bu tarjimalar hali alohida tadqiqotlarga mavzu bo'lishi shubhasiz. Bu yerda bizning maqsadimiz tahlil emas, tavsiya – zabardast ozar shoirining "Layli va Majnun" otlig' hassos dostonini o'quvchilar e'tiboriga havola qilish va ularni bu go'zal dardli dostonni o'qishga da'vat qilish. Nizomiyning o'z ta'biri bilan aytganda, shoir ilohiy ilhom bilan shunday bir hassos doston yaratdiki, agar Masih o'z nafasi bilan o'lganga jon ato etsa, u jon bag'ishlash barobarida o'quvchini oshiq aylashga ham qodir!

Xonandash agar fasurda boshad,
Oshiq shavad, ar na murda boshad!

“Bu dostonni o‘qigan kishining yuragi to‘nib qolgan bo‘lsa ham, agar joni chiqib ulgurmagan bo‘lsa, u shubhasiz oshiqqa aylanadi”.

Shirvonshoh nomiga yozgan xotimasida ham shoir o‘z dostonini “go‘zal noma”, “iffatli kelin” deb lutf etadi va uni o‘qiganning ko‘ngli ravshan tortib, beqiyos ma‘naviy xazina topganday bo‘ladi hamda uning muallifiga tahsin o‘qiydi deb mehnati munosib baholanishidan umidvorlik qiladi. O‘zbek o‘quvchisi esa bu betakror so‘z san‘ati mutolaasidan bahra olar ekan, muallifga qo‘shib mutarjimga ham olqish aytishi shubhasiz.

“SHAYX NIZOMIY GANJAVIY “XAMSA”SINI QANDAY TARJIMA QILDIM?”

*Jamol Kamol,
O‘zbekiston xalq shoiri*

Adashmasam, 2015 yilning kuz mavsumi edi. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi O‘zbek tili va adabiyoti instituti Mumtoz adabiyot bo‘limi mudiri, zabardast navoiyshunos olim, professor Ibrohim Haqqul xonasida gurunglashib o‘tirardik. Eshik ochilib, ichkariga qadrdon ukamiz, taniqli olim va tarjimon Ergash Ochilov kirib keldi. Salom-alikdan so‘ng “Sizni uchratganim ayni muddao bo‘ldi, ustoz”, dedi menga yuzlanib. “Kecha Ozarbayjon elchixonasi huzuridagi Haydar Aliev nomli Ozarbayjon Madaniyat Markazi direktori Samir Abbosov bir necha adabiyotshunos olimlarni chaqirib, maslahat so‘radi”. – Biz Shayx Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”sini o‘zbek tiliga to‘liq tarjima kilib, nashr etishga qaror qildik, yetuk shoir-tarjimon topishga yordamlashib yuborsangiz dedi u. Masalani muhokama qildik. Qator nomzodlarni tilga oldik. Oxir-oqibat Sizga kelib to‘xtadik. Shu xayrii ishni ham bo‘yinga olasiz endi, ustoz, – dedi Ergash kulimsirab. Eshitib, rosti gap, taraddudda qoldim. Yuragim dov bermadi. - Bu taklif bundan to‘rt-besh yil oldin bo‘lganida jon deb rozi bo‘lardim, ko‘rib turibsiz, yoshim o‘tinqirab qoldi- deb

e'tiroz etdim. Ergash bo'sh kelmadi, "hujum"ga o'tdi. –Bu ishni Siz qilmasangiz, kim qiladi? – dedi u – Bir o'rtamiyona shoirga topshirsak, shunday buyuk asarning qadrini yerga urgan bo'lamiz. Xo'p deng, Alloh o'zi madadkor bo'lib, hazrati Nizomiy, Navoiy ruhlari Sizni quvvatlaydi... Shu onda ruhimda bir evrilish paydo bo'ldi, desam, ishoning. Yuragimda bir hayajon qo'zg'alib, butun borlig'imni qamrab oldi. Bu holat menga avvaldan tanish. "Masnaviy" tarjimasi, Shayx Fariduddin Attor asarlari tarjimasi, Mirzo Abdulqodir Bedilning "Irfon" kitobi tarjimasi va boshqa tarjimalar oldidan ham shundoq bo'lgan. Bu Xudoyimning menga in'om etajak ilhomidan mujda desam, yanglishmasam kerak. Beixtiyor, mayli, roziman, deganimni o'zim ham payqamay qoldim.

Ertasi kun adabiyotshunos olima qizimiz Gulbahor Ashurova meni o'z mashinasida Ozarbayjon madaniyat markaziga olib bordi, Samir Abbosov bilan tanishtirdi. Gaplashdik, kelishib oldik. Bir necha kun o'tgach, Nizomiy oliygohida shoir Baxtiyor Vahobzoda xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan yig'inda shartnoma imzoladik. Menga bir oz qalam haqi to'laydigan bo'lishdi. Keyin Shayx Nizomiy "Xamsa"sining Dushanbeda chop etilgan nusxasini taqdim etishdi. Bilasizki, buyuk shoir o'zining shoh asarini zamona podshosi talabiga muvofiq forsiyda yozgan.

Xullas, tarjimaga kirishib ketdim. Qisqa fursatda "Mahzan ul-asror"ni tarjimalab tugatdim. Keyin "Xusrav va Shirin", "Layli va Majnun" tarjimalari ham poyoniga yetdi. Ular Ozarbayjon madaniyati markazi mablag'i hisobiga oz nusxada bo'lsa-da ketma-ket nashr etildi. Shunda meni kutilmaganda Bokuga taklif etishdi. Buni tarjimalarim manzur bo'lganiga yo'ydim. Darhaqiqat, shunday bo'lib chiqdi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universitetining ikki ustozlari Gulbahor Ashurova bilan professor Roza Niyozmetova menga hamrohlik qilishdi. Bizni Boku tayyoragohida gullar bilan kutib olishdi. Tadbirga boshdan-oxir Ozarbayjon milliy majlisi Fan, ta'lim,

madaniyat va adabiyot qo‘mitasi raisi, adiba va olim G‘anira Poshshaeva rahbarlik qildi.

Boshlab faxriy qabriston va shahidlar xiyobonini ziyorat qilib u yerda yotgan ulug‘ insonlar ruhiga bag‘ishlab Qo‘r‘on tilovat ettik. Shundan so‘ng, birinchi uchrashuvimiz mashhur YevroOsiyo universitetida bo‘lib o‘tdi. Talabalar mening she‘rlarimni ozariy tilda yod aytishdi. Meni Universitet Faxriy doktori unvoni bilan taqdirlashdi. Keyin tadbir Ozarbayjon Fanlar akademiyasi Nizomiy nomidagi Adabiyot institutiga ko‘chdi. “Jamol Kamol va Ozarbayjon adabiyoti” mavzuida ilmiy konferensiya tashkil etilib, ozariy do‘stlarimiz “Xamsa”dan qilgan tarjimalarim xususida ma‘ruzalar o‘qishdi, Baxtiyor Vahobzoda, Xalil Rizo kabi atoqli Ozarbayjon shoirlari bilan mening ijodiy hamkorligim haqida to‘lib-toshib gapirishdi. Mening hamrohlarim, olim qizlarimiz ham yaxshi chiqishlar qilishdi. Majlisga raislik qilgan Ozarbayjon Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti Iso Habibeyli muallimning bir so‘zi xotiramda naqshlanib qoldi. “Xamsa”-ku “Xamsa”, – dedi u, – bitta “Sharafnoma” dostonini tarjima etishning o‘zi shoir-tarjimon uchun naqadar buyuk sharafdirl!”

Keyin “Sharafnoma”ni tarjima qilib, bu gapning bejiz aytilmaganiga o‘zim ishonch hosil qildim. “Xamsa” dostonlari orasida “Sharafnoma” eng buyuk, eng qudratli doston degan xulosaga keldim.

O‘sha konferensiya oxirida menga so‘z berishganida Xudo ilhom berib, men ham xayolimga kelgan bir gapni aytdim: “Aziz qardoshlar, – dedim men, – bugun yo‘l-yo‘lakay bahri Hazar sohilida osmonlarga yuksalib, hilpirab turgan muqaddas bayrog‘ingizni ko‘rdim. Ozarbayjonning istagan burchagidan uni ko‘rish mumkin, deyishdi. Azizlar, boshingiz uzra yana bir yuksak bayrog‘ingiz borki, uni dunyoning istagan burchagidan ko‘rish mumkin. Bu – Shayx Nizomiy Ganjaviydir!” Majlis ahli oyoqqa turib, uzoq olqishladi.

Ertasi kun, televideniada biz uchun uyushtirilgan ko‘rsatuvda ishtirok etdik. Abadiy qon-qardoshligimiz, adabiy

birodarligimiz haqida, Nizomiy va Navoiy ustoz-shogirdligi haqida soʻzladik. Soʻngra Ozarbayjon yozuvchilar uyushmasiga taklif etildik. U yerda meni uyushmaning faxriy aʼzolicigiga qabul qilishdi.

Ozarbayjon milliy kutubxonasida boʻlgan uchrashuv yanada baland ruh va shukuh ichida kechdi. Kutubxonaga oʻz tarjimamda Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi maʼnaviy”si, Shayx Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr”, “Ilohiynoma” kitoblari va “Saylanma asarlarim”ning birinchi jildini taqdim etdim. Yigʻin oxirida Gʻanira Poshshaeva menga yuzlanib, kutilmaganda: “Ustoz, Siz yuzga kiring, Sizning yuz yoshingizni Qorabogʻda nishonlaymiz”, – deganida zal oyoqqa turdi, men yuzlarga koʻzlarga boqib, Qorabogʻ dardi-hasrati bu xalqning qalbiga kanchalar chuqur ildiz otgani, yuraklarga tosh bulib botganini his etdim. Koʻzlarimdan yosh chikib ketdi. “Omiyn, – dedim, – oʻshanday kunlarga yetkazsin!” Muni qarangki, duolarimiz ijobat boʻlib, Ozarbayjon yoʻqotgan tuproqlarni qaytarib oldi. Istilochilar Qorabogʻdan haydaldi. Bu buyuk gʻalaba bilan Ozarbayjon xalqi har qancha faxrlansa, arziydi. Bu goʻzal va jafokash xalqni biz qardoshlar yuksak gʻalabasi bilan har qancha olqishlasak oz.

Keyin Ozarbayjon respublikasi Prezidenti huzuridagi tarjima markazida suhbat boʻldi. Kechqurun buyuk bobomiz Navoiy hazratlari haykali poyiga gullar qoʻydik. Safarimiz qaridi. Erta tongda bizni yana gullar bilan kuzatib qoʻyishdi.

Samolyotda qaytayotib, oʻyladim. Bu qadar mehmonnovozlik, hurmat-eʼtiborga bois nima? Oʻylab, maʼnosiga yetganday boʻldim. Men, keksa bir shoir sakson yoshimda Nizomiy “Xamsa”sining uchta dostonini oʻz vazni, bahriga solib tarjima qildim. Charchab qolmadimmi? Qolgan uchta dostonni ham qiyomiga yetkazib tarjima qilish uchun kuch-gʻayrat kerak. Bu tadbir shoir-tarjimonga yangi kuch, yangi ruh bagʻishlash uchun tashkil etilmadimi? Chindanam Ozarbayjon safaridan ruhlanib qaytdim. Qizgʻin taassurotlar ostida “Ozarbayjon” degan qasida yozdim. Adabiyotshunos olim

qizimiz Gulbahor Ashurova uni dastlab Haydar Aliev nomidagi O'zabayjon Madaniyat markazida, keyin O'zabayjon Fanlar akademiyasining yuz yilligiga bag'ishlangan xalqaro anjumanda o'qib, olqishlarga sazovor bo'ldi. O'rni kelganda aytay, shayx Nizomiy "Xamsa"sining barcha dostonlarini Gulbahor Ashurova nashrga tayyorladi va muharrirlik qildi. Unga chin yurakdan rahmat deyman, hazilakam xizmat emas bu!

Tarjima ishlarim yurishib ketdi. "Xamsa"ning qolgan uch doston tarjimasini ham bitirdim va ular kichik adadlarda nashr etildi. Bir kuni umr yo'ldoshim rahmatli Vohidamning qabri boshida edim. Telefon jiringlab qoldi. Eshitsam, tanish ovoz.

— Qaerdasiz? — so'radi Gulbahor.

— Yunusoboddaman, — dedim.

— O'zabayjon Madaniyat markazidan Sizga kitob keltirib, Do'rmonda eshigingiz oldida kutib turishibdi. Nima qilishsin?

Qo'shnimga tashlab ketishsin, — dedim. Do'rmondagi hovlimga qaytdim. Qo'shnim Roziyaxon bir boylam kitob kiritib berdi. Boylarni ochib, ko'zlarimga ishonmadim. Bu Bokuda o'zbek tilida nashr etilgan Shayx Nizomiy "Xamsa"sining olti kitobdan iborat jamlanmasi edi. "Xamsa" mening tarjimamda oz sonda bo'lsa-da Toshkentda nashr etilgani ustiga Bokuda ham nashr etilgan edi. Mana sizga himmatu olijanoblik! Men uchun kutilmagan katta quvonch, syurpriz edi bu... Darhol Samir Abbasovga qo'ng'iroq qilib quvonchim, tashakkurimni izhor etdim.

Keyin O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida ozariy qardoshlar ishtirokida kitobning kamtarona taqdimoti bo'lib o'tdi. Holbuki, "Ummul Xamsa", "Xamsa" lar onasi" deb Sharqda dong taratgan bu buyuk asarning sakkiz asrdan keyin o'zbek tiliga to'liq tarjima etilib, kichik adadda bo'lsada, nashr qilinishi, adabiyotimizda quvonchli voqeadir.

Alisher Navoiy hazratlari go'zal turkiyda insho etilgan "Xamsa" dostonlarida har safar aziz ustozlari Amir Xusrav

Dehlaviy, Abdurahmon Jomiyga hurmat-ehtirom izhor etishlaridan oldin Shayx Nizomiy ruhiga yukinishlari bejiz emas. “Men avvalo, Nizomiydan o‘rgandim, unga ergashtim, ul Zoti sharif oldida burchliman” – deydilar buyuk bobomiz. Baski, xazrat Navoiy burchliman desalar, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti ham Shayx Nizomiy oldida burchlidir. Oliyhimmat ko‘rsatganlarga himmat ko‘rsatib, javob berish bizning ham odatimizga kiradi. Daho shoirning shoh asarini yetarli adadda, yuksak sifat ila xalqimizga taqdim etib, o‘qib-o‘rganish, ilmiy tadqiqot doirasiga tortish – sharafli vazifamizdir. Bu xayrli ishga universitet rahbariyati bosh-qosh bo‘lsa, ilmiy jamoa o‘zini safarbar etsa, ayni muddao bo‘lur edi.

So‘zinning oxirida shayx Nizomiy Xamsasidan bir parcha keltiraman. Buyuk shoir, aqlu tafakkurga suyangan inson samovotga chiqib, koinotni zabt etishini bashorat qiladi. Bunga qoyil qolmay ilojingiz yuq!

Baland ko‘k toqiga qandog‘ yetarsan?

Yetarsan, gar o‘zingni tark etarsan.

*Aqldin maslahat so‘rgil, tafakkur Falak toqiga
chiqmog‘ingni aytur.*

Aql fatvo berarkan, qo‘y qadamni,

Kayoniy qasri uzra tik alamni.

Aql shayxulmashoyixdir senga, bas,

O‘shandin hojating so‘r, boshqadanmas...

(“Xisrav va Shirin”, 5771- 5774 baytlar)

Xayrli ishlarimizga buyuk Nizomiy ruhi yor, Alloh madadkor bo‘lsin. Omiyn, yo Rabbul olamiyn!..

16.04.2021.

“IQBOLNOMA” HIKMATI

Milliy adabiyotlarning taraqqiyoti ma'lum bir tadqiqot ob'ekti sifatida ko'zdan kechirilganda, kelib chiqish e'tibori bilan bir-biriga yaqin, qardosh xalqlar o'rtasida o'zaro adabiy ta'sir va aloqa muammolarining juda teran tarixiy ildizlarga molik ekanligi ayon bo'ladi. Ozarbayjon xalqining turli xalqlar bilan adabiy aloqalar tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi.

Asrlar mobaynida davom etib kelgan urf-odat va an'analari, adabiyoti, falsafasi, me'morchiligi, musiqasi, san'ati, madaniyati, tarixi va tili jihatidan ozarbayjonliklar o'zbek xalqiga juda yaqindir. Ushbu xalqlarning bir-biriga yaqinlashtirgan umumiy va o'xshash jihatlari ularning tili, adabiyoti, madaniyatida hamisha ko'zga tashlanib turadi.

Nizomiy ijodi va adabiy ta'siri masalasi bu fikrimizning isbotidir. Sharqshunos olim E.E.Bertels ta'kidlaganidek, “Biz faqat Nizomiyga taqlid qilgan ijodkorlarning nomlarinigina sanasak ham. unda Yaqin Sharq xalqlarining butun tarixini sharh etishga to'g'ri keladi”³⁶. Chindan ham Nizomiy ijodi uzoq vaqt o'rta asr Sharq adabiyoti uchun namuna maktabi bo'lib keldi.

Nizomiyning badiiy merosi bilan tanish bo'lgan xalqlar orasida o'zbek xalqining faxr etmoqqa haqqi bor. Chunki xalqimiz ilk daf'a Qutbning tarjimasi orqali Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostoni bilan tanish bo'lgan. Bu esa o'rta asrlardayoq xalqlarimizning madaniy hayoti uchun alohida bir hodisa edi. Qutb Xorazmiy Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostonining umumiy mazmuniga xalal etkazmasdan bir qator o'zgartishlar kiritdi va 1342 yilda “Xusrav va Shirin”ning dastlabki o'zbekcha variantini yaratdi. U ushbu asarga o'zbek xalqining hayoti va turmush tarzi, urf-odat va an'alarini aks ettiruvchi lavhalar ilova qilgan edi. Nizomiyga hurmat va muhabbat bilan esga olgan Qutb asar muqaddimasida shunday yozadi: “Men Nizomiy kabi so'zlarni ipga tizdim, bu tarjimini

³⁶ Y.E.Bertels. Böyük Azərbaycan şairi Nizami: – Bakı, SSRİ EA Azərbaycan filialının nəşri, 1940, səh. 144.

qozon kabi qaynab nihoyasiga yetkazdim. Nizomiyning bolidan halvo pishirdim”³⁷.

XIV asrning oxirlari va XV asrning boshlarida o‘zbek shoirlaridan Haydar Xorazmiy Nizomiyning “Maxzanul-asror” asarini o‘zbek tiliga tarjima etarkan, unga ijodiy yondashib, original bir asar yaratdi. O‘zbek adabiyotshunoslari ushbu asarning 1409 – 1414 yillar oralig‘ida tarjima qilinganini taxmin etganlar. Haydar Xorazmiy asar tarjimasiga mas’uliyat bilan yondashganini qayd etarkan, uning mazmuniga maftun bo‘lib qolganini ta’kidlaydi. U asarning “Musannifning vasfil-holi” bobida bunday deb yozadi: “Men shayx Nizomiyning bolidan ushbu totli taomni tayyorladim. O‘zimni uning yonida his etdim. Uning nafasi bilan nafas oldim, yuragi bilan his etdim, undan nur va ko‘mak o‘tindim, o‘z xalqimga bilik bermak, la’l-javohirot sochmak uchun qo‘llarimni ochdim”³⁸.

Ozarbayjon – o‘zbek adabiy aloqalari tarixida Nizomi Ganjaviy ijodi alohida o‘rin egallaydi. Sharq adabiyotida uning asarlariga yozilgan yuzlab naziralar orasida Alisher Navoiyning asarlari o‘z originalligi bilan ajralib turadi. U Nizomiyning adabiy ta’sirida yuksalgan va shuhrat topgan san’atkordir. Shuning uchun ham Nizomi va Navoiyning ijodi alohida tadqiqotni talab etadigan mavzudir.

Navoiyning
Men ul, menki, to turk bedodidur,
Bu til bila to nazm bunyodidur,
Falak ko‘rmadi men kabi nodire,
Nizomi y kabi nazm aro qodire.

³⁷ O‘zbek adabiyoti. Birinchi tom. O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, Toshkent, 1959, 118-bet.

Bu haqda qarang: G‘ulom Husayn Alievning “Ozarbayjon – o‘zbek adabiy aloqalari (1920 – 1960)” mavzusidagi dissertatsiya. 10-20 betlar.

³⁸ Bu haqda qarang: G‘ulom Husayn Alievning “Ozarbayjon - o‘zbek adabiy aloqalari (1920 – 1960)” mavzusidagi dissertatsiya. 12-25 betlar.

Ne nazme der ersam meni dardnok
Ki, har harfi bo'lg'ay aning durri pok.
Yetar tangridin oncha quvvat menga
Ki, bo'lmas bitirig'a fursat menga.

deganida ayni haqiqatni yozgan edi.

Ma'lumki, Nizomiyning asarlari Sharq adabiyoti rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Navoiy butun ijodi davomida Nizomiy san'atidan ilhom olganini, unga buyuk hurmat bilan qaraganini bayon etgan.

Navoiy "Farhod va Shirin" asarining muqaddimasida Nizomiydan atroflicha bahs etadi, uning dahosini olqishlaydi, u bilan yonma-yon turmoq g'oyat sharaffli bir ish ekanligini ta'kidlaydi:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasig'a panja urmoq.

Tutayki qildi o'z changini ranja,
Nekim urdi aning panjasig'a panja.

Kerak sher ollida ham sher jangi,
Agar sher o'lmasa, bori palangi.

Albatta, Navoiy buyuk sher edi. U o'z "Xamsa"si bilan Nizomiyga munosib javob bera oldi. Navoiy o'zidan ilgari yozilgan "Xamsa"lar haqida so'z yuritarkan, Nizomiyning "Xamsa"sini juda yuksak baholab, "Nizomiyning "Xamsa"si o'z mundarijasi va ma'nosiga ko'ra shu qadar buyuk va salmoqdorki, uni o'lchamoq uchun lozim bo'ladigan tarozining har bir pallasi osmon qadar va har bir toshining og'irligi er kurrasi kabi" salmoqli ekanligini tushunamiz.

Navoiyning Nizomiyning "Maxzan ul-asror" asari ta'sirida "Hayrat ul-abror" va keyingi dostonlari ta'sirida "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin", "Sab'ai sayyor" va "Saddi Iskandariy" asarlarini yaratgan. Navoiy Nizomiy "Xamsa"sining

qurilishi va janrini aynan saqlab qolgan bo'lsa-da, dostonlarni o'z davrining muhim ijtimoiy muammolari bilan omuxtalashtirib yuborgan. Uning "Hayrat ul-abror" dostoni Nizomiyning "Maxzan ul-asror" asari kabi 20 ta maqolotdan (suhbatdan) iborat. U ham Nizomiy singari o'z asarini aruz vaznining "sari" bahrida yozgan. "Maxzan ul-asror"da "Birinchi xilvatning samarasi", "Ikkinchi xilvat" va "Ikkinchi xilvatning samarasi" shaklida uch xilvat bo'lgani holda, "Hayrat ul-abror"da ham uch hayrat mavjud. "Hayrat ul-abror"ning g'oyaviy mazmuni ham "Maxzan ul-asror"ga yaqin turadi. Nizomiyning asarida tasvirlangan hodisalarda o'z davrining axloqiy me'yorlari o'z aksini topgan. Nizomiy insonlarni o'z sha'nini qadrlashga, zulmdan nafratlanishga, yaltoqlik va riyokorlikdan olis yurishga, shohlarni adolatga da'vat etadi. Nizomiy uchun insonlarning qaysi millatga mansubligining, qaysi dinga sig'inishining ahamiyati yo'q. Uning uchun inson qanday amallar sohibi ekanligi, jamiyat va odamiylik uchun qanday ish tutishi muhimdir. Inson adolatli, aqlli, saxovatli va marhamatli bo'lsagina, qaysi millatga mansubligidan qat'i nazar, u yaxshi odamdir, aksincha, zolim, xasis va nomard bo'lsa, u, garchi tug'ma qarindosh bo'lsa ham, yomon odamdir... Nizomiy inson mas'uliyatini, uning hayotdagi vazifasini shunday tayin etadi:

Senki humo qushisan, sharafli ish qil albat,

Oz e, oz so'zla, berma hech kimsaga aziyat.

("Maxzanul asror"dan)

Navoiy asarlarida ham ushbu masalalar o'z aksini topgan. U o'zi yashab turgan davrning o'ziga xos xususiyatlarini san'atkorona teran aks ettiradi. Navoiy ham Nizomiy kabi adolatsiz shohlarni, zulmkor siyosatchilarni, riyokorlarni tanqid qiladi, insonlarni mehnatsevarlikka, bilim egallashga, saxovatli bo'lishga chaqiradi.

Nizomiy Iskandarning ijtimoiy kelib chiqishi, tarbiyasi, tahsili, hukmdorligi, yurishlari, shon-shuhratga erishuvidan bahs etarkan, uni bir shoh, olim va payg'ambar kabi tasvirlayli.

Navoiy esa Iskandar haqida yaratilgan ogʻzaki va yozma adabiy rivoyatlarni koʻzdan kechirib chiqib, uning harbiy sarkardalik mahoratini qalamga oladi. U, Nizomiydan farqli oʻlaroq, Iskandarni fantastik olamdan ajratib olib, uni “paygʻambarlikdan xalos etadi”, diniy mohiyat kasb etadigan jihatlarini tashlab, “ideal” afsonaviy obrazni bir qadar hayotiyashtirib, faqatgina shoh va olim sifatida taqdim etadi.

Zero, Nizomiydan, Amir Xusravdan 200 – 300 yil keyin yashagan Navoiy, albatta, yangi davrning gʻoyaviy turmushi va tarixiy sharoiti sanʼatkor oldiga qoʻyadigan yangi vazifalarni nazarga olmogʻi lozim edi. Shuning uchun ham u “Saddi Iskandariy”da bu masalalarga katta oʻrin ajratadi. Navoiy ushbu asarida oʻzining ijtimoiy-siyosiy fikrlarini, falsafiy va axloqiy qarashlarini singdirib yuboradi. U davrning siyosiy arboblari oldiga muhim talablar qoʻyib, Nizomiy singari ularni ham Iskandardan oʻrnak olishga chaqiradi. Navoiy hukmdor bilan xalqning, hukmdor bilan saroyning, hukmdor bilan qoʻshinning, hukmdor bilan faylasuflarning aloqasini “hokimiyatning zaruriy shartlari” deb hisoblarkan, barcha oʻrta asr gumanistlari, shu jumladan oʻz ustozlari Nizomiy bilan yakdil fikrga keladi.

Nizomiy “Xamsa”sining beshinchi dostoni “Iskandarnoma” boʻlib, u “Sharafnoma” va “Iqbolnoma” nomli ikki dostonidan iborat. “Sharafnoma”da shoir Iskandarning tugʻilishidan to Noʻshobani asirlikdan ozod etib, obi hayotni qidirob zulmatga kirishigacha boʻlgan voqealarni tasvirlaydi. “Iqbolnoma”da esa Iskandarning turli soha olimlari bilan inson va koinot, obektiv borliq, ijtimoiy hayot, ilohiyot xususidagi savol-javoblari batafsil yoritilgan.³⁹

“Iqbolnoma” “*Ollohga munojot*”, “*Paygʻambari akram, sallallohu alayhi vassallam vasfida*” qismlaridan soʻng “Dostonning yozilish sababi va yori doʻstlar yodi” bobida hayot va oʻlim, yoshlik va qarilik, vaqt va mehnat, soʻzning qadri va

³⁹ Bu haqda qarang: Homidjon Homidiy. Ganjalik Daho. “Iqbolnoma”ning Jonibek Subhon tarjimasiga soʻzboshi. T. “ART FLEX” nashriyoti, 2009 y. 3-8-betlar.

soʻz mashaqqatlari, fikr keskirliги haqida falsafiy mushohalar yuritadi. Dostonning yozilishi tafsilotlari haqida oʻgoh etadi:

...Bu yangi sahfga soʻz kerak andoq,
Ki boʻlsin pokiza dur kabi porloq.
Fikr oʻtkir boʻlsin, uchqur mukammal,
Keskir qilichni ham sindirsin oʻshal...
Shoir osonlikcha sheʼrga yetishmas,
Har gal tosh bagʻridin gavhar olur, bas...

“Iqbolnoma” ni oʻqish asnosida kitobxon toshlar bagʻridan soʻz va hikmat gavharlarini terishi mumkin.

Shoh Iskandarning turli soha olimlari bilan inson va koinot, obʻektiv borliq, ijtimoiy hayot, ilohiyot xususidagi savol-javoblari batafsil yoritilgan. Iskandar yetti faylasuf: Balinos, Suqrot, Arastu, Falotun, Volisu Farfuriyus, Ruhulqudus va Hirmisi valiyilar bilan olamning yaratilishi va turli mavzularda majlislar tuzadi. Albatta, haqiqiy olim va faylasuflar davrasi ilm nuri bilan charogʻon boʻladi. Ularning davrasini adib shunday taʼriflaydi:

Yetti pargor edi shoh tegrasida,
Ul esa nuqtadek, eng oʻrtasida.
Ajab davra edi, shu kuchli, porloq,
Kibrdan xoliyu bodadin yiroq...

Shuningdek, adib dostonning “Har ishda meʼyorga rioya qilish zarurati” bobida obrazli tashbehdan foydalanganiki, Jamol Kamol tarjimasida ham bu nihoyatda oʻrniga tushgan:

Yiroq boʻlsa aqlu donishdan saho,
Teshik togʻoradek chiqarar sado.
Kishi gar meʼyorga amal etgusi,
Hisobda sanogʻi mingga yetgusi...

Eʼtiboringizga havola etilayotgan “Iqbolnoma” Shayx Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”sining beshinchi dostoni boʻlmish “Iskandarnoma”ning ikkinchi kitobi, shoir ijodining durdonasidir.

“Iqbolnoma”da Jahongirning ulugʻ faylasuflar bilan suhbatlari, paygʻambarlik maqomiga yetib, gʻarbu sharq, janubu shimol mintaqalariga sayohatlari va kutilmaganda vafot etgani

qalamga olinib, Nizomiy shular vositasida o'zining umr xulosalarini bayon etadi, hayot va mamot, aql va iymon, jamiyat va adolat kabi umumbashariy masalalar ustida muhokama, mushohada yuritadi.

Hikoyatu rivoyatlar zanjirdek tizib tashlangan bu kitob – noyob hikmatlar xazinasi, buyuk pandnomadir.

Quyida biz professor Nurboy Jabborovning maqolasini ushbu kitobga kiritishni lozim deb topdik.⁴⁰

NIZOMIY GANJAVIY VA ALISHER NAVOIYNING IJOD TUTUMI

Buyuk ozarbayjon shoiri shayx Nizomiy Ganjaviy turkiy millatning benazir mutafakkiri sifatida jahon adabiyotidagi noyob poetik hodisa – xamsachilikni boshlab berdi. Garchi forsiyda bitgan bo'lsa ham, ulug' shoimning “Panj ganj”ida turkiy tafakkur, turkiy ruh aks etgani ma'lum (Nacafzada 2019). Ulug' o'zbek mutafakkiri hazrat Alisher Navoiy esa “Xamsa”si bilan Nizomiy Ganjaviy boshlagan poetik an'anani yangilash barobarida yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tardi. Ozarbayjon-o'zbek adabiy aloqalariga doir e'tiborga molik ilmiy tadqiqotlar muallifi professor Almaz Ulviyning yozishicha, Alisher Navoiy Nizomiy an'alarini izchil davom ettirish bilan cheklanmay, turkiy adabiyotning taraqqiyot darajasini yanada yuksaltirdi (Ulviy 2016, 17). Zero, Navoiy “...butun ijodi davomida Nizomiy san'atidan ilhom olgan, unga buyuk hurmat bilan qaragan” (Sirojiddinov 2019, 642).

Ikki buyuk shoir “Xamsa”larida ijod konsepsiyasiga doir qarashlar qanday aks etgani hamda ular o'rtasidagi mushtarak va o'ziga xoslik nimalardan iborat ekanini aniqlash qiyosiy adabiyotshunoslikning muhim ilmiy muammolaridandir. Mazkur ilmiy muammoning tadqiq qilinishi, birinchidan, turkiy xalqlar o'rtasidagi o'zaro adabiy ta'sirning ildizlarini aniqlash uchun asos

⁴⁰ Nurboy Jabborov. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2021 yil, 6-son, 192-198B.

sifatida xizmat qilsa, ikkinchidan, buyuk ijodkorlar adabiy-estetik qarashlarini qiyosiy o'rganish, nazariy umumlashmalar chiqarish imkonini beradi. Tabiiyki, bizning bu boradagi muxtasar kuzatishlarimiz ushbu muammo tahlilini to'liq qamrab olishni da'vo qilmaydi. Maqoladagi fikrlarni beqiyos ummondan olingan bir hovuch suvga qiyoslansa bo'lar, ehtimol.

IJODKOR TUTUMI – POETIK TAFAKKUR YUKSALISHINING ASOSI

Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiyning ijod tabiati va ijodkor tutumiga doir qarashlari bugungi kun uchun ham katta ahamiyatga ega. Bizningcha, ikki buyuk adib badiiy ijod oldiga quyidagi adabiy-estetik talablarni qo'ygan: 1) qalam va so'zni muqaddas bilish, uni vositai joh etishdan saqlanish; 2) ijod namunasi mukammal badiiyat bilan birga teran ma'noni mujassam etmog'i zarurligi; 3) badiiy asar Haq va haqiqatga tayanishi; 4) ijodkor o'z mustaqil yo'lidan yurishi, taqliddan yiroq bo'lishi kerakligi.

Ushbu mezonlar Nizomiy hamda Navoiy ijodi va adabiy-estetik qarashlarining mohiyatini belgilaydi.

1. Qalam va so'zni muqaddas bilish, uni vositai joh etishdan saqlanish. "Xusrav va Shirin" dostonida Nizomiy qalamning muqaddas ekani masalasiga alohida urg'u beradi. Buyuk shoir ta'rificha, so'zdagi xatolik qalam vositasida tuzatiladi. Ijodkor jumladan, mana bunday yozadi:

So'zimda ne xatolik uchrasa, kech,
Qalam chek ustiga, to qolmasin hech⁴¹. (Nizomiy
2019 (2), 20)

Nizomiy nazdida so'zning qadri yuksakdir. Buyuk shoirning so'zni osmonga boylashi sababi shunda. Shu bois u

⁴¹ Nizomiy Ganjaviy "Panj ganj"idan olingan misollar asliyatdan O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol amalga oshirgan tarjima matni asosida tahlil etildi. Manba: Nizomiy Ganjaviy. Xamsa. Besh jildda. Bako, 2019.

qalamni ganjnomalar qulfini ochuvchi olmos nayzaga tashbeh etadi:

O'shal muddatki xilvat aylamishdim,
So'zimni osmonga boylamishdim...

Qalam ilkingda olmos nayzadir chin,
Ochar ul necha bir ganjnoma qulfin. (Nizomiy 2019

(2), 55-56)

Darhaqiqat, so'z xazinasiga eltuvchi yo'lning ochqichi qalamdir. Biroq bu xazinani qo'lga kiritish oson emasligi ayon. Ranj tortmay, rohatdan voz kechmay turib, bu maqsad hosil bo'lmaydi. Raqam chekmoq ishida, ya'ni yuksak badiiy asarlar ijod qilishda qalam ranj tortmog'i zarurligining sababi shunda.

Shayx Nizomiy qalam ta'rifiga dostonning turli boblarida mantiq zarurati bilan to'xtalgan bo'lsa, hazrat Alisher Navoiy "Farhod va Shirin"ning alohida bobini "Qalam vasfida bir necha qalam surmak va ul raqamkash ta'rifin raqamg'a keturmakki, nazm kishvari savodin yakqalama qilib erdi va «Panj ganj» avroqig'a guharposh raqami tortilib erdi va ul roqim bobida hamki munung xatti ma'nisin raqam-baraqam bildi, balki qalam-baqalam naql qildi. «Bayyazallohu taolo avroqa jaroyimiho» deb nomlaydi. Ahamiyatli jihati, Navoiy ushbu bobni qalam vasfi bilan boshlab, ikki buyuk salafi Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy fazilatlarini ta'rifi bilan davom ettiradi. Dostonning mazkur bobi quyidagi satrlar bilan boshlanadi:

Qalamkim rahnavardi teztakdur,
Azaldin manzili favqu-l-falakdur. (Navoiy 2011
(1), 323)

Ya'ni qalam eng ildam yo'lchidir, uning uchun masofa ahamiyatga molik emas. Qalamning manzili falakdan ham yuksakroqda – Arshdadir. Bu o'rinda taqdir kitobi – Lavhu-l-mahfuzni yozgan ilohiy qalam nazarda tutilgan. Hazrat Navoiy fikricha, qalam ahli buni nazarda tutmog'i, maskani favqu-l-falak bo'lgan qalamning sharafini yerga urmasligi zarur. Boshqacha aytganda, qalam bilan faqat va faqat munosib so'zlar bitilmog'i

kerak. Ikki buyuk ijodkor Nizomiy va Dehlaviy ijodi bu borada barcha zamon ijodkorlariga namuna bo'la oladi. Agar qalamga ana shu ulug' shoirlar kabi munosabatda bo'linmasa, mas'uliyat yodda tutilmasa, ijod ahli qo'lidagi qalam daryoda o'sgan oddiy qamishdan farq qilmaydi:

Qalam bahri kafida turfa ishdur,
Magar daryo aro butgan qamishdur. (Navoiy 2011
(1), 329)

Qalamni vasf etar ekan, hazrat Navoiy qalam ahlining ustozi Nizomiy garchi Ganjada orom topgan bo'lsa ham, har qadami ganj uzra ekani haqidagi fikrni ilgari suradi. Yulduzlar guruhi osmonni qoplagani singari uning xazinasidan sochilgan gavharlar yaksar jahonni tutgani buning isbotidir. Bu xazinadagi gavharlarning qimmatini shundaki, sarflagan bilan ado bo'lmaydi. Har kimki bu gavharlardan nasiba ola bilsa, yuz yilda ham mingdan biri kam bo'lmaydi.

Shayx Nizomiy fikricha, qalam ahlining martabasi behad yuksak. Chunki ular ikki jahon ganjinasining kaliti hisoblangan so'z bilan ish ko'radi:

Ahli qalam cheksa-da so'z ranjini,
So'zda ochur ikki jahon ganjini. (Nizomiy 2019 (1),
74)

Chunki ular qalamni emas, aslida jonlarini tarashlaydi. Ko'ngillarida sidq, qalblarida fikrat bo'lgani bois ham ular har qancha hurmatga munosibdir:

Jonni tarashlaydi qalam tig'idin,
Fikrat o'qir qalbi, ko'ngil sidqidin. (Nizomiy 2019
(1), 74)

Hazrat Alisher Navoiy ta'biricha, Tangri taolo o'z sirlarining xazinasini bo'lgan insonni yaralmishlar ichida so'z tufayli mumtoz etdi. Hatto olamning yaratilishi ham so'z sharofatidan. Shuning uchun "Xazoyin ul-maoniy"dagi lirik she'rlarida ham, nasriy va adabiy-ilmiy asarlarida ham ulug' mutafakkir so'z qadri, so'z mas'uliyati masalalariga alohida diqqat qaratadi. "Xamsa"ning har bir dostonida so'z ta'rifiga

alohida boblar bag'ishlaydi. "Nazm ul-javohir" asarida, jumladan, so'zga mana bunday ta'rif beriladi:

So'zdurki nishon berur o'lukka jondin,
So'zdurki berur jong'a xabar jonondin,
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhare sharifroq yo'q ondin. (Навоий 2011

(4), 32)

Ulug' mutafakkirning so'zga bu qadar ehtirom bilan munosabatda bo'lishi zamirida, birinchidan, inson uchun so'zning nechog'lik ulug' ne'mat ekani, uni qadrlash zarurati ifodalangan bo'lsa, ikkinchidan, ijod ahli zimmasidagi ulkan mas'uliyatni ta'kidlash maqsadi yotadi.

"Hayrat ul-abror"da buyuk salafi, vatani Ganja, ko'ngli ganjxez, xotiri ganjuru tili ganjrez shayx Nizomiyni vasf etar ekan, shoir mana bunday yozadi:

Ganja quyoshiki, ko'targach alam,
Ayladi so'z mamlakatin yakqalam... (Навоий

2011 (1), 41)

Ya'ni Ganja quyoshi (*Nizomiy nazarda tutilgan – N.J.*) nazm bayrog'ini ko'targach, so'z mamlakatini yakqalam qildi. Nizomiy she'riyatining jahoniy shuhratini hazrat Navoiy ana shunday ta'rif etadi. Bu orqali qalam va so'zning qadri nechog'liq baland ekaniga urg'u beradi.

2. Ijod namunasi mukammal badiiyat bilan birga teran ma'noni mujassam etmog'i zarurligi.

So'z, har ikki ijodkor – Nizomiy va Navoiy nazdida birday ilohiy ne'mat sifatida qadrlanadi. Nizomiy talabiga ko'ra, teran ma'noni ifoda etmagan so'z yozib takror etishga arzimaydi. So'zning nazm ipiga tizilishi hali she'r degani emas, chinakam she'r bo'lishi uchun poetik matn zamirida chuqur ma'nodan tashqari ixlos va jonfidolik tajassum topmog'i zarur. Yana bir sharti, oz so'zda ko'p ma'no ifodalanmog'i (Yuz etma bir

so‘zingni, yuzni bir et), me‘yorga amal qilinmog‘i (Kerakdir so‘zga ham suv singari had) lozim:

Suxankim manbayi ma‘no emas ul,
Yozib, takror etishga arzimmas ul.

Qiyinmas so‘z tizib, nazm aylamak, lek
Kerakdir so‘zga ixlos, jonfidolik.

So‘zingni cho‘zma ortiq, muxtasar et,
Yuz etma bir so‘zingni, yuzni bir et.

Kerakdir so‘zga ham suv singari had,
Oshib-toshganda g‘arq aylaydi albat . (Nizomiy

2019 (2), 49)

“Nizomiyning dohiyligi shundaki, uning qalami janrning shakliy qoliplariga rioya qilmaydi, aksincha janmi qalam talablariga rioya etishga majbur qiladi” (Kerimli 2019, 3).

Hazrat Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida

Nazmda ham asl anga ma‘ni durur,

Bo‘lsun aning surati har ne durur.

Nazmki ma‘ni anga marg‘ub emas,

Ahli maoniy qoshida xo‘b emas (Havoniy 2011 (1),

51) –

deb yozar ekan, bu orqali zamonlar kelib nazmning suratida yangilanishlar bo‘lishini bashorat qilgan. Buyuk shoir nazmning rango-rang liboslar bilan ziynatlanishi tabiiy ekanini ta‘kidlash barobarida, har qanday shaklda bo‘lishidan qat‘i nazar, “asl anga ma‘ni” ekanini alohida ta‘kidlaydi. Ma‘ni jihatdan marg‘ub bo‘lmagan nazm maoniy ahlining e‘tiborini qozona olmasligiga e‘tibor qaratadi.

Alisher Navoiyning bu masaladagi adabiy-estetik tutumi “Badoyi‘ ul-bidoya” devoni debochasida ham qat‘iy ifodalangan: “Yana bir bukim, go‘yiyo ba‘zi el ash‘or tahsilidin va devon takmilidin g‘araz majoziy husnu jamol tavsifi va maqsud zohiriy

xatti: xol ta'rifidin o'zga nima anglamaydururlar. Devon topilg'aykim, anda ma'rifatimiz bir g'azal topilmag'ay va g'azal bo'lg'aykim, anda mav'izatangiz bir bayt bo'lmag'ay. Mundoq devon bitilsa, xud. asru behuda zahmat va zoyi' mashaqqat tortilg'on bo'lgay'. (Навои й 2011 (3), 21)

Bu o'rinda buyuk adib "ma'ni" tushunchasiga yanada oydinlik kiritadi. Uning "ma'rifatimiz, mav'izatangiz" bo'lmog'i zarurligiga e'tibor qaratadi.

Ta'kidlash zarurki, shayx Nizomiy ham, hazrat Navoiy ham "ma'ni"ga urg'u berar ekan, zinhor badiiyatni inkor etmaydi. Aksincha, nazmda yoki nasrda bitilgan bo'lishidan qat'i nazar, so'z san'ati namunasida teran mazmun va go'zal badiiyat uyg'unligi talab etilishini ta'kidlaydi. Har ikki mutafakkir o'z asarlari orqali buning beqiyos namunasini ko'rsatadi.

3. Badiiy asar Haq va haqiqatga tayanishi. Har ikki mutafakkir ta'rificha, ana shu fazilatdan mahrum asar hyech qanday qimmatga ega emas. Ular fikricha, ijod namunasi Haq va haqiqat nuriga yo'g'rilmog'i shart va zarur. Aks holda ijod ahlining so'zi e'tiborga tushmaydi, e'tirof qozona olmaydi. Nizomiy "Maxzan ul-asror"da bu boradagi qarashlarini quyidagicha ifoda etadi:

*Kajligidin gulda tikan bitdi gar,
Rostligidin topdi shakar nayshakar.*

*Qaydaki rostlikka tikilgay alam,
Haq o'sha bayroqni ko'targay baland.* (Низомий
2019 (1), 194)

Ulug' shoirning mazkur baytlarda qo'llagan tashbehlari zamirida hayotda ham, ijodda ham rostlikka, Haq va haqiqatga rioya etish zarurati ifodalangan. Uningcha, kaj, ya'ni egri bo'lgani bois gulda tikan bitadi. To'g'ri o'sgani, rostligi tufayli nayshakardan shakar olinadi. Qaerdaki rostlikka bayroq tikilsa, Haq taolo bu bayroqni yuksakka ko'taradi. Bu fikrlarni ijod jarayoniga tatbiq etilsa, ijodkor uchun mezon – rostlik, Haq va haqiqat bo'lmog'i kerak.

Ayni mohiyatni hazrat Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror”da quyidagicha badiiy talqin etadi:

Nukta su yanglig' eritur toshni,

Topsa haqiqat o'tidin choshni.

Bo'lsa haqiqat guharidin yiroq,

Rishta so'zin so'zlamagan yaxshiroq. (Навоий

2011 (1), 44)

Ya'ni, haqiqat guharidin mosivo so'zni so'zlashdan naf yo'q. Bunday so'z na xaloyiq oldida e'tiborli, na Xoliq nazdida. Insoniyat tarixining ibtidosidan to bugunga qadar qog'oz qoralaganlar soni qancha ekanini Yaratganning o'zi biladi, ular orasida bitiklari el ko'ngliga malham bo'lganlari esa barmoq bilan sanarlidir. Chunki, ijod sir-sinoatga to'liq jarayon. Qalbida hidoyat nuri mujassam bo'lganlargina ham xalqqa, ham Haqqa manzur asarlar bitish sharafiga noil bo'ladi. Shayx Nizomiy va hazrat Navoiy ijodi buning isbotidir, ular asarlarining umrboqiyligi boisi ham shunda.

Rost suxan birla amal ayla, hoy,

Pushtu panoh senga qodir Xudoy.

Tab'i Nizomiyki, kamarbastadir,

Ishlari rostlik ila orastadir. (Низомий 2019 (1),

197)

Mazkur baytlarda Nizomiy zohiran o'z-o'ziga xitob qilayotgandek ko'rinsa ham, aslida buni butun ijod ahliga qilingan murojaat deb qabul qilmoq zarur. Buyuk mutafakkir rost suxan birla qilingan amalgina Haq taologa ma'qul kelishini, Nizomiyning tab'i she'r yozishga moyil ekan, faqat rostlikkina asarlarini orasta etishini, faqat shundagina, kelajak nasllarga-da ma'qul bo'lishini ta'minlaydi.

Hazrat Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasida ijod ahliga baho berar ekan, ularning Haq va haqiqatga munosabatini asosiy mezon deb biladi. Jumladan, birinchi majlis ibtidosida “*haqoyiq va maorif adosida nazm libosi dilpazirroq*” ekanini alohida ta'kidlaydi. Asarlarida “*haqoyiq va maorifni darj etgan*” shoiru adiblarni alohida e'tirof etadi.

xaitu xol ta'rifidin o'zga nima anglamaydururlar. Devon topilg'aykim, anda ma'rifatimiz bir g'azal topilmag'ay va g'azal bo'lg'aykim, anda mav'izatangiz bir bayt bo'lmag'ay. Mundoq devon bitilsa, xud asru behuda zahmat va zoyi' mashaqqat tortilg'on bo'lgay". (Навои й 2011 (3), 21)

Bu o'rinda buyuk adib "ma'ni" tushunchasiga yanada oydinlik kiritadi. Uning "ma'rifatimiz, mav'izatangiz" bo'lmog'i zarurligiga e'tibor qaratadi.

Ta'kidlash zarurki, shayx Nizomiy ham, hazrat Navoiy ham "ma'ni"ga urg'u berar ekan, zinhor badiiyatni inkor etmaydi. Aksincha, nazmda yoki nasrda bitilgan bo'lishidan qat'i nazar, so'z san'ati namunasida teran mazmun va go'zal badiiyat uyg'unligi talab etilishini ta'kidlaydi. Har ikki mutafakkir o'z asarlari orqali buning beqiyos namunasini ko'rsatadi.

3. Badiiy asar Haq va haqiqatga tayanishi. Har ikki mutafakkir ta'rificha, ana shu fazilatdan mahrum asar hyech qanday qimmatga ega emas. Ular fikricha, ijod namunasi Haq va haqiqat nuriga yo'g'rilmog'i shart va zarur. Aks holda ijod ahlining so'zi e'tiborga tushmaydi, e'tirof qozona olmaydi. Nizomiy "Maxzan ul-asror"da bu boradagi qarashlarini quyidagicha ifoda etadi:

*Kajligidin gulda tikan bitdi gar,
Rostligidin topdi shakar nayshakar.*

*Qaydaki rostlikka tikilgay alam,
Haq o'sha bayroqni ko'targay baland.* (Низомий

2019 (1), 194)

Ulug' shoirning mazkur baytlarda qo'llagan tashbehlari zamirida hayotda ham, ijodda ham rostlikka, Haq va haqiqatga rioya etish zarurati ifodalangan. Uningcha, kaj, ya'ni egri bo'lgani bois gulda tikan bitadi. To'g'ri o'sgani, rostligi tufayli nayshakardan shakar olinadi. Qaerdaki rostlikka bayroq tikilsa, Haq taolo bu bayroqni yuksakka ko'taradi. Bu fikrlarni ijod jarayoniga tatbiq etilsa, ijodkor uchun mezon – rostlik, Haq va haqiqat bo'lmog'i kerak.

Ayni mohiyatni hazrat Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror”da quyidagicha badiiy talqin etadi:

Nukta su yanglig' eritur toshni,

Topsa haqiqat o'tidin choshni.

Bo'lsa haqiqat guharidin yiroq,

Rishta so'zin so'zlamagan yaxshiroq. (Навоий

2011 (1), 44)

Ya'ni, haqiqat guharidin mosivo so'zni so'zlashdan naf yo'q. Bunday so'z na xaloyiq oldida e'tiborli, na Xoliq nazdida. Insoniyat tarixining ibtidosidan to bugunga qadar qog'oz qoralaganlar soni qancha ekanini Yaratganning o'zi biladi, ular orasida bitiklari el ko'ngliga malham bo'lganlari esa barmoq bilan sanarlidir. Chunki, ijod sir-sinoatga to'liq jarayon. Qalbida hidoyat nuri mujassam bo'lganlarga ham xalqqa, ham Haqqa manzur asarlar bitish sharafiga noil bo'ladi. Shayx Nizomiy va hazrat Navoiy ijodi buning isbotidir, ular asarlarining umrboqiyiligi boisi ham shunda.

Rost suxan birla amal ayla, hoy,

Pushtu panoh senga qodir Xudoy.

Tab'i Nizomiyki, kamarbastadir,

Ishlari rostlik ila orastadir. (Низомий 2019 (1),

197)

Mazkur baytlarda Nizomiy zohiran o'z-o'ziga xitob qilayotgandek ko'rinsa ham, aslida buni butun ijod ahliga qilingan murojaat deb qabul qilmoq zarur. Buyuk mutafakkir rost suxan birla qilingan amalgina Haq taologa ma'qul kelishini, Nizomiyning tab'i she'r yozishga moyil ekan, faqat rostlikkina asarlarini orasta etishini, faqat shundagina, kelajak nasllarga-da ma'qul bo'lishini ta'minlaydi.

Hazrat Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasida ijod ahliga baho berar ekan, ularning Haq va haqiqatga munosabatini asosiy mezon deb biladi. Jumladan, birinchi majlis ibtidosida “*haqoyiq va maorif adosida nazm libosi dilpazirroq*” ekanini alohida ta'kidlaydi. Asarlarida “*haqoyiq va maorifni darj etgan*” shoiru adiblarni alohida e'tirof etadi.

Husayn Boyqaroning tug'ishgan akasi Boyqaro Mirzo haqida yozar ekan, *"haqshunoslig'i a'lo martabada"* ekanini mamnuniyat bilan ta'kidlaydi. O'z navbatida, bu kabi fikrlar hazrat Alisher Navoiy adabiy-estetik qarashlarida haqiqat va ma'rifat masalasi alohida mavqyega ega bo'lganidan dalolat beradi.

"Mahbub ul-qulub"ning "Nazm gulistonining xushnag'ma qushlari zikrida" sarlavhali bobida esa, so'zlari haqiqat va rostlikdan yiroq qalam ahli ijodkorlarning "adno", ya'ni eng quyi tabaqasi sifatida ta'riflanadi va qattiq tanqid qilinadi: "Yana adno tabaqasi jamoatedurlarkim, nazm bila faqat ko'ngullari xushnud va xursand va roziyu bahramanddurlar. Va yuz mashaqqat bila bir baytkim bog'lashturg'aylar, da'vo ovozasin yetti falakdin oshurg'aylar. So'zlarida ne haqoyiq va maorif no'shidin halovat va nazmlarida ne shavq va ishq o'tidin harorat. Ne shoirona tarkiblari ahsan va ne oshiqona so'zu dardlari shu'laafgan. Ba'zidin agar gohi birar yaxshi bayt voqye' bo'lur, ammo o'n oncha yamon da'vo zohir bo'lurki, u ham zoe' bo'lur". (Навоий 2011 (2), 465)

Nizomiy va Navoiy chiqargan mushtarak xulosa shundan iboratki, nazmdan murod ko'ngil xushligi emas. Yuz mashaqqat bilan yozgan she'ri uchun shoirlik da'vosini qilish va ovozasini yetti falakdan oshirishga urinish – uyat. She'r chinakam she'r darajasiga ko'tarilmog'i uchun unda haqiqat va maorifdan bahra, shavq va ishq o'tidan harorat bo'lmog'i talab etiladi. Hazrat Navoiy fikricha, yuqorida tanqid qilingan adno toifaning qoralamalari ana shu fazilatlardan mahrum. Ularning ba'zisi agar bir yaxshi bayt yozsa, o'n yomon bayti bilan o'sha arziqli baytni ham zoe qiladi.

Umuman, Haq va haqiqatga tayanish – ijod namunasining qimmatini oshirgani kabi ijodkorning ham martabasi yuksalishiga dalolat qiladi.

4. Ijodkor o'z mustaqil yo'ldan yurishi, taqliddan yiroq bo'lishi. Shayx Nizomiy Ganjaviy jahon adabiyotida o'ziga xos yangilik hisoblangan xamsachilikning tamal toshini

qo‘ydi. Buyuk mutafakkirning “Panj ganj”i jahon adabiyotida yangi bir poetik an’anani boshlab berdi. Zero, “Shayx Nizomiyning asl muddaosi betakror badiiyat namunasini yaratish edi. Shu bois u qalam urilganga qalam urmadi. Duru javohirga to‘la ganj topdi va uni o‘z tarozisida tortdi” . (Jabborov 2019, 9)

Nizomiy rishtaga gavhar tizgan dam
Qalam urilganga urmadi qalam.

Duru gavharlarga to‘la topdi ganj,
O‘z tarozusida o‘zi tortdi ganj.

“Sharafnoma”sin ovoza ayladi,
Eskini yangilab, toza ayladi... (Nizomiy 2019 (3),

59)

Nizomiy “Panj ganj”i xamsanavislik uchun ijodiy mezon etib olindi. Unga ko‘ra “Xamsa”ga kiruvchi beshala doston mavzu va janr nuqtai nazaridan “Panj ganj”ga muvofiq bo‘lishi, har beshala doston vazni borasida ham an’anaga rioya etilishi (“Hayratu-l-abror” – sari, “Farhod va Shirin” – hazaji musaddasi mahzuf, “Layli va Majnun” – hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf, “Sab’ai sayyor” – xafif, “Saddi Iskandariy” – mutaqorib bahrlarida yozilishi), syujeti, obrazlar tizimi va kompozitsiyasi Nizomiy dostoniga mutanosib bo‘lmog‘i, shuning barobarida, unga taqlid qilinmasligi, badiiy-estetik tafakkur taraqqiyotida mutlaq yangi poetik hodisa darajasida ijod etilmog‘i shart etib belgilandi.

Tabiiyki, bunday murakkab vazifaning uddasidan chiqish oson emas edi. Ko‘pchilik ijodkorlar bu ishga urinib ko‘rgani ma‘lum. Biroq ularning aksari Nizomiy dostoniga muqobil asar yaratishga ojizlik qildi. Nizomiy “Panj ganj”ni 1170-1204 yillarda yaratgan bo‘lsa, oradan bir asrdan ziyodroq vaqt o‘tib, 1299-1301 yillarda turkiylardan chiqqan ulug‘ mutafakkir Xusrav Dehlaviy unga javoban “Xamsa” yarata oldi. Ushbu poetik an’anaga javoban asar yozish nechog‘lik murakkab ekanini hazrat Navoiy mana bunday ifoda etadi:

*Ko'p kishi ham qildi tatabbu' havas,
Sarvu gul o'trusig'a kelturdi xas.* (Navoiy

2011 (1), 42)

Ya'ni Nizomiyga ergashib, tatabbu' yozishga intilganlar, havas qilganlar ko'p bo'ldi. Biroq ularning aksari sarvu gul qarshisiga xas keltira oldilar, xolos.

Buyuk beshlik – “Xamsa”ni ijod etar ekan, hazrat Navoiy o'z oldiga mana bunday badiiy-estetik vazifa qo'yadi:

*Ani nazm etki, tarhing toza bo'lg'ay,
Ulug'a mayli beandoza bo'lg'ay.*

*Yo'q ersa, nazm qilg'onni xaloyiq
Mukarrar aylamak sendin ne loyiq.*

*Xush ermas el so'ngincha raxsh surmak,
Yo'lekim, el yugurmishdur – yugurmak.*

*Biravkim bir chamanda soyir erdi,
Nechakim gul ochilg'on – ko'rdi, terdi.*

*Hamul yerda emas gul istamak xo'b,
Bu bo'ston sahnida gul ko'p, chaman ko'p.*

(Navoiy 2011 (1), 340)

Ulug' mutafakkir xaloyiq nazm qilg'onni mukarrar aylamoq – takrorlamoq fikridan yiroq. Ul zotning e'tiqodicha, birovlar ketidan ot surmoq, el yugurgan yo'ldan yugurmoq zinhor ma'qul emas. Boshqalar gul tergan chamanda gul istamoq oqil ishi sanalmaydi. Vaholanki, “Bu bo'ston sahnida gul ko'p, chaman ko'p”. Ya'ni har kim o'z didiga mos gulni izlamog'i, termog'i zarur. Shoir fikricha, she'riyatda o'zgalarni takrorlash (“mukarrar aylamak”) ayb. Chinakam shoir o'z sozi bilan kuylashi lozim. Boshqalar ketidan ot surmoq, o'zgalardan tuyg'u olish haqiqiy ijodkor ishi emas. Taqlidchilik ijod tabiatiga zid.

O‘z so‘zini, o‘zigagina xos uslubda ifodalagan ijodkorgina adabiyot olamida o‘z o‘rnini topadi, muayyan mavqicga crisha oladi.

Hazrat Alisher Navoiyning o‘zi bu borada barcha zamon ijodkorlariga ibrat bo‘larli buyuk ishni bajardi. An‘ana zamirida o‘ziga xos ijod mezonlari asosida olamshumul yangilik yaratdi, xamsanavislikni yuksak bir darajaga ko‘tardi. Vaholanki, Nizomiy-Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiyday buyuk ijodkorlardan keyin xamsachilikni yangi bosqichga olib chiqish oson bo‘lmagani ayon. Hazrat Alisher Navoiy buyuk salafklarini takrorlash u yoqda tursin, ularga ayrim e‘tirozlarini ham bildiradi. Jumladan, ular Xusrav obrazi talqinida *“Ki mulki andog‘u oyini mundoq, sipohi andog‘u tamkini mundoq”* tarzida maqtozni haddan oshirganini tanqid qiladi. Ana shu mavzudagi asarini “Farhod va Shirin” deb atar ekan, o‘z ijod mezonidan kelib chiqib, bosh qahramonlikka Xusravni emas, Farhodni tanlaydi. Bahrom obrazi talqinida ham 1) unda moyai dard yo‘qligi va ishq otashidan mahrumligi; 2) yetti qasr qurib, ishrat surishi va mast-alast holda afsona tinglashida haqiqatga nomuvofitlik ko‘radi. “Sab‘ai sayyor” syujeti va kompozitsiyasini navoiyyona asosga quradi. Bular barchasi Nizomiy va Navoiyning ijodkor o‘z mustaqil yo‘lidan yurishi, taqliddan yiroq bo‘lishi zarurligi haqidagi xulosasi o‘zaro uyg‘un ekanidan dalolat beradi.

Xulosa

Maqolada qo‘yilgan ilmiy muammo tahlili ikki buyuk mutafakkir Nizomiy va Navoiyning biri xamsachilikni boshlab berib, dunyo adabiyotidagi ushbu noyob an‘ananing tamal toshini qo‘ygan bo‘lsa, ikkinchisi bu ishni inson tafakkuri yetishi mahol bo‘lgan yuksak maqomga ko‘targani haqidagi umumlashmaga olib keladi. Ozarbayjon va o‘zbek xalqlari farzandlari bo‘lgan bu ikki mutafakkirning ijod konsepsiyasiga doir adabiy-estetik qarashlari nainki ular yashagan davr, balki barcha zamonlar

uchun ham birday ahamiyatlidir. Zero, adabiyot olamiga qadam qo‘ygan har bir yosh shoir yoki adib ular ijod laboratoriyasiga qanchalik chuqur kirsa, so‘z san‘ati sirlarini nechog‘lik teran o‘rgansa, ijodda shunchalik kamolga erishadi. Bu esa, o‘z navbatida, turkiy adabiyot ravnaqiga munosib hissa qo‘shadigan, salohiyati yuksak ijodkorlarning yangi avlodi shakllanishiga xizmat qiladi.

Hazrat Alisher Navoiy “Xamsa”ni ijod qilish bilan erishish oson bo‘lmagan ijodiy maqsadini amalga oshirib, buyuk salafi Nizomiy Ganjaviy panjasiga panja urdi. Ikki buyuk mutafakkirning do‘stona ushlashgan panjalari o‘zbek-ozarbayjon adabiy aloqalarining bugungi kundagi rivojini ta‘minlashda ham asos-zamin vazifasini o‘tab kelayotir. Ushbu adabiy hamkorlik yana ko‘p asrlar davomida yuksak samaralar berishidan umidvormiz.

ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINING O'RGANILISH TARIXI HAQIDA

XV asrgacha bo'lgan adabiyotimiz go'yoki Alisher Navoiyning dunyoga kelishiga hozirlik ko'rib, uning ijod daryosiga shavq va shiddat ila sho'ng'ishiga imkon yaratganga o'xshaydi. Shu bois turkiy adabiyotdagi olamshumul o'zgarish, yangilanish aynan Navoiy dahosining samarasi edi. Sho'rolar davrida Navoiy asarlari garchi o'rganilgan bo'lsa-da, ammo ko'proq o'sha davr mafkurasiga moslashtirish, Navoiyning kommunistik g'oyalarni tasdiqlashga xizmat qildirish bor edi. XX asrning 40-yillariga kelib Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyini o'tkazish bahonasida oldingi yillardan yig'ilib kelayotgan tadqiqotlarni umumlashtirish ishlari boshlandi. Navoiyni o'rganish ishlariga rus sharqshunoslari bilan birgalikda o'zbek olimlari ham jalb qilindi. Alisher Navoiyning Sovet Ittifoqi davrida birinchi bor 1948 yili nishonlangan to'yi arafasida ulug' shoir haqida yana bir qancha tadqiqotlar dunyoga keldi. Mazkur davrning eng yuqori saviyadagi asarlari qatorida Ye.E.Bertels, O.Sharafiddinov, A.N.Konenov, S.Ayniy, A.K.Borovkov, A.Semyonov, M.A.Sale, A.Yu. Yakubovskiy, A.Sa'diy, M.Oybek, M.Shayxzoda, I.Sulton, A.Boldyrev. V.Zohidov, V.Abdullaevlar tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin. Avom madaniyati (proletkult) davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lgan mustabid tuzum sharoitida Alisher Navoiyni genial shaxs va ijodkor sifatidagi maqomini saqlab qolish, u orqali milliy qadriyatlarimizning umrboqiyligini ta'minlash o'zbek ziyolilarining asosiy muddaosi edi. O'zbek olimlari va ularga xayrixoh ayrim rus sharqshunoslarining asarlari navoiyshunoslikni o'zbek adabiyotshunosligining mustaqil yo'nalishiga aylantirishga zamin bo'ldi.⁴²

⁴² Бертельс Е.Э. Навои и Джами: Избр. труды. - М.: Наука, 1965; Шарафиддинов О. Алишер Навоий ҳаёти ва ижоди. - Тошкент: Ўздавнашр, 1948; Возлюбленный сердце (Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб) / Сводный текст А.Н. Кононова; отв. ред. С.Е.Малов. - М.-Л.,

Bu oraliq davrda Navoiy hayoti va ijodiyotini o'rganishga chet el olimlari, xususan, turk olimlaridan Mahmad Fuod Ko'prulu, Ogoh Sirri Lavand, afg'on olimi Muhammad Ya'qub Juzjoniy, Eron olimi Ali Aeg'ap Hikmat ham e'tibor qaratib, ba'zi tadqiqotlarni olib bordilar.⁴³ Oybek, V.Abdullaev, V.Zohidov, I.Sulton, A.Qayumov, A.Hayitmetov, A.Abdug'afurov kabi navoiyshunoslar Navoiy tarjimai holini boyitish ishlariga katta hissa qo'shdilar. O'zbek olimlarining ulug' shoir lirikasi va dostonlari, badiiy mahorati va ijodiy metodi, satirasi, an'analari va novatorlik jihatlari, dunyoqarashi va falsafasi, ijodida muhim o'rin tutgan xalq og'zaki ijodi va adabiyotlararo o'zaro ta'sir masalalari bo'yicha olib borgan

1948; Якубовский А.Ю. Черты общественной и культурной жизни эпохи Алишера Навои / Сб. Алишер Навои. — М.-Л., 1946; Семенов А.А. Персидская новелла о Мир Алишере Навои. Бюллетень СаГУ. Выпуск 13, 1926; Салье М. Книга благородных качеств и её автор // Сб. ст. «Родоначальник узб. литературы». - Тошкент: Изд. Узб. фил. АН СССР; Боровков А.К. Изучение жизни и творчества Алишера Навои // Сб. ст. «Родоначальник узб. литературы». - Тошкент: Изд. Узб. фил. АН СССР. - С.11 - 29; яна: Навои и Джами в народном предании. Изв. АН СССР, Отд. лит. и языка. Т.VI. Выпуск 6. 1947. — С.422 - 484; Болдырев А.Н. Мемуары Васифи как источник для изучения жизни Средней Азии и Хорасана на рубеже XV - XVI вв // ТОВЭ. Т.II. - Л., 1939. - С.291 - 300; яна: Очерки из жизни гератского общества на рубеже XV - XVI вв // ТОВЭ. Т.IV. 1947. - С.313-422; Саъдий А. Навоий ижодиёти ўзбек классик адабиёти тараққиётининг юксак босқичи сифатида. 3 томлик. - Тошкент, 1940 - 1945; Ойбек. Навоий гулшани. - Тошкент, 1967; Айний С. Навои: Куллиёт. Дар 15 жилд. - Душанбе, 1963; Зоҳидов В. Навоийнинг дунёқараши: Фил. фан. доктори... диссертацияси. - Тошкент, 1948; Абдуллаев В. Навоийнинг Самарқанддаги фаолиятига доир: Фил. фан. номзоди... диссертацияси. - Тошкент, 1948. Шайхзода М. Гениал шoir (Навоий ижодининг баъзи масалалари). - Тошкент, 1941.

⁴³ Koprulu M. Cagatay edebiyati. Islam ansiklopedisi. 3 Cilt. 24 cuz. - Istanbul: Maarif matbaasi, 1945. - S.270 - 323; Kopruluzade M.F. Turk dili ve edebiyati hakkında arastirmalar. - Istanbul: Kanaat Kitabevi, 1934; Agah Sirri Levend. Ali Sir Nevai (I - IV). - Ankara, 1965 - 1968; яна; Fors ve turk edebiyatlarinda Leyla ve Mecnun hikayasi. - Ankara, 1959; Девони Султон Хусайн Мирзо ва энзимони рисолаи ба муқобала ва тасхихи Мухаммад Яъқуб Воҳид Жузжоний. - Қобул, х- 1346; Али Асгар Хикмат. Алишер Навоӣ. - Тейрон, 1945.

chuqur ilmiy tadqiqotlari navoiyshunoslikning alohida ilmiy yo'nalish darajasiga ko'tarilishiga xizmat qildi. Bu o'rinda P.Shamsiev, N.Mallaev, V.Zohidov, I.Sulton, A.Qayumov, S.G'anieva, X.Sulaymon, A.Rustamov, A.Hayitmetov, A.Abdug'afurov, B.Valixo'jaev, Yo.Ishoqov, I.Haqqulov, N.Komilov, R.Vohidov, M.Hakimov, M.Hamidova, S.Erkinov, Sh.Sharipov, L.Zohidov asarlarini alohida qayd etmoq o'rinlidir. Tojik olimlaridan A.Mirzoev, R.Musulmonqulov, A.Afsaxzod, E.Shodiev, turkman olimlaridan B.Darriev, M.Kosaev, K.Borjaqova, K.Og'aliyev, ozarbayjon olimlaridan Xamid Orasli, Jannat Narieva, rus olimlaridan I.V.Stebleva, S.Ivanov va yana bir qancha sharqshunoslar Navoiy ijodini o'rganishga katta hissa qo'shdilar. Ammo, biz uchun Navoiy bor bo'yi basti bilan qarddon va zarur, biz endi Navoiyning "kerakli" va "keraksiz" qismlarga ajratmaymiz. Endilikda biz uning merosxo'rlari sho'rolar mafkurasi oqibatida yo'qotgan qadriyatlarimiz, lat yegan, kemtik bo'lib qolgan ma'naviyatimizni qayta tiklashda Navoiy kabi ulug' zotlarimiz ijodidan madad va kuch olamiz, uni to'liq holda, xolisona o'rganib, bahramand bo'lamiz.

ALISHER NAVOIYNING HAYOTI VA IJOD YO'LI

Buyuk so'z san'atkorlari tarixning tub burilish nuqtalarida, millatni birlashtiruvchi, ruhan yuksaltiruvchi badiiy so'zga kuchli ehtiyoj tug'ilgan paytda dunyoga keladi. Alisher Navoiy xuddi ana shu davrda yashadi. Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir, davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher 1441 yilning 9 fevralida Hirotida tug'ildi. Alisher Navoiyning ota tomondan bobosi Amir Temurning Umar Shayx ismli o'g'li bilan ko'kaldosh (emikdosh) bo'lib, keyinchalik Umar Shayx va Shohruxning xizmatida bo'lgan. Otasi G'iyosiddin Bahodir esa Abulqosim Boburning yaqinlaridan; mamlakatni idora etishda ishtirok etgan. Onasi Qobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi. Alisher Navoiyning bolaligi Shohrux hukmronligining so'nggi yillariga to'g'ri kelgan. U

temuriyzodalar, xususan bo'lajak podshoh Husayn Boyqaro bilan birga tarbiyalangan. 4 yoshida maktabga borib, tez savod chiqarib, turkiy va forsiy tildagi she'rlarni o'qib, yod ola boshlagan. O'zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilni ham mukammal egallagan. 1447 yil 12 martda mamlakat podshohi Shohrux vafot etgach, taxtga da'vogarlar orasida o'zaro kurash boshlanadi. Navoiylar oilasi o'z tinchligini ko'zlab, Iroqqa ko'chishadi. Taf shahrida Alisher mashhur "Zafarnoma" tarixiy asari muallifi, shoir Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. Bu uchrashuv bolada yorqin iz qoldiradi. G'iyosiddin Bahodir oilasi Hirotda, qariyb ikki yil muddat o'tgach, qaytadi. Abulqosim Bobur G'iyosiddin Bahodirni Sabzavor shahriga hokim qilib tayinladi. Alisher Navoiy Hirotda qolib o'qishni davom ettirdi. U she'riyatga g'oyat qiziqdi, Sharq adabiyotini qunt bilan o'rgandi. Oila muhiti bolaligidayoq unda adabiyotga zo'r havas tug'dirgan edi. Tog'alari Mirsaid - Kobuliy, Muhammad Ali -G'aribiy yetuk shoir edilar. Alisher Navoiylar uyida shoirlar tez-tez to'planishib, mushoira qilishar, adabiyot va san'at haqida suhbatlashar edilar. Alisher 10-12 yoshlaridan she'r yoza boshlagan. Tarixchi Xondamirning yozishicha, yosh Navoiyning iste'dodidan mamnun bo'lgan mavlono Lutfiy, uning:

Orazin yopqoch, ko'zumdan sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh

matla'li g'azalini tinglab: "Agar muyassar bo'lsa edi, o'zimning o'n-o'n ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu g'azalga almashtirardim..." degan. Alisher Navoiy 15 yoshida shoir sifatida keng tanilgan. She'rlarini turkiyda Navoiy, forsiyda Foni taxalluslari bilan yozgan.

Alisher Navoiy 13-14 yoshlarida otasi hayotdan ko'z yumadi. Uni Abulqosim Bobur o'z tarbiyasiga oladi, katta badiiy iste'dodi uchun g'oyat e'zozlaydi. 1457 yilning bahorida to'satdan Abulqosim Bobur ham vafot etdi. Xurosonni Movarounnahr hukmdori Sulton Abu Said egallaydi va

poytaxtni Samarqanddan Hirotga ko'chiradi. Husayn Boyqaroning taxtni egallash yo'lidagi birinchi raqibi - Abu Said edi. Alisher Navoiy oilasining xohish -rag'batini Husayn tomonida bo'lib, bu avvalo ularning oilaviy yaqinliklari bilan izohlanardi, bundan yangi hukmdor ham yaxshi xabardor edi. Bu vaqtda mamlakatda taniqli shoir bo'lib qolgan Navoiyni Abu Said ta'qib qilib, Hirot dan chiqarib yuboradi. 1469 yil boshlarida Sulton Abu Said Qorabog'da o'z askarlari tomonidan o'ldiriladi. Ko'pdan buyon shunday vaziyatni kutib yurgan Husayn Boyqaro zudlik bilan kelib, Hirot taxtni egallaydi. Alisher Navoiy ham Hirotga keladi. Ramazon hayiti munosabati bilan uyushtirilgan qabul marosimida Husayn Boyqaroga yangi yozgan "Hiloliya" qasidasini taqdim etadi.

Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning eng xavfli siyosiy raqibi - Yodgor Muhammad Mirzoni tunda qo'lga olishda shaxsiy jasorat ko'rsatadi. Yangi hukumatning ortiqcha soliqlaridan norozi bo'lib, qo'zg'olon ko'targan xalq ommasini tinchitishda adolat va mardonavorlik bilan ish tutadi. Husayn Boyqaro 1472 yilning fevral oyida uni o'z saroyining bosh vaziri qilib tayinlaydi va unga "Amiri kabir" unvonini beradi. Alisher Navoiy yangi lavozimda avvalo butun kuchini mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o'rnatishga qaratdi. Vaqf ishlarini tartibga solishga kirishdi. Shaharlarda savdo-sotiq, hunarmandchilikni rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. Alisher Navoiy sa'yi harakati bilan qishloqlarda dehqonchilik madaniyati o'sib boradi. Shaharlar, xususan Hirot kun sayin obod bo'la boshlaydi.

Bu davrlarda Hirot da adabiy hayot jo'sh urgan. 1470 yillarning oxirlarida Alisher Navoiy o'zining o'zbek tilida yozgan she'rlaridan iborat ilk devoni - "Badoe' ul-bidoya" ("Badiiylilik ibtidosi")ni tuzdi. Shuni quvonch bilan aytish joizki, Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodi faqat o'zbek adabiyotidagina emas, balki jahon adabiyotida ham salmoqli o'ringa ega. Navoiy lirik, epik va falsafiy asarlari bilan XV asr adabiyotida chuqur iz qoldirdi. Ulug' shoirning asarlari hayotlik

davridayoq Xitoydan tortib Kichik Osiyogacha yetib bordi va hozirda butun dunyo xalqlari ham sevib o'qishmoqda.

"Xamsa" dostoni Navoiy ijodining durdonasi sanaladi. O'zbek tilida "Xamsa" - besh doston yaratish maqsadi yoshligidan bo'lgan. Bu maqsadini 1483-85 yillarda amalga oshirdi. Asar o'zbek adabiyoti shuhratini olamga yoyib, jahon adabiyotining durdonalaridan biriga aylandi. Yana uning "Tarixi muluki Ajam", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Risolai muammo", "Majolis un- nafa'is", "Munshaot", "Mezon ul- avzon", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Nasoim ul-muhabbat", "Devoni Foni", "Lison ut-tayr", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Mahbub ul-qulub", "Nazm ul-javohir", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Siroj ul-muslimin", "Arbain" kabi bebaho asarlari mavjud.

Navoiy ijodiga nazar tashlasak, she'riyatning 16 xil janrida ijod qilganligini bilib olamiz: g'azal, ruboiy, tuyuq, fard, qit'a, muxammas, musaddas, mo'sallam va hokazo. Bu kabi janrlarda hech bir shoir Navoiydek ijod qilganligini uchratolmaysiz. Ulug' bobomiz she'r yozishda faqatgina o'zbek tili imkoniyatlari bilan chegaralanib qolmagan, boshqa tillardan ham unumli foydalangan. O'tkir Hoshimov bu borada quyidagilarni qayd etadi: "Olimlar hisoblab chiqishgan. Pushkin o'z asarlarida 21197 ta betakror so'z ishlatgan, Shekspir salkam 20 mingta, Servantes mingtaga yaqin. Alisher Navoiy esa 1 million 378 ming 660 ta betakror so'z ishlatgan. Boisi, buyuk bobomiz faqat turkiy emas, forsiy, arabiy, urdu, xitoy, mo'g'ul va boshqa tillardagi so'zlardan ham mahorat bilan foydalangan". Dalillardan ko'rinib turibdiki, Navoiyning so'z zaxirasi nihoyatda ulkan ekan. Hazrat ishlatgan so'z o'yinlari ko'lami ham beqiyosdir. Negaki, Navoiy she'rni shunchaki biror narsani bayon qilish emas, balki mo'jiza ko'rsatish deya hisoblaydi. Ul zot yozadi-ki:

Bo'lmasa e'joz maqomida nazm,
Bo'lmas edi Tengri kalomida nazm.

Navoiy o'z asarlarida va Xurosonning vaziri a'zami sifatidagi faoliyatida insonni ana shunday tushunishni, qadrlashni, himoya etishni va savob ishlarga da'vat qilishni muqaddas vazifa deb bildi. Insonni tavsiflashda Navoiy bir yoqlama mubolag'aga yo'l qo'ymaydi, u odamning ojiz tomonlari borligini ham tan oladi. Ammo inson o'z fazilatlarini himoya qila va saqlay olsa, uning hayot uchun kurashida fazilatları ustun chiqishiga chuqur ishonch izhor etadi:

Bordir inson zotida oncha sharaf,
Kim, yamon axloqin etsa bartaraf.

Navoiy nafaqat shoir, tarjimon, tilshunos olim, balki davlat arbobi sifatida ham tarixda katta iz qoldirgan. Ana shuning uchun ham uning ko'p ruboiylari, dostonlari xalqni qay yo'sinda baxtli-saodatli qilmoq mumkin, savoliga javob tariqasida yozilgandir. Alisher Navoiy dunyoni tushunib o'tdi. Shu bois, alg'ov-dalg'ov zamonlarda botinin xotirjam yashadi. Zotan, Nozim Hikmat ta'biri bilan aytganda: "tushunmak - buyuk xotirjamlik",- deganidir. Navoiy yashagan davrdan buyon besh asrdan asrdan ko'proq vaqt o'tdi. Movarounnahr tuprog'i ne-ne bosqinlarga, toju taxt uchun qonli kurashlarga sahna bo'ldi. Ammo shoir ijodining qimmatı aslo pasaymadi. Har avlod undan o'zi uchun nimadir topdi. Navoiy asarlari xalqimiz uchun ma'naviy quvvat va yuksalish manbai bo'ldi.

Navoiy shaxsiyati va ijodini tadqiq etish XV asrdan buyon olimlar, shoirlar, tarjimonlar, kotiblar, naqqosh va musavvirilar diqqat markazidagi masalalardan biri bo'lgan. Navoiy hayoti va faoliyatini o'rganish miqyosi XX asrda yanada kengaydi. 1941 yili qamal qilingan va bombalar yog'ilib turgan Sankt-Peterburg shahrida shoir ijodiga bag'ishlangan anjumanning o'tkazilishi ilm yo'lidagi fidoyilikning yorqin namunasi bo'lgan edi. Keyingi yarim asr davomida Navoiy asarlari jahonning turli mamlakatlarida qayta-qayta chop etildi. Jahon tinchlik kengashi

1968 yili Navoiy yubileyi munosabati bilan yoʻllagan tabriknomasida: "Jahon madaniyatining eng yaxshi durdonalariga mansub boʻlgan Alisher Navoiyning qudratli hayotbaxsh sheʼriyati butun taraqqiyparvar insoniyatning boyligi boʻlib qoladi", deya eʼtirof etgan edi.

Navoiy ijodi oʻzining haqiqiy qadr-qimmatini mustaqillik davrida topdi, deya olamiz. 1991 yil Alisher Navoiy yili deb atalgan edi. Mamlakatimiz bu ulugʻ zot nomi bilan mustaqillik davriga qadam qoʻydi. Bunda oʻziga xos ramziy maʼno bor. Zero, Navoiy oʻzining hayoti va faoliyatini yurt mustaqilligi va tinchligi, oʻzbek tilining nashʼu namosi uchun baxshida etgan edi.

Bugun Alisher Navoiy haqli suratda jahon madaniyatining mumtoz vakillari safidan oʻrin oldi. Uning asarlari jahondagi yuzlab tillarga tarjima qilindi. Dunyo ahli uning merosi bilan qiziqmoqda, asarlarida tarannum etilgan olijanob gʻoyalar va falsafiy mushohadalaridan zavq olmoqda. Shoir haykallari Yaponiyaning Soka universiteti hovlisida, Moskva va Boku shaharlarida qad koʻtardi. Barcha daho sanʼatkorlar singari Alisher Navoiy ham oʻzining nomi va yaratgan asarlari osha yashab qolishiga ishongan edi. "Umidim uldurki va hayolinga andoq kelurki, soʻzim martabasi avjdan quyi enmagay va yozgan asarlarimning tantanasi aʼlo darajadan oʻzga yerni yoqtirmagay", deb yozgan edi ulugʻ shoir. Bu bashoratomuz soʻzlar ijobat boʻldi. Endilikda shoir soʻzlari dunyo boʻylab oʻzining yuksak parvozini davom ettirmoqda. Oʻzbek xalqining uchta baxti bor. Birinchi baxti mustaqillik, ikkinchi baxti yer osti va yer usti boyliklari boʻlsa, uchinchi baxti Navoiydir.

U 10-12 yoshlaridan sheʼr yoza boshlagan Alisher Navoiy haqida tarixchi Xondamir oʻzining qimmatli maʼlumotlarini yozib qoldirgan. Uning yozishicha, mavlono Lutfiy yosh Alisherning "Orazin yopqoch, koʻzumdan sochilur har lahza yosh, Boʻylakim, paydo boʻlur yulduz, nihon boʻlgʻach quyosh..." matlaʼli gʻazalini tinglab: "Agar muyassar boʻlsa edi, oʻzimning oʻn-oʻn ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu

g'azalga almashtirardim...”,– degan ekan. Mavlono Lutfiyning bu yosh shoirga bo‘lgan hayrati va e’tirofi bugun barchamiz uchun ham qadrlı. Chunki Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodi faqat o‘zbek adabiyotidagina emas, balki jahon adabiyotida ham salmoqli o‘rin egallaydi. "Xamsa", "Tarixi muluki Ajam", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Risolai muammo", "Majolis un-nafois", "Munshaot", "Mezon ul-avzon", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Nasoim ul-muhabbat", "Devoni Foniyy", "Tarixi anbiyo va hukamo" kabi bebaho meros adabiyotimizning ma’naviy boyligidir. Navoiy she’riyatning 16 xil janrida ijod qilgan. Uning g‘azal, ruboiy, tuyuq, fard, qit‘a, muxammaslari bor. “Umidim uldurki va hayolimga andoq kelurki, so‘zim martabasi avjdan quyi enmagay va yozgan asarlarimning tantanasi a’lo darajadan o‘zga yerni yoqtirmagay”, deb yozgan edi buyuk shoir. Bugun chindan ham shoir asarlari dunyo bo‘ylab yuksak parvoz etmoqda. Ahli jahon uning ma’naviyat chashmasidan bahramand bo‘lmoqda.

Bolalik chog‘lari Alisher Navoiy 1441 yil 9 fevralda Xuroson davlatining poytaxti — hozirgi Afg‘oniston hududidagi Hirot shahrining Bog‘i Davlatxona mavzesida tug‘ildi. Alisherning otasi G‘iyosiddin Kichkina temuriylar saltanatining sodiq mulozimlaridan, onasi ham shu xonadon xizmatidagi ayollardan biri edi. Navoiyning o‘zi bu haqda: Otam bu ostonning xokbezi, Onam ham bu saro bo‘ston kanizi, deb yozgan edi. G‘iyosiddin Kichkina oilasi bilan temuriylar xonadoni o‘rtasida ilgari zamonlardan ko‘kaldoshlik, ya’ni emikdoshlik bo‘lgan. Alisherning onasi amirzoda shayx Abu Said Changiyning qizi bo‘lgan. Ayrim mutaxassislar uning ismi yo Halimabonu, yo Salimabonu bo‘lgani haqida taxminiy ma’lumot keltirgan (Humoyun I. Buyuklar beshigin tebratgan buyuk onalar – “Oila va jamiyat”, 2016 yil 10 mart). Alisherning tog‘alari Mir Said Kobuliy va Muhammad Ali G‘aribiy ham shoir edi. G‘aribiy musiqa ilmini puxta bilar, yaxshi sozanda ham edi. Tog‘alari turkiy va forsiyda she’rlar bitgan. Alisher tug‘ilgan paytda Xurosonda Amir Temurning o‘g‘li, Mirzo

Ulugʻbekning otasi Shohrux mirzo hukmronlik qilayotgan edi. Gʻiyosiddin Kichkina xonadonida tez-tez maʼrifiy suhbatlar uyushtirililar, sheʼrxonliklar boʻlardi. Ana shunday muhitda oʻsgan Alisher uch-toʻrt yoshlarida sheʼr yod ola boshlaydi. U yodlagan ilk bayt Amir Qosim Anvorning:

Rindemu oshiqemu jahonsoʻzu joma chok
Bo davlati gʻami tu zi fikri jahon chi bok,

degan misralari edi. oʻazalning matlaʼsi boʻlmish bu satrlar “Rindiniz, yaʼni hur fikrlilarmiz, oshiqilarmiz, jahonga oʻt qoʻyganmizu toʻnimizni yirtganmiz, ey yor, yaʼni ey Olloh, sening gʻaming davlati bilan fikrimiz band ekan, jahonni oʻylab nima qilamiz” degan mazmunni ifodalaydi Alisher toʻrt-besh yoshlarida maktabga bordi. Olti yoshga toʻlganida (1447 yili) Xuroson podshosi Shohrux mirzo vafot etib, Hirotida toj-taxt uchun kurash avj oladi. Shahar ahli notinchliklardan qochib, yon-atrofdagi shahar va qishloqlarga koʻchadi. oʻiyosiddin Kichkina oilasi Iroqning Taft shahriga kelib yashay boshlaydi. Bu shaharda Alisher mashhur tarixchi, “Zafarnoma” asari muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashdi. Tasodifiy uchrashuv chogʻida buyuk olim yosh Alisherning ziyrakligiga, aqlu farosatiga qoyil qoldi. Bu suhbat yuz berganda boʻlgʻusi shoir Qurʼonni “Taborak” (“Mulk” surasining ikkinchi nomi) surasigacha oʻqigan edi. Qurʼoni karim oʻttiz juz, yaʼni poradan iborat. “Taborak” surasi bilan esa yigirma toʻqqizinchi juz boshlanadi. Demak, Alisher olti yoshida Qurʼonning yigirma sakkiz porasini oʻqib tushirgan. 1452 yilga kelib Xurosonda bir qadar tinchlik oʻrnatildi. Adolatparvar Abulqosim Bobur Hirot taxtiga oʻtirdi. Navoiy oilasi yana Hirotga qaytib keldi. Gʻiyosiddin Kichkina shoh xizmatiga kirdi. Koʻp oʻtmay, Abulqosim Bobur uni Sabzavor shahriga hokim qilib yubordi. Biroq hayot yosh Alisherning oldiga boshqa bir ogʻir musibatni tayyorlab qoʻygan edi. 1453 yili Gʻiyosiddin Kichkina vafot etdi. Otadan erta yetim qolgan oʻn ikki yashar Alisher Abulqosim

Bobur xizmatiga kirdi. Alisher otasi vafotiga qadar maktabda qunt bilan o'qir, madrasada Qur'on va hadisdan tashqari, Shayx Muslihiddin Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" kitoblari ham o'qitilardi. Alisherning ishqiy so'fiy shoir Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostoniga tushdi. U dostonni shu qadar berilib o'qidiki, boladagi bunday xilvatnishinligu odamovilikdan tashvishga tushgan ota-onasi "Mantiq ut-tayr"ni yashirib qo'ydi. Ammo bu foydasiz tadbir edi. Chunki yosh Alisher bu dostonni yodlab ulgurgandi. Temuriyzodalardan bo'lgan Husayn Boyqaro ham Alisher bilan birga Abulqosim Bobur saroyida xizmat qilar edi. 1456 yilga kelib Abulqosim Bobur poytaxtni Hirotdan Mashhadga ko'chirdi. Alisher bilan Husayn ham u bilan birga Mashhadga bordi. Ko'p o'tmay, 1457 yili Abulqosim Bobur vafot etdi. Husayn Boyqaro Marvga jo'nab, taxt uchun kurasha boshladi. Alisher esa Mashhadda qolib, tahsilini davom ettirdi. Bu paytga kelib Alisher turkiy va forsiyda ajoyib she'rlar bitib, el orasida tanila boshlagandi. Xususan, hali Mashhadga kelmasidan avval o'z davrining malik ul-kalomi, ya'ni so'z ustasi bo'lgan Mavlono Lutfiyning yosh Alisher ijodiga bergan bahosi shoirning obro'sini ko'tarib yuborgan edi. Navoiyga zamondosh tarixchi G'iyosiddin Xondamirning hikoya qilishicha, bir kuni Alisher Lutfiyga yangi yozgan g'azallaridan o'qib beradi.

Orazin yopqach ko'zumdin sochilur har lahza yosh, O'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh, matla'si bilan boshlanadigan g'azali Mavlono Lutfiyga shu qadar ma'qul tushdiki, u beixtiyor "Agar muyassar bo'lsa edi, o'zimning o'n-o'n ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu g'azalga almashtirardim", deb yubordi. Yoshlik yillari Abulqosim Bobur vafotidan keyin Navoiy uchun hayotning murakkab, biroq mustaqil kurashlar davri boshlandi. U Mashhadda ilm tahsili bilan mashg'ul bo'lib, ko'p do'stlar orttirdi. She'rlari, bilimdonligi bilan el aro tanildi. Mashhaddagi mashhur kishilardan Shayx Kamol Turbatiy bilan tanishuviga ham yosh Alisherning she'ri, imlda zukkoligi sabab bo'ldi.

Navoiy xurosonlik bu ulug' zot bilan tanishish orzusida yurar, Kamol Turbatiy ham yosh shoir haqida eshitgan, lekin bu ikki sohibi qalam yuzlashmagandi. Navoiy Mashhadda sakkiz yil yashadi. Musofirlikning bu yillari Alisher uchun chinakam tahsil mutolaalar davri bo'ldi. 1464 yili shoir yana ona shahri Hirotga qaytdi. Bu shahar hamon temuriylar saltanatining yirik madaniy markazlaridan biri bo'lib, olimu fozillar ko'p edi. Navoiy ona shahrida ijod qilib, obro' qozonishga umid bog'ladi. Biroq 1459 yili hokimiyatni egallagan Abusaid mirzo o'z poytaxtini Samarqanddan Hirotga ko'chirgan, u bilan birga kelgan a'yonlari Hirot ahlini talash bilan mashg'ul edi. Abusaid ko'p qotilliklar qildi. Xususan, 1461 yili Alisherning tog'asi Mir Said Kobuliyini tuttirib, qatl ettirdi. Keyinroq yana bir tog'asi Muhammad Ali o'aribiy ham Abusaid josuslari tarafidan o'ldirildi. Ularning o'limiga sabab aka-ukaning taxt uchun kurashayotgan Husayn Boyqaroning suyangan kishilaridan, maslahatchilaridan bo'lgani edi. Navoiy Hirotta ilmu ma'rifat ahli bilan tig'iz aloqalar o'rnatdi. Ustozi va piri Abdurahmon Jomiy bilan ham shu yillarda tanishdi. Biroq podshohning ro'yxushlik bermagani oxir-oqibat Alisherni tag'in Xurosonni tark etishga majbur qildi. 1466 yili Navoiy Samarqandga keldi. Bunga asosiy sabab shoir va shoh o'rtasidagi noxush munosabatlar ekanini Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"da keltirgan "Bilmon, ne jarima bila Sulton Abusaid mirzo Hiridin ixroj qildi" qaydi ham tasdiqlaydi. Lekin bu rasmiy surgun emas edi. Samarqand o'sha davrda ham Sharqning yirik ilmu ma'rifat markazlaridan edi. Alisher bu yerda muttasil tahsil bilan mashg'ul bo'ldi. Zamonasining mashhur olimi, yirik fiqhshunos Fazlulloh Abullays qo'lida o'qidi. Bu davrda Samarqandda muammoshunoslik ilmi ustozlari Mavlono Uloiy Shoshiy, Mirzo Ulug'bek madrasasining mudarrisi Xoja Xurd, Mirzo Ulug'bek bilan birga ta'lim olgan Mavlono Muhammad Olim, mashhur xattot Mavlono Soyiliy, musiqa ustozlari Darvesh Ahmad Samarqandiy, shuningdek, Mirzobek, Yusufshoh Safoiy kabi shoirlar ijod qilgan edi. Navoiy

ana shunday yuksak ilmiy-adabiy jarayonga qo'shildi. Shu kezlardayoq o'zida kuchli adabiy iqtidor sezdi, shoir bu haqida Sayyid Hasan Ardasheriga yozgan she'riy maktubida:

Falak ko'rmadi men kibi nodire,
Nizomiy kibi nazm aro qodire

Men kabi nodir iste'dodni hali dunyo ko'rgan emas, men she'r bitish bobida Nizomiy Ganjaviy darajasidaman) – deydi. Yana, shu masnaviysida, hatto Firdavsiy “Shohnoma”dek buyuk asarni o'ttiz yilda bitgan bo'lsa, men shunday ulug' asarni o'ttiz oydayoq yoza olaman, deya iftixor qiladi. Bu so'zlarni Navoiy buyuk “Xamsa”sini yozishidan qariyb yigirma yillar avval aytgan edi. Ikki yilda, faqat ishlagan vaqti hisobga olinganda, olti oyda “Xamsa”ni tugallab, so'zlarini amalda isbotladi. O'sha davrlarda haqiqiy shoir bo'lish uchun ilgari yashab o'tgan qalamkashlardan 20 ming, zamondoshlar ijodidan 10 ming baytni yoddan bilish talab qilingan. Navoiy yigitlik ayyomida 50 ming baytdan ortiq she'ri yod olganini “Muhokamat ul-lug'atayn” asarida shunday yozadi: “Yigitligim zamoni va shabob ayyomi avonida ko'proq she'rda sehrsoz va nazmda fusun pardoz shuaroning shirin ash'ori va rangin adabiyotidin ellik mingdan ortuq yod tutubmen va alar zavq va xushholligidin o'zumni ovutubmen”. Shunday sohibi iqtidorning Samarqand ahli orasida tanilmasligi mumkin emas edi. Shahar hukmdorlaridan asli xurosonlik Ahmad Hojibek ham Alisherbekdan xabar topib, uni o'z homiyligiga oldi. Moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatladi. Navoiy Samarqandda ta'lim olgan paytlarda naqshbandiya tariqatining Bahouddin Naqshband-dan keyingi eng yirik peshvosi Xoja Ubaydulloh Ahror Valiyning mavqei bu yerda nihoyatda baland edi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Navoiy Samarqandga kelgan vaqtda (1466 yili) Abdurahmon Jomiy Xoja Ahror bilan uchrashish uchun ataylab Hirotidan Samarqandga kelib ketadi. Alisher ana shunday ma'naviy-ma'rifiy markazda 1469 yilning boshlarigacha

yashadi. Bu davrda u Movarounnahr hayotini yaqindan o'rgandi, ona xalqining asosiy qismi istiqomat qiladigan yurtga cheksiz mehr qo'ydi. U bu mehmi keyinchalik "Xamsa"ning oxirgi dostoni – "Saddi Iskandariy"da Iskandarning Movarounnahr, jumladan, Samarqandni zabt etishini tasvirlash bahonasida o'ta samimiy bayon etdi. Qizg'in siyosiy, madaniy-ma'rifiy faoliyati Hirot hukmdori Abusaid 1469 yil boshlarida g'arbiy Eron uchun olib borilayotgan janglarning birida o'ldirildi. Temuriyzodalar o'rtasida yana taxt uchun qizg'in kurash avj oldi. Bu kurashda necha yillardan buyon taxt orzusida yurgan Sulton Husayn mirzoning qo'li baland keldi. 1469 yil avvalida Hirot taxtini egalladi.

Husayn Boyqaro bilan Alisher Navoiy maktabda birga o'qigan, Abulqosim Bobur saroyida birga xizmat qilgan qadrdon do'stlar edi. Ular: "Qachonki baxt bizga kulib boqsa, do'stligimizga sodiq qolib, o'zaro hamkor bo'lamiz", deya ahdu paymon qilgan edilar. Ana shu va'daga muvofiq, Husayn Boyqaro Samarqandga – do'sti Alisher Navoiyga maxsus maktub yo'llab, uni Hirotga – saroy xizmatiga da'vat etdi. Navoiy tezlik bilan Hirotga yetib keldi. 1469 yilning apreliga to'g'ri kelgan Ramazon hayiti munosabati bilan do'sti Husaynni muborakbod etar ekan, Navoiy unga taxtni egallashi bilan qutlab bitgan "Hiloliya" qasidasini ham taqdim etdi. Sulton Husayn Navoiyni muhrdorlik lavozimiga tayinladi. Muhrdorlik muhim lavozim bo'lib, davlatning barcha hujjatlari u orqali rasmiylashtirilardi. To Navoiy imzo qo'yib, muhr bosmagunicha birorta hujjat qonuniy kuchga kirmas edi. Shoir shu vazifada turib Xuroson davlatini mustahkamlash, mamlakatni adolatli boshqarish, el-yurt manfaatlari yo'lida xayrli ishlarni amalga oshirish, ilm-fan, kasbu kor va hunarlarni rivojlantirishda podshohga yaqindan yordam berdi. Biroq shoir ijod o'tida yonardi. Davlat xizmati uning erkin qalam tebratishiga vaqt qoldirmas edi. Shuning uchun ko'p o'tmay, Navoiy muhrdorlik vazifasidan iste'fo berdi. O'rniga turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan zullisonayn shoir Amir Shayxim Suhayliy tayinlandi.

Husayn Boyqaro Navoiyning ishtirokisiz davlat ishlarini ko'ngildagidek olib borishi mushkul edi. Davlat bunday donishmand, oqil, odil shaxsga, xalq orasida ulkan obro'-e'tiborga ega zotga muhtoj edi. Shuning uchun 1472 yili Sulton Husayn mirzo, Navoiyning noroziligiga ham qaramay, uni amir, ya'ni vazir qilib tayinladi va unga amiri kabir unvonini berdi. Bu unvon shoir umrining oxirigacha saqlanib qoldi. Amir Muzaffar Barlosgina Navoiydan yuqori muhr bosish huquqiga ega edi, xolos. Shu tariqa Navoiy el xizmatiga mahkam bel bog'ladi. Keyinchalik uning o'zi "Hayrat ul-abror" da:

Kim bor edi boshima ko'p mehnatim,
Yo'q edi bosh qoshig'ali fursatim,

- deya shu davrlardagi qizg'in ijtimoiy-siyosiy faoliyatini eslagan edi. Navoiy shaxsiy daromadlari hisobidan ko'plab imoratlar qurdirdi. Ular orasida madrasalar, xonaqohlar, masjidlar, tabibxonalar, maqbaralar, ko'priklar, to'g'onlar, hammomlar bor. Hirotidagi "Nizomiya", "Ixlosiya" madrasalari, "Xalosiya" xonaqohi, "Shifoiya" tabibxonasi, Marv, ya'ni hozirgi Turkmanistonning Mari shahridagi "Xusraviya" madrasasi Navoiy qurdirgan eng mashhur me'moriy yodgorliklar hisoblanadi. Shoir kuch-quvvatga to'lgan ayni o'ttiz besh yoshida, ya'ni 1476 yili vazirlik lavozimidan ham iste'fo berdi. Biroq u mansabdan voz kechgan bo'lsa ham, Sulton Husayn Boyqaro saroyining eng nufuzli kishilaridan biri bo'lib qolaverdi. Ilm, adabiyot, san'at va hunar ahli Navoiyni o'zlarining chinakam homiyi deb bilar edi. Ko'plari yozgan asarlarini ana shu ulug' amirga bag'ishlar edi. o'iyosiddin Xondamir "Makorim ul-axloq" asarida shunday kitoblardan qirqqa yaqinini sanab o'tadi. Masalan, hazrat Abdurahmon Jomiy avliyolar haqidagi tazkirasi "Nafahot ul-uns va min hazorat ul-quds"ni 1475-1476 yili shogirdi Navoiyning iltimosi bilan yaratgan. O'z davrining yirik adabiyot nazariyotchisi Atoulloh Husayniyning 1493 yili bitilgan aruz va badiiy

san'atlar haqidagi "Badoyi' us-sanoyi'" asari ham Navoiyning jiddiy talabi va rag'obati bilan qog'ozga tushirilgan. Taxminan 1472–1476 yillar orasida Navoiy o'zining birinchi devoni "Badoyi' ul-bidoya"ni tuzgan edi.

"Xamsa"ning yaratilishi Ozarboyjonlik shoir Nizomiy Ganjaviy (1141 – 1209) besh doston yaratib, xamsachilik an'anasini boshlab berdi. Navoiygacha bo'lgan davrda hindistonlik o'zbek shoiri Xusrav Dehlaviy ham "Xamsa" yaratib, shuhrat qozondi. Ashraf ham "Xamsa" yaratgan edi, biroq uning bu boradagi urinishi Xusrav Dehlaviy darajasiga ko'tarila olmadi. Navoiy "Xamsa" yozish rejasini pishitib yurgan yillari Abdurahmon Jomiy ham Nizomiy "Xamsa"sigga javob yozishga jadal kirishgan, "Haft avrang"ning sahifalari peshma-pesh qog'ozga tushayotgan edi. Navoiy "Xamsa"ni misli ko'rilmagan bir qisqa muddatda yozib tugalladi. 1483 yili boshlagan ishini 1485 yili nihoyasiga yetkazdi. "Xamsa" faqat Navoiy ijodi yoki birgina o'zbek adabiyotining cho'qqisi emas. U Sharq adabiyoti, shuningdek, jahon so'z san'atining ham eng buyuk badiiy obidalaridan biri hisoblanadi. "Xamsa" yaratilishi bilan o'zbek adabiyoti jahonning yuksak pog'onalariga ko'tarilgan adabiyotlaridan biriga aylandi. "Xamsa"ni tugallab, Navoiy uni Husayn Boyqaroga taqdim etganida shoh shoirni otga mindirib, bir necha qadam o'zi piyoda otni yetakladi. Bu nodir voqea temuriy hukmdorning milliy adabiyot qadrini naqadar yuksak baholay olganidan dalolat beradi. Navoiy "Xamsa"ning so'nggi dostoni – "Saddi Iskandariy"ning yakunlovchi bobida Nizomiy o'z "Panj ganj"ini o'n besh yilda yozib, uni yana o'n besh yil isloh qilgani, ya'ni qayta ishlaganini, shu tariqa o'ttiz yil barcha ishlarni yig'ishtirib, odamlardan o'zini chetga olib mehnat qilganini yozadi. Hindistonlik Xusrav Dehlaviy ham "Xamsa"sinini yozish uchun o'ttiz yil bo'lmasa ham, uning yarmicha, hech bo'lmaganda, uchdan biricha, ya'ni kamida o'n yil zahmat chekkanini aytadi. "Ular bu beshliklarini yozayotganda tamomi tashvishlardan xoli tarzda ijod qildi, — deydi Navoiy. — Lekin men bir lahza

bo'lsin xalq g'amu tashvishidan ajralmagan holda qalam tebratdim. Shunda ham ikki yilda "Xamsa"ni tugatdim. Agar faqat yozilgan paytlarining o'zigina hisobga olinsa, olti oydan oshmaydi. Buning ustiga, men "Xamsa"ni forsiyda emas, turkiyda bitdim!"

Buyuklarga hech qachon oson bo'lmagan. Navoiyning xalq orasidagi obro'-e'tibori ham, shoh oldidagi mavqei ham ayrim kimsalarni xursand qilmas edi. Shoirning ashaddiy dushmanlaridan biri Majdiddin Muhammad bo'lib, Husayn Boyqaro taxtni egallaganidan keyin uni parvonachi lavozimiga tayinladi. Mudom adolatga zid ishlarni amalga oshirganini, xalqdan zo'rlik bilan to'plangan mablag'ni aysh-ishratlarga sarflaganini ulug' mutafakkir Husayn Boyqaroga tushuntirib, Majdiddinni lavozimidan chetlattirgan edi. Bu ular o'rtasidagi kelishmovchilikni yanada kuchaytirdi. Husayn Boyqaro xazinasida moliyaviy tanglik yuzaga kelgan mahalda Majdiddin yana yo'lini qilib, shohning pinjiga kirib oldi. U Sulton Husaynga: "Huquq bering, men oz fursatda xalqdan yig'ib kelay o'sha mablag'ni", dedi. Shunday qildi ham. Shu bahona u shohning ishonchini qozonib, yana vazirlik lavozimini egallash harakatiga tushdi. Bu maqsadiga yetishi uchun esa, qanday qilib bo'lmasin, Navoiyni Hirotdan uzoqlashtirishi zarur edi. Buning ham yo'li topildi. Sulton Husayn mirzo Navoiyni Xuroson davlatining g'arbiy chegaralarida joylashgan uzoq Astrobodga hokim qilib tayinladi. 1487 yilning avvali edi. Navoiy qirq oltiga to'lib, qirq yettiga chiqqan. Xondamirning yozishicha, bu paytda shoirning ko'ngli "tariqat (ya'ni tasavvuf) sulukiga muhabbati ortiqligidan" shohning Astrobodga hokim bo'lish haqidagi taklifiga dastlab rozilik bermadi. Lekin xoqon undan o'tinib so'rganidan keyin noiloj ko'ndi. O'ziga ma'qul mulozimlarini olib, Astrobodga ketdi. Bu yer bag'oyat ko'kalamzor, juda obod, ipakchilik kuchli rivojlangan, savdo-sotiq uchun qulay bir o'lka edi. Strategik jihatdan Astrobodning xavfsizligi mamlakat osoyishtaligi uchun muhim edi.

Xalq shoirni izzat-ikrom bilan kutib oldi. Viloyatda adolatsizliklarga barham berishga kirishildi, zulmkor amaldorlar ishdan chetlatildi, obodonchilik ishlari yoʻlga qoʻyildi. Navoiy bu yerda oʻz asarlaridagi yuksak gʻoyalariga sodiq qolib, boshqa hukmdorlarga oʻrnak boʻlarli darajada oqilona ish yuritdi. Ammo poytaxtdan — ona shahridan uzoqda yashash, buning ustiga, hokimlikdek masʼuliyatli vazifani uddalash shoirning ijodiy rejalariga mos kelmas edi. Shuning uchun Navoiy 1488 yili oʻz oʻrniga Amir Burhoniddinni qoldirib, hokimlikni topshirish niyati bilan Hirotga keldi. Biroq Sulton Husayn uning bu iltimosini rad etib, yana oʻzini qaytarib yubordi. Oradan bir necha oy oʻtib, shoir jiyani Haydar Sabuhiyni Hirotga joʻnatdi. Ziyofatlardan birida u Sulton Husaynga Astrobodda shohning yaqin kishilari oshpazga Navoiyga zahar ichirish haqida buyruq berganini, bundan xabar topgan shoir qattiq ranjigani, hatto isyon koʻtarish niyatida ekanini shifshitdi. Shoh zudlik bilan doʻstiga maktub yozib, bu borada undan gumon qilmaslikni, bu suiqaasd-dan xabari yuqligini bildirdi. Navoiy esa oʻz navbatida jiyani Haydar Sabuhiyning gaplaridan mutlaqo xabarsiz ekanini maʼlum qildi.

Shu voqeadan keyin Sulton Husayn Navoiyning Hirotga qaytishiga koʻndi. Shoir hukmdordan bundan buyon davlat ishlaridan batamom forigʻ etishini iltimos qildi. Biroq rasmiy amal bermagan boʻlsa ham, shoh uni “muqarrabi hazrati sultoni”, yaʼni “hazrati sultonning eng yaqini” degan unvon bilan siyladi. Bu saroyda Navoiyga alohida hurmat bilan munosabatda boʻlishni taʼminlar, shoirning dushmanlarini yanada gʻazablantirar edi. Chunki bu unvonning imtiyozi shu darajada ediki, uning sohibi bir masala yuzasidan shohga yetti marotabagacha qayta-qayta murojaat qilish huquqiga ega edi. Hayotining soʻnggi yillari Navoiy hayotining soʻnggi 15 yili nihoyatda qizgʻin ijod davri boʻldi. Merosining kattagina qismini aynan shu — 45 yoshdan keyin yaratdi. Birinchidan, shoir davlat va jamiyat ishlaridan bir qadar forigʻ boʻldi. Ikkinchidan, uning asarlari yaratilishi ketma-ketligiga nazar tashlaydigan boʻlsak,

muallif shoshilib, ulgurib qolishga intilib ishlagani ma'lum bo'ladi. "Xamsa"dan keyin shoir "Zubdat ut-tavorix" asarini yozdi. 1488-1489 yillari Navoiyning ustozlari Sayyid Hasan Ardasher vafot etdi. Bu paytda ham shoir Hirotdan yiroqda edi. Oradan ikki yil o'tganidan keyin, ya'ni 1490 yili u "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" asarini bitib, bu ajoyib insonning fazilatlarini bag'oyat mehr bilan bayon etdi. Shu yili "Risolayi mufradot dar fanni muammo" ("Muammo sohasining ayrim jihatlari haqida risola") yozildi. Mumtoz she'riyatimizning muhim janrlaridan biri bo'lmish muammo to'g'risidagi bu qo'llanmadan keyingi asrlarda ko'p foydalanildi. Navoiy umri bo'yi o'zidan oldingi davrlar va zamonasi shoirlari ijodini izchil o'rgandi. O'z davri kitobxonlari va kelajak avlod uchun u o'zi bilgan shoirlar haqida bir tazkira tartib berishni orzu qilar edi. 1491 yili ana shu orzusi amalga oshdi. "Majolis un-nafois" ("Nafis majlislar") tazkirasini bitirdi. "Majolis un-nafois"dan keyin, ya'ni 1492 yili Navoiy adabiyot nazariyasiga oid yana bir asari – "Mezon ul-avzon" ("Vaznlarni o'lchov") risolasini yaratdi. Unda turkiy aruz qonun-qoidalari ifodalangan.

1492 yili Navoiyning boshiga yana bir og'ir musibat tushdi. Piri va ustozlari Abdurahmon Jomiy vafot etdi. Navoiy piri va ustozlari uchun sohibi aza bo'ldi. Jomiyning yil oshida zamonasining mashhur voizi Husayn Voiz Koshifiy Navoiyning piri va ustoziga bag'ishlab bitgan mashhur marsiyasini Sulton Husayn huzurida qiroat bilan o'qib turdi. Ustozlari vafotidan ikki yil o'tib, ya'ni 1494 yili Navoiy piri haqida "Xamsat ul-mutahayyirin" ("Hayratlanarli beshlik") asarini bitirdi. 1493 yili shoir yana bir suyangan tog'i, murabbiyi, do'sti, zamonasining ulug' fozillaridan Pahlavon Muhammaddan ayrildi. "Holoti Pahlavon Muhammad" asari ana shu ulug' zot xotirasini abadiylashtirish maqsadida qog'ozga tushirildi.

Shoir o'zi bitgan har bir satrning qadriga yetadigan ijodkor edi. O'sha davrda rasm bo'lganidek, Navoiy ham o'zining Husayn Boyqaroga, shahzodalarga, ustozlari, birodarlari, qadrdonlariga yo'llagan maktublarini jamlab,

“Munshaot” (“Maktublar”) to‘plamini tuzdi. 1495-1496 yillari Navoiy Jomiyning “Nafohat ul-uns va min hazarot ul-quds” tazkirasini turkiyga tarjima qildi. Tarjimaga ayrim qisqartirish va to‘ldirishlar kiritildi. Shoir bu asarga “Nasoyim ul-muhabbat va min shamoyim ul-futuvvat” (“Ulug‘lik xushbo‘yliklarini taratuvchi muhabbat shabbodalari”) deb nom berdi. So‘fiylar haqidagi bu tazkira XV asr ikkinchi yarmigacha o‘tgan ko‘plab shayx va avliyolar haqida ma‘lumot beruvchi boy manba hisoblanadi. Kishining bolaligida kechgan fikr-o‘ylari, tasavvur va orzu-intilishlari, zamonlar o‘tib, qaytadan avjlanishi, inson yana o‘sha ko‘p yillar ilgari niyatlarini amalga oshirish taraddudiga tushib qolishi mumkin. Navoiyning umri so‘ngida – 58-59 yoshlarida, ya‘ni 1498-1499 yillari “Lison ut-tayr” (“Qush tili”) dostonini bitishi ham xuddi shunday tuyg‘ular oqimining samarasi edi. Chunki Alisher Navoiy bolaligida ulug‘ shoir Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostonini to‘liq yod olgan edi. Umr adog‘ida esa uning ta‘siridagi “Lison ut-tayr” dunyoga keldi. Navoiy o‘zbek lirikasini tamoman yangi pog‘onaga olib chiqdi. U forsiyda bitilgan she‘rlarini “Devoni Foniyy”ga, turkiyda yozilgan she‘rlarini esa “Xazoyin ul-maoniy” (“Ma‘nolar xazinasi”) degan to‘rt mustaqil devondan iborat majmuaga jamladi. “Xazoyin ul-maoniy”ga tartib berish 1491-1492 yillari boshlangan edi. Bu keng ko‘lamli jiddiy ish 1498-1499 yillargacha davom etdi.

Ulug‘ zotning muxlislari uning asarlarini bir kitobga jamlab, “Kulliyot” ham tuzishdi. Navoiy ana shu “Kulliyot” uchun kirish tarzida “Munojotnoma” nasriy asarini yozdi. Navoiy buyuk asarlari bilan turkiy til ham jahondagi buyuk adabiyot yaratishga loyiq bir lison ekanini isbotladi. Bu fikrning nazariy isboti sifatida 1499 yili “Muhokamat ul-lug‘atayn” (“Ikki til muhokamasi”) risolasi dunyoga keldi. 1499-1500 yillari “Siroj ul-muslimin” (“Musulmonlar chirog‘i”) asari bitildi. Navoiy umrining so‘ngida axloqiy-pandnoma ruhidagi “Mahbub ul-qulub” (“Ko‘ngillarning sevgani”) asarini yozdi. 1500 yili bitilgan bu kitob Navoiyning eng yirik asari hisoblanadi. Unda

mutafakkirning uzoq yillik hayotiy xulosalari o'ta ta'sirchan bayon etilgan. 1500 yilning yozida Astrobodda Husayn Boyqaroning Xadichabegimdan tug'ilgan o'g'li – Muhammad Husayn otasiga qarshi bosh ko'taradi. Shoh o'g'liga qarshi qo'shin tortadi. Yilning dekabriga borib ota-o'g'il o'rtasida sulh tuziladi. Sulton Husayn mirzoning Hirotda qaytayotgani haqida xabar keladi. Zamona udumiga ko'ra, 1501 yilning 1 yanvar kuni Navoiy ham bir guruh davlat arboblari va poytaxtning ko'zga ko'ringan kishilari safida shohni kutib olgani chiqadi. Podshoh peshvoz chiqqanlarga yaqinlashgan mahalda shoirning ahvoli og'irlashdi. Uning boshini Sulton Husaynning quchog'iga qo'yishdi. Navoiy shu tariqa hushini yo'qotdi. Tabiblarning bir qismi unda sakta kasali xuruj qilganini, tezroq qon olish kerakligini aytdi. Boshqalar uni Hirotda olib borib, tabiblar maslahatidan so'nggina undan qon olish lozim degan fikrga keldi. Shoirni shaharga qaytardilar, tomirlaridan qon chiqmadi. Tabiblar kech qolgan edi. Shu tariqa Navoiy 1501 yil 3 yanvar kuni Hirotda vafot etdi. Navoiy yaratgan o'lmas asarlar tuganmas ma'naviy mulk sifatida abadiy qoldi. O'zbek xalqi bu boy meros bilan haqli ravishda dunyodagi buyuk adabiyot yaratgan millatlar qatoridan joy oldi.

ALISHER NAVOIY FENOMENI (Manbalar asosida)

Amir Nizomiddin Alisher Navoiy (844 - 906/1441 - 1501) faqat o'zbek xalqi emas, balki butun turk olamining buyuk shoiri, mutafakkiri sifatida jahon badiiy tafakkuri tarixida o'z o'rni va maqomiga ega ijodkordir. Uning jahon badiiyati xazinasiga qo'shilgan shoh asarlari, XV asrning ikkinchi yarmi temuriylar saltanati davri ilm-fani va san'atini rivojlantirishga qo'shgan benihoya katta hissasi allaqachon e'tirof etilgan. U hayotini to'laligicha mamlakat ravnaqi, xalq va millatning tinch-totuv yashashi hamda davlat qudratini mustahkamlashga bag'ishladi. Sulton Husayn Boyqaroning uni "mamlakat ustuni, dinu davlat nizomi, mulku millat asboblari zubdasi, xayrli binolar muassisi, hoqon davlati tayanchi", deb ataganligi bejiz bo'lmagan, albatta.

Alisher Navoiy butun dunyo qarshisida turkiy (o'zbek) tilning boy imkoniyatlarini ko'rsatib bera olgan, arab, fors tillaridan hech qaysi jihatdan kam bo'lmagan go'zal til ekanligini isbotlab bergan buyuk olimdir. O'sha davrlarda fors tili poeziya tili, arab tili esa ilmiy til sifatida qabul qilingan edi. Rasmiy yozishmalar har ikkala til omixtasidan iborat edi. Turkiy tilga esa avom tili sifatida qarash ustuvor edi. Turkiy xalqlarning ko'p mingyillik davlatchilik tajribasi va boy ma'naviy-adabiy merosi mo'g'ul bosqini oqibatida yo'q qilinganligi tufayli temuriylar davrida turkiy xalqlarning shonli tarixi, tili va qadriyatlarini tiklash juda qiyin kechgan. Hatto Temur saroyida turkiy tilni davlat tili darajasiga olib chiqish ishlari oxiriga yetkazilmay qolgan. Shunday bir sharoitda Alisher Navoiy o'z oldiga o'zbek tili maqomini tiklash maqsadini qo'ydi. U bejiz ushbu satrlarni yozmagan:

Turk nazmida chu tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

Darhaqiqat, Navoiy o'zi e'tirof etganidek, turkiy til va adabiyoti maydonida bayroq ko'tardi, butun mamlakatni

yakqalam, ya'ni bir tilli qildi. Dunyo olimlari Navoiyning o'zbek (turkiy) adabiy tili mavqeini ko'tarish va rivojlantirishdagi xizmatlarini insoniyat tamadduni tarixidagi buyuk ma'rifatparvarlar - fransuz Dyu-Belli va rus M.Lomonosovning millat madaniyatida tub burilish yasagan sa'y-harakati bilan tenglashtiradilar.

Alisher Navoiy davlat ishlaridan xoli vaqtlarida badiiy ijod bilan shug'ullandi va badiiyot olamida tengsiz bo'lgan nodir asarlar yaratdi. Buyuk beshlik – “Xamsa” va “Xazoyin ulmaoniy” devoni, “Muhokamat ul-lug'atayn” va “Mezon ul-avzon” kabi ilmiy asarlari, forsiy devoni va qasidalari, diniy-ma'rifiy manzumalari hamda tarixiy ahamiyatga molik xotira – “holot”lari uning beqiyos so'z san'atkori, buyuk faylasuf va olimligining dalilidir. Navoiy asarlarida inson ma'naviy-axloqiy kamoloti g'oyasi yetakchi; odamiylik, bag'rikenglik, ezigulik esa shoir falsafasining asosini tashkil etadi.

Alisher Navoiy katta yer-mulk egasi edi. U 1481 yili o'zining bor mol-dunyosidan voz kechib, xayriya, ya'ni vaqf mulkini tashkil qiladi. Vaqf mulki - Hirot hududidagi imoratlar, xususan, Ixlosiya madrasasi va unga tegishli imoratlar, 24 do'kon, 3-4 tim bozori, bog'-rog'lar (255,5 jarib uzumzor va mevazor bog'lar, yerlarning muayyan qismi (545 jarib) va ularni ishlatishdan tushgan daromad to'laligicha ta'lim muassasalari, musofirxonalar va darvishlar, qalandarlar, kambag'al muhtojlar, yetim-yesirlarning ehtiyojini qoplab turishga qaratildi. Boshqa bir qismi ilm-fan va adabiyotni rivojlantirishga sarflandi. Navoiyning bevosita moddiy va ma'naviy ko'magi ostida o'nlab olimlar tadqiqot ishlarini olib bordilar, tarixiy asarlar yozish keng rag'batlantirildi, tasviriy san'at ustalarining ishiga alohida e'tibor berildi. Hirotida Navoiyning shaxsiy tashabbusi va mablag'i bilan Xalosiya, Shifoiya, Nizomiya kabi bir necha madrasa va xonaqoh qurilib, ularda mashhur olimlar dars berish va ilm bilan shug'ullandilar. Bu davrda riyoziyot, ilmi nujum, xandasa, mantiq, fiqh, islom nazariyasi va boshqa sohalarga oid ko'plab

asarlar yaratildi. Navoiy rahnamo Hirot adabiy muhitining rivoji uchun sulton katta sharoit va qulayliklar yaratib berdi. Bu temuriylar saltanatida ilm-fan va adabiyot rivojlanishiga hukmdorning alohida e'tibori namunasi edi. Mamlakatda ilm-fanning taraqqiy topishida Navoiyning xizmati beqiyos bo'ldi. Tarixchi Xondamir «Makorim ul-axloq» asarida Navoiy rahbarligi va homiyligida yaratilgan yigirmaga yaqin muhim ilmiy tadqiqot nomi, ularning mualliflari hamda uning moddiy ko'magi yordamida ijod etgan shoir va ilm ahli ro'yxatini keltirgan. Uning temuriylar sulolasi hamda ilm-fan ahliga qilgan fidoyi xizmati o'sha davrning o'zidayoq yuzlab asarlarda qayd etildi. Dovrug'i boshqa davlatlarga ham taraldi. Uning nomi yetti iqlim fozillari va san'atkorlari homiysi sifatida afsonaviy shuhrat topdi. Hipot olimlarining ko'pchiligi Amir Alisher ko'rsatgan katta xizmatlarni minnatdorlik sifatida o'z asarlari debochasida bitdilar. Navoiyning beminnat ezguliklari borasida juda ko'p tazkiranavislar, tarixchilar, shoirlar, olimlar o'z asarlarida shohidlik bildirib ketdilar. Buning isbotini Davlatshoh Samarqandiy, Mu'iniddin Isfizoriy, Abdulg'afur Loriy, Abdulvose' Nizomiy, Mirxond, Xondamir, Sultan Ali Mashhadiy, Atoulloh Husayniy, Atoulloh Asiliy, Husayn Koshifiy, Mir Husayn Muammoiy, Shamsiddin Badaxshiy va yana o'nlab Navoiy zamondoshlari asarlarida, Navoiy sha'niga bitilgan turli madhiyalarda ham uchratamiz. Jumladan, Kamoliddin Husayn voiz al-Koshifiy o'zining «Javohir ut-tafsir» asari debochasida Navoiy tomonidan unga ko'rsatilgan yordam va maslahatlar haqida gapirib o'tar ekan, zamondoshlarining e'tirofini umumlashtirib, shunday yozadi:

*Gavhar-i durji karomat, axtar-i burj-i kamol,
Oftob-i avji hashmat, soya-i lutf-i iloh.*

*Shahsuvor-i arsa-i izzat Alisher, on ki ast,
Voli-i ahhobu dovari davronpanoh.*

Mustafiz az nafxa-i gulzor-i fazlash jonu dil,

Mustanir az lam'a-i roi munirash mehru mox,

Davlat-i u bo jahonu, rif'at-i u bo sipehr,

*Fosh meguyand har dam az cap-i tamkinu joh.*⁴⁴

Mazmuni:

Amir Alisher muruvvatli, sahovatilar ichida gavhar yanglig', kamolot osmonidagi yulduz, buyuklik cho'qqisida nur sochar quyoshdir. Ilohiy lutf kabi, uning lutfi behadu beminnat. Uning «fazl gulzori»dan jonu dil fayz topadi. Uning qiyofasi shunchalik nuroniyki, birgina nigohi shu'lasidan quyosh va oy yarqirab turibdi. Amirning davlati jahoncha va tutgan mavqei osmon qadar yuksaklikda. Bosiqligi, kamtarligi va, shu bilan birga, ulug'ligi buni namoyon etadi.

Aytish mumkinki, Navoiyga bag'ishlangan madhiyalar uning ibratli hayoti tafsilotlari bilan muvofiq kelib aholining turli qatlamlarida unga Olloh nazar qilgan benazir zot sifatidagi qarashni shakllantirdi. Uning hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish boshlandi. Alisher Navoiy ma'rifatparvar shaxs sifatida tarixiy manbalarda alohida qayd etilib, she'riy asarlarda ta'rif va tavsif qilindi. Keyingi davrlarda ham ko'plab manbalarda uning hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlar berildi. Bu Sharq xalqlarining buyuk shoir va mutafak kirlar – Nizomiy Ganjaviy, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumi, Sa'diy Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Abdurabmon Jomiy bilan bir qatorda Navoiy shaxsiga ham ulkan qiziqish bilan qaraganlaridan darak beradi. Ushbu e'tibor va e'zoz ulug' mutafakkirning badiiy yuksak, maftunkor g'azaliyoti, shavqangiz dostonlari va donishmandona o'g'itlari bilan ziynat topgan asarlari sharofatida yanada kuchlanib, keyingi asrlarda turkiy xalqlar san'at va ijod ahli orasida Navoiyning ruhoniyligi sifatida mashhurlik sabab bo'ldi. Navoiy madadiga umidvorlik o'z davrida jiddiy manfaatlar zaminida_vujudga kelgan bo'lsa, keyin-keyin uning ruhoniyatidan madad so'rash ko'rinishiga o'tib, ijodkorning acap

⁴⁴ Husayn voiz al-Koshifiy. Javohir ut-tafsir. SamDU Sharq qo'lyozmalari bo'limi. 40347-raqamli qo'lyozma, 3⁸-vara.

yaratishda butun kuch-qudratini safarbar etishiga dalda bergan. Masalan, Alisher Navoiy hayoti va ijodidan soʻzlovchi XV asr qoʻlyozma manbalarida ulugʻ shoirning ajoyib hattot boʻlganligi hamda hattotlarga ustozlik qilganligi haqida koʻplab maʼlumotlar uchraydi⁴⁵.

Bu hol keyingi davr hattotlari orasida Navoiy asarlarini koʻchirish orqali «hattotlik maktabi»ni oʻtash va uning gʻoyibona «oq fotiha»sini olish anʼanalarini yuzaga keltirdi. Chunonchi, buxorolik Yormuhammad qori Buxoriy, Abdulboqiy Buxoriy, Mullo Navroʻz Buxoriy, samarqandlik Abdulxay Samarqandiy, Mullo Muqimxon Samarqandiy, Qashqadaryo vohasidan Muhammad Yusuf Shahrizabziy, Muhammad Rahimxoʻja Nasafiy, Tohirxoʻja Shahrizabziy, Fargʻona vodiysidan mulla Roʻzi kotib, Muhammad Amin Kogoniy, xorazmlik Muhammad Yusuf kabi XIX. asrning mashhur hattotlari Navoiy asarlarini alohida mehr bilan koʻchirganlar. Zahmatkash olim M.Hakimovning Navoiy asarlari qoʻlyozmalari tavsifiga bagʻishlangan kitobida koʻrsatilgan 254 nusxaning ikki yuzdan ziyodrogʻi XIX asrda kitobat qilinganligi ham fikrimizni tasdiqlaydi.⁴⁶ Oʻzbekiston hududidagi mustaqil viloyatlarni boshqarib kelgan xonlarning koʻpchiligi shoirtabʼ kishilar boʻlgan (masalan, Feruz va Amiriy) va ular farmoyish asosida harbiy Navoiy asarlarini koʻchirtirganlar. Jumladan, Oʻrta Osiyo hattotlik sanʼati tarixi bilan shugʻullangan olim, mashhur hattot A.Murodov yozadi: «Sharqshunoslik institutining qoʻlyozmalar fondida 1709-nomerli «Chor devon»ning oxiriga yozilgan xotimadan maʼlum boʻldiki, Qoʻqonda Navoiy asarlari koʻp kitobat qilingan. Shu devonning xotimasida 1838 yili Muhammad Alixon buyrugʻi bilan hattotlar tomonidan olti oy

⁴⁵ Qarang: Tazkirai hattoton. OʻzR FA Shl. 202-qoʻlyozma; yana: Madraimov A. Alisher Navoiy va kitobat sanʼati // Sharq miniatyura maktablari. - Toshkent, 1989. - B.54 - 59.

⁴⁶ Qarang: Hakimov M. Navoiy asarlari qoʻlyozmalari tavsifi. - Toshkent, 1983.

ichida uch yuz adad Navoiy «Chor devon»ining qo'lyozmasi ko'chirilib, sherozali muqova qilingan...»⁴⁷ Illy tarzda Alisher Navoiy asarlarining zahmatkash hattotlar tomonidan ko'chirilgan minglab qo'lyozma nusxalari vujudga keldi. Hattotlar Navoiy asarlarini ko'chirishda, bir tomondan, hattotlik mahoratini orttirsalar, ikkinchi tomondan, ko'chirish jarayonida Navoiy so'zi qudratining naqadar kuchli ekanligidan ta'sirlanganlar. Natijada Navoiyning biror-bir asarini ko'chirib bo'lishgach, o'sha asar haqidagi o'z taassurotlarini kitob oxirida qayd etib ketganlar. Masalan, 1832 yili Buxoroda ko'chirilgan Navoiy «Xamsa»si so'ngida noma'lum kotib tomonidan ulug' shoir haqida yozib qoldirilgan misralar anchagina. Jumladan, u shunday yozgan:

*Navoiyki, ul jomei sirru jahr,
Aning har so'zidur muammo misol,
Ango yetmagandin xirad nutqi lol.
Jahon ganji har baytidadur nihon,
Ki har ganjidadur nihon bir jahon....*⁴⁸

Shu bilan birga, XIX asrning birinchi choragida yashab o'tgan Qarshilik kotib Muhammad Rahimxo'ja Nasafiy ham Navoiy «Xamsa»sini ko'chirar ekan, ylug' shoirga bo'lgan mehr-muhabbatini 34 misralik madhiyasida yuksak faxr bilan qayd etadi.

Ko'rinadiki, kotiblar Navoiy asarlarini ko'chirishni qog'ozga tushirar ekanlar, Navoiy dahosiga sharaf deb bilganlar va shu asar ta'sirida o'z kechinmalarini yana bir karra ta'zim etganlar, o'zlarining shu ulug' zot avlodi ekanliklaridan benihoya faxrlanganlar.

⁴⁷ Murodov A. O'rta Osiyo hattotlik san'ati tarixidan. - Toshkent: Fan, 1971. - B.56.

⁴⁸ Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. - Тошкент: Ўқитувчи 1964 - Б.158 - 159.

O‘TMISH NAVOIYSHUNOSLIGI AN‘ANALARI

XX asr navoiyshunoslik uchun katta muvaffaqiyatlar asri bo‘ldi. O‘zbekistan jahon navoiyshunosligining markaziga aylandi. Bu davr navoiyshunoslik tarixiga Navoiyni dunyoga tanitish davri sifatida kirdi. Shubhasiz, o‘zbek navoiyshunosligi yangi zaminda paydo bo‘lmadi. Navoiyni o‘rganish o‘z davridayoq boshlangan edi. Mirxond, Davlatshoh Samarqandiy, G‘iyosiddin Xondamir, Zahiriddin Muhammad Bobur, Zayniddin Vosifiyning nasriy asarlari, Faxriy va Kazviniyning «Majolis un-nafois» asari tarjimalarida buyuk o‘zbek mutafakkiri va shoiri hayoti va faoliyaiga baho berib o‘tilgan. Abdurahmon Jomiy, Ahliy Sheroziy kabi o‘nlab shoirlarning Navoiy ijodiga munosabati o‘nlab asarlarda qayd etilgan. Ulug‘ fazilatlar sohibi Mir Alisher hakida maxsus yozilgan Xondamirning «Makorim ul-axloq» asari asrlar davomida Navoiy dahosi mohiyatiga yetishga intilgan muxlislarga ochqich vazifasini o‘tadi.

Navoiy shaxsiga qiziqish faqat Sharq bilan cheklanmagan. 1697 yili nashr etilgan fransuz olimi Artoleme d’Erbeloning «Sharq kutubxonasi» nomli ensiklopediyasida Navoiy tarjimai holi va asarlari nomining keltirilishi, sharqshunos Silvester de Sasi (1758 - 1838) tadqiqotlarida ham Navoiy nomining uchrashi G‘arbda Navoiyning shoir va davlat arbobi sifatida rasman tanilganligining dalilidir. 1835 yili rus sharqshunosi P.Savelyev Navoiyga maxsus bag‘ishlab yozgan maqolasida Navoiyning ijodiy faoliyatiga to‘g‘ri baho berib, ba’zi asarlari haqida qisqacha ma’lumot keltiradi.⁴⁹ Bu orada Mixail Nikitskiy tomonidan tayyorlangan Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan magistrlik dissertatsiyasi navoiyshunoslikda katta hissa bo‘ldi. M.Nikitskiy temuriylar sulolasining hukmronligi davridagi siyosiy va adabiy hayot haqida Davlatshohning «Tazkirat ush-shuaro», Som Mirzoning «Tufxai Somiy», Sulton Husaynning

⁴⁹ Қаранг: Савельев П. Алишер Невая // Энциклопедический лексикон. СПб., 1835. Т.1.

«Majolis ul-ushshoq», Mirxondning «Ravzat us-safo» kabi tarixiy va memuar asarlarida keltirilgan materiallarni umumlashtiradi; Navoiyning adabiy hamda davlat ishlaridagi faoliyatini asosan to'g'ri belgilaydi.⁵⁰ U «Mir Alisher Sharq adabiyoti tarixida sharaflı o'rinni egallaydi» deb uni munosib baholadi va rus sharqshunolarining e'tiborini unga qaratdi. 1857 yili professor I.N.Berezen (1818 - 1896) tomonidan tuzilib, Kozonda bosilgan «Turkiy xrestomatiya» kitobida Alisher Navoiyning ikki asari - «Vaqfiya» va «Munshaot»dan parchalar berildi. Mashhur rus olimi V.V.Velyaminov-Zernov Alisher Navoiy asarlari asosida XVI asrda tuzilgan va «Abushka» nomi bilan mashhur bo'lgan lug'atning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlab 1868 yili nashr ettirdi. Boshqa bir rus sharqshunosi N.I.Illinskiy o'zining 1862 yili Kozonda bosilgan turk-tatar tillariga bag'ishlangan asarida Alisher Navoiyning o'zbek adabiy tili taraqqiyoti yo'lida ko'rsatgan xizmatlariga yuqori baho beradi va «o'z ona tili uchun zo'r matonat bilan qudratli kurash olib borgan kishi edi» deb ta'riflaydi.⁵¹ Katremer 1841 yili Parijda Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn», «Tarixi muluki Ajam» asarlarini bosib chiqaradi. Major olimi H.Vamberi O'rta Osiyoga bag'ishlangan asarlarida Navoiydan parchalar va tarjimalar beradi. U «Mahbub ul-qulub»ning kirish qismini, «Farhod va Shirin»ning ayrim boblarini va shoirning boshqa asarlaridan olingan parchalarni nemis tiliga tarjima qildi. 1861 yili fransuz sharqshunosi M.Belen «Aziatik» jurnalida «Mir Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida» nomi ostida katta hajmli maqolasini chop ettiradi⁵². Shu bilan birga, «Xamsat ul-mutaxayyirin» asari haqida katta ilmiy ish yozadi, «Majolis un-nafois»ni nashr qiladi; «Mahbub ul-qulub»ning ayrim boblarini

⁵⁰ Қаранг: Никитский М. Эмир Низом эд-Дин Алишер в государственном и литературном его значении. - СПб., 1856.

⁵¹ Қаранг: Ильминский Н.И. Материалы к изучению киргизского наречия. - Казань, 1861.

⁵² Қаранг: Белен М. Мир Алишер Навоий / Туркча гаржима. Ношир Аҳмед Жавдат. - Истанбул: Икдом матбааси, 1897.

fransuz tiliga o'giradi. Aytish kerakki, Nikitskiy va Belen asarlari XIX asr sharqshunoslari tomonidan tan olingan tadqiqotlar hisoblanib, ancha vaqtgacha, hatto XX asrning boshlarida ham Navoiyni o'rganishda asosiy manba bo'lib keldi.

XIX asrda Sharq mamlakatlariga sayohat qilgan G'arb olimlari, mustamlaka mamlakatlari idoralari ishlovchi nodir san'at namunalari ishqibozlari imkon qadar Navoiy asarlari nusxalarini o'z vatanlariga olib ketishga uringanlar. Natijada Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiyaning muzey, kutubxona va shaxsiy fondlarida Alisher Navoiy asarlari ko'plab to'plangan. Ingliz sharqshunosi Ch.Riyo 1888 yili Londonda nashr etgan va bugungi kunda Britaniya muzeyida saqlanayotgan «Turkiy qo'lyozmalar katalogi»dan ham Alisher Navoiy asarlariga bo'lgan qiziqish katta bo'lganligini ko'rish mumkin. Chunonchi, Ch.Riyo o'z katalogida Navoiy asarlarining 12 nodir nusxasini tavsif etgan. Mashhur manbashunos va matnshunos Ch.Riyo Alisher Navoiy shaxsiyatiga juda katta ehtirom bilan qaraganini uning quyidagi so'zlaridan ham bilsa bo'ladi: «Mir Alisher turkiy tilni adabiy til darajasiga ko'tarishda eng ko'p xizmat qilgan tarixiy shaxsdir. Uning eng madaniyatli, buyuk mutafakkir inson ekanligi barcha tomonidan tan olingan. U shaksiz, turkigo'y shoirlarning eng sermahsulidir».⁵³ Yevropa sharqshunoslaridan E.Bloshe, M.Buvat, E.Braun ham Navoiy asarlarini, uning qo'lyozmalarini atroflicha o'rganganlar. Xususan, E.Braun o'zining to'rt jildlik «Eron adabiyoti tarixi» kitobida Alisher Navoiy hayoti va faoliyatini yoritgan, uning ijodi xususida to'xtalgan. Braun Navoiy ijodiga yuksak baho beradi. U shunday yozadi: «Mir Alisherning ham ijodkor, ham qalam ahlining homiysi sifatidagi ahamiyati va ta'siri ta'riflab bo'lmas darajada kattadir. U o'z davri va mamlakatining buyuk sahovatpeshasidir».⁵⁴

⁵³ Rieu Ch. Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Museum. 1888. - P.273.

⁵⁴ Browne E. A Literary History of Persia. Vol. III. - Cambridge, 1969. - P.505.

Shu tarzda XIX asrda Yevropa sharqshunosligida Alisher Navoiy ijodiga qiziqish jiddiy tus olganini kuzatish mumkin. Ular Navoiy davrida yaratilgan manbalar asosida ulug' shoir va siyosiy arbob shaxsiyati, ijodiyoti masalalarini ilmiy tarzda tadqiqotchilar hamda navoiyshunoslikning yangi davriga asos yaratdilar. Birinchidan, XV asr oxiri - XVI asr boshiga taalluqli va Navoiy haqida ma'lumot beruvchi qo'lyozma manbalar umumlashtirilib ilmiy muomalaga kiritildi. Ikkinchidan, shu davrgacha davom etib kelayotgan sharqona, an'anaviy bayonchilikka asoslangan Navoiy talqini uslubiga chek qo'yilib, Navoiy ijodiga ilmiy nazar tashlandi. Biroq bu davr navoiyshunoslari ulug' shoir biografiyasini yoritishda ko'p chuqurlashmadilar. Ular Navoiy haqida tarixiy manbalarda berilgan ma'lumotlarni umumlashtirar ekanlar qiyosiy-tanqidiy chog'ishtirib o'rganmadilar. Oqibatda shoirning haqiqiy tarjimai holi xiralashib qoldi. XIX asr sharqshunoslari ishlarida Navoiy «podshohning eng yaqin kishilaridan - muhrdor, vazir sifatida tinch hayot kechirgan va ijod etgan shoir» bo'lib qoldi. Tazkiralarda Navoiyning nazira va tatabbu'lari, salaflarga ergashib yozgan asarlari haqida ko'p gapirilgani bois, G'arb sharqshunoslari Navoiyni taqlidchi shoir deb tushundilar.

Mafkuralar to'qnashuvi

Navoiyshunoslikning ikkinchi bosqichi jahondagi buyuk siyosiy o'zgarishlar jarayoni bilan bog'liq ekanligini ta'kidlamok lozim. XIX asrning II yarmidan boshlab Buyuk Britaniya va Rossiyaning Sharqni mustamlakaga aylantirish poygasi Markaziy Osiyo va Hind mintaqalari jo'g'rofiyasi, geologiyasi, tabiati bilan bir qatorda ma'naviy salohiyatiga bo'lgan qiziqishning kuchayishiga sabab bo'ldi. Bu qiziqish, muayyan sabablarga ko'ra, Rossiyada ro'y bergan Oktabr to'ntarishi va «Qizil imperiya» hukmronligining O'rta Osiyo hududida o'rnatilganidan so'ng ham to'xtamadi. 1868 yili Vengriyaning Turkiyadagi elchixonasi xodimi M.Belen tomonidan yozilgan «Alisher Navoiy» ilmiy axboroti yana dolzarb bo'lib qoldi.

Fransuz olimi Lyusyen Buvaning 1926 yili «Osiyo» jurnalida eʼlon qilingan «Temuriylar davri sivilizatsiyasidan lavhalar» maqolasi, Edgar Bloshening «Milliy kutubxonada saqlanayotgan turkiy qoʻlyozmalar katalogi»dagi qaydlar va ingliz olimi Eduard Braunning «Eron adabiyoti tarixi» asaridagi Navoiyga bagʻishlangan boʻlimlarni shu davrning eʼtiborga loyiq tadqiqotlari qatoriga qoʻshish mumkin. Shu yillari V.Leninning chekka oʻlkalarga, xususan, Oʻrta Osiyo, Kavkaz oʻlkaloriga muxtoriyat va hurlik berish haqidagi soxta vaʼdalariga uchgan turkiy xalqlar orasida Navoiy dahosini ulugʻlash va millat timsoli darajasiga koʻtarish tendensiyasi kuchaydi. Bu yoʻldagi ilk urinish Navoiyning hijriy sana bilan 500 yillik toʻyini nishonlash maqsadida 1926 yili Bokuda «Alisher Navoiy - buyuk turk shoiri» shiori ostida oʻtkazilgan «Ilk turkologiya qurultoyi»da namoyon boʻldi.⁵⁵ Unda asosiy eʼtibor Navoiyning turkiy tillar rivojiga qoʻshgan hissasi, davlat arbobi sifatidagi mavqei, milliy oʻzlik gʻoyalariga qaratildi. Oʻsha davrning yetuk olimlaridan Ismoil Hikmatning «Navoiy hayoti va adabiy mavqei», Mirzo Jalol Yusufzodaning «Navoiy haqida», Bakr Chubonzodaning «Navoiy - tilchi» va Mirzo Muxsin Ibrohimiyning «Fors adabiyotining Navoiyga taʼsiri» maʼruzalari faqatgina qatnashchilarning emas, balki barcha turkiy xalqlar adabiyotshunoslari diqqatini oʻziga tortdi hamda ularni Navoiy ijodini oʻrganishga ilhomlantirdi. Oʻsha yili Oʻzbekistonda ham, xususan, «Maorif va oʻqituvchi» jurnalida bosilib chiqqan Abdurauf Fitrat va Vadud Mahmudiyning Navoiy haqidagi maqolalarida qurultoy taʼsiri sezilib turadi.⁵⁶ Qurultoy ruhi kommunistik mustabid tuzum peshvolari uchun kutilmagan muammolar keltirib chiqarishi tabiiy edi. Barcha rus sharqshunoslari abvolni oʻnglashga safarbar qilindi. Qurultoy

⁵⁵ Қаранг: Буюк түрк шоири Мир Алишер: Туркология қурултойи конференция материаллари. - Боку: Адабиёт жамияти, 1926.

⁵⁶ Фитрат А. Навоийнинг форсий шоирлиги ҳам унинг форсий девони тўғрисида // Маориф ва ўқитувчи. 1926. №12. - Б.38 - 39.

materiallarida aks etgan Navoiy hayoti va ijodi talqini davr mafkurasiga zid deb topildi, uni targ'ib qilishga jiddiy qarshilik ko'rsatildi. Bu xususda sharqshunos Ye.E.Bertels shunday yozgandi: «Navoiyshunoslikning bu bosqichiga xos xususiyat sifatida shuni aytish mumkinki, Navoiy haqida faqat milliy burjuaziya vakillari ma'ruza qilib, uning nomidan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga harakat qildilar. Shu jihatdan bu davrda chiqqan ishlar foydasiz bo'lib, hatto g'ayriilmiy va zararli edi. Bokuda nashr etilgan «Navoiy» to'plami (1926) eskirgan materiallar asosida yozilgan va asosiy masalalarni butunlay noto'g'ri yoritgan maqolalardan iborat. Ammo ushbu muvaffaqiyatsiz yubileyga SSSR Fanlar akademiyasi darhol javob qaytardi».⁵⁷

Tezda Toshkentda, kommunistlar iborasi bilan aytganda, «sotsialistik platforma»dagi Navoiy konferensiyasi chaqirildi. Maqsad Boku qurultoyi «panturkistik» g'oyalarining xalqlar orasida targ'ib etilishiga yo'l qo'ymaslik va Navoiyning buyukligini hukmron feodal sinfga qarshi chiqqan oddiy xalq namoyandasi obrazi orqali ko'rsatish edi. Ilk qurultoy materiallaridagi milliy iftixor tuyg'ulariga «panturkizm», «o'tmishni ideallashtirish» kabi yorliqlarni yopishtirish uchun ularga zid g'oyani ko'tarib chiqadigan kuchli tadqiqot kerak bo'ldi. Bunday tadqiqotning eng yaxshi ko'rinishi sifatida V.V. Bartoldning «Mir Alisher va siyosiy hayot» nomli tadqiqoti dunyoga keldi. Unda omma orasida hukm surgan Navoiy ijodi va faoliyati talqinidan keskin farqlanadigan obraz yaratildi: Navoiy ekspluatatorlar sinfiga, umuman, shoh, tuzumiga nafrati behad bo'lgan va shu tufayli sultondan ancha xo'rlikpar ko'rgan xalq vakili sifatida o'ta bo'rttirib ko'rsatildi.

XX asming 20-yillaridan Alisher Navoiy maqomi va mafkurasini atrofida davom etib kelayotgan tortishuvlar Sovet Ittifoqining qaqshatqich katag'on va qo'rquvda ushlab turish siyosati g'alabasi bilan tugadi. SSSR tarkibidagi milliy sovet

⁵⁷ Бертельс Е.Э. Навои и Джамии: Избр. труды - М.: Наука, 1965. - С.67.

sotsialistik respublikalari “kamsitilmasligi” uchun kam sonli klassik ijodkorlarga ega bo‘lishga ruxsat berildi. Ozarboyjonda Nizomiy Ganjaviy, Tojikistonda Abdurahmon Jomiy, Gruziyada Shota Rustaveli, O‘zbekistonda Alisher Navoiy ijodlari ruslarning A.Pushkin, M.Lermontov, N.Gogol, L.Tolstoy kabi klassiklari qatorida keng o‘rganilishi mumkin, ammo talqin hukmron mafkura metodologiyasi asosida bo‘lishi lozim edi. Saroy adabiyotini targ‘ib etish mutlaqo man qilindi, diniy adabiyot ongni zaharlovchi vosita sifatida taqiqlandi. Ular feodal-klerikal va diniy-mistik adabiyot sifatida qoralandi, ularning namoyandalariga ekspluatator sinf manfaatlariga xizmat ko‘rsatuvchi maddoh va xushomadgo‘ylar sifatida nafrat bilan qarash buyurildi. Bu hol, muayyan ma’noda, Navoiyni noto‘g‘ri talqin etishga, uning ziddiyatlarga boy hayotini bir qolipga tushirish va o‘quvchilar ongida shoh tuzumidan norozi, salkam ateist va isyonkor Navoiy obrazining targ‘ib qilinishiga sabab bo‘ldi.

Navoiyshunoslikning ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishi

XX asrning 40-yillariga kelib Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyini o‘tkazish bahonasida oldingi yillardan yig‘ilib kelayotgan tadqiqotlarni umumlashtirish ishlari boshlandi. Navoiyni o‘rganish ishlariga rus sharqshunoslari bilan birgalikda o‘zbek olimlari ham jalb qilindi.

Alisher Navoiyning Sovet Ittifoqi davrida birinchi bor 1948 yili nishonlangan to‘yi arafasida ulug‘ shoir haqida yana bir qancha tadqiqotlar dunyoga keldi. Mazkur davrning eng yuqori saviyadagi asarlari qatorida Ye.E.Bertels, O.Sharafiddinov, A.N.Kononov, S.Ayniy, A.K.Borovkov, A.Semyonov, M.A.Salc, A.Yu. Yakubovskiy, A.Sa’diy, M.Oybek, M.Shayxzoda, I.Sulton, A.Boldırev. V.Zohidov, V.Abdullaevlar tadqiqotlarini ko‘rsatish mumkin. Avom madaniyati (proletkult) davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lgan mustabid tuzum sharoitida Alisher Navoiyni genial

shaxs va ijodkor sifatidagi maqomini saqlab qolish, u orqali milliy qadriyatlarimizning umrboqiyiligini ta'minlash o'zbek ziyolilarining asosiy muddaosi edi. O'zbek olimlari va ularga xayrixoh ayrim rus sharqshunoslarining asarlari navoiyshunoslikni o'zbek adabiyotshunosligining mustaqil yo'nalishiga aylantirishga zamin bo'ldi.⁵⁸

Bu oraliq davrda Navoiy hayoti va ijodiyotini o'rganishga chet el olimlari, xususan, turk olimlaridan Mahmud Fuod Ko'prulu, Ogoh Sirri Lavand, afg'on olimi Muhammad Ya'qub Juzjoniy, Eron olimi Ali Aqg'ap Hikmat ham e'tibor qaratib, ba'zi tadqiqotlarni olib bordilar.⁵⁹ Ammo bu tadqiqotlar

⁵⁸ Бертельс Е.Э. Навои и Джами: Избр. труды. - М.: Наука, 1965; Шарафидинов О. Алишер Навоий ҳаёти ва ижоди. - Тошкент: Ўздавнашр, 1948; Возлюбленный сердца (Алишер Навоий. Махбуб ул-кулуб) / Сводный текст А.Н. Кононова; отв. ред. С.Е.Малов. - М.-Л., 1948; Якубовский А.Ю. Черты общественной и культурной жизни эпохи Алишера Навои / Сб. Алишер Навои. — М.-Л., 1946; Семенов А.А. Персидская новелла о Мир Алишере Навои. Бюллетень СаГУ. Выпуск 13, 1926; Салье М. Книга благородных качеств и её автор // Сб. ст. «Родоначалник узб. литературы». - Тошкент: Изд. Узб. фил. АН СССР; Боровков А.К. Изучение жизни и творчества Алишера Навои // Сб. ст. «Родоначалник узб. литературы». - Тошкент: Изд. Узб. фил. АН СССР. - С.11 - 29; яна: Навои и Джами в народном предании. Изв. АН СССР, Отд. лит. и языка. Т.VI. Выпуск 6. 1947. — С.422 - 484; Болдырев А.Н. Мемуары Васифи как источник для изучения жизни Средней Азии и Хорасана на рубеже XV - XVI вв // ТОВЭ. Т.Н. - Л., 1939. - С.291 - 300; яна: Очерки из жизни гератского общества на рубеже XV - XVI вв // ТОВЭ. Т.IV. 1947. - С.313-422; Саъдий А. Навоий ижодиёти ўзбек классик адабиёти тараққиётининг юксак босқичи сифатида. 3 томлик. - Тошкент, 1940 - 1945; Ойбек. Навоий гулшани. - Тошкент, 1967; Айний С. Навои: Кулдиёт. Дар 15 жилд. - Душанбе, 1963; Зоҳидов В. Навоийнинг дунёкараши: Фил. фан. доктори... диссертацияси. - Тошкент, 1948; Абдуллаев В. Навоийнинг Самарқанддаги фаолиятига доир: Фил. фан. номзоди... диссертацияси. - Тошкент, 1948. Шайхзода М. Гениал шоир (Навоий ижодининг баъзи масалалари). - Тошкент, 1941.

⁵⁹ Koprulu M. Cagatay edebiyati. Islam ansiklopedisi. 3 Cilt. 24 cuz. - Istanbul: Maarif matbaasi, 1945. - S.270 - 323; Kopruluzade M.F. Turk dili ve edebiyati hakkında arastirmalar. - Istanbul: Kanaat Kitabevi, 1934; Agah Sirri Levend. Ali Sir Nevai (I - IV). - Ankara, 1965 - 1968; яна; Fors ve turk edebiyatlarında Leyla ve Mecnun hikayasi. - Ankara, 1959; Девони Султон Хусайн Мирзо ва энзимомии рисолаи уба мукобала ва тасхихи

asos-e'tibori bilan o'zbek navoiyshunoslari ishlari darajasiga ko'tarilgan emas. Voqean, o'zbek navoiyshunosligining bu davrda qo'lga kiritgan yutuqlari g'oyat salmoqli.

Sho'ro davrida adabiy va madaniy merosni tadqiq etishda g'oyaviy kurash prinsiplari hukmron bo'lib keldi. Shu sababli tadqiqotchilarning adabiyot tarixini yoritishda uning "sotsialistik dunyoqarash"ga to'g'ri kelmaydigan tomonlarini chetlab o'tish orqali o'quvchilarga "kommunist" shoir va ijodkorlarni taqdim qilishga majbur edilar. XV asr tarixiy manbalarini o'rganish bilan shug'ullangan olimlar Alisher Navoiy hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlarga duch kelganlarida ularning Bartold konsepsiyasidan farq qilishiga e'tibor qaratdilar. Tuzum manfaatlariga moslashtirilgan bunday biryoqlama ta'limot ko'pchilik o'zbek ziyolilari, adabiyotshunoslarning noroziligiga sabab bo'lmagan deyish qiyin. Ular oshkora chiqishga jur'at etolmasalarda, ba'zi rus sharqshunoslari vositasida ayrim qarashlarga zarba berganlar. Bunga misol qilib, Ye.Bertelsning, Bartold konsepsiyasiga qarshi chiqmagan holda, uning asoslarini ich-ichdan yemirishga qaratilgan muhim ilmiy-tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin. A.A.Semyonov "Alisher Navoiy va Sulton Husayn mirzo munosabatlariga doir" nomli maqolasida o'rta asrlarda Sharq mamlakatlarida mavjud bo'lgan sulton va shoir o'rtasidagi munosabatlarni keyingi asrlarda Rossiya sharoitida ma'lum bo'lgan "Shoh va Pushkin" munosabatlari bilan tenglashtirishni jiddiy qoralaydi.⁶⁰ Biroq shu bilan birga, Semyonovning o'zi ham hissiyotga berilib ketib, Navoiy va Boyqaro munosabatlarida vaqti-vaqti bilan yuz berib turgan kelishmovchilik, sovuqchiliklarni nazardan qochirgan. Shy bilan birga, Navoiyning nasl-nasabi masalalarida ham xatoga yo'l qo'ygan.

Мухаммад Яъқуб Воҳид Жузжоний. - Кобул, х- 1346; Али Асгар Хикмат. Алишер Навоӣ. - Техрон. 1945.

⁶⁰ Семенов А.А. Взаимоотношения Алишера Навоӣ и Султана Хусейн Мирзы II Сб. исследований по истории народов Востока - М.-Л., 1960 - С.238.

Shu tariqa, adabiyotning mezon va yoʻnalishini belgilovchi hukmron mafkuraning «gʻashi»ga tegmasdan ayrim manbalardagi maʼlumotlarni ilmiy isteʼmolga kiritish, imkon qadar tarixiy xolislikni taʼminlash harakati boshlandi. Oybek, V.Abdullaev, V.Zohidov, I.Sulton, A.Qayumov, A.Hayitmetov, A.Abdugʻafurov kabi navoiyshunoslar Navoiy tarjimai holini boyitish ishlariga katta hissa qoʻshdilar.

Oʻzbek olimlarining ulugʻ shoir lirikasi va dostonlari, badiiy mahorati va ijodiy metodi, satirasi, anʼanalari va novatorlik jihatlari, dunyoqarashi va falsafasi, ijodida muhim oʻrin tutgan xalq ogʻzaki ijodi va adabiyotlararo oʻzaro taʼsir masalalari boʻyicha olib borgan chuqur ilmiy tadqiqotlari navoiyshunoslikning alohida ilmiy yoʻnalish darajasiga koʻtarilishiga xizmat qildi. Bu oʻrinda P.Shamsiev, N.Mallaev, V.Zohidov, I.Sulton, A.Qayumov, S.Gʻanieva, X.Sulaymon, A.Rustamov, A.Hayitmetov, A.Abdugʻafurov, B.Valixoʻjaev, Yo.Ishoqov, I.Haqqulov, N.Komilov, R.Vohidov, M.Hakimov, M.Hamidova, S.Erkinov, Sh.Sharipov, L.Zohidov asarlarini alohida qayd etmoq oʻrinlidir. Tojik olimlaridan A.Mirzoev, R.Musulmonqulov, A.Afsaxzod, E.Shodiev, turkman olimlaridan B.Darriev, M.Kosaev, K.Borjaqova, K.Ogʻaliev, ozarbayjon olimlaridan X.Orasli, J.Nariev, rus olimlaridan I.V.Stebleva, S.Ivanov va yana bir qancha sharqshunoslar Navoiy ijodini oʻrganishga katta hissa qoʻshdilar.

Oxirgi yarim asr davomida olimlarimiz, asosan, Navoiy ijodiy merosini yuzaga chiqarish va uning tahlili bilan shugʻullanib keldi. Zotan, ulur shoir ijodini toʻplash, tanqidiy matnlarini tayyorlash, chop etish nihoyatda masʼuliyatli va murakkab ish boʻlib, uning adosi yillar davomida mehnat qilishni taqozo etishi muqarrar edi. Bundan tashqari, shoir ijodini toʻliq oʻrganib chiqmasdan turib, ulugʻ davlat arbobi hayotining nozik, yashirin tomonlarini, serqirra umrining “mayda-chuyda” tafsilotlarini, davriy kayfiyati haqida tasavvur uygʻotadigan lahzalarni faqat tarixiy manbalardagi quruq va

yalang'och ma'lumotlarga suyanib ro'yobga chiqarish amri mahol edi.

Alisher Navoiyning boy adabiy merosi har taraflama o'rganilar ekan. uning hayoti va faoliyati ham nazardan qochirilmay, turli xarakterdagi manbalar va yangi topilmalar asosida tarjimai holi to'ldirib borildi. Olimlarning ulug' shoir hayotiga bag'ishlangan, alohida ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo'lgan katta-kichik tadqiqotlari yuzaga keldi.⁶¹ Jumladan,

⁶¹ Абдуллаев В. Навоий Самарқандца. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1968; Айнӣ С. Восифий ва хулосаи «Бадосъ ул-вақосъ»и у. - Душанбе. Ирфон, 1985; Ойбек. Навоий гулшани. - Тошкент, 1967; Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1969; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ / П.Шамсиев таржимаси. - Тошкент: Уздавнашр, 1948; Ҳусайний Атоуллоҳ. Бадосъ ус-саносъ / Форсчадан А.Рустамов таржимаси. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981; Абдурахмон Жомий ва Алишер Навоий: Тўйлам / Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев. - Тошкент: Фан, 1966; Навоий ва адабий таъсир масалалари: Тўйлам / Тузувчи ва масъули муҳаррирлар С.Ғаниева, А.Абдуғафуров. - Тошкент: Фан, 1968; Аҳмедов Б. Давлатшоҳ Самарқандий. - Тошкент: Фан, 1967; яна: Амир Темурни ёд этиб. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996; яна: Хондамир. - Тошкент: Фан, 1965. Болдырев А.Н. Навоий в рассказах современников. - М.-Л., 1966; Валихўжаев Б. Хўжа Ахрори Вали. - Самарқанд: Зарафшон, 1993; яна: Хўжа Ахрор тарихи. - Тошкент: Ёзувчи, 1994; яна: Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. -Тошкент: Ўзбекистон, 1993; Яна: Алишер Навоийнинг Самарқанддаги қадамжолари // Мулоқот. 1991. №2. - Б.23 - 31. Навоий замондошлари хотирасида / Тузувчи Б.Аҳмедов. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1985. Письма-автографы Абд ар-рахмана Джами из «Альбома Навои» / Введ., перевод и указ. А.Уриеваева. - Ташкент: Фан, 1982. Сафий Фахриддин Али. Лағоиф уг-тавоиф / Тартиб деханда У.Саидов. — Душанбе: Ирфон, 1968. Хасаххожа Нисорий. Музаққир ахбоб / Форс тилидан И.Бекжон тарж. - Тошкент: Халқ мероси, 1993. Воҳидов Р. Сухайлий. - Тошкент: Фан, 1976; яна: XV асрнинг иккинчи ярми - XVI асрнинг бошларида Ўзбек ва тожик шеърляти. — Тошкент: Фан, 1983; яна: Воҳидов Р. «Мажолис ун- нафос»нинг таржималари. — Тошкент: Фан, 1984; яна: Навоийнинг икки дурдонаси. — Тошкент: Фан, 1992; Малласев Н. Алишер Навоий халқ ижодиёти. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1974; Ўринбоев А., Хасанов М. Навоий замондошлари мактубларида. - Тошкент: Фан, 1990; Қаюмов А. Нодир саҳифалар. - Тошкент: Фан, 1991; яна Алишер Навоий. — Тошкент: Камалак, 1991; Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. - Тошкент, 1979; Ғаниева С. Алишер

M.Faxriddinov va P.Shamsiev tomonidan tarjima qilinib nashr ettirilgan Xondamirning “Makorim ul-axloq”, “Jomiy va Navoiy», B.Axmedovning Xondamir va boshqalarning tarixiy asarlaridan tarjimalari asosida e’lon qilgan “Navoiy zamondoshlari xotirasida”, A.Boldirevning Zayniddin Vosify qalamiga mansub “Badoe’ ul-vaqoe’” asaridagi ma’lumotlar asosida chop etgan “Navoi v rasskazax sovremennikov”, Naim Norqulovning “Badoe’ ul-vaqoe’”ning A. Boldirev tuzgan tanqidiy matndan qilgan tarjimalari hamda A.O’rinboev va M.Hasanovning maktublar asosida nashr etgan “Navoiy zamondoshlari maktublarida” to’plami o’quvchilarning Navoiy hayoti va faoliyati haqida ob’ektiv ma’lumot olishlariga katta

Навоий. - Тошкент: Фан, 1968; Хайитметов А. Навоий дахоси. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1970; Ҳакимов М. Навоий лирикаси ва халқ оғзаки ижоди. - Тошкент: Фан, 1979; яна: Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттолар. - Тошкент: Фан, 1991; яна: Алишер Навоий ва халқ оғзаки ижодиёти проблемасининг кўйилишига доир // Адабий мерос. 1978. №11. - Б.99 - 107. Хасанов Б. Алишер Навоийнинг «Сабъати аб-ур» луғати; Абдуғафуров А. Навоийга Ҳусайн Бойқаронинг мактуб-ёриғи // Шарқ юлдузи. 1973. №1. - Б.225 - 232; Исҳоқов Ё. Навоий тахаллусли шоирлар // Фан ва турмуш. 1984. №9. - Б.14 - 15; Каримов У. Навоийнинг сўйти кушлари // Сирли олам. 1986. - Б.11 - 18; Хайитметов А. Навоий ҳақида янги маълумотлар // Шарқ юлдузи. 1972. №9. - Б.183 - 188; яна: Алишер Навоийнинг форсий мактублари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1974. №1. - Б.9 - 13; яна: Алишер Навоий ҳақида янги маълумотлар // Ҳаётбахш чашма. - Тошкент, 1974. Мусулмонкулов Р. Навоий ва Атоуллох муносабатлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1975. №1. - Б.49 - 52; яна: Навоий ва Атоуллох // Ўзбек тили ва адабиёти. 1971. №3. - Б.40 - 42; Уринбоев А. Навоийга илтимосномалар // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1983 йил 4 февраль; яна: Ноёб мактублар // Гулистон. 1971. №12; яна: Навоий биографиясига оид икки ҳужжат // Адабий мерос. 1982. №2. - Б.57-62; Ғаниева С. Навоий биографиясига оид бир ҳужжат // Ўзбек тили ва адабиёти. 1981. №1. Б.32 - 38; яна: «Муншаот»да даврнинг баъзи ижтимоий-сиёсий масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1975. №1. - Б.11 - 15; яна: «Мажолис ун-нафоис»нинг форсий таржимасидаги баъзи иловалар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1964. №2. - Б.64 - 68; яна: Очилмаган саҳифа // Шарқ юлдузи. 1967. №1. - Б.189 - 198. Биз тадқиқотда фақат мавзуга тааллуқли ишлар шарқи билан чегараланамиз.

imkoniyat yaratdi. Ayniqsa, Asomiddin O‘rinboev rus tilida nashrdan chiqargan “Pisma-avtografy Abdarraxmana Djami iz alboma Navoi” kitobi bu davrda yaratilgan muhim tadqiqotdir. Unda Jomiyning Navoiyga yo‘llagan 337 ta xati rus tiliga tarjima qilinib, har bir xatga maxsus izohlar berilganki, Navoiy hayoti va faoliyatiga taalluqli mavjud ilmiy tadqiqotlarning holati, yutuq va kamchiliklarini ko‘rsatib turuvchi hamda manbalardagi bir qancha yangi ma‘lumotlar, tafsilotlarni ilmiy taomilga kirgizgan o‘ziga xos to‘plam sifatida katta ahamiyatga egadir.⁶² Bu davrda, ayniqsa, Izzat Sulton tomonidan yaratilgan “Navoiyning qalb daftari” kitobi ulug‘ shoir hayotini uning o‘z e‘tiroflaridan kelib chiqib yana ham to‘laroq, tasavvur etishda qo‘shimcha qo‘llanmaga aylandi. Ayni paytda Muso Oybekning Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan adabiy-tanqidiy tadqiqotlari, roman va povesti, Suyima G‘anievaning “Alisher Navoiy”, Aziz Qayumovning “Alisher Navoiy” kitoblari Navoiyning murakkab hayotida yuz bergan voqea-hodisalarning ketma-ketligi va mantiqiy rivojini qayta mulohaza qilishga imkon yaratdi.

Alisher Navoiyning o‘zi ypyg‘-aymog‘i borasida deyarli ma‘lumot qoldirmagan. Faqat tog‘asi Mir Said Qobuliy va Muhammad Ali G‘aribiy, ukasi Darvishali haqida “Majolis”da bir oz to‘xtaladi, u ham bo‘lsa, tazkira talabi nuqtai nazardan juda qisqa.⁶³ Otasi to‘g‘risida esa mavzu talab qilganda bir oz gapirishga majbur bo‘lgan joylari mavjud. Masalan, “Majolis”da Mir Shohiy nomli shoir jasadi Astroboddan vatani Sabzavorga olib kelingan paytda otasi bu yerda hukumat ishlarini boshqarib turganligini aytib o‘tadi.⁶⁴ Uning qancha payt hokimlik qilgani va Alisherlar oilasining Sabzavordagi hayotiga doir boshqa

⁶² Письма-автографы Абд ар-рахмана Джами из «Альбома Навои» / Введ., перевод и указ. А.Уринбаева. — Ташкент: Фан, 1982.

⁶³ Алишер Навоий. Маҷолис үн нафоис // Муқаммал асарлар тўплами / Нашрга тайёрловчи С.Фаниева. - Тошкент: Фан, 1997. Т.ХIII. - Б.66 - 67.

⁶⁴ Кўрсатилган асар. - Б.28.

ma'lumot keltirmagan. "Badoe' ul-bidoya"da "otam bu oston xokbezi, onam ham bu saroy bo'stoni kanizi", - deb ularning temuriylar xonadoni xizmatida bo'lganliklarini kamtarona ta'kidlab o'tgan⁶⁵. "Vaqliya" asarida "bu xokorning ota-bobosi ul hazratning (Sulton Husayn Boyqaroning - **Sh.S.**) obo va ajdodi xizmatlaridakim har biri saltanat konining gavhari va shujoat beshasining g'azanfari erdilar - ulug' marotibqa sazovor va biyik manosiq komgor bo'lg'on erdilar", - deya⁶⁶ o'zining nasl-nasabiga ishora etgan. Ammo negadir biron-bir asarida ota-onasi haqida aniq ma'lumot qoldirmagan. Hatto ularning nomini hech qacda tilga olmaydi. Tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" asarida shunday yozadi: "...Amir Alisherdirkim, qadim zamonlardan uning mukarram bobolari va ajdodi oliy amirlar qatoridan joy olgan edilar. Umarshayx mirzo ibn Amir Temur davrida ularning hayoti lavhiga ko'kaldoshlik baxti e'tibor qalami bilan yozib qo'yilgan edi"⁶⁷. Ushbu asar hijriy 872 (mil.1467-1468) - 874 (1469 - 1470) yillar orasida yozib tugatilgan va hijriy 875 (mil. 1470) yili muallif uni yana davom ettirib, o'sha yilning safar oyida (1470, avgust) ro'y bergan voqealarni ham qo'shgan.⁶⁸ Asarning navoiyshunoslik uchun ikki ahamiyatli jihati bor. Birinchidan, u Alisher Navoiy nomini tarixda birinchi bor yozma qayd etgan manba hisoblanadi. Shuning uchun undagi Navoiy hayotiga aloqador ma'lumotlar tarixiy fakt sifatida muhim. Ma'lumotlar qisqacha axborot tarzida keltirilsa ham ulug' mutafakkir hayotini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Ikkinchidan, asar Navoiy nazorati ostida yakunlangan. Demak, Navoiy o'zi haqidagi qaydlarni ko'rgan. Ma'lumotning nihoyatda qisqa berilishiga qaraganda, Navoiyning o'zi shuni ma'qul topgan bo'lishi

⁶⁵ Аlisher Навоий. Бадоеъ ул-бидоъ // Мукаммал асарлар тўплами. - Тошкент: Фан, 1987. Т.1. - Б.17.

⁶⁶ Аlisher Навоий. Вақфия // Мукаммал асарлар тўплами. - Тошкент: Фан, 1998. Т.ХІV. - Б.246.

⁶⁷ Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. Қўлёзма. ЎзРФА НИИ, инв. № 1825. 331^б-варақ.

⁶⁸ Уша жойда.

mumkin. Balki shuning uchun ham o'sha davr manbalarida, ayniqsa, Navoiyning yaqin shogirdi, muarrix Xondamirning barcha tarixiy asarlarida ular deyarli aynan takrorlanib, ortiqcha tafsilot bilan boyitishga jur'at etilmagandir. Davlatshoh Samarqandiy ham negadir o'z tazkirasida Navoiyning otasi to'g'risida juda qisqa to'xtaladi. "Navoiyning otasi Abulqosim Boburning ishonchli kishisi Chig'atoy ulusi ulug'laridan edi", - deyish bilan kifoyalanadi. Ayni paytda u Navoiyning otasi harbiy bo'lganini ta'kidlab o'tadi.⁶⁹

Tekshirishlar natijasida Alisher Navoiy davrida yaratilgan turli janrlarga mansub asarlarning birortasida ham ulug' amirning otasi haqida yetarli ma'lumot keltirilmaganiga ishonch hosil qildik. Shunisi taajjubliki, Navoiy vafotigacha yaratilgan barcha asarlarda Navoiyning otasi borasida yuqoridagi ma'lumotlarga qo'shimcha bo'ladigan fakt yo'q. Hatto "Ravzat us-safo" asarida ham uchramaydi. Navoiyning o'z ajdodi borasida qoldirgan mavhum ma'lumotlari va ko'kaldoshlik manbalarini aniq izohlab ketmaganligi uning nihoyatda kamtarona yo'l tutganligi va kibru g'yypga berilmaganligi bilan izohlanar balki.

1501 yili Navoiy vafot etadi. Shundan keyingi davr manbalarida Navoiy haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni ko'rish mumkin. "Habib us-siyar"da birinchi marta Navoiy otasining ismi tilga olinadi. Jumladan, Mirzo Ibrohim tomonidan⁷⁰ Abu Sa'id mirzo huzuriga elchi yuborilganda ularga hamrohlik qilish Amir Alisherning otasi G'iyosiddin Kichkinaga topshirilganligi

⁶⁹ Davlatshoh Samarqandiy. Tazkirat ush-shuaro / Ba himmati Muxammad Ramazoniy. - Texron, 1338 x - - B.370. В.Бартольд Давлатшоҳнинг маълумотини куйилагича изохлайди: «По словам Давлатшаха на службе у Бабура находился отец Мир Алишера, турок, но образованный человек, старавшийся дать возможность лучшее образование своему сыну» (Мир Алишер и политическая жизнь. - С.216). Бартольд Давлатшоҳ* матнидаги «таркий», яъни синохий маъносиди келатган сўзни «туркий» деб ўқиган ва янглиш хулоса чиқарган.

⁷⁰ Мирзо Иброҳим б. Алауддавла б. Бойсунгур б. Шохрух Мирзо хижрий 861 йили (1456/1457) бег мударр Хирот тахтига ўтиради ва Жаҳоншоҳ Туркманнинг сикуви остида пойтахтни ташлаб чиқишга мажбур бўлади.

aytiladi.⁷¹ Shu o'rinda olimlarning ulug' amir xislatlari va faoliyatiga bag'ishlangan Xondamirning maxsus asari – “Makorim ul- axloq” shoir vafotidan so'ng yozilgan degan fikrini yana bir bor chuqur o'ylab ko'rish kerakka o'xshaydi. Shunday deb hisoblangan taqdirda “Habib us-siyar”da Navoiyning otasi haqida qo'shimcha ma'lumot berishga jur'at etgan Xondamir “Makorim ul-axloq”da ham erkin fikr yuritishi mumkin edi. Lekin muallif Shohrux sulton vafotidan so'ng Navoiyning otasi bola chaqasi bilan Sheroz tomonga yo'l olganini ayta turib, uning nomini tilga olmaydi. Balki, “Makorim ul-axloq” Navoiy vafotidan avval yozila boshlagandir. Shuning uchun ham Xondamir asarda ustoz belgilab bergan chegaralardan chiqmagandir? Qizig'i shundaki, “Ravzat us-safo”da ham Navoiy otasining nomi tilga olinmagan. Bu asar Navoiyning o'z nazorati ostida yozilgani manbalarda tasdiqlangan. Demak, Navoiy ongli ravishda ota-onasi haqidagi tafsilotlarning berilishini xohlamagan ko'rimadi. Sadriddin Ayniy yozadi: “Shohrux mirzo saltanati davridagi katta amaldor va dong chiqargan lashkarboshilar tarixiy asarlarda nomma-nom qayd etilgan. Agar Alisherning otasi katta amaldorlar jumlasidan bo'lganda edi, u davr tarixchilari nazaridan, xususan, “Ravzat us-safo” nomli tarixiy asarni yozgan Mirxondning nazaridan chetda qolmas edi”.⁷²

Faxriy Hirotiyning “Latoifnoma”sida yoziladi: “Mirning tarjimai holidan xabardor mo'ysafid tarixchilar va to'g'ri so'zli dunyo ko'rganlar o'z asarlarida shunday keltiradilarkim, Mirga amirlik mansabi merosiydur. Uning otasi Amir Kichkina sulton Abu Sa'idning xizmatida edi. Garchi muhru mansabi bo'lmasa

⁷¹ Fit'siddin Xondamir. *Хабиб ус-сияр*. Қўлёзма. ЎзР ФА ШИ. Инв. №2153. IV жилд. 570^а-варақ.

⁷² Айни С. Навои. *Куллиёт*. Дёр 15 чилд. - Душанбе, 1963. Чилди 2. Китоби 1. Саҳ. 271. Аввало, шунн айтнш керакки, «Равзат ус-сафо»нинг VI жилдида Абулкосим Бобур даврига жуда ҳам кам ўрин ажратилган. Асосан, Абулкосим Бобурнинг охириги кунлари, вафоти ва ундан сўнг бошланган тахт талашншлари ҳақида гапирилади. Бу пайтга келиб Навоийнинг отаси Ёши ўтган кеска амалдор эди, бу тўс-тўполонларда иштирок этмаган бўлиши мумкин.

ham, katta hurmatga ega edi. Ona tomondan bobosi Amir Shayx Abu Sa'id Chang mirzo Boyqaro xonadonida amir ul-umaro edi. Mir o'n yoshligidan Bobur mirzo xizmatida bo'lib, (sulton) uni farzandidek ko'rardi. Mir zamon sultoni (Husayn Boyqaro) bilan maktabda hamsuhbat va hamsaboq edi. Ular qachon boshlariga baxt qushi qo'nsa, bir-birlarini unutmashlikka ahdu paymon bog'lashgan ekan".⁷³ Faxriyning tazkisasi Navoiy vafotidan so'ng - 1521 - 1522 yili yaratilgan. Tazkira muqaddimasidagi ishoraga qaraganda, u mazkur ma'lumotlarda kimgadir suyangan. Balki Faxriy bizga yetib kelmagan qandaydir manbaga asoslangandir. Bu bizga qorong'i. Biroq uning Navoiy bilan shaxsan tanish bo'lganligi va mushoaralarida qatnashganligi uning ma'lumotlari ishonchli ekaniga shubha tug'dirmaydi. Shunga qaramay, nega Navoiyning ona tomonidan bobosi ismini ko'rsatib, ota tomoniga e'tibor bermaganligi taajjublanarli tuyulmoqda. Bu esa Xondamir asarlaridagi ma'lumotlar ruhiyatiga mantiqan bog'lanmaydi. Gap shundaki, Faxriy Abu Sa'id Changni Boyqaro xonadonida amir ul-umaro edi, deb ko'rsatar, uning Navoiyga ona tomondan bobo ekanligini ta'kidlar ekanmi, Navoiy o'zi e'tirof etgan "ota-otadin yetti pushtga degincha bu rafi' dudmonning boyiri bandasi va bu vasi' ostonning mavrusi tug'masi, ya'ni bu xonazodaning xonavodasi va bu xonavodaning xonazodasi"⁷⁴ degan mulohazaga binoan ota tomoni ajdodlari haqida ham, albatta, ma'lumot berib o'tishi joiz edi. Bunday ma'lumotning yo'qligi Navoiyning ota tomonidan ajdodlari haqida aniq fikr yuritishga imkon bermaydi. Ye.E.Bertels yozadi: "Alisherning bobosi Abu Sa'id Chang Boyqaroning Kandaxordagi qisqa davrli hukumati paytida uning devonida amir edi. Uning o'g'li, ya'ni Navoiyning

⁷³ Фахрий Ҳиротий. Латифнома. Таржумайи «Маҷолис ун-нафоис»и Алишер Навоӣ / Ба саъй ва эҳтимоми Али Асрар Ҳикмат. - Тоҳрон, 1323 Х- - Б.133.

⁷⁴ Алишер Навоӣ. Бадоеъ ул-бидоӣ. - Б.17.

otasi G'iyosiddin Kichkina Mansurning ko'kaldoshi edi".⁷⁵ Biroq shu o'rinda G'iyosiddin Kichkinaning aynan Mansur bilan emikdosh bo'lganligi haqidagi Bertels xulosasi taxmin ekanligini ham ta'kidlash zarur. Chunki fanga ma'lum Navoiy davri manbalarining birortasida ham bu tarzda ma'lumot uchramadi.

Faxriyning Amir Kichkina haqidagi ma'lumotlaridan ikki muhim xulosa chiqarish mumkin. Birinchisi, Faxriy bizga ma'lum manbalarning ichida birinchi bo'lib, Amir Kichkina Sulton Abu Sa'id mirzo saroyida xizmat qilganini yozib qoldirgan. Bu gaplarda jon bor. Abulqosim Bobur vafot etib, Xurosonda to's-to'polon boshlanganda shahzodalar birin-ketin taxtga o'tirishar va sal o'tmay biri ikkinchisining siquviga bardosh bera olmasdan Hirotni tashlab qochar edi. Shunday sharoitda taxtni Mirzo Ibrohim egallaydi. U Hirot taxtni saqlab qolish mafsadida o'z atrofiga saltanat ulug'larini yig'adi va Abu Sa'id bilan ittifoq tuzishga urinadi. Buni Hirot saltanatining obro'li arboblardan bir nechasini sulton Abu Sa'id qoshiga yuborishida ko'ramiz. Elchilar Shayx Nuriddin ibn Bahouddin Umar, Shayx Shamsiddin Jomiy va Amir Burxoniddin bo'lib, ularni kuzatib boruvchi hamrox sifatida Alisherning otasi G'iyosiddin Kichkina tayinlanadi. Abu Sa'id ularni izzat-ikrom bilan qabul qiladi va kuzatib qo'yadi.⁷⁶ Demak, Abu Sa'id mirzo G'iyosiddin Kichkina bilan muloqotda bo'lgan. Tarixiy yilnomalardan ma'lumki, o'sha yiliyoq Abu Sa'id Hirotni egallaydi. Ikkinchisi, "Habib us-siyar"da G'iyosiddinning amirlik davri haqida gapirila turib, rasmiy ohangda G'iyosiddin Kichkina deb ko'rsatilishi Faxriy ma'lumotlari bilan birlashtirilganda bu laqabning ulug'lovchi sifatga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Xondamir ma'lumoti ruhidan kelib chiqadigan bo'lsak, Faxriy to'g'ri aytgan. Abu Sa'id Abulqosim Bobur amaldorlaridan bir qanchasini o'z

⁷⁵ Бергельс Е.Э. Навои и Джами. Избр.труды. - М.: Наука, 1965. - С.25.

⁷⁶ Ҳабиб ус-сияр. Қўлёзма. IV жилд. - 570⁰-варақ

saroyida qoldirganida G'iyosiddin Kichkinani ham hamsuhbat sifatida qoldirgan bo'lishi ehtimolga yaqin. Ko'rinib turganidek, yuqoridagi ma'lumotlar Ayniy fikrini inkor etadi.

Zotan, Shohruxning nevarasi Mirzo Ibrohim o'zi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan muhim vazifani faqat saltanatning eng ishonchli kishisiga topshirishi mumkin edi. Shu o'rinda Kichkina laqabining kelib chiqishi haqida fikr yuritib ko'rish mumkin. Navoiy davri tarixiy asarlari, jumladan, "Matlai sa'dayn..." va "Ravzat us-safo" kabi eng salmoqli tarixiy asarlarda asosiy e'tibor "Navoiyning bobosi Amir Temurning o'g'li Umarshayxning xos mulozimlaridan bo'lib, uning peshonasiga shahzodaga ko'kaldosh bo'lish yozilgan edi" degan fikrga berilgan. Bu ikki asar Alisherning amirlik davrida yozib tugatilgani va uning nazaridan o'tganligi hisobga olinsa, undagi ma'lumot shubha uyg'otmaydi. Ayniqsa, unda sezilmasdan qolayotgan yana bir muhim jihat bor. Bu ko'kaldoshlik belgisidan ko'ra Navoiy bobosining otasi Amir Temurning xos kishilaridan bo'lganligi va onasi shahzodani, ya'ni Umarshayx mirzoni o'z bolasi bilan qo'shib emizish kabi o'ta yaqin aloqalarga ega kishilar ekaniga ishora qilinayotganiga ko'ra belgilanadi. Xuddi ana shu jihat Faxriy ma'lumotlari bilan uyg'unlashganda qanchalik izchillik kasb etishi sezilibgina qolmay, balki mantiqiy xulosaga ham olib keladi. Ma'lumki, Amir Temur vafoti paytida marhum Umarshayx ibn Temur Ko'ragonning o'g'li Boyqaro 12 yoshda edi. Demak, Umarshayxning ko'kaldoshi bo'lgan Abu Sa'id Chang bu paytlari ellik yoshlarda bo'lgan. Boyqaro 22 yoshga to'lganda Shohrux uni Kandaxor viloyatiga hokim etib tayinlaydi. Abu Sa'id Chang esa uning ishonchli kishisi sifatida "Amir ul-umaro" unvoni bilan taqdirlanib, uning noibi va maslahatchisi vakolatiga ega bo'ladi. Bu mansab Boyqaroning o'g'li G'iyosiddin bilan Abu Sa'idning o'g'li G'iyosiddinning birga tarbiya topishi va birga o'sib-ulg'ayishini ta'minlaganligi g'ayrimantiqiy emas. Saroy ahli esa ularning ismlari bir xil ekanidan, amirning o'g'lini farqlash uchun G'iyosiddin

Kichkina deb atagan bo'lishlari ehtimolga yaqin. Mazkur laqab ko'kaldoshlik belgisi kabi temuriylarga yaqinligini izohlab turgani uchun bir umr uning nomiga qo'shib aytilgan bo'lishi mumkin.

Faxriy ma'lumotlaridan kelib chiqadigan yana bir muhim mulohazaga e'tiborni qaratish lozim. G'iyosiddin Kichkinaning Abu Sa'id davrida tirik ekanligi zamonaviy navoiyshunoslikdagi "Navoiyning otasi shoir yoshligida (11 - 12 yoshlarda) vafot etgan" degan aqidaning noto'g'ri ekanligini ko'rsatadi. Bu esa, Navoiy hayoti talqini bo'yicha ilgari surilayotgan "Abulqosim Bobur vafotidan so'ng Mashhadda qolgan Navoiy chor-nochor ahvolda kun kechirgan" kabi qarashlarni ham inkor etadi. Navoiyning asarlarida uchraydigan faqirlik motivlari, garchand ular Mashhad bilan borliq bo'lsa-da, boshqa sabablar asosida aytilgan va bu haqda o'z mavridi bilan alohida to'xtalamiz.

Faxriyning kichik zamondoshi Som mirzo Safaviy qalamiga mansub "Tuhfai Somiy" tazkirasida Faxriy ma'lumotlari deyarli takrorlangan.⁷⁷ Biroq, undan farqli ravishda, Navoiyning otasi Kichkina Bahodir tarzida tanishtirilgan. Tazkira yozilgan davr Navoiy davriga nisbatan yaqin bo'lgani uchun bu o'zgartirishda biror ma'lumotga tayanilgan deb o'ylashga asos bor. "Temur tuzuklari"da aytilishicha, qaysi amir mamlakat yo bir qo'shinni yengsa, unga birinchi navbatda, Tyg' berib, bahodirlik laqabi rasmiy ravishda uning nomiga qo'shib yozilgan. So'ng chegara viloyatlaridan biriga hokim etib tayinlangan.⁷⁸ G'iyosiddin Kichkinaning bizga ma'lum faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Som mirzoning ma'lumoti asoslidedek ko'rinadi. Ammo uning qanday hujjatga tayanganini aniq ko'rsatish qiyin.

⁷⁷ Som Мирзо Сафавий. Тухфа-и Сомий. Қўлёзма. ЎзР ФА ШИ. Инв. №57. 167¹-варақ.

⁷⁸ Темур тузуклари / Форсийдан Алихон Соғуний ва Х-Каромагов гаржимаси. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. - Б.78.

Som mirzo ma'lumotlarida e'tiborni tortadigan yana bir o'ziga xos nuqta Faxriy tazkirasida keltirilgan Abu Sa'id Chang nomining Abu Sa'id Bek tarzida keltirilganligidir.⁷⁹ Bu Som mirzo tuzgan asl nusxada shundaymi yoki hattotlar "xizmati"mi, hozircha aniqlanishi kerak bo'lgan vazifadir. Som mirzo Xondamir, Kamoliddin Behzod bilan tanish edi. Shu nuqtai nazardan bu ikki tazkiraning asl nusxalarini chog'ishtirish navoiyshunshlikka muhim yangilik kiritadi degan fikrdamiz. Shundagina Som mirzo qaydlarining aniqlik darajasi ma'lum bo'lardi.

Navoiy ota-bobolarining zikr etilgan nomlari qo'lyozma manbalarda turli talqinlarga uchragan. Ikkilamchi manbalardagi ayrim ma'lumotlar asl manbalardagi ma'lumotlardan farqli. Avvaliga ular biror-bir manbaga asoslangandir degan fikrda edim. Ularni topish ilinjida ancha vaqtim va kuchimni behuda sarf qildim. Masalan, "Habib us-siyar"da G'iyosiddin Kichkinaning laqabi Ganjkina (yoki Kanjkina, Kanjakina), Kijakina (yoki Kijakniya) tarzida uchrashi hattotlar tomonidan nuqtalar qo'yilmay ketgani oqibatida yuz berganiga ishonch hosil etgunimcha "Habib us-siyar"ning o'nlab qo'lyozma va bosma nusxalarini ko'rib chiqishga to'g'ri keldi.⁸⁰ Tadqiqotning ma'lum bosqichida ular kitobat an'anasiga xos umumiy illat ekanligiga amin bo'ldim va ikkilamchi manbalardagi Navoiy otasi bo'yicha malumotlarning asl ilk manbalardagi ma'lumotlar bilan muvofiqlik darajasini o'rganishga kirishdim.

Keyingi davrlarda yaratilgan manbalardagi ma'lumotlar ko'rib o'tilganlari kabi muhim va original emas. Hatto ba'zilarini adashtiruvchi va soxta ma'lumotlar sirasiga qo'shish mumkin. Tadqiq ob'ekti sifatida tanlab olingan XV asrdan asrgacha yaratilgan o'ttizga yaqin manbadagi ma'lumotlar

⁷⁹ Som Мирзо Сафавий. Тухфайи Сомий. 167⁸-варақ.

⁸⁰ С.Айний «Алишер Навоий» асарига: «Увнинг отаси «Кичкина баҳоқир», «Кенжа ботир», «Кичик бахши» лақаблари билан машхур эди, бу унвонларнинг қайси бири ўзининг оти экани бизга маълум бўлмади», - деб ёзди (Б.271). Айтиш керакки, бирорга манбала «Кенжа ботир», «Кенжа бахши» деган маълумот йўқ.

guruhlashtirilganda Navoiyning nasabi haqida ikki xil qarash mavjudligi ma'lum bo'ldi. Bir guruh mualliflar "uning ota-bobolari temuriylarning amirlaridan bo'lib, onalari shahzodalarga enagalik qilganlar" desalar, ikkinchi nisbatan kamchilikni tashkil etgan guruh "Alisherning ota-bobolari uyg'ur baxshilaridan bo'lgan" deb hisoblaydi. Ushbu jihatni o'rganishning nechog'lik muhim ekani manbalar qiyosiy tahlilida chuqurlashganimiz sari yanada yaqqolroq ayon bo'la boshladi. Zero, davrlar kechmishi mobaynida tazkiranavislik an'anasi har ikkala qarashni qabul qilgani, aralashtirib yuborilgan ma'lumotlar o'zidan keyin qator "yangi" ma'lumotlarning tug'ilishiga sabab bo'lgani sezildi. Avvalgi guruhning mulohazalari, o'z-o'zidan ravshanki, yuqorida biz ko'rib o'tgan mashhur tarixiy asarlarga asoslangan. Keyingi guruhga kiruvchi manbalar o'zining jo'g'rofiy tarqalish hududi va mashhurligi jihatidan Movarounnaxr hududi bilangina chegaralangan. Ularning eng oldi va aytish munkinki, keyingi avlod tazkiranavislariga material vazifasini o'tagan ma'lumotni taqdim etgan manba Mirzo Haydar Duglotning "Tarixi Rashidiy" asaridir.⁸¹ U garchi tarixiy asar bo'lsa-da, Navoiy haqidagi ma'lumotlar yo'l-yo'lakay an'anaviy umumiy tanishtiruv-tazkiraviy shaklda beriladigan ma'lumotlar sirasiga kiradi. Jumladan, unda "Navoiy asli uyg'ur baxshilaridan bo'lib, otasi Amir Kichkina oddiy (yoki rasmiy) odam (marde bud ala ar-raem) edi", - deb yozib qo'yilgan.⁸² A.A.Semyonov o'z vaqtida yozgan edi: "Mirzo Haydar Durlotning guvohlik berishicha, Alisherning kelib chiqishi an'ana bo'yicha temuriylar davrida uyg'ur tilida rasmiy ish qog'ozlarini bituvchi baxshilar, ya'ni uyg'ur munshiy va kotiblariga bog'lanadi. Nasab jihatidan u aslzodalarga ham, "kibor mulozimlarga" ham emas, balki Bartold aytgandek, otameros devon amaldorlariga

⁸¹ «Тарихи Рашидий» 1541-1542 йилларда ёзилиб. Қошғар ва Ёркент хокими Абдурашидхонга совға қилинган.

⁸² Мирзо Хайдар Дуглот. Тарихи Рашидий. Кўлёзма. ЎзРФА ШИ, инв. №1430, 121^б-варақ.

mansub”.⁸³ Shu narsaga e’tibor qilish kerakki, bu ma’lumot Mirzo Haydar asaridan boshqa XV - XVI asr boshida yaratilgan biror-bir manbada uchramaydi. Navoiy bilan shaxsan tanish bo’lgan tarixchilar va olimu ijodkorlarning bunday ma’lumoi bermaganliklari tufayli Mirzo Haydar ma’lumotiga ehtiyot bo’lib yondashish talab etiladi. Ikkinchidan, Mirzo Haydar Navoiyning vafotidan sal ilgariroq, ya’ni hijriy 905/1499 - 1500 mil.) yili Toshkentda tug’ilgan. Umrining asosiy qismi Qoshg’arda va oxiri Hindistonda o’tgan. Unda Navoiy haqidagi ma’lumotlarni ulug’ shoirni shaxsan tanigan kishilardan olish imkoniyati yo’q edi. Hatto umrining oxirini boburiylar saroyida o’tkazgan Xondamir ham Mirzo Haydarning Hindga kelishidan taxminan yetti yilcha ilgari vafot etib ketgandi. Shunday bo’lgach, Mirzo Haydar bahs etilayotgan mavzu bo’yicha o’z hamasrlari Faxriy va Som mirzochalik o’z ma’lumotlarini qayta tekshirib ko’rish imkoniga ega emas edi. Uchinchidan, tarixiy asar yaratilish jarayonida muallif ba’zida yozma manbalarga emas, balki uzunquloq gaplarga tayanib, ularni fakt sifatida qayd etganligi fanga ma’lum. Tarixchi olim T.Sultonov XV - XIX asrlarda yaratilgan tarixiy asarlar mazmuniga bag’ishlangan tadqiqotida ta’kidlashicha, Mirzo Haydar ham ko’pgina o’rinlarda shu yo’ldan borgan.⁸⁴

Xo’sh, baxshilar kimlar? Semyonov Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlariga doir maqolasida “baxshilar - devon, mahkama xodimlari” deb quruqqina tushuntirish bilan cheklansa, T.Sultonov o’z tadqiqotida boshqa bir munosabat bilan Abulg’ozi Bahodirxonning ta’rifi va V.V.Bartoldning xulosasiga asoslanib, baxshi-kotiblarning mavqei va vazifalari haqida ancha tushuntirish beradi: “...Uyg’ur xalqi orasida savodxon kishilar ko’p bo’lgan. Ular yozuv-chizuvlarni yaxshi olib borishar va

⁸³ Семенов А.А. Взаимоотношения Алишера Навои и Султана Хусейн Мирзы // Сб. исследования по истории народов Востока. - М.-Л., 1960. - С.238.

⁸⁴ Султанов Т. Памятники исторической литературы Средней Азии и Восточного Туркестана XV - XIX вв: Дис... докт. ист. наук. - Л., 1988. - С.192.

devon hisob-kitoblarini yaxshi bilar edilar. Chingizxon sulolasi davrida Movarounnahr, Xuroson, Eronda devon va mahkama xodimlarining barchasi uyg'urlardan edi. Uyg'ur harfi bilan hujjat to'ldiradigan Turkiston xonlarining kotiblari va amaldorlariga nisbatan asl ma'nosi budda ruhoniylarini anglatuvchi "baxshi" (sanskritcha "bxikshu") istilosi qo'llanardi. V.V.Bartoldning taxminicha, "mazkur kotiblar chig'atoy xonlari dargohida musulmon madaniyati vakillaridan ko'ra taxtga yaqinroq turganlar va tarixiy voqealarni zikr etib borish tamoman ularning qo'llarida bo'lgan".⁸⁵ Tarixchi olim Chingizxon davrida butparast uyg'urlar dini jihatidan mo'g'ullarga, tili jihatidan esa Markaziy Osiyo xalqlariga yaqin bo'lganliklari uchun mo'g'ul xonlari ulardan unumli foydalanganlar va tabiiyki, uyg'urlar musulmonlardan ko'ra mo'g'ullarga yaqinroq hisoblanganlar, deb xulosa chiqaradi. Mo'g'ullar istilosining dastlabki davrlarida balki shunday bo'lgandir. Jahongir Amir Temur Ko'ragonning tarixi yoritilgan "Zafarnoma"da Sharafiddin Ali Yazdiy yozuv-chizuv ishlarini olib boruvchi kishilarni "baxshiyoni turk" deb atagan.⁸⁶ Bundan ma'lum bo'ladiki, Temur saroyida yozuv-chizuvlarni asosan o'zbek kotiblari olib borishgan. Biroq kotib o'rnida "baxshi" so'zini ishlatish mo'g'ul xonlaridan an'ana bo'lib qolgan sababli har ikki istiloh bir ma'noda qo'llangan. Demak, Temur davrida kotiblarning baxshi nomi bilan atalishiga an'ana deb qarasaq, unda Mirzo Haydar Navoiyni "uyg'ur baxshilaridan" deb atayotganida uning millatini emas, balki ajdodi saroy kotiblaridan demoqchiligi ma'lum bo'ladi.

Endi Mirzo Haydarning Navoiy nasabini saroy kotiblariga olib borib taqashi qay darajada haqiqatni ifodalashi masalasiga e'tiborni qaratsak. "Temur tuzuklarida"da kotib- yozuvchilar haqida ba'zi gaplar mavjud. Masalan, Temur farzandlariga bir guruh kishilardan

⁸⁵ Сулганов Т. Памятники исторической литературы. - С.104 - 105.

⁸⁶ Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Қўлёзма. УзРФА ШИ, инв. №4472. 99^б-варак.

iborat yozuvchilar tayinlashni, ular majlislarda belgilangan ishlar, tadbirlar, muhim masalalarni voqea-tafsilotlari bilan yozib borishlarini, hukmdor chiqargan hukmu farmonlarni batafsil qalamga olib, sultonning voqea daftariga yozib borishlarini, saltanat oshxonalarining har birida yozuvchilar bo‘lib, kundalik kirim-chiqimlarni yozib turishlarini ta’kidlaydi.⁸⁷

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, kotiblar saroyda o‘rtamiyona vazifalarga ega bo‘lsalar-da, hukmdorning bevosita nazorati ostida, unga yaqin bo‘lish imkoniyatiga ega ekanlar. “Tarixi Rashidiy”dan bo‘lak manbalar, xususan, original uslubda yaratilgan “Boburnoma” yoki Navoiy bilan shaxsan tanish, ulug‘ amirning o‘zidan va hamsuhbatlaridan aniq ma’lumotlar olgan Xondamir, Faxriy, Zayniddin Vosifiy, qolaversa, bizgacha yetib kelmagan manbalarga boy Hirot kutubxonasiga egalik qilgan Som mirzo Safaviy asarlarida Navoiy ajdodining temuriylarga ko‘kaldoshligi, ularning amirlar sulolasidan ekanligi bir ovozdan tasdiqlangan. Saroy kotiblari baxshilar hukmdorning ishonchli kishilaridan sanalar ekan, agar Navoiy bu tabaqaga mansub bo‘lganida Hirot tarixchilari bu haqda ishora berib o‘tishlari lozim edi. Navoiyning o‘zi ota-bobolari temuriylar saltanatida «ulug‘ marotibga sazovor va biyik manosibga komgor bo‘lg‘on erdilar» degan ekan, birinchi navbatda, uning o‘ziga ishonmoq kerak. Mirzo Haydarning asossiz xulosasi, afsuski, keyingi davrlarda yanada rivojlantirib yuborilganini ko‘rish mumkin.

Keyingi asrlarga taalluqli manbalarning Navoiy davri, ya’ni ilk manbalardan ancha farq qiluvchi jihati, ularda tekshirib ko‘rilmagan turli ma’lumotlarni qo‘shib bayon etish holatining ustuvorligida ko‘rinadi. Masalan, Abdulmo‘minxonning “Tom ut-tavorix” (1598 yil, Buxoro) to‘plamida keltirilgan Navoiyning tarjimai holi shoir zamondoshlarining yozib qoldirgan ma’lumotlariga umuman mos kelsa-da, Davlatshoh Samarqandiy

⁸⁷ Темури тузуқлари. - Б.86.

qoʻllagan “otasi Chigʻatoy elining mashhurlaridan” iborasiga Mirzo Haydarda keltirilgan “Kichkina” nomini qoʻshish va bu ikki iboradan soʻng “baxshi” atamasini ildirish orqali keyingi davr manbalariga “yangi” maʼlumotni taqdim etgan⁸⁸. Shu qabildagi maʼlumotlar Mahmud bin Valining “Baxr ul-asror”⁸⁹, Faxmiyning “Tazkirat ush-shuaro”⁹⁰ asarlarida, Sharifjon Mahdum Sadr Ziyoning bayozida ham uchraydi.⁹¹ Biz qoʻlimizdagi manbalarni Navoiy tarjimai holi koʻrinishlari boʻyicha guruhlashtirganimizda maʼlum boʻldiki, “Tarixi Rashidiy”dagi maʼlumotga suyanish faqat Oʻrta Osiyoda yaratilgan asarlardagina uchrar ekan. Eʼtibor bering-a, “Bahr ul-asror” Balxda, “Tom ut-tavorix” Buxoroda, Faxmiy tazkirasida Samarqandda, Sadr Ziyo asarlari Buxoroda yaratilgan. Tarixchi T. Sultonov ham “Tarixi Rashidiy”ning Oʻrta Osiyo va Sharqiy Turkistondan tashqarida, xususan, Yaqin Sharqda tarqalmaganligini alohida qayd etgan.⁹² Bu esa Navoiyning “baxshi”lardan ekanligi haqidagi maʼlumot Mirzo Haydarning ijodi ekanligi va keyingi davr asarlarida uchrashi undan koʻchirish oqibatida roʻy berganligini tasdiqlaydi.

- XIX asrlarga taalluqli manbalarda yana bir qusur uchraydi. Bu Navoiy davri manbalaridagi maʼlumotlarning oʻzgartirilganida koʻzga tashlanadi. Jumladan, Darvish Ali Changning 1572 - 1573 yillari yaratgan “Tuhfat us-surur” yoki “Risoiat musiqiy” nomi bilan mashhurlik tutgan musiqa nazariyasiga oid asarida keltirilgan Navoiy tarjimai holidagi “Alisherning otasi zaif inson boʻlsa-da, oʻzi ustida ishlashni

⁸⁸ Мазкур китъа А.Хайитметов маколасида келтирилган. Қаранг: Навоий ҳақида янги маълумотлар // Шарқ юлдузи. 1972. №9. - Б.184.

⁸⁹ Махмуд бин Вали. Бахр ул-асроп. Қўлэзма. ЎзРФА ШИ, инв. №1375. 160³-варақ.

⁹⁰ Абдулмаглаб Фахмий. Тазкират уш-шуаро. Қўлэзма. ЎзРФА ШИ, инв. №2331. 36³-варақ.

⁹¹ Шарифжон Махдум Садр Зиё. Баёз. Қўлэзма. ЎзРФА ШИ, инв. №2315. 20⁴-варақ.

⁹² Султанов Т. Памятники исторической литературы. - С.275.

qo‘ymas edi” degan jumla mavjud.⁹³ Agar unga ishonilsa, G‘iyosiddin Kichkina haqidagi tasavvurimiz boshqa yo‘nalish kasb etishi mumkin. Ammo qiyosiy tekshirishlar ma‘lumotning Davlatshohdan olinganligini ko‘rsatdi. Muallif Davlatshohning “Sipohiy bo‘lishiga qaramay, fozillikni tashlamadi” iborasini o‘z tushunchasiga muvofiq talqin qilganligi ravshanlashdi. XVIII asrda Hindistonda yashab, ijod etgan Vola Dog‘istoniyning “Riyozi ush-shuaro” tazkirasida “Navoiy chig‘atoy sultonzoalaridan” deb keltirilishi⁹⁴ uning Navoiy davri manbalaridagi ma‘lumotlarning umumiy ruhiyatidan chiqargan shaxsiy mulohazasi deyish mumkin. XIX asrda yaratilgan “Ro‘zi ravshan” tazkirasida esa “Navoiy chig‘atoy sultonlaridan” deb bitilganligi, o‘z navbatida, Vola xulosasining o‘zgartirilgan varianti ekanligi aniqlandi. Bunday misollar ko‘p bo‘lib, ilk ma‘lumotlar keyingi davr asarlarida umumlashtirib borilavergan va zamonlar o‘tгани sari Navoiy davri manbalaridagi ma‘lumotlar o‘z asliyatidan ancha uzoqlashib ketgan.

BOLALIGI

Manbalar xronologiyasiga rioya qilinadigan bo‘lsa, Alisherning bolalik davri haqidagi dastlabki ma‘lumot Davlatshoh Samarqandiy qalamiga mansub. Biroq u juda qisqa bo‘lib, bo‘lajak shoirning Abulqosim Bobur saroyidagi turmushi va sulton bilan oralaridagi yaqin aloqalar ta‘kididan iborat.⁹⁵ Xondamir “Makorim ul-axloq” asarida shoirning bolalik davrini muayyan darajada yoritgan. Keyinchalik Faxriy Hirotiy, Zahiriddin Bobur, Som mirzo Navoiyning Husayn Boyqaro bilan maktabdosh bo‘lganligini aytib o‘tganlarida so‘zsiz uning asariga

⁹³ Дарвиш Али Чанг. Рисолаи мусикии. Қўлёзма. ЎзРФА ШИ, инв. №449. 60-варақ.

⁹⁴ Валихўжаев Б. “Риёз уш-шуаро” tazkirasida ўзбек адабиёти намояндалари // Адабий мерос. 1988. №4 (86). - Б.25.

⁹⁵ Давлатшох Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. - Б.370.

suyanganlar. Shuni hisobga olib, Davlatshoh va Xondamir Navoiy tarjimai holining umumiy qolipini yaratib bergan deb aytish mumkin. Qolganlar o'sha davrning o'zidayoq o'zmi-ko'pmi aniqlik kiritib borganlar. Jumladan, Faxriy Navoiyning Abulqosim Bobur xizmatiga kirganda o'n yoshda bo'lganligini ta'kidlasa, Som mirzo Alisherning Abulqosim vafotidan so'ng Mashhadda qolib ilm orttirganligini tasdiqlagan.⁹⁶

Qushimcha sifatida Navoiyning Pahlavon Muhammadga bag'ishlangan "Holot"ida ularning do'stligiga qirq yilga yaqin vaqt bo'lganligi aytib o'tilganini ko'rsatish mumkin. Agar asarning milodiy 1493 yili yozilganligini e'tiborga olsak, ularning do'stligi taxminan milodiy 1457 yildan. ya'ni Alisherning 16 -17 yasharligidan boshlangani oydinlashadi.

Davlatshoh Navoiyning yoshligidayoq zulfisonayn ijodkor sifatida Abulqosim Boburga manzur bo'lganini qayd etgan. Uning ma'lumotiga Faxriyning "Alisher o'n yasharligida Abulqosim Bobur xizmatiga kirgan" tarzidagi ta'kidini qo'shsak, Navoiyning juda erta turkiy va forsiy tilda birdek ijod qilishga intilganligi ma'lum bo'ladi. Navoiyning Lu'fiy bilan bo'lgan suhbatida keltirilgan "Orazin yopg'och ko'zunadin sochilur har lahza yosh, Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh" matla'li g'azali shoimning o'spirinlikda yozgan turkiy tildagi ijodi namunasi ekanligi Xondamirning "Makorim ul-axloq" asari tufayli ilmiy iste'molga kiritildi. Afsuski, biz hozirgi kunda uning bolaligida yozgan forsiy she'rlaridan namunalariga ega emasmiz.

Albatta, uning she'riyatga mehr qo'yishi va ijodga kirib borishi masalasida, avvalo, Alisher Navoiyning o'ziga murojaat etish maqsadga muvofiq. Uning asarlaridan yoshlik davriga oid keltirilgan ma'lumotlarni topib izchil tartibda sanalashtirsak, bolalik yillari tasvirlaridan eng oldi sifatida kattalar huzurida Qosim Anvor g'azalini o'qib bergani va bu paytda 3 -4

⁹⁶ Som Мирзо Сафавий. Тухфа-йн Сомий. 167^а-варак.

yoshlarda ekani ma'lum bo'ladi. Mazkur ma'lumotda shoir ushbu she'r birinchi yod olgan g'azali ekanligini e'tirof etgani yanada ahamiyatlidir. Keyingisi, Shohrux mirzo vafotidan so'ng Alisherlar oilasining Iroqqa (hozirgi Eron) ko'chishi va Taft qishlog'ida Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashuvi bilan bog'liq tafsilotlardir. Bu paytda Navoiy, o'z e'tiroficha, olti yoshda bo'lgan. Boshqa o'rinlarda bolaligiga taalluqli yosh sanalarini ko'rsatmagan.

YIGITLIK DAVRI

Manbalarda keltirilishicha, Navoiy yoshlik davrining bir muddatini Abulqosim Bobur saroyida o'tkazgan. Abulqosim Bobur 1456 yili qishlash uchun Mashhadga ko'chganda Alisher va Husayn Boyqaro ham u bilan ketishadi. O'sha qish (1457) Abulqosim Bobur vafot etadi. Xondamir "Habib us-siyar"da aniq ko'rsatishicha, Alisher Navoiy Abulqosim Bobur bilan birgalikda Mashhadga bo'lgan va sulton vafotidan keyin shaharda qolib, ilm takomili bilan shug'ullangan.⁹⁷ Biroq u Navoiyning Mashhadga qancha vaqt yashaganligi haqida na bu va na boshqa asarlarida hech qanaqa ma'lumot berib o'tmagan. Umuman, bu haqda so'z yuritgan manbalarda uning Hirotga qachon qaytгани aytilmagan.

Bartold ko'rsatishicha, Alisher Hirotga 1464 yili qaytgan. Olimning manbalarda ko'rsatilmagan xronologiyani bu qadar aniq aytishidan maqsadi, nazarimizda, aynan shu sanada Abu Sa'id saltanatida kechgan og'ir siyosiy voqealarga Navoiyni bevosita aloqador qilish, shuning natijasida Navoiy va Abu Sa'id ixtilofiga siyosiy tus berish bo'lganligi ehtimol. Aytish kerakki, Bartold tomonidan tarixiy-siyosiy faktlarning Navoiy shaxsiyati atrofida bog'lanishi shu qadar tabiiy chiqqanki, olimning fikrlash tarzi keyingi navoiyshunoslik tadqiqotlari rivojiga ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Barcha tadqiqotlarda bir ovozdan Navoiy Abulqosim Bobur vafot etgach Mashhadga qolib, 1464 yili

⁹⁷ Хабиб ус-сияр. Қўлёзма. IV жилд. - Б.217.

Hirotda qaytgani bitiladi. Navoiyning Mashhaddagi hayoti tafsilotlari shoirning o'z asarlarida uchrab turadigan xotiralari asosida tiklandi. Jumladan, Alisherning Mashhadda qolib, ilm takomili bilan mashg'ul bo'lishi, Imom Rizo ziyoratgohidagi hujraga joylashib, o'sha yerga istiqomat qilishi va ko'pgina shoiru ilm ahli bilan muloqotda bo'lishi, hujrada betob bo'lib yotganida Kamop Turbatiy, Pahlavon Mubammad bilan tanishishi mantiqan Abulqosim Bobur vafot etgan 1457 yildan 1464 yilgacha o'tgan yetti yillik davr bilan bog'liq tarjimai holni qat'iy lashtirdi. Ammo olimlarimiz tomonidan mazkur xotiralarning birida keltirilgan muhim bir jihat e'tiborga olinmaganligi oqibatida shoir tarjimai holining birmuncha xiralashib qolganligini sezish mumkin. Xususan, Alisher Navoiy "Holoti Pahlavon Muhammad" asaridagi Pahlavon bilan uchrashuvi zikrida o'zini Mashhadga "ayni iflosu falokat va sarnavishu ranjurish" yetaklab kelgani va bu zamonda Xuroson Abu Sa'id mirzo qo'lida bo'lib, Hirotda ahli Samarqand ahliga asir va mute bo'lganligini ko'rsatadi⁹⁸. Diqqat qilsangiz, Navoiy aytmoqchi, uni Mashhadga tortgan sabablar, bu ifloslik, ya'ni o'rta asrlarda bu kalima chorasizlik ma'nosida ishlatilgan; ikkinchisi - falokat, uchinchisi esa sarnavisht, ya'ni taqdir. peshona hamda to'rtinchisi - ranjurish. Mazkur oxirgi kalima ham forsiy bo'lib, xafachilik ma'nosini bildiradi. Demak, Alisher chorasizlik, falokat, taqdir va xafagarchilik oqibatida Mashhadga kelgan. Bu alamzada ohangni biz bilgan Abulqosim Bobur davriga bog'lab bo'lmaydi. Alisher Abulqosim Boburga farzand o'rnida hisoblanardi (Davlatshoh Samarqandiy) va uni Mashhadga Bobur keltirgan edi. Ko'rinib turibdiki, voqea Abu Sa'id zamonasida ro'y bergan. Manbalardan ma'lumki, Abu Sa'id Abulqosim Bobur vafot etgan yilning o'zidayoq Xurosonni egallaydi.

⁹⁸ Алишер Навоий. Ҳолоти Пахлавон Муҳаммад //Мукаммал асарлар тўплами. - Тошкент: Фан, 1999. Т. XV. - Б. 114.

Navoiy 1464 yili emas, balki ilgariroq Hirotga qaytgan ham bo'lishi mumkin. Sanani aniq ko'rsatishning imkoni yo'q, chunki manbalarda bu haqda ma'lumot yo'q. Ammo bir narsa aniq. Alisher Abu Sa'id mirzo davrida Hirotga qaytgan. Bu haqda "Habib us-siyar" asarida "Sulton Abu Sa'id zamonida Hirot dor us-saltanatiga qaytib, bir muddat ul iqboloshiyonlik ostona xizmatida bo'ldi"⁹⁹ degan qayd mavjud. Navoiyning "Majolis"da keltirilgan Abu Sa'id tarixini yozayotgan Mavlono Abusamad Badaxshiy va sultonning xos mulozimi Shayximbek Suxayliy bilan yaqin do'stligi haqidagi xotiralari yana bir dalildir".¹⁰⁰ Bundan ma'lum bo'ladiki, Navoiy Mashhadga ikki marta muqim yashagan: bir marta Abulqosim Bobur bilan borib, ilm takomili bilan shug'ullangan, ikkinchi marta Abu Sa'id Mirzo davrida chorasizlik, falokat, taqdir va xafagarchilik oqibatida Mashhadga kelgan. Demak, Abu Sa'id taxtni egallab Xurosonda nisbatan osoyishtalik o'rnatilgach, Alisher Xirotda kelgan va muayyan bir muddatdan so'ng yana Mashhadga qaytgan ko'rinadi. Temuriy sultonlarga ulkan ehtirom ruhida tarbiyalangan, bu ulug' xonadonga yaqinlik hissidan mag'rur va eng asosiysi, ijodiy g'ayrati mavj urgan yosh shoirning sulton himoyasiga, poytaxt adabiy muhitiga shoshilishi mantiq nuqtai nazaridan tabiiy. Shoirning chuqur nadomat bilan Hirotning "Samarqand ahliga asir va mute" ekanligini ta'kidlashi uning Abu Sa'idga bo'lgan salbiy munosabatini yaqqol namoyon qiladi. Demak, bizga hozircha noma'lum voqea tufayli Navoiyning Abu Sa'iddan ko'ngli qolgan deyish mumkin. Shunday bo'lgach, Abu Sa'id mirzoning tazyiq o'tkazishidan xavfsirab Mashhadga qochgan Navoiyning 1464 yili yana Hirotga qaytishi mantiqan ishonarli emas.

Yuqoridagi mulohazalar zamonaviy navoiyshunoslikda qabul qilingan "Navoiy Samarqandga aynan Hirot dan yo'l olgan" qabilidagi xulosani ham muayyan ma'noda shubha ostiga

⁹⁹ Хабиб ус-сияр. - Б.217.

¹⁰⁰ Маҷолис ун-нафос. - Б.44.

qo'yadi. Navoiy Samarqandga to'g'ri Mashhaddan yo'l olgan bo'lishi ham mumkin. Navoiy haqidagi manbalarning birortasida uning Samarqandga aynan Hirotdan to'g'ri ravona bo'lgani aytilmaydi. Mirxond, Xondamir va boshqa Navoiy zamondoshlari bu safarni "Xurosondan Samarqandga" tarzida ifodalaganlar. Mashhad ham Xuroson tarkibida ekanligi hisobga olinsa, zamonaviy navoiyshunoslikda Navoiyning Samarqandga jo'nashi tafsilotlarida noaniqliklar mavjudligi ravshanlashadi. Navoiyning Samarqandga ketish oldidan Sayid Hasan Ardasheriga yo'llagan maktubi ham aynan Hirotdan yozilganini tasdiqlovchi birorta manbaviy ma'lumot yo'q.

NAVOIY VA ABU SA'ID MIRZO MUNOSABATLARI

Navoiyning Abu Sa'id mirzoga nisbatan qahr va alami uning asarlarida ochiq namoyon bo'lgan, ammo asl sabablari ma'lum emas. Ye.E.Bertels o'zining "Navoiy" monografiyasida mazkur masalada aniq fikr bildirmagan: bir joyda "Alisher 1464 yili Mashhaddan Hirotgga qaytdi. 1466-1467 yili Badaxshonda Navoiyning do'stlari tomonidan ko'tarilgan qo'zg'olon Abu Sa'id tomonidan bostirilgach, u qochib, Samarqandga ketdi"¹⁰¹ desa, boshqa bir joyda Navoiyning yuqoridagi e'tirofiga diqqatini qaratgan shekilli, "u 1467 yili Abu Sa'id tomonidan Mashhadga surgun qilindi", - deb ko'rsatadi.¹⁰² Olim negadir bu ikki xil qarashni mantiqan dalillamagan. Sadriddin Ayniy Alisher Navoiy va Abu Sa'id o'rtasidagi ixtilof Husayn Boyqaroning, Mir Said Qobuliy va Muhammad Ali G'aribiyning hamda Badaxshon shohlarining shoirga yaqin odamlar ekanligi vajidan paydo bo'lgan deb ko'rsatadi.¹⁰³ Oybek ham shunday hisoblaydi,¹⁰⁴ Ayniy "Abu Sa'id 1466 yilda Alisherni surgun qilishga hukm chiqardi va Hirotni tark etib, Samarqandda

¹⁰¹ Бертельс Е.Э. Навои и Джами. - С.77.

¹⁰² Кўрсатилган асар. - С.99.

¹⁰³ Айний С. Навои: Куллиёт. - С.284 - 285.

¹⁰⁴ Ойбек М. Аlisher Navoiy: Мукамал асарлар тўплами. 19 томлик. - Тошкент: Фан, 1979. Т.ХIII.- Б.15- 16.

yashashni buyurdi. Ahmad Hojibek Alisherni o'zi bilan birga olib ketadi. Chunki unga Sulton Abu Said tomonidan Alisherni saqlash topshirilgan edi"¹⁰⁵, deydi. Olim Sharafiddinov "Navoiy Samarqandga 1465 yilda surgun qilinadi va uni Ahmad Hojibek Hirotdan Samarqandga nazorat qilib boradi" degan.¹⁰⁶ V.V.Bartold yozadi: "Xondamirga binoan, Mir Alisher Hirotda Abu Sa'id huzuriga kelib bir qancha vaqt yashadi. O'zi kutgan e'tiborni sezmagach, Samarqandga ketdi. Bobur so'zlariga qaraganda, Mir Alisher Samarqandga Abu Sa'id tomonidan qandaydir xato uchun surgun etilgan. Mir Alisherning o'zi tahsil uchun borganligini aytadi. U paytlarda tahsil uchun Hirotdan Samarqandga bormas edilar. Demak, uning Hirotdan Samarqandga ketishi surgun sifatida qaralishi lozim".¹⁰⁷ Bartold o'z taxminining ishonarli chiqishi uchun ba'zi ma'lumotlarni qasddan noto'g'ri sharhlaganidan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Jumladan, u shunday yozadi: "Navoiy hayotining bu davrini yoritishda balki uning go'zal va fasih tilli, "qalbini asir etgan" (ko'nglumni base sayd qildi) shayx Sadriddin Rivosiy haqidagi hikoyasi ba'zi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Unga hatto oliy darajadagi shaxslar ham (Badaxshon shohi va podshoh ham) jazman edilar, Mir Alisherning badaxshonliklar bilan yaqin aloqasi x-871 yil voqeasidan so'ng uning hayotiga ta'sir qilgan bo'lishi mumkin. Bunga sultonning shayxni uning do'stlaridan rashk qilgani ham qo'shilgan bo'lishi mumkin".¹⁰⁸

Bertels ham "Navoiy" monografiyasida Navoiyning Samarqandga borganligini surgun hisoblab, bu paytlarda Samarqand ilm-fan markazi emas edi, deb fikr bildiradi. U Bartold singari Sadriddin Rivosiy masalasini ko'rsatmasada, ammo tog'alari va badaxshoniylar fojcasidan keyin shoir qochishga majbur bo'ldi, deb ta'kidlaydi.¹⁰⁹ Bertelsning mazkur

¹⁰⁵ Айний С. Навой: Куллиёт. - С.284.

¹⁰⁶ Шарафиддинов О. Алишер Навоий. - Б.51 - 52.

¹⁰⁷ Бартольд В.В. Мир Али Шир и политическая жизнь. - С.223 - 224.

¹⁰⁸ Бартольд В.В. Мир Али Шир и политическая жизнь. - С.225.

¹⁰⁹ Бертельс Е.Э. Навои. С.77.

tadqiqotda bunday yuzaki yondashuvining ma'lum sabablari bor deb bilaman. U o'ta sinchkov manbashunos va bilimdon navoiyshunos bo'lsa-da, Bartold konsepsiyasini buzmaslik uchun uning xulosalari bilan manbalar orasidagi ziddiyatli fikrlarga aniq chek qo'ymagan va barchasini bir-biriga moslashtirishga majbur bo'lgan. Shunday ekan, "surgun" masalasini qayta ko'rib chiqish navoiyshunoslikning dolzarb masalasiga aylanadi.

Biz bu masalada nima deyishimiz mumkin? Manbalarda "surgun" ma'nosida qo'llanishi mumkin bo'lgan "badarg'a" yoki "ixroj qilish" iboralari Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"sida ishlatilgan. U Navoiy haqida gapira turib, "Bilmon, ne jarima bila sulton Abu Sa'id mirzo Hirotdin ixroj qildi. Samarqandga bordi, necha yilkim, Samarqandda edi" degan.¹¹⁰

Bobur aslida "Abu Sa'id Navoiyni Samarqandga nega surgun qildi?" deb emas, balki "Bilmayman, qaysi gunohu uchun Hirotdan chiqarib yubordi?" degan mazmunda gapirgan. Mana shu farkni tushunishning o'ziyoq shoir tarjimai holidagi ba'zi to'qimalarni bekor qiladi. Bobur Navoiyning saroydan ketishi Abu Sa'id bilan bog'liqligini bilib, shohning xatti-harakatini qoralagan. Chunki shoirlar va ilm ahliga homiylik qilish shohlik rasmi bo'lgan. Shoirlar va ilm ahli siyosatda betaraf bo'lganlar. Ular bir podshohdan qanchalik muruvvat ko'rsalar, uning vafotidan keyin unga muxolif (hatto qotili) bo'lgan keyingi podshohlardan ham shunchalik muruvvat ko'rganlar. Shahardan badarg'a qilish shoir tomonidan sodir etilgan juda og'ir jinoyat uchun ravo ko'rilishi mumkin. Zahiriddin Bobur Navoiy siymosida mudhish jinoyatchini ko'rmagani uchun ham shohning bu ishidan taajjublangan. Chunki shoirlar qadim-qadimdan saltanat bezagi hisoblanganlar, sulton nomini dunyoga taratganlar, ulug'vorligini tarix sahifalariga naqsh etganlar. Shoirlar va ilm ahliga homiylik qilish barcha sultonlarga obro' keltirgan. Aks holda, shoirlarning o'tkir hajvlari sultonni yetti

¹¹⁰ Бобур. Бобурнома. - Тошкент: Юлдузча, 1989. - Б. 153.

iqlimga kulgu etishga ham qodir edi. Navoiyning Hirotdan chiqib ketishiga surgun tusini berish V.Bartold uchun nega zarur bo'lgani tushunarli. U Boburning fikri atrofida manbalardagi barcha faktlarni o'z yo'liga moslashtirdi. Jumladan, Navoiyning Badaxshon shohlariga hurmati, Husayn Boyqaro bilan do'stligi holatlarini bo'rttirish orqali Abu Sa'idning uyushgan muxoliflarini "tashkil" etdi. Yana bir qo'shimcha sifatida Shayx Sadriddin Revosiy shaxsini siyosiy sahnaga olib chiqdi. Bartold ssenariysi bo'yicha, Abu Sa'id Sadriddin Revosiyini rashk qilib, Badaxshon shohini qatl ettiradi, Husayn Boyqaro josusi Navoiyni Samarqandga surgun qiladi.

Alisherning tog'alari shoirtab' bo'lsalar-da, asosiy kasblari sipohiylik edi. Ularning Boyqaro lashkarboshilari qatorida Abu Sa'idga qarshi jang qilishlari va shahid bo'lishlari urush qonuniyatlariga taalluqli. Badaxshon shohi taqdiri ham xuddi shunday. Shu bois Navoiyning tog'alari yoki Badaxshon hokimining Abu Sa'id buyrug'i bilan qatl ettirilishi sulton va Navoiyning bir-birlariga sovuq munosabatda bo'lishlariga asos bo'la olmaydi (Navoiyning jiyani Amir Haydarning Husayn Boyqaro tomonidan qatlga buyurilishi kabi). Qolaversa, Navoiy Abu Sa'id Mirzo zamonida siyosat bilan shug'ullanmagan yosh shoir edi. Husayn Boyqaro Abulqosim Bobur vafotidan so'ng Navoiy bilan ko'rishmagan, Navoiy esa bu davrda Hirotda ham, Mashhadda yurgani kabi, shoirlar muhitida, jo'shqin ijod bilan band, siyosatdan ancha yiroq shoir sifatida tasavvur uyg'otadi. Oybek ham Mir Alisherning Sulton Husayn "qozoq"liklarda yurganda u bilan aloqasi bo'lmagani va Hirotda yuz bergan fitnalarda uning ishtiroki ma'lum emasligini qayd etgan.¹¹¹

Agar Abu Sa'idning Navoiyga Husayn Boyqaro tufayli xusumati bo'lganda, uning o'g'li Mirzo Sulton Ahmad Husayn Boyqaroga qarshi urush ochganda Navoiyni o'zi bilan olib ketmasdi. Bu haqda "Ravzat us-safo"da quyidagicha ma'lumot

¹¹¹ Oйбек. Адабий-танкидий мақолалар // Муқаммал асарлар тўплами. - Тошкент, 1979. Т. XIII. - Б. 17.

mavjud: "...az Xuroson ba Samarqand rafta dar xonaqohi Xoja Jaloliddin Fazlulloh, sokin gasht... to darin ayyomki, Mirzo Sulton Ahmad bino bar tavajjuhi xoqoni mansur ba subhi Xuroson az obi Amuya guzasht amir Alisher niz hamrohi urdu ravon shuda bud. Ba'd az tahqiqi xabari voqeai Sulton Abu Sa'id va istiloi hoqoni mansuri muzaffarlivo bar baldai foxirai Hirot az amir Hojibek ruxsat talabida ijizat xos il namuda va ruy ba Hirot ovard".¹¹²

(...Xurosondan Samarqandga ketib, Xoja Jaloliddin Fazlulloh (Abu Laysiy) xonaqosida yashadi. Bu hayot shungacha davom etdiki, Mirzo Sulton Ahmad Husayn mirzoga qarshi Amudan kechib, Xurosonga yurish qilganda Amir Alisher ham uning urdusida edi. Abu Sa'id mirzo o'limi voqeasi va Husayn Boyqaroning Hirotni istilo etganligi haqidagi xabar aniqlangandan so'ng Ahmad Hojibekdan ruxsat olib Hirotga yuzlandi.)

Bu esa Abu Sa'id Navoiydan mutlaqo xavfsiramaganligini bildiradi. Agar sulton Navoiyning Husayn Boyqaroga yaqin aloqasi borligi uchun dushmanona kayfiyatda bo'lganda edi, unda Abulqosim Boburning amirlarini o'z xizmatiga olganini qanday izohlash mumkin? Ularning ko'pchiligi Husaynning ustozlari va yaqinlari bo'lganlar. (Xuddi shunday: Sulton Husayn Boyqaro ham Abu Sa'idning amirlarini o'z xizmatiga olgan.) Temuriy sultonlar nazdida ko'kaldoshlar va amirlar qaysi bir temuriy sultonga xizmat qilganiga qarab emas, balki, umuman, temuriylar sulolasi sultonlariga sodiqliklariga qarab qadrlangan. Shuning uchun ham sultonlar o'zgaraversalar-da, ko'pchilik amirlar izzat-hurmatda qolaverganlar. Ko'kaldoshlar temuriylarga yaqin kishilar sifatida shu davlat hududida xos e'tiborga ega bo'lganlar. Temur tuzuklariga binoan, g'anim tarafidan kimki o'z davlatidan umidini uzib, boshqa bir podshoh qoshiga kelib, xizmatiga kirsa, bu podshoh uni aziz tutishi, uning muxolif podshoga

¹¹² Равзат ус-сафо. Босма. - Лакхнау, XIX аср. VII жилд. - Б. 15.

vafodorligini unutib, martabasini ulug' qilishi lozim bo'lgan. Bu jihatdan ham tadqiqotlarda aytilgan Abu Sa'idning Navoiyga Husayn bilan birga o'sganligi uchun yomon munosabatda bo'lishi haqiqatga to'g'ri kelmaydi¹¹³. O'rta asrlar sharoiti va Navoiyning ulug' sultonlar tabaqasiga munosabatini, xususan, temuriy sultonlarga yuksak hurmat-ehtiromini hisobga olsak, uning Abu Sa'idga qaratilgan isyonkor satrlari faqat qandaydir fojea oqibatida paydo bo'lgan cheksiz adovat, nafrat natijasidagina otilib chiqishi mumkin edi. Navoiyshunos olim A.Hayitmetov bu masalada to'g'ri fikrlagan deb o'ylaymiz. U yozadi: "Aslida Navoiy rasmiy ravishda surgun qilinmagan, balki o'z boshiga tushishi muqarrar bo'lgan kulfatlarning oldini olib, ziyraklik bilan o'ziga o'zi podshohning ko'zidan uzoqda turishga hukm chiqargan edi. Chunki Abu Sa'id va uning odamlari Navoiyga qattiq shikast yetkazishlari, uni qamab qo'yish yoki o'ldirishni o'ylagan bo'lishlari mumkin".¹¹⁴

¹¹³ Shu yerda ta'kidlash joizki, hozirgi yangi tafakkur davrida temuriy sulton Abu Sa'id Ko'ragon shaxsiga ham xolis yondashish vaqti keldi. Ba'zi tadqiqotlarda Hirotning g'orat etilishi va ba'zi qonli voqealar mazkur sultonga nisbat beriladi (qarang: Abdullaev V. Navoiy Samarqandda. - Toshkent, 1968. - B.39.). O'sha davr tarixi yozilgan manbalar qayta ko'rib chiqilganida sho'rolar davri tadqiqotlarida Abu Sa'id Sulton Amir shayx Abu Sa'id nomli lashkarboshi bilan adashtirib yuborilgani aniqlandi (qarang: Xondamir. Xabib us-siyar. O'zRFA ShI, inv. №2153. 568³-varaq). Albatta, Sulton Abu Sa'id mirzoning qonli yurishlaridan ko'z yumib bo'lmaydi. Bu barcha sultonlarga xosdir. Biroq uning Hirot taxtini egallashi, ba'zilar aytganidek, g'orat qilinib emas, balki tinch yo'l bilan bo'lgani va xalqqa hech qanaqa ranju sitam yetkazmagani manbalarda ko'rsatilgan (qarang: Мирхонд. Равзат ус-сафо. VI жилд. О'зРФА ШИ, инв. №12432. - Б.285). Qolaversa, uning ilm-fan ahli va shoirlarga nisbatan yaxshi munosabatlarda bo'lgani, davlat obodligi uchun jon kuydirgani, temuriy shahzodalarga nisbatan, avvalo, tinchlik va omonlik tilagani va boshqa bir qancha olijanob xislatlari Abdurazzoq Samarqandiyning «Matfai sa'dayn...», Xondamirning tarixiy asarlarida keltirilgan ashyoviy dalillar hamda Abu Sa'id tomonidan rag'batlantirilgan shoir va ilm ahli ro'yhati, Movarounnaxr, Xurosonda qurilgan inshootlar tavsifidan ko'rinib turadi.

¹¹⁴ Найитметов А. Навоий лирикаси. - Тошкент, 1961. - Б.278 - 279.

Xullas, Navoiyning Abu Sa' id mirzoga salbiy munosabati uning o'zigagina ma'lum sir bo'lib qoldi. Masalaning ikkinchi tomoni muhimroq. Navoiy Hirot dan chiqib Mashhadga borgan ekan, nega muayyan vaqt o'tib, Samarqandga ketish istagi tug'ildi ekan? Axir, Samarqand shu paytlari ham Abu Sa' idning jiddiy nazorati ostida edi-ku.

Shu o'rinda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim. Hijriy 869 (1464 - 1465) yili Hirot dor us-saltanasining hokimi - Vafoiy taxallusi bilan ajoyib she'rlar yozgan Ahmad Hojibek Abu Sa' id mirzoning farmoni bilan shahzoda Sulton Ahmad mirzoning eshik og'asi sifatida uning nomidan hukumatni boshqarish uchun Samarqandga yuboriladi.¹¹⁵ Agar Alisher Hirot da yashab yurganida Abu Sa' id tarixini yozayotgan Mavlon o Abusamad Badaxshiy¹¹⁶ va sultonning xos mulozimi Shayximbek Suxayliy bilan yaqindan oshnoligi hisobga olinsa, Ahmad Hojibek bilan ham yaqin munosabatda bo'lganligi aniq bo'ladi. Chunonchi, "Majolis un-nafois" da u yozadi: "...Vafoiy taxallus qilur. Surati xush va siyrati dilkash, axloqi hamida va atvori pisandida yigitdur. Xurosonda tarbiyat topti. Hirot dor us-saltanatida o'n yilga yaqin hukumat qildi. Samarqand mahfuzasida ham muddate hokim erdi..."¹¹⁷

Mashhad da siniq kayfiyat bilan yurgan Alisher iloji boricha uzoqroqqa ketishni istagan va buning isbotini "Ilk devon" g'azallari ruhiyatida ham qurish mumkin¹¹⁸. Ahmad Hojibek Samarqand da Navoiyga qulay sharoitlar yaratib berishi mumkin edi. Yuqorida "Ravzat us-safo" dan keltirilgan iqtibosda Navoiyning Ahmad Hojibek bilan suhbatdosh bo'lganligi haqidagi ma'lumot shunday xulosaga olib keladi.

¹¹⁵ Ravzat us-safo... - B.290.

¹¹⁶ Majolis un-nafois. - B.44.

¹¹⁷ Ko'rsatilgan asar. - B. 151.

¹¹⁸ Ё.Исҳоковнинг «Навоийнинг ilk лирикаси» китобида ко'плаб мисоллар бор. Қаранг: Навоийнинг ilk лирикаси. - Тошкент: Фан, 1965. - Б.168.

Ehtimol, Alisher shoirtaʼb, fozil hukmdorni qora tortib Samarqandga borishni ixtiyor etgan boʻlsa, ajab emas.

NAVOIY SAMARQANDDA

Barcha manbalar Alisher Navoiyning Samarqanddagi hayotini tahsil bilan bogʻlaydilar. Dastlabki maʼlumot Abdurazzoq Samarqandiyga tegishli.¹¹⁹ Mirxond ham shunday fikrni bildiradi. Ammo Samarqand safarining sabablari xususida farq bor. Mirxond Navoiy Samarqandga Xurosonda “oʻziga munosib eʼtibor topmaganligi” uchun ketgan deb hisoblaydi.¹²⁰ Xondamir “Xulosat ul-axbor”da shoirning Samarqandga ketish sabablarida chuqurlashmagan, ammo u diqqatni Navoiy «taqdir jafokorligi oqibatida Husayn Boyqarodan uzoqlashib ketdi» degan fikrga qaratadi: “Hazrati sultonning yaqin kishisi (Navoiy) goʻdaklik chogʻidan bolalik tongining nihoyasigacha ul muzaffar bayroqli sultonning yonida boʻlgan va jafokor taqdiming vositasi bila bir qancha vaqt uning xizmatidan uzoqlashib ketgan boʻlib, Samarqanddan yetib keldi”.¹²¹ Mazkur ikki asarning yozilgan vaqti Alisher Navoiy qudratli podshoh Sulton Husayn Boyqaroning yaqin kishisi sifatida izzat va ikrom sohibiga aylangan bir vaqtga toʻgʻi kelishini hisobga olsak, mualliflarda tarixchilarga xos maddohlik xususiyatini sezish mumkin. Biroq Xondamirning fikrini Abdurazzoq Samarqandiy fikriga qarshi fakt sifatida qarash toʻgʻri emas. U tahsil uchun borilganini inkor etgan emas. Balki ularning doʻstliklarini yana bir karra taʼrif-tavsiflagan va ikki doʻstning ancha payt koʻrishmaganliklarini ularning Hirotdan tashqarida yurgan judolik davrlari bilan ifodalagan. Shunday esada, “Ravzat us-safo”da oʻziga munosib eʼtibor topmaganligi uchun Samarqandga ketganligi haqidagi taʼkiddan Navoiyning iqtidori Hirotda yetarli baholanmagani va

¹¹⁹ Матлаи саʼдайн ва мажман бахрайи. 331^a-варак.

¹²⁰ Равзат ус-сафо. Босма. - Лакхнау, XIX аср. VII жилд. - Б. 15.

¹²¹ Хулосат ул-ахбор... Қоʻлезма. ОʻзРФА III, инв. №2209. 460^b-варақ.

uning Hirotidan ketishiga to'g'ri kelganligiga amin bo'lish mumkin.

Mazkur ma'lumotlarning mavhum va qisqa tarzda keltirilishining sababi shundaki, ular, avvalo, Navoiyga maxsus bag'ishlab emas, balki yo'l-yo'lakay aytib o'tilgan ma'lumotlardir. Ushbu ta'kidlar faqat tarixiy asarlarda qayd etilgan, Sulton Husayn Boyqaroning taxtga o'tirishi munosabati bilan keltirilgan tafsilotlardir. «Taqdir jafokorligi» iborasiga kelsak, Xondamir Navoiyning poytaxtdan uzoqligini nazarda tutgan. U ehtimol, ixroj sabablaridan to'la bo'lmasa-da, qisman xabardor bo'lishi ham mumkin. Chunki Navoiy vafotidan so'ng yaratgan "Habib us-siyar" asarida xuddi shu voqealar bayoniga aniqlik kiritib: "Sulton Abu Sa'id zamonida Hirot dor us-saltanatiga qaytib, bir muddat ul iqboloshiyonlik ostona xizmatida bo'ldi. Ammo o'z holiga yarasha daraja va rioyat topmagach, Xurosondan Samarqandga ketdi" tarzida Abu Sa'id nomini ochiq-oydin ko'rsatib o'tgan.¹²² Demak, oldingi asarlarida sultonning nomini ochiq ko'satishga nimadir xalal bergan. Bizningcha, Amir Alisher "Xulosat ul-axbor" yozilayotgan paytda bu masalaga alohida e'tibor qaratilishini xohlamagan, shekilli.

Buyuk adibning o'zi Samarqanddagi hayoti haqida kam ma'lumot qoldirgan. "Majolis"dagi qaydlar asosida uning Uloi Shoshiy, Mavloni Yusuf bilan tanishuvi, Fazlulloh Abu Laysiy madrasasida ta'lim o'la boshlashi, Yusuf Badeiy bilan oshno kirishishi kabi ijod ahli bilan munosabatini yoritish mumkin.¹²³ Mavloni Mir Qarshiyning sahhoflik do'konida o'tkazib turiladigan mushooralarda qatnashib turganligi¹²⁴, Mavloni Riyoziy bilan she'r ustida bahs yuritishi uning Samarqand fozillari bilan yaqin aloqada bo'lganligini tasdiqlaydi.¹²⁵ Yana

¹²² Набиб ус-сияр. - Б.217.

¹²³ Маҷолис ун-нафоис. -Б.60.

¹²⁴ Ко'рсатилган асар. - Б.58.

¹²⁵ Ко'рсатилган асар. - Б.59.

ba'zi xotiralar borki, maxsus ko'rsatilmagan esa-da, ular Samarqand davriga taalluqli, degan fikrdamiz. Masalan, Navoiy Mavlono Riyoziy fikrasida quyidagi voqeani eslaydi:

Bu g'arro matla' aningdurkim:
Sitoraest duri go'shi on hilolabro',
Zi ro'i husn ba xurshed mezanad pahl.

Ikki misra' orasida rabt jihatidin bir «ki» lafzi kerak. Faqir anga dedimki, bu nav' yaxshiroq bo'lg'ayki:

Zi ro'i husn duri go'shi on hilolabro',
Sitoraestki, bo moh mezanad pahl.

Insof yuzidin kerakki, musallam tutsa erdi, jadal bunyod qildi, faqir soqit bo'ldim. O'z yoronlari taloshtilar ham qabul qilmadi. Samarqandda favt bo'ldi".¹²⁶

Riyoziyning o'rinli tanqidga e'tiroz bildirishidan bu voqea Navoiyning yigitlik davrida ro'y bergan deyish mumkin. Zero, Navoiy o'rta yoshlarda shunchalik mashhurlik tutgan ediki, uning maslahatlariga, hatto Abdurahmon Jomiy quloq osar edi. Demak, Navoiyning shoirlik mahorati yuksak esa-da, hali yosh yigit ekanligi seziladi. Voqeaning Samarqandda sodir bo'lganiga Riyoziy "samarqandligdur" va "Samarqandda vafot etdi" deyishi dalil bo'lishi mumkin. Chunki "Majolis"da qo'llangan qurilma bo'yicha zikr etilgan voqea tavsiflanmishning o'z vatanida yuz bergan esa, Navoiy shoir vatanini tilga olish bilan kifoyalangan. Agar shoir boshqa joyga ko'chib borgan bo'lsa, ayni asar yozilayotgan davrda muqim turgan joyi ta'kidlangan masalan, "Andijondindur, so'ngra Samarqandga bordi"). Shunga qaraganda, Riyoziyini samarqandlik deyish asnosida Navoiy voqea Samarqandda bo'lganiga ham ishora etgan.

Navoiyning Samarqandda yashash tarzi qanday bo'lgani borasidagi ma'lumotlar bir-biriga zid. Jumladan, Zahiriddin Bobur «Boburnoma»da Alisherbekka Samarqandda Ahmad

¹²⁶ O'sha erda.

Hojibek murabbiy va muqavviy (homiyl) bo'ldi¹²⁷ deyishidan uning hokim tomonidan moddiy qo'llab-quvvatlanganligini bilish mumkin. Faxriy Hirotiy negadir bu davrda shoir nochor ahvolda yashagan degan fikrni bildiradi¹²⁸. Har ikkala muallif ham Navoiyning kichik zamondoshlari va e'tiborga loyiq fozillar sanalishi tufayli masalaning yechimi, tabiiyki, uchinchi ovozni, tarozi pallasidagi mulohazalar muvozanatini uzil-kesil hal qilishi mumkin bo'lgan yana bir xolis manba bo'lishini taqozo etadi. Afsuski, u yo'q. Ana shu muammoga duch kelgan ko'pgina navoiyshunoslar uning yechimini buyuk shoir ijodidan izlaganlar. Ye.E.Bertels Navoiyning Samarqandga kelganidan so'nggi kayfiyatini bildirish niyatida shoirning «Hayrat ul-abror» dostonidagi o'n birinchi maqolatda keltirilgan yosh tolibi ilmning katta shahardagi ahvoli bayoniga suyanadi va "Alisher she'rda tasvirlangan kabi kambag'al sifatida kelmagan bo'lsa ham, ammo begona shaharda yoru birodarsiz, kimsasizlikdan o'zini yo'qotib qo'yish hollari kam bo'lmagan bo'lsa kerak", deb xulosa chiqaradi.¹²⁹ Xuddi shu she'r V.Abdullaevning kitobida ham¹³⁰, Izzat Sultonning kitobida ham keltiriladi.¹³¹ V.Abdullaev uni qashshoqlik va muhtojlikka izoh sifatida keltirsa, Izzat Sulton muhtojlik va mag'rurlik tasdig'i sifatida ko'rsatgan. Ye.E.Bertels ham, unuman olganda, Navoiyning Samarqanddagi hayotini qashshoqlikda o'tgan deb hisoblaydi.

Taxminimizcha, Zahiriddin Bobur o'z xulosasida Xondamirdan eshitganlari va «Makorim ul-axloq» asarida shoirning Samarqanddagi hayotidan keltirilgan lavhalar ruhiyatidan kelib chiqqan bo'lsa kerak. Faxriy esa Navoiyning o'z og'zidan eshitganlari asosida "sovuq kechalarning birida Alisherning hammomga borish zarurati tug'ilgani va hammomchiga yonidagi juzvdonini garovga qo'yimoqchi bo'lsa

¹²⁷ Бобурнома, - Б. 153.

¹²⁸ Фахрий Ниротий. Латифнома, - Б.133.

¹²⁹ Навои и Джамии. - С.80.

¹³⁰ Навоий Самарқандда. - Б.32 - 35.

¹³¹ Навоийнинг қалб дафтари. - Б. 174 - 179.

ham, u qabul qilmaganligi” voqeasini keltirish bilan uning hayoti og‘ir kechganligini ta’kidlamoqchi bo‘lgan.¹³²

Samarqand hokimining qaramog‘ida bo‘lgan shoirning nochor umr kechirganiga ishonish qiyin. Faxriyning ma’lumotiga istisno sifatida qarash ham mumkin.¹³³ Albatta, Faxriy keltirganicha, shoir Samarqandda yashagan paytida o‘ta kambag‘al edi deyish uncha to‘g‘ri bo‘lmas. Chunki Bobur ta’kidlagani kabi, hokim o‘z suhbatdoshi - iqtidorli shoirga hech bo‘lmaganda vaqf pullaridan maosh tayinlashi aniq edi. Tayinlaganda ham Ahmad Hojibekdek san’atsevar va shoir kishi Alisher uchun yetarli miqdorda maosh berishi turgan gap edi (xuddi Amir Alisher shoirlarga vaqf pulidan maosh tayinlaganligi kabi). Tabiiyki, keyinroq katta mulk egasiga aylangan ulug‘ Amirning o‘tmishi haqida gapirganda uning Samarqanddagi o‘rtahol umrguzaronligi Faxriyga “ayanchli, nochor” bo‘lib ko‘ringan. Buning tasdiq‘ini quyidagi ma’lumotni ilova etganida ham ko‘rish mumkin:

“Sulton sohibqiron (Husayn Boyqaro) mazkur amirni (Alisherni) talab qilib Sulton Ahmad mirzoga xat yozgan, (uni olib kelish uchun) kishi yuborgan. (Sulton Ahmad mirzo) uni munosib anjomlar bilan Sulton sohibqiron huzuriga jo‘natdi. Amir Hirotga qarab yo‘l oldi va xizmat qilish davlatiga muayassar bo‘ldi”.¹³⁴ Shu faktning o‘zi ham uning Samarqandda chor-nochor va kimsasiz yashamaganligiga dalolatdir. Garchi u muayyan lavozimda bo‘lmagan, esa-da, hokimga yaqin inson maqomida bo‘lgan ko‘rinadi, aks holda, uni Hirotga keltirish uchun Samarqand hokimiga maxsus noma yuborilmas edi.

Samarqand Alisher Navoiy hayotida alohida o‘rin tutadi. XV asrning ikkinchi yarmida Samarqand ilm-fan markazi sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotgani borasidagi rus olimlarining

¹³² Фахрий Ниротий. Латифнома. - Б. 134.

¹³³ Е.Э.Бергеле шундай hisoblayди.

¹³⁴ Фахрий Ниротий. Латифнома. - Б. 134.

ta'kidlarini bahs doirasiga tortishning hojati yo'q. Chunki bunday qarashlar ancha yillar oldin akademik Vohid Abdullaev tomonidan ancha jiddiy qoralangan va yetarlicha dalillar asosida uning aksi isbotlab berilgan edi.¹³⁵

Bu davrda Samarqand obod diyor bo'lib, Mirzo Ulug'bek tomonidan asos solingan jahoniy ilm-fan markazi an'analari hali so'nmagan, islomiy ilmlarning allomalari hanuz xanafiylik ta'limotini mukammal o'qitish bilan band edi.

Manbalarda Navoiyning Samarqandda necha yil yashagani haqida aniq bir fikr aytilmagan. Shoirning o'zi "Samarqandda ikki yil Fazlulloh Abu Laysiy qo'lida tahsil oldim", - deydi.¹³⁶ Bu - birinchi fakt. Samarqanddagi hayoti shu bilan tugagan, tahsildan oldin yoki keyin Samarqandda yashagan yo yashamaganligi haqida aniq ma'lumot bermagan. Samarqandda, Ahmad Hojibekning yaqin suhbatdoshi sifatida saroyda e'tiborli zot bo'lsa-da, ammo rasmiy ravishda Ahmad mirzo mulozimi emasdi. Chunki Navoiy bu davrdagi hayoti haqida «Vaqfiya»da shunday yozib qoldirgan: "...bu haqir hech nav' xizmatqa o'z qobiliyatimni chenamagan jihatdin va hech turluk mashaqqatqa o'z quvvatimni anglamag'on sababdin borcha tamanno eshigin yuzumg'a madrus va jam' muddaolar avbobin ilayima masdud qilib erdim".¹³⁷

Boshqa manbalarda uning bir necha yil yashaganligi umumiy tarzda qayd etilgan, xolos. Ikkinchi qo'limizdagi aniq fakt, bu Navoiyning Samarqanddan Hirotga qaytish sanasidir va u Sulton Husaynning 1469 yili Hirot taxtiga o'tirishi bilan bog'liq. Shundan kelib chiqib navoiyshunoslar Navoiy Samarqandda to'rt yil, ya'ni 1465 - 1469 yillari yashagan deb ta'kidlaydilar.¹³⁸ Ammo nega aynan 1465 yil? Manbalarda

¹³⁵ Qarang: Абдуллаев В. Навоий Самарқандда. - Тошкент: Адабиёт ва сан'ат, 1968.

¹³⁶ Мажолис ун-нафоис. - Б.33.

¹³⁷ Алишер Навоий. Вақфия. - Б.246.

¹³⁸ Ойбек Навоий Самарқандга 1466 йилда келган ва у ерда уч йил

ham, u qabul qilmaganligi” voqeasini keltirish bilan uning hayoti og‘ir kechganligini ta’kidlamoqchi bo‘lgan.¹³²

Samarqand hokimining qaramog‘ida bo‘lgan shoirning nochor umr kechirganiga ishonish qiyin. Faxriyning ma’lumotiga istisno sifatida qarash ham mumkin.¹³³ Albatta, Faxriy keltirgancha, shoir Samarqandda yashagan paytida o‘ta kambag‘al edi deyish uncha to‘g‘ri bo‘lmas. Chunki Bobur ta’kidlagani kabi, hokim o‘z suhbatdoshi - iqtidorli shoirga hech bo‘lmaganda vaqf pullaridan maosh tayinlashi aniq edi. Tayinlaganda ham Ahmad Hojibekdek san’atsevar va shoir kishi Alisher uchun yetarli miqdorda maosh berishi turgan gap edi (xuddi Amir Alisher shoirlarga vaqf pulidan maosh tayinlaganligi kabi). Tabiiyki, keyinroq katta mulk egasiga aylangan ulug‘ Amirning o‘tmishi haqida gapirganda uning Samarqanddagi o‘rtahol umrguzaronligi Faxriyga “ayanchli, nochor” bo‘lib ko‘ringan. Buning tasdig‘ini quyidagi ma’lumotni ilova etganida ham ko‘rish mumkin:

“Sulton sohibqiron (Husayn Boyqaro) mazkur amirni (Alisherni) talab qilib Sulton Ahmad mirzoga xat yozgan, (uni olib kelish uchun) kishi yuborgan. (Sulton Ahmad mirzo) uni munosib anjomlar bilan Sulton sohibqiron huzuriga jo‘natdi. Amir Hirotga qarab yo‘l oldi va xizmat qilish davlatiga muyassar bo‘ldi”.¹³⁴ Shu faktning o‘zi ham uning Samarqandda chor-nochor va kimsasiz yashamaganligiga dalolatdir. Garchi u muayyan lavozimda bo‘lmagan, esa-da, hokimga yaqin inson maqomida bo‘lgan ko‘rinadi, aks holda, uni Hirotga keltirish uchun Samarqand hokimiga maxsus noma yuborilmas edi.

Samarqand Alisher Navoiy hayotida alohida o‘rin tutadi. XV asrning ikkinchi yarmida Samarqand ilm-fan markazi sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotgani borasidagi rus olimlarining

¹³² Фахрий Ниротий. Латоифнома. - Б. 134.

¹³³ Е.Э.Бергеле шундай ҳисоблайди.

¹³⁴ Фахрий Ниротий. Латоифнома. - Б. 134.

ta'kidlarini bahs doirasiga tortishning hojati yo'q. Chunki bunday qarashlar ancha yillar oldin akademik Vohid Abdullaev tomonidan ancha jiddiy qoralangan va yetarlicha dalillar asosida uning aksi isbotlab berilgan edi.¹³⁵

Bu davrda Samarqand obod diyor bo'lib, Mirzo Ulug'bek tomonidan asos solingan jahoniy ilm-fan markazi an'analari hali so'nmagan, islomiy ilmlarning allomalari hanuz xanafiylik ta'limotini mukammal o'qitish bilan band edi.

Manbalarda Navoiyning Samarqandda necha yil yashagani haqida aniq bir fikr aytilmagan. Shoirning o'zi "Samarqandda ikki yil Fazlulloh Abu Laysiy qo'lida tahsil oldim", - deydi.¹³⁶ Bu - birinchi fakt. Samarqanddagi hayoti shu bilan tugagan, tahsildan oldin yoki keyin Samarqandda yashagan yo yashamaganligi haqida aniq ma'lumot bermagan. Samarqandda, Ahmad Hojibekning yaqin suhbatdoshi sifatida saroyda e'tiborli zot bo'lsa-da, ammo rasmiy ravishda Ahmad mirzo mulozimi emasdi. Chunki Navoiy bu davrdagi hayoti haqida «Vaqfiya»da shunday yozib qoldirgan: "...bu haqir hech nav' xizmatqa o'z qobiliyatimni chenamagan jihatdin va hech turluk mashaqqatqa o'z quvvatimni anglamag'on sababdin borcha tamanno eshigin yuzumg'a madrus va jam' muddaolar abvobin ilayima masdud qilib erdim".¹³⁷

Boshqa manbalarda uning bir necha yil yashaganligi umumiy tarzda qayd etilgan, xolos. Ikkinchi qo'limizdagi aniq fakt, bu Navoiyning Samarqanddan Hirotga qaytish sanasidir va u Sulton Husaynning 1469 yili Hirot taxtiga o'tirishi bilan bog'liq. Shundan kelib chiqib navoiyshunoslar Navoiy Samarqandda to'rt yil, ya'ni 1465 - 1469 yillari yashagan deb ta'kidlaydilar.¹³⁸ Ammo nega aynan 1465 yil? Manbalarda

¹³⁵ Qarang: Абдуллаев В. Навоий Самарқандда. - Тошкент: Адабиёт ва сан'ат, 1968.

¹³⁶ Мажолис ун-нафоис. - Б.33.

¹³⁷ Алишер Навоий. Вақфия. - Б.246.

¹³⁸ Ойбек Навоий Самарқандга 1466 йилда келган ва у ерда уч йил

Navoiyning Samarqandga kelish sanasi ko'rsatilmagan. U o'zi aytgancha, ikki yil tahsil olgan, Bobur tasdiqlaganidek, Ahmad Hojibekning homiyligi ostida kun kechirgan. Shundan boshqa aniqlashtiruvchi ma'lumotlar manbalarda uchramadi.

Shoirning Samarqanddagi hayotini oydinlashtiruvchi ayrim ma'lumotlar mavjud. "Ravzat us-safo"da quyidagicha yoziladi: "...az Xuroson ba Samarqand rafta dar xonaqohi Xoja Jaloliddin Fazlulloh, sokin gasht va aksar avqotro ba mutolaa masruf dosht. Gohi bo Amir Darvish Muhammad Tarxon va Amir Ahmad Hojibekki, sohibixtiyori sari kori Movarounnahr budand, ixtilot menamud to dar in ayyomki, Mirzo Sulton Ahmad bino bar tavajjuhi xoqoni mansur ba subhi Xuroson az obi Amuya guzasht va amir Alisher niz hamrohi urdu ravon shuda bud. Ba'd az tahqiqi xabari voqeai Sulton Abu Sa'id va istiloi xoqoni mansuri muzaffarlivo bar baldai foxirai Hirot az amir Hojibek ruxsat talabida ijozat hosil namuda va ruy ba Hirot ovard".¹³⁹ (...Xurosondan Samarqandga ketib, Xoja Jaloliddin Fazlulloh, (Abu Laysiy) xonaqosida yashadi. Asosiy vaqtini mutolaa bilan o'tkazdi. Gohida Movarounnahr davlati ishlarining sohibixtiyori Amir Darvesh Muhammad Tarxon va Amir Ahmad Hojibek bilan suhbat qurardi. Bu hayot shungacha davom ettiki, Mirzo Sulton Ahmad Husayn mirzoga qarshi Amudan kechib, Xurosonga yurish qilganda Amir Alisher ham uning urdusida edi. Abu Sa'id mirzo o'limi voqeasi va Husayn Boyqaroning Hirotni istilo etganligi haqidagi xabar aniqlangandan so'ng Ahmad Hojibekdan ruxsat olib Hirotga yuzlandi.)

ALISHER NAVOIYNING BALOG'AT DAVRI

Alisher Navoiy Husayn Boyqaro saroyiga chaqirilgunga qadar uch sulton xizmatida bo'ladi: Abdulqosim Bobur, Abu

bo'lgan deb hisoblaydi. Qaran: Oйбек. Мукаммал асарлар то'плами. Т.ХИ. - Б.113.

¹³⁹ Ravzat us-safo. Bosma. - Lakhnaу, XIX asr. VII jild. - B.15.

Sa'id mirzo va Sulton Ahmad mirzo. Bu davrlarga aloqador ma'lumotlar, asosan, yuqorida ko'rib o'tilganlardan iborat. Navoiyning shaxsan o'zi, u yoki bu sulton xizmatida bo'lganligiga ishora beruvchi ba'zi juz'iy tafsilotlarni hisobga olmaganida, xizmat vazifalari haqida biror-bir e'tiborga loyiq ma'lumot qoldirmagan. Juz'iy ma'lumotlar nimalardan iborat? Masalan, Abulqosim Bobur mirzo davriga oid ma'lumot "Majolis"da mavjud. Unda Xoja Hasan Xizrshoh Astrobodyning Abulqosim Bobur vafotidan so'ng Mashhadda og'ir kasal bo'lib qolgan va Alisherning ko'magi bilan sihat topishi aytilgan. Bundan Alisher Abulqosim Bobur vafotidan so'ng Mashhadda qolganligi yana bir karra tasdiqlanadi. Ammo o'zining Abulqosim Bobur saroyidagi xizmati haqida gapirmagan. Abu Said huzuridagi xizmat vazifalarini esa, ochiq gapirmasa ham, ba'zi voqealardan Abu Said mirzo davrida Alisher Hirotda saroy amaldorlari bilan aloqada bo'lgani va qandaydir vazifa bilan shug'ullanganligi anglashiladi. Jumladan, uning yaqin do'sti Shayximbek Abu Saidning xos mulozimi, hurmatli kishisi Mavlono Abdusamad Badaxshiy Abu Said tarixini yozayotgan e'tiborli olim ekanligi uning saroyga yaqin turganligini tasdiqlaydi.

Samarqandda Ahmad Hojibekning yaqin suhbatdoshi sifatida saroyda e'tiborli zot esa-da, ammo rasmiy ravishda Sulton Ahmad mirzo mulozimi bo'lgani to'g'risida gapirmagan. Chunki Navoiy bu davrdagi hayoti haqida, avval aytilganidek, "Vaqfiya"da shunday yozib qoldirgan: "...bu haqir hech nav' xizmatka o'z qobiliyatimni chenamagan jihatdin va hech turluk mashaqqatka o'z quvvatimni anglamag'on sababdin borcha tamanno eshigin yuzumga madrus va jam' muddaolar avbobin ilayimga masdud qilib erdim".¹⁴⁰ Ammo "Makorim ul-axloq"da Navoiyning Sulton Ahmad urdusida xizmat qilgani va Amir Sulton Hasan Arxangiyning navkari bo'lganiga ishora bor.¹⁴¹

¹⁴⁰ Аlisher Навоий. Вақфия. - Б.246.

¹⁴¹ Макорим ул-ахлоқ / М. Фахриддинов ва П. Шамсиев тарж. - Б.97.

Sulton Husayn Boyqaro 1469 yili Xuroson taxtini egallagach, Alisher Samarqanddan Hirotga qaytadi. Alisher Hirotga yangi hukmdor tomonidan rasman chaqirilganmi yoki yo'qmi, negadir, tarixchilar ushbu masalani yoritmaganlar. 1481 yili Navoiy tomonidan yozilgan "Vaqfiya"da uning Samarqanddan qaytishi sultonning xohish-irodasi bilan yuz bergani va bu haqda farmon-maktub yuborilganligi borasidagi qayd bu masalaga oydinlik kiritadi. Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn..." va Mirxondning "Ravzat us-safo", Xondamirning "Xulosat ul-axbor" tarixiy asarlari, Xondamirning Navoiy hayoti va fazilatlari haqida maxsus yozilgan "Makorim ul-axloq" asarida Navoiy o'z tashabbusi bilan kelgan degandek talqin bor.¹⁴² "Vaqfiya" 1481 yili yozilgan bo'lsa-yu, undan aniq xabardor Xondamir nega o'z asarlarida bu jihatni yoritmagan? Chunki "Vaqfiya" xizmat va moliyaviy hujjat sifatida keng o'quvchilar ahliga mo'ljallanmagan. Shuning uchun Navoiy o'z tabiatiga xilof ravishda, manmanlikka yo'yilishi mumkin bo'lgan ikki jihatni qayd etishga majbur bo'lgan. Biri, garchi avval-boshdan xilvatga chekinsa-da, Husayn Boyqaroning qistovi bilan davlat xizmatiga tortilgani, ikkinchisi shaxsiy mulki hajmini ko'rsatishdir. Darhaqiqat, Navoiydek mukammal taqvo sohibi va donishmand faylasuf o'zining katta mol-mulkini birma-bir sanab, vaqf qilinmishlarni risola tarzida vasf etishi g'oyatda ziddiyatli. Muqaddimada Sultonga atalgan ko'ngil izhorlariga qaraganda, ushbu kitob sultonga taqdim qilingan. Bunda Navoiy quyidagilarni ko'zda tutgani yaqqol seziladi: Sulton Husayndan shon-sharaf va davlat sohibi etganligi uchun minnatdorlik izhori va, shu bilan birga, mol-dunyo yig'ishga majbur bo'lishi o'zi istamagan holda yuz berganiga ishora. Navoiy asarlarida va hatto Xondamirning unga bag'ishlangan ma'lumotlaridan ham ko'rinib turadiki, u o'z muvaffaqiyatlarini yuksak tavoze' va kamtarlik nuqtai nazaridan g'oyat nozik pardalarda ifodalash tarafdori bo'lgan. (Shoir

¹⁴² Matlai sa'dayn va majma' baхrain. Qo'le'zma. 331^a-vараq; Ravzat us-safo. Bosma. - B.70; Xulosat ul-axbor. Qo'le'zma. 60^a-vараq.

nazmidagi faxriyalar alohida mavzu - Sh.S.) Ammo "Vaqqiya" o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, Navoiyni ochiq gapirishga majbur qilgan yagona istisnodir. Demak, Navoiy yuksak nazokat va farosat yuzasidan o'zining Hirotgga chaqirilishi rasmiy ravishda yuz berganligini tarixda qayd etish nokamtarlik bo'ldi deb hisoblagan. Navoiyning yaqin kishilari «Vaqqiya» mazmunidan bexabar bo'lgan deyish qiyin. Ayniqsa, Xondamir Amir Alisherning kotibi ekanini nazarda tutsak, u kitob mazmunidan aniq xabardor bo'lgan. Demak, u ham tarix kitobida uning xohishi bilan ish tutib, kamtarona qaydlar bilan kifoyalangan, shekilli. Faqat ancha muddat o'tib, Navoiy vafotidan keyingina uning yosh zamondoshi Faxriy Hirotiy bu masalani ochiq qayd etadi. U shunday yozadi: "Sulton sohibqiron mazkur amirni talab qilib Sulton Ahmad mirzoga xat yozdi, (uni olib kelish uchun) kishi yubordi. (Sulton Ahmad mirzo) uni munosib anjomlar bilan Sulton sohibqiron huzuriga jo'natdi. Amir Hirotgga qarab yo'l oldi va xizmat qilish davlatiga muayassar bo'ldi".¹⁴³ Faxriy Hirotiy ma'lumoti bir necha yil keyinroq Som mirzo tomonidan yozilgan "Tuhfa-i Somiy" tazkirasida ham aynan takrorlanadi.¹⁴⁴

Manbalarda kuzatilgan ushbu ikki xil yondashuv navoiyshunoslarimizni ancha chalg'itgan. V.V.Bartold Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond va Xondamir asarlari Navoiy rahbarligida yozilganini ro'kach qilib, Faxriy axborotini inkor etadi.¹⁴⁵ Olim Sharafiddinov Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadqiqotining birinchi nashrida «Sulton Husayn do'sti Navoiyni esga olib uni Hirotgga chaqiradi»¹⁴⁶ desa, ikkinchi qayta nashrida: "Som Mirzo tomonidan berilgan bu ma'lumot boshqa mo'tabar manbalarda uchramagani uchun unga bir hikoya sifatida qarash lozim"¹⁴⁷ deydi. Oybek bunga chiroyli

¹⁴³ Фахрий Ниротий. Латонфнома. - Б.134.

¹⁴⁴ Сом Мирзо Сафавий. Тухфа-йи Сомий. 167^н-варақ.

¹⁴⁵ Бартолд В.В. Мир Али Шир и политическая жизнь. - С.226.

¹⁴⁶ Шарафиддинов О. Алишер Навоий. Наёти ва ижоди. - Тошкент: О'здавнашр, 1948. - Б.40.

¹⁴⁷ Шарафиддинов О. Алишер Навоий. - Тошкент: Адабиёт ва сан'ат,-

uydirmalarga moyil yozuvchilarning «shoirona afsonasi» sifatida qaraydi.¹⁴⁸ Shu tariqa masala yechilmasdan qoldi. Ancha yillardan so‘ng ushbu mavzuga qaytgan professor A. Abdug‘afurovning maqolasidan keyin aniq to‘xtamga kelindi. “Vaqqfiya”dagi masnaviyning keyingi baytlarida, _ deb yozadi olim, - Husayn Boyqaro maktubining bosh maqsadi bayon etiladi, shu qismda uning chindan ham yorliq-farmon xarakterida ekanligi aniq-ravshan yuzaga chiqadi. Navoiy uni bir o‘rinda “tavqe” (shoxning maxsus belgisi qo‘yilgan farmon-yorliq) so‘zi bilan ifodalasa, ikkinchi o‘rinda ochiqdan-ochiq “hukm” deb ataydi. Yangi hukmron Navoiyni saroyga rasmiy taklif etar ekan, endilikda “go‘sha tutish vaqti emas” deb ta’kidlaydi, ijtimoiy-ijodiy faollikka chaqiradi, unga katta va’dalar berib, “bori ishlaring shu qadar avj oladiki, oy yuzasiga ham qadam qo‘yajaksan” deb yozadi. Qisqasi, Husayn Boyqaro maktub hukmini olish hamono Navoiyning tezlik bilan saroyga - Hiriya kelishiga hamda “xizmatga belni bog‘lashga” da’vat etadi.¹⁴⁹ R.Vohidov ham “Majolis un-nafois”ning tarjimalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotida “Vaqqfiya”dagi qaydlar Faxriy Hirotiy ma’lumotlari bilan yanada mukammallashishini ta’kidlagan¹⁵⁰. Husayn Boyqaro Sulton Ahmad mirzoga haqiqatda ham maktub yozgan bo‘lishi mumkin. Birinchidan, Navoiy Ahmad Hojibekning yaqinlaridan bo‘lgani uchun Husayn Boyqaro shohlik rasmi - diplomatiya qonun-qoidalariga muvofiq, qolaversa, yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida boshqa davlat hududidan, ayniqsa, saroyga yaqin insonlardan biriga o‘ziga xizmat qilishni so‘rayotgani uchun uning homiylariga xat yoki farmon yuborganligiga ishonish mumkin. Ammo farmonning nusxasi hozircha topilgani yo‘q.

Б.56.

¹⁴⁸ Ойбек. Адабий-танқидий мақолалар // Мукамал асарлар то‘плами. Т.ХШ. — Б.115.

¹⁴⁹ Абдуг‘афуров А. Навоийга Нусайн Бойқаронинг мактуб-ёрлиғ‘и // Шарқ юлдузи. 1973. №1. - Б.225 - 232.

¹⁵⁰ Болидов Р. «Мажолис ун-наfois»нинг таржималари. - Тошкент: Фан, 1984. - Б.31.

XVI asrning 2-yarmi - XIX asr yozma manbalarida Navoiyning Boyqaro saroyiga kelish tafsiloti Faxriy ma'lumotlari asosida yoritilgan. U ham bo'lsa, sanoqli asarlarda, faqat Abdulmo'minxonning "Tom ut-tavorix" (XVI asr oxiri), Husaynquli Dzimobodyning "Nashtari ishq" (XIX) va undan foydalanib yozilgan "Ruzi ravshan" (XIX asr) tazkiralari uchradi. "Tom ut-tavorix" muallifi, garchi Faxriy ma'lumotiga asoslansa-da, ayrim unsurlar uning Xondamir va Davlatshoh asarlaridan yaxshi xabardor ekanligini ko'rsatdi. "Nashtari ishq" muallifi ham Navoiy ijodi haqida gapirar ekan, to'laligicha Vola Dog'istoniyning "Riyoz ush-shuaro" tazkirasidagi ma'lumotlarni takrorlaydi. Ammo tarjimai hol qismida ko'proq ilk manbalardan biriga, xususan, Som mirzoning "Tuhfai Somiy" tazkisasi ma'lumotlaridan foydalangani aniqlandi. Som mirzo esa o'z asarida kimning ma'lumotlariga suyangani yuqorida ko'rib o'tdik.

Navoiyning saroy bilan bog'lik asosiy faoliyati Husayn Boyqaro dargohida kechgan bo'lib, uning tarjimai holidagi asosiy bosqich hisoblanadi.

Alisher Navoiy Sulton Husayn Boyqaro saroyida qanday rasmiy mansablarni egallagani tarixiy manbalarda voqeahodisalar bayoni jarayonida ko'rsatib o'tilgan. Ammo uning hukumatdagi vazifalari va vakolatidagi tarmoqlar tavsifi keltirilmagan. Uning oddiy vazirlik davri qisqa bo'lib, muhrdorlik lavozimida ishlagan 1469 - 1471 yillarni o'z ichiga oladi. Muhrdorlik mansabidagi vazifa va burchi o'z-o'zidan ravshan. Bosh vazir lavozimida Amir Alisher qanday vazifalarni bajargani yoki, rasmiy tarzda aytganda, davlat boshqaruvining qaysi sohalariga mas'ul bo'lganini aniqlash mumkinmi? Navoiy "Vaqqfiya"da pardali qilib ularni ham aytib o'tgan. Unda sulton tomonidan Navoiy zimmasiga yuklangan vazifalar birma-bir qayd etilgan.

Agar bu vazifalarni tartibga keltirsak, uning bosh vazir - devon sohibi sifatida mas'ul bo'lgan soha va tarmoqlar haqida tasavvur olish mumkin. Jumladan:

1. Turli xalq yig'inlari va umumxalq tadbirlari.

2. Tashqi ishlar. Ulug‘ mehmonlarni rasmiy qabul qilish va kuzatish.

3. Favqulodda holatlar, isyonlar, chegara muammolari.

4. Poraxo‘rlikka qarshi kurash.

5. Talonchilik va bosqinchilikka qarshi kurash.

6. Sud-adliya.

7. Viloyatlardan tushgan ariza va shikoyatlarni tekshirish.

8. Amnistiya (avf etish).

9. Diniy aloqalar.¹⁵¹

Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida ham uning xizmat vazifalari ko‘lamini oydinlashtirishi mumkin bo‘lgan turli naqlar mavjud. Har holda, Navoiyning o‘z e’tirofi konkretlik darajasi bilan talabga to‘la javob beradi. Albatta, Xondamir ma’lumotlarida Amir Alisherning ijtimoiy-siyosiy faoliyatini yanada yorqinroq tasavvur qilish imkoniyati keng. Chunki Alisher Navoiyning Sulton Husayn dargohida ko‘rsatgan faoliyati, ko‘proq, Xondamir asarlarida yoritilgan. O‘sha davr mualliflarining birortasi, tabiiyki, Xondamir kabi keng va batafsil ma’lumotga ega bo‘lishining iloji ham yo‘q edi.

XV asr mualliflari uning ma’lumotlaridan imkon qadar foydalangan esalar-da, yuqorida ko‘rib o‘tilgan ayrim istisnolarni hisobga olmaganda, unga qo‘shimcha bo‘ladigan ma’lumot keltira olmaganlar. (O‘z o‘rni bilan Xondamir ma’lumotlari ustida batafsil to‘xtalamiz.)

XX asrgacha yaratilgan forsiy yozma manbalarda Navoiyning balog‘at davri, xususan, Sulton Husayn saroyidagi mulozamat davri juda kam yoritilgan. Ko‘pgina o‘rinlarda “Alisher Navoiy Sulton Husaynning vaziri edi” iborasi uchraydi, xolos. Bu davrga taalluqli ma’lumotlar, asosan, xronologiyadan

¹⁵¹ Вақфия. - Б. 254 -- 255.

iborat va ular ta'rix janridagi bitiklarda uchraydi. (Bu haqda ta'rixlar bo'limida so'z yuritamiz.)

XULQ-ATVORI

Alisher Navoiy nomi tarix zarvaraqlarida mangu naqshlanishiga uch asos sababligini yaxshi bilamiz. Bular: uning benazir iste'dodidan darak beruvchi buyuk asarlari, mashhur davlat arbobi bo'lgani va, nihoyat, uni ulug' pir maqomiga ko'targan xulq-atvoridir.

Fozillik Sharqda inson ideali sanalgani uchun ham Navoiy davri manbalari va XX asrgacha yaratilib, bizgacha yetib kelgan yozma manbalarning Alisher Navoiy haqida ma'lumot beruvchi deyarli barchasida uning xulq-atvori xususida to'xtab o'tilgan. Bunda ham ikki yondashuv ko'zga tashlanadi: birinchisida Amir Alisherning fazilatlaridan hikoya qiluvchi naqlar orqali inson kamoloti mezonlari targ'ib etilsa, ikkinchisida buyuk tarixiy shaxsning kundalik, hayotdagi ikirchikirlarga munosabatida ko'ringan xulq-atvori bilan xalqni yaqindan tanishtirishga urinadilar. Har ikkala yondashuv ta'sirini XVI - XIX asrlarda yaratilgan barcha manbalarda birdek sezish mumkin.

Davlatshoh uning fe'l-atvorini shunday tavsif etadi: "Munosib do'stlari, (baland) martabali arboblar uning yoqimli suhbatidan minnatdor hamda rozidirlar. Uning himmatli majlislarida qatnashish fozillar tilagi, oliy dargohi fuqaroning murojaatgohi, dasturxonijironzadalar uchun turli nozu ne'matlarga to'la, eshigi muhtojlarga hamma vaqt ochiqdir... Bu ulug' amirning maqbul tabiati va muloyim fe'li sul-ton janoblariga yaqinlik, musulmonlarning muhim ishlariga kafillik, shariat va sunnat, mulku millat ishlarini ravnaq toptirish bilan band bo'lsa ham hamisha fazilat orttirish va ilm bilan mashg'ul. Uning hammajislari xushtab' fozil kishilardir. Uning maqbul xotiri ahli dildan o'zgani istamasdi, og'ir tabiatlilar uning himmat nazariga yengiltak bo'lib ko'rinadilar, noaxllar

yig'inlariga bormaydilar".¹⁵² "Ravzat us-safo"da keltirilishicha, 1470 yilning boshlarida Husayn Boyqaro Imom Rizo mozorini ziyorat qilish uchun Mashhad shaxriga borgan vaqtda Abdulxatib Hirotida qolgan devon mushrifi Qutbiddin Tovus Simnoniy ustidan podshohga shikoyatomuz gaplarni yetkazib, uning lavozimini egallashga erishadi. So'ng xoja Nizomiddin Baxtiyor bilan til birlashtirib, hokimiyatni o'z bilganlaricha bildirib, xalqqa benihoya jabru zulm ko'rsata boshlaydilar. Bu esa, o'z navbatida, xalqning bezovtalanishiga olib keladi. Sulton Husayn bundan xabar topgan zamoniyoq Amir Alisherni Hirotga jo'natadi.¹⁵³ Navoiy Hirotga kelib, Nizomiddin Baxtiyorni xibsga oladi va Qutbiddin Tovusni yana o'z lavozimiga tayinlaydi. «Ravzat us-safo» muallifi asarda biror munosabat bilan Amir Alisher ishtiroki ro'y berayotgan bo'lsa, u albatta, o'zining ulug' Amirga chuqur ehtiromi yuzasidan Alisherga xos xususiyatlarni baholi qudrat voqealar silsilasida ajratibroq ko'rsatishga intiladi. Masalan, yuqorida ko'rib o'tganimiz, ya'ni Sultonning Hirotida tartib o'rnatish uchun amir Alisherni yuborishi va uning sotqin, zolimlarni jazolashi "Matlai sa'dayn.."da quruq bayon shaklida berilgan.¹⁵⁴ Mirxond esa o'zi yaxshi bilgan kishining xarakterini to'laroq ochib berishni lozim topgan: "Amir Alisher avval shaharga borib, o'zining tabiiy odatiga ko'ra befoyda kunlardan ularning (xalqning) ko'ngillariga yetgan zaxmlarga malham qo'ydi. Sitamdiyda mazlumlar ko'nglini ovlash bobida to'la ehtimom ko'rsatdi va zolimlarning zulmi da'figa kirishdi va buyurdiki, avval oliy yorliqni jum'a kuni minbardan turib o'qib eshittirsinlar... Shu sababdan xalqning ko'ngli tinchu osuda bo'lib, podshohning davlatu iqboli davom etishining hamdu sanosi va Amir Alisher-ning ulug'ligi va shuhrati ortishi duosiga qo'l ochdilar".¹⁵⁵

¹⁵² Давлатшох Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. - Б.190.

¹⁵³ Равзат ус-сафо. Босма. - Б.19; Равзат ус-сафо. Қо'лёзма. О'зРФА ШИ, инв. №1950. VI жилд. 37"-варақ.

¹⁵⁴ Матлаи са'дйн ва мажмаи баҳрайн. 341"-варақ.

¹⁵⁵ Равзат ус-сафо. VII жилд. - Б.19.

Navoiyning ma'naviy qiyofasini to'la aks ettiruvchi asar, shubhasiz, "Makorim ul-axloq" (Xulqlarning yaxshilari) hisoblanadi. Xondamir ulug' murabbiyning ilm ahliga bo'lgan munosabatini, uning tarbiyasi ostida yetishib chikqqan olimu fozillar, yaratilgan muhim asarlar hamda qurdirgan ma'rifat maskanlari haqida yetarli ma'lumot berar ekan, Navoiyning xulq-atvorini iloji boricha kengroq ko'rsatib berishga harakat qilgan.

Alisher Navoiy davri manbalarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ylug' amirning hazil-mutoyiba va askiyaga o'chligi, shu bilan birga, noziktab'ligi masalasi ham barcha mualliflarning diqqat markazida bo'lgan. Ammo har kim har xil talqin etgan. Xondamir uning noziktab'ligini yuksak insoniy fazilatlar nuqtai nazaridan ochib beradi. Junladan u yozadi: "Sohibqiron bir kish Marv shahrida qishlaganlarida olam ulug'larining panohi (Amir Alisher) ham birga edi. Bir musicha oliy hazratning chodiriga kirib yurdi, hech kim to'qinmagani uchun u yerga uya yasab, tuxum ham qo'ydi. Sayyoralar podshohi (quyosh) Hut qishlog'idan izzat va sharaf manziliga yurish qilgach, Sulton sohibqiron ham Hirot taxtiga yo'nalmoqchi bo'ldi. Musicha esa hali tuxumini ochmagan edi.

Davlatli oliy hazratning zotiy shafqat va tabiiy marhamati shuni taqozo etdiki, musicha tuxum ochib, bolalarini katta qilguncha chodir qimirlatilmay, shunday qoldirilsin. Binobarin, xoja Hasan Baxtiyorga u chodimini muhofazat qilib turishni va musicha bolalarini uchiriq qilgandan so'ng xizmat haqi uchun chodirni o'zi bilan olib ketishini buyurdi".¹⁵⁶ Zahiriddin Bobur shunday keltiradi: "Alisherbekning mizoji nozik bila mashhurdur. El nazokatini davlatining g'ururidin tasavvur qilur edilar. Andor emas erkandur, bu sifat anga jibilliy ekandur. Samarqandda yurg'onda ham ushmundog' nozukmizoj ekandur".¹⁵⁷ Ko'rinib turganidek, Bobur mizoji noziklik deganida uning "sirkasi suv ko'tarmaslik" fe'li mavjudligini

¹⁵⁶ Makorim ul-axloq - B.91.

¹⁵⁷ Бобуринома. - Б.153.

nazarda tutmoqda. Mirzo Haydar ham “Tarixi Rashidiy” asarida Navoiyning tez ranjishdan o‘zga aybi yo‘qligini ta’kidlab o‘tgan.¹⁵⁸ Ayni talqin Zayniddin Vosifiyning “Badoe’ ul-vaqoe’” asarida ham zikr etiladi.¹⁵⁹ Ushbu hol uning bu fe’li haqidagi ma’lumotlar Navoiyning o‘limidan so‘ng yozma adabiyotga olib kirilganligini va Boburning “Alisherbek mizoji noziklik bilan mashhurdir” deganiga qaraganda, bu masala talqini atrofida ko‘p bahsu munozaralar bo‘lganini anglatadi. Zayniddin Vosifiyning bu masalani yoritishga maxsus intilgani ham shundan dalolat berib turibdi.¹⁶⁰ Hatto mazkur mavzuga alohida bob bag‘ishlagan. Unda keltirilishicha, Mir ulfatchilikni qo‘msab o‘z do‘stlarini kechki ovqatga taklif etadi va: “Taom suzilar haddida hurmatli do‘stining bemorligi yodiga tushib, Sohibdoroni uni ko‘rib kelishga jo‘natdi. Taomdan so‘ng barcha ulfatlar Alisherbekning kayfiyatidan uning ko‘ngli yolg‘izlik istab qoldi, degan andishada birin-ketin turib tashqariga chiqdilar. Bu esa Mirning ko‘ngliga og‘ir botdi va shu payt bemor yonidan qaytib

¹⁵⁸ Тарихи Рашидий. Қо‘л ёзма. 121^б-варақ

¹⁵⁹ Бадое’ ул-вақое’ / Форсчадан Н.Норзулов таржимаси. - Тошкент: Адабиёт ва сан’ат, 1979. - Б.94 - 95.

¹⁶⁰ Бу масала олимлар томонидан турлича шарҳланган. Масалан, Ойбек Алишернинг Самарқанддаги гу’урури ва табиатининг нозиклигини захмат ва машаққатларга схидаш, кулфатларни о‘з ишига ютиш деб билади (Алишер Навоий. - Б.17). В.В.Бартолд Бобур келтирган «назокат» со‘зини «высокомерие» - «калондимог‘лик» деб таржима қилади. Бу хусусда Ю.Брегел ёзади: «Как показал А.Н.Болдырев, толкование слова «назокат» В.В.Бартолда неверно: его следует понимать в данном случае как «преувеличенная щепетилность, быстрая «необоснованная раздражительность», (Мир Али Шир и полит, жизн. Комментарий Ю.Брегеля. -С.226). Айни ҳолатда А.Н.Болдыров изоҳи жуда то‘г‘ри, Навоийнинг фақру фанога э’тиқодини билган Заһириддин Муҳаммад Бобур «назокат» деганда такаббурликни назарда тутмаган. «Бадое’ ул-вақое’» ва бошқа асарларда усҳровчи фактлар Навоийнинг нозиклиги унинг тез хафа бо‘лиши билан изоҳланишини бир овоздан тасдиқлайди. Иззат Султон ёзади: «...камтаришлик Навоийда hech қачон инсоний иззат-нафе, о‘зига ҳурмат ҳиссини пасайтирмади. Навоийда яхши ма’нодаги нозиклик, инсоний гу’урур бор эди» (Навоийнинг қалб дафтари. - Б. 173).

kelib, xonaga kirgan Sohibdoroqa qattiq ohangda “Alisherning uyi taomxonayu, Alisher oshpaz ekan-da, ulfatlar keladilar-u, osh yeb ketaveradilar”, - dedi. Sohibdoro darhol o‘zini oqlashga o‘tib, uning aybi yo‘qligi va Mirning o‘zi uni bemor huzuriga yuborganligini eslatdi”.¹⁶¹

Mir ikki kun Sohibdoro bilan gaplashmaydi. Sohibdoro bu ahvoldan rosa tang bo‘lib turgan mahalda Mir uni chaqirib, “Ey mavlono Sohib, g‘alat va xatoga yo‘l qo‘ymaslik faqat Parvardigorgagina ravodir. Men kamoli g‘azabim tufayli seni ustod oxundni ko‘rishga jo‘natganimni yoddan chiqargandirman, senga e‘tiroz bildirdim. Sen esa hammaga eshittirib shuni aytishing va Alisherga nima bo‘ldi, qarib aqldan ozibdimi degandek hammaning ko‘z oldida meni sharmanda va xijil qilishing lozimmi? Do‘stlik olami nima bo‘ldi? O‘tinib kuysang-u, mening xatoyimni berkitsang va meni odamlar hayratiga sababchi bo‘lishdan saqlasang bo‘lmasmidi?” - deya dashnom beradi.

Ma‘lumotlar ruhiyatidan bilinadiki, Amir Alisher tab‘i nozikligiga qaramay, hazil-mutoyibaga o‘ch inson bo‘lgan. A.Abdug‘afurov Navoiy satirasiga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotida shunday yozadi: “Navoiy tabiatida kulgi, yumorga moyillikning kuchli ekanligini ko‘rsatuvchi, kulgili holatga muvofiq ravishda kulgining turli daraja va xarakter egallashini ko‘rsatuvchi misollar ko‘p. Bularning shoir zamondoshlari tomonidan zikr etilganligi, ob‘ektiv xarakteri, ayniqsa, qimmatini oshiradi. mo‘tabar manbaga aylantiradi.”¹⁶² “Makorim ul-axloq”da keltirilgan o‘nta latifa va mutoyiba shundan shohidlik beradi. Ular falsafiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, asos-e‘tibori bilan muallif tomonidan ongli ravishda kitob qahramonining turli fazilatlarini ochishga yo‘naltirilgandir.

¹⁶¹ Бадое’ ул-вақое’ / Форесчадан Н.Норқулов таржимаси. - Тошкент: Лабиёт ва сан’ат, 1979. - Б.94 - 95.

¹⁶² Абдуг‘афуров А. Навоий сатираси. - Тошкент: Фан, 1966. 1-китоб. - Б.8

Alisher Navoiyning kundalik turmushdagi ko'pgina hazil-mutoyiba va askiyalari xalq ichida shunchalik mashhur bo'lganki, ular og'izdan-og'izga ko'chib yurgan, hatto keyinroq ba'zi kitoblardan ham o'rin olgan. Bu kitoblarda bayon etilgan askiyalar Xondamir "Makorim ul-axloq"da keltirgani kabi ma'rifiy ahamiyatga ega emas. Ular shunchaki ulug' kishilarining hayotiga doir oldi-qochdi voqealarni berish niyatida kiritilgan. Masalan, Hakimshoh Kazviniy keltirgan latifalar shunga misol bo'la oladi.¹⁶³

Mir Alisher o'ziga qarata farosatsizlarcha aytilgan o'tkir hajvni, yuqorida aytilgan fe'li bois, tezda hazm qila olmagan ko'rinadi. Buni "Badoe' ul-vaqoe'"dagi Majdiddin va Abulvose' Nizomiy o'rtasida bo'lib o'tgan suhbatdan ham bilish mumkin: "(Majdiddin) Abulvose'ga dedi: "Mahdum, yordam bering-u, lekin o'z vaqtingiz va holingizga voqif bo'ling... inshoolloh, yaxshilik bilan o'tsin". Mavlono Abulvose' dedi: "...Ertaga mening majlisga kelmadiganim bo'lsin... shu tufayliki, mana ancha vaqt bo'ldi, siz bilan Alisher o'rtalarida do'stlik niyatlari borasida sizda biroz g'ubor va kek ko'rindi. Alhamdulillah, Oллоh taolo inoyati tufayli bu g'ubor tarqaladigan bo'ldi. Bu majlis va maxfil binosi so'zsiz zaif hazil va yaramas mutoyiba asosiga qurilishi kerak. Mir Alisher olam so'zamollarining peshvosidir. Hech bir imkoni yo'qki, bu majlisda meni askiya qilmasalar. Men u kishini mulohaza qilib, qarshi javob aytmasligim mushkil. Uning nozik mizoj ekanligi sizga ma'lumku! Natijada men tufayli o'rtadagi yarashish (muddaosi) barham yeydi".¹⁶⁴

Ko'rinib turibdiki, ko'pchilik Navoiy muxlislari unga qarshi javob aytishdan istihola qilganlar. Zayniddin Vosifiy ma'lumotlaridan yana bir narsani ilg'ab olish mumkinki, uning Navoiy haqida keltirgan barcha naqlari o'zining adresatiga ega va ular, asosan, Navoiyning yaqin davrasiga taalluqli insonlar bo'lib, hatto naqlarning mazmun-mohiyati ham boshqa

¹⁶³ Hakimshoh Kazviniiy. Tarjuma'yi «Majolis ul-nafois». - B.244.

¹⁶⁴ "Badoe' ul-vaqoe'". - B.98.

mualliflarning shu syujetli ma'lumotlaridan o'zgacha. Masalan, Hakimshoh keltirgan Navoiy va Sohibdoro mutoyibasi Vosifiy tomonidan ham keltirilgan, faqat xulosada tafovut mavjud. Unda "mot bo'lgan Navoiy kulib yubordi va ulovini do'stiga taqdim etdi" tarzidadir.

Xuddi shunday holatlar Navoiy va Kamoliddin Binoiy o'rtasidagi hazil-mutoyibalar bayoniga ham taalluqlidir.

Manbalarda Navoiy va Binoiy munosabatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Ularni o'rganib chiqish Navoiy va Binoiy xarakterlariga xos bo'lgan ayrim muhim nuqtalarni baholash da foydadan xoli emas. "Boburnoma"da ham bu holatga e'tibor berilishi bu ikki buyuk shaxs o'rtalaridagi munosabatlarni oydinlashtirishga qaratilgan qadam sifatida baholanishi mumkin: "(Binoiy) burunlar musiqiydin bexabar ekandur, bu jihatdan Alisherbek ta'n qilur ekandur. Bir yil Mirzo Marvga qishlashga borganda Alisherbek ham borur. Binoiy Hiriya qolur. Ul qish musiqiy mashq qilur, yozgacha oncha bo'lurkin, ishlar borlar. Yozda Mirzo Hiriya kelganda savt va naqsh o'tkarur, Alisherbek taajjub qilub tahsin qilur. Musiqiyda tavr ishlar bog'latur, ul jumladin bir naqshi bor, nuhrangg'a mavsum. Bu to'qquz rangning tuganishi va naqshning maylosi rosttadur. Alisherbekka xeyli mutaarriz ekandur. Bu jihatdan xeyli jafolar tortti. Oxir tura olmay Iroq va Ozarbayjonga Ya'qubbek qoshira bordi. Ya'qubbek qoshida yomon emas edi. Harifi majlis bo'lub edi. Ya'qubbek o'lg'ondin so'ng ul viloyatlarda turmay, Hiriya'ga keldi. Hanuz zarofat va taarruzi bor edi. Ul jumladin biri budurkim, bir kun shatranj majlisida Alisherbek oyorini uzatur. Binoiyning (orqasiga) tegur. Alisherbek mutoyiba bila derki, "Ajab baloest dar Hiriya, agar po daroz mekuni ba (pushti) shoir merasad". Binoiy derkim, "Agar jam mekuni ham ba (pushti) shoir merasad". Oxir bu zarofatlardan yana Hiriya dan Samarqand azimati qildi. Alisherbekki qalin nimalar ixtiro' qilib erdi va yaxshi nimalar ixtiro' qilib edi. Har kishikim, har ishta bir nima paydo qildi, ul nimaning rivoj va ravnaqi uchun "Alisheriy" der edi. Ba'zi zarofat bila Alisherbekka isnod qilurlar edi.

Nechukkim, Alisherbek quloq og'rig'ida yorliq bog'log'on uchun xotunlar ko'k yog'lig'ni qiyiq bog'log'onni "nozi Alisheriy" ot qo'ydilar. Bu jumladan Binoiy Hiriyydin azimat qilur vaqt eshagi uchun polondo'zg'a g'ayri muqarrar polon buyurur, otini "Alisheriy" der, "poloni Alisheriy" g'a mashhur bo'ldi".¹⁶⁵ Manbalarning deyarli barchasida Mir Alisherga o'tkir javoblar aytishdan hayiqmagan yagona inson Kamoliddin Binoiy bo'lganligi va Hirotdan uzoqda yurishga majbur bo'lganining sababi ham shunda deyilgan. Vosifiy Binoiyning o'z tilidan "Amir Alisherning tab'i nozikligi va (mendan) mizoji qaytganligi tufayli Xuroson mamlakatida yashash imkoniyati bo'lmay qoldi. Dumorim taxtgohida Iroq mulki sayri havosiga jazm qildim..." deb keltirgan.¹⁶⁶

Amir Alisher Binoiyning shoir sifatida ancha qadrlagan va o'z navbatida, uning quyushqondan chiqqan so'zlarini ko'tarishga harakat qilgan. Binoiyning Iroqdan qaytib kelgandan so'ng ham Mir Alisher majlisiga taklif etilishi shundan dalolat beradi». ¹⁶⁷

Alisher Navoiy Binoiy bilan o'rtalarida voqe' bo'lgan askiyalarda mardona turgan. Biroq Navoiy askiyadagi axloqsizlik, izzat-nafsga tegish o'z me'yorida bo'lishi tarafdori edi, shu bilan birga, g'arazli kinoyani umuman o'ziga singdira olmagan. Shu o'rinda taniqli navoiyshunos A.Abdug'afurovning Navoiy ijodini o'rganish natijasida chiqargan tubandagi xulosasini keltirib o'tishni ma'qul ko'ramiz: "Navoiy o'rinsiz, asossiz, hayosiz kulgini, zo'rma-zo'raki, yuzaki, faqat kulgi uchun bo'ladigan kulgini odobsizlik belgisi deb ataydi. Bunday paytlarda Navoiyda kulgi termini, ko'pincha, tor ma'noda ham ishlatiladi va u hazil-mutoyiba mazmunlarini ifodalab keladi. Hazil-mutoyiba ma'nosidagi kulgi nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ishlatilishi kerak, ma'lum odob chegarasidan tashqari chiqmasligi, shaxsiyatga tegmasligi, uni haqorat etmasligi kerak.

¹⁶⁵ Бобурнома. - Б.162

¹⁶⁶ Бадое' ул-вақое'. Матни интиқодий. - С.605.

¹⁶⁷ Ко'ратилган асар. - С.616 - 617.

Quruq bema'ni, "tovon kichigini" eslatuvchi kulgilar Navoiy tomonidan qoralanadi".¹⁶⁸ "Makorim ul-axloq" va "Badoe' ul-vaqoe'" asarlarida keltirilgan ko'pgina mutoyibalar shundan dalolat beradi.

Jumladan, "Badoe' ul-vaqoe'" muallifi shunday naql qiladi: "Shunday deydilarki, Mavlono Binoiy Iroqdan kelgan mahallarda bir kuni Mirning fozillar bilan to'la majlisida Mir (Binoiydan) Ya'qubbekning (Oqquyunlilar sultoni - Sh.S.) latiflik va zariflik fazilatlarini haqida so'zlab berishni so'radi. Binoiy dedi:

– Ya'qubbekning latofati va zarofatidan ham maqtagulik fazilati shu ekanki, u turkiy tilda (so'z) aytmas ekan.

Mir (achchiqlanib) dedi:

– Ey Binoiy! Dag'allik va axmoqlikni haddidan oshirib yubording!"¹⁶⁹

Manbalardagi ma'lumotlar umumlashtirib tahlil qilinganda, XVI asr boshida yaratilgan asarlarning deyarli barchasida, Navoiyning tez ranjishlik odati bilan birga, uning kechirimlilik ham qayd etilib, buning tasdig'i sifatida Binoiyning bir necha marta Mir majlisiga qayta taklif etilishi misol tariqasida keltiriladi. Binoiy ham Navoiyni juda hurmat qilgan va unga qator qasidalar bag'ishlagan. Yuqorida mazkur bo'lganidek, Binoiy Iroqdan qaytganda Alisher Navoiy tomonidan yaxshi kutib olingan va mushoaraga taklif etilgan. Binoiy shu paytlarda Amir Alisherga bag'ishlab yoza boshlagan qasidasini tugatib unga jo'natadi.

Ammo mushoarada Navoiyning dilini og'ritib qo'ygani bois eski yarasi yangilangan shoir qasidani qabul qilmaydi. Oqibatda Binoiy qasidani o'zgartirib Samarqand hokimi Sulton Ahmad mirzo nomiga bag'ishlaydi va Amir Alisherni hajv etganicha Samarqandga jo'nab ketadi.

¹⁶⁸ Абдуг'афуров А. Навоий сатираси. - Б.29.

¹⁶⁹ Бадое' ул-вақое'. Матни интиқодий. - С.614.

Mazkur qasida bizgacha yetib kelmagan. Shu tariqa u ancha paytgacha Hirotga qayta olmagan. U hijriy 876 (1471 - 1472) yili Samarqanddan turib Navoiyga bag'ishlab "Majma' ul-g'aroyib" nomli qasida yozgan. Qasida yaratilgan yiliga muvofiq 876 baytdan iborat. U ko'proq Navoiyga uzrxohlik bilan yozilgan "xasbi hol"ga o'xshab ketadi. Bu qasida Navoiyga yetib borganligi ma'lum emas. Tarixdan ma'lumki, Binoiy Sulton Husayn Boyqaro davrida Hirotga qaytmagan va bu qasida haqida Navoiy zamondoshlaridan birortasi ma'lumot qoldirmagan. Hatto Bobur ham "Boburnoma"da bu haqda lom-mim demaydi. Navoiyning o'zi mazkur qasida yozilgan yili qayta tahrirdan chiqargan "Majolis un-nafois" tazkirasida bu haqda eslatmaganligidan qasidaning Navoiyga yetib bormaganligi seziladi. Bizga qasidaning 140 bayti ma'lum bo'lib, u Zayniddin Vosifiyning "Badoe' ul-vaqoe'" asarida keltirilgan.¹⁷⁰

Ilk manbalardan olinadigan tasavvur shundayki, Kamoliddin Binoiyning shoirlik iqtidorini Navoiy chuqur hurmat qilgan. Biroq Binoiy o'zining qaltis askiya va qochirimlari bilan ulug' shoir nafsoniyatiga tekkan holatlar bo'lgan. Mirzo Haydarning "Tarixi Rashidiy" asaridagi mutoyibada shunday deyiladi: "Binoiy ham fozil inson va komil shoirdir. U va Mir Alisher o'rtasida o'tgan askiyalar mashhurdir.

Binoiy Mir Apisherga ko'p qochirim qilar ekan va Mir ham askiya qilib: "Mavlono Binoiy jinni bo'lib qolibdi, uni "Dor ush-shifo"ga eltib no'xat atala va tovoniga urish bilan davolanglar", - degan ekan. Shunda u qochib, Iroqqa ketgan ekan. U yerda Sulton Ya'qub muruvvatidan bahramand bo'lib, bir necha muddat o'tgandan so'ng Hirotga qaytibdi.

Mir Alisher bir kishi orqali uni chaqirtirib va lufu oshnolik ko'rsatib, izzat-ikrom bilan kutib olibdida, o'tgan voqealardan uzrxohlik qilibdi. Binoiy ham o'z askiyalari uchun uzr so'rabdi va ular yarashibdilar. Majlisda Mir Binoiydan iroqliklar qanday taassurot qoldirganliklarini so'raganda, Binoiy

¹⁷⁰ Ko'rsatilgan asar. - S.595 - 605.

iroqliklarning hech ham turkiy she'r yozmaydiganlari zo'r taassurot qoldirganligini aytibdi. Shunda Mir:

- Sen hali ham o'zingga kelmabsan-ku, qo'y bunday qochirimlarni! Do'stlik, ahillik va rostlik yuzasidan gapirchi, bizning devonlardagi qaysi matla yaxshidir? - deb so'rabdi.

Binoiy: - Quyidagi matla' xalqqa yoqadi, - debdi:

**Ko'kragimdur subhning piroxanidin chokroq,
Kiprigim shabnam to'kulg'on sabzadin namrokroq.**

Mir debdi:

- Ajab kinoyago'y odam ekansanda, bu matla' Mavloni Sohibniki-ku! Biz uni sotib olganmiz.

Binoiy dedi:

- Nima deypsiz, sizga piching qilishga qanday haddim sig'adi. Men bu matla' sizniki emasligini bilmas edim. Sizda juda ko'p yaxshi matla'lar bor va mana bunisi undan yaxshi chiqqan:

**Boshimizdin soyai sarvi qading kam bo'lmasun,
Zoti poking bo'lmasa, olamda odam bo'lmasun.**

Mir dedi:

- Bu undan yaxshi va bu matla' Mavloni Lutfiynikidir. (Ammo, aniq bo'ldiki,) sen hech qachon piching kinoyani tark qilmas ekansan!"¹⁷¹

Mazkur latifalar yozma manbalarda zikr etila boshlagach, bu ikki ijodkor munosabati haqidagi naqlar afsonaviy tus olib ketganligini mushohada qilish mumkin. "Boburnoma", "Badoe' ul-vaqoe'", "Latoif ut-tavoif", "Tarixi Rashidiy", "Latoifnoma", "Tuhfai Somiy", Hakimshoh Kazviniy tazkiralari orqali bu ma'lumotlar Hindiston, Eron, Osiyo mamlakatlari hududiga tarqalib, Navoiy davridan uzoqlashgan sari ulug' shoir shaxsiyati bilan bog'liq ko'pgina masalalar o'zaro qorishib, mavhumlik kash eta boshlagan. Davr kechmishi mobaynida Navoiy Binoiy ziddiyati tarixi ixtiro qilingan va askiyalarda Mir Alisherning uylanmasdan o'tishi kabi shoir

¹⁷¹ **Тарихи Рашидий. 122⁶-варақ.**

dunyoqarashi va falsafasi bilan bog'liq masala tilga olinib, noto'g'ri xulosalar chiqarilgan. Shuni alohida e'tiborda tutish lozimki, Binoiy va Navoiy o'rtasida bo'lib o'tgan hazil-mutoyibalar Husayn Boyqaro hukmdorligining ilk pallalariga to'g'ri keladi va ikki zabardast yosh shoirning o'zaro raqobatiga yaxshi ko'z bilan qarash kerak.

XAYRIYA AMALLARI

Alisher Navoiyning xayriya amallari, bunyodkorlik faoliyati, ulamo va fuzaloga ko'rsatgan behad muruvvatlari, faqiru g'ariblarga pushtipanohligi haqida o'z zamonasidan hozirgi davrgacha beto'xtov gapirib kelinmoqda. U qurdirgan Xalosiya xonaqosida har kuni mingdan ortiq faqir va miskinlar ziyofat qililib, laziz taomlar bilan to'ydirilgan. Har yili muhtojlarga ikki mingga yaqin po'stin, bosma chakmon, ko'ylak-ishton, tokiya va kafsh ulashilgan. Mashhadda Imom Rizo bog'ida Dor ul-huffoz qurdirib, yonida har kuni muhtoj, zaif va yetimlarga ovqat berish uchun maxsus uy soldirgan.¹⁷² Biroq Xondamir na bu va na boshqa asarlarida, barmoq bilan sanarli imoratlarni hisobga olmaganida, ularning qurilish sanasini ko'rsatmagan. Bu kamchilik Navoiy davrida yozilgan boshqa asarlarda ham ko'zga tashlanadi. Navoiy zamondoshlari u qurdirgan xayriya bino, inshootlar soni va tavsifini to'liq keltirish so'zning uzayishiga sabab bo'lishini hisobga olib, o'zlari aniq bilgan inshootlar ro'yxatini keltirganlar. Masalan, Davlatshoh o'n ikkita inshoot haqida gapirib o'tsa¹⁷³, Xondamir yuzdan ziyodroq xayriya bino va inshootlarini, shu jumladan, hovuz va ko'priklarni sanab o'tadi¹⁷⁴. Faxriy Hirotiy "Amir Alisher 370 xayriya binosini qurgan" deb umumiy tarzda hisob qilsa¹⁷⁵, Som

¹⁷² Мақорим ул-ахлоқ. М. Фахриддинов ва П. Шамсиев тарж. - Б. 66

¹⁷³ Давлатшоҳ Самарқандий. Таъкират уш-шуаро. - Б. 371.

¹⁷⁴ Мақорим ул-ахлоқ. - Б. 66 - 68.

¹⁷⁵ Фахрий Ниротий. Латифнома. - Б. 133.

mirzo bu songa aniqlik kiritib, “uch yuz yetmishtadan to‘qson-tasi rabotlardir” deydi.¹⁷⁶

Keyingi davrlarda, xususan, XVI asrning ikkinchi yarmidan XX asrgacha bo‘lgan davrda ham Navoiyning mol-mulkiga bo‘lgan qiziqish so‘nmagan. Zero, ko‘plab tazkiralarda bunga urg‘u berilishi shundan dalolatdir. Masalan, Mahmud bin Valining “Baxr ul-asror” (XVI asr), Faxmiy Samarqandiyning “Taz- kirat ush-shuaro” asarlarida Mirzo Haydar Do‘g‘lot ma‘lumotlari aynan takrorlanadi.¹⁷⁷ Baxtovarxonning “Mir‘ot ul-olam”, Muhammad Yusuf Munshiyning “Tazkirat ush-shuaro-i Muqimxoniy” tazkirasidan esa ularning Faxriy va Som mirzo tazkiralariidan foydalanganliklari ko‘rinib turadi.¹⁷⁸ Shu bilan birga, chalkash ma‘lumotlar ham yo‘q emas. Jumladan, “Tom ut-tavorix» muallifi Abdulmo‘minxon (XVI asr oxiri) va Abdulloh Kobuliy (XVII asr boshi) ta‘rixlar tazkirasida Navoiy qurdirgan binolar soni bir ming bitta deb yozsalar¹⁷⁹, “Nashtari ishq” va “Ruzi ravshan” tazkiralari Amir Alisherning bino va inshootlari soni o‘n ikki mingta deb ko‘rsatiladi.¹⁸⁰ Bu tazkiralarda davr va hudud jihatidan qiyosan o‘rganilganda Vola Dog‘istoniyning “Riyozi ush-shuaro” tazkirasidan foydalanib yozilganligi ma‘lum bo‘ldi. Ammo “Riyozi ush-shuaro”da qaysi manbadan foydalanilgani noma‘lum.

Navoiyning fazl ahli tarbiyasiga ko‘rsatgan rag‘batiga deyarli barcha Navoiy davri manbalarida va XVI asr manbalaridan, xususan, “Latoifnoma” (Faxriy), “Tuhfai Somiy”

¹⁷⁶ Som Mirzo Sa‘faviy. Tuhfai Somiy. 169^a-varaq.

¹⁷⁷ Mahmud bin Vali. Baxr ul-asror. 160¹-varaq; Abdulmatlab Faxmiy. Tazkirat ush-shuaro. Qo‘llezma. O‘zRFA SHI, inv. №2331. 36³-varaq.

¹⁷⁸ Baxtovarxon. Mir‘ot ul-olam. Qo‘llezma. O‘zRFA SHI, inv. №5. 540^a-varaq; Muhammad Yusuf Munshiy. Tazkirat ush-shuaro-i Muqimxoniy. Qo‘llezma. O‘zRFA SHI, inv. №20. 165⁴-varaq.

¹⁷⁹ Najatmetov A. Navoiy haqida yangi ma‘lumotlar II Sharq yulduzi. 1972. №9. - B.187; Abdulloh Kobuliy. Tazkirat ut-tavorix. Qo‘llezma. O‘zRFA SHI, inv. №2093. 159³-varaq.

¹⁸⁰ Nусайнқулихон Азимободий. Ништари ишқ. 693⁶-varaq; Muhammad Mazhar Nусайн Сабо. Рузи равшан. Босма. O‘zRFA SHI, inv. №3700. - B.719.

(Som mirzo), “Tarixi Rashidiy” (Mirzo Haydar), “Tarjumayi Majolis un-nafoisi Navoyi” (Hakimshoh Kazviniy), “Tuhfat us-surur (Darvishali Chang), “Haft iqlim” (Amin Ahmad Roziy, 1597), “Tom ut-tavorix” (Abdulmo‘minxon), “Tazkirat ut-tavorix” (Abdulloh Kobuliy), XVIII asr tazkiralalaridan “Riyoz ush-shuaro” (Vola Dog‘istoniy), XIX asr tazkiralalaridan “Nashtari ishq” (Husaynquli Azimobodiy, 1817) asarlarida alohida ta’kidlab o‘tilgan. Ba’zida tazkiranavislar tomonidan bu holatga mubolag‘aviy tus berib yuborilganini ham aytib o‘tish foydadan xoli bo‘lmas. Masalan, “Baxr ul-asror”, “Riyoz ush-shuaro” va “Nashtari ishq”da “qariyb 12000 kishi Navoiyning homiyligi ostida tarbiya qilindi” degan ma’lumot ham uchraydiki, bu raqam qaysi manba asosida keltirilganini aniqlab bo‘lmadi.¹⁸¹

MOL-MULKI

Alisher Navoiy ilm-fan va san’at ahliga, ayniqsa, e’tibor berar, ularga katta maoshlar tayinlabgina qolmay, uy-joylar in’om etib turardi. Shu sababli bo‘lsa kerak, Navoiy davrida ham, undan keyin ham uning mol-mulki manbai, hajmiga, imoratlari soniga qiziqishlar katta bo‘lgan. Bu xususda turli nuqtai nazarlar ham mavjud. Masalan, Faxriy Hirotiy Amir Alisherning mol-mulki Husayn Boyqaro xizmatiga kelgandan keyin to‘planganiga ishora etgan¹⁸² bo‘lsa, Zahiriddin Muhammad Bobur «Mirzodin nima olmas, balki yilda Mirzog‘a kulliy mablag‘lar peshkash qilur erdi»¹⁸³, deb keltiradi. Alisher Navoiy yozadi:

Eldin menga garchi g‘ayri zahmat yo‘q edi,
Ayb ermas agar, muhd ila minnat yo‘q, edi,
El berdilar, ammo menga rag‘bat yo‘q, edi,
Shax davlatidin bularga x,ojat yuk edi.¹⁸⁴

¹⁸¹ Нусайнқулихон Азимободий. Наштари ишқ- Қо‘лэзма. О‘зРФА ШИ, инв. №4322. 693⁶-варақ; Маҳмуд бин Вали. Бахр ул-асрор. Қо‘лэзма. О‘зРФА ШИ, инв. №1375. 60⁸-варақ.

¹⁸² Фахрий. Ниротий. Латоифнома. - Б.134.

¹⁸³ Бобурнома. - Б.154.

¹⁸⁴ Вақфия. - Б.255.

“Vaqqiya” asarida Husayn Boyqaroning Navoiyga ham g’amxo’r do’st, ham adolatparvar va xalqparvar Sulton sifatida katta mehr-muhabbat bilan qaragani, hamisha uning moddiy ta’minotiga e’tibor berib borganligi aniq qayd etilgan.

Navoiy davri va undan keyingi qo’lyozma manbalarda ham bu haqda ko’p gapirilsa-da, ammo Sultonning Navoiyga qanday tarzda yordam berganligi ko’rsatilmagan. Bu haqda ma’lumot beruvchi yagona manba Alisher Navoiyning “Vaqqiya” asaridir. Akademik A.Qayumov to’g’ri ta’kidlaganidek, “Vaqqiya” asari Navoiyning o’zi tomonidan yozilgan tarjimai hol. Navoiyning o’z davriga, doirasiga munosabati hamda Navoiyning shaxsiy mulki, bu mulkdan ulus manfaati uchun istifoda etilganligi to’g’risida bir hujjatli asardir.¹⁸⁵ Unda biz sultonning hovli qurish uchun hijriy 881 (1476/1477) yili Hirotning shimolidagi Marg’ani ko’shki yonidan o’ttiz jerib¹⁸⁶ yer ajratib berganligini ko’ramiz. Amirlikdan iste’fo berganda ham Husayn Boyqaro unga katta in’omlar berib turgan. Ularning shakli maosh tarzidami yoki bog’-rog’larmi, balki vaqf tarzidami, hozircha uning ko’lami bizga ma’lum emas. Bu masalani faqatgina Sulton Husayn Boyqaro davri saroy vaqf va moliyaviy hujjatlari bilan mukammal tanishish hal qilishi mumkin. Navoiyning mol-mulki haqidagi asosiy manba, hozircha yana o’sha “Vaqqiya”dir. Biroq, shuni e’tiborga olish lozimki, bu asar Alisher Navoiy tomonidan faqat vaqf qilingan do’konlar, imoratu bog’-rog’lar va vaqfchilarga buyurilgan xarajatlar haqidadir. Ko’chmas mulk narxidan tashqari, ulardan keladigan daromad hajmi, uning mol-dunyosi haqida hozircha Navoiy davri manbalarida aniq ma’lumotlar uchramaydi. Uchraganda ham Navoiy hayotining muayyan bir qismiga taalluqli ma’lumotlar bo’lib, uning umumiy boyligi haqida yetarli tasavvur uyg’ota olmaydi. Jumladan, Faxriy Hirotiy Amir Alisherning kundalik daromadi 75000 dinor va chiqimi 15000 dinor deb ko’rsatib o’tadi va har yili

¹⁸⁵ Qayumov A. Alisher Navoiy. - Toshkent: Kamalak, 1991. - B.71.

¹⁸⁶ 1 jerib taxminan 1,2 gektarga teng.

kambag'allarga ming dona sarpo ajratishini bayon qiladi.¹⁸⁷ Mirzo Haydar uning kundalik kirimi 18000 shohruxiy bo'lganligini qayd etadi.¹⁸⁸ Aftidan, bu ma'lumotlar hozircha bizning nazarimiz tushmay turgan biror hujjatga suyanilgan holda yozilgan bo'lib, Navoiyning Astroboddagi faoliyati va mol-mulkiga daxldor. Chunki Faxriy yuqoridagi raqamlarni uning Astroboddagi hayoti haqida gapira turib, xususan, "Astroboddan qaytgach, davlat ishlarini sultonga topshirdi" jumlasidan keyin keltirgan. Mirzo Haydar Durlot ham "Tarixi Rashidiy" asarida uning kundalik daromadiga to'xtalgach, amirlik ishlarini Bobo Aliga topshirganligini aytadi.¹⁸⁹ Xondamir ma'lumotlaridan ma'lumki, Amir Alisher Astrobodga ketish paytida o'ziga yordamchi sifatida Amir Bobo Alini ham olib ketgan edi. Demak, Mirzo Haydar ham Astroboddagi moliyaviy raqamlarni keltirayotganligi aniq. O'z tazkirasini tuzishda Faxriy ma'lumotlaridan foydalangan uning kichik zamondoshi Som mirzo Safaviy Navoiyga doir ma'lumotlarida negadir Faxriyning yuqoridagi raqamlarini keltirmay o'tgan. Bizningcha, Som mirzo shahzodalarga xos dunyoqarash bilan tazkirada shoirning mol-mulki hisobini berishni o'ziga el bilmagan ko'rinadi va "ul viloyatda /ham/ /Astrobodda/ ilm takomili bilan shug'ullandi», deb qisqa gapiradi.¹⁹⁰ Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" asarida Amir Alisherning vaqf inshootlariga sarf bo'lgan xarajatlarni 500 tuman deb ko'rsatgani¹⁹¹ asar yozilgan davrgacha ta'mirlangan inshootlarga aloqador bo'lsa kerak. "Vaqqiya"dan ma'lumki, Navoiy vazifadorlar va o'quvchilarning o'zigagina bug'doy, arpa va oshliqdan tashqari oyiga 1300 oltinga yaqin maosh tayinlagan.¹⁹²

¹⁸⁷ Фахрий Ниротий. Латсифнома. - Б.133.

¹⁸⁸ Мирзо Найдар Дурлот. Тарихи Рашидий. 121⁶-варақ.

¹⁸⁹ О'ша ерда.

¹⁹⁰ Сом Мирзо Сафавий. Туҳфа-йи Сомий. 167^a-варақ.

¹⁹¹ Давлатшох Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. - Б.370. ⁵⁰

Вақфия.

¹⁹² Вақфия. --Б.259

YAQINLARI VA SUHBATDOSHLARI

“Majolis”dan ularning ba’zilari haqida tasavvur olish mumkin. Bular Mavlono Burxoniddin, Mirxond, Mavlono Nodiriy (bir muddat hamsuhbat bo’lgan), Mavlono Faxriddin, Pahlavon Muhammad Kushtigir, Shayximbek Suhayliy, Mavlono Fasihiddin Nizomiy, Xondamir, “Xamsat ul-mutaxayyirin”da Xoja Dexdor nomi ham tilga olingan. Shayx Baxlul Navoiyga tutingan aka bo’lgan.

Abdurahmon Jomiy va Said Hasan Ardasher Navoiy e’tiqod qo’ygan kishilar bo’lib. u ustozlari ahvolidan hamisha xabardor va ularning suhbatlaridan bahramand bo’lib yurgan. “Xamsat ul-mutaxayyirin” asarida ta’riflangan Jomiy bilan munosabatlari orqali Navoiy tarjimai holining ba’zi tomonlarini aniqlashtirish mumkin. Bu asarda Navoiyning Sulton Husayn Boyqaro zamonidagi turmush zayli, ijodiyoti, murabbiylik faoliyati, o’y-kechinmalariga taalluqli ishoralar ko’p. Biroq undagi voqea-tafsilotlarning sanasi ko’rsatilmaganligidan amir Alisher hayotining qaysi pallalariga xos bo’lgan voqealar, ruhiy holatlar haqida so’z borayotganligi aniq emas.

“Majolis un-nafois”dan Alisher Navoiy tarbiyasi ostida farzand maqomida kun kechirgan ba’zi yaqinlari haqida ham axborot olish mumkin. Masalan, u Mavlono hoji Muhammad ismli mashhadlik yigitni o’ziga farzand o’rnida hisoblashini va farzanddan ham azizroq ko’rishini aytib o’tgan. Mavlono Sharbatiy Navoiy qoshida ulg’aygan, Mir Haydar Sabuxiy esa ota-otadan Navoiylar xonadoniga eng yaqin odamlarning avlodi bo’lib, yaqinlik jihatidan farzand hisoblangan. Mir Ibrohim Amir Alisherning Shayx Bahlulbek ismli qadrdon do’sti va tutingan og’asining nabirasi bo’lib, Navoiy uni o’g’lidek asrab katta qilganligini ta’kidlagan. Mavlono Shoh Ali Navoiyning madrasasida tahsil olishi bilan birga, uning xizmatida bo’lgan. Navoiy Said Hasan Ardasher haqida gapira turib, uni ota o’rnida ko’rishini aytadi; bu xuddi Mirzobek ham Sayid Hasan Ardasherga va ham unga farzand bo’lgani kabi deb ta’kidlaydi.

VAFOTI

Ilk manbalardagi ma'lumotlardan Navoiy umrining oxirgi yillari og'ir kasallikka uchragani, fikr-xayoli shariat arkonlarini bajarish va boqiy olam tayyorgarligi bilan band bo'lib qolganligini sezish mumkin. Buni Alisher Navoiyning o'z asarlaridagi e'tiroflar ham tasdiqlaydi. U "Xazoyin ul-maoniy" debochasida yozadi: "...bu bandayi faqirg'a ne notavonlig'lar shikast berdiyu bu zarrayi haqirg'a ne sargardonlig'lar dast berdi. Agarchi marazimg'a sihhat umidi paydo bo'lupdur, ammo hanuz rizo bila sharbatkim ichilur, yeyilur, misqol tarozusi bila tor-tilur va tongdin aqshomg'acha soat shishasira "o'z tikilur va agarchi za'fimga quvvat imkoni zohir bo'lumtur, ammo hanuz buzur koshonamdin chiqarg'a qo'pmaq tilasam, osilg'an idbori ankabut torlari dastgirim bo'lub, madad yetkurmaguncha tebranmakka tobu tavon va xarakatka masdur, balki imkoni yo'qtur, pashsha yuz pili damon torta olmagan yukni nechuk tortqay, bataxsiskim, majruhu va ranjur dari bo'lg'ay, murchamning sheri jiyon qila olmaran ishni nechuk qila olg'ay, xususankim, bemor va sihhat tariqidin mahjur dag'i bo'lg'ay".¹⁹³

Shu davrlarda shoir haj safariga o'tlanadi. "Xazoyin ul-maoniy" X-903/m. 1497 yili yakuniga yetganiga qarab uning hajga borish istagi jiddiy tus olganini shu sana bilan belgilash mumkin. Biroq Sulton Husayn siyosiy vaziyatning og'irligi tufayli uni bu safardan qaytaradi. Shunda Alisher Navoiy uni Hirotdagi Abdulloh Ansoriy mozarotiga mutasaddi qilib tayinlashni so'raydi. Uning iltimosi qondiriladi. Ammo u to'la ma'noda xilvatnishinlikka erisha olmagan. Chunki biz 1500 yil voqealariga nazar tashlasak, Badiuzzamon mirzoning Balxni olish uchun otasi bilan jangga shaylangani, Muhammad Husayn mirzoning Asaroboddan yurish boshlashi, Sabzavordan Muzaffar Husayn mirzoning Muhammad Husayn mirzoga qarshi o'tlanishi

¹⁹³ Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Дебосча // Мукаммал асарлар то'плами / Илмий-танқидий матн асосида нашрга тайёрловчи Х.Сулаймон. - Тошкент, 1988. Т.III. - Б.15.

va yengilishi, Kepak Mirzoning Mashhadni tashlab ketishi bu davrda sultonning ancha vaqt Hirotdan tashqarida yurishiga sabab bo'lganligini ko'ramiz. Shu jarayonda Amir Alisherning hukumat ishlarini boshqarib turishiga to'g'ri kelgan.

Viloyatlarda tinchlik o'rnatilib, Sulton o'z o'g'illari, xususan, Muhammad Husayn mirzo bilan yarashib, poytaxtga qaytayotganida Amir Alisher kutib olishga chiqadi va hushdan ketib yiqiladi.

Alisher Navoiy vafotiga doir ilk ma'lumotlar, asosan, muarrix Xondamir qalamiga mansub. U Navoiy o'limi tafsilotlarini "Makorim ul-axloq" hamda "Habib us-siyar" asarlarida yetarlicha haqqoniy va aniq ifodalab bergan. Bu haqda Ubaydulla Karimovning tadqiqoti mavjud.¹⁹⁴ Faxriy Hirotiy ham qisqa bo'lsa-da, Navoiy vafoti tafsilotini keltirgan.¹⁹⁵ Shulardan boshqa manbalarda shoir vafoti tafsilotlari uchramadi. Navoiy vafoti sanasi haqidagi ma'lumotlar, yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari, ta'rix janridagi bitiklarda uchraydi. Ba'zi ta'rix to'plamlarida ta'rix bilan birga Xondamir qoldirgan shoir vafoti tafsilotlari, marsiyalar ham keltirilgan. "Tom ut-tavorix" va "Tavorixi kasira" to'plamlari bunga misoldir. Buni mualliflarning izlanuvchanligi yoki originallikni ta'minlash maqsadidagi ilmiy yondashuvi deb baholash uncha to'g'ri emas, albatta. Chunki "Habib us-siyar" mashhur asarlardan. U XVI asning ikkinchi yarmidan XX asrgacha juda ko'p nusxalarda tarqalgan. Shu sababdan bu asar ko'pchilikka yaxshi tanish, undagi ma'lumotlarni ko'chirib qo'yish katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Tazkiralarda uchragan ta'rix va marsiyalarning orasida aytarli o'zgarishlar yo'q. Ammo Navoiy vafoti sanasi atrofida ko'pdan-ko'p chalkashliklar borligini ko'ramiz. Chunonchi, "Tazkirai tavorix"- (Abdulloh Kobuliy) to'plamida "89 yoshga kirib, zul'ka'da oyining o'n to'rtinchisi kuni,

¹⁹⁴ Каримов У. Навоийнинг со'нгги кунлари // «Сирли олам» / Х-Шайхов таҳрири остида. - Тошкент, 1986. - Б.11 - 18.

¹⁹⁵ Фахрий Ниротий. Латифнома. - Б.134.

chorshanba kuni»¹⁹⁶, “Tom ut-tavorix” (Abdulmo‘minxon) asarida “64 yoshga kirib, jumod ul-avval oyida”¹⁹⁷, “Lubb ut-tavorix” (Mir Yah‘yo Kazviniy) da “jumod ul-avval oyining o‘n beshinchisi, yakshanba kuni kechasi”¹⁹⁸, “Mir‘ot ul- olam” (Baxtovarxon)da “jumod ul-avvalning yakshanba kuni”, .. deyilsa¹⁹⁹, “Muntaxab ut-tavorix” (Xokiy) asarida “jumod ul-oxir oyining o‘n beshinchisi, yakshanba kuni ertalab” tarzida berilgan.²⁰⁰ “Ruzi Ravshan” muallifi Husayn Sabo faqat “jumod ul-avval” oyini ko‘rsatish bilan kifoyalanadi.²⁰¹ “Tazkirat ush-shuaro Muqimxoniy” muallifi Muhammad Yusuf Munshiy esa shoir vafoti sanasini 924 hijriy yili barot oyining boshida tarzida qayd etadi.²⁰² Sa‘id Rokim Samarqandiy ham “Tarixi kasira” asarida “barot oyi boshlarida” deb yozgan.²⁰³

Tabiiyki, eng aniq sana Xondamirga tegishlidir. U Navoiy hijriy 906 yili, jumod ul-oxir oyining o‘n ikkinchisi, yakshanba kuni vafot etganligini yozib qoldirgan. Faxriy tazkirasining biz tanishgan nusxasida “jumod ul-avval oyi, payshanba kuni”²⁰⁴, Som mirzo tazkirasida esa “jumod ul-avval, yakshanba kuni” deb yozilgan.²⁰⁵ Keyingi ikki tazkiradagi o‘zgarish xattotlarning aybi bo‘lishi kerak. Zero, bu asarlarning

¹⁹⁶ Абдуллоҳ Кобулий. Тазкират ут-таворих. Қо‘лэзма. О‘зРФА ШИ, инв. №2093. 161^a-варақ.

¹⁹⁷ Бу ҳақда қарапг: Найитметов А. Навоий ҳақида янги ма‘лумотлар // Шарқ юлдузи. 1972. №9. - Б. 188.

¹⁹⁸ Мир Яһ‘ё Казвиний. Лубб ут-таворих. Қо‘лэзма. О‘зРФА ШИ, инв. №3863. 143^b-варақ.

¹⁹⁹ Бахтовархон. Мир‘от ул-олам. Қо‘лэзма. О‘зРФА ШИ, инв. №5. 540^a-варақ.

²⁰⁰ Нусайн Б. Муҳаммад Хокий Шерозий. Мунтахаб ут-таворих. Қо‘лэзма. О‘зРФА ШИ, инв. №2010. 225^b-варақ.

²⁰¹ Муҳаммад Мазҳар Нусайн Сабо. Рузи равшан. Босма. О‘зРФА ШИ, инв. №3700. - Б.719.

²⁰² Муҳаммад Юсуф Мунший. Тазкират уш-шуарои Муқимхоний. 165^a-варақ.

²⁰³ Са‘ид Роким Самарқандий. Тарихи касира. Қо‘лэзма. О‘зРФА ШИ, инв. №7711. 36^b-варақ.

²⁰⁴ Фахрий Пиротий. Латифнома. - Б.135.

²⁰⁵ Сом Мирзо Сафавий. Тухфа-йи Сомий. 170^a-варақ.

asl nusxalari yo‘q. Ikkilamchi nusxalar yoki ulardan ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxalar orqali yetib kelgan. Faxriyni Navoiy vafoti marosimlarida qatnashmagan yoki tafsilotlaridan xabarsiz deb ayto‘lmaymiz. Som mirzoni ham Xondamir asarlarini o‘qimagan deyish qiyin.

NAQL VA RIVOYATLAR

Alisher Navoiy o‘z davrida Hirot, Movarounnahr va qo‘shni davlatlarda odil vazir sifatida shunchalik shuhrat qozonganki, uning shaxsiyati va kundalik turmushiga oid xalq orasida mashhur bo‘lgan barcha ovozayu mish-mishlar shoir vafotidan so‘ng ko‘pdan-ko‘p naql va rivoyatlarning tug‘ilishiga olib kelgan. Taniqli folklorshunos olim M. Jo‘raev Alisher Navoiy haqidagi og‘zaki rivoyatlarning manbalari va tasnifiga bag‘ishlangan maqolasida uch manbani ko‘rsatib o‘tadi. Bular:

1. Alisher Navoiy hayotida haqiqatan ham ro‘y bergan voqea-hodisalar bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan og‘zaki hikoyalar zaminida shakllangan rivoyatlar.

2. Navoiy asarlari ta‘sirida yuzaga kelgan rivoyatlar.

3. Qadimiy folklor an‘analari asosida yaratilgan rivoyatlar.²⁰⁶

Yozma adabiyotda esa, xususan, biz ko‘zdan kechirgan manbalarda Alisher Navoiy asarlari ta‘sirida yuzaga kelgan rivoyatlar uchramadi. Ammo Navoiy hayotida haqiqatan ham ro‘y bergan voqea-hodisalar bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan og‘zaki hikoyalar zaminida shakllangan rivoyatlar mavjud. Bunday rivoyatlar ikki turkumga bo‘linadi. Birinchisi, ulug‘ amirning ibratomuz hayotidan olingan lavhalar talqini ma‘rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan hikoya va latifalardan iborat. Ikkinchisini esa Navoiy hayotiga doir oldi-qochdi latifalar va hazil-mutoyibalar tashkil etib, ulug‘ amir kundalik turmush

²⁰⁶ Жо‘раев М. Алишер Навоий хақидаги ривоятларнинг манбалари ва таснифи // О‘збек тили ва адабиёти. 1991. №4. - Б.52.

tashvishlari fonida ko'rsatilgan. Birinchi turkum ylug' amirning fazilatlariga maxsus bag'ishlangan "Makorim ul-axloq" asari bilan boshlanadi. Asar muallifi Xondamir Navoiy obrazini mukammal gavdalandirish uchun 17 hikoya, 10 latifa va mutoyibani zikr etadi. Mazkur naqlar ustida jiddiy tadqiqot olib borgan navoiyshunos olim N.Mallaev ularning badiiy jihatdan hiyla zaifligini va bu muallif faktik voqeani aynan saqlab, "jiddiy uslub"ni muvofiq ko'rganligi oqibatida yuz berganligini ko'rsatadi.²⁰⁷ Shuni aytish kerakki, ular Xondamirning o'zi e'tirof etganidek, "hazratning nozik zehni va muborak fikrining yuqori darajada o'tkir ekanligi dalolati" uchun keltirilgan bo'lib, asosan, ziyolilar ilg'ay oladigan "lutf"lardan iborat. Izzat Sulton "Makorim ul-axloq"ning o'zbekcha nashriga yozgan so'zboshisida Xondamir Navoiyning biografiyasidan misollar olib turib, islom nazaridan namuna bo'ladigan kishi obrazini gavdalandirishni o'ziga maqsad qilib qo'rganligini, "Makorim ul-axloq"ning har bobining sarlavhasida bir diniy-axloqiy tezisning oldinga surilishi bejiz emasligi va avtor o'z oldiga shunday idcologik-didaktik maqsad qo'ygani uchun Navoiy obrazidan xuddi shu tezislarga mos tushadigan tomonlarni bo'rttirib ko'rsatganligini to'g'ri ta'kidlagan".²⁰⁸

Navoiy asarlaridan bevosita iqtibos etilgan naqlar XVI-XIX asrlarda juda oz. Buning sababi bu davrda juda ommaviylashib ketgan tazkiranavislik an'anasining yetarli miqdorda faktik bazaga egaligi va yangi izlanishlarga ehtiyoj yo'q deb hisoblanganida bo'lsa kerak. Shunga qaramay, ba'zi tazkiralarda Navoiyning o'z asarlaridan olingan, ilmiy-adabiy munozaralarga doir naqlar uchraydi. Ular ko'proq "Majolis un-nafois" tazkirasidan yoki "Xamsat ul-mutaxayyirin"dan olingan. Masalan, "Haft iqlim" (Amin Ahmad Roziy, 1597) tazkirasida "Majolis"da keltirilgan Navoiy va Riyoziy Samarqandiy bahsi²⁰⁹,

²⁰⁷ Маллаев П. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. - Тошкент: Адабиёт ва сан'ат, 1974. - Б.317.

²⁰⁸ Makorim ul-axloq. M.Faxriddinov va P.Shamsiev tarj. - B.11.

²⁰⁹ Amin Ahmad Roziy. Haft iqlim. Qo'l yozma. Qo'zRFA SHI, inv. №617.

Mavlono Yoriy va Navoiy munosabatlari haqidagi hikoya²¹⁰ tafsilotlari berilgan. “Nigoriston” hikoyalar to‘plamida Alisher Navoiyning “Holoti Paxlavon Muhammad” asaridan shoir bilan kurashchi o‘rtasida Mashhadda sodir bo‘lgan voqea keltiriladi. Unda pahlavonning bemor Navoiy cho‘ntagidan yangi she‘r qoralamasini olib, suhbat davomida yodlab olgani va uni Navoiyga Nasimiy she‘ri sifatida o‘qib bergani, bundan shoirning nihoyatda hayratlangani voqeasi so‘zlanadi. G‘afforiyning hikoyaga “Navoiyning o‘zi yozishicha” deb ibtido qilganligi ham uni bevosita shoirning asaridan olganligini bildiradi.²¹¹ “Makorim ul-axloq»qa murojaat etilgan holatlar ham yo‘q emas. Jumladan, hozircha muallifi noma‘lum “Navodir ut-tavorud” (o‘xshash voqealarning nodirlari) kitobida Navoiy va Shayxim Suhayliy o‘rtasidagi she‘riy tavorud (o‘xshashlik) voqeasi bor. Bu bizga hijriy 954 (1549) yili tuzilgan “Nigoriston” hikoyalar to‘plami orqali ma‘lum. Muallif Ahmad Rafforiy mazkur hikoya iqtibos olingan manba sifatida “Makorim ul-axloq”ni emas, balki “Navodir ut-tavorud» nomini ko‘rsatadi.²¹²

Ikkinchi turkum naql va rivoyatlar XVI asrning birinchi yarmidan XX asrgacha yaratilgan adabiy-tarixiy manbalarda uchraydi. Bu davrdagi deyarli barcha tazkiralalar, jumladan, Faxriy va Som mirzo, Zahiriddin Bobur va Mirzo Haydar, Hakimshoh Kazviniiy, Faxriddin Ali Safiy va Zayniddin Vosifiy asarlarining Kamoliddin Binoiy to‘g‘risidagi fiqrasida uning Alisher Navoiy bilan bo‘lgan o‘zaro askiyabozligidan misol keltirilgan. Manbalar xronologiyasi mazkur mutoyibalar asos- e‘tibori bilan bu ikki buyuk shaxs haqidagi ovozarlar keyinchalik yozma adabiyotga olib kirilganini ko‘rsatadi. Zotan, Navoiy hayotligi paytida yozilgan biror-bir asarda ular o‘rtasida bo‘lib o‘tgan hangomalar, ularning o‘zaro munosabatlaridagi muayyan bir

48⁶-varaq.

²¹⁰ O‘sha srda.

²¹¹ Ahmad bin Muhammad al-Rafforiy al-Kazviniiy. Nigoriston. Qo‘llezma. O‘zRFA SHI. inv. №4297. 324^a-varaq.

²¹² Ahmad bin Muhammad al-Rafforiy al-Kazviniiy. Nigoriston. 416^a-varaq.

og'ishlar borasida zarracha ham ishora yo'q. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da unga yaxshi munosabat bildirgan.²¹³

Shunisi qiziqki, forsiy manbalardagi asosiy mutoyibalarda Binoiyning g'alabasi bo'rtirilgan. Navoiy g'olib chiqqan askiyalardan misollar yo'q. Vaholanki, bizning kunlarimizgacha og'zaki ravishda yetib kelgan ko'plab Navoiy-Binoiy askiyalari borki, ularda Navoiyning o'tkir so'z ustasi sifatida Binoiyni mot qilgan hollari aniq ifoda topgan. Shulardan bir nechasi boshqa xalq rivoyatlari qatorida to'planib, nashr ham etilgan.²¹⁴ Bunday yondashuvning sababi, bizningcha, mualliflar Kamoliddin Binoiyning Navoiydek mashhur zot bilan bellashuvi orqali uning adabiy muhitdagi o'rmini ko'rsatmoqchi bo'lganlar. Ko'rinishdan bunday yondashuv beg'araz, maqsad - Navoiyning "maoduri zamon"ligidan foydalanish niyati, xolos. Buning tasdig'i sifatida shuni ham aytish mumkinki, ko'pchilik mualliflar Navoiyning mashhurligidan o'z kitoblari qadrini oshirishda foydalanishga uringanlar. Buni XVI - XIX asrlar manbalarida uchrovchi Navoiy bilan bog'liq bir necha voqealar naqlidan ham ko'rish mumkin. Masalan, Rafforiy "Nigeriston" idgi bir voqeada Amir Alisherning bir qarindoshi tong payti hammomga borgani va jinga duch kelgani haqida so'ylanadi.²¹⁵ Voqea Alisher Navoiy qarindoshining o'z tilidan so'zlanganda, hikoya: "Habib us-siyar" sohibi ayturki: "Amir Alisherdan eshittimki, bir qarindoshim shunday dedi" deb boshlanadi. Diqqat qilinsa, "Xabib us-siyar" muallifi Xondamirdan eshutilgan" deya, manbalarning obro'lisiga diqqatni qaratish barobarida, e'tiborni Amir Alisherga tortib o'z kitobining "tesha tegmagan" axborotga boy ekanligini namoyish qilishga urinish seziladi. Yarim asr o'tib mazkur voqea Majdiddin al-Hasaniy Majdiy tomonidan 1595 yili tuzilgan

²¹³ Мажолис ун-нафоис. - Б.74.

²¹⁴ Эл деса Навоийни. Ривоятлар / То'ловчи ва нашрга тайёрловчи М.Жо'раев. - Тошкент: Шо'лпон, 1991.-61 - 64.

²¹⁵ Ахмад бин Муҳаммад ал-Раффорий ал-Казвиний. Нигористон. 336-варақ.

“Ziynat ul-majolis” hikoyalar to‘plamida ham takrorlanadi. Shunisi qiziqki, endi voqea qahramoni sifatida qarindosh emas, balki Navoiyning o‘zi gavdalanirilgan.²¹⁶

Hikoyaning mazmuni haqida gapiradigan bo‘lsak, u hech bir ahamiyatga ega emas: qahramonning tongda hammomga borib, u yerda g‘ayritabiyy tuyulgan odamga duch kelishi, uning g‘oyib bo‘lganini ko‘rib qo‘rqib qochishi va yo‘lda yana uni uchratishidan iborat.

Yana bir o‘xshash holat. Hasan Xoja Nisoriy “Muzakkiri ahbob” tazkirasida Mavlono Abulqosim Hakinga alohida o‘rin ajratgan. Yozilganlardan bu shaxs, uning tazkiradan o‘rin olishga munosib xizmatlari haqida hech qanaqa ma‘lumot ololmaysiz. Nisoriy u haqda gap boshlarkan, uning otasi Mavlono Darvesh Husayn tabib Amir Alisherning tabibi Darvesh Ali tabibning amakivachchasi ekanligini qayd etadi. Muallif bu bilan gapni Abulqosimning ulug‘ insonlarga aloqadorligiga burayotganini tushunsa bo‘ladi. Ajablanarlisi shundaki, bundan so‘ng faqat Darvesh Ali tabib va Alisher Navoiy munosabatlaridan so‘z boradi. Tabibning amir Alisher ta‘mirlagan Jome‘ masjidida tugashiga yozgan ta‘rixi va shu bilan bezlik tafsilot zikr etiladi.²¹⁷ Hasanxoja Nisoriy Amir Haydar fiqrasida ham shu yo‘lni tutgan.²¹⁸ Nisoriyning tazkisasi o‘z davrida ham, keyin ham mo‘tabar hisoblangan. Keyingi davrlarda undan foydalangan tazkiranavislar ko‘p uchraydi. Ammo mazkur ma‘lumot qayta qayd etilmagan. Uning istisno sifatida asrlar o‘tib, faqat Mirsiddiq Hashmat tazkirasida aynan takrorlanganini ko‘ramiz.²¹⁹

Manbalarda Alisher ishtiroki ko‘rsatilgan, ammo qaerdan olinganligi noma‘lum turli juz‘iy naqlar ham uchrab turadi. 983

²¹⁶ Маждиддин Муҳаммад ал-Нусайний. Зийнат ул-мажолис.

Қо‘лёзма. О‘зРФА ШИ, инв. №4229. 142^a-варақ.

²¹⁷ Хожа Насан Нисорий. Музаккири аҳбоб. Қо‘лёзма. О‘зРФА ШИ, инв. №4282. 91^a-варақ.

²¹⁸ Ко‘рсатилган манба. 75^b-варақ.

²¹⁹ Мирсиддиқ Ҳашмат. Тазкират уш-шуаро. Қо‘лёзма. О‘зРФА ШИ, инв. №2252-1. 71^b-варақ.

xijriy (1576) yili yaratilgan “Majma’ ul-g’aroyib” nomli tarixiy-jo’g’rofiy ahamiyatga molik dunyo g’aroyibotlari haqidagi to’plamdan joy olgan naql shu jumladandir.²²⁰

Xullas, kitoblarni o’qishli qilish niyatida ko’pgina an’anaviy naqlar Navoiy nomiga bog’lab yuborilganini va kuzatishlarimiz Mamatqul Jo’raevning quyidagi xulosasi yozma adabiyotdagi naql va rivoyatlarga ham tegishli ekanini ko’rsatdi: “Bunday rivoyatlarning paydo bo’lishiga asos bo’lgan muayyan nasriy asar-ertak, latifa, og’zaki hikoya yoki naql sifatida Alisher Navoiy yashagan davrlardan oldin ham mavjud bo’lgan. Keyinchalik ulug’ shoirning donoligi, mexnatsevarligi, elparvarligi va oqilligini rivoyatlarda tasvirlash ehtiyoji tug’ilganda roviylar azaldan tildan tilga o’tib, xalq orasida aytilib yurgan an’anaviy syujetlardan foydalanganlar”.²²¹

NIZOMIY VA NAVOIY SHE’RIYATINING LIRIK QAHRAMONLARI HAQIDA

Har ikki ijodkor Nizomiy va Navoiy g’azaliyotining lirik qahramonlari haqida so’z ketganda, asosan, oshiq va ma’shuqa obrazlari tilga olinadi. Haqiqatdan ham, shoirning ishqiy mavzudagi g’azallarida oshiq va ma’shuqaning turli holatlari yorqin bo’yoqlarda tasvirlangan. Adabiyotshunos olim A.Hayitmetov ta’kidlaganidek, Navoiy ishqiy g’azallarining yarmidan ko’pi oshiqning ichki kechinmalarini, uning hijron azoblarini, dard-alamlarini, orzu-armonlarini kuylashga bag’ishlangan.²²²

Har ikki ijodkor tasvirida oshiq iztiroblardan qiynalgan, hijrondan azob tortgan, ayriliqlardan zada bo’lgan – telba ko’ngil egasidir. Shoir she’riyatida aql ishq maskani bo’lmish ko’ngilga

²²⁰ Султон Муҳаммад бин Дарвиш Муҳаммад Балхий. Маҷма’ ул-г’аройиб. Қо’лэзма. О’зРФА ШИ, инв. №1262. 118^б-варақ.

²²¹ Жо’раев М. Алишер Навоий ҳақидаги ривоятларнинг манбалари ва таснифи. - Б.55.

²²² Найитметов А. Навоий лирикаси. Тошкент, 1961. 123-бет.

qarama-qarshi qo'yiladi. Chunki insonni iztirobga soladigan, boshiga turli balolarni keltiradigan, uni turfa qiynoqlarga giriftor qiladigan ko'ngildir. Ko'ngil aql yo'rig'iga yurmaydi.

Ko'ngulni qaydi junundin chiqar deding, ey aql,
Ketursa boshingga yuz ming balo ko'ngul, netayin²²³.

Haq oshiqdari baloni nafaqat azob, musibat, falokat, deb balki buyuk bir imtihon deb ham bilganlar. Ularning nazarida balo oshiqning yaxshi hollarga sohib bo'lishi, yaxshi fe'llar egasi bo'lishi va shu yo'l bilan maqsad sari intilishini sinovdan o'tkazish uchun beriladigan azoblardir. Haqqa yaqinlik, undan kelgan azob va jafolarga samimiy munosabatda bo'lishdir. Shuning uchun ham oshiqdar har qanday qiyinchilik, azob va iztiroblardan cho'chimaganlar. Hatto bunday qiyinchiliklarni xush qabul qilganlar. Shu o'rinda Shibliyning quyidagi so'zlarini keltirish o'rinlidir: Ey, Oллоhim! Xalq seni himmating uchun, men esa balong uchun sevarman. Darhaqiqat, haqiqiy oshiqdar bir on balosiz qolsalar, ilohiy ne'matdan mahrum bo'lgan kabi oh uradilar, faryod chekadilar:

Jong'a har dam ishqidin yuz ming balo kam istamon,
O'zgaga ming yil o'tub, yuzdin birin ham istamon²²⁴.

Har damda yuz ming balo kelsa ham lirik qahramon buni kam deb bilmogda. Xalqda Sadaqa raddi balo – sadaqa balolarni rad etadi, degan ibora bor. Ammo shoir lirik qahramoni iztirob va sinovlarni istar ekan, hatto eng aziz narsasi – jonini sadaqa qilib bo'lsa ham balolarni tilab olish niyatidadir:

Sadaqa chunki balolarni rad aylar, yo rab
Jon anga sadqa qilay manga bag'ishla oni²²⁵.

²²³ Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 3-том. Тошкент, 1988. 350-бет.

²²⁴ Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 5-том. Тошкент, 1990. 338-бет.

²²⁵ Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 5-том. Тошкент, 1990. 449-бет.

Muqaddas kitoblarda qayd qilinishicha, Yaratganning sevgan bandalarini g'am-anduh va balolar bilan imtihon qilishining sababi bor. Buning bir sababi: bu balo va g'amanduhlar ba'zi valiy va nabilar uchun qalblarining jilolanishi va iste'dodlarining yuzaga chiqishi uchun yuboriladi. Ularning bunday g'am-tashvishlarga duch kelishlari erishgan maqomlarini tamomlashlari va buning natijasida yanada yuksalishlarini ta'minlaydi. Shuning uchun hadisda: Eng shiddatli balolarga duchor bo'lganlar payg'ambarlardir, undan so'ngra valilardir, – deyilgan. Balolarga sabr aylash, qiyinchiliklarga bo'ysunishning eng oddiy usuli yuzaga kelgan mashaqqatlarga rizolikdir. Zero, rizo ham Haq o'shiqlariga xos bo'lgan hol turi bo'lib, ba'zilar uni maqom deb ataydilar. Muhosibiylar Rizo maqomlar navidan emas, hollar turidir, deb hisoblaydilar. Bunday qarash Abu Abdulloh Horis Muhosibiy (r.a.) bilan boshlanib, Xuroson so'fiylarigacha yetib kelgan. Iroq so'fiylari esa Rizo maqom turi bo'lib, tavakkulning nihoyatidir, degan qarashni ilgari suradilar. Qushayriy esa buning aksini qayd etadi: Iroqliklar rizo holdir, Xurosonliklar rizo maqomdir, demishlar, degan ma'lumotni keltiradi²²⁶.

Rizo kishini darddan xalos qiladi, uni g'aflatdan uzoqlashtiradi, Haq bilan aloqali bo'lmagan barcha tashvishlarni qalbdan chiqaradi, mashaqqatlardan ozod etadi. Buning sababi rizing xalos etish sifatiga egaligidir. Rizo – xushnud va mamnunlik holi, shikoyat qilmaslik. Rizo qadarning isyonchi, g'alayonchi tajallilari qarshisida qalbning huzur va sukun holida bo'lishidir²²⁷. Rizo holi yoki maqomidagi oshiq: Qahringda xush, lutfingda xush deb va Haqning hech bir tajallisidan shikoyat qilmaydi. Bunday xususiyat Navoiy lirik qahramoniga ham xosdir: Ey meni sargashtadin gah forig'u gohi malul, Qahring ul, lutfing bu, yorabkim, ne odatdur sanga? Yoki: Lutfing ozi jon

²²⁶ Кушайрий. Рисолайи Кушайрий. Истанбул, 1991. 286-бет.

²²⁷ Сулаймон Улутоғ'. Тасаввуф терминлари со'злуги. Истанбул, 1995. 435-бет.

olur, qahring ko'pi ham o'lturur, Bul'ajab holedurur, oyo ne holatdur sanga.

Shoir lirik qahramoniga xos bo'lgan xususiyatlardan biri sabrdir. Sabr har qanday qiyinchilik va azoblarga bardosh berish, maqsad yo'lidagi har qanday to'siqlarni mardonavor yengib o'tish va natijada murodga erishishdir. Ishqning azoblari, ayriliq iztiroblariga chidam berish ham sabr orqalidir. Shoir lirik qahramoni iztiroblaru so'ngsiz ayriliqlardan nolimaydi, balki sabrning ozidan shikoyat qiladi

Ma'shuqaning mehrsizligi, bedodligi, g'am-anduhning ko'pligidan emas, oshiq o'z sabrining ozligidan shikoyat qilishining sababi bor. Chunki tasavvufda sabrning tamali nafsga qarshi borishdir. Sabr nafsning zo'rliklariga qarshi kurashdir. So'fiy butun balolarni, jumladan yor vasliga yetishish yo'lidagi qiyinchiliklarni ham Ilohiy bir imtihon deb biladi. Sabr toqat va matonat bilan yo'lda ilgarilaganlarning sarmoyasi, mukofotidir. Qur'oni karimda nomlari keltirilgan barcha payg'ambarlar bir qancha musibatlariga duchor bo'lganlar, boshlariga kelgan har baloga sabrni qarshi qo'yib, zafarga erishganlar. Jumladan, Ibrohim (a.s.)ning otashga otilishi, Ayub payg'ambarning xastalikka uchrashi sabr bilan bog'liq qissalardir.

Ishq yo'liga kirgan solik ana shu payg'ambarlar kabi balolarga uchrab, bu balolarga sabrni qarshi qo'yadi. Zero, sabr muhabbatning kalitidir. Navoiy lirik qahramoniga xos bo'lgan bunday xususiyatlar komillik darajasiga yuksalish yo'lidagi harakatlardandir.

“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDAGI HIKOYATLARNING MAVZULARI, G'YOYAVIY TASNIFI

Alisher Navoiy ijodining yuqori cho'qqisi “Xamsa”dir. “Xamsa”da shoirning hayot, inson, yashash bilan bog'liq ko'pdan ko'p mulohazalari bayon qilingan. “Xamsa”ga qadar lirik she'rlar, xususan, g'azal yozib nom chiqargan, devonlar tuzgan

shoir dostonchilikda ham qalam tebratdi. Ulug' ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy (1141-1206), uning hindistonlik izdoshi Amir Xusrav Dehlaviy (1252-1325) "Xamsa"larini qayta mutolaa qilib, o'zi ham "Xamsa" yozishga kirishadi. Bu niyat juda erta boshlangan bo'lsa-da 1483-yil amalga oshirishga kirishildi. 1485-yil "Xamsa" yozib tugatiladi. Bu turkiy tildagi birinchi "Xamsa" edi. "Uni yozishga hammasi bo'lib, ikki yil sarflangan. Navoiy bu ulug' asarning ikki yil ichida yozilganini ta'kidlab, agar boshqa ishlar xalaqit bermaganida uni olti oyda yozishi ham mumkinligiga, aslida ham bu besh dostonni yozishga ketgan muddat, "yig'ishtirsa", olti oydan oshmayajagiga ishora qiladi:

Bu mehnatlar ichra chekib so'zga til,
Zamondin kamu besh o'tub ikki yil.
Chekib xoma bu noma itmomig'a,
Yeturgaysen og'ozin anjomig'a.
Ki ahli muhosib shitob aylasa,
Deyilgan zamonin hisob aylasa,
Yig'ishtirsa bo'lmas bori olti oy..."²²⁸

Navoiy "Xamsa" bilan o'ziga o'lmas haykal qoldirdi. Bu asar o'z davrida ham, buguni kunda ham katta qadr-qimmat topdi. Millionlab odamlarning sevimli asariga aylandi. "Xamsa" barcha xalqlarning ma'naviy boyligi, komil insonni tarbiyalashning asosiy manbaiga aylandi. "Xamsa"dagi har bir doston o'z xususiyatiga ega. "Hayrat ul-abror" falsafiy, diniy, tasavvufiy, odob-axloq ruhidagi asar bo'lsa, "Farhod va Shirin" ishq-muhabbat, komil inson, Farhod, Shirin sarguzashtlari bilan bog'liq. "Layli va Majnun" ishq, uning ilohiy va majoziy tomonlari, Qaysning boshidan kechirganlari, Laylining boshiga tushgan azoblar haqida hikoya qiladi. "Sab'ai sayyor"da Bahrom va Dilorom voqealari, shu asosda turli masalalarni yorituvchi yetti hikoyat bayon qilinadi. "Saddi Iskandariy"da Iskandar obrazi asosida ideal podsho haqida fikr bildiriladi. Turli-tuman mavzular qalamga olinadi.

²²⁸Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. Toshkent, 1997. 85-bet.

Mazkur ishda asosiy e'tibor "Hayrat ul-abror"ga va undagi hikoyatlarga qaratilgan. "Xamsa"ning birinchi dostoni "Hayrat ul-abror"da Navoiyning islom dini, tasavvuf haqidagi mulohazalari keng bayon qilingan. Ayniqsa, dostonning hamd, munojot, na't qismlari, Imon sharhiga bag'ishlangan birinchi maqolat, islom haqida fikr yuritilgan ikkinchi maqolatda bu borada ko'p gapirilgan. Professor A.Hayitmetovning "Xamsa"da islom nuri"²²⁹ maqolasida bu qismlar to'liq yoritilgan. Bu kitobda shunday yoziladi: "Dostonning "Ul xoliq hamdikim..." deb boshlangan bobi va undan keyin kelgan to'rtta munojot boblari shoir falsafiy va axloqiy dunyoqarashini belgilashda beqiyos ahamiyatga ega. Bu o'rinlarda Navoiy xudoning tanholigi ("vahdat") va ulug'vorligini, yer-u osmonni, ulardagi zarradan tortib, quyoshgacha bo'lgan narsalarni bir o'zi yaratganligini, yaratish bilangina cheklanmay, olamda mavjud moddiy va ma'naviy kuchlar o'rtasida o'zaro ziddiyat va kurash yuzaga keltirib, borliqqa rang-baranglik, o'ziga xos ma'no va go'zallik bag'ishlaganini she'riy til va badiiy bo'yoqlar bilan g'oyat jonli, obrazli ifodalashga intiladi.

"Hamd" bobidan keyin mazkur dostonda to'rt munojot keladi. Navoiy bu munojotlarda bevosita Ollohga murojaat qilib, dunyoning, hayotning yaratilishi bilan bog'liq o'z fikrlarini yanada chuqurlashtiradi. "Xamsa"ning har bir dostonida Olloh madhidan so'ng, odatda Muhammad alayhis-salomning maqtovina't keladi. "Hayrat ul-abror"da bunday na'tlar beshta bo'lib, ularning har biri payg'ambarimiz hayotidan islom olami uchun muhim ma'lumotlarni beradi yoki shoir o'zining bu ulug' zot tarjimai holining yoki faoliyatining ayrim masalalari va nuqtalariga to'xtaladi"²³⁰.

"Hayrat ul-abror"ning asosiy qismini yigirma maqolat va yigirma hikoyat tashkil etadi. Asarda har bir maqolatdan keyin bir hikoyat keltiriladi. Doston oxirida yana bir hikoyat bor.

²²⁹ Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. Toshkent: "Fan", 1996.

²³⁰ Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. Toshkent: "Fan", 1996.

33-62-betlar.

Hammasi bo'lib yigirma bir hikoyat keltirilgan. Bu hikoyatlarning hajmi turlicha. Eng kichigi o'n to'rt bayt – yigirma sakkiz misra bo'lsa, eng kattasining hajmi qirq ikki bayt – sakson to'rt misradan iborat. Ulardagi misralar soni quyidagicha:

1. Boyazid haqidagi hikoyat – yigirma ikki bayt.
2. Ibrohim Adham va Robia Adviya bilan bog'liq hikoyat- yigirma bayt.
3. Sheh G'oziy bilan bog'liq hikoyat – qirq bir bayt.
4. Abdulloh Ansoriy haqidagi hikoyat- o'n to'rt bayt.
5. Hotam Toyi haqidagi hikoyat – yigirma ikki bayt.
6. No'shiravon hayosi bilan bog'liq hikoyat – o'n olti bayt.
7. Qoni' Juvonmard ila tomi' hikoyati – yigirma sakkiz bayt.
8. Ikki vafoli yor hikoyati - yigirma to'rt bayt.
9. Shayx Iroqiy haqidagi hikoyat – o'ttiz ikki bayt.
10. Sher bilan Durroj hikoyati – o'ttiz to'rt bayt.
11. Imom Faxr Roziy bila Sulton Muhammad Xorazmshoh hikoyati – o'n sakkiz bayt.
12. Yoqut husnixati haqidagi hikoyat – yigirma bayt.
13. Ayyubi xalaf va o'g'ri haqidagi hikoyat – yigirma sakkiz bayt.
14. Iskandar va uning xoli qo'l bilan dunyodan ketishi haqidagi hikoyat – yigirma besh bayt.
15. Bani Isroili Rind bilan bog'liq hikoyat – yigirma bayt.
16. Abdulloh Muborak jihodi bilan bog'liq hikoyat – o'ttiz to'rt bayt.
17. Imomi Zaynul-obidin bilan bog'liq hikoyat – o'ttiz bayt.
18. Chin marg'zori bilan bog'liq hikoyat – qirq ikki bayt.
19. Bahrom haqidagi hikoyat – qirq ikki bayt.
20. Xoja Muhammad Porso va o'g'li Xoja Abu Nasr bilan bog'liq hikoyat – o'ttiz to'rt bayt.

21. Ul qul hikoyati – yigirma bayt.

Demak, yigirma maqolatga ilova qilingan yigirmata va xotimada keltirilgan bir hikoyat – hammasi yigirma bitta bo'lib, ularning umumiy hajmi, hikoyat nomi ostida berilgan misralar miqdori – besh yuzi oltmish olti bayt – bir ming bir yuz o'ttiz ikki misradan iborat ekan. R.Vohidov va H.Eshonqulovlar tomonidan tuzilgan “O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi” kitobida “Hayrat ul-abror”ning tuzilishi, undagi masalalar haqida ko'pgina ma'lumotlar keltirilgan. Unda shunday yozilgan: “Hayrat ul-abror” qomusiy asar bo'lib, uning asosiy qismini tashkil etuvchi maqolat va hikoyatlarda barcha zamonlar uchun o'ta dolzarb bo'lgan barkamol avlod, komil inson haqidagi ulug' mutafakkirning teran axloqiy – ma'naviy, ijtimoiy-falsafiy mulohazalari badiiy ifodasini topgan. “Hayrat ul-abror”da ham ijodkorning barkamol shaxs haqidagi o'ylari maqolatlarda yorqin in'ikosini topgan. Asardagi hikoyatlar esa maqolatlarda ilgari surilgan tayanch g'oyalarni o'quvchi shuuriga yanada teranroq ta'sir etishi, uning mavzu bilan mukammalroq tanishishga imkon yaratadi”.²³¹ Bu hikoyatlarda ko'pdan ko'p mavzular qalamga olingan. Ma'lumki, dostonning har bir maqolati biror masalani yoritishga qaratilgan. Ana shu mavzular hikoyatlarda ham yanada rivojlantirilgan. Professor A.Hayitmetov to'g'ri ta'kidlaganidek: “Alisher Navoiy ijodining ulug'vorligi avvalo undagi mavzular va g'oyalar olamining kengligi, rang-barangligi bilan bizni hayratga soladi. Unda o'z davrining biror muhim muammosi, o'sha davr hayotining biron tomoni yoritilmasdan qolmaganday. Buni biz, avvalo, “Xamsa” dostonlarida ko'ramiz”.²³² “Xamsa”ning birinchi dostoni bo'lmish “Hayrat ul-abror”da deyarli barcha mavzular uchraydi. Ollohning ulug'vorligi, uning madhi, payg'ambarimiz Muhammad a.s.ning tarjimai hollari, ulug' sifatlari, maqtovlari, islom dini, iymon, ustozlari Nizomiy,

²³¹ Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent, 2006. 311-312-betlar.

²³² Hayitmetov A. Alisher Navoiy ijodida mavzularga bo'lish va tanlash prinsiplari. // Navoiyga armug'on. 3-kitob. Toshkent, 2003. 8-bet.

Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiylarga ehtirom, soʻz va koʻngil, pir va murid munosabatlari, adolat, karam va saxovat, halol mehnat, odob-axloq va hayo, qanoat, ishq va vafo, rostlik, muomala, mehr, ota-onaga hurmati, mardlik, kechirimlilik va avf, insof va kamtarlikni ulugʻlash, oʻziga oro berish va mayxoʻrlikni qoralash, yolgʻonchilik, boʻlar-boʻlmasga kulish, odobsizlik, zulm va adolatsizlik, tama va ikkiyuzlamachilik, dunyoga hirs qoʻyish, oʻgʻrilik kabilarni tanqid qilish asosiy oʻrin tutadi. Professor A. Abdugʻafurov “Xamsa” dostonlarining mavzulari haqida shunday yozadi: “Xamsa” dostonlarida biz, avvalo, inson sharaf-gʻururini, erik-huquqini, yuksak insoniy fazilatlarini yetuk badiiylik bilan ulugʻlagan, zulm va zoʻravonlikni inkor etib, sevgi va sadoqatga madh oʻqigan buyuk daho ijodkor Navoiyni koʻramiz. Bularda zoʻlim hukmdorlarni laʼnatlab, odil va orif shoh gʻoyasini olgʻa surayotgan, urush-qirgʻinlarni qoralab, doʻstlik, hamkorlikni targʻib etayotgan, mamlakat obodligi va el-ulus farovonligi ustida qaygʻuruvchi yirik davlat arbobi mutafakkir Navoiy bilan, oʻz ona tilining obroʻ eʼtiborini himoya qilib, uning cheksiz boyligi va keng imkoniyatlarini amalda isbot etishga kirishgan otashin vatanparvar Navoiy bilan uchrashamiz. Bu dostonlarning barchasida yovuzlik va yomonlik bilan, pastkashlik va riyokorlik bilan kelisha olmaydigan odil va haqqoʻy, ezigulik va yaxshilikni, sofgoʻylik va toʻgʻrilikni kuylovchi xalqparvar va olijanob muallif “Meni” faol harakat etadi”.²³³

“Hayrat ul-abror”dagi yigirma bir hikoyatni mavzu jihatdan quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Diniy-tasavvufiy ruhdagi hikoyatlar. Bularga “Avvalgi maqolat”ga ilova tarzida keltirilgan Boyazid bilan bogʻliq “Sulton ul-orifin va murid hikoyati”, ikkinchi maqolatga ilova tarzida keltirilgan “Ibrohim Adham va Robia Advia” bilan bogʻliq hikoyat, toʻrtinchi maqolatga ilova qilingan Abdulloh Ansoriy haqidagi hikoyat, toʻqqizinchi maqolatga ilova qilingan Shayx Iroqiy bilan bogʻliq hikoyat, oʻn ikkinchi maqolatga ilova

²³³ Abdugʻafurov A. Buyuk beshlik saboqlari. Toshkent, 1995. 20-bet.

qilingan Yoqut husni xati bilan bog'liq hikoyat, o'n uchinchi maqolat uchun keltirilgan "Ayyubi xalaf va o'g'ri bilan bog'liq hikoyat, o'n oltinchi maqolatga ilova tarzida keltirilgan Abdulloh Muborak jihodi, o'n yettinchi maqolatga ilova shaklida keltirilgan Imomi Zaynul-obidin hikoyati, yigirmanchi maqolatga ilova qilingan Xoja Muhammad Porso va o'g'li Xoja Abu Nasr haqidagi hikoyatlar kiradi.

2. Adolat va insof mavzusi bilan bog'liq hikoyatlar. Bularga uchinchi maqolatga ilova qilingan "Shoh G'oziy" hikoyati, "Ul qul" hikoyati kiradi.

3. Halol mehnat va saxovat ulug'langan hikoyat. Bunga "Hotam Toyi va chol" hikoyati kiradi.

4. Odob-axloq bilan bog'liq hikoyatlar. Ularga "No'shiravon hayosi", "Ikki vafoli yor", "Qoni Juvonmard ila tomi" hikoyati", "Sher bilan Durroj hikoyati" kabilar kiradi.

5. Falsafiy ruhdagi hikoyat. Bunga "Iskandar va xoli qo'li bilan bog'liq hikoyat" kiradi.

6. Ilm-irfon g'oyalari bilan bog'liq hikoyat. Bunga o'n birinchi maqolatga ilova qilingan "Imom Faxr Roziy bila Sulton Muhammad Xorazmshoh" haqidagi hikoyat kiradi.

7. May va mayxo'rlik qoralangan hikoyatlar. Bularga "Bani Isroiliyi Rind hikoyati", "Bahrom haqidagi hikoyat" kiradi.

8. Ishq va uning kechinmalari bilan bog'liq hikoyat. Bunga o'n sakkizinchi maqolatga ilova tarzida keltirilgan "Chin marg'zori" haqidagi hikoyat mansub.

Ko'rinadiki, "Hayrat ul-abror"dagi hikoyatlar mavzusi rang-barangdir. Professor N.Mallayev bu haqda shunday yozadi: "Navoiy hikoyalari mavzui, g'oyaviy mazmuni, obrazlari va badiiy uslubi jihatidan xilma-xildir.

Ularning ko'pchiligi axloq-odob, ilm-ma'rifat, insof-adolat, sevgi va sadoqat, mehnat va mehmondo'stlik kabi masalalarga bag'ishlangan hikoyalardir".²³⁴ "Hayrat ul-abror" falsafiy, diniy-tasavvufiy, axloqiy ruhdagi asar bo'lgani uchun

²³⁴ Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. Toshkent, 1974. 186-bet.

ham unda diniy ruhdagi hikoyatlar ko'pchilikni tashkil etadi. Shoirning asosiy fikri maqolatlarda keltirilgan. Yigirma maqolatda turlicha mavzu va masalalar yoritilgan.

Fikrni asoslash uchun o'shanga mos hikoyat keltirilgan. "Hayrat ul-abror"dagi "Avvalgi maqolat" "Imon sharhidakim" deb nomlanadi. Unda insonlikning asosiy belgisi imon ekanligi aytiladi:

Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki nishoni anga imon erur...
Bas ani inson demak o'lg'ay ravo,
Kim ishi imon bila topqay navo.²³⁵

Yana bu qismda imonning oltita belgisi – haqni tanish, farishtalarni bilish, Qur'oni karimga ixlos, payg'ambarimizga ishonch, qiyomatga ishonish, Ka'bani ziyorat qilish – hajga sharh beriladi. Keyin yigirma uchinchi bobda "Sultonul-orifin va murid" haqidagi hikoyat keltiriladi. Yigirma ikki bayt – qirq to'rt misrali bu hikoyatning mavzusi diniy-tasavvufiy ruhda. Mashhur shayx Boyazidning g'amgin bo'lib turganini ko'rgan murid buning sababini so'raydi. Shayx yig'lab, oh-voh chekib, bu dunyoda odam ko'pligini, lekin haqiqiy kishi topilmasligini aytadi. Yaxshi kishi bu dunyoda borligini bilmasligini, bor bo'lsa ham o'tib ketganini bildiradi. Murid shu el ichida o'zing ham bor, sen ularga mansub emasmisan deydi. Shayx Boyazid unga javoban imon bilan ketmasang, inson degan nom olishing mumkin emas deydi.

Shayx dedi: "Ey ishi gumrohliq,
Topmog'on ish sirridin ogohliq.
Men dog'i yuz ming meni sargashtadek,
Ashki bog'ur qonig'a og'ushtadek,
Bo'lmasa imon bila ketmak ishi,
Anglaki oni d esa bo'lmas kishi."²³⁶

²³⁵ Alisher Navoiy. "Hayrat ul-abror" MAT. 20 tomlik. 7-tom. Toshkent, 1991. 100-101-betlar. (Izoh: boshqa misollar ham shu manbadan olinib, beti ko'rsatiladi.)

²³⁶ "Hayrat ul-abror". 109-bet.

“Boyazidga bu nukta ya’ni imonning butligi, solimligi ayon emas. Shu bois u muridining oldida qayg’ulik o’tiradi. Xulosa shuki, ne-ne ulug’ so’fiylar o’zining imoni butligiga gumonsiragan ekan, Navoiy ular oldida o’zini savol beruvchi gustoh murid yanglig’ his etadi”.²³⁷ Dostonning ikkinchi maqolati “Islom bobidakim...” deb nomlanadi. Unda ham islom dini g’oyalari, asoslari yoritib beriladi. Islom shartlari ko’rsatiladi. Kalimai shahodat, Muhammad a.s.ning payg’ambarligi, tahorat, zakot, ro’za haqida gapirib o’tiladi. Unga ilova tarzida yigirma beshinchi bobda “Ibrohim Adham va Robiayi Adviya” haqidagi hikoyatni keltiradi. Bu hikoyatning hajmi yigirma bayt- qirq misra. U ham to’liq diniy mazmunda. “Alisher Navoiy o’zining shariy-axloqiy mulohazalarini ibratli hayotiy lavhalar bilan dalillash maqsadida musulmon dunyosida dovrugli mutasavvif Ibrohim Adham haqidagi she’riy hikoyatini keltiradi. Mazkur lavhalarda yana bir taniqli ma’naviy-ruhiy arbob Robiayi Adviya ham ishtirok etadi. Ibrohim Adham 14 yil sahro kezib Makkai mukarramaga yetib keladi. Ammo Ka’batulloh o’z o’rnida yo’q ekan. O’sha muqaddas makonda hozir bo’lganlar muborak sajdagohning Robiayi Adviya istiqboliga chiqqanligini ma’lum qilishadi. Tabiiyki, bunday kutilmagan hodisa Ibrohim Adham fig’onini falakka ko’taradi. Shunday qilib, Ibrohim va Robiyaning uchrashuvi hamda muloqotlari voqe bo’ladi. Ibrohim Adhamning fig’onli savollarini tinglagan bokira-yu zakovatli ayol Robia quyidagicha javob qaytaradi:

Robia dedi anga: “Ogoh bo’l,
 Kim necha yil bodiyada borcha yo’l.
 Bo’ldi ishing arzi namoz aylamak,
 Sheva manga arzi niyoz aylamak.
 Sanga samar berdi namoz-u riyo,
 Bizga bu bar berdi niyozu fano”.²³⁸

²³⁷ G’afforov N. Alisher Navoiy “Xamsa”sida so’fiylar timsoli. Fil.fan.nom.diss. avtor. Toshkent, 1999. 12-bet.

²³⁸ Vohidov R., Eshonqulov H. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent, 2006. 314-bet.

“Hayrat ul-abror”ning to`rtinchi maqolati “Riyoyi xirqapo`shlar sulukidakim...” deb nomlanadi. Bu bob shunday sharhlanadi: “Xirqa kiygan riyokor shayxlar xususidakim, ularning oldida haqiqiy libos degani hiyla-nayrang kiyimdir, avom xalqqa o`rgatadigan haqiqat va bilimlari esa ahmoqlik, haqiqiy mayxo`rlar to`g`risidakim, ularning vujud kiyimlari yo`qlik qo`lining zarbasidan yirtilgan va Iso nafasidek jonbaxsh nafaslari esa muqaddas ruh kabi pok va ziyorat joylari falakning sahnidi”.²³⁹

Unda yolg`onchi, riyokor din vakillari fosh qilinadi. Ularning xirqalari, salla, aso (hassa), tasbeh, uzun soqollari, xonaqohda o`tirishi, mehrobda toat qilishlari xalqni aldash vositasi ekanligi uqtiriladi. Bu el barcha yomonlardan yomonligi aytiladi:

Bu el erur borcha yomondin yomon,
Kimki yo`q andin yomon, andin yomon.²⁴⁰

Bu boradagi fikrlardan so`ng, yigirma to`qqizinchi bobda Xoja Abdullohi Ansoriy haqidagi hikoyat keltiriladi. Bu hikoyatning hajmi kichik – o`n to`rt bayt – yigirma sakkiz misra. Uning mazmuni ham diniy ruhda. Shoir Abdullohi Ansoriyni ulug`laydi. Butun Hirot ahli, hatto olam ahli tomonidan qibla deb hurmat qilingan bu so`fiyning ishi toat, Olloh amriga itoat etish ekanligi aytiladi. Shayxning Haqqa bo`lgan e`tiqodi, do`zzax-u janatdan maqsadi yo`qligi, yor visolidan umidvorligi tasvirlanadi:

Ulki ani qibla der ahli Hirot,
Dema Hirot ahli, bari koinot.
Ahli ayon soliki atvori ul,
Ismda Abdullohi Ansori ul.
Dedi bukim, ish manga toat turur,
Tengrining amrig`a itoat turur.²⁴¹

Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining to`qqizinchi maqolati “Ishq o`ti ta`rifidakim...” deb nomlanadi. Bu qismda

²³⁹ Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror”. Toshkent, 1989. 248-bet.

²⁴⁰ “Hayrat ul-abror”, 137-bet.

²⁴¹ “Hayrat ul-abror”. 141-bet.

asosan ilohiy ishq haqida gap boradi. Oллоh husni, Haq jamoli, shavq o`ti haqida, ishq kuch-qudrati haqida gapiriladi. Ishq bor joyda aql ojiz bo`lishini, xoshokning o`tga tushishiga, ishqqa duchor bo`lgan pil (fil) mo`rga (chumoliga) aylanishi, oshiq kishining tili, ko`zi, ko`ngli pok bo`lishi aytiladi.

Bu bobda mana bu mashhur baytlar bor:

Bo`lmasa ishq, ikki jahon bo`lmasun,

Ikki jahon demaki, jon bo`lmasun.

Oshiq ani bilki, erur dardnok,

Ham tili, ham ko`ziyu ham ko`ngli pok.²⁴²

Ushbu fikrlardan keyin “Shayxi Iroqiy Shomda husn shami gulin ko`rgach, parvonadek tutashqoni va shu`lasi inkor tikonlarin kuydurib, munkirlar boshig`a oshqoni” deb nomlanuvchi hikoyat keltiriladi. Bu hikoyatning hajmi o`ttiz ikki bayt – oltmish to`rt misradan iborat. Ilohiy, haqiqiy ishq haqida gapiriladi. Hikoyatda yozilishicha, fano ko`yida yurgan Shayx Iroqiy Misrda bir necha vaqt yashab qoladi. Keyin u Shom safariga otlanadi. Uning Shomga kelayotganini eshitgan hokim barchani uni kutib olishga chiqishini buyuradi. O`zi ham Shayxni kutib olishga chiqadi. Barcha kishilar otlardan tushib, ta`zim qilib Shayxga hurmat ko`rsatadilar. Shom viloyati hokimining bir o`g`li bor edi. U go`zallikda, lutfu malohatda Yusuf payg`ambar darajasida edi.

Bor edi voliga bir andoq o`g`ul,

Kim anga yuz Misr shahi erdi qul.

Lutfu malohatda jahon ofati,

Dema jahon ofati, jon ofati.

Shom savodida mahi anvar ul,

Misr eliga Yusufu payg`ambar ul.²⁴³

Shayxning ko`zi unga tushgach, yoqasini chok etadi, ishq uni shu ko`yga tushiradi. Vujudida titroq, og`zida dod-faryod uyg`onadi. Bu pok ishq edi. Oллоh jamolining aksini unda ko`rgan edi. Navoiy aytganidek, bu ishq pok edi, haqiqiy ishq edi.

²⁴² “Hayrat ul-abror”. 191-193-betlar.

²⁴³ “Hayrat ul-abror”. 199-bet.

Ishqda pok o'lsa kishi bu sifat,
Xosiyat bo'lur bu sifat oqibat.
Husni haqiqiyini gar o'truda ko'r,
Xoh ani ko'zgidavu, gar suvda ko'r.²⁴⁴

“Hayrat ul-abror”ning o'n ikkinchi maqolati qalam haqida. Unda kotiblik, kitob, xat yozish, harflarni, so'zlarni to'g'ri yozish haqida gap boradi. Bu maqolatga ilova tarzida “Yoqutning husnixat tufayli podshohlar oldida ham, darveshlar oldida ham hurmati ortgani” haqidagi hikoyat keltiriladi. Bu hikoyatda shayx Suhravard va Yoqut munosabatlari ko'rsatiladi. Hikoyat yigirma bayt – qirq misradan iborat. “Shayx Suhravard bilan bog'liq hikoyatda haq sari yo'lda kim peshroq: so'fiymi yo xattot degan masala qo'yiladi. Abbosiy xalifa Musta'sim shayx Suhravardga yuksak hurmat ko'rsatib, uni o'z taxtiga o'tqazadi, o'zi uning yoniga cho'kadi.

Shunda shayxning nigohi Qur'onni ko'chirishda zamonasining yaktosi bo'lgan Yoqutga tushadi. Shayx o'midan turib, unga hurmat ko'rsatadi. Hamma hayratda. Shunda shoh Suhravardga: “Ne-ne ogoh kishilar (so'fiylar) ham ayog'ingning tufrog'ini o'padi, ne-ne shohlar senga qulluq qilganidan faxrlanadi-yu, sen nimasi uchun Yoqutga buncha ehtirom ko'rsatyapsan?” – deb so'raydi. Shayx esa: “Chunki “Qur'on” bitishda uning oldiga tushadigan kishi yo'q. U Xudoning so'zlarini bezaydi. Shuning uchun uning hurmatini joyiga qo'yish biz uchun vojib deydi”.²⁴⁵Dostondagi yana bir diniy-islomiy ruhdagi hikoyat o'n uchinchi maqolatda keltirilgan. Bu maqolat “Sahobdek naf rassonlar bobidakim..” deb nomlanadi. Shoir odamlarga foydasi tegadiganlarni maqtaydi. Kim boshqalarga ko'p foyda keltirsa, o'zi undan ko'proq naf topishini aytadi:

Naf'ing agar xalqqa beshak durur,
Bilki bu naf' o'zunga ko'prak durur.²⁴⁶

²⁴⁴ “Hayrat ul-abror”. 200-bet.

²⁴⁵ G'afforov N. Alisher Navoiy “Xamsa”sida so'fiylar timsoli. Toshkent, 1999. 14-15-betlar.

²⁴⁶ “Hayrat ul-abror” 234-bet.

Bu qismda shoir yaxshi-yomon odamlar, til foydalari, soʻz bilan yomon kishi ham yaxshi boʻlishi, yaxshi soʻzdan oʻlik ham najot topishi haqida gapiradi. Hammaga maʼlum mana bu baytlar ham shu yerda keltirilgan:

Odamiy ersang demagil odami,
Oniki yoʻq xalq gʻamidin gʻami.²⁴⁷

Faqat oʻzini oʻylaydigan kishilarni shoir chumoliga oʻxshatadi. Ishi uyiga tashish boʻlgani uchun u tiriklayin yerga – goʻrga kirdi deydi. Yana supurgiga oʻxshatadi. U ham faqat toʻdalash bilan mashgʻul boʻlgani uchun eshik ortida xor boʻlib yotadi deydi. Bu maqolatga dalil sifatida “Ayyubi xalaf noxalaf oʻgʻrining egriligini tuzgona...” haqidagi hikoyatni keltiradi. Bu hikoyatning hajmi yigirma sakkiz bayt – ellik olti misra. Hikoyatning mazmuni quyidagicha: “Ayyub – “basha xayli”ning insoni, odamiylar odami. Jismi shamdek ishq oʻtida kuygan xalaf (oʻrinbosar) uyida sajda qilayotgan kechalarning birida unikiga oʻgʻri kiradi. Xalaf buni sezsa ham, eʼtibor bermay, toatida davom etadi. Oʻgʻri uydan nimaiki topsa, yigʻib, toʻplab, teshikka kirmoqchi boʻladi. Lekin sigʻmaydi. Shunda Ayyub oʻrnidan turib, eshikni ochadi va oʻgʻriga yoʻl koʻrsatadi. Oʻgʻri qilgan gunohini tushunib, pining oyoqlariga tiz choʻkadi. Hikoyatning tasavvufiy talqini shunday: qalb koʻzi koʻr, odamlarga nafi tegmaydigan, tili ham, koʻngli ham saxovatdan bebahra kishi oʻgʻrilikka kiradi, yaʼni murshidning oldiga keladi. Ayyubi xalafning eshik ochib, yoʻl koʻrsatishi oʻgʻrining tavbasiga asos boʻladi. Yoʻl – ramz. U – tariqatga boshlash va ollohni tanish”.²⁴⁸ Hikoyatda adashgan, yoʻlini topolmagan kishini toʻgʻri yoʻlga boshlash, uni gunoh va xato ishlardan qutqarish foydali ish ekanligi taʼkidlanmoqda. Oʻgʻrini Haq yoʻlga boshlagan Ayyub katta ish qilgan edi. Oʻgʻrining bir gunohini – oʻgʻriligini kechirish orqali unga toʻgʻri yoʻl koʻrsatilgandi:

²⁴⁷ Oʻsha asar, 240-bet.

²⁴⁸ Gʻafforov N. Alisher Navoiy “Xamsa”sida soʻfiylar timsoli. Toshkent, 1999. 16—bet.

Ishqda pok o'lsa kishi bu sifat,
Xosiyat bo'lur bu sifat oqibat.
Husni haqiqiyini gar o'truda ko'r,
Xoh ani ko'z gudavu, gar suvda ko'r.²⁴⁴

“Hayrat ul-abror”ning o'n ikkinchi maqolati qalam haqida. Unda kotiblik, kitob, xat yozish, harflarni, so'zlarni to'g'ri yozish haqida gap boradi. Bu maqolatga ilova tarzida “Yoqutning husnixat tufayli podshohlar oldida ham, darveshlar oldida ham hurmati ortgani” haqidagi hikoyat keltiriladi. Bu hikoyatda shayx Suhravard va Yoqut munosabatlari ko'rsatiladi. Hikoyat yigirma bayt – qirq misradan iborat. “Shayx Suhravard bilan bog'liq hikoyatda haq sari yo'lda kim peshroq: so'fiymi yo xattot degan masala qo'yiladi. Abbosiy xalifa Musta'sim shayx Suhravardga yuksak hurmat ko'rsatib, uni o'z taxtiga o'tqazadi, o'zi uning yoniga cho'kadi.

Shunda shayxning nigohi Qur'onni ko'chirishda zamonasining yaktosi bo'lgan Yoqutga tushadi. Shayx o'midan turib, unga hurmat ko'rsatadi. Hamma hayratda. Shunda shoh Suhravardga: “Ne-ne ogoh kishilar (so'fiylar) ham ayog'ingning tufrog'ini o'padi, ne-ne shohlar senga qulluq qilganidan faxrlanadi-yu, sen nimasi uchun Yoqutga buncha ehtirom ko'rsatyapsan?” – deb so'raydi. Shayx esa: “Chunki “Qur'on” bitishda uning oldiga tushadigan kishi yo'q. U Xudoning so'zlarini bezaydi. Shuning uchun uning hurmatini joyiga qo'yish biz uchun vojib deydi”.²⁴⁵Dostondagi yana bir diniy-islomiy ruhdagi hikoyat o'n uchinchi maqolatda keltirilgan. Bu maqolat “Sahobdek naf rassonlar bobidakim..” deb nomlanadi. Shoir odamlarga foydasi tegadiganlarni maqtaydi. Kim boshqalarga ko'p foyda keltirsa, o'zi undan ko'proq naf topishini aytadi:

Naf'ing agar xalqqa beshak durur,
Bilki bu naf' o'zunga ko'prak durur.²⁴⁶

²⁴⁴ “Hayrat ul-abror”. 200-bet.

²⁴⁵ G'afforov N. Alisher Navoiy “Xamsa”sida so'fiylar timsoli. Toshkent, 1999. 14-15-betlar.

²⁴⁶ “Hayrat ul-abror” 234-bet.

Bu qismda shoir yaxshi-yomon odamlar, til foydalari, soʻz bilan yomon kishi ham yaxshi boʻlishi, yaxshi soʻzdan oʻlik ham najot topishi haqida gapiradi. Hammaga maʼlum mana bu baytlar ham shu yerda keltirilgan:

Odamiy ersang demagil odami,
Oniki yoʻq xalq gʻamidin gʻami.²⁴⁷

Faqat oʻzini oʻylaydigan kishilarni shoir chumoliga oʻxshatadi. Ishi uyiga tashish boʻlgani uchun u tiriklayin yerga – goʻrga kirdi deydi. Yana supurgiga oʻxshatadi. U ham faqat toʻdalash bilan mashgʻul boʻlgani uchun eshik ortida xor boʻlib yotadi deydi. Bu maqolatga dalil sifatida “Ayyubi xalaf noxalaf oʻgʻrining egriligini tuzgoni...” haqidagi hikoyatni keltiradi. Bu hikoyatning hajmi yigirma sakkiz bayt – ellik olti misra. Hikoyatning mazmuni quyidagicha: “Ayyub – “basha xayli”ning insoni, odamiylar odami. Jismi shamdek ishq oʻtida kuygan xalaf (oʻrinbosar) uyida sajda qilayotgan kechalarning birida unikiga oʻgʻri kiradi. Xalaf buni sezsa ham, eʼtibor bermay, toatida davom etadi. Oʻgʻri uydan nimaiki topsa, yigʻib, toʻplab, teshikka kirmoqchi boʻladi. Lekin sigʻmaydi. Shunda Ayyub oʻrmidan turib, eshikni ochadi va oʻgʻriga yoʻl koʻrsatadi. Oʻgʻri qilgan gunohini tushunib, piring oyoqlariga tiz choʻkadi. Hikoyatning tasavvufiy talqini shunday: qalb koʻzi koʻr, odamlarga nafʼi tegmaydigan, tili ham, koʻngli ham saxovatdan bebahra kishi oʻgʻrilikka kiradi, yaʼni murshidning oldiga keladi. Ayyubi xalafning eshik ochib, yoʻl koʻrsatishi oʻgʻrining tavbasiga asos boʻladi. Yoʻl – ramz. U – tariqatga boshlash va ollohni tanish”.²⁴⁸ Hikoyatda adashgan, yoʻlini topolmagan kishini toʻgʻri yoʻlga boshlash, uni gunoh va xato ishlardan qutqarish foydali ish ekanligi taʼkidlanmoqda. Oʻgʻrini Haq yoʻlga boshlagan Ayyub katta ish qilgan edi. Oʻgʻrining bir gunohini – oʻgʻriligini kechirish orqali unga toʻgʻri yoʻl koʻrsatilgandi:

²⁴⁷ Oʻsha asar, 240-bet.

²⁴⁸ Gʻafforov N. Alisher Navoiy “Xamsa”sida soʻfiylar timsoli. Toshkent, 1999. 16—bet.

Kingaki ko`rgussalar ul nav` yo`l,
O`zga yo`lidan chiqa olg`aymi ul?
Na`ra chekib, sel kibi to`kdi yosh,
Shayx ayog`iga fido qildi bosh.
Komial anga berdi chu bu parvarish,
Ayladi bir afv bila muncha ish.²⁴⁹

“Hayrat ul-abror”dagi o`n oltinchi maqolatga ilova qilingan hikoyat ham diniy-tasavvufiy ruhda. U hikoyat “Abdulloh Muborakning burqa` bila jihod maydonig`a kirib, fath jamolidin burqa` olg`oni va Hasan Rabi` ul jamolini ko`rub hayron qolg`oni” deb nomlanadi. Bu hikoyat o`ttiz to`rt bayt-oltmish sakkiz misradan iborat. Uning mavzusi mardlik. Shayxning jihodga kirib, dushmani yenggani haqida. Hikoyat mashhur so`fiylardan Hasan ibn Rabi` tilidan rivoyat qilinadi. Unda yozilishicha, kuffor – kofir, ya`ni dushman tomondan bir pahlavon chiqib, yakkama-yakka jangga raqib chaqiradi. Ko`plab musulmonlar uning tig`idan halok bo`ladi:

Kimki xirom ayladi maydonig`a,
Kirdi o`zi kuch bila o`z qonig`a.
Necha musulmonni chu qildi shahid,
Bo`lmish edi din cherigi noumid.²⁵⁰

Bu holat hammani tashvishga soladi. Shunda yuziga burqa` – niqob tortgan bur mard kishi maydonga kiradi. Bir na`ra tortib, dushmani urib yiqitadi. Uni do`zzaxga yuboradi – o`ldiradi. Qo`shin ichida g`ala-g`ovur ko`tariladi. Hech kim uning kimligini bilmaydi:

Chehrasini burqa` aro yoshurib,
Ishq o`ti yanglig` yoshurin kuydirib.
Qahr ila kofirg`a yetishg`an zamon,
Hamla hamon erdiyu, yiqmoq hamon.
G`ozi o`zin chunki ayon qilmadi,
Kimsa aning kim ekanin bilmadi.²⁵¹

²⁴⁹ “Hayrat ul-abror” 244-bet.

²⁵⁰ “Hayrat ul-abror” 277-bet.

²⁵¹ “Hayrat ul-abror” 277-bet.

Hasan ibni Rabi` uning kimligini bilish uchun qidirib topadi. Xudo nomini tilga olib, o`zini tanitishini, yuzidagi pardani olishini so`raydi. Tangri oti tilga olingach, yuzini ochadi. Bu Abdulloh Muborak edi. O`zini tanitib, barchaga ko`rinish berishini so`raganda, Olloh hammasidan xabardor ekanligi, kishilar bilsa-bilmasa ham, oshiq yori uchun ham ishini pinhon tutishi zarurligini aytadi. Olloh yo`lida, islom yo`lida bu ishni bajarganini bildiradi.

Dostonda o`n yettinchi maqolatga ilova qilingan hikoyat ham diniy mazmunda. Ayni paytda bu yerda mehr-muhabbat mavzusi ham bor. O`n yettinchi maqolat “Bahor yigitligi nazohatidakim...” deyiladi. Unda bahor, yigitlik, bahordagi o`zgarishlar, inson umri kabilar haqida gapiriladi. Ilova tarzida “Imomi ma`sumi Zaynul-obidinning sag`erasi ma`sumasining kabirush-shon kalomi, agarchi ul sag`iradin ma`sum edi” nomli hikoyat keltiriladi. Bu hikoyatning hajmi o`ttiz bayt – oltmish misra. Uning mazmuni quyidagicha: Zaynul-obidin bir kuni yosh bolaning boshini silab mehr ko`rsatadi. Uning olti yoshlardagi bir aqlli bolasi bor edi. U otasining boshqa bolaga mehr ko`rsatayotganidan yig`laydi. Otasi buni rashkdan deb biladi:

Ko`rdi otasiki, sevar yoshini,
Yosh to`kubon qildi girih qoshini.
Chehra uza yoshini ko`rgach imom,
Istadi qoshig`a qilib ehtiom.
Qildi tasavvur yuzida ashkdin,
Ki magar ul yig`lar edi rashkdin.²⁵²

Otasi unga mehr bilan boqib, u bola hali sut emadigan yoshdaligi, ta`ni ojizligi, mehrga muhtojligi sabab shunday qilganini aytadi. Rashk qilish yaxshi emasligini tushintiradi. Bolasi bunday emasligini, u boladan rashk uchun yig`lamaganini, balki bir kuni otasidan Haqdan o`zgaga mehr qo`ymaganini eshitganini, endi esa o`zgaga mehr berib, Haqni unutganidan, otasining ahdiga turmaganidan yig`laganini aytadi. Otasi bu

²⁵² “Hayrat ul-abror” 291-bet.

gaplardan ta'sirlanib, ko'z yoshi to'kadi. Bu hikoyatda Oллоh ishqı barcha narsadan ustunlıgı, Haq mehri ko'ngılda abadiy bo'lishi ta'kidlangan.

“Hayrat ul-abror”dagi yigirmanchi maqolatga ilova qilingan maqolat ham diniy-tasavvufiy ruhda. Bu maqolat “Ul maqsud adosidakim...” deb boshlanadi. Unda shahzoda Sulton Badiuzzamonga nasihatlar qilinadi. Bu qismga “Xoji Muhammad Porsodin haj ahli duo istid'o qilmoq va o'g'li Xoja Abu Nasr aning istid'osi bila duo qilmoq” deb nom qo'yilgan hikoyat kiritilgan. Bu hikoyat o'ttiz to'rt bayt- oltmish sakkiz misradan iborat. Unda Xoja Muhammad Porso va uning o'g'li Xoja Abu Nasr bilan bog'liq voqea bayon qilingan. Xoja Makka safariga chiqadi. O'gli ham unga hamroh bo'ladi. Ular bilan birga yo'lga chiqqan ko'pchilik odamlar hajga yetib keladilar. Tilaklari Haqqa ijobat bo'lishini tilab duo istaydilar. Duo o'qishni Xojadan so'raydilar. Xoja o'g'liga ishorat qiladi. Uning bu ishda komil ekanini aytadi. Ota o'g'illardagi bu ahillikning boshqa ota-o'g'illarda ham bo'lishini Navoiy istaydi. Go'yo Husayn Boyqaro o'g'illariga namuna sifatida keltirgandek.

Umuman, “Hayrat ul-abror”dagi yigirma bir hikoyatdan to'qqiztasi diniy, islomiy, tasavvufiy mazmunda bo'lib, ularda Oллоh ishqı, so'fiy va shayxlarning hayoti bilan bog'liq voqealar bayon qilingan.

“Hayrat ul-abror”dagi ikki hikoyat adolat, insof va afv haqida. Bular “Shoh G'oziy” va “Ul qul hikoyatikim” kabilardir. “Shoh G'oziy hikoyati” uchinchi maqolatga ilova qilingan. Ma'lumki, uchinchi maqolat “Salotin bobidakim” deb boshlanadi. Unda shoir podshohga xitoban deydi: ham adolat ravishida, ham insofda, yumshoq muomalaliq, hayo va odob barcha yaxshi fazilatlarga ega bo'lishlikda sen yo'l qirg'og'idan chetga chiqib ketgansan, odamlarning qo'llari shu jihatdan sendan ko'ra yaxshiroqdirlar. Navoiy podshohlarning qasrlarida el jonidan ip tortib tikilgan bezaklar, ulus qoni bilan qizartirilgan peshtoqlar, el masjididan g'isht keltirib, qabrlar toshini ko'chirib kelib qurilgan saroylarga la'natlar o'qiydi... Navoiy podshohlarning bunday

ishlarni tark etishga chaqiradi, adolat bilan ish tutishga undaydi”.²⁵³ Adolat haqidagi fikrlarini asoslash uchun, odil podshoh timsoli sifatida “Shoh G’oziy hikoyati”ni keltiradi. Bu hikoyat dostonning o’ltiz yettinchi bobida berilgan. Uning hajmi qirq bir bayt- sakson ikki misra. Asosiy mazmuni shohning adolati, jabrdiyda kampirning arz-dodiga quloq tutib, to’g’ri hukm chiqarganida. “Hikoyat garchi tarixiy shaxs Sul-ton Husayn Boyqaro nomi bilan bog’liq bo’lsa-da, aslida xalq ertaklarini eslatadi: unda shoirning odil hukmdor haqidagi orzulari ifoda etilgan. Hikoyatda shohning odilligini ko’rsatuvchi, uning davrida adolat hukmron ekanligini isbot etuvchi lavhalar bitiladi. Shaharni sayr etib yurgan Boyqaroning etagini bir kampir tutib, da’vo bilan mahkamaga – qozi oldiga olib keladi hamda taxt talashib, urush qilib yurgan yillarida yakka-yu yagona o’g’lini nohaq o’ldirganlikda ayblaydi. Hikoyatda Navoiy qozining ham obrazini orzu tarzida chizadi: u hukmdorga ham, beva kampirga ham bir xil munosabatda bo’ladi. Ularga da’vogar va javobgar shaxslar sifatida yondashadi. Adolat bilan qonun doirasida hukm chiqarishga kirishadi. Ikki kishi guvohligida aybi bo’yniga qo’yilgan shoh gunohkor deb topiladi, bevaga esa uni o’ldirish yoki o’g’li evaziga xun haqi undirib olish huquqi beriladi. Hukmga bo’ysungan shoh odilligidan lol qolgan kampir uning jonini omon qoldiradi, o’g’li evaziga oltin olish bilan cheklanadi, xalq orasida esa “Zoli zar” (“tilla kampir”) laqabi bilan shuhrat topadi”.²⁵⁴

Dostonning oxirgi qismida oltinmish uchinchi bobda “Ul qul hikoyatikim” keltiriladi. Bu hikoyatning maqolatlarga bog’liqligi yo’q. Asar xotimasida berilgan. Uning hajmi yigirma bayt – qirq misra. Hikoyatda adolat, kechirimlilik mazmuni singdirilgan. Uning mazmuni quyidagicha: Bir saxovatli podshoh bor edi. Uning xizmatida bir bakovul qul bor edi. Bakovul – podshohning dasturxon-i, osh-ovqatidan xabardor kishi. Bir kuni

²⁵³ Qayumov A. Alisher Navoiy. Toshkent, 1976. 62-63-betlar

²⁵⁴ Abdug’afurov A. Buyuk beshlik saboqlari. Toshkent, 1995. 50-51-betlar.

shoh ovqatlanishni xohlaydi. U qul turtinib ketib, issiq ovqatni shohning boshiga to`kib yuboradi:

Bir kun aning bazmida shilon chog`i,
Shohga ham ishtaha o`lg`on chog`i.
Nakbat ayog`ig`a urib toshni,
Shah boshig`a to`kdi isiq oshni.²⁵⁵

Atrofdagilar podshoh uni o`ldiradi, deb o`ylashadi. Shoh qulg`a boqib, uning ahvoliga achinadi va uni ozod qiladi. Vazir bu qulning jazosi o`lim ekanligini aytadi. Podshoh esa, kulib bu qul uyat va xijolatdan o`lib bo`ldi. Hech kishi o`lgan odamni qaytadan o`ldirmaydi deydi. Kim gunoh ish qilsa, uni kechirish zarurligini aytadi:

Har kishi xalq ichra gunahkorroq,
Afv-u inoyatga sazovorroq.²⁵⁶

Bu hikoyatda ham podshoh o`zining adolati, to`g`ri hukm chiqarishi bilan, qulni kechirishi bilan namoyon bo`ladi.

III. “Hayrat ul-abror”dagi hikoyatlarning yana bir mavzusi halol mehnat va saxiylikni ulug`lashdir. Bunga Hotam Toyi hikoyati misol bo`la oladi. Dostonning beshinchi maqolati – karam vasfidakim...” deb boshlanadi. Bir yuz sakkiz baytdan tashkil topgan bu maqolatda karam - saxovat, himmat, ehson, marhamat, olijanoblik, yaxshilik, ochiqqo`llik, javonmardlik singari xilma-xil tushunchalar haqida gapiriladi. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror”ning beshinchi maqolatida vujud-vujudi bilan saxovatni targ`ib qiladi. Uning xayoliga keltirish dushvor bo`lgan ochilmagan qirralarini kashf etishga erishadi. Biroq o`sha qarashlarning tasdiq muhri sifatida “Hotami Toyi va o`tinchi chol” hikoyatini taqdim qiladi.²⁵⁷ Bu hikoyatning hajmi – yigirma ikki bayt – qirq to`rt misra. Mavzusi esa, halol mehnatni ulug`lash. Saxovat, birovning minnatli nonidan peshana teri bilan topilgan nonning o`rni katta ekanligini ko`rsatishdir. Ma`lumki,

²⁵⁵ “Hayrat ul-abror”, 343-bet.

²⁵⁶ “Hayrat ul-abror”, 343-bet.

²⁵⁷ Vohidov R, Eshonqulov H. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent, 2006. 319-bet.

Hotam – musulmon dunyosida saxovat timsoli. Uning haqida behisob asarlar yaratilgan. Ulug' o'zbek shoiri she'riy hikoyatining qahramoni ham o'sha Hotami Toyidir. Hikoyatning qisqacha mazmuni shunday: Hotam Toyidan bir kishi o'ziday saxiy kishi ko'rgan-ko'rmaganini so'raydi. Hotam unga bir kuni aylanib kelish uchun sahroga chiqqanini, shu paytda uyida yuzlab tuya, qo'y-qo'zi so'yib, odamlarga ziyofat berilayotganini, sahroda bir qari chol orqasiga bir quchoq tikan ortib kelayotgani, uning qaddi bukilib, bir qadam yurib, dam olib zo'rg'a yurayotganini ko'radi. Cholga Hotamning uyiga borishini, unga mehmon bo'lib qornini to'yg'azishini, mehnatdan azob chekish shart emasligini aytadi. Chol esa, Hotam minnatidan, tikan mehnati yaxshiroq ekanini tushuntiradi:

Sen dog'i chekii bu tikan mehnatin,

Totmag'il Hotami Toy minnatin.

Bir diram olmoq chekibon dast ranj,

Yaxshiroq andinki, birov bersa ganj.²⁵⁸

Cholning fikricha, birovning katta xazinasi, pulidan mehnat qilib topilgan bir diram yaxshiroq ekan. Hotam shu uchun ham cholni himmatda o'zidan ustun qo'yadi. Maktab o'quvchilari Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoniga kirgan Hotami Toyi hikoyatini yaxshi bilishadi. Hotam – adabiyotimizdagi saxiylik timsoli. Animo u o'tinchi cholni o'zidan ham ustun qo'yadi. O'z mehnati bilan yashash, birovning minnatisiz umr kechirish – komillik nishonasi. Chol shunchaki oddiy mehnatkash emas. U aqli komil, ilm-ma'rifatdan xabardor ulug' zot.

IV. "Hayrat ul-abror"da odob-axloq bilan bog'liq hikoyatlar ham bor. Ularda hayo, vafo, qanoat, to'g'rilik ulug'lanadi, tama, yolg'onchilik qoralanadi. Dostonning oltinchi maqolati odob haqida. Unda tavoze, hayo, kulgi, bola tarbiyasi, farzandga yaxshi nom qo'yish, ota-ona hurmati kabilarga to'xtab o'tiladi. Unga ilova tarzida o'ttiz uchinchi bobda "No'shirvonning hayosi..." hikoyati keltiriladi. Bu hikoyat o'n

²⁵⁸ "Hayrat ul-abror". 153-bet.

olti bayt – oʻttiz ikki misradan iborat. Uning mazmuni quyidagicha: Anushirvon yoshlik chogʻida bir goʻzalga oshiq boʻladi. Bir kuni bogʻdagi xilvatda ular uchrashib qoladilar:

Yetti gʻamu mehnati bemar anga,
Toki visol oʻldi muyassar anga.
Bir chaman ichra tuzibon xilvate,
Gulrux ila qildi ayon suhbate.²⁵⁹

Noʻshirvon qoʻlini yori sari uzatadi-yu, koʻzi bir nargis guliga tushib, tortib oladi. Shu hayosi sabab kelgusida u adolatli shoh darajasiga erishadi:

Jumlayi olam aro shoh ayladi,
Adlini olamgʻa panoh ayladi.²⁶⁰

“Hayrat ul-abror”ning sakkizinchi maqolati vafo haqida. Unga ilova tarzida “Ikki vafoliq yor...” hikoyati keltiriladi. Hikoyat yigirma toʻrt bayt – qirq sakkiz misradan iborat. Unda Hindistonni mavh etgan Temur bu yerdagilarni qatliom etishni buyurgani, ikki doʻstga navbat yetgach, ular oldin uni oʻldirishini, doʻstining oʻlimini koʻrmaslikni soʻrashi, shu orada shohning hammaning gunohidan oʻtgan xabari kelishi kabilar tasvirlanadi. Ikki kishining vafosi tufayli koʻpchilik oʻlimdan omon qoladi.

Dostonning yettinchi maqolati “Qanoat bobidakim...” deb nomlanadi. Unda qanoatning foydasi, tama va tamagirlikning oqibatlarini koʻrsatiladi. Yigirma beshinchi bobda unga misol tariqasida “Qanoatli juvonmard bilan tamagir jahongashtaning hamroh boʻlgani...” hikoyati beriladi. Bu hikoyat yigirma sakkiz bayt – ellik olti misradan iborat. Unda yozilishicha, ikki doʻst Fors yurtidan Chin mamlakatiga sayohatga chiqadi. Ularning biri qanoatli, ikkinchisi tamagir edi. Yoʻlda yarmi yerda, yarmi yuqorida boʻlgan tosh chiqadi. Toshda shu yerda xazina borligi, azob bilan uni olish mumkinligi, ammo qanoat qilib, undan voz kechsa yaxshi boʻlishi, qanoatli yoʻlda davom etishi, u podsholikka erishishi, tamagir esa hech narsasiz qolishi

²⁵⁹ “Hayrat ul-abror”. 163-bet.

²⁶⁰ “Hayrat ul-abror”. 164-bet.

tasvirlanadi. Shoir aytmog'chi, qanoat kishini yuksakka ko'taradi. Tama esa xor qiladi.

Navoiyning ko'p asarlarida ayniqsa, "Xamsa"sida rostlik, to'g'rilik, yolg'onchilik haqida gapiriladi. "Hayrat ul-abror"dagi o'ninchi maqolat "Rostlik tarifidakim..." deb nomlanadi. Unda rostlik, to'g'rilik ulug'lanadi, yolg'onchilik qoralanadi. Bu maqolatga qo'shimcha tarzda "Durrojning yolg'onni chin o'miga ayturi..." deb nomlanadigan hikoyat keltiriladi. Bu hikoyat o'ttiz to'rt bayt – oltmish sakkiz misradan iborat. Uning mazmuni quyidagicha: Sher bilan durroj (tustovuq jinsidagi qush) do'st tutinishadi. Durroj yolg'on so'zlashga odatlangan edi. U doim do'stiga murojaat qilib, "Meni sayyod domidan qutqar!" deb baqirar, sher yugirib yetib kelsa, aldaganligi ma'lum bo'lardi. Kunlarning birida durroj chindan ham domga ilinadi va sherdan yordam so'rab qichqiradi. Har vaqt aldanib kelgan sher bu safar (odatdagi yolg'on deb o'ylab) yordamga bormaydi. Shu tariqa yolg'onchi durroj o'z boshiga o'zi yetadi.²⁶¹ Shoir yozganidek, yolg'onchilik kishining boshiga yetadi. Yolg'onchi degan nom chiqargan insonning gapiga hech kim ishonmaydi.

So'zda, Navoiy, ne desang, chin degil,

Rost navo nag'amag'a tahsin degil.²⁶²

V. "Hayrat ul-abror"dagi bir hikoyatni falsafiy mazmunda deb hisoblasak to'g'ri bo'ladi. Bu "Iskandar va xoli qo'li bilan bog'liq hikoyat"dir. Bu hikoyat dostonning o'n to'rtinchi maqolatiga ilova tarzida keltirilgan. U "Aflok hay'ati shikoyatidakim..." deb nomlanuvchi maqolatdan so'ng joylashtirilgan. Shoir dastlab aflok – falakdan shikoyat qiladi. Akademik Aziz Qayumov yozganidek: "O'n to'rtinchi maqolatda shoir falak hay'atidan shikoyat qiladi. Taqdir hech kimga rahmshafqat qilmaydi. Hayot cheklangan fursatda tugaydi. Taxt ustida yuksaklikda o'tirganlar bir kun taxt ustiga yotadilar. Odamning sha'ni yuqori ko'tarilgan bo'lmasin, baribir bir kun tuproq ostiga

²⁶¹ Abdug'afurov A. Buyuk beshlik saboqlari. 55-bet.

²⁶² "Hayrat ul-abror", 212-bet.

kirib past bo'ladi. Shuning uchun davlatu iqbolga shodlanmaslik kerak, qo'lidagi bor narsasini elga sarf etish lozim.²⁶³ Navoiy yozishicha bu dunyoda vafo yo'q, jafu bor. Odamlar kelib ketaveradi. Yuz kishi kelsa, ming kishi ketadi. Undan keyin navbat yuz ming kishiga yetadi:

Turfa bu kim, yuz kelibon ming ketar,

Ming chu ketar, keynicha yuz ming yetar.²⁶⁴

Dunyoning o'tkinchiligi, hech kim abadiy yashab qolmasligi, mol-davlatini olib ketolmasligini aytib, misol sifatida Iskandar bilan 'bog'liq hikoyatni keltiradi. Bu hikoyat yigirma besh bayt – ellik misradan iborat. Unda hammaga ma'lum Iskandarning quruq qo'l bilan olamdan ketishi haqida gapiriladi. Hikoyatning mazmuni quyidagicha: Iskandar butun dunyoni egallaydi. U olmagan biror joy qolmaydi. U shoh, valiy, nabi va donishmand ham edi. Yetti osmon, yetti iqlim unga bo'ysunardi. Bu dunyodan ketish paytida u katta tashvishga tushib qoladi. Hech kim unga yordam berolmaydi. Shunda u vasiyat qiladiki, vafot etgandan so'ng, qabrga olib borayotganlarida tobutdan bir qo'lini chiqarib qo'ysinlar. Bu boshqalarga ibrat bo'lsin. Suv-u quruqlikni egallagan, yetti kishvar shohi bu dunyodan quruq qo'l bilan ketayapti. Navoiy buni shunday ifodalaydi:

Qabrg'a chun boshlag'ungizdir yo'lum,

Na'sh yonidin chiqaring bir qo'lum.

To kishikim qilsa nazar ul sori,

Ibrat ila boqqay o'shul qo'l sori.

Jismida jon yo'q bu makondin borur,

Xoli ilik birla jahondin borur.²⁶⁵

VI. Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonidagi hikoyatlarning biri ilm-u irfon g'oyalari talqiniga bag'ishlangan. O'n birinchi maqolatda ilm haqida gapiriladi. Shoir ilmni va ilm oluvchilarni ulug'laydi. Uzoqdan, boshqa yurtlardan ilm istab

²⁶³ Qayumov A. Alisher Navoiy. 66-bet.

²⁶⁴ “Hayrat ul-abror”. 249-bet.

²⁶⁵ “Hayrat ul-abror”. 255-256-betlar.

kelganlarni qiyinchiliklarni yengib, umrini ilm olish uchun sarflayotganlarini maqtaydi. Navoiy ilm haqida ko'pgina asarlarida gapirib o'tgan. "Alisher Navoiy ma'rifatparvar shoir. Navoiy ijodiyotida ma'rifat targ'ibi, xurofotga qarshi barham beruvchi kuch sifatida ilmni ulug'lash yo'nalishi doimo yetakchi mavqelarda turgan. Navoiy yaratgan ilg'or qahramonlar yoshlikdan ilmga chanqoq, hunarga ishtiyoqmand kishilar".²⁶⁶

"Hayrat ul-abror"da ilm haqida alohida maqolatda gapirish bilan birga bir hikoyat ham keltiriladi. Bu "Imom Faxr Roziy bila Sulton Muhammad Xorazmshoharo hammomda oshnolik sha'mi yorug'oni..." deb nomlanadi. O'n sakkiz bayt – o'ttiz olti misrali bu hikoyatda ilm va shohlikka baho beriladi. Imom Faxr Roziy Xorazmga keladi. Ammo Xorazm hukmdori Xorazmshoh uni ko'rishga kelmaydi. Bu ham shohni ko'rishga bormaydi. Ular bir kuni hammomda uchrashib qoladilar:

Bor cdi hammomda bir kun imom,
Shah dog'i hammomg'a qildi xirom.²⁶⁷

Ular hammomda bir-biri bilan savol-javob qiladi. Imom unga oxirat haqida gapirib, u dunyo ham hammomga o'xshashini, shoh bilan gado bir bo'lishini, ilmli odamning ilmi o'zi bilan bo'lishini, sanga sultonlikdan foyda kam, menga ilm bilan yaxshilik ko'p deydi. Bu fikrlar har bir kishini ilmli bo'lishga, insonning bilimi hamma vaqt o'zi bilan birga bo'lishini anglashga chaqiradi.

VII. "Hayrat ul-abror"da may va mayxo'rlik qoralangan ikkita hikoyat keltirilgan. Biri Bani Isroili Rind haqida bo'lsa, ikkinchisi Bahrom haqida. O'n beshinchi maqolat "Jahl mayi..." haqida. Unda may va mayxo'rlik qoralanadi. Maqolatga ilova tarzida Bani Isroiliy Rind haqidagi hikoyat berilgan. Bu hikoyat yigirma bayt- qirq misradan iborat. Unda Bani Isroiliyga mansub Maymana nomli kishining mayxo'rliqi, tavbasi haqida gapiriladi. O'n to'qqizinchi maqolat esa Xuroson kishvari haqida bo'lib,

²⁶⁶ Haqqulov I. Zanjirband sher qoshida. Toshkent, 1989. 55-bet.

²⁶⁷ "Hayrat ul-abror". 221-bet.

unga ilova qilib, Bahrom haqidagi hikoyat keltiriladi. Bu hikoyat qirq ikki bayt – sakson to‘rt misradan iborat. Unda may tufayli Bahromning mamlakatga qaramay qo‘ygani, bir kambag‘al tanbehi bilan adolat yo‘lini tutgani haqida gapiriladi. Hikoyatda yozilishicha Bahrom taxtga o‘tirgach, mayga, maishatga beriladi. Amaldorlar orasida zulm kuchayadi. Xalq qiynalib qoladi. Bir kuni Bahrom ovga chiqadi. Bir kulbaga mehmon bo‘ladi. Uy egasi bir qattiq non bilan suv keltirib qo‘yadi. Shoh uning sababini so‘raydi. Uy egasi bunday deydi:

Dedi: Burun yaxshi edi holimiz,
Zulm xarob ayladi ahvolimiz.
Shoh ulus holidin ogoh emas,
Juz mayu mutrib anga dilxoh emas.²⁶⁸

Uy egasi oldin ahvollari yaxshi ekanini, zulm ularni shu holga olib kelganini, amaldorlar tamaga og‘iz ochgani, shuning uchun yurt vayron bo‘lganini aytadi. Bir binoning xarobalarini ko‘rsatib, bu oldin nima bo‘lganini so‘raganda, uy egasi oldin bu yer saroy, atrofi bog‘zor, suvi bor go‘zal joy bo‘lganini, hozir esa suv ham yo‘qligi, bog‘ qurib, hech narsa qolmaganini bildiradi. Shoh uning gaplarini eshitib, g‘aflatdan uyg‘onadi. Zulmni yo‘qotib, adolat bunyod etadi:

Zulm qo‘yib, adl durur niyati,
Kim bu asar ayladi xosiyati.
Otlanibon mulkida dod ayladi,
Borcha g‘amin xalqni shod ayladi.²⁶⁹

Dostondagi yana bir hikoyat ishq bilan bog‘liq. Asarning to‘qqizinchi maqolati “Ishq o‘ti tarifi-dakim...” deb nomlanadi. Navoiy ishqni ulug‘laydi. Deyarli barcha asarlarida ishq mavzusi qalamga olinadi. “Navoiy sevgini shunchalar ulug‘laydi. Sevgi egalarining olijanob, yuksak intilishlari faqat yor bilan bog‘liq ckani, yorga oid hamma-hamma narsa, hatto hijron va vasl ham barobar darajada qimmatli ekanligini ko‘rsatadi. Chin oshiq

²⁶⁸ “Hayrat ul-abror”. 315-bet.

²⁶⁹ “Hayrat ul-abror”. 316-317-betlar.

shundaydir”.²⁷⁰ “Hayrat ul-abror”da ishqqa alohida maqolat bag`ishladi. Ishqni shunday ta`riflaydi:

Bo`lmasa ishq, ikki jahon bo`lmasun,
Ikki jahon demaki, jon bo`lmasun.²⁷¹

O`n sakkizinchi maqolat “Falak g`amxonasidakim...” deb nomlanadi. Unga ilova tarzida “Chin marg`zori...” haqidagi hikoyatni keltiradi. Bu hikoyat qirq ikki bayt – sakson to`rt misradan iborat. Hikoyatning to`liq nomi quyidagicha: Chin o`tlog`idagi bir mushkin ohuning sherlarni ovlagani, majruh ovlarning uning tuzog`iga ilinib, sher panjasidan ajal tuprog`i bilan bo`lgani. Uning mazmuni quyidagicha: Chin mamlakatida bir go`zal bor edi. Dunyo odamlari uning husniga oshiq. Shoh ham uning zulfiga giriftor. Xon unga soqchilar qo`ygan. Kim unga qarasa, gapirsa, jazolanar edi. Bir yigit unga oshiq-u beqaror bo`lib qoladi. Ko`plab oshiqlar jazoga tortiladigan bo`ldi. U yigit esa beparvo. O`limdan qo`rqmaydi. Tilida, so`zida, og`zida yor edi:

Tilida yor edi-yu, so`zida yor,
Og`zida yor edi-yu, ko`zida yor.²⁷²

Uning sadoqatini ko`rib, shoh yumshaydi. Oshiqni o`ldirmay, yor haramiga xos mahram qilib qo`yadi. Ishq balolariga chidagani uchun u yuksaklikka erishadi.

Umuman, “Hayrat ul-abror”dagi hikoyatlar hajmi har xil bo`lganidek, mavzusi ham rang-barangdir. Hikoyatlar Navoiy fikrlarini yanada jonli, aniq, ta`sirli bo`lishi uchun asos bo`lgan.

²⁷⁰ Qayumov A. Dilkusho takrorlar va ruxafzo ash`orlar. Toshkent, 2011. 27-bet.

²⁷¹ “Hayrat ul-abror”. 191-bet.

²⁷² “Hayrat ul-abror”. 304-bet.

XAMSANAVISLIK AN'ANASI TAKOMILI

Musulmon Sharqi epik poeziyasi tarixi xamsachilik an'anasi bilan chambarchas bog'liq. Dastavval XII asrda vujudga kelgan xamsa janri sakkiz asrga yaqin vaqt davomida yuzlab javob dostonlarga ega bo'ldi. Sharq adabiyotida birinchi bo'lib "Xamsa" yozgan shaxs buyuk ozarbayjon shoiri *Nizomiy Ganjaviy*dir. U 1170–1204-yillar oralig'ida birin-ketin 5 ta doston yaratdi, bu dostonlar shoir vafotidan so'ng yaxlit bir to'plamga birlashtirilib, "Panj ganj" ("Besh xazina") deb atala boshlandi va keyinchalik xamsa nomi bilan mashhur bo'ldi.

Nizomiy beshligidagi birinchi doston "Maxzan ul-asror" ("Sirlar xazinasasi") deb atalib, 1180-yilda yaratilgan. Nizomiy bu dostonini g'aznaviyalar hukmdori Bahromshoh (XII asr)ga bag'ishlaydi. "Maxzan ul-asror"ning vujudga kelishida XII asr klassigi Hakim Sanoiy "Hadiqat ul-haqoyiq" ("Haqiqatlar bog'i") dostonining ta'siri bor. Umuman, musulmon Sharqida falsafiy-didaktik yo'nalishdagi dostonlarning ibtidosi ham bevosita shu doston bilan aloqadordir.

"Maxzan ul-asror" falsafiy-axloqiy masalalarga bag'ishlangan bo'lib, 18 bobdan iborat muqaddima, asosiy qism va xotima bobni o'z ichiga oladi. Muqaddima hamd, ikki munojot, na't, me'roj tuni ta'rifi, to'rt salavot, Malik Faxriddin Bahromshoh madhi, kitobning maqomi va martabasi, so'z fazilati bayoni, manzum so'zning mansur so'zdan afzalligi, tun tavsifida, birinchi xilvat, birinchi xilvat samarasi, ikkinchi xilvat va ikkinchi xilvat samarasi bilan bog'liq boblardan tashkil topgan. Asosiy qism 20 maqolat va har bir maqolatga ilova qilingan 20 hikoyatdan iborat. Birinchi maqolat Odamning yaratilishi haqida bo'lib, unga "Noumid podsho va uni Xudo kechirgani" hikoyati ilova qilingan. 2-maqolat adolat, 3-maqolat olam hodisalari, 4-maqolat xalqiga mehrlil shohlar, 5-maqolat keksalik, 6-maqolat borliq, 7-maqolat insonning boshqa maxluqotlardan ulug'ligi, 8-maqolat yaratilish, 9-maqolat himmat va oqko'ngillik, 10-maqolat oxirzamon alomatlari, 11-maqolat dunyoning bevafoligi,

12-maqolat manzil bilan vidolashmoq, 13-maqolat jahon malomati, 14-maqolat g'afolat malomati, 15-maqolat hasadgo'ylar, 16-maqolat yo'lining shiddat bilan bosib o'tilishi, 17-maqolat ibodat va tanholik, 18-maqolat munofiqlar, 19-maqolat oxiratni qarshi olish va 20-maqolat zamondoshlarning hayosizligiga doir masalalarga bag'ishlangan bo'lib, har bir maqolatdan so'ng uning mazmuniga mos holda hikoyat keltirilgan. "Maxzan ul-asror" xotima bob bilan yakun topadi.

Nizomiy beshligidagi ikkinchi doston "Xusrav va Shirin" deb atalib, taxminan 1181-yilda yozib tugallangan. Shoir bu dostonini saljuqiy hukmdor To'g'rul II (1174-1194) topshirig'iga ko'ra yaratadi. Doston hajmi manbalarda 6139 baytdan 6500 baytgacha deb ko'rsatiladi. Dostonning asosini Madoyin shahzodasi Xusrav Parviz bilan Barda' malikasi Shirin o'rtasidagi murakkab sevgi sarguzashlari tashkil etadi. "Xusrav va Shirin" an'anaviy muqaddimadan so'ng Madoyin hukmdori Xurmuz xonadonida Xusrav Parvizning tug'ilishi tufayli uyushtirilgan shodiyona tasviri bilan boshlanadi. Bola tarbiyasiga alohida e'tibor bilan qaraydilar: u favqulodda kuch va g'ayrat, aql-idrok egasi bo'lib ulg'ayadi. Lekin shu bilan birga uning tabiatida yengiltaklik, beqarorlik ham mavjud edi. Bir kuni Xusrav Shopur ismli rassomdan Barda' hukmdori Mehinbonuning go'zallikda tengsiz jiyani Shirin haqida hikoya eshitadi va unga oshiq bo'lib qoladi. Xusrav Shopurni Barda'ga sovchilikka yuboradi. Shopur Shiringa Xusravning suratini ko'rsatadi va Shirin Madoyinga keladi. Lekin bu paytda Xusrav va uning otasi o'rtasida nizo chiqib, Xusrav mamlakatdan qochib ketgan edi. Shirin va Xusrav uchrasha olmaydilar. Shirin Madoyinda uzoq qolib ketadi va unga shahardan tashqariga, toshloqdan iborat yerga qasr qurib beradilar. Shirin shu yerda yashay boshlaydi. Madoyin hukmdori Xurmuz vafot etgach, Xusrav taxtga o'tiradi, lekin sarkarda Bahrom Cho'binning qarshiligiga dosh berolmay, Rum qaysarining huzuriga madad istab boradi. U yerdan qaysarning qizi Maryamga uylanib qaytadi va Madoyin taxtini qaytadan egallab, saltanat ishlariga sho'ng'ib ketadi. Shirin Xusravning

hajrida iztirob chekadi va Mehinbonu huzuriga boradi. Mehinbonu bu paytda o'lim to'shagida edi. U Shiringa Barda' hukmronligini topshiradi. Shirin mamlakatni bir vorisiga topshirib, Madoyinga keladi va o'zining toshloq qasrida yashay boshlaydi. Yoshligidan sut ichib o'rgangan Shirin bu yerda sut yo'qligidan qiynaladi. Shuning uchun unga yaylovdan qasrga qadar sut arig'i qazdirish va bu ishda Farhod ismli usta muhandis yigitning yordamidan foydalanish to'g'risida maslahat beradilar. Farhod sut arig'ini qazishga kirishadi va Shirinni ko'rib, unga oshiq bo'lib qoladi. Buni eshitgan Xusrav hiyla bilan Farhodni halok qiladi. Bu orada Maryam ham vafot etadi. Xusravga isfahonlik Shakarning go'zalligi haqida xabar keltiradilar va Xusrav Shakarga uylanadi. Lekin u Shirinni unuta olmaydi, Shirinni Madoyinga keltirishlarini buyuradi. Xusravning Maryamdan tug'ilgan o'g'li Sheruya Shirinni ko'rib, otasini o'ldiradi. Shirin ham Xusrav maqbarasi ichiga kirib, o'zini halok qiladi. Doston zamona hukmdori To'g'rulshohning Nizomiyni huzuriga chorlagani va uni taqdirlaganiga doir bob bilan xotima topadi.

Dehlaviy "Xamsa"sidagi uchinchi doston "Layli va Majnun" 1188–89-yillarda Shirvonshoh Axsitan ibn Manuchehr topshirig'iga ko'ra yaratiladi. Hajman 4022 baytdan iborat. Dostonda an'anaviy muqaddimadan so'ng asosiy qism boshlanadi. Bani Omir qabilasining boshlig'i uzoq kutgandan so'ng farzand ko'radi va unga Qays deb ism qo'yadi. Qays o'n yoshida maktabga boradi va u yerda Layli ismli qizni yaxshi ko'rib qoladi. O'rtada o'zaro muhabbat boshlanadi. Buni sezgan odamlar ularni ajratadilar. Laylidan ajralgan Qays ko'chada, bozor rastalarida she'rlar aytib yuradigan bo'ladi va atrofdagilar uni "Majnun" ("telba", "jinni") deb atay boshlaydilar. O'g'lining holatini sezgan ota Laylinikiga sovehilikka boradi. Dostonda Majnunning otasi mansab va mavqe jihatidan Laylining otasidan ustun ekanligi ko'rsatilgan. Laylining otasi avval Majnunni davolashni, keyin sovg'chi bo'lib kelishni maslahat beradi. Shunda Majnunning otasi o'g'lini o'z qabilasidan biror qizga

uylantirmoqchi bo'ladı, lekin Majnunni ko'ndirolmaydi. Uning ahvoli kundan-kunga og'irlashadi. Layliga bag'ishlab g'azallar bita boshlaydi va uning g'azallari tez orada xalq orasida tarqalib, yod bo'lib ketadi. Otasi qarindosh va keksalarning maslahati bilan o'g'lini hajga olib boradi. Majnun Ka'bada ishq otashini yanada kuchaytirishni so'rab, Xudoga munojot qiladi. Majnunning munojoti haqidagi xabar juda tez tarqaladi va Layli qabilasidagi ayg'oqchilar uni Laylining otasiga yetkazadilar. Laylining otasi qilich yalang'ochlab, Majnunni o'ldirishini aytadi. Layli bog' sayriga chiqqan paytida uni Bani Asad qabilasidan bo'lgan davlatmand Ibn Salom ko'rib qoladi va Laylining uyiga sovchi yuboradi. Laylining otasi rozilik berib, to'yni Layli tuzalganidan keyin boshlashi mumkinligini aytadi. Majnunni dashtda yurgan paytida ov qilib yurgan Navfal uchratib qoladi va unga achinib, yordam bermoqchi bo'ladı. Laylining qabilasiga 100 nafar yaxshi qurollangan odamini yuborib, Laylini Majnunga berishlarini, aks holda urush ochishini ma'lum qiladi. Laylining otasi rad javobini bergach, urush boshlaydi. Urushda Navfal g'alaba qozonayotganligini ko'rgan Laylining otasi qizini Navfalning biror quliga berishga yoki o'ldirib itining oldiga tashlashga roziligini, lekin Majnunga berishga hech qachon rozi bo'lmasligini, agar zo'rlik bilan Majnunga olib bermoqchi bo'lishsa, uni hoziroq o'ldirishini aytadi. Navfal zo'ravonlik bilan ish bitmasligini sezib, ortiga qaytadi. Ibn Salom ikkinchi marta sovchi yuborib, nihoyat Layliga uylanadi. Lekin Layli uni o'ziga yaqinlashtirmaydi. Majnun Laylining turmushga chiqqanligini eshitib, qattiq xafa bo'ladı. Dostonda Majnun Layliga, Laylining Majnunga yozgan xatlari keltirilgan bo'lib, ular noma janrida bitilgan. O'g'illarining holatidan qattiq ezilgan Majnunning ota-otasi birin-ketin vafot etadilar. Layliga uylangan Ibn Salom esa maqsadiga erisholmay, qattiq iztirobga tushadi va bir oz o'tgach, bu yorug' dunyoni tark etadi. O'z sevgisiga sodiq qolgan Laylining salomatligi ham yomonlashib, oxirgi nafasigacha Majnunning nomini takrorlab kuz faslida vafot etadi. Buni eshitgan Majnun qabristonga kelib, Laylining qabrini

quchib, hayotdan ko‘z yumadi. Doston Nizomiyning Shirvonshohga murojaati bilan yakunlanadi.

Nizomiy beshligidagi to‘rtinchi doston “Haft paykar” (“Yetti go‘zal”) 1197- yilda yozib tugallanadi. Doston 4600 baytdan iborat bo‘lib, hukmdor Alouddin Ko‘rpa Arslon (1174–1207) topshirig‘i bilan yaratilgan. Manbalarda “Bahromnoma” deb ham yuritiladi. “Haft paykar” an’anaviy muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat. Asosiy qism Bahrom sarguzashtlarini o‘z ichiga oluvchi qoliplovchi hikoya va yetti malika tomonidan aytilgan yetti qissadan tashkil topgan. Dostonda tasvirlanishicha, Bahrom sasoniy shoh Yazdigirdning yagona vorisi. Yazdigird o‘g‘lini munosib tarbiyalash uchun Yamandagi vassali Nu‘mon qo‘liga topshiradi. Bahrom yoshligidan qulon oviga o‘ch bo‘lib o‘sadi. Shunga ko‘ra u Bahrom Go‘r (qulonchi) laqabini oladi. Yazdigird vafot etgach, Bahrom taxtga o‘tiradi va mamlakatni adolat bilan boshqara boshlaydi. Bir kuni Bahrom Fitna ismli san’atkor kanizi bilan ovga chiqadi va Fitnaning da’vati bilan qulon ovlashda mahorat ko‘rsatib, undan maqto‘v kutadi, lekin Fitna bu holat muttasil mashq qilish natijasi ekanligini aytilish bilan cheklanadi. Bahrom g‘azablanib, o‘z sarkardasiga Fitnani o‘ldirishni buyuradi. Lekin Fitna tadbir ishlatib, omon qoladi va o‘zidagi jami zeb-ziynatlarni sotib, sarkarda madadi bilan ko‘shk qurdiradi. Yangi tug‘ilgan buzoqni har kuni bir necha pillapoya ko‘shk ustiga olib chiqib, mashq qildiradi. Bir kuni tasodif bilan ko‘shk yonidan o‘tib ketayotgan Bahromga o‘z san’atini ko‘rsatib, lol qildiradi. Bahrom xatosini anglab yetadi va Fitnadan uzr so‘rab, unga uylanadi. Dostonda Bahrom sarguzashti davomida malikalar qissalari keltiriladi va qissaxonlik tugagach, Bahrom sarguzashti yana davom etaveradi.

Yamanda usta Simnor tomonidan qurilgan Xavarnaq qasrida Bahromning yettita shoh qizlari davrasida o‘tirgani tasvirlangan bo‘lib, Bahrom bu tasvirni ko‘rib hayratlanadi va oradan yillar o‘tgach, bu qasrni hayotning o‘zida ham ko‘rishni niyat qiladi. Turli mamlakatlardagi malikalarni o‘z nikohiga olib, ular uchun alohida qasrlar qurdiradi va shanba kunidan boshlab juma

kunigacha hafta davomida kechalari ulardan qissa tinglaydi. Qoliplovchi hikoya tarkibida shu tariqa yettita qissa paydo bo‘ladi. Bahrom shanba kuni Furak ismli Kashmir malikasidan qora libos kiygan shoh haqidagi hikoyatni, yakshanba kuni turk malikasi Yag‘monozdan Iroqlik kanizakfurush podshoh va uning go‘zal kanizagi haqidagi hikoyatni, dushanba kuni zangori qasrda Nozpari ismli malikadan diyonatli Bishr va maqtanchoq Maliha haqidagi hikoyatni, slavyan podshosining qizi Nasrinnushdan slavyan podshosining qizi va uning oshiqlari haqidagi hikoyatni, chorshanba kuni beshinchi iqlim shohining qizi Ozariyun aytib bergan misrlik Mohin ismli savdogarning boshidan kechirgan sarguzashtlari bilan bog‘liq hikoyatni, payshanba kuni sandal qasrda Chin malikasi Humoydan Xayr va Sharr haqidagi hikoyatni va nihoyat juma kuni Bahrom eron malikasi Durustiydan olim va oshiq yigit haqidagi hikoyatni tinglaydi. Bu orada Bahromning aysh-ishratga berilgani va davlat ishlarini unutib qo‘yganidan foydalangan Rost Ravshan ismli vaziri bosh sarkarda bilan til biriktirib, xalqqa zulm o‘tkazadi, xazinani talab, mamlakatni vayrona holga keltiradi. Bahrom bu haqda bilgach, vazirni xalq oldida qatl ettiradi, mamlakatni tiklaydi va adolat o‘rnatadi, Rost Ravshan qamagan mahbuslarni ozod qiladi. Dostonda yetti qissadan so‘ng nohaq qamalgan yetti mahbus hikoyasi ham keltirilgan. Voqealar so‘ngida Bahrom ovga chiqib, bir kiyikning orqasidan g‘orga kirib ketadi va qaytib chiqmaydi. Mulozimlari uni izlab g‘orga kirganlarida: “Orqangizga qaytib ketavering, shohlaringiz qaytib chiqmaydi, u ish bilan band” degan ovoz eshitiladi. Doston shoh Alouddin Ko‘rpa Arslon madhi bilan yakunlanadi.

Nizomiy beshligidagi so‘nggi – beshinchi doston “Iskandarnoma” deb atalib, ikki qism: “Sharafnoma” va “Iqbolnoma”dan iborat. Doston hajman 10500 bayt bo‘lib, 1197–1204-yillar oralig‘ida yozilgan. Doston uchun Sharq adabiyotida keng tarqalgan Iskandar Zulqarnayn timsoli bosh qahramon sifatida olingan. “Sharafnoma”da Iskandarning harbiy yurishlari

va jahongirliги tasvirlansa, “Iqbolnoma”da Iskandar donishmandligi va payg‘ambarligi bilan namoyon bo‘ladi. Dostonda keltirilishicha, Iskandar juda erta ota taxtiga o‘tiradi. Ko‘p janglarda ishtirok etib, mohir sarkarda va adolatparvar shoh sifatida shuhrat qozonadi. Uzoq-yaqindagi hukmdorlar undan qattol dushmanlarni yengishda yordam so‘raydilar. Iskandar o‘z tadbirkorligi bilan Chin va Hind mamlakatlarini yengib, insoniyat osoyishtaligiga xavf yetkazayotgan ya‘juj-ma‘jujlar ustidan g‘alaba qozonadi. U donishmand shoh sifatida o‘z zamonasining faylasuflari bilan doimiy muloqotda bo‘ladi, ular bilan olamning ibtidosi, intihosi, mamlakatni boshqarish qonun-qoidalari, muvaffaqiyat va inqirozga sabab bo‘ladigan omillar haqida suhbat quradi, o‘zining harakatlarini sarhisob qiladi. U qayerga borsa, dastlab davlat boshqaruv usuli, idora nizomlarining adolat talablariga muvofiqligiga e‘tibor qaratadi. Shoh-u gadoning so‘zlariga quloq tutadi, o‘z maslahat va tavsiyalarini aytadi. Umuman olganda, Nizomiy tasviridagi Iskandarning jahongirliги ilm-u donish, hikmat va aql jahongirliгidir.

Nizomiy beshligi yaratilgandan keyin oradan bir asr vaqt o‘tib, *Xusrav Dehlaviy* (1253–1325) unga javob yozdi va shu bilan xamsanavislik an‘anasini boshlab berdi. Uning 1299–1302-yillarda yozilib, Alouddin Xiljiyga bag‘ishlangan “Xamsa”si quyidagi dostonlardan iborat: 1) “Matla’ ul-anvor” (“Nurlarning chiqish joyi”); 2) “Shirin va Xusrav”; 3) “Majnun va Layli”; 4) “Oyinai Iskandariy” (“Iskandar ko‘zgusi”); 5) “Hasht behisht” (“Sakkiz janat”). Xusrav Dehlaviy Nizomiy dostonlarining shakli va syujeti, obrazlar tizimini asosan saqlagan holda, ularni o‘ziga xos talqin etdi va yangi mazmun bilan boyitdi. Jomiyning “Bahoriston”ida e‘tirof etilishicha, hech kim Nizomiy “Xamsa”siga Dehlaviydan o‘tkazib javob yoza olmagan.

Xusrav Dehlaviy “Xamsa”sining birinchi dostoni “Matla’ ul-anvor” 1299-yilda Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror”iga javob tarzida yozilgan. Doston tasavvufiy-falsafiy masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, 3310 baytdan iborat. An‘anaviy

muqaddimadan soʻng 20 maqolat va 20 hikoyatni oʻz ichiga olgan asosiy qism boshlanadi. Maqolatlar quyidagi nazariy masalalardan tarkib topgan: 1-maqolat iymon, 2-maqolat maʼrifat, 3-maqolat soʻz, 4- va 5-maqolatlar toʻlaligicha islom va uning ahkamlari, 6-maqolat tasavvuf va soʻfiylar, 7-maqolat qanoat, 8-maqolat ishq, 9–12-maqolatlar islomda ulugʻlangan ezgu amallar, 13-maqolat podsholarning faqirlarga yordam berishlari, 14-maqolat xoinlik, 15-maqolat zulm malomati, 16-maqolat tugʻma xislatlar, 17-maqolat yoshlik, 18-maqolat keksalik, 19–20-maqolatlar dunyoning gʻaddorligi va bevafoligi bilan bogʻliq masalalarga bagʻishlangan. Har bir maqolatdan soʻng uning mazmuniga mos ravishda kichik hajmli hikoyat keltirilgan. Soʻnggi bobdan muallifning oʻz qizi Masturaga nasihati oʻrin olgan.

“Shirin va Xusrav” Xusrav Dehlaviy “Xamsa”sidagi ikkinchi doston boʻlib, 1299-yilda yozilgan. Hajman 4124 baytdan iborat. Doston anʼanaviy muqaddima, asosiy qism va xotima bobdan tashkil topgan. “Shirin va Xusrav”ning asosiy qismi sosoniy hukmdor Xusrav Parvezning taxtga oʻtirish voqʼasi bilan boshlanadi. U ota taxtiga oʻtirgach, mamlakatda adolat oʻrnatishga alohida eʼtibor qaratadi. Uning bu siyosatidan faqat bir vaqtlar qoʻrqmas sarkarda sifatida nom qozongan Bahrom Choʻbingina norozi edi. Bahrom Choʻbin Xusravga qarshi hujum uyushtiradi va Xusrav Sosoniylar poytaxti Madoyinni tark etishga majbur boʻladi. Xusravga rassom Shopur hamrohlik qiladi. U shohga Armaniston malikasi Shirinning suratini koʻrsatadi. Xusrav ovda Shirinni uchratib, uni sevib qoladi.

Shirin ham unga befarq emasligi maʼlum boʻladi. Xusrav harbiy yordam uchun Runga boradi va u yerdan rumlik malika Maryamga uyланib qaytadi. Xusravning mavqeyi tobora mustahkamlanib boradi va u oʻz saltanatini Antioxiyagacha kengaytiradi. Uning qudratidan choʻchigan Rum qaysari oʻz boyliklarini kemaga ortib, Habashiston tomonga suzmoqchi boʻladi. Lekin boʻron koʻtarilib, boyliklar Xusravning mamlakati tomonga kelib qoladi. Keyinchalik bu holat “Shamol keltirgan

xazina” (ganji bodovard) qo’shig’ining vujudga kelishiga sabab bo’ladi. Bir oz vaqt o’tgach, Maryam vafot etadi. Shoh qayg’uga botadi va Shirinni o’z haramiga taklif qiladi. Lekin Shirin buni rad etadi. Shopur Xusravga go’zal Shakar yashaydigan Isfahonga borishni maslahat beradi. Bir kuni Shirin ovdan qaytayotib, tosh yo’nuvchi Farhod tomonidan mohirlik bilan qazilgan ariqni ko’rib qoladi va Armanistonda xuddi shunday ariq qazishni Farhoddan iltimos qiladi. Suhbat jarayonida Farhod Xitoy xoqonining o’g’li ekanligi ma’lum bo’ladi. Shiringa oshiq bo’lib qolgan Farhod ishga kirishadi. Farhodning Shiringa muhabbati Xusravning qulog’iga yetib boradi va u musofir qiyofasida yurtiga yo’l oladi. Uning hiylasi bilan Farhodga Shirinning o’limi haqidagi yolg’on xabarni yetkazadilar va Farhod halok bo’ladi. O’z navbatida Shirin ham kanizlaridan birini Shakarni zaharlash uchun Isfahonga yuboradi va shu orqali Xusravdan qasos oladi. Bir kuni Xusrav ov qilib yurib, a’yonlaridan ajralib chiqadi va Shirinning qal’asi tomon kelib qoladi. Ikki sevishgan yarashadilar va Xusrav Shiringa muhabbati ramzi sifatida shohlik uzugini taqdim etadi. Keyingi boblarda Xusrav donishmandlar davrasida olam haqidagi savollariga javob izlagan holda tasvirlanadi. Xusravning o’g’li Sheruya otasidan norozi ba’zi amaldorlar bilan til birlashtirib, unga qarshi fitna uyushtiradi va otasining o’limiga sababchi bo’ladi. Xusravning jonsiz tanasi ustida Shirin ham hayot bilan vidolashadi. Doston dunyoning foniyligi haqidagi bob bilan yakunlanadi. Doston syujetidan ma’lum bo’ladiki, “Shirin va Xusrav”da Nizomiy dostonidan farq qiladigan ba’zi o’rinlar mavjud. Bular: dostonda Farhod timsoliga kengroq o’rin ajratilgan; Shirin Nizomiyda asosiy planda tasvirlangan bo’lsa, Dehlaviyda muallifning ideal shaxs bilan bog’liq qarashlari Shirindan ko’ra ko’proq Xusrav timsolida mujassamlashgan; Dehlaviyda Sheruyaning Shiringa oshiq bo’lish sahnasi kiritilmagan va b.

“Majnun va Layli” Xusrav Dehlaviy “Xamsa”sidagi uchinchi doston bo’lib, 1299-yilda yaratilgan. Hajman 2650 baytdan iborat. Dostonda an’anaviy muqaddimadan so’ng asosiy voqea

bayon qilinadi. Bani Omir qabilasida tugʻilgan farzandga Qays deb ism qoʻyadilar va uning sharafiga bayram uyushtiriladi. Dehlaviy syujetning shu qismidan boshlaboq Nizomiy dostonida uchramaydigan munajjim bashorati bilan bogʻliq epizodni oʻz dostoni tarkibiga kiritadi va bu epizod dostonning gʻoyaviy yoʻnalishini belgilashda asos vazifasini oʻtaydi. Bu epizodga koʻra, munajjim goʻdak ulgʻaygach, uning telba oshiq boʻlishini bashorat qiladi. Qays yoshi yetib, maktabga boradi va u yerda qoʻshni qabilalik Layli ismli qizni koʻrib, sevib qoladi. Ularning sevgisidan xabardor boʻlgan kishilar ikki yoshni bir-biridan ajratadilar va Majnun dashtga chiqib ketadi. Oʻgʻlining holatidan iztirobga tushgan ota Laylini soʻrab, sovchi yuboradi. Lekin Laylining otasi rad javobini beradi. Majnunning otasi koʻmak berishni soʻrab, “arablar hukmdori” Navfalga murojaat qiladi. Navfal Layli qabilasi tomon urush ochadi. Layli qabilasi yengila boshlagach, qabila mansabdorlari maslahatlashib, Laylini oʻldirishga qaror qiladilar va shu orqali urushni toʻxtatib, baxtsizlikning oldini olish mumkin, degan xulosaga keladilar. Bu haqda doʻstidan eshitgan Majnun Navfaldan urushni toʻxtatishni soʻraydi. Urush toʻxtaydi, Navfal oʻz qizi Xadichani Majnunga uzatadi (Nizomiy dostonida mavjud boʻlmagan yana bir epizod). Toʻy boʻlib oʻtadi. Lekin Majnun Xadichaga yaqinlashmay, tonggacha oʻtirib, soʻng chiqib ketadi. Layli Majnunni tushida koʻradi va uni izlab yoʻlga chiqadi, ikki sevishgan uchrashadilar. Bir kishi Majnunning oʻlganligi haqidagi yolgʻon xabarni Layliga yetkazadi va bundan Laylining ahvoli ogʻirlashib, vafot etadi. Majnun Laylining janozasiga yetib keladi va Laylining jasadini quchganicha vafot etadi. Ularni bir qabrga koʻmadilar. Dostonning xotima bobi marsiya yoʻnalishida boʻlib, unda Xusrav Dehlaviy doston yakunlanishidan bir oz ilgari vafot etgan onasi va ukasi Husomiddin Qutlugʻ uchun aza tutib, koʻz yosh toʻkishini aytadi.

“Hasht behisht” (“Sakkiz jannat”) Xusrav Dehlaviy “Xamsa”sidagi toʻrtinchi doston boʻlib, 1302-yilda yozilgan, hajman 3352 baytni oʻz ichiga oladi. Dostonning muqaddimasi

yetti bob, yakunlovchi qismi esa bir bobdan iborat bo'lib, ularning umumiy soni sakkizta, bu bevosita asar nomi bilan bog'liqlik kasb etadi. Dehlaviyning borliqni anglash haqidagi asosiy g'oyalari ana shu sakkiz bobda o'z aksini topgan. Asosiy qismning dastlabki boblarida Bahromning taxtga o'tirishi, ovni sevishi va Diloromning tarixi bilan bog'liq voqealar tasvirlanadi. Keyingi boblarda mashhur ov mojarosi keltiriladi: Diloromning talabiga ko'ra Bahrom kiyiklardan birining shoxini o'q bilan otib, ikkinchi kiyikka o'rnatadi va Diloromdan maqtov kutadi. Lekin Dilorom bundan ham yaxshiroq mahorat ko'rsatish mumkinligini aytgach, Bahrom g'azablanib qizning bir o'zini jazirama sahroda qoldirib ketadi. Diloromni bir darvesh o'ziga qiz qilib oladi va uni o'qitib, o'z davrining turli bilim va hunarlarini o'rgatadi, ayniqsa musiqa va san'atkorlikda tengsiz qilib tarbiyalaydi. Benazir musiqachi va san'atkor haqidagi xabar Bahromning qu'log'iga yetib boradi va u Diloromni sotib olish uchun qizning oldiga keladi. Dilorom yuzini yashirgan holda san'atini namoyish qiladi. Bahrom uning mahoratidan hayratlanadi, lekin buni sezdirmaydi. Shunda Dilorom unga bo'lib o'tgan voqeani eslatadi. Bahrom Diloromni tanib, uni o'z saroyiga olib ketadi. Bahrom Diloromga yetishgach, yana aysh-ishratga berilib ketadi va saltanat ishlarini unutadi. Yaman shohi No'mon haddan tashqari ovga berilib ketgan Bahromni poytaxtga qaytarish uchun usta binokor Shidga yetti rangda qasr qurishni buyuradi. Yetti qasrga yetti iqlim shohining qizlarini joylashtiradilar. Bahrom haftaning yetti kunida ushbu qasrlardan biriga kirib, malikalardan hikoya tinglaydi. Dostonda keltirilgan ushbu hikoyalarning syujeti uchun qadimgi hind adabiyoti yodgorliklari asos vazifasini o'tagan. Bahrom shanba kuni qora qasrda Sarandib shohi va uning uch oqil o'g'li bilan bog'liq hikoyatni, yakshanba kuni oltinrang qasrda usta Hasan zargar haqidagi hikoyatni, dushanba kuni yashil qasrda hindistonlik mehmondo'st podshoh va uning diyonatsiz vaziri haqidagi hikoyatni, seshanba kuni la'l qasrda mo'ltanlik shabar hokimi va qizil libos kiygan qiz haqidagi hikoyatni, chorshanba kuni rumlik savdogar va uning

qiziqqon o'g'li haqidagi hikoyatni (bu hikoyat mazmunan Nizomiy dostonidagi 1-hikoyatga o'xshab ketadi), payshanba kuni sandal qasrda yamanlik podsho va uning tuhmatga uchragan Rom ismli o'g'li haqidagi hikoyatni hamda juma kuni podshoh va uning to'rt xotini haqidagi hikoyatni tinglaydi. Dostonda yetti hikoya bayonidan so'ng Bahromning ovga chiqishi tasvirlangan. Bahrom ov vaqtida kiyikni quvib ketayotganida quduqqa tushib, g'oyib bo'ladi. Mulozimlari uni qancha qidirsalar-da, topa olmaydilar. Dostondan kelib chiqadigan xulosaga ko'ra, Bahrom nomunosib shoh bo'lganligi uchun nafsining qurboniga aylanib, halokatga yuz tutadi.

Dehlaviydan keyin xamsanavislik an'ana kasb etdi va butun Sharq dunyosiga tarqaldi. Juda ko'p xalqlarda Nizomiy dostonlari mavzusi va syujeti asosida asarlar paydo bo'ldi. Ozarbayjon olimi G'. Aliev jahon kutubxonalarida saqlanayotgan qo'lyozma va manbalarni o'rganib chiqish asosida Nizomiy beshligiga muayyan tarzda javob yozgan 300 ga yaqin ijodkorni aniqladi va ular haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirib, "Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока" nomli monografiyasini yaratdi.

Xamsanavislik tarixida XV asr Hirot adabiy muhiti alohida o'rin egallaydi. Izlanishlardan ma'lum bo'ldiki, aynan shu davr va shu muhitning o'zida 20 ga yaqin ijodkor xamsanavislikda o'z kuchlarini sinab ko'rganlar. Garchi bu ijodkorlarning barchasi to'liq xamsa yaratmagan bo'lsalar-da, lekin beshlikning u yoki bu dostoniga javob yozish bilan mazkur an'anaga o'z munosabatlarini bildirganlar. Bu davrdagi Nizomiy mavzulariga murojaat qilgan ijodkorlar haqida Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" (1498), Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" (1486), Humomiddin Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarlarida ma'lumotlar uchraydi.

Ijodkorlar guruhini xamsanavislikka bildirgan munosabatiga ko'ra shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

1. To'liq xamsa mualliflari.

1 “Xamsa”ning ba’zi dostonlariga javob yozgan ijodkorlar.

3. Bitta dostonga javob yozgan ijodkorlar.

To‘liq xamsa mualliflari

Jamoliy

Temur va Shohruh zamonida yashagan bu ijodkorning tavallud va vafot etgan sanalari haqida aniq ma’lumot yo‘q. Faqat G‘.Aliev o‘zining “Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока” nomli monografiyasida uning beshligi 1402–1417 yillar oralig‘ida yaratilgan degan fikrni bildiradi.

Jamoliy “Xamsa”si quyidagi dostonlardan iborat:

1. “Tuhfat ul-abror” (“Maxzan ul-asror”ga javob).
2. “Mehr-u Nigor” (“Xusrav va Shirin”ga tatabbu’).
3. “Mahzun va Mahbub” (“Layli va Majnun”ga tatabbu’).
4. “Haft avrang” (“Haft paykar”ga tatabbu’).

5. Dostonning nomlanishi aniq emas. Lekin voqealar mazmuni va qo‘llanilgan vazn Nizomiy “Iskandarnoma”sini eslatgani uchun uni Nizomiy beshligidagi so‘nggi dostonga javob tarzida yozilgan deb hisoblash mumkin.

Ashraf Marog‘iy

Shohruh zamonida yashaganligi va 1450-yilda vafot etganligi ma’lum. Uning beshligi 1428–1444 yillar oralig‘ida yaratilgan bo‘lib, quyidagi dostonlardan iborat:

1. “Minhoj ul-abror” (“Yaxshi kishilarning yo‘li”, 1428). Nizomiy dostonidan bir oz farqlanib, 21 maqolatdan iborat va ularning har bir-biriga ikkitadan hikoyat ilova qilinadi.

2. “Riyoz ul-oshiqin” (“Sevishganlar bog‘i”, 1432). Ba’zi manbalarda “Xusrav va Shirin” nomi bilan ko‘rsatiladi.

3. “Ishqnomi” (“Layli va Majnun”ga tatabbu’, 1438)

4. “Haft avrang” (“Yetti taxt”, 1440)

5. “Zafarnoma” (1444). Nomlanishdagi o‘zgachalikka qaramay, voqealar bayoni ham, qo‘llanilgan vazn ham “Iskandarnoma”ni eslatadi.

Mazkur guruhdagi yana ikki ijodkor Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy “Xamsa”lari haqida mavzu so‘ngida batafsilroq fikr yuritganimiz sababli bu o‘rinda ularga to‘xtalib o‘tirmaymiz.

“Xamsa”ning ba’zi dostonlariga javob yozgan ijodkorlar

Kotibi Turshiziy

Bu ijodkorning Nishopurdan kelganligi va 1434/36-yilda Astrobodda vafot etganligi haqida Y.E.Bertels o‘zining “Навои и Джамӣ” tadqiqotida ma’lumot keltiradi.

Turshiziy 10 ga yaqin masnaviy-dostonlar muallifi, ulardan faqat uchtasi “Xamsa” dostonlariga tatabbu’ tarzida vujudga kelgan:

1. “Gulshan ul-abror” (“Yaxshi kishilarning gulshani”).
2. “Layli va Majnun”.
3. “Bahrom va Gulandom”.

Abdulloh Hotifiy

1445/ 50–1521 yillar oralig‘ida yashagan. Manbalarda Abdurahmon Jomiyning jiyani sifatida tilga olinadi. “Xamsa”ning quyidagi dostonlariga javob yozganligi ma’lum:

4. “Layli va Majnun”.
5. “Shirin va Xusrav” (1490)
6. “Haft manzar” (“Yetti manzara”) “Haft paykar”ga tatabbu’ tarzida yaratilgan.
7. “Temurnoma”. “Iskandarnoma” vaznida bitilgan bu doston Amir Temurning zafarli yurishlariga bag‘ishlangan.

Ko‘rinadiki, Hotifiy dostonlari orasida faqat “Maxzan ul-asror”ga javob tarzida yozilgan doston uchramaydi.

Badriddin Ilolliy

Asli astrobodlik bo'lgan bu ijodkor XV asrning 70-yillarida tug'ilgan. 1529 yilda qatl etilgan. "Xamsa" dostonlariga javoban yozilgan 2 ta dostoni bor:

1. "Sifat ul-oshiqin" ("Maxzan ul-asror"ga javob)
2. "Layli va Majnun".

Shahobiddin Jomiy

Bu ijodkorning tug'ilgan va vafot etgan yillari haqida aniq ma'lumot yo'q. Faqat Xondamirning "Makorim ul-axloq"da Shahobiddin Jomiyning Alisher Navoiy maslahatiga ko'ra, "Layli va Majnun" va "Xusrav va Shirin" dostonlarini yozganligi haqidagi ma'lumotiga tayanadigan bo'lsak, muallifning XV asrning ikkinchi yarmida yashaganligi ma'lum bo'ladi. Shahobiddin Jomiyning bu ikki dostoni bizgacha yetib kelmagan yoki haligacha topilmagan.

Bitta dostonga javob yozgan mualliflar

Bu guruhni g'oyaviy yo'nalishiga qarab ikkiga ajratish mumkin:

1) "*Maxzan ul-asror*" tipida doston yozgan mualliflar:

Osafiy Hiraviy, Nargisiy, G'iyosiddin Sabzavoriy, Fosih Rumiy, Sayyid Qosimiy.

2) "*Layli va Majnun*" tipida doston yozgan mualliflar:

Shayxim Suhayliy, Ali Ohiy, Xoja Imod Loriy, Xoja Hasan Xizrshoh, Zova Qozisi.

Xamsachilik tarixida fors-tojik adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Abdurahmon Jomiy (1414-1492) beshligi alohida o'rin tutadi. Jomiy ijodkor bo'lish bilan birga naqshbandiya suluki vakili ham edi, bu holat u yaratgan asarlarda ham namoyon bo'ladi. Sharqshunos olim Konradning ta'biri bilan

aytganda, “u – shoir, u – faylasuf, u – filolog, u – musiqashunos. Lekin shu bilan bir qatorda u ko‘proq so‘fiy. Uning uchun borliqni anglashning ikki ko‘rinishi mavjud – borliq sirlari va ijod sirlari” (Konrad N.I. Запад ва Восток, 276-bet).

Adabiyotshunoslikda Jomiyning “Xamsa” yozgan-yozmaganligi bilan bog‘liq bahsli fikrlar mavjud. Ayrim adabiyotshunoslar Jomiy dostonlariga “Xamsa” tarzida emas, balki yettilik –“Haft avrang” (“Salomon va Absol” hamda “Silsilat uz-zahab” dostonlarini ham qo‘shgan holda) shaklida qarash zarurligini ta’kidlaydilar. Lekin Jomiyning o‘zi “Xiradnomai Iskandariy” xotimasida o‘z asarini “Panj ganj” deb ataganligi uchun Jomiyi “Xamsa” yaratgan ijodkorlar qatoriga kiritish to‘g‘riroq bo‘ladi.

Abdurahmon Jomiy “Xamsa”sining birinchi dostoni “Tuhfat ul-ahror” 1481- yilda yaratilgan. Falsafiy-axloqiy masalalarga bag‘ishlangan bu doston Nizomiy “Maxzan ul-asror”i hamda Amir Xusravning “Matla’ ul-anvor” dostonlariga javob tarzida vujudga keldi. Dostonlar nomlanishidagi ohangdoshlik, kompozitsion qurilishdagi o‘xshashlik va qo‘llanilgan she’riy o‘lchov bu fikrni tasdiqlaydi. Doston 1707 baytdan iborat bo‘lib, muqaddima qismi basmala bobi, beshta hamd, beshta na‘t, Xoja Bahouddin Naqshband haqidagi fasl, Xoja Ahror Valiy tavsifidagi fasl, so‘z ta’rifidagi uchta bob hamda ko‘ngil ta’rifidagi alohida bob hamda ilmul-yaqin, aynul yaqin va haqqul yaqin haqidagi uchta suhbatdan iborat. Salafлари – Nizomiy va Amir Xusravdan farqli o‘laroq, Jomiyning dostonida zamon podshohi madhiga bag‘ishlangan bob yo‘q. Asarning nomlanishi, umumiy ruhi, Xoja Ahror Valiyga bag‘ishlangan bobning ma’no-mazmunidan kelib chiqib, bu dostonni Jomiy o‘z piri – Xoja Ahror Valiyga bag‘ishlab yozgan, degan xulosa kelib chiqadi.

Asosiy qismda Jomiy salaflarga izdoshlik qilgan holda 20 ta maqolat va har bir maqolatdan keyin mavzuga mos ravishda ibratli hikoyatlar keltiradi. Maqolatlar quyidagi tartibda keltiriladi: 1) olamning yaralishi bayonida; 2) odamning xalq

qilinishi zikrida; 3) islom dinining saodati haqida; 4) imonning mohiyati haqida; 5) saloti xamsa (besh vaqt namoz) haqida; 6) zakot haqida ishoratlar; 7) Ka'ba ziyorati haqida ishoratlar; 8) uzlat bayonida; 9) sukut foydalari haqida; 10) falakning gardishidan shikoyat; 11) riyokor so'fiylar va haqiqiy darveshlar bayonida; 12) zohir ulamolarning ahvoli bayonida; 13) podshohlarga xitob; 14) munshiylar va vazirlar haqida; 15) qarilik haqida; 16) yoshlik bayonida; 17) husn va go'zallik haqida; 18) ishq ta'rifida; 19) xomtama shoirlarning ahvoli bayonida; 20) nasihat bobida.

1482–83-yillarda “Xamsa”ning ikkinchi dostoni “Subhat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning tasbehi”) maydonga keldi. An'anaga muvofiq, xamsaning ikkinchi dostoni ishqiy mavzuga bag'ishlanishi kerak edi. Lekin Jomiy bu o'rinda an'adan butunlay chekinib, falsafiy yo'nalishdagi yana bir doston yaratadi. Lekin u birinchi doston kabi 20 ta maqolatdan emas, balki 40 ta bo'lim – “iqd” (tasbeh donasi)dan iborat bo'lib, har bir nazariy qismdan keyin alohida hikoyat va munojot ilova qilib boriladi. Doston hajman 2870 baytdan iborat bo'lib, qisqacha nasriy so'zboshi, basmala bobi, hamd, na't, munojot mavzusidagi an'anaviy boblar bilan boshlanadi. Asosiy qism quyidagi fasllardan iborat: 1) ko'ngil haqiqatining kashfida; 2) so'z ta'rifida; 3) she'r va shoirlik bayonida; 4) borliqqa tafakkur qilish orqali Alloh borligini dalillashtirish; 5) tavhid bobida; 6) Haq taolo zoti – Borliq haqiqati ekanligi bayonida; 7) tasavvuf sharhi; 8) murid va muridlik odobi; 9) tavba maqomi; 10) taqvo sirrining kashfi; 11) zuhd maqomi; 12) safar va sayr-u suluk sirri; 13) sabr bayonida; 14) shukr bayonida; 15) xavf bayonida; 16) rijo (umid) bayonida; 17) tavakkul bayonida; 18) rizo bayonida; 19) muhabbat bobida; 20) shavq bayonida; 21) g'ayrat haqida; 22) qurb haqida; 23) hayo haqida; 24) hurriyat haqida; 25) futuvvat haqida; 26) sidq haqida; 27) ixlos bayonida; 28) saxovat bobida; 29) qanoat haqida; 30) tavozi' bobida; 31) halimlik bayonida; 32) ochiqyuzlilik va xushfe'llik bobida; 33) do'stlik va unsiyat bobida; 34) samo' bobida; 35) podshohlar va davlatchilik

bayonida; 36) davlat arbobini yaxshilikka targ'ib etish bayonida; 37) raiyatni odil podshohdan minnatdor bo'lishlariga targ'ib etish; 38) farzandi – Ziyouddin Yusufga vasiyatlar; 39) o'z nafsig'a nasihatlar; 40) kitobxonlardan muallifning iltimoslari zikrida.

Har bir bobda Jomiyning tegishli mavzuda nazariy fikrlari, fikrining dalili sifatida ibratli hikoyat, latifa yo tamsil, hikoyat oxirida umumlashma xulosalar keltirilgan.

“Subhat ul-abror” ramali musaddasi maxbuni maqsur vaznida yozilgan bo'lib, Navoiyning guvohlik berishicha, Jomiygacha hech kim bu vaznda doston yozmagan. “Xamsat ul-mutahayyirin”ning uchinchi maqolatida Navoiy “Subhat ul-abror”ni “Haft avrang” tarkibidagi to'rtinchi doston sifatida qayd qilib, “Saddi Iskandariy”da bu dostonni Jomiy “Xamsa”si tarkibidagi ikkinchi doston sifatida qayd qilib o'tadi:

Yana «Subha» jon rishtasin tor etib

Ki, har muhra bir durri shahvor etib (“Saddi Iskandariy”, 7-bob).

Abdurahmon Jomiy beshligidagi uchinchi doston “Yusuf va Zulayho” deb atalib, 1483-yilda yaratilgan. Nizomiy beshligida bunday mavzu va syujetdagi doston uchramaydi. Jomiy “Xusrav va Shirin” mavzusidagi an'anaviy doston yaratishdan voz kechib, Qur'onda “ahsan ul-qisas” – “qissalarning sarasi” deb ta'riflangan Yusuf qissasi bayoniga bag'ishlangan “Yusuf va Zulayho” dostonini yaratadi. Dostonning umumiy hajmi 4000 baytdan iborat bo'lib, xutba, hamd, na't, me'roj, Xoja Ahror Valiy va Sulton Husayn Boyqaro madhidagi muqaddimaviy boblar bilan boshlanadi. Jomiy bu doston syujetiga “Yusuf” surasi hamda ushbu suraga yozilgan tafsirlar, “Qisas ul-anbiyo” hamda isroiliyyot (islomiyatdan oldin o'tgan payg'ambarlar haqidagi yahudiy va nasroniy manbalar)ni asos qilib olgan. Dostonda Yusufning beqiyos jamoli, otasi – Ya'qubning unga bo'lgan beqiyos muhabbati, akalarining hasadgo'yiligi va Yusufni quduqqa tashlab yuborishlari, ertasi kuni Misr karvonidagilarga arzimagan pulga o'z jigargo'shalarini

sotib yuborishlari, Yusufning Misr bozoridagi savdosi, Misr Azizi uni vazniga teng oltin to'lab sotib olishi, Azizning sohibjamol xotini – Zulayxo Yusufni ko'rib, bolaligidan tushida ko'rib, sevib qolgan kishi aslida Yusuf ekanligini bilib, unga oshiqi beqaror bo'lishi, Zulayxoning talabini rad etgan Yusuf malomat va tuhmatga uchrab, zindonga tushishi, tush ta'бири tufayli zindondan ozod bo'lib, oliy maqomlarga erishishi, Zulayxo Haq dinga imon keltirgandan keyin Alloh uni qaytadan sohibjamol qilib qo'ygani va Yusuf unga uylangani haqidagi lavhalar juda jonli va ta'sirchan qilib tasvirlangan. Xotima qismida Jomiy asarning yozilish sanasi ta'rixi va baytlar miqdorini (4000 bayt) yozib, Yusuf timsolidan murod – Mir Alisher Navoiy ekanligini ta'miya (muammo san'ati orqali) usulida qayd qilib o'tadi.

Abdurahmon Jomiy “Xamsa”sidagi to'rtinchi doston “Layli va Majnun” mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, 1483-yilda yaratilgan. Hajman 3680 baytdan iborat. Asar salaflar dostonlaridan tasavvufiy bo'yoqlarning quyuqligi va ramziylikning kuchli ifodasi bilan ajralib turadi. Dostonda an'anaviy muqaddimadan so'ng voqealar mazmuni keltiriladi. Unga ko'ra, Qays oiladagi o'n farzandning eng kenjasi. Uning bolaligi tasviri keltirilmaydi, voqealar ibtidosida u tuya minib yuruvchi yengiltabiat yigit sifatida tasvirlanadi. Qays dastlab Karima ismli qizga ko'ngil qo'yadi. Lekin Karimaning badavlat yigitga rag'bat bildirganligini ko'rib, qabilani tark etadi va choparlardan Layli ismli qizning ta'rifini eshitib, uni ko'rishga boradi va sevib qoladi. Layli va Qaysning qabilalari o'zaro adovatda edilar. Qaysni amakisining qiziga uylantirmoqchi bo'ladilar, lekin u ko'nmaydi. Shunga qaramay, Qaysning uylanayotganlik xabari Layliga yetib boradi va u yigitni beqarorlikda ayblaydi. Bundan ta'sirlangan Qays Layli tomon yo'lga tushadi va agar uni uchrata olsa, Ka'ba ziyoratiga borishga ont ichadi. Qaysning orzusi amalga oshib, Laylini uchratadi va Ka'ba ziyoratiga boradi. Makkadan qaytgach, sevishganlar yana uchrashadilar. Bu paytga kelib Qays “Majnun” laqabini olgan edi.

Laylining otasi Qaysga qilich bilan tahdid qilib, qizi bilan uchrashishni ta'qiqlaydi. Qaysning oilasi Laylini so'rab, sovchilikka boradi, lekin Laylining otasi qizini dushman qabilaga berishni istamaydi. Majnun dashtga – yovvoyi hayvonlar tomonga chiqib ketadi. Dashtda Majnun lashkarboshi va shoir Navfal bilan uchrashadi. Navfal Majnun nomidan Laylining oilasiga sovchilikka boradi, lekin Laylining otasi yana rad javobini beradi. Majnun ishqiy she'rlari bilan shuhrat qozonadi va ularni tinglagan xalifa hatto uni taqdir-lamoqchi bo'ladi, lekin Majnun rozi bo'lmaydi.

Saqif qabilasidan bir yigit Ka'ba yo'lida ketayotib, Laylini uchratib qoladi va unga sovchi yuboradi. Laylining otasi nasab va boylikda yuqori bo'lgan bu yigitga rozilik bildiradi va to'y bo'lib o'tadi. Layli kuyovga Majnunni sevishini va agar unga yaqinlashsa, o'zini ham, uni ham o'ldirishini aytib, qasam ichadi. Majnun Laylining turmushga chiqqanligini eshitib, qattiq xafa bo'ladi. Dostonda Majnun-ing Layliga, Laylining Majnunga yozgan maktublari keltirilgan. Laylining kuyovi uning visoliga erisholmay, qattiq iztirobga tushadi va xastalanib, vafot etadi.

Bir kuni Layli va Majnun tasodifan uchrashadilar, Majnun Laylini ko'rib hushini yo'qotadi, Layli bazo'r uni hushiga keltiradi va kelasi safar yana shu yo'l orqali uning huzuriga kelishini aytadi. Oradan ancha vaqt o'tgach, Layli Majnunni yana shu joyda harakatsiz holda uchratadi, uning boshiga qushlar in qurishga ulgurgan edilar. Ma'lum bo'ladiki, Majnun o'sha uchrashuvdan so'ng shu yerda Laylini kutib turgan ekan. Majnun Laylini tanimaydi, uni endi Laylining qiyofasi qiziq-tirmas edi, chunki uning ishq-i majoziydan ilohiyga o'tib bo'lgan edi. Majnunni yovvoyi hayvonlar orasida o'lik holda topadilar, uning o'limini eshitgan Layli ham hayotdan ko'z yumadi. Asar bu olamning o'tkinchiligi haqidagi bob bilan yakun topadi.

“Xamsa”dagi so'nggi – beshinchi doston “Xiradnomai Iskandariy” ham Jomiyning an'anaga rioya etishi bilan xarakterlanadi. Ko'rinadiki, Abdurahmon Jomiy yaratgan

masnaviy-dostonlar orasida falsafiy yo'nalishdagi dostonlar yetakchi o'rinda turishi bilan xarakterlanar ekan.

Fors adabiyotida Nizomiy beshligiga birinchi javob bitgan ijodkor Xusrav Dehlaviy bo'lsa, Navoiy bu vazifani turkiy tilda ado etdi. Navoiy beshligida xamsanavislikning barcha shartlariga qat'iy amal qilinganligini ko'ramiz. Chunki xamsanavislik an'anasidan bir oz bo'lsa-da chekinish, turkiy tilda xamsadek buyuk asarni yozib bo'lmaydi degan fikrga olib kelishi mumkin edi. Navoiy o'z "Xamsa"si misolida an'anaviy shakl doirasida ham yangi fikr ayta olish imkoniyatini, belgilab berilgan shakllarni jilvalantirish usullari mavjudligini ko'rsatib berdi va uning bu asari umumjahon adabiyotining yuksak cho'qqisi bo'lib qoldi. Navoiy "Xamsa"si ajdodlarimiz ma'naviy holatining ko'zgusi bo'lib, unda o'tmish davr ijtimoiy turmushi, xalq hayoti, urf-odatlar, din-diyonat, axloq-odob haqidagi qarashlar o'z aksini topgan. Navoiy "Xamsa"si bir-biri bilan ich-ichidan mustahkam bog'langan beshta dostonni o'z ichiga oluvchi yaxlit asardir. Buyuk shoir unda zamonasining barcha dolzarb masalalarini qalamga oladi. Mundarijaviy doston bo'lmish "Hayrat ul-abror"da shoir umr, uning mazmuni, tabiat, jamiyat va inson munosabatlariga doir savollarni qo'ysa, keyingi dostonlarda muayyan taqdirlar, voqealar misolida ularga javob berishga harakat qiladi. "Xamsa" dostonlaridagi muqaddimalar voqelikka shunchaki an'anaviy kirish bo'lmay, balki dostonlar mundarijasi uchun ochqich vazifasini ham o'taydi. Shu ma'noda muqaddimalarda keltirilgan fikrlarga alohida e'tibor berish dostonlar tagzaminida yashiringan ramziy ma'nolarni ochishga yordam beradi. Aynan muqaddimada buyuk mutafakkirning olam va odam, tabiat, kishilik jamiyati, umr va uning mazmuni haqidagi falsafiy-axloqiy qarashlari, ijodkor sifatidagi buyuk salohiyati u qo'llagan badiiy timsollar, tashbch-u tamsillar vositasida butun bo'y-basti bilan namoyon bo'ladi.

O'zbek mumtoz adabiyotining cho'qqisi bo'lgan Alisher Navoiy "Xamsa"si jahon adabiyotining noyob va o'lmas durdonasidir.

“HAYRAT UL-ABROR DOSTONI HAQIDA

Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi birinchi doston “Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”) 1483-yilda yaratilgan edi. Doston 3988 baytdan iborat bo‘lib, Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror”, Amir Xusrav Dehlaviyning “Matla’ ul-anvor” hamda Abdurahmon Jomiyning “Tuhfat ul-abror” dostonlariga javob tariqasida yozilgan. “Hayrat ul-abror” 63 bob, 20 maqolat va 20 hikoyatdan tashkil topgan. Shundan muqaddima 21 bobni o‘z ichiga oladi.

Dostonning birinchi bobi “Bismillohir rahmonir rahim” (“Mehribon va rahmli Olloh nomi bilan boshlayman”) oyatining shoirona talqiniga bag‘ishlanganligi uchun “basmala bobi” deb ham ataladi. Bu bob nafaqat “Hayrat ul-abror” uchun, balki umuman “Xamsa” uchun ham kirish vazifasini o‘taydi, chunki keyingi dostonlarda biz bu ilohiy jumlaning uchratmaymiz.

Umuman, salaflarda “Xamsa”ni “bismilloh” oyati bilan boshlash an‘ana tusiga kirgan bo‘lib, Nizomiydan boshlab barcha xamsanavislar o‘z so‘zlarini ana shu oyat bilan boshlaganlar. Faqat Navoiyga kelibgina bu bob mustaqil basmala bobiga aylandi, ya‘ni ushbu bob to‘lig‘icha “bismilloh” oyati asosida qurildi.

Hazrat Navoiy dastlabki 12 baytni “bismilloh” oyatining umumiy tavsifiga bag‘ishlaydi: oyat o‘z shakli va mohiyatiga ko‘ra butun Borliqning nizomini ushlab turuvchi “jahon rishtasi”, tiriklik asosi bo‘lmish “jon rishtasi”, abadiylik xazinasiga eltuvchi sinoatli tasbih, ham dunyo, ham oxirat saodatini sayd etuvchi arqon, obihayot oquvchi ariq, Arshi a‘loni yorituvchi qandilga o‘xshatiladi. Keyingi baytlarda vahdat (Birlik, Alloh taoloning Bir-u Borligi) xazinasiga eltuvchi yo‘l sifatida ta’riflangan “bismilloh”dagi har bir harfga ikki toifa – “ahli qabul” (qabul etganlar) va “ahli rad” (inkor qilganlar) uchun alohida-alohida ma’no yuklatiladi. Dastlab rad etuvchilarga to‘xtalinar ekan, ushbu jumladagi har bir harfning bu toifa kishilarini jazolantirishga xizmat qildirilganligini ko‘ramiz.

Xususan, “س” – “sin” harfi haqida gapirilganda, uning shakli nahang balig‘ining umurtqa suyagidagi arradek bo‘lib, rad etuvchilar uchun ofatdek; “م” – “mim” harfi ilon nafasidek o‘t sochib, yo‘l boshida og‘zini ochgan holda yotadi, degan tashbehlardan foydalaniladi. Shu tariqa Navoiy ushbu jumladagi qolgan harflarni ham mazkur maqsadga xizmat qildiradi va kitobat (harf) san‘atining betakror namunasini yaratadi.

Ikkinchi toifa, ya’ni qabul qiluvchilarga to‘xtaliganda endi bu harflarning ijobiy ma’no kasb etishini kuzatamiz. Xususan, “س” “sin” harfi endi salomatlik yo‘lining zinasiga o‘xshatilsa, “م” – “mim” harfining maqsad manzilidagi buloq boshiga nisbat berilganligini ko‘rish mumkin. Bularning barchasida Navoiyning yuksak badiiy salohiyati namoyon bo‘ladi.

Dostonning ikkinchi bobidan boshlab Navoiy “Xamsa”sining yana bir o‘ziga xos jihatiga duch kelamiz. Navoiygacha yozilgan “Xamsa”larda boblarga alohida sarlavha qo‘yilmagan. “Hayrat ul-abror”ning ikkinchi bobidan boshlab Navoiy saj‘ning go‘zal namunasi bo‘lmish jumlarlar orqali bobning umumiy mazmun-mohiyatini ochib beruvchi nasriy sarlavhalardan foydalanadi. Shoir sarlavhalar tuzishda hamisha ham bir xil andozadan kelib chiqmagan: zarur paytlarda murakkab shakllarni qo‘llagan, ayrim o‘rinlarda oddiy ifoda usullaridan foydalanish bilan cheklangan.

Ikkinchi bob Xoliq, ya’ni Olloh hamdiga bag‘ishlanadi. Mazkur bobda shoir hamma narsani yaratgan Xoliqning osmon va quyoshdan tortib har bir zarrani, butun o‘simliklar va hayvonot olamini, kishilik jamiyatini bir-biriga bog‘lab harakatlantirib turishini cheksiz hayrat bilan tasvirlaydi. Alisher Navoiy “Uning zoti lutf va safodan iborat, lekin vafu isi unga begona” degan fikrlarni ilgari surar ekan, bu o‘rinda tasavvuf ta’limoti asosida fikr yuritilayotganligi ma’lum bo‘ladi.

Dostonning 3-6 boblari (to‘rt bob) munojotlarni o‘z ichiga oladi. Birinchi munojotda Alloh taoloning Bir-u Borligi, jamiyki maxluqot unga sano aytsalar ham, uning hamdini ado etolmasliklari, Haq taolo o‘z Zotiga mazhar – ko‘zgu yaratish

maqsadida olamni yo‘qdan bor qilgani haqida so‘z yuritiladi. Olamning go‘zalligi va mukammal yaratilganligini vasf etish orqali mutafakkir shoir Parvardigori olamning benazir yaratuvchi ekanligini chin e‘tiqod sohiblariga xos bo‘lgan jo‘shqinlik bilan vasf etadi. Shu bilan birga, Borliqni yaratishdan asosiy maqsad, olamning hikmati va gultoji, koinotning mohiyati inson ekanligini alohida iftixor va shukronalik bilan qayd qilib o‘tadi:

Ganjing aro naqd farovon edi,

Lek boridin g‘araz inson edi.

Ikkinchi munojotda esa, Alloh olamdagi jamiyki mavjudotning yaralish va foniylikka yuz tutish jarayoni davomida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan jamiyki voqea va hodisalarni o‘z ilmi, irodasi va qudrati bilan tasarruf etishi, azaliylik va abadiylik faqat Xudoga xos ekanligi, haqiqiy iloh faqat Alloh taoloning O‘zi bo‘lib, olamdagi jamiyki mavjudot faqat Unga sajda va itoat qilishlari lozimligini bayon etib, o‘z iltijolarida ilohiy g‘azabdan qo‘rqib, rahmatidan umidvor holda yashayotganini, imon gavharidan ayru qoldirmaslikni yolvorib so‘raydi:

Yo Rab, agar yetsam o‘shul kunga jazm,

Yoki burun aylasam ul yonga azm,

Ul nafas imon manga hamroh qil,

Ko‘nglum aro mahvi sivalloh qil.

Uchinchi munojotda olam ahlining qiyomat kunidagi ahvoli tasvirga tortilib, o‘sha kuni oxirzamon payg‘ambari – Muhammad Mustafo (s.a.v) Haq taolo izni bilan musulmon ummatini shafobat qilishi, Navoiy ham bu shafobatdan umidvor ekanligi haqida so‘z yuritiladi. To‘rtinchi munojot esa, Alloh taoloning karami kengligi, jamiyki bandalariga mehribon va rahmli ekanligi haqida so‘z yuritiladi. Navoiy talqini bo‘yicha:

Har kishi osiy-u gunahkorroq,

Afv ila rahmatqa sazovorroq.

Bobda aytilishicha, dunyodagi barcha mavjudotlar o'z Yaratganiga doim sajda qilishlari zarur. Xudoning qahri kelsa, "ko'k bir etak kul" kabi sovurilib ketishi hech gap emas. Shuning uchun inson o'ylab ish qilishi, gunoh qilishga yo'l qo'ymasligi, qiyomat kunini unutmasligi, har bir gumoh uchun qiyomat kuni jazo olajagini esda tutishi, islom dini qoidalariga to'la rioya qilishi zarur. Navoiy munojot so'ngida Yaratganga murojaat qilib, gunohlarini kechirishini so'raydi:

*Garchi gunahning had-u poyoni yo'q,
Aylamasang rahm ham imkoni yo'q.*

Adabiy an'anaga ko'ra, munojotdan so'ng payg'ambar madhiga, ya'ni na'tga o'tiladi. Dostonda 5 ta na't keltirilgan. Ushbu na'tlarning dastlabki to'rttasi vasf yo'nalishida bo'lsa, beshinchi na't me'roj haqida. Dostonda Navoiy Payg'ambar (s.a.v.)ni komil inson deb talqin etar ekan, ul Zotning insoniyat taqdiridagi o'rmini – bu dunyoning yaratilishidan maqsad Rasulullohdek komil inson ekanligini ta'kidlaydi, u Zotni alohida mehr-muhabbat bilan madh etadi.

Birinchi na'tda tasavvuf ta'limotidagi "Nuri Muhammadiya" nazariyasiga to'xtalinar ekan, ushbu nazariyadagi "Odam Ato unga ham o'g'il, ham ota" degan tushuncha ta'rifi beriladi. "Nuri Muhammadiya"ga ko'ra, Alloh barcha olamlarni yaratishdan oldin Muhammad nurini yaratgan bo'lib, shu nur tufayli olamni va odamni yaratgan. Demak, Odam Ato ham Muhammad nuridan bino qilingan. Shuning uchun hazrati Muhammad (s.a.v) Odam Atoga ham ota, ham o'g'ildir:

*Bo'ldi sanga Odami sabqatnamo,
Avval o'g'ul, so'ngra gar o'lsa ota.*

Ikkinchi na'tda Payg'ambar (s.a.v.)ning tug'ilishlari, bolalik paytlarida otadan yetim qolishlari, savdogarlik bilan shug'ullanishlari, hali payg'ambarlik maqomiga yetishmagan

zamonlarida ham qabiladoshlari orasida yuksak axloqlari bilan nufuz topganlari, payg‘ambarlikning dastlabki yillarida ayrim mushrik qabiladoshlari tomonidan ko‘p aziyatlar chekkan bo‘lsalar hamki, ularni duoi xayr qilganliklari haqida so‘z yuritilsa, uchinchi na‘tda Muhammad alayhissalomning payg‘ambarliklariga dalil bo‘lgan mo‘jizalar – u Zotning soyasiz bo‘lganliklari, Oyni ishorat barmog‘i bilan ikkiga bo‘lganliklari, xat-savodsiz bo‘lganlari holda olamning jamiyki hikmatlaridan boxabar, butun olamlarga rahmat qilib yuborilgan payg‘ambar ekanliklari haqida so‘z yuritiladi. To‘rtinchi na‘tda esa, Navoiy ahli sunnat va jamoat e‘tiqodiga ko‘ra, Payg‘ambar (s.a.v.)ning sifatlarini bayon etib, u Zotning ahli bayti va jamiyki sahobalar, ayniqsa to‘rt xalifa – Abubakr Siddiq, Umar Foruq, Usmon Zinnurayn va Ali Murtazoga salovot yuboradi.

Beshinchi na‘t esa an’anaga muvofiq, me’roj kechasining ta’rifiga bag‘ishlangan. Oxirzamon payg‘ambarining mo‘jizalari ko‘p bo‘lsa hamki, u Zotning ikki mo‘jizasi – me’roj va shafaat hodisasi badiiy adabiyotda alohida tilga olinadigan mavzu hisoblanadi. Aynan me’roj hodisasi sodir bo‘lganidan keyin kufr va imon chegarasi aniq bo‘ldi – bu hodisaga ishonganlar musulmon, ishonmaganlar kofir degan ilohiy hukm nozil bo‘ldi. Shafaat masalasi esa, islom payg‘ambarining mo‘jizalari qiyomatgacha davom etishi, ummatining gunohini shafaat qilish imkoniyati faqat Muhammad alayhissalomga berilganining isboti hisoblanadi.

Dostonning 12-bobi ulug‘ salaflar Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy madhiga bag‘ishlangan. Dastlab Nizomiyga ta’rif berilar ekan, uning ismidagi harflar abjad hisobiga ko‘ra 1001 soniga teng kelishi jihatidan Xudoning 1001 ismiga hamohang ekanligi aytiladi. Ishtiyoq (o‘zakdosh so‘zlarni keltirish) va iyhom (baytda ikki xil ma’noni qo‘llash) san’atlari vositasida u yaratgan xazina (“Xamsa”)ga ta’rif beriladi:

*Ganja vatan, ko‘ngli aning ganjxez,
Xotiri ganjur-u tili ganjrez.*

Xusrav Dehlaviy madhi keltirilganda esa uning ismidagi “xusrav” soʻzining podsho maʼnosini bildirishi Dehlaviyning soʻz podshosi sifatida hind mulkini obod qilganligi, uning har bir dostoni Hindistonning bir oʻlkasiga teng ekanligi bilan izohlanadi:

*Nazmi savodi aro har doston,
Oʻylaki, bir kishvari Hinduston.*

13-bob Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhini oʻz ichiga oladi. Navoiy Nizomiy va Dehlaviyni bir bobda taʼriflagani holda ustoz va doʻsti Abdurahmon Jomiyga alohida bob bagʻishlaydi. Uni oʻsha davrning “qutbi tariqati” deb atar ekan, oʻzining unga nisbatan oʻjiz va muhtojligini gʻoyat kamtarlik bilan bayon qilsa, Jomiyning yangi yozgan biror asarini oʻzidan oldin hech kim koʻrmasligini faxr bilan taʼkidlaydi:

*Nomagʻakim roqim etib xomasin,
Koʻrmadi men koʻrmayin el nomasin.*

“Hayrat ul-abror” dostonining yozilishida aynan Jomiyning “Tuhfat ul-ahror” dostoni turtki boʻlganligini aytiladi:

*Bosh tin-ayoq gavhari shahvor edi,
Qaysi guhar, “Tuhfat ul-ahror” edi...
Chun oʻqimoq zamzamasi boʻldi bas,
Koʻnglum aro dagʻdagʻa soldi havas.
Kim bu yoʻl ichraki alar soldi gom,
Bir necha gom oʻlsa manga ham xirom.*

Dostonning 14–15-boblari soʻz taʼrifiga bagʻishlangan. Shoir ushbu boblarda soʻzni tavsif etar ekan, nazmning qimmatini, soʻzdagi maʼno, uning shakliga muvofiqligi, shakl va mazmun masalasi, umuman, ijod haqidagi masalalarga eʼtibor qaratadi.

Navoiy soʻzning buyukligini “kun” (yaral) soʻzining olam va odamni yaratishda vosita boʻlganligi bilan dalillaydi:

*Dahr muqayyad bila ozodasi,
Borcha erur “kof” ila “nun” zodasi.
Zodasidin zoda boʻlub beaded,
Zodaga ham volid oʻlub, ham valad.*

Alisher Navoiy bu oʻrinda soʻzning mahsuli boʻlgan adabiy turlar haqida ham toʻxtalar ekan, nazm va nasrga alohida taʼrif beradi, nazmni nasrdan ustun qoʻyib, gulshanda gullarning saf tortib turishini nazmga, sochilib, toʻkilib yerda yotishini nasrga oʻxshatadi. Shoirning eʼtiroficha, nazm bu qadar eʼzozlanmasa, Tangri soʻzida sheʼr boʻlmas edi:

*Boʻlmasa eʼjoz maqomida nazm,
Boʻlmas edi Tengri kalomida nazm.*

Shuningdek, Navoiy ushbu bobda turkiy tilda sheʼr aytishga kuchli ishtiyoq sezishini va bu yoʻlda ancha yuqori darajaga erishganini faxr bilan bayon qiladi. Mazkur bobda Navoiy shoirlar axloqi, shoirlik rutbası, ayrim zamondosh shoirlar bilan bogʻliq “adabiy sirqat” (plagiat, boshqa shoirlardan maʼno yoʻ mazmun oʻgʻirlash) haqida ham fikr yuritganki, bu fikrlar bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotgan emas.

Dostonning 16-bobi zamona sultoni Husayn Boyqaro madhini oʻz ichiga oladi. Alisher Navoiy bu bobda talmeh sanʼati vositasida Husayn Boyqaroni kuch-qudratda Firdavsiy qahramoni Rustamga, adolat va fazl-u kamolda Eronning afsonaviy podshosi Jamshidga oʻxshatadi.

17-bob “Koʻngul taʼrifida” deb nomlanadi. Bobning ilk baytlarida shoir Xudoni dehqonga, insonni vujudini gulistonga qiyoslaydi. Uning fikricha, Xudoning inson vujudini yaratishdan asosiy maqsad-muddaosi, inson vujudining eng sharif aʼzosi – koʻngil hisoblanadi:

*Ermas edi anda g'araz hech gul,
G'ayri ko'ngulkim, g'araz erdi ko'ngul.*

Shu bilan birga, shoir ko'ngulni inson ko'ksining chap tomonida joylashgan a'zo – yurak bilan adashtirmaslikka chaqiradi. Yaratganning yodi bilan yashaydigan insondagina haqiqiy ko'ngul bo'ladi va ugina "ahli dil" sanalishi mumkin. Shuningdek, Navoiy ko'ngulni olami kubro, Ka'badan-da ulug' joy deb ataydi.

Muqaddimaning qolgan uch bob (18–20-boblar) hayrat ta'rifiga bag'ishlangan. Bu boblarda Xoja, ya'ni ko'ngulning avval mulk (narsalar) olamiga, keyin malakut (farishtalar) olamiga va nihoyat so'ngida "ajoyib bir shahar" (inson tanasi)ga sayohati bayoni keltiriladi va bu sayohat ko'ngulning o'zligini tanib, inson tanasiga kirgani tasviri bilan yakunlanadi. Alisher Navoiy bu o'rinda "o'zligini tanigan Xudoni ham taniydi" g'oyasini ilgari suradi:

*Nafsg'a chun orif o'lub mo'-bamo'
Foyiz o'lub "qad arafa rabbahu".*

Ko'ngil hayratlari yaratilgan olamlarning mukammalligi, uning inson tomonidan idrok etilishi va inson qadri kabi masalalarga tutashdiki, bular keyingi – 21-bobda Xoja Bahouddin Naqshband hamda Xoja Ubaydulloh Ahror madhlarida davom etadi.

Alisher Navoiyning muqaddimadagi so'nggi bobni aynan shu shayxlarga bag'ishlashi shoirning naqshbandiya suluki vakili ekanligiga ishora etadi. Bob o'z ichida ikki qismga ajratiladi, birinchi qism 15 haytdan iborat bo'lib, uning deyarli har bir baytida *naqsh* so'zining turli holat va shakllarda ishtiyoq (o'zakdosh so'zlarni keltirish) va tanosub (ma'no va mohiyat jihatidan bir-biriga yaqin so'zlarni keltirish) san'atlari vositasida qo'llanilganligini ko'ramiz. Navoiy Bahouddin Naqshbandni yuksak martabali naqqoshga, uning ta'limotini muhtasham va dilkash naqqshga o'xshatadi:

*Xojaki naqqoshi sipehri baland,
Bo 'lg'ali har safhasig'a naqshband.
Ayladi avroq munaqqash base,
Naqsh raqam ayladi dilkash base.*

Bobning ikkinchi qismi naqshbandiya tariqatining o'sha davrdagi mashhur pirlaridan biri Xoja Ubaydulloh Ahror madhiga bag'ishlangan. Navoiy uni murshidi ofoq (yo'lboshlovchi pir) deb ulug'lar ekan, shohlar unga qulluq qilishga o'zlari keladilar, hatto haqiqat sirlaridan ogohlar ham uning huzurida hushlaridan judo bo'ladilar deb yozadi:

*Yuz qo'yubon qullug'ig'a shohlar,
Bazmida bexud o'lub ogohlar.*

Alisher Navoiy bobni ulug' shayx faoliyatiga yuksaklik tilash va uning himmatidan bahramandlik umidi bilan yakunlaydi va bu umid bevosita muqaddimga ham yakun yasaydi:

*Qo'ymasun ayvoni jahonni tih,
Dabdabai ko'si Ubaydullahi.
Himmatidin bizni ham etsun Xudoy,
Faqr yo'lida g'ani, imong'a boy.*

Dostonning 22-bobidan asosiy qism boshlanadi. Asosiy qism maqolat va hikoyatlardan tashkil topgan 40 bobni o'z ichiga oladi. Maqolatlar muayyan bir axloqiy-falsafiy mavzuga bag'ishlangan bo'lib, shoir dastlab ushbu mavzuga munosabat bildiradi, mavzu yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bayon qiladi, so'ngra shu mavzuga mos ibratli hikoya keltiradi. Maqolatlarning barchasi, ularga ilova qilingan hikoyatlar ham bir-biri bilan izchil bog'langan, mazmunan biri ikkinchisini davom ettiradi, to'ldiradi, rivojlantiradi.

Shu tariqa asosiy qism 20 maqolat va unga ilova tarzida keltirilgan hikoyatlar bayoni tarzida davom etadi. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

| Maqolat nomi | Hikoyat |
|---|---|
| Iymon sharhida | Shayx Boyazid Bistomiy va uning muridi haqidagi hikoyat |
| Islom bobida | Ibrohim Adham va Robiya Adviya haqidagi hikoyat |
| Salotin (sultonlar) zikrida | Shoh G'oziy hikoyati |
| Xirqa kiygan riyokor shayxlar xususida | Abdulla Ansoriy haqidagi hikoyat |
| Karam (xayru ehson) vasfida | Hotami Toyi hikoyati |
| Adablilik to'g'risida | No'shiravon va Nargis haqidagi hikoyat |
| Qanoat bobida | Qanoatli va qanoatsiz ikki do'st haqidagi hikoyat |
| Vafo bobida | Ikki vafoli yor hikoyati |
| Ishq o'ti ta'rifida | Shayx Iroqiy haqidagi hikoyat |
| Rostliq ta'rifida | Sher bilan Durroj hikoyati |
| Ilm osmonining yulduzlardek baland martabaliligi haqida | Imom Roziy va Xorazmshoh haqidagi hikoyat |
| Qalam va qalam ahllari haqida | Yoqut haqidagi hikoyat |
| Bulutdek foyda keltiruvchi odamlar haqida | Ayyub va o'g'ri haqidagi hikoyat |
| Osmon tuzilishida shikoyat | Iskandar haqidagi hikoyat |
| Jaholat mayining quyqasini ichadiganlar haqida | Isroiliy rind haqidagi hikoyat |
| Xunasasifat oliftalar haqida | Abdulloh Muborak haqidagi hikoyat |
| Bahor yigitligining softligi haqida | Zaynobiddin va uning o'g'li haqidagi hikoyat |
| Falak g'amxonasi haqida | Go'zal malika va uning oshig'i haqidagi hikoyat |

| | |
|--|--------------------------------------|
| Xurosonning misli yo‘q viloyati bayonida | Bahrom va bog‘ haqidagi hikoyat |
| Maqsadning o‘talgani haqida | Xoja Muhammad Porso haqidagi hikoyat |

Eng avvalgi maqolat iymon sharhiga bag‘ishlanadi. Bu bejiz emas, zero dostonning bosh g‘oyasi komil inson timsolini vasf etishdir, komillikning bosh belgisi esa iymondir:

*Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki nishoni anga iymon erur.*

Alisher Navoiy “Kimdagi iymonning uch belgisi bo‘lsa, u haqiqiy insondir” deydi va bu belgilar sifatida *sabr*, *shukr* va *hayoni* ko‘rsatib o‘tadi:

*Bas ani inson atag‘il beriyo,
Kim ishidur sabr ila shukr-u hayo.*

Komil inson ta‘rifidan keyin iymon sharhiga to‘xtalib o‘tiladi. Hazrat Navoiy iymonning 6 sharti sifatida quyidagilarni keltirib o‘tadi:

- 1) Haqning borligiga iymon keltirish;
- 2) farishtalarga iymon;
- 3) Allohning so‘zlari bo‘lgan muqaddas kitoblarga iymon;
- 4) Payg‘ambarlarga iymon;
- 5) qiyomat kuniga iymon;
- 6) taqdiri azalga iymon.

Ushbu fikrlardan so‘ng Shayx Boyazid Bistomiy va uning muridi haqidagi hikoyat keltiriladi. Hikoyatda bir kuni Shayx Boyazid Bistomiydan g‘amginlik sababini so‘ragan muridiga shayx bu dunyoda haqiqiy insonlar kamayib ketganligidan xafaman deb javob beradi. Shunda muridi shayxni haqiqiy insonlar safida deb hisoblashini aytganida, shayx o‘zini ham yuz

ming sarson-sargardonlar qatorida sanashini, agar bu dunyodan iymon bilan ketmas ekan, inson sanalmasligini aytadi. Hikoyatda diniy mazmundan tashqari tasavvufiy qarashlar ham mavjud bo'lib, bunda tariqatdagi xavf maqomi haqida so'z boradi, deb aytish mumkin. N.Komilovning "Tasavvuf" kitobida yozilishicha, xavf tariqatning 6-maqomi bo'lib, bunda solikning nafs makridan qo'rqishi, shayton nayrangining ko'ngilga xavf solishi nazarda tutiladi. Nafs shunday kuchli dushmanki, solik tariqatdagi tavba, vara', zuhd, faqr, sabr kabi maqomlarni egallagan bo'lishiga qaramay, nafsning iymonga daxl qilishi mumkinligidan doim xavfda bo'ladi.

Ikkinchi maqolatda esa, islom dinining mohiyati va arkonlari haqida so'z yuritiladi. Maqolat avvalida Navoiy basmala bobidagi "ahli qabul" va "ahli rad" tushunchalariga yanada oydinlik kiritib, shunday yozadi:

*Olam aro xalqni Yazdoni pok,
Ahli najot etti-yu ahli halok.
Bu birisin obidi asnom bil,
Ul birisin zumrai islom bil.
Kufr eli yo'l topti malomat sari,
Zumrai islom salomat sari.*

Navoiy talqini bo'yicha, islom davlatida yashashning o'zigina musulmon bo'lish uchun yetarli emas. Shoir hadisga tayangan holda haqiqiy musulmon deb, boshqa odamlar qo'li va tilidan omon va salomat bo'lgan kishigagina nisbatan qo'llash mumkinligini ta'kidlaydi. Bunday axloqiy darajaga yetish uchun inson islomning besh ruknini xolis niyat va pok e'tiqod bilan bajarishga harakat qilishi kerak. Navoiy islom dinining arkoni – shahodat kalimasini aytish; namoz, ro'za, zakot va hajning shartlarini bayon etish bilan birga bu amallar shunchaki rasm-rusum emas, balki ruhiy tarbiyaning asoslari ekanligini juda chiroyli tarzda ifodalab bergan. Jumladan, 25-bobdagi hikoyatda keltirilishicha, shohlikni tark etib, darveshlikni ixtiyor etgan Ibrohim Adham biyobon yo'li bilan hajga borishni ixtiyor etib, har bir bosgan qadamining shukronasiga ikki rak'at namoz o'qib

boradi. Haj yo'lini shu tariqa o'n to'rt yilda bosib o'tgan Ibrohim Adham Makkaga kirsam, Ka'bani o'z o'rnida topmaydi. Haq taologa munojot qilib sababini so'rasa, g'aybdan "Ka'ba biyobon yo'li orqali muhabbat shavqidan qaddi egik bir kampir ziyoratiga ketdi", degan ovoz keladi. Ko'p o'tmay, biyobon yo'lidan kelayotgan Robiya Adaviyani ko'rib, bu ishning hikmatini so'rasa, Robiya unga shunday javob beradi:

Senga samar berdi namoz-u riyo,

Menga samar berdi niyoz-u fano.

Bu hikoyat orqali Ilohga bo'lgan chin ixlos va muhabbat har qanday ibodatdan ustun ekanligini ta'kidlagan Navoiy keyingi maqolatda sultonlar ta'rifiga o'tadi. Navoiy bu bobda podshohlikning mezoni – asosi adolatda ekanligini sarlavhadayoq bayon etadi. Navoiyning talqini bo'yicha, podshoh ham boshqa insonlar kabi tuproqdan yaralgan oddiy banda. Podshohlik – iintiyoz emas, balki vazifa, uni halol bajarish uchun haqni nohaqdan ajratib, adolat tamoyiliga so'zsiz rioya qilish shart. Xalq birligi, mamlakat obodligi, turmush farovonligini ta'minlovchi asosiy omil ham adolat hisoblanadi. Ammo, afsuski, deb davom ettiradi o'z mushohadasini Navoiy, bu qoidaga hamma vaqt ham rioya qilinmaydi, zulm va zo'ravonlikning boshida ko'pincha maishatparast va zolim hukmdorlar turadi.

Navoiy bu zulmkorliklarning natijalari sifatida shohlarning bazmi jamshidlarini batafsil tasvirlaydi. Bu ajablanarli emas. Chunki uning o'zi bunday tongotar bazmlar, mayxo'rliklar, bema'ni va bemaza gap-gashtaklar, xalqning peshona terisidan yig'ilgan mablag'larni ko'kka sovurishlarni ko'p ko'rgan edi. Nafs itining qo'lida zabun bo'lgan bu toifaning qiliqlarini o'tkir o'xshatish va tashbehtar orqali fosh etib, ushbu jirkanch manzara tasviri orqali hokimiyatning oliy tabaqasini ogohlikka, bunyodkorlikka da'vat etadi:

Zulmni tark aylavu dod aylagil,

Marg kunidin dag'i yod aylagil.

Maqolatdan keyingi hikoyatda Sulton Husayn Boyqaroning faoliyatiga bog'liq hikoyatni keltiradi. Unda aytilishicha, bir kuni

Husayn Boyqaro oldiga bir kampir kelib, qozi mahkamasiga olib boradi va undan o'g'lining xunini talab qiladi. Qozi guvoh so'raganda, sultonning adolati va insofidan bo'lak guvohi yo'qligini aytib, adolat so'raydi. Shariat qozisi bunda yo diyat (xun to'lovi) yo jonga jon deb hukm chiqaradi. Sulton kampirning da'vosini qabul etib, shariat bo'yicha ish tutishlarini so'rganida kampir sultonning odilligini ko'rib, uzr so'rab, da'vosidan kechadi. Sulton xun to'lovi uchun shunchalik ko'p mablag' beradiki, kampir odamlar ichida "Zoli Zar" ("Tilla kampir") laqabi bilan shuhrat topadi. Bu hikoyat orqali Navoiy Husayn Boyqaroni zolim podsholarga qarama-qarshi qo'yib, ularni ana shunday odil hukmdorlardan ibrat olishga da'vat etadi.

To'rtinchi maqolatda jamiyatning quyi tabaqasi – darveshlar haqida fikr yuritiladi. Ushbu maqolatning uchdan ikki qismi riyokor shayxlar hajviga bag'ishlangan bo'lib, qolgan o'ttiz besh bayti chin so'fiylar ta'rifidadir.

Navoiy "riyoyi xirqapo'shlar" timsolini yaratar ekan, uchta asosiy jihatga e'tibor qaratadi: birinchidan, bunday diyonatsiz dindorlar ommani aldaydigan darajada tashqi suratlarini so'fiylarga moslashtirganlar: xirqalari darveshlarnikiday quroq parchalardan tikilgan, qo'llarida hamisha tasbih, eski sallani chirmab, doimo zikr tushish orqali odamlarning e'tiborini o'zlariga jalb etadilar.

Ikkinchidan, bu toifaning muridlari ham shayxlariga o'xshab, yolg'on, hiyla va riyoni san'at darajasida o'zlashtirganlar. Ular nasha tarqatadigan bangi shayxlarini Xizr deb ataydilar, safsatalarini karomat sifatida talqin qilib, ovoza qiladilar. Birov agar zarracha shubha yo e'tiroz bildirsa, unga qarshi jamiyki tuhmat va bo'htonlarni ishga soladilar.

Uchinchi jihat shuki, bu nayranglar va soxta mashhurlikdan asosiy maqsad – boylar nazariga tushish, ko'proq nazr-niyoz to'plash, alaloqibat, mamlakat sultoni inoyatlaridan bahramand bo'lishdir. Navoiy xulosasi bo'yicha, din va diyonat niqobi ostida riyokorlik qiladigan, odamlarni to'g'ri yo'ldan adashtiradigan bu toifa eng yomon kimsalardir:

*Bu el erur barcha yomondin yomon,
Kimki yo'q ondin yomon – ondin yomon.*

Haqiqiy so'fiyalar esa, bularning aksi: bu dunyoning yaxshiyomoni bilan ishlari yo'q, yolg'on, shuhratparastlik va riyodan uzoq, ko'ngli muhabbat va ma'rifat nuri bilan munavvar, Haq yo'lida sobitqadam, payg'ambar sunnatidan bir qadam ham chekinmasdan ruhiy kamolotni kasb qilgan zotlar, bu yo'lida hatto "Xizr bir axzar (yashil) giyoh"dir.

Haqiqiy oriflarning biri Xoja Abdulloh Ansoriyga ko'ra, ibodatni do'zaxdan qutulish yo jannatga kirish uchun emas, balki Haq taolo buyrug'iga so'zsiz amal qilish deb bilish kerak:

*Biym ila kim Haqni parastish qilur,
Nafs najotini tilab ish qilur.
Kim chekar ummid ila farsudaliq,
Qasdi erur ravzada osudaliq.*

Beshinchi maqolat karam va saxovat haqida. Unda berilishicha, Xudo kimga mol-davlat bergan bo'lsa, saxovat va qo'li ochiqlik uning qismatiga aylanishi kerak. Eng yomon sifatlardan biri baxillik bo'lsa, eng yaxshi xislatlardan biri saxovat hisoblanadi. Navoiy ushbu maqolatda saxovatning quyidagi shartlarini keltiradi: 1) saxovatda isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik; 2) shuhratparastlik yuzasidan xayr-saxovat qilmaslik; 3) faqat muhtoj kishigagina xayr qilish; 4) befoyda ehson oshlari va xayriya tadbirlarini o'tkazish uchun xalq molini talon-toroj qilmaslik; 5) xayr-u ehson qilishda sababchini Xudo, o'zini bor-yo'g'i bir vosita deb bilish, saxovatni Alloh yo'lida qilish. Maqolat so'ngida hazrat Alining "Haqiqiy karam diram sochish emas, balki ta'ma tarkidir" mazmunidagi hikmatini keltirib, Hotam Toyi haqidagi hikoyatni ilova qiladi. Hikoyatdagi asosiy g'oya esa, "o'z mehnati tufayli bir diram topish birov bergan xazinadan yaxshiroq" mazmunidagi ushbu baytda ifodalangan:

*Bir diram olmoq chekibon dastranj,
Yaxshiroq andinki birov bersa ganj.*

Navoiyning odob, hayo va xoksorlik haqidagi qarashlari oltinchi maqolatda o'z ifodasini topgan. Bobning sarlavhasida

shoh adabni baxtiyorlik kaliti, eng ko'p qadrlanadigan insoniy fazilat, hayo bilan xushtavozlikni esa odobning asosiy shartlaridan deb ta'kidlagan. Maqolatda esa, bu hayotiy xulosaning turli qirralari ochib berilgan. Navoiy bu bobda turli ijtimoiy munosabatlar – oila va er-xotin munosabatlari, farzand tarbiyasi, ota-ona oldidagi burchni bajarish, jamiyatdagi turli qatlamlar orasidagi munosabatlar, podshoh xizmatida bo'lish odoblari haqida aniq tavsiya va foydali maslahatlar beradi. Navoiyning talqiniga ko'ra, insonga sharaf keltiruvchi narsa mol-dunyo, mansab yo nasl-nasab emas, balki insonni jamiyatning gultojiga aylantiruvchi narsa – uning odobidir:

*Elga sharaf bo'lmadi joh-u nasab,
Lek sharaf keldi hayou adab.*

Anushervon odil haqidagi hikoyat (Anushervonning hali shoh bo'lmagan paytida bir kanizakka oshiq bo'lib, bog'da bu kanizakka qo'l uzatmoqchi bo'lgani, ammo ochilgan nargis gulini ko'rib, qilmishidan uyalgani) orqali hayo va odob shoh-u gado uchun bir hisoblangan insoniy fazilat ekanligini ta'kidlangan.

Qanoat ta'rifidagi yettinchi maqolat badiiy timsollarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Navoiyning fikricha, kimki qanoatni o'ziga kasb qilgan bo'lsa, u eng boy insondir. Oltin, kumush va zeb-u ziynatlarni boylik deb bilmaslik kerak, balki haqiqiy boylik qanoat xazinasidir:

*Kimgaki ish bo'ldi qanoat fani,
Bilki, ani qildi qanoat g'ani.
Ganji tajammulni g'ino hilmagil,
Balki g'ino ganji qanoatni bil.*

Mazkur maqolatda qanoat tushunchasi chiroyli tashbehlar va tamsillar vositasida ifodalab berilganligini ko'ramiz. Masalan, osmon qanchalik katta bo'lmasin, u bitta kulcha, ya'ni quyosh bilan kun kechiradi. Ko'z doim shuning uchun ravshanki, u mehrob ostida turib, ikkita bodom bilan oziqlanadi. Shunday ekan, insonlar qanoat bobida osmon va ko'z singari bo'lishlari

kerak. Maqolatda kitobot (hart) san'atining ham yetakchilik qilishini kuzatish mumkin:

*Qushlar aro shohki, anqo durur,
Nuktae bu amrda paydo durur.
Bordur agar fikr ila topsang vuquf,
Qoni'yu anqog'a muvofiq huruf.*

Qushlarning ichida anqo shoh hisoblanadi. Bunda ma'lum bir ma'no bor. Agar fikr bilan voqif bo'lishni istasang, "qoni" va "anqo" so'zlarining yozilishida harflar bir-biriga muvofiqdir. Yoki

*Shoh boshining sharafi toj emas,
Angla ani shohki, muhtoj emas.
Shoh agar ul bo'lsaki, muhtojdur,
Harf ila muhtojda ham tojdur.*

Shoh boshining sharofati tojdan emas, kimki muhtoj bo'lmasa, o'shani shoh deb tushun. Muhtojni ham shoh deb atash mumkin bo'lsa, harf nuqtai nazaridan "muhtoj" so'zida ham "toj" bor-ku!

Maqolatga "Qanoatli va qanoatsiz ikki do'st" haqidagi hikoyat ilova tarzida keltirilgan. Unda aytilishicha, ikki do'st Fors mulkidan Chin mamlakati tomon yo'lga otlanadilar. Biri taqdir berganiga qanoatli inson bo'lib, ikkinchisi ochko'z, tama'gir edi. Yo'lda ketayotib, bir toshga ko'zlari tushadi. Uning yarmi yer ostida bo'lib, yarmi yer yuzasiga chiqib turardi. Tosh ustida: "Kimki mehnat qilib toshni aylantirib qo'ysa, ostidagi afsonada vayrona tagida bекitib qo'yilgan xazina haqida yozib qo'yilgan. Kimki bu mashaqqat, azob uqubatlarni xohlamasa, uning uchun sabr-u qanoat hammasidan yaxshiroqdir" degan yozuv bitilgan edi. Ochko'z yigit yozuvni o'qigach, xazina ilinjida tosh ostini qazishga tushib ketadi. Qanoatli odam esa beparvo tarzda shahar tomon yo'l oladi. Shaharga kiradigan bir necha darvoza bo'lib, u

shaharga birinchi bo‘lib kiradi. Shahar aholisining odatiga ko‘ra, mamlakat podshosi qazo qilsa, darvozadan birinchi kirgan odamni podshoh qilib ko‘tarar ekanlar. Shu tariqa bu do‘st o‘z qanoati tufayli mamlakatga podshoh bo‘ladi. Uning tosh ostini qaziyotgan do‘sti esa og‘ir mehnatni bajarib bo‘lgach, toshni ag‘darib qarasa, “Xom tama’ bu dunyoda alam chekadi” deb yozib qo‘yilgan ekan. Xulosa shuki, qanoatli inson o‘z sabr-u qanoati tufayli shoh martabasiga erishadi, qanoatsiz inson esa tama’ ilinjida xor-u zor bo‘ladi.

Sakkizinchi maqolat vafo haqida bo‘lib, shoir bu axloqiy kategoriyani do‘stlik tushunchasiga bog‘liq holda talqin qiladi. Yor-do‘sti yo‘q kishi dursiz sadaf kabi qiymatsizdir, burgutning bir qanoti sinisa qulab tushadi, bitta o‘tindan gulxan yoqib bo‘lmaydi, bitta ustun uy tomini ko‘tarolmaydi. Shu kabi hayotiy misollar orqali mutafakkir shoir tiriklikning asosiy qonuniyatlardan biri – juft bo‘lib, jamoaviylikda yashashning fazilatini olqishlaydi va bunday munosabatlarda o‘zaro vafo va sadoqat asos bo‘lishi lozimligini uqdiradi. Uning ta’kidlashicha, vafo olamdagi eng noyob gavhar, inson umrini bezaydigan, unga mazmun bag‘ishlaydigan, ulug‘vorlik bag‘ishlaydigan xislat. Vafo, sadoqat – beg‘araz tuyg‘ular. Vafoli kishi – sham‘dek yonib, o‘zgalarga nur sochishi va buning evaziga hech narsa talab qilmasligi lozim:

Yorki, oyini vafo yo‘q anga,

Sham‘ kibidurki, ziyo yo‘q anga.

“Ikki vafoli yor” hikoyatida esa shoir vafoning oliy namunasini ibrat qilib ko‘rsatadi: Hindistonni katta qiyinchilik bilan fath etgan Amir Temur Ko‘ragon aholini qatliom qilishga buyuradi. Olam qonga belanib, minglab kesilgan boshdan to‘kilgan qonlar daryo bo‘lib oqadi. Qiyomat qoyim bo‘lgandek, jang maydonida “ikki bechora yor” Temurning qattol sipohiga duch keladilar. Askarlarning biri shohning amrini ado etish uchun ular tomon ot soladi. Ikki do‘st bir-birining ustiga o‘zini tashlab, “mening boshimni kes, do‘stimni omon qoldir”, deb yolvoradilar. Qotil har ikkisining ham boshini kesmoqchi bo‘lganida, do‘stlar

boshini tig‘ ostiga tutib, “oldin meni o‘ldir, men do‘stimning o‘limini ko‘rishga toqatim yo‘q”, deb iltimos qilardi. Shu tariqa bir muddat o‘tib, to‘satdan “al-omon” (omonlik, kechirim) degan buyruq keladi. Qatliom to‘xtatiladi:

*Bir-biriga kechti alar qonidin,
Shoh dag‘i kechti ulus qonidin.*

Vafoli do‘stlar haqidagi hikoyatdan so‘ng ishq ta‘rifidagi maqolat keladi. Chunki vafo va ishq, sadoqat va muhabbat – bir-birini to‘ldiruvchi, bir-biriga aloqador tushunchalar. Navoiyning yozishicha, ishq – azaliy hodisa, u “ruh mayi” bilan jismga kirib ketadi va uni mast etadi. Ishq-Ruh olamining go‘zalligi, husn-u jamoli hadsiz-chegarasiz. Ishq bulbuli bu go‘zallikni ko‘rib, olamga g‘ulg‘ula soladi. Inson jismiga taralgan ishq shu‘lasi ana shu Mutlaq Go‘zallik olamidandaingan nurdur. Bu nur butun borliqni qamrab olgan “jahon mulki”ga aylangan, ya‘ni shoir nazarida olamdagi muvozanat, tiriklik va harakatni ta‘minlovchi asosiy mohiyat – Ishq qonuniyatidir. Shoir talqiniga ko‘ra, go‘zal chehrani ko‘rib, visoliga havas qilgan odam oshiq emas, oshiqlik davo qilgan kishiga vafo va sadoqat tuyg‘usi begonadir, uning tosh ko‘ngliga ishq o‘ti ta‘sir ko‘rsatolmaydi. Nafsoniy istaklarini muhabbat niqobida ko‘rsatmoqchi bo‘lgan odam har qanday jazoga loyiq:

*Bu esa oshiq, erur o‘lturguluk,
Boshdin-ayog jismini kuydurguluk.*

Keyingi baytlarda haqiqiy oshiqning sifatlari keltiriladi. Unga ko‘ra, haqiqiy oshiqning “ham tili, ham ko‘zi-yu ham ko‘ngli pok”, u o‘zgalar xayolidan begona, ishq yo‘lida hatto o‘zlikdan ham voz kechgan dardkash inson:

*Oshiq ani bilki, erur dardnok,
Ham tili, ham ko‘zi-yu ham ko‘ngli pok.
O‘zlugidin ishq ani pok etib,
Balki fano o‘tig‘a xoshok etib.*

Navoiy maqolatdan keyingi hikoyatda Shayx Faxriddin Iroqiy haqida bir rivoyatni keltirib, ishqning tarbiyaviy

ahamiyatini ham ochib beradi. Navoiyning talqinicha, ko'nglida ishq otashi alanga olgan odam birovga yomonlikni ravo ko'rmaydi va o'zi ham yomonlikka yurmaydi. Ishq eng avvalo go'zallik va ezgulikka oshno etadi, go'zallik sir-u asrorini kashf etishga undaydi, oshiqning didini, farosatini, zehni va qobiliyatini oshiradi. Ishq – tosh ko'ngillarni yumshatuvchi, Shayx San'onlarni butparast etuvchi, jobilni ma'rifatli shaxsga aylantira oladigan kayhoniy kuch, ilohiy tuyg'u.

O'ninchi maqolat to'g'rilik ta'rifida va egrilik inkorida bo'lib, unda Navoiy rostlik, to'g'riso'zlik, to'g'ri yashash, odamlarga to'g'ri munosabatda bo'lish kabi fazilatlarini birma-bir sanab chiqib, uning ziddi bo'lmish egrilik, yolg'onchilikning ofatlarini ham birma-bir keltirib o'tadi. Navoiy talqiniga ko'ra, bu dunyoda faqat to'g'ri so'z gapirib yashash imkonsiz. Ba'zida inson zarurat tug'ilib, yaxshi niyatda yolg'on gapirishga majbur bo'ladi. Ammo yolg'orni kasb qilgan kimsa odamlar orasida obro' topmaydi. Bunday kishi agar to'g'ri gapirsa hamki, uning chin so'ziga hech kim ishonmaydi:

Kimki o'zin ayladi yolg'on so'zin,

Kizb, der el, chin desa, qolg'on so'zin.

Maqolatdagi fikrlarning tasdig'i sifatida mashhur "Sher va durroj" hikoyasi keltirilgan.

O'n birinchi maqolatda ilm o'rganish, olimning jamiyatdagi mavqeyi, ilm talabidagi riyozatlar haqida so'z yuritiladi. Navoiyning ilm va olimlik haqidagi fikrlari asosan quyidagilardan iborat:

– ilm yo'li fidoyilik va irodani talab qiladi;

– maktab va madrasa ko'rganlarning hammasini ham olim deb bo'lmaydi – olimlik tug'ma iste'dod va kuchli iroda hamda uzoq yillik riyozat orqali qo'lga kiritiladi;

– ilm olish, bilimli bo'lish insonga obro' va sharaf keltiradi;

– ilm shunday boylikki, unga amal qilgan inson bilan bir umrlik sadoqatli do'st sifatida qoladi;

– haqiqiy olim jamiyatning bebaho boyligi va uning kamolot ko'zgusidir;

– ilmni boylik orttirish, mansab pillapoyalarini egallash vositasi qilgan odam johil va gumroh kishi hisoblanadi. Haqiqiy ilm – odamlarga manfaat yetkazadigan va oxirat koriga yaraydigan bilimdir. Bunday bilim sohibi bo‘lgan kishi o‘tkinchi havaslar va muvaqqat muvaffaqiyatlar ketidan quvmaydi. Dunyoviy havaslar uyasi bo‘lgan qalbda ilmga joy qolmaydi:

Ilmni kim vositai joh etar,

O‘zini-yu xalqni gumroh etar.

Maqolat so‘ngida Navoiy haqiqiy olimning ta’rifini keltirib, Muhammad Xorazmshoh bilan Imom Faxr Roziy o‘rtasida bo‘lib o‘tgan mashhur hikoyat bilan fikrlarini dalillaydi.

O‘n ikkinchi maqolat qalam va qalam ahli haqida bo‘lib, bu bobda Navoiy oldingi maqolatda bildirgan fikrlarini mantiqiy izchillik bilan davom ettiradi. Dastlabki 18 bayt qalamning tavsifiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda olam yaralishi jarayoni bosqichlarida qalamning o‘mi, jamiyat taraqqiyoti va istiqbolidagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Keyingi baytlarda esa, qalam o‘z kotibining xislati va niyatiga qarab, yaxshilik yoinki yovuzlikka xizmat qilishi mumkinligi uqtiriladi. Qozilik mahkamasidagi amaldorlarning qalami egasining xudobexabarligi sababli qonunga xilof ishlarni “qonuniylashtirish” uchun xizmat qiladi:

Barcha xiyonatni diyonat bilib,

Barcha diyonatda xiyonat qilib,

Qalam poraxo‘r muftiylar, beinsof soliqchilar, zulmda nom chiqargan mahalliy amaldorlar, savodsiz kotiblar qo‘liga tushganda xalqning boshiga tushgan ko‘p kulfatlarga guvoh bo‘ladi. Aslida qalam ahli faqat ezgulikka da’vat etuvchi kitoblar bitishi, odamlarning og‘irini yengil qiluvchi farmoyishlar, munosabatlarni mustahkamlovchi yozishmalar, ma’rifatni oshiradigan narsalarni yozishi kerak. O‘shanda u mashhur xattot Yoqut Mu’tasimdek yuksak martabali inson sifatida dovrug‘ qozonishi mumkin.

Navoiyning yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlari o‘n uchinchi maqolatda yanada aniqroq, yorqinroq o‘z ifodasini

topgan. Buyuk mutafakkir maqolatning dastlabki baytlarida yaxshilik ulashuvchi zotlarning asosiy belgilari: mehribonlik, ochiqko'ngillik, himmatbalandlik, saxiylik kabi insoniy fazilatlar haqida so'z yuritib, bu xislatlarni o'zida tarbiyalamagan odam pastkash, nokas, g'iybatchi, birovning aybini qidirib, fosh qilishdan rohatlanadigan, hasadgo'y, ta'magir bo'lishi mumkinligidan ogohlantiradi. Keyingi baytlarda inson fitratining ana shunday illatlardan xoli qilib yaratilganiga shukrona keltirishi lozimligi, bu shukronalik odamlarga beminnat manfaat keltirish hamda qo'li ochiqlik bilan amalga oshirilishini quyidagicha ifodalaydi:

*Shukr nedur? Naf' fuzun aylamak,
Bazl kamandini uzun aylamak.*

Yaxshilik ulashish, odamlarga yordam berish faqat qo'l bilan emas, balki ochiq chehra va shirinzabonlik bilan ham amalga oshishi mumkinligi, eng yaxshi ehson – lutf va shirin so'z bilan qilingan saxovatdir. Qilingan yaxshilik odamlarni to'g'ri yo'lga solib, yomon niyatlardan qaytarishi kerak. Buning misoli sifatida mashhur faqih va muhaddis Ayyub bin Xalaf Xazrajijy (677–767) hayotidan hikoyat keltiriladi: Hazrat Ayyub kechasi ibodatga mashg'ul bo'lgan chog'da bir o'g'ri uyi tagidan lahm (yer osti yo'li) qazib, ichkariga kiradi. Ayyub o'g'ri ko'radi, ammo indamay ibodatini davom ettiraveradi. O'g'ri uydagi bor narsalarni yig'ib chiqib ketmoqchi bo'ladi, lekin yuki katta bo'lganligi sabab, lahmda tiqilib qoladi. Ayyub bu holni ko'rib, ibodatni tugatadi va eshikni ochib, o'g'riga yo'l ko'rsatadi. O'g'ri shayxning bu muruvvatini ko'rib, qilmishidan butkul tavba qiladi va to'g'ri yo'lga kiradi.

Yaxshilik va yomonlik tushunchalari 14-maqolatda yanada kengroq ko'lam kasb etadi. Navoiy ushbu maqolatda olam va odam, davr va shaxs, ko'ngil istaklari va falak evrilishlari haqida dunyo va uning asl mohiyatini tushuntirish orqali mulohaza yuritadi. Shoir tashxis san'ati yordamida bag'ri yulduzlarga to'la falakni yamoqli to'n kiygan hiylagar tosboz – ko'zbo'yamachiga, dunyoni esa pardoz tufayli chiroyli ko'rinadigan makkora

yalmog'izga o'xshatib, foniyl dunyoda bularning hiylalariga aldanish hasratidan ogohlantiradi. G'alvirga o'xshagan falakning chambarida yaxshi-yu yomon, poklar-u nopoklar – barcha insonlar birga, aralash holatda yashashga mahkum. Falakning nayranglari tufayli ko'pincha gavharni oddiy toshdan ajratolmaydigan farosati yo'q odamlarga behisob mol-dunyolar nasib etadi, sotqinlik va zulm qon-qoniga singib ketgan egri niyatli odamlar mas'ul lavozimlarga o'tirishadi; to'g'riso'z, halol odamlar e'tibordan chetda qolib ketadilar. Eng qizig'i, bir muddat o'tgandan keyin ajal tig'i oldida yaxshi ham, yomon ham bir xil bosh egishga majbur bo'ladi. Shu sababli, olam bebaqoligini bilgan, umr yaxshilik bilan ham, yomonlik bilan ham o'tishi muqarrarligi anglagan inson imkon boricha yaxshilik qilishi va o'zidan ezgu nomni meros qilib qoldirishi kerak. Maqolatdagi g'oyalar shoh Iskandarning bu olamdan qo'li ochiq holda ketgani haqidagi hikoyat bilan quvvatlantiriladi.

Navoiy 15-maqolatda mayparastlik va mayxo'rlik zararlari haqida fikr yuritadi. Uning nazarida mayga ruju qo'yish jaholat va nodonlikning nishonasi bo'lib, insoniy fazilatlaridan mahrum, irodasiz, o'z qadr-u qimmatini bilmagan kishigina bu yo'lga kirishi mumkin. Mayparastlik tufayli insondagi hayvoniy kuchlar yanada quvvat oladi, kibr-u havo, manmanlik kuchayadi. Mayxo'rlik koni zarar ekanini, u salomatlikning kushandasi, hayot qotili bo'lish bilan birga, naslga ham ta'sir qiladi, jamiyatning osoyishtaligiga raxna soladi. Navoiy umumlashma xulosalarini berganidan so'ng mayzada kishining jonli portretini yaratib, o'tkir so'zlar bilan hajv qiladi: sharob ko'p ichganidan o'zidan bexabar odam ko'chaga chiqib, quturgan it kabi yo'lovchilarga tashlanadi; oyog'ida tik turolmaydi, ust-boshi bir ahvolda yosh bolalar va ko'cha itlariga ermak bo'lib qoladi. Uyini topolmay, ko'chalarda yiqilib qolgan, kiyimlari va pullarini kissavurlarga o'g'irlatgan bir alpozda kechani kunduz qiladi. Ertalab xayoli joyiga kelganda yana xumori tutib, may qidirishga tushadi. Eng achinarlisi, deydi Navoiy, bundaylar o'zining ayanchli ahvolidan uyalmaydi, balki yigitchilik, yoshlik va

rindlikning shoʻxligi, deb oʻzini oqlamoqchi boʻladi. Holbuki, sharobga mukkasidan ketish aql egasining ishi emas:

Bodagʻa koʻrguzsa kishi xiraliq,

Aql charogʻiga berur tiraliq.

Shu sababli, bu yoʻlga kirgan odam tavba qilib, toʻgʻri yoʻlga kirishi lozimligi uqtiriladi va tavbaga taʼrif beradi. Navoiyning talqiniga koʻra, tavba bir necha koʻrinishga ega. Bulardan bironing qistovi yo hurmati yuzasidan tavba qilish, qozining oldida yolgʻondan qasam ichish, mayxoʻrlik tufayli biror nojoʻya ish yo jinoyatga qoʻl urganidan hosil boʻlgan vaqtinchalik pushaymonlik haqiqiy tavba hisoblanmaydi. Haqiqiy tavbaning oʻz shart-sharoitlari boʻlib, bular – mayxoʻrlikning notoʻgʻri ish ekani va bu yoʻlning oxiri halokatga eltishini anglash; oʻz ishidan chin koʻngildan pushaymon boʻlish; mayzadalikdan nafratlanish va boshqa bu yoʻlga kirmaslikka chin koʻngildan bel bogʻlash va shunga ogʻishmay amal qilishdir. Maqolatga Bani Isroil qavmidagi Maymana ismli rindning tavbasi haqidagi hikoyat ibrat namunasi sifatida ilova qilinadi.

Oʻn oltinchi maqolatda Alisher Navoiy oʻzining jismoniy kuch-quvvatiga aldanib qolib, oʻzini davlat tayanchi va barqarorlik posboni deb oʻylaydigan takabbur bahodir va beklarni tanqid qiladi. Navoiy tasviriga koʻra, ijtimoiy odoblarni nazarpisand qilmasdan, yanada haybatli koʻrinish uchun uzun moʻylovlar qoʻyib, qulogʻiga ayollarga oʻxshab sirgʻa taqadigan bu mushtumzoʻrlar mardlik lofini ursalar ham, aslida maydagap, lofchi, ezma, nomard kimsalardir. Manfaat uchun jang maydoniga kiradigan, qaysi hukmdor koʻproq pul vaʼda qilsa, oʻsha tomonga oʻtib oladigan sotqinlar faoliyatining jihod va gʻazotga hech qanday aloqasi yoʻq. Haqiqiy gʻazot fidoyi; Vatan, millat, insoniy shaʼn kabi muqaddas narsalarning toptalmasligi uchun oʻz jonini ayamaydigan kishilarning qoʻlidangina keladi. Maqolatga ilova qilingan hikoyatda buyuk muhaddis Abdulloh Muborakning niqob kiyib jang maydonida qilgan jonbozliklari, u kishining yuzlarini koʻrmoqchi boʻlganlarga bu ishni Olloh uchun

qilganliklari va ko'z-ko'z qilish maqsadida emasliklarini ta'kidlaganlari go'zal tasvirlar asosida bayon qilib berilgan.

O'n yettinchi maqolat umrning ikki asosiy bosqichi hisoblanmish yoshlik va qarilik haqida. Bu maqolatda ham Navoiy falsafiy mushohadakorlik bilan so'zni bog' tasviridan boshlab, ko'klam, yoz, xazon va qish fasllaridagi peyzajni katta mahorat bilan chizadi. Keyingi baytlarda esa, inson umrini xuddi shu holatga qiyoslab, olamdagi barcha narsa kabi inson umri ham zavol topishi muqarrarligini shoirona tilda ifodalaydi. Shu sababli, deyarli har bir maqolatda qayta-qayta ta'kidlangan – umrni g'animat deb bilish hamda uni bekorga o'tkazmaslik g'oyasi bu maqolatda yanada o'tkiroq mohiyat kasb etgan. Muhammad alayhissalomning evaralari – Imom Zaynulobidinning hayotidan olingan ibratli hikoyat orqali yoshlikda bilim va tafakkur sohibi bo'lish fazilati targ'ib qilinadi.

Umrni behuda o'tkazmaslik, har bir nafasni g'animat deb bilish, kelgan balolarga sabr qilib, shukronalikda hayot kechirish. imkon boricha do'stlar va yaqinlarning qadriga yetib, ular bilan shod-xurramlikda kun kechirish masalasi o'n sakkizinchi maqolatda ham o'z ifodasini topgan. Navoiy talqiniga ko'ra, olam g'amxona bo'lsa hamki, shikva-shikoyatga o'rin yo'q. Falakning kajravligi, olamning beqarorligi norozilik va noshukurlikka sabab bo'lolmaydi. Eng muhimi – olamning beqarorligini bilgan holda, barcha yaxshi-yomon kunlar o'tkinchi ekanligini jondan his etib, rizo va shukronalikda kun kechirishdir. Kimki dunyo ishini oson tutsa, unga mashaqqat va musibatlarni yengish shunchalik oson bo'ladi:

Ishga necha sa'bliq imkon erur,

Kim ani oson tutar, oson erur.

Shod ani bil dahrda kim g'am yemas,

Dahr ishi chun g'am yegali arzimas.

Nafasdek qisqa umrni g'animat bilib, uning qadriga yetish, bekorga sarflamasdan, rizo va shukronalikni shior aylash lozim, deydi shoir. Uning talqiniga ko'ra, har bir kishi bu dunyoda tosh, o'simlik yoki qandaydir jonzot emas, balki koinot gultoji – inson

etib yaralishining o'zi eng oliy saodatdir. Chunki borliqning asl sababi va mohiyati, olam mavjudligining yagona asosi, tiriklikning asl maqsadi – inson ekan, bu mukarram maqom va aziz martabaning qadriga yetib, berilgan ne'matlarga shukrona qilish kerak bo'ladi. Navoiy insonga berilgan ne'matlarni birma-bir sanab chiqar ekan, ajoyib bir dalil keltiradi: inson bir marta nafas olganida Alloh unga ikki ne'mat ato qilarkan: nafas olish orqali tiriklik ozig'idan bahramand bo'lsa, nafas chiqarishi zotining quvvatiga sabab bo'ladi. Ana shu ikki ne'matning shukrini bajo keltirish uchun jonlar fido bo'lsa hamki, kamlik qiladi:

*Borchani qo'yduq, muni-o'q aytu bas,
Kim bu nafaskim, sangadur hamnafas.
Kirmagi bir ne'mat eurur mug'tanam,
Uylaki kirmakligi chiqmog'i ham.
Biri erur quti hayoting sening,
Yana biri quvvati zoting sening.
Bu iki ne'matki namudordur,
Har biriga shukr yeri bordur.*

O'n to'qqizinchi maqolatni Navoiy Xuroson mintaqasi hamda mamlakat poytaxti Hirot shahrining ta'rifiga bag'ishlaydi. Ushbu maqolatni Navoiyning Vatan haqidagi madhiyasi, deyish mumkin. O'z mamlakati va tug'ilib-o'sgan shahrini vasf etish asnosida Navoiy Xuroson yerning qoq yuragi – to'rtinchi iqlimda joylashganini alohida qayd etib, uni to'rtinchi falakda joylashgan Quyoshga qiyoslaydi. Osmonning munavvarligi Quyoshga bog'liq bo'lsa, yerning obod va ma'murligi, tinch va barqaror bo'lishi aynan Xuroson o'lkasiga bog'liq, deydi Navoiy. Ayniqsa, Hirot shahrining ta'rifida shoir eng chiroyli o'xshatishlar, eng yoqimli mubolag'alarni qo'llaydi. Yurtning tinchligi, xalqning farovonligi, qishloq va shaharlarning obodligi jamiyatda adolat tamoyili barqarorligi tufayli ekanligini shoh Bahrom haqidagi hikoyat mazmuni bilan quvvatlantiradi: Yazdijirdan taxtni meros olgan Bahrom bir muddat saltanat ahvolidan g'ofil bo'lib, aysh-ishratga berilib ketadi. Ov chog'i bir kambag'al odamning

kapasiga mehmon bo'ladi. Uy egasi notanish mehmon oldiga bir piyola suv bilan bir burda qotgan non keltirib qo'yadi. Bahrom uy egasidan ahvol so'raganida, mezbon shohning zulmidan obod turmushi buzilib, qashshoq bo'lib qolganidan shikoyat qiladi. Bahromga ro'parasidan ko'rinib turgan bir vayronani ko'rsatadi va bir zamon bu vayrona muhtasham saroy bo'lgani, saroy egasi yerdan suv chiqarib, bog'dorchilik va dehqonchilik orqali katta daromad olib turgani, zulm kuchayib, quduq qurib qolgani, natijada hammayoq qurib, vayrona-valangor bo'lganini katta nadomat bilan aytib beradi. Bahrom o'sha zahoti qilib yurgani ishlaridan pushaymon bo'lib, mamlakatni adolat bilan obod qilishni niyat qiladi. Bu niyatning barakatidan quduqning ko'zi ochilib, yana suv kela boshlaydi:

*Ev egasi Tengrig'a aylab niyoz,
Dedi: "Hamonoki shahi ayshsoz,
Zulm qo'yub, adldurur niyati,
Kim bu asar ayladi xosiyati".*

"Hayrat ul-abror"ning valiahd shahzoda Badiuzzamonga bag'ishlangan yigirmanchi maqolatida Navoiyning davlatchilik bobidagi qarashlari yaxlit bir konsepsiya tarzida bayon etilgan bo'lib, unda bayon eilgan tavsiyalar Amir Temur tomonidan o'z vorislariga vasiyat qilib qoldirgan o'n ikkita tuzukka to'la-to'kis mos tushadi. Masalan, Navoiy bu bobda asl maqsadga yuzlanmoqchi bo'lgan valiahd eng avvalo, din va shariat ahkomlariga so'zsiz bo'ysunishi hamda shariat ahkomlari jamiyatda bekam-ko'st ado bo'lishiga mas'ul bo'lmog'i hukmdorlikning birinchi sharti ekanligini quyidagicha ifodalagan:

*Istar esang maqsadi asliyg'a yuz,
Joddai shar'i Muhammadni tuz.*

"Temur tuzuklari" kitobida keltirilishicha, Amir Temurning birinchi tuzuki ham "Tangri taoloning dini va Muhammad mustafoning shariatiga dunyoga rivoj berish" bo'lgan. "Hayrat ul-abror"dagi fikrlarning "Temur tuzuklari"dan yagona tafovuti – tuzuklar va Navoiy g'oyalalarining tartibi mos

tushmasligidir. Faqat birinchi va oxirgi – o‘n ikkinchi tuzuklar Navoiyning fikrlar tizmasi tartibi bilan muvofiq kelib, qolgan tuzuklarning ma‘nolari bobning turli joylarda sharhlangan. Masalan, birinchi tuzukning sharhidan so‘ng oltinchi tuzuk (*“Adolat va insof bilan Tangrini yaratgan bandalarini o‘zimdanda rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim”* – *“Temur tuzuklari”, 75-bet*) mazmunini muvofiq keladigan oyat va hadislar ma‘nolari bilan boyitib, quyidagicha nazm etgan:

*Shar’ tariqini shior aylagil,
Adl ila mulkunga mador aylagil.
Shohki ish adl ila bunyod etar,
Adl buzuv mulkini obod etar.*

Alisher Navoiy o‘n ikki tuzukni ana shu zaylda sharhlar ekan, so‘zining xotimasida bu fikrlar uning tafakkuri mahsuli bo‘lmay, balki Sulton Husayn Boyqaro faoliyatining dasturi ekanligini mamnuniyat bilan qayd etadi:

*Har neki bu nomada mastur erur,
Borchag‘a shoh ishlari dastur erur.
Ishda agar shahg‘a shabih o‘lg‘asen,
“Al-valadu sirru abih” o‘lg‘asen.*

Bu baytlardan ma‘lum bo‘ladiki, Temur vasiyatlarini uning munosib vorislari tomonidan izchillik bilan tatbiq etilib, bu mo‘tabar sulolaning davlatchilik konsepsiyasiga aylangan.

“Hayrat ul-abror” dostonida xotima o‘ziga xos o‘ringa ega. Dostonning 62–63-boblari hazrat Navoiyning xulosa va yakuniy fikrlarini o‘z ichiga oladi. 62-bobda Navoiy dostonni yaratish orzusidan boshlab uni tugatgunicha bo‘lgan jarayon haqida yozar ekan, dostonni yozish xayoli unga tinchlik bermagani, el-u yurt xizmati, xalq arz-dodini tinglash uni asosiy maqsaddan chalg‘itsa-da, Xudoning o‘zi unga marhamat ko‘rsatib, nihoyat bu ulug‘ muddaoni poyoniga yetkazganini betakror tashbehlar vositasida bayon qilib beradi. Bob so‘ngida Navoiy g‘oyat nazokat va kamtarlik bilan agar yozganlari elga manzur bo‘lmasa, uni afv etishlarini so‘rab, Allohga iltijo qiladi:

*Jilva ber el ko'ziga ham xo'b ani,
Qilg'il ulus ko'ngliga marg'ub ani.
Har nechakim, jurmum erur pech-pech,
Lekin erur rahmating olinda hech.*

63-bobda oyog'i toyib ketib, kosadagi oshni shohning boshiga to'kib yuborgan va olijanob shohning xijolatdan o'lar holatga yetgan bu qulni afv etgani haqidagi hikoyat beriladi va bu hikoyat bevosita 62-bobga hamohang tarzda, unga ilovadek keltiriladi. Navoiy Allohni olijanob shohga, o'zini oyog'i toyib ketgan qulga o'xshatar ekan, shunday yozadi:

*Har necha ko'p bo'lsa gunohim mening,
Shukrki, bor sendek ilohim mening.
Xijlat ila qolmadi xud jom manga,
Yeri durur aylasang ehson manga.*

“Hayrat ul-abror” dostonida kun tartibiga qo'yilgan masalalar bevosita “Xamsa”ning keyingi dostonlarida ham davom etadi, xususan, komil insonga xos adab, qanoat, karam va saxovat, futuvvat, rostlik, vafu kabi xislatlar bilan bog'liq masalalar “Farhod va Shirin” dostoni, “Sab'ai sayyor” tarkibidagi hikoyatlar, “Saddi Iskandariy” dostonlarida yangicha talqin topganligini ko'ramiz.

Doston aruz tizimining sari' bahri – sari'i musaddasi matviyi makshuf (ruklari va taqti'i: muftailun muftailun foilun – VV – / – V V – / – V –) vaznida yozilgan. Bu vazn pand-u nasihat mazmunidagi fikrlarni bayon qilishga nihoyatda qulay bo'lganligi sababli doston uchun asosiy she'riy o'lchov vazifasini o'tagan.

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI HAQIDA

Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi ikkinchi doston “Farhod va Shirin” deb atalib, 1484-yilda yozib tugallangan. Navoiygacha bu mavzu “Xusrav va Shirin” shaklida mashhur edi. Afsonaning bosh qahramoni Xusrav Parvez aslida tarixiy shaxs bo‘lib, milodiy 590-yilda taxtga chiqib, 628-yilda o‘z o‘g‘li Sheruyaning buyrug‘i bilan o‘ldirilgan Eron shohidir. Uning oromiy yoki Shiringa bo‘lgan muhabbati ko‘pgina tarixiy asarlarda qayd etilgan. Xususan, Alisher Navoiyning o‘zi ham “Tarixi muluki Ajam” asarining sosoniylar tarixiga bag‘ishlangan qismida Xusrav Parvez haqida ma'lumot beradi. Badiiy adabiyotda Xusrav va Shirin muhabbati haqida birinchi bo‘lib Firdavsiy o‘zining "Shohnoma" dostonida yozib qoldiradi, Nizomiy esa uni alohida ishqiy-sarguzasht doston holiga keltiradi. Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostoni 1340-yilda Qutb Xorazmiy tomonidan turkiy tilga tarjima qilingan.

Alisher Navoiy bu mavzudagi dostoni uchun avvalgi dostonlarda ikkinchi darajali timsol tarzida talqin qilingan Farhodni bosh qahramon qilib oladi. Aslida Farhodning bosh qahramon qilib olinishi adabiyotda ilk bor XIV asrda Ozarbayjonda yashab faoliyat yuritgan Orif Ardabiliyning “Farhodnoma” (1369) nomli fors-tojik tilida yozilgan dostoni bilan boshlanadi. Lekin unda tasvirlangan voqealar Navoiy dostonidan butunlay farq qiladi. Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida bu mavzuda qalam tebratgan ijodkorlar sifatida Nizomiy, Dehlaviy, Ashraf Marog‘iylarni eslab o‘tar ekan, yana bir noma'lum ijodkorga ham ishora qilib o‘tadi:

*Yana bo‘lg‘on ekan bu noma marqum,
Vale roqim emastur yaxshi ma'lum.*

Adabiyotshunoslikda ushbu noma'lum ijodkor aynan Orif Ardabiliy bo‘lishi mumkin degan fikrlar mavjud.

Farhod obrazining ildizlari xalq ogʻzaki ijodiga borib taqaladi. Oʻz asarining manbalarini xalq ogʻzaki ijodidan olgan Firdavsiy “Shohnoma”sida Farhod pahlavon (Afrosiyobning jangovar sipohsolori) sifatida tilga olingan. Bu obraz Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostonida epik planda talqin etila boshladi. Nizomiyning dostonidagi Farhod xalq orasidan chiqqan toshyoʻnar usta. U oqil va insonparvar, gʻoyat savodli va pahlavon. Farhod garchi doston syujeti rivojida asosiy rol oʻynamasa-da, muallifning yetakchi gʻoyasini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Xusrav Dehlaviyning “Shirin va Xusrav” dostonida esa Farhod oliynasab shahzoda, taqdirga tan beruvchi baxtsiz oshiq sifatida tasvirlanadi.

Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni 54 bob, 5782 baytdan iborat. Shundan muqaddima 11 bobni oʻz ichiga oladi. Doston anʼanaviy hamd – Allohning maqtovi bilan boshlanadi. Dostonda ikkita hamd mavjud. Birinchi hamdda Alisher Navoiy yaratuvchining qudratini taʼriflab, uning irodasi bilan qalamga olmoqchi boʻlgan gʻoyaviy niyati haqida soʻz yuritar ekan, birinchi misrani arabcha kalima bilan boshlaydi:

*Bikamdik fath abvob ul maoniy,
Nasib et koʻnglumga fath oʻlmak oni.*

Yaʼni: Maʼnolar eshiklarining ochilishi sening maqtoving bilan va koʻnglumga ularni zabt etishni nasib qil.

Keyingi baytlarda Navoiy maʼnolar xazinasini qulfiga qoʻlining kalit boʻlishini, shu vosita bilan barcha umidlariga yetishishni tilaydi, ana shu maʼnolar xazinasidan olam ahlini bahramand qilishni umid qiladi.

Ikkinchi hamdda shoir yozishga kirishayotgani “Farhod va Shirin” dostonining umumiy talqini, undagi qahramonlarning muxtasar tavsifini beradi, “dard bogʻi” deb taʼriflangan ishq bilan aloqador barcha hayajon va iztiroblar haqida yozadi. Shou Xoliq maqtoviga kirishar ekan, eng avvalo, u inson koʻnglini ishq

gulshani, bu gulshanda esa ishqni xazinaga aylantirganligini madh etadi:

*Ki inson ko'nglin etti gulshani ishq,
Bu gulshanning harimin maxzani ishq.*

“Farhod va Shirin” dostoni majoz va haqiqatni, ramziylik va hayotiylikni san'atkorlik bilan qo'shib olib boradigan doston ekanligi shu ilk boblardan boshlab namoyon bo'la boshlaydi. A.Rustamovning “Navoiyning badiiy mahorati” kitobida yozilishicha, Navoiy qazoni Farhodga, osmonni Farhodga aloqador Besutun tog'iga, aqlni Chin xoqonining vaziri Mulkoroga va donishmand Suqrotga, tunni Xusrav Parvezning oti Shabdezga, qadarni Farhodning do'sti Shopurga, ajalni otasini o'ldirgan Parvezning o'g'li Sheruyaga, zamonni Parvezning sozandasi Nigisoga o'xshatgan holda “shirin”, “tilism” so'zlarini, Besutun, Xusrav va uning ashulachisi Borbad nomlarini tilga olib, muqaddimani dostonning mundarijasiga uyg'unlashtirgan. Shu bilan birga, bu o'xshatishlar zamirida shoir doston mundarijasida qahramon va timsollar faoliyati qaysi ko'lamda kechishi, ular dostonda qanday rol o'ynashi bilan ham kitobxonni tanishtiradi.

Munojot (3-bob)da Alisher Navoiy insonning yo'qlikdagi holati, dunyoga kelishi, go'dakligi, hayoti to'g'risida bayon qiladi. “Lavhi mahfuz” (kishilarning yaxshi va yomon amallari, taqdiri azaldan bitib qo'yilgan taxta) haqida fikr yuritar ekan, inson azaliy qismat ijrochisi ekan, bunga uni gunohkor qilishni qanday izohlash mumkin degan fikrlarni aytadi:

*Va gar ul lavh uza bo'lsa muharrar,
Azal taqsimidin bo'ldi muqarrar.
Ne dersen bas bu jam'i benavog'a,
Gunohe qilmayin qolg'on balog'a?*

Keyingi baytlardayoq Navoiy bu fikrlarni behuda da'vo deb hisoblab, ruju' san'ati vositasida bu da'voni inkor qiladi va Allohdan unga marhamat qilishini so'raydi:

*Junundin so'zga bir dam bo'lmay ogoh,
Gar ortuq so'z dedim, astag'firulloh.
Ilohiy, boqmag'il majnunlug'umg'a,
Karamdin chora qil mahzunlug'umg'a.*

Dostonning to'rtinchi bobi Muhammad payg'ambar (s.a.v) madhiga bag'ishlangan. Bob payg'ambarning muborak chehralari tavsifi bilan boshlanib, u Zotning o'qish va yozish bilan shug'ullanmaganligi ajoyib badiiy san'atlar vositasida bayon qilib beriladi. Xususan, qalam payg'ambar unga mayl ko'rsatmaganidan, ya'ni uni qo'lida tutmaganligidan keyin yoqasini chok qilib, ko'z yoshlarini to'kib, afg'on qilganligi, u Zotning qo'lini o'payin deb qancha og'zini ochmasin, uning orzusi amalga oshmaganligi husni ta'lil san'ati asosida keltirilganligini ko'ramiz:

*Necha choki giribon qildi xoma,
To'kub ashkini afg'on qildi xoma.
Ochib og'zin qilay deb dastbo'si,
Muyassar bo'lmayin bu orzusi.*

Bobda "insonlar payg'ambar belgilab bergan shariat qoidalari asosida yashasalgina, haqiqiy saodatga erishadilar" degan g'oya ilgari suriladi.

5-bob me'roj tuni ta'rifiga bag'ishlangan bo'lib, unda Payg'ambar (s.a.v.)ning Buroq oti yordamida Alloh huzuriga yo'l olganliklari tasviri beriladi. Rasuli akram 12 burj va 7 sayyoralarni oshib o'tib, Lomakonga ko'tariladilar, "qoba qavsayn" (ikki yoy oralig'i) darajasida Allohga yaqinlashadilar va foniy maqomiga erishadilar.

*Anga bu surma bo'lg'och qurratul ayn,
Nasib o'ldi maqomi "qoba qavsayn".
O'zin gum aylabon, lekin topib haq,
Ko'rinmay kimsa haqdin ayru mutlaq.*

Alisher Navoiy dostonning na't qismida aks ettirgan Rasululloh (s.a.v.)ga xos fazilatlarini keyinroq dostonning asosiy qismida Farhod obraziga ko'chirgan. Payg'ambarimizning (s.a.v.) muborak chehralarini tasvir qilgan Navoiy Farhod va Shirin obrazlari portretini ham ana shu ifodaga yaqin tarzda tasvirlagan. Aynan "Farhod va Shirin" dostonida Rasulullohning (s.a.v.) maxsus ta'lim olmasdan turib ilohiy hikmat bilan o'ta chuqur ilmga ega bo'lganliklarining ta'kidlanishi bejiz bo'lmay, Farhoddagi olimlik va oriflik ilohiy lutf bilan amalga oshganiga ishoradir. Me'roj voqeasi haqidagi bobda esa "Chin" so'zining keltirilishi va shu so'z bilan bog'liq badiiy san'atlarga murojaat qilinishi na'tlar boshqa muqaddima boblari kabi dostonning asl mazmunini ochishga xizmat qilganligini ko'rsatadi.

Dostonning 6-bobi qalam ta'rifi hamda ulug' salaflar Nizomi'y va Dehlaviylar madhini o'z ichiga oladi. Navoiy dastlab qalamga ta'rif berar ekan, uni Xusrav Parvezning tez uchar qora oti Shabdezza, qalamni tutuvchi barmoqlarni shu ot ustidagi chavandozga, barmoq bo'g'inlarini chavandozning belbog'iga, tirnoqlarni esa uning yuziga o'xshatadi:

*Qalamkim, rahnavardi teztakdur,
Azaldin manzili favqul falakdur.
Magar vahm adhamidur tez raftor,
Ne adham, jarda'i Shabdez raftor.
Chiqib ustiga barmoq shahsuvori,
Bo'g'un belbog'i-yu tirnoq – uzori.*

Hazrat Navoiy Nizomiyni xazinadorga, uning ma'nolarga to'la asarlarini xazinalarga o'xshatib ta'riflaydi. Xusrav Dehlaviyni u yashagan Hindiston bilan bog'liq holda hindu, to'ti,

bulbul, qaqnus, mushk hidli bulutga o'xshatadi. "Xamsa" yozish an'anasini kurash maydoniga o'xshatib, o'zining bugungi kunda nihoyatda mashhur baytlarini yozadi:

*Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasig'a panja urmoq.
Tutaykim qildi o'z changini ranja,
Nekim urdi aning changiga panja.
Kerak sher ollida ham sheri jangi
Agar sher o'lmasa, bori palangi.*

Aynan shu bobdan boshlab 2-3 baytli soqiynomalar berib boriladi. Ko'pincha bu soqiynomalarda shoir keyingi bobda qalamga olinadigan voqea yoki masalalarga ishora qilinadi:

*Kel ey soqiyki, tushmish jonima jo'sh,
Ketur bu ikki yodi birla bir qo'sh.
Alar ishqida no'sh aylab iki jom,
Tutay Jomiy mayi madhin saranjom.*

7-bob "hazrati shayx ul-islomiy mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy" madhidadir. Alisher Navoiy Nizomiy va Dehlaviyni ikkita filga o'xshatgani holda, Jomiyini yuz filga o'xshatadi. So'z o'yini vositasida uni XI-XII asrlarda yashagan mashhur so'fiy Zindapili Jomiyga qiyoslaydi, "fano timsoli", "jahoni begaron" (cheksiz jahon), "olami kubro" (ulug' olam) deb ataydi. Bob Jomiy qo'lidan bir jom ichish umidi bilan yakunlanadi:

*Keturgil, soqiy ul jomi kiromiy
Ki, tutsun rindlar sarxayli Jomiy.
Chu piri dayr may qildi havola,
Icharmen gar erur gardun piyola.*

Navbatdagi bob dostonning yozilish sababi haqida. Bu bobda shoir dostonni yaratish orzusi paydo bo'lgach, bepoyon durru gavharlar dengiziga cho'mganligini, ya'ni ko'p mutolaa qilganligini, tinmay o'ylaganligini aytadi. Dostonni yozishga undagan sabablardan biri o'zining muhabbati, bu ishning alam va iztiroblari ekangligini aytib, u tufayli o'ziga yetishgan azob-u uqubatlarni bayon qiladi. Shunda unga g'oyibdan nido kelib, hotif (g'oyibdan oq fotiha beruvchi) uni yangi bir asarni yozishga ilhomlantirganini, keyin Jomiyning oldiga borganida u ham shoirmi duo qilib, bu ishda unga oq yo'l tilaganini yozadi.

9-bob asar rejasini tuzib olgani, turli afsonalar, tarixiy manbalarni ko'rib chiqqani, shu mavzuda yozilgan dostonlarda yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatib, o'z g'oyalarini qay tarzda ifoda etmoqni niyat qilgani bayonidadir. Bunda Navoiy yozilajak asari yangi bo'lishi lozimligini, avval shu mavzuda yaratilgan dostonlarni takrorlamaslik kerakligini ta'kidlaydi:

*Ani nazm etki, tarhing toza bo'lg'ay,
Ulusqa mayli beandoza bo'lg'ay.
Yo'q ersa nazm qilg'onni xaloyiq,
Mukarrar aylamak sendin ne loyiq.
Xush ermas el so'ngincha raxsh surmak,
Yo'likim, el yugurmishtur yugurmak.*

Dostonning 10-bobi Sulton Husayn Boyqaro ta'rifiga bag'ishlangan. Navoiy uni sultonlar ichida Shoh G'oziy, g'azot maydonida Ali ibn Abu Tolib, shariat rivojida payg'ambar singaridir deb ulug'laydi va uni adolatli, saxovatli hukmdor sifatida madh qiladi.

11-bob shahzoda Badiuzzamon Bahodir madhiga bag'ishlangan. Navoiy uni "Badi ud-dahru Doroi zamon" deb atab, uning ismini kitobot (harf) san'ati asosida sharhlab o'tadi. Shahzodaning ismi 10 harfdan iborat bo'lib, Navoiy uning har bir harfiga alohida ma'no yuklaydi:

“ب” – “be” ehsonda birlik, yagonalikning dalilidir, “د” – “dol” davlatdan nishona bo‘lib, din-u diyonat undan iqbol topadi. “ی” – “yo” harfi yumn (baxt, omad)dan darak berib, uning qadami bilan zamona tinchiydi. To‘rtinchi harf “ع” – “ayn” bo‘lib, adolatdan olingandir. “ا” – “alif” harfi o‘z shakli bilan uning to‘g‘riligi, rostgo‘yligini bildiradi. “ل” – “lom” harfi lutfdan voqif etib, latofat gulshanidan bahramand etadi. “ز” – “ze” harfi abjad hisobiga ko‘ra 7 raqamini anglatadi, bu Alloh unga 7 iqlimni nasib aylashiga ishoradir. “م” – “mim” harfi millat kiromi, musulmonlik nizomi undan ekanligini anglatadi. “ن” – “alif” harfi Alloh uning yori ekanligiga dalolat bo‘lsa, so‘nggi harf “ن” – “nun” nasr (madad) Alloh dandir degan ma‘noni bildiradi.

Navoiy yuqorida dostonni yaratishdan maqsad “ishq, ya‘ni ilohiy ishq dardini kuylash” ekanligini aytib o‘tgan edi:

*Bu rangin sahfa bilkim, dard bog‘i,
Ayon har lolasida ishq dog‘i.*

Bundan ma‘lum bo‘ladiki, dostonidan bosh maqsad ilohiy ishq dardiga muhtalo bo‘lgan solik (tariqat yo‘liga kirgan oshiq)ning sarguzashtlarini tasvirlashdan iboratdir.

Dostonning asosiy qismi 12-bobdan boshlanadi. Voqealar Chin xoqonining farzandsizligi va uning iztiroblari tasviri bilan ibtido topadi. Shoirning maqsadi “ishq dardi”ni kuylash ekanligi muqaddimalardayoq ayon bo‘lgan edi. Bu ruh, ohang asar voqealari bilan bog‘liq o‘rinlarda ham ta‘kidlanadi. Nihoyat uning iltijolari qabul bo‘lib, Tangri unga bir o‘g‘il in‘om etadi. Navoiy go‘dakning tug‘ilishidan tortib ulg‘ayishigacha bo‘lgan har bir jarayonni alohida tasvirleydi, hatto go‘dakka qo‘yilgan ismga ham alohida ma‘no yuklaydi. “Farhod” so‘zining ma‘nosi nurlu siymo, baxti o‘ziga yo‘lboshchi demak. Shoir esa bu nomning arab yozuvidagi harflariga ramziy ma‘no berib, ularni *firoq, rashk, hajr, oh va dard* deb talqin etadi. Bu bilan Navoiy o‘z

qahramonining hayot yo'lini, u chekadigan iztiroblarni, uning ilohiy ishq dardiga muhtalo bo'lib tug'ilganiga ishora qiladi:

*Anga farzona Farhod ism qo'ydi,
Hurufi ma'xazin besh qism qo'ydi.
Firoq-u rashk-u hajr-u oh ila dard,
Biror harf ibtidodin aylabon fard.*

Farhod bolaligidan favqulodda xislatlari bilan atrofdagilarni hayratga soladi. O'n yasharligida:

*Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,
Bilib tahqiqini kash etmagan ilm*

darajasiga erishadi. Asarda Farhod ham cheksiz jismoniy qudrat, benazir iste'dod egasi, ham yuksak fazilatlar sohibi sifatida tasvirlanadi.

Farhod yoshi ulg'aygani sari hazin va xastadil bo'lib bo'lib boradi. Xoqon Farhodning ko'nglini ochish, hazin kayfiyatini ko'tarish uchun yilning to'rt fasliga moslab to'rt qasr qurdiradi. Shu asrda Farhod Qorandan tosh yo'nish, Boniydan me'morlik, Moriydan naqqoshlik sirlarini o'rganadi. Lekin u egallagan bilimlar, o'rgangan hunarlar zohiriy (dunyoviy) bilimlar bo'lib, ilohiy sir-u asrorni ochishga kifoya qilmaydi. Endi u piri komil ta'limini olishi kerak edi.

Farhoddagi hazinlikning tarqamaganini ko'rgan xoqon unga taxtni taklif qiladi va shu bilan go'yoki o'g'lining dardiga davo topmoqchi bo'ladi. Aslida esa Farhoddagi bu holat zaminiy, dunyoviy bo'lmay, ilohiy ishqning nishonasi edi. Shu o'rinda Navoiy ilohiy ishq dardida yongan inson bilan bunday saodatdan mahrum foniy dunyo kishilari orasidagi farqni ko'rsatib beradi. Farhod otasining taxtni egallash haqidagi taklifni saltanat ishlarini o'rganish, tajriba orttirishga ijozat so'rash bilan ortga suradi. Shuni ham ta'kidlash muhimki, Navoiy mana shu epizodni olib kirib, avvalo, o'z qahramonining dunyo hoyu-havaslaridan oson voz kecha oladigan ma'rifat yo'lidagi inson ekanligini

tushuntirmoqchi bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zi yashayotgan davrda o'z otasi, og'a-inisi bilan toj-taxt, mulk talashayotgan shahzodalarga nasihat qilgandek ham bo'ladi. Farhod asta-sekin xoqon xazinasidagi behisob boyliklar bilan tanisha boshlaydi. Natijada yashirin parda ortidagi xonada saqlanayotgan sirli sandiq va undagi tilsimli ko'zguni ko'rib qoladi. Farhod ushbu ko'zguning sehrini ocholmay, Yunoniston safariga, Suqrot huzuriga otlanadi.

Farhodni tarbiyalab voyaga yetkazgan, hunarlar o'rgatgan ustozlari asosan dunyo ilmlarini o'rgatgan edilar. Shu bois u qancha ilm, hunar o'rganmasin, qalbida kechayotgan iztiroblarni oxirigacha anglay olmaydi, chunki uning iztiroblari dunyoviy tashvishlardan ancha ustun turardi. Demak, unga pir-rahnamo kerak edi.

Dostonda Farhodning Yunonistonga safari voqealari tasvirida ramziylik yanada kuchayadi. Shoir Yunoniston safari vositasida Farhodning sulukdagi yo'lini, Yunon donishmandlari yasagan, Iskandardan qolgan "hikmat ko'zgusi"ning tilsimini ochishni faqat Suqrot o'rgatishi mumkinligini ishoralar bilan bayon etadi. Suqrot bilan uchrashishga ahd qilib yo'lga chiqqan Farhod dastlab Suhaylo bilan uchrashadi. Suhaylo Suqrot darajasida emas, u ko'zguning sehrini ochishga qurbsiz, lekin Suqrotga yetishish yo'li, dushmanlarini yengish sirlaridan xabardor.

N.Komilovning "Tasavvut" nomli kitobida yozilishicha, Suhaylo Farhodning tariqat yo'lidagi birinchi piri. U Farhod yengib o'tishi kerak bo'lgan to'siqlar: ajdarho va devdan xabar beradi. Tasavvufda ajdarho – nafs timsoli, dev – saltanat timsoli hisoblanadi. Suhaylo Farhodga ajdarhoni yengish uchun samandarning yog'ini beradi. Samandar – olov ichida yashaydigan jonivor. U – ishq ramzi. Farhod badaniga samandar yog'ini surganda, ajdarhoning o'ti unga kor qilmaydi, ya'ni ishq otashi nafs o'tini so'ndiradi. Shuningdek, Farhodga keyingi manzillarda uchraydigan sher va temir paykarning ham ramziy ma'nosi bor. Sher – g'azab timsoli, ilohiy ishq yo'liga kirayotgan

solikda esa g'azab bo'lmisligi kerak. Temir paykar – ro'yo, yolg'on dunyo ramzi. Solik dunyo mo'jizalariga chalg'imasligi, ularga ko'ngil qo'yimasligi kerak. Farhod temir paykarni ham yengib, nihoyat Suqrot dargohiga kirib boradi.

Aslida Suqrot timsolining asar tarkibiga kiritilishi tasodifiy bo'lmay, bosh maqsadni ochib berish yo'lidagi muhim vositadir. N.Komilovning yozishicha, Suqrot piri komil timsoli bo'lib, usiz Farhodning o'z maqsadiga erishishi mumkin emas edi. Navoiy Suqrotni quyosh kabi porloq siymo, jismi pok ruh kabi, shaxsi aqlning haykali deb ta'riflaydi. U kamolot cho'qqisini egallagan komil inson, o'zi bir joyda o'tirsa ham, ruhi butun dunyoni kezib chiqadi. Jamshid jomi, Iskandar ko'zgusi ham uning ko'ngil ko'zgusi oldida xira. U Farhod bilan yakkama-yakka suhbatlashib, uni o'z farzandiday e'zozlaydi. Chunki bu yigit siyomosida u o'z suluk (yo'l)ining davomini ko'rgan edi. U Farhodga shunday deydi:

*Muni bilkim, jahon foniydur asru,
Haqiqat ahli zindoniydur asru.
Agar topsa Sikandar mulki zoting,
Gar o'lsa Nuh umricha hayoting.*

Bu baytda Navoiy Suqrot tilidan tasavvufning muhim g'oyasini bayon etadi. Ya'ni bu dunyo o'tkinchi, foniydir, shu sababli unga ko'ngil bog'lash to'g'ri emas.

*Chu mahbubi haqiqiy uldurur ul,
Aning vasli sori qat' aylamak yo'l...
Bu yo'l ichraki behad dard-u g'amdur,
Uzoq tortar, vale ikki qadamdur.
Kim ul ikki qadamning qat'i ming yil,
Kishi ursa qadam mumkin emas bil.
Biri o'zlukni qilmoq bo'ldi foniy,
Yana bir dog'i topmoq bo'ldi oni.*

Haqqa yetishish yo‘li ikki qadam masofadek gap, lekin bu ikki qadamni bosib o‘tish uchun ming yillik mashaqqat sarflanishi kerak. Bu ikki qadamning biri o‘zlikdan voz kechish, ikkinchisi o‘zlikni topish, ya‘ni o‘zlikdan voz kechmay turib, chin ilohiy o‘zlikni topish mumkin emas.

Inson o‘zlikdan qutulmay, Ilohga yetolmas ekan, demak, uni tezlashuvchi chora – vosita kerak. Dostonda majoziy ishq tong yorug‘iga, haqiqiy ishq quyoshga o‘xshatiladi:

*Bu o‘zlikdin qutulmoq chorasoz,
Nima yo‘q, o‘ylakim ishq majoziy...
Majoziy ishq bo‘ldi subhi anvar,
Haqiqiy ishq anga xurshidi xovar.*

Alisher Navoiyning bu o‘rinda majoziy ishq va haqiqiy ishq haqidagi fikrlari Navoiy ijodida ishqni to‘g‘ri talqin qilishga ko‘mak beradi. Shoir majoziy ishqni tong nuriga, haqiqiy ishqni quyoshga o‘xshatish bilan “majoz – haqiqat yo‘lidagi ko‘prik” ekanligigiga, Yaratganga muhabbat U yaratgan xilqatlarga muhabbat orqali oydinlashishiga ishora qiladi. Zero, tongning nuri quyosh tarafga nazar tashlashga undaydi. Demak, Farhodning oldida turgan ishq dastlab majoziy ishq sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq majoziy ishq uchun “mazhar” kerak. Mazhar – Haq jamoli zuhur etgan insondir. Farhod uchun mazhar – Shirin edi.

Farhod shu tariqa Suqrot huzuriga borar yo‘lda tariqat maqomlarini bosib o‘tadi, piri komil suhbatidan bahramand bo‘lib, ilohiy ishqning mohiyatini anglay boshlaydi. Chin mamlakatiga qaytib borib, ko‘zguda endi nafaqat Shirinni, balki o‘zini va o‘zi kelgusida boshdan kechirishi kerak bo‘lgan voqealarni ko‘ra boshlaydi.

Ko‘zguda Shirinni ko‘rgan Farhodning hayoti yana balolarda, sinovlarda o‘taveradi. Avval kemandi halokatga uchrashi, uning yolg‘iz bir taxta ustida qolib, dengizda oqim bo‘ylab suzishi, eronlik savdogarlar tomonidan qutqarilishi,

qaroqchilarga qarshi jang, suv qaziyotgan odamlarning joniga oro bo‘lib kirishi – tog‘ kesib, suv chiqarish mashaqqatlari – bularning barchasi ramziy ma'noda majoziy ishq yo'lida chekkan ruhoniy iztiroblar, azob-mashaqqatlar. Bu voqealarni jonli, rangin bo'yoqlarda tasvirlagan shoir Farhodning dard-u iztiroblari, ishq hasratlarini kuchli drammatizm bilan taqdim etadi. Dostonning hakim Suqrot bilan bog'liq o'rinlarida tasavvufiy mazmun-mohiyatning kuchayib ketganligini ko'rish mumkin edi. Umuman olganda, bu uslub asarning boshidan-oxirigacha kuzatiladi. Shu bois asarni zohiriy va botiniy ma'nolarda tushunish, idrok etish mumkin. Zohiriy mazmunning o'ziga asoslanib idrok etilganda ham dostonning ma'rifiy qiymati yuqori ekanligini kuzatish mumkin. Masalan, Farhodning ko'hkanligi Nizomiy dostonida asosan Besutun tog'idan Xusrav askarlariga yo'l ochish orqali ko'rsatilsa, Navoiy dostonida suvdan qiynalgan xalqqa ariq qazishi voqeasi garchi o'ta mubolag'aviy tarzda berilgan bo'lsa-da, muayyan jihatlari hayotiy asosga ega. Navoiy yashagan davrda Hirotning o'zida ham suv tanqisligi muammosi mavjud edi. "Vaqqiya" asaridagi ariqlar, hovuzlar qazilganligi haqidagi ma'lumotlar bunga misol. Farhoddek shahzodaning xalqqa bergan ko'magini badiiy tasvirlagan shoirning ijtimoiy (shahzodalarga pand ma'nosida) maqsadlari bor edi. Xos va avom kitobxonga birdek qiziq bo'lgan bu dostonidan har xil darajadagi kitobxon o'z imkoniyat va iqtidori darajasida ta'sirlanishi mumkin. Asarning yana bir nomi "Mehnatnoma"ni ko'pchilik Farhodning Armaniyadagi mehnati bilan bog'lab tushuntirishga intiladi. Bu bir qarashda to'g'ridek. Biroq Navoiyning o'zi doston boshida "Mehnatnoma"ni qo'llaganida, Farhod boshidan kechirgan qiyinchiliklar va mashaqqatlarni nazarda tutgan edi.

Dostondagi har bir timsol yuksak mahorat bilan ishlangan bo'lib, Navoiy har bir obrazga, har bir detalga muayyan badiiy ijtimoiy "vazifa" yuklaganligini ko'rish mumkin. Dostonda ilohiy ishqdan bebahra foni dunyo kishilaridan biri Xusravdir. Muallif bu ikki qahramonning munozarasini tasvirlar ekan, ikki xil ishq – avom ishq va ilohiy ishq o'rtasidagi tafovutni ko'rsatib beradi.

Jami 25 baytdan iborat bu munozarada deyarli har bir baytda muayyan badiiy san'atning yetakchilik qilishini kuzatish mumkin. Xususan,

Dedikim: ishq o'tidin de fasona!

Dedi: kuymay kishi topmas nishona.

baytida "o't" va "kuymoq" so'zlari asosida tanosub san'ati yasalganligini ko'rsak, keyingi baytda "a" unlisining takrorlanishi asosida vujudga kelgan assonans badiiy vositasining qo'llanilganligini ko'ramiz.

Dedikim: kuymagingni aylama'lum,

Dedi: andin erur joh ahli mahrum...

Xusrav savol-javobda ham, jismoniy harakatlarda ham Farhodni yenga olmaydi, chunki dunyoviy kuch ilohiy qudratni yengishi mumkin emas edi. Shunda u makkorlik yo'liga o'tadi: yosuman kampir vositasida Farhodning o'limiga erishadi.

Navoiy tilidan Farhodning o'limi munosabati bilan aytilgan

Vujudin o'rtab ul so'zu gudozi

Haqiqatqa badal bo'ldi majozi,

degan iqrorini Alloh jamoliga yetishgan ishq ahli haqidagi ma'naviy xulosa deyish mumkin. Quyidagi misralarda shoir fikrini yanada kuchaytirganligini, Farhod timsolida ilgari surilgan qarashlarini oydinlashtirganini ko'rish mumkin:

Baqo shahrida sultonliqqa yetti,

Haqiqat mulkida xonliqqa yetti.

Doston poetikasidagi muhim jihatlaridan biri, undagi dramatism, yuqori darajadagi pafosdir. Alisher Navoiy Farhod obraziga alohida yondashgani uning hissiyotlarini yoritishda yanada ko'proq seziladi. Shoir Farhodning o'limi oldidan

chekkan iztiroblarini (49-bob) bayon qilish orqali asarning asli mohiyatini ma'lum qilgan, bu nuqtadagi dramatism, fojiaiviylik o'ziga xos lirizmga uyg'unlashib ketgan. Aynan shu o'rinda Farhodning o'limi yuz beradi. Bobning avvalida Farhod o'z holini bayon qiladi, ishq yo'lida chekkan iztiroblarini aytib falak – taqdir bilan suhbatga kirishadi, so'ng unga bir qancha vaqtdan buyon hamroh va munis bo'lib qolgan parranda, hayvonlarga vidosini aytadi, boshidan o'tgan voqealarni qisqacha so'zlab beradi, tong shamoliga murojaat qilib, ota-onasiga o'zi haqida xabar berishini iltimos qiladi. Mazkur monologda Farhod Xusravdan ozor chekkani haqida ham to'xtaladi. Xusrav o'z qilmishlari uchun jazosini olishini so'raydi. O'z holatini shu tariqa bayon qilgach, ishq uning butun jonu jismini kuydiradi hamda Farhod dunyodan ko'z yumadi:

*Qilib jononi otin tilga ta'lim,
Tutub jonon otin, jon etti taslim.*

Mazkur o'rinda Farhodning "jonon otini tutub" jon berishi asar g'oyasini aniqroq tushunishga yordam beradigan nuqta bo'lib, bu tasavvufdagi solikning o'limi Haq zikri ila kechishini bildiradi.

Dostonning 52-bobida qalamga olingan voqealar asar mazmunini yanada kengroq ochib beradigan lavha hisoblanadi. Unda shoir Shirin o'lgan kuni qirq nafar ahli tariqat bir xil tush ko'rganini ma'lum qilgan. Tushlarida jannat namoyon bo'lgan va jannatda osmon qadar ulkan qasrda Farhod va Shirin taxt uzra o'tirgan ekanlar. Ularning atrofida esa ota-onalari va barcha yaqinlari ham bo'lib, bu oshiq va ma'shuqning sharofati tufayli amalga oshgan edi. Jannat farishtasi Farhodning ishq yo'lida dunyo taxti va sultonligidan voz kechgani uchun unga shunday ulkan martaba nasib qilgani haqida xabar qiladi.

Mazkur tushni qirq nafar valiy zot ko'rgach, bo'lib o'tgan voqea butun olamga ma'lum qilinadi. Farhodning boshqa yaqinlari – Farhod va Shirin o'limida aybdor bo'lganlarni jazolaydilar. Bu ishlarni tugatgach, Farhod va Shirin qabri ustida mujovir bo'lib qoladilar.

Doston xotimasi ikki bob (53-54) dan iborat bo'lib, 53-bob Sulton Husayn Boyqaroning o'g'li shahzoda Abulfavoris Shohg'arib Mirzo madhi va unga bag'ishlangan bir necha nasihatni o'z ichiga oladi. Navoiy Shohg'arib Mirzoga kamolotga erishish yo'llari haqida gapirar ekan, shahzodaga Iskandar Zulqarnayn, Mirzo Ulug'bek kabi hukmdorlarni ibrat qilib ko'rsatadi. Eng muhim ilmlar sifatida fiqh, hadis va tafsirni egallash zarurligini uqtiradi, shuningdek tibbiyot va hikmat ilmini ham o'rganishni tavsiya etadi:

*Shah uldurkim shiori ilmi dindur,
Nedinkim ilmi din ilm ul-yaqindur...
Bu din ilmiki xomam qildi tahrir,
Erur fiqh-u hadis-u so'ngra tafsir...
Valekin tibb-u hikmat ham erur xo'b
Ki, sihatdur kishi jismida matlub.*

Yakuniy bobda Navoiy Farhod timsolini o'z zamonasidagi barcha shahzodalarga ibrat hamda o'rnak qilib ko'rsatadi.

"Farhod va Shirin" ishqiy sarguzasht dostonlar uchun mo'ljallangan *hazaji musaddasi mahzuf* vazni (ruklari va taqti'i: mafoiylun mafoiylun fauvlun V--- V--- V--) da yozilgan.

“LAYLI VA MAJNUN” DOSTONI HAQIDA

Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari adabiyotida “Layli va Majnun” mavzusiday keng tarqalgan boshqa bir ishq qissasini topish qiyin. Mana o‘n uch asrdirki, ushbu mavzuda adabiyot olamida she‘r va dostonlar bitilib keladi. Ushbu qissaning kelib chiqish manbai qadim arablar hayoti bilan bog‘liq voqealarga borib taqaladi. Ayrim arab manbalarining ma‘lumot berishicha, Majnun tarixiy shaxs bo‘lib, Shimoliy Arabistondagi Bani Omir qabilasiga mansub bo‘lgan. Uning ismi manbalarda Qays ibn Mulavvah, Mahdiy ibn Muod, al-Aqra va ba‘zan al-Buhturiy ibn al-Ja‘d tarzida keltiriladi. Majnun o‘z qabilasidan Layli ismli qizni sevib, unga bag‘ishlab ajoyib she‘rlar to‘qigan. Uning she‘rlari qabiladoshlari va boshqa qabila kishilari orasida keng tarqalganligi haqida Ibn Qutaybaning “Kitob ush-she‘r vash-shuaro” asarida ma‘lumotlar keltiriladi. Lekin shu bilan birga ayrim tarixchilar Majnun tarixiy shaxs emas, uning nomi majoziy, mavjud she‘rlar o‘z amakisining qizini sevib qolgan umaviy bir yigitning she‘rlari, u she‘rlarida Majnun taxallusini qo‘llagan deb aytadilar. Har holda nima bo‘lganda ham VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab arab she‘riyatida Majnun taxallusi bilan ishq mavzusida yozilgan g‘amgin she‘rlar paydo bo‘lgan.

Badiiy adabiyotda bu qissa doston shaklida ilk bor Nizomiy Ganjaviy tomonidan vujudga keldi. Nizomiy xalq orasida tarqalgan rivoyatlardan ijodiy foydalangan holda “Layli va Majnun” qissasini g‘oyaviy jihatdan mukammal va badiiy jihatdan yuksak asar darajasiga ko‘tardi. Bani Omir qabilasi boshlig‘ining o‘g‘li Qaysning maktabdoshi Layliga muhabbatini tasvirlash orqali har ikkala qahramonning ruhiy va ma‘naviy dunyosini ochib berishga alohida e‘tibor qaratdi, xalq rivoyatlarida faqat tashqi go‘zalligi bilangina mashhur bo‘lgan Layli timsolini ijtimoiy omillar va badiiy-estetik yuk orqali mukammallashtirdi. Nizomiy dostoni Sharq xalqlari adabiyotida keng shuhrat qozondi va oradan bir asrdan ziyodroq vaqt o‘tgach,

Amir Xusrav Dehlaviy unga javob yozdi. Dehlaviy dostoni 1299-yilda yaratilgan bo‘lib, “Majnun va Layli” deb ataladi. Muallif doston qahramonlari nomini almashtirish bilan yangilikka, o‘z salafidan o‘zgachalikka intilganligini ta’kidlaydi hamda ushbu qissaning arab xalqlari orasida dastavval “Majnun va Layli” shaklida ommalashganligiga e’tibor qaratadi. U Nizomiy dostonining kompozitsion qurilishini asosan saqlab qolgan holda uning syujetiga ba’zi o‘zgartirishlar kiritadi (munajjimning Majnun taqdiri haqidagi bashorati, Navfalning o‘z qizini Majnunga nikohlab berishi va b.) Xusrav Dehlaviy ushbu dostoni bilan Sharq xalqlari adabiyotida “Layli va Majnun” mavzusidagi dostonga javob yozish an’anasini boshlab berdi. Dehlaviydan keyin forsiy adabiyotda, xususan, Hirot adabiy muhitida Ashraf Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy, Kotibi Turshiziy, Shayxim Suhayliy, Abdulloh Hotifiy, Badriddin Hiloliy, Xoja Imod Loriy va boshqalar ham bu mavzuda asar yozdilar.

Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni turkiy tilda ushbu mavzuda yaratilgan ilk doston bo‘lib, Navoiy uni yaratishdan avval arab rivoyatlari bilan bir qatorda Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Ashraf Marog‘iy va Shayxim Suhayliy dostonlarini chuqur o‘rganadi. U xamsanavislikda o‘zigacha mavjud an’analardan ijodiy foydalangan holda o‘z dostoniga yangicha ruh bag‘ishlaydi, o‘z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, “afsonaga yangi libos kiygizadi”.

Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni 38 bob, 3623 baytdan iborat. Shundan muqaddima 9 bobni o‘z ichiga oladi. Doston an’anaviy hamd – Allohning madhi bilan boshlanadi. Unda shoir olamning yaratilishi, tun, kun, oy, quyosh, yulduzlarning, yil fasllari va ulardagi tabiatning o‘ziga xos jilolari, insonning tabiat ichida yaratilishi, yo‘qdan bor, bordan yo‘q bo‘lishi – bularning hammasi Allohning beqiyos qudrati va ulug‘ligining ifodasi ekanini ta’kidlab, unga hamd-u sanolar o‘qiydi. Navoiy bobda g‘oyat ustalik bilan Allohning yerdagi tajallisi tasvirini ushbu yozilayotgan dostoni g‘oyasi bilan bog‘liq holda bayon qiladi. Yaratuvchining har yerdagi tajallisi

jahonda Layli bo‘lib ko‘rinadi, jilva qiladi, uning bu xususiyati esa yaratilganlarni Majnun qilishdan iboratdir:

*Ey har sorikim, qilib tajalli,
Ul mazhar o‘lub jahonda Layli.
Ey oniki Layli aylab otin,
Majnun qilmoq qilib sifotin.*

Ikkinchi bob Munojotni o‘z ichiga oladi. Mazkur bobda Navoiy Allohga murojaat qilib, uni borliqni yaratgan yagona va oliy zot deb deb ataydi va o‘z gunohlarini, xatolarini kechirishni iltijo qiladi. Shoir dostonni yozishga kirishar ekan, Xudodan o‘ziga madad va ko‘mak so‘raydi:

*Yo Rab, eshigingda ul gadomen,
Kim, boshtin ayooqqacha xatomen.
Mushkum bu xatoda bo‘ldi kofur,
Kofur ila mushkum o‘ldi benur...
Boq dard-u malolating‘a, yo Rab,
Rahm ayla bu holatimg‘a, yo Rab...
Shukrungg‘a tilimni qoyil ayla,
Sajdangga boshimni moyil ayla...
Bo‘l rohnamun mango ul ishga,
Kim, bo‘lsa sanga rizo ul ishga...*

Dostonning 3-bobi Muhammad payg‘ambar (s.a.v) madhiga bag‘ishlangan. Bu bobda Navoiy Muhammad payg‘ambar (s.a.v)ni risolat sipehri (payg‘abarlik osmoni)ning quyoshi deb atab, Odam Atoni uning daraxtidagi mevaga o‘xshatadi. Kitobot san‘ati vositasida payg‘ambarlik muhri – xotamning “ا” – “alif” va “ت” – “te”sida uning oti yashiringanini aytadi:

*Ul muhri xututi vasfi zoting,
Xotam “alif”i-yu “te”si oting.*

Navoiy na'tni Payg'ambar va uning oilasiga yuz ming salavot-u vasflar aytish bilan yakunlaydi.

4-bob Me'roj tuni ta'rifiga bag'ishlangan. Bob nomi muayyan tarzda asarning bosh qahramonlaridan biri (Layli)ning nomi bilan uyg'unlik kasb etadi: "Ul shomi visolingkim, "Val-layli izo yag'sho" ("tun qorong'iligi bilan qasam ichaman") oyati bo'la olg'ay aning shonida savodi yozilmog'i..."

Navoiy me'roj tunini ta'riflar ekan, bu tunning rangini toza mushk rangiga o'xshatib, uning har bir yulduziga quyosh rashk etadi deb yozadi:

*Kim rangi edi chu mushki nobi,
Har yulduzi rashki oftobi.*

Alisher Navoiy dostonning ushbu bobida Rasululloh (s.a.v.)ning mahbub (Haq) vasliga orzumand bo'lishlari (*Mahbub xayoli birla mashg'ul*), uning huzuriga ketayotganlarida behush bo'lishlari (*Solib o'zin anda bexudona*) bilan bog'liq holatlarni keyinchalik dostonning asosiy qismida Majnun timsoliga ko'chiradi.

Navoiy Muhammad payg'ambar (s.a.v.)ning Buroq otiga minib ko'kka ko'tarilishini tashxis san'ati vositasida bayon qilar ekan, sayyoralar, yulduzlar, o'n ikki burjlarning nomlarinigina emas, ularning xususiyatlarini ham ko'zda tutib, Me'roj tuning mo'jizaviy holatini tasvirlaydi. Shoirning yozishicha, payg'ambar Olohning huzuriga oy bo'lib borib, quyosh bo'lib qaytdi, gavhar bo'lib borib, Ummon dengiziga aylanib keldi:

*Oy bordiyu keldi mehri raxshon,
Dur bordiyu keldi bahri Ummon.*

Dostonning 5-bobi so'z ta'rifi, Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy madhini o'z ichiga oladi. Navoiy dastlab so'zga ta'rif berar ekan, uni eng ajoyib gavhar, mavj urgan dengizga o'xshatadi:

*Ey so 'z, ne balo ajab guharsen,
Gavhar neki, bahri mavjarsen...
Aytib sovumas tarona sen sen,
Olib qurumas xizona sen sen.*

Nizomiy Ganjaviy madhida talmeh san'atining yetakchilik o'qilishini kuzatish mumkin. U fazilatda Turdagi Muso, qanoatda Qofdagi Anqoga o'xshatiladi:

*Ham Turi fazilat uzra Muso,
Ham Qofi qanoat uzra Anqo.*

U Ganjada ganj (xazina)dek yashirilib, besh ganj ("Xamsa")ni nishon qilib ketdi:

*Ul Ganjada ganjdek nihoni,
Besh ganj qo'yub vale nishoni.*

Bobda Dehlaviy "sohiri Hind" (hind sehrgari) ta'rifi ostida keltirilib, u yaratgan asarlar fitnagarlikda Kashmir o'lkasidek, kitoblari sahifalaridagi yozuvlar Bobil mamlakatining katta yo'ldek ekanligi ta'kidlanadi:

*Ko'rgach bu tilism sohiri Hind,
Jodulig' ishida mohiri Hind...
Har safhai nazmi gohi tahrir,
Fitna aro bir savodi Kashmir.*

Salaflarning "Layli va Majnun" mavzuidagi dostonlari "qal'a" va "qasr"ga, Navoiyning o'z dostoni "qal'a" va "qasr" atrofidagi "shahar" va "bog'"ga nisbat beriladi:

*Ham qal'a uchun kerakdurur shahr,
Ham qasrg'a bog'u sabzadin bahr.*

6-bob Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhidadir. Navoiy Jomiy ismidagi "nur" so'ziga alohida urg'u berib, uning oti ham, zoti ham "nur un-alo nur"dir deydi:

*Sohib laqabi jahon aro nur,
Zoti bila nur-un alo nur.*

Navoiy bu o'rinda Jomiy hali to'ralagicha "Xamsa" yaratmagan bo'lsa-da (Jomiy beshligi 1481-85 yillarda yaratilgan, bu vaqtga kelib, Jomiy beshligidagi faqat 3 doston yozib tugallangan edi), lekin o'zining besh xazinasi, ya'ni "Silsilat uz-zahab", "Tuhfat ul-ahror", "Subhat ul-abror", "Ahsan ul-qisas" ("Yusuf va Zulayho") dostonlari va "Devon"i bilan besh xazinaga munosib javob aytganligini ta'kidlaydi.

Dostonning 7-bobi zamona hukmdori Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan. Navoiy Husayn Boyqaroni shariatning himoyachisi, adolatparvar, saxovatpesha, bunyodkor shoh, fiqh ilmida Abu Hanifa singari yuksak darajaga ega shaxs sifatida madh qiladi. Shoirning yozishicha, u qilichi bilan sherni mahv etishdek qudratga ega bo'lsa-da, chumoliga shikast yetsa ko'z yoshini tiyolmaydigan, shohlar orasidagi o'rni falak yuksakligida bo'lgani holda darveshlar oldida tuproqdek xokisor podshohdir:

*Sher uzra qilichi harq choqib,
Mo'r o'lsa shikasta yoshi oqib.
Darvesh desam ulus uza shoh,
Shohi darvesh borakalloh.*

8-bob shahzoda Badiuzzamon ta'rifidadir. Navoiy shahzodaning ismi "zamonasining go'zali, nodiri" ekanligiga ishora qilib, shunday yozadi:

*Gar oti o'lub zamon badii,
Zoti kelib insu jon badii.
Alloh, Allah, ne ot erur bu,
Ne poku xujasta zot erur bu.*

Bobda Badiuzzamonning adolati, saxovati bilan birga qahriga ham alohida ta'rif beriladi:

*Adli yorutub jahonni jovid,
Ul adl boshida ayni xurshed.
Chun qahri sharori ko'kka roji'
Ul "shin" uza nuqta Nasri Voqi'.*

Dostonning 9-bobi tun ta'rifiga bag'ishlangan. Bob muayyan ma'noda muqaddima bilan asosiy qismni bog'lovchi ko'prik vositasini o'taydi. Bobda shoirning qorong'i tunda xayol otiga minib, sayrga chiqish tasviri berilgan. Ishq vodiysiga yetganda ot oqsoqlanib, yo'lda davom etolmay qoladi. Yomg'ir, bo'ron aralash momaqaldiraq guldurab, chaqin chaqadi. Chaqin yorug'ida shoir saksovulday taxlanib yotgan inson suyaklari, vahshiy hayvonlarni ko'radi. N.Komilovning "Tasavvuf" kitobida yozilishicha, bu tasvirlarning hammasida muayyan ramz bor. Bu tun hajr tuni, bu vodiy esa ishq vodiysi, vahshiy hayvonlar oshiqqa xuruj etgan balo-ofatlar, suyaklar ishq qurbonlaridan nishona. O'z asli, Ilohdan ajralgan musofir, g'arib ruh Majnun shu vodiya yakka o'zi boshini egib o'tiribdi. Shu o'rinda ikkita tashbeh qo'llanilganligini ko'ramiz. Qorong'i tunda birin-ketin chaqmoq chaqib, uning yorug'ida qabilalar ko'zga tashlanadi, shunda shoir tunni Laylining sochiga, chaqmoqni esa Layli yuzining ochilishiga o'xshatadi:

*Andoqki qilib karashma mayli,
Zulf ichra jamolin ochsa Layli.*

Layli yuzi bu o'rinda ilohiy nur manbai, uzun sochlari – moddiy dunyo, firoq tuzoqlari, ("Layli" so'zining o'zi ham tun ma'nosini bildiradi), ana shu nur manbaining chaqmoqlari Majnun qalbi va vujudidan joy olgan. Ikkinchi tashbeh: Navoiy ishq vodiysida "nori ayman" (shoxlari shu'lalanib turgan daraxt)ni ko'radi. Qissa boshlanib, Layli va Majnunning birinchi uchrashuvi tasvirlanganda shoir shu tashbehni takrorlab, Majnunni xuddi shu shu'lali daraxt qiyofasida chizadi, ya'ni Layli

yuzining shu'lasidan Majnun qalbi alangalanib ketadi. "Nori ayman" aslida Qur'ondagi Muso hikoyasiga ishoradir. Muso alayhissalom Allohga yuzingni ko'rsat deb iltijo qilganlarida, Alloh bir uchqunni Tur tog'i tomon yo'naltiradi. Tur tog'i parchalanib, qum holiga keladi, Ayman vodiysi esa yorishib ketib, undagi daraxtlar mash'aladay porlaydi. Alloh ishq mana shunday qudratga ega.

Bu bobning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, unda shoir hotif (g'oyibdan ovoz beruvchi) tilidan o'z yozilajak asarining salafilar dostonlaridan qanday farq qilishi lozimligini bayon etadi.

10- bobdan dostonning asosiy qismi boshlanadi. Bani Omir qabilasida uzoq kutilgan farzand Qays dunyoga keladi. Qaysning tug'ilishi, o'sishi tasvirida ham ilohiy taqdir sezilib turadi. Tug'ilgandan ishq olovi bilan yo'g'rilgan Qays o'tga talpinadi:

*O't ko'rsaki mayl etib nihoniy,
Ishq o'ti tasavvur aylab oni.*

Uni 4–5 yoshlarida Layli qabilasiga o'qishga beradilar. Qays maktabda tez saboq chiqaradi, qisqa fursat ichida barcha ilmlarni o'zlashtiradi va saboqdoshlarini hayratga soladi (Bu o'rinda Navoiy Alloh o'zining xos bandalariga alohida iste'dod berishiga ishora qilyapti). Qays saboq olib yurgan bu paytda Layli betobligi uchun maktabga qatnamayotgan bo'ladi. Tuzalganidan so'ng ustozini benihoya shodlanganidan barcha shogirdlarini o'qishdan ozod qiladi. Layli saboqdoshlarini gulshan sayriga taklif qiladi, ular bilan birga Qays ham bog' sayriga chiqadi. Qays Laylini ko'rib hushini yo'qotadi. Navoiy bu o'rinda Laylining husni gulzorni charog'on qilib yubordi va gulzordagi bir nihol (Qays)ni xazon etdi deb yozadi:

*Shod o'ldi jamolidin dabiston,
Andoqki bahordin guliston.
Lekin bu bahori zindagoniy,
Bir naxlni ayladi xazoniy.*

Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, guliston darveshning ruhiyati, uni Haq ishq egallab oladi va u betoqatlanib, hushini yo'qotadi. Shu tarzda majzubi solik (Haqdan jazba yetgan, ustoz ham, piri ham Ishq bo'lgan, maqomlarni egallamasdan turib, hol martabasiga crishgan oshiq)ning sarguzashtlari boshlanadi (N.Komilov). Qays shu tariqa Laylini har ko'rganida hushidan ketadi. Xalq orasida "Majnun" laqabi bilan ovoza bo'ladi:

*"Layli, Layli!" – debon chekib un,
El deb, "Majnundur, ushbu majnun!"*

Navoiyning ishq haqidagi tushunchasi insonning ilohiy fayzdan bahramandligi bilan bog'liq e'tiqodga asoslangan, ya'ni haqiqiy muhabbat faqat pokiza insonlar qalbidan joy olishi mumkin. Majnunning ishq bu borada eng oliy namuna, chunki u butun qalbi va jon-u dili bilan Ollohni sevadi, shu bilan birgalikda u mehr-muruvvati, yuksak axloqi va beqiyos iste'dodi bilan eng go'zal insondir. Shuningdek, Navoiyning fikricha, pok insoniy muhabbat va ilohiy ishqni bir-biriga zid qo'yish to'g'ri emas, chunki ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq, biri ikkinchisidan o'sib chiqadigan hodisa. Majnunning ota-onasi uni Layliga uylantirish bilan dardiga chora topmoqchi bo'ladilar va Hay qabilasiga sovchi yuboradilar. Navoiy shu o'rinda haqiqiy ishqdan bexabar kishilar "ishq uylanish, oila qurish bilan yakuniga yetadi" degan tushuncha asosida yashashlariga ishora qiladi, ya'ni Majnunning ota-onasi va jamiyat ahli ishq deganda Navoiy "Mahbub ul-qulub"da keltirgan ishqning quyi darajasi, ya'ni avom ishqinigina anglaydilar. Majnunning ota-onasi uni Layliga uylantirish uchun sovchi yuboradilar. Lekin Laylining otasi qizini aql-hushdan begona bir "devona"ga berishdan or qiladi va Majnunning Layli qabilasiga kelishini ta'qiqlab qo'yadi. Majnunning otasi qabiladoshlari bilan maslahatlashib, Qaysni zanjirband qiladi. Lekin ishq otashi ta'siridan zanjir uzilib, Majnun uyidan chiqib ketadi. U bedard qabiladoshlarini ham,

yaqinlarini ham, umuman jamiyatni unutish darajasiga boradi, zero bu holat haqiqiy oshiq uchun xos xususiyatdir:

*O'z oti-yu qavm-u xayli oti
Yo'q yodida, g'ayri Layli oti.*

Tasavvufda bu holat “tafrid” (yolg‘izlanish) deb atadi. Oshiq shunday bir hol martabasini egallaydiki, yaqinlaridan, umuman insonlardan bezor bo‘ladi; yakkalikni, yolg‘izlikni qo‘msaydi. Yolg‘izlanish dilning Haqqa yuzlanishi uchun imkon yaratadi.

Qaysning otasi o‘g‘lining dardiga shifo bo‘ladi degan umidda haj munosabati bilan Ka’ba ziyoratiga olib boradi. Qarindoshlar Qays Ka’bani tavof etsa, ahvoli yaxshilanadi deb umid qiladilar. Lekin Majnun Allohga munojot qilib, Layli ishqini ko‘ngliga mustahkamroq jo etishini so‘raydi. Mazkur lavha dostonning eng ta’sirchan o‘rinlaridan biri bo‘lib, qirq uch baytdan iborat. Bu o‘ziga xos “munojotnoma”da yigirma to‘rt o‘rinda “ishq” so‘zidan foydalanilgan. Bu tasodifiy emas, albatta. Navoiy ushbu so‘zni turli poetik unsurlar va ritmik vositalar bilan uyg‘unlikda qo‘llab, ritmik ohangning turli-tuman jilvalanishlariga erishadi.

Dastlab ishq o‘ti bilan jahonni yondirgan “hakimi dono”ga sokin murojaat bilan boshlangan mazkur munojot asta-sekin tantanavor ohang kasb eta boradi va bunda “ishq” so‘zining ritmik zarb (mantiqiy urg‘u asosiga qurilgan, ijodkor aytmoqchi bo‘lgan fikr yoki ifodalamoqchi bo‘lgan kuchli his-tuyg‘uni o‘zida aks ettiruvchi ritmik birlik) darajasiga ko‘tarilganligi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi:

*Chek aynima ishq to‘tiyosin,
Ur qalbima ishq kimiyosin!*

Mazkur baytda “ishq” so‘zi hojib vazifasida kelgan bo‘lib, bayt misralaridagi har bir so‘zning o‘zaro teng ustunlar asosida joylashishi va buning natijasida muayyan ritmik pauzaning qo‘llanilganligi ohangning jozibadorligini ta‘minlagan.

Keyingi baytda “ishq” so‘zi “et” ko‘makchi fe‘li bilan birikib, radif vazifasida kelgan va endi ritmik zarb radif bilan birlik kasb etgan:

*Ko‘nglumga fazo harimi ishq et,
Jonimg‘a g‘izo nasimi ishq et!*

Majnun o‘z munojotida ishqni shu tariqa ulug‘lar ekan, undan ishq va Laylini unutishni so‘ragan kishilarga nisbatan achinish hislarini namoyon qiladi va hatto Tangridan ularni afv etishini so‘raydi:

*Alloh-Alloh, bu ne so‘z o‘lg‘ay,
Ul qavmg‘a Tengri uzr qo‘lg‘ay.*

“Tasavvuf” kitobida keltirilishicha, Ka‘ba ziyorati lavhasi, tasavvuf ahlining har qanday suratlar, timsollarga sig‘inishni inkor etishlariga ishoradir. Ya‘ni Hohning o‘ziga oshiq bo‘lgan, faqat Uni deb yongan kishiga bu ishlar ortiqchadir.

Majnunning otasi o‘g‘lini uyga qaytarib olib keladi va u yana sahroga chiqib ketadi. Sahroda u ovga chiqqan lashkarboshi Navfalni ko‘rib qoladi. Navfal ham bir vaqtlar ishq dardiga uchragani uchun Majnunning qalbini tushunadi, unga rahmi keladi:

*Navfal dag‘i ishq ko‘rgan edi,
G‘am dashti aro yugurgan erdi.*

Navfal ishq dardidan xabardor bo‘lsa-da, lekin Majnun darajasiga ko‘tarila olmagan, uning sulukdagi maqomi ma‘lum bir bosqichga yetgandan keyin to‘xtab qolganligini ko‘ramiz. Shu

sababli u Majnunni Layliga uylantirish bilan uning dardiga malham topish mumkin deb o'yayli va Layliga sovchi yuboradi. Lekin Laylining otasi rozi bo'lmagach, urush ochadi. Laylining otasi urushda yengilishini sezib, qizini o'ldirishga qasd qiladi. Bu holat Majnunga tush orqali ayon bo'lgach, Navfaldan urushni to'xtashini so'raydi. Navfal Majnun uchun yana bir chora vositasi sifatida o'z qizini Majnunga berishga qaror qiladi. Laylini esa Bani Asad qabilasining boshlig'i Ibn Salomga unashtiradilar. Navfalning qizi boshqa insonni sevishini aytib, Majnunga aka-singil bo'lishni taklif qiladi. Ibn Salomning esa quyanchiq (tutqanoq) kasali qo'zg'ab, behush yiqiladi.

Layli va Majnun ishq dashtida uchrashadilar. Navoiy bu uchrashuvni chuqur hayajon bilan tasvirlaydi. Ular bir-birining vasliga yetishgan damlarda butun borliq ularga madad ko'rsatadi, osmon jismlari ham, yerdagi barcha tirik mavjudot sukutga cho'madi, oshiq-ma'shuqlarga xayrixohlik qiladi. Layli va Majnun ruhan birlashadilar, ikkilik o'rnini birlik – tavhid egallaydi. Navoiy ularning vasli poklikdan ayri bo'lmaganligini aytadi. Shoirning fikricha, ishq ahli ulardek pok bo'lar ekan, ularga abadiy vasl muyassar bo'lsa, ne ajab, zero nafs maqsadida oshiq bo'lganlar uchun oshiqlik haromdir:

*Ishq ahli bu nav' bo'lsalar pok,
Gar vasl muabbad o'lsa ne bok?
Oshiqki murodi kom bo'lg'ay,
Oshiqlik anga harom bo'lg'ay (31-bob).*

Dostondagi eng ta'sirchan boblardan yana biri bu Majnun ota-onasining o'limi haqidagi bobdir (33-bob). Majnunning dardiga chora topa olmagan ota-ona farzandining g'am-u alamida kuyib, birin-ketin dunyodan ko'z yumadilar. Majnun bu holdan tush orqali xabar topadi: tushida bolalarini inlariga qaytarmoqchi bo'lgan ikki kaptar burgutga yem bo'ladilar. Bobda ota-onasidan ajralgan Majnunning iztiroblari, g'am-alamlari chuqur hissiyot bilan tasvirlangan. Ayniqsa, uning onasi qabri ustida tortgan afg'onlari yuksak pafos bilan yo'g'rilganligini ko'rish mumkin:

*Sen Ka'ba mangavu men tilab dayr,
Tayfing sori hech qilmayin sayr.
Solib sanga iztirob har dam,
Ka'bamni qilib xarob har dam.
Ka'bam bo 'lmish mening xarobim,
Tengriga ne bo 'lg'usi javobim?!*

Majnunning ota-onasi vafot etganini eshitgan Layli yorining ham firoq alamidan, ham ota-ona motamidan iztirobga tushayotganini o'ylab, chuqur g'amga botadi. Majnun ota-onasining g'amidan azobda bo'lsa, menga ham bu g'am, ham uning g'ami ikki hissa azobliroqdir, deydi:

*Anga ato-anoning g'amidur,
Ham bu manga, ham uning g'amidur.*

Laylining ruhiy ahvoli o'zgara boshlaydi, uning tanasida kuchli harorat paydo bo'ladi. Tabiblar bu hol oldida ojiz qoladilar. Layli bu dunyodan ketish fursati yaqinlashganini sezib, onasiga Majnun kelsa, uni huzuriga kiritishlarini vasiyat qiladi. Majnun Laylining bu dunyodan ketayotganini ilohiy bir kuch bilan sezib, uning qabilasi tomon keladi. Shu tariqa umr bo'yi bir-birining ishqida kuygan, visoliga intilganlar Ruhi mutlaq tomon ravona bo'ladilar.

Doston Xotimasi uch bob (36-38)ni o'z ichiga oladi. 36-bob "Ishq ta'rifi"ga bag'ishlangan bo'lib, bunda Navoiy ishqni kimyoga va olamni ko'rsatuvchi ko'zguna o'xshatadi:

*Ey, ishq, g'arib kimiyosen,
Bal oyinayi jahonnamosen.*

Rivoyatlarga ko'ra, qadimda kimyogarlar mis va boshqa ma'danlarni yuqori harorat ta'sirida oltinga aylantirish mumkin deb hisoblaganlar. Navoiy bu o'rinda shu afsonaga ishora qilib, odam aslida tuproqdan yaralgan, ammo ishq olovining "kimyo"ligi uni oltinga aylantiradi, ya'ni ishq inson vujudini turli

xil chiqindilar: jismoniy talablar va nafsoniy istaklardan poklaydigan otashdir degan fikrni keltiradi:

*Chun xolis-u pok-u beg'ash o'ldi,
Oltin neki kimiyovash o'ldi.*

Poklanish, ya'ni "kimyo"lanish ishqiy majoziy bo'lib, undan "oltin"ga aylanib chiqqan oshiq endi o'zligidan qutuladi va qayoqqa qarasa, haqiqiy Yor(Haq)ni ko'radi:

*Chun boqqali ixtiyor topti,
Har soriki boqti yor topti.
Ham naqshi vujudin etti foniy
Ham topti baqoyi jovidoni.*

Bu esa qalbning ko'zguga, ya'ni "oyinai jahonnamo"ga aylanishi, boshqacha aytganda, ishqiy haqiqiyga molik bo'lishdir.

Dostonning 37-bobi Sulton Husayn Boyqaro akasining o'g'li shahzoda Sulton Uvays bahodir madhiga bag'ishlangan. Navoiy shahzodani ta'rif-u tavsif qilish asnosida g'oyat ustalik bilan unga shariat, adl-u himmat bobida nasihatlar ham qiladi va zamona sultoni Husayn Boyqaroni unga ibrat qilib ko'rsatadi.

Dostonning so'nggi bobi "dard navhasi" (yig'isi)ning yakuni haqida bo'lib, shoir bunda dostonni tugallagani uchun Allohga shukrona keltiradi. Navoiyning doston mohiyati haqida aytgan eng muhim fikrlari aynan shu bobda tajassum topgan:

*So'gin nechakim uzottim oxir,
Yig'lay-yig'lay tugattim oxir...
Yozmoqta bu ishqiy jovidona,
Maqsudum emas edi fasona.
Mazmunig'a bo'ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli...
Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu fasonani hikoyat.*

*Kim, shuhrati chun jahong'a to'lg'ay,
Turk eliga dog'i bahra bo'lg'ay...*

“Layli va Majnun” dostonidan kelib chiqadigan xulosa shuki, bu dunyoda yashovchi har bir inson oshiqlik yo‘lini tutib, o‘zini o‘limga emas, balki vasl mayini ichishga tayyorlashi kerak, zero bu dunyoning birdan-bir mazmuni ham shu. Ruhi mutlaqni tasavvur qilishda inson aqli va ongi ojizlik qiladi, shu sababli Navoiy uni mazhar – Layli timsolida yaratadi.

Dostonda har bir timsol yuksak mahorat bilan ishlangan bo‘lib, Navoiy har bir obrazga, har bir detalga muayyan badiiy ijtimoiy “vazifa” yuklaganligini ko‘rish mumkin. Dostonning 14-bobida tasvirlangan it obrazi bu jihatdan alohida ahamiyatga ega. Ma‘lumki, it sadoqat, vafodorlik ramzi sanaladi. Dostonda Majnun o‘z sadoqati, vafosidan ko‘ra itning sadoqatini ustun qo‘yadi, chunki it Majnunga qaraganda Layliga ancha yaqin turadi. U ham Majnun kabi oshiq, yorining oyog‘i ostida yotib o‘z vafodorligini, sadoqatini namoyon qiladi. Buning fahmiga yetgan Majnun o‘z dardini to‘kib soladi:

*Sen mendin o'lub vafoda afzun,
Ham sidqda, ham safoda afzun.*

Bu o‘rinda Navoiy Majnunning o‘zini oshiq sanab, it darajasiga ham ko‘tarila olmaganidan qattiq iztirobda ekanligini bayon qiladi. It Laylini ko‘rganda Majnun singari hushini yo‘qotmaydi, uning oyoqlariga suykilib, erkalanadi – itning bardoshi kuchli, bu esa Majnunning yeta olmas armoni.

Doston kompozitsiyasida bosh qahramonlar – Layli va Majnunning bir-birlariga yozgan maktublari ham muhim o‘rin tutadi. Maktub ko‘ngillarni bog‘laydigan vosita bo‘lib, u vasldan xabar beradi, oshiq-ma‘shuqlarni umidlantiradi. Shoir Laylining maktubida *nido* san‘atidan foydalanib, yorning o‘z oshig‘iga murojaati orqali ma‘shuqaning qalb izhorlarini, his-tuyg‘ularini

ifodalasa, Majnunning Layliga yozgan maktubida vafó va sadoqatdan soʻzlovchi oshiq kechinmalari qalamga olinadi. Ushbu maktublar dostonning umumiy poetik qonun-qoidalari (vazn, qofiyalanish tizimi)ga moslashtirilgan noma janrining betakror namunalaridir.

Dostonning badiiy jihatdan yuksak chiqishini taʼminlagan vositalardan yana biri unda tabiat tasvirining alohida oʻrin egallashidir. Navoiy tabiat fasllaridan umumiy ramziy fon sifatida foydalanib, ulardagi oʻzgarishlarni qahramonlar kayfiyati va ruhiyatiga hamohang tarzda tasvirlaydi. Qahramonlar shodlangan paytda, ularni oʻrab turgan tabiat ham yashnab turadi, ular qaygʻuga tushganda goʻyo borliq ham xoʻrsinib nafas olayotgandek boʻladi. Masalan, Majnun gulshanda hushsiz yotgan paytda butun tabiat uning boshiga tushgan ogʻir savdoga “hamdarlik bildiradi”: gul oʻz yoqasini chok etadi, lola koʻksiga qora dogʻ soladi, sunbul oʻz qiyofasini qora rangga boʻyaydi va boshqalar. Doston voqealarining bahor faslida boshlanib, kuz faslida yakunlanishida ham muayyan ramziy ifoda bor.

Doston hazaj bahrining *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf* (ruklari va taqtiʼi: mafulun mafoilun fauvlun, -- V | V - V - | V - -) vaznida yozilgan. Dostonda mazkur vazn bilan birga qoʻshimcha tarzda *hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf* (ruklari va taqtiʼi: mafulun foilun fauvlun, - - - | - V - | V - -) vaznining ham qoʻllanilganligini kuzatish mumkin. Bu holat tasodifiy boʻlmay, doston mazmuni va gʻoyasi bilan chambarchas bogʻliq. Dostondagi 3623 baytdan 240 misra aynan mana shu oʻlchovda yaratilgan boʻlib, dostondagi ziddiyatli voqealar, asar qahramonlarining chuqur ruhiy iztiroblari tasviri, qahramonlar ruhiyatining tabiat tasviri bilan bogʻliq bayoni, qahramonlar hayrati aks etgan misralar - lirik chekinish paytida mazkur vaznga murojaat qilinganligini koʻrish mumkin.

“SAB'AI SAYYOR” DOSTONI HAQIDA

Alisher Navoiy “Xamsa”sining to‘rtinchi dostoni “Sab'ai sayyor” deb atalib, 1484 yilda yozib tugallangan. Asarning bosh qahramoni Bahrom tarixiy shaxs sifatida Eronning sosoniylar hukmdori Varaxran V (420–438-yillarda podshohlik qilgan)ga borib taqaladi. Bu podshoh qulon (yovvoyi kiyik)ni ovlashga nihoyatda o‘ch bo‘lganligi uchun xalq orasida Bahrom Go‘r (qulon) laqabi bilan shuhrat topgan. Sharq mamlakatlarida Mars (Mirrix) yulduzi Bahrom deb atalib, jang-u jadallar homiysi sifatida keladi.

Bahrom bilan bog‘liq xalq naqlari, afsona va rivoyatlar dastavval eronliklar tomonidan vujudga keltirilgan va davrlar o‘tishi bilan Sharq xalqlari orasida keng tarqalib ketadi. Bahrom Go‘r timsoli hashamat va ovga o‘ch hukmdor hamda ishratparast shaxs sifatida dastavval xalq og‘zaki ijodidan, so‘ngra yozma adabiyotdan o‘rin oladi.

Bahrom obrazi dastlab forsiy adabiyotda Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma”sida tasvirlanadi. Firdavsiy Bahromni musbat va manfiy jihatlarga ega murakkab shaxs sifatida tasvirlaydi: u bir tomondan, adolatsevar podshoh, vatanparvar yurt egasi, tengsiz aql-idrok, kuch-quvvat sohibi, mohir ovchi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, kitobxon ko‘z o‘ngida aysh-ishratga, ehtirosiga o‘ch, xudbin va qahri qattiq shaxs sifatida gavdalanadi. “Shohnoma”da Bahrom Go‘r haqidagi voqea dostonning faqat bir faslini tashkil etib, unda Bahromning tug‘ilishi, taxtga chiqishi, mamlakatni idora qilish tadbirlari, ov vaqtida o‘z kanizagi Ozoda bilan to‘qnashuviga doir voqealar qalamga olingan.

Bahrom Go‘r va uning kanizagi orasidagi “Shohnoma”dan olingan bu lavha Nizomiy Ganjaviy tomonidan qayta ishlanib, mashhur “Haft paykar” dostoni vujudga keladi. Nizomiy Bahrom qiyofasidagi asosiy xususiyatlarni: mohir merganlik, pahlavonlik, kuchli shijoat va dovyuraklik, mamlakatni adolat bilan boshqarish kabi fazilatlarini saqlab qolgani holda uni yangi ma‘no va mazmun bilan boyitadi, ushbu timsol orqali o‘z davri ijtimoiy masalalarini,

umuminsoniy g'oyalarni ilgari suradi. Nizomiy Firdavsiy dostonidagi Bahromning kanizak bilan bog'liq hikoyasini qoliplovchi hikoya qilib olib, unga 7 mustaqil hikoyat kiritadi.

Nizomiy asari yaratilganidan keyin bir asrdan ko'proq vaqt o'tgach, Xusrav Dehlaviy unga javob tarzida "Hasht behisht" dostonini yozadi. Uning dostonida ham Bahromning sarguzashtlarini tasvirlovchi asosiy qoliplovchi hikoya va yetti malika hikoyasi mavjud. Ushbu hikoyalar birgalikda jamlanib, 8 hikoyani hosil qilganligi uchun Dehlaviy o'z dostonini "Hasht behisht" deb nomlaydi va malikalar aytib beradigan 7 hikoyatni hind eposidan oladi. Shuningdek, dostonning muqaddimasi yetti bob, yakunlovchi qismi esa bir bobdan iboratligi, umumiy boblar soni sakkiztaligi uchun ham shunday nomlanishga sabab bo'lgan, degan qarashlar mavjud. Dehlaviy o'z dostonini Bahromning taxtga chiqishi voqeasidan boshlab, ungacha bo'lgan voqealarni tushirib qoldiradi.

Mazkur mavzuda yaratilgan asarlardan yana biri – Ashraf Marog'iyning "Haft avrang" dostoni bo'lib, Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn"da Ashrafning ushbu dostonini "Sab'ai sayyor" dostoni uchun asos bo'lgan asar sifatida tilga oladi. Navoiy "Ashraf "Haft paykar"ning yetti hurvashin peshkashimg'a yarog'labtur", deb yozar ekan, Nizomiyning "Haft paykar" dostonidagi yetti go'zal haqidagi hikoyalarni hal qilishni Ashraf unga topshirganligiga ishora qiladi. Ashraf dostonida Bahromning kanizak bilan ovga chiqishi va umuman uning oshiq bo'lishi bilan bog'liq sahna yo'q. Ashraf oshiq podshoh emas, balki odil podshoh timsolini yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostoni mazkur mavzuda yaratilgan birinchi turkiy doston bo'lib, Navoiy o'ziga qadar badiiy adabiyotda yaratilgan dostonlar va to'plangan boy ijodiy tajribadan foydalangan holda mazmun e'tibori va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan salaflari asarlaridan farq qiluvchi yangi doston yaratdi.

Doston 38 bob, 5009 baytdan iborat bo'lib, shundan 11 bobni muqaddima tashkil qiladi.

Doston muqaddimasi an'anaviy hamd bilan boshlanadi. Navoiy Allohni olamning yaratuvchisi sifatida madh etar ekan, dostonning mazmuni taqozosi bilan birinchi bobdayoq yetti raqamiga alohida e'tiborni qaratib, *iltizom* (bir so'zni biror parchaning barcha misra yoki baytlarida qo'llab, shu so'zning muhimligini ta'kidlash) badiiy san'ati vositasida falakning yetti qavat ekanligi, yetti gunbazdan tashkil topgani, yer yuzi yetti iqlimga bo'lingani, yetti ko'k, yetti yulduz kabilar haqida fikr yuritadi. Shuningdek, Bahrom va Dilorom so'zlarini asl va majoziy ma'holarda qo'llab, sayyoralar olami, dunyoning yaratilishi haqida o'z falsafiy qarashlarini bayon qiladi, olamning yaratilishini tasavvufdagi *vahdat ul-vujud* falsafasi asosida bayon qiladi:

*Ishq sensen dog'iyu oshiqsen,
Yana ma'shuqluqqa loyiqsen.
Ayni ma'shuqluqda jilvai zot,
O'zini ko'rgali tilab mir'ot.
Husnunga har dam o'zga surat o'lub,
Ko'zgu takrori ham zarurat o'lub.
Necha husn ichra jilva zohir anga,
Ko'zguluk aylabon mazohir anga...
Sensen-u sendin o'zga xud nima yo'q,
Gar ko'rinsa sen o'lg'ung ul nima o'q.*

Dostonning 2-bobi munojot bo'lib, bunda buyuk shoirning Yaratuvchiga murojaati, najot umidi, tavba va iltijolari o'z ifodasini topgan:

*Qodiro, ul zaif-u osiymen,
Ki boshimdin ayoq maosiymen.*

Navoiy tashbeh san'ati vositasida o'zini toat vaqtida xasta chumoliga, isyon vaqtida vahshiy sherga, nafsini bahaybat filga, ko'nglini nimjon pashshaga o'xshatadi:

*Toat aylarda mo'ri xasta barin,
Lek isyon mahalli sheri arin.
Nimjon pashsha ko'nghum ayla gumon,
Zo'ri nafsim nechukki pili damon.*

Shuningdek, munojotda yaratilayotgan asarning shuhratini olamga yoyishni so'rab qilingan iltijo ham mavjudligini ko'ramiz:

*Shuhratin olam ichra paydo qil,
Olam ahlin alarga shaydo qil.*

Navbatdagi bob Muhammad (s.a.v.) madhiga bag'ishlanadi. Bob sarlavhasida "Ul **shohi** risolatpanoh na'tikim" degan jumalarning qo'llanilishi tasodifiy bo'lmay, yozilajak dostonning bosh qahramoni shoh ekanligiga ishora. Bobda Payg'ambarimizning asli qurayshiy, yerlari abtahi, mazhablari hoshimiy, manzillari Yasrib ekanligi aytilgach, U zotning nuri "Lot" bilan "Uzzo"ni shikastlagani, ismlarining harflari yechilganda ikkita "mim" harfining etaklari osilib, kufr eli motamining zulmatiga, din elining esa ulug'vorligiga aylanishi aytiladi.

4-bob Me'roj tuni ta'rifiga bag'ishlanadi. Bunda payg'ambarimiz huzuriga elchi (Jabroil) kelib, Haqning salomini yetkazganligi va oshiq o'z mahbubining visoliga erishmoq niyatida ekanligini xabar qilgani, payg'ambarimiz yaratuvchining huzuriga borganlarida ummatlarining gunohini kechirishni iltimos qilganlari va barcha istaklari birma-bir qabul qilinganligi haqida so'z boradi.

5-bob so'z ta'rifida. Navoiy bu bobda so'zga yuksak baho berar ekan, shunday yozadi:

So'z kelib avval-u, jahon so'ngra,

*Ne jahon, kavn ila makon so 'ngra...
Alloh-Alloh, ne so 'z durur bu so 'z
Mundin ortuq yana bo 'lurmu so 'z?
Jism bo 'stonig 'a shajar so 'z dur,
Ruh ashjorig 'a samar so 'z dur.*

6-bob ulug' salaflar Nizomiy va Dehlaviy madhiga bag'ishlangan. Sho'ir dastlab badiiy adabiyotdagi ikki adabiy tur, ya'ni nazm va nasr ta'rifiga to'xtalib, ularni bir-biriga qiyoslaydi va nazmning nasrdan ustunligini isbotlar ekan, she'riy asarlarda chiroyli, ta'sirli ibora va badiiy san'atlarni ko'plab qo'llash va injuni ipga tergandek misralar tizish mumkin, nasr esa sohib yuborilgan javohirdek go'zallikdan mahrum deb yozadi. Shuningdek, nazm shakllari orasida masnaviyga alohida to'xtalib, uni "vasi' maydon" (keng maydon) deb ataydi:

*Masnaviykim, burun dedim oni,
So 'zda keldi vasi' maydoni.*

Nizomiy haqida so'z yuritar ekan, u bu maydondan to'pni olib chiqib ketdi, ya'ni go'y va chavgon o'yinida yutdi: masnaviy yaratishda birinchi bo'ldi deydi:

*Qoyili xush kalomi zebogo'y
Kim, bu maydon elidin elitti go'y...
Ahli nazm afsahul kalomi ul,
"Xamsa"ning nozimi Nizomiy ul.*

Xusrav Dehlaviyni Nizomiy beshligiga javob yozgan ijodkor sifatida ta'riflar ekan, uni "hind sehgari, qaro balo, ofati Xudo" kabi tashbehtar bilan madh qiladi. Shuningdek, Navoiy bu ikki xamsanavisni shatranj o'yinidagi oq ot-u (Nizomiy) qora filga (Dehlaviy), o'zini oddiy piyodaga nisbat beradi:

*Cheksa shatranj iki saf oq-u qaro,
Xas ne qilg'ay, chu tushsa arsa aro.*

*O'zni topqay bisot aro payvast,
Ot ila pil ayog'i ostida past.*

Dostonning 7-bobi "hazrat shayxulislom mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy" madhiga bag'ishlangan. Navoiy uni fazl koni-yu ilm daryosi deb atar ekan, ustozini arab tilidagi bilimdonligi jihatidan "Kofiya" asarining muallifi Ibn Hojibga, tafsir ilmida yuzta Ibn Hojarga, fiqh ilmida Imomi A'zamga o'xshatadi. Jomiyning bu sohalarda yaratgan asarlari, devonlari va dostonlarining nomlarini keltiradi.

8-bob salaflarning nuqsonlari haqida bo'lib, shoir bob sarlavhasida ustozlar asarlariga mulohaza bildirayotgani uchun uzr so'raydi. Navoiy bu bobda doston yaratishdan oldin tush ko'rganini, tushida 7 gunbaz, 7 gunbaz ichida 7 xil rangdagi mutasaddiyini ko'rganini, shu yerda 7 kun yurib, 7 afsona tinglaganini, bir mo'ysafid unga avvalgi dostonlardagi qusurlarni tuzatishni so'raganini, uyqudan uyg'ongach muabbir (tush ta'birchisi) aytgan dalillardan so'ng doston yozishga kirishganini aytadi. Shundan so'ng o'zigacha yozilgan Bahrom haqidagi dostonlarni sinchiklab o'qib chiqqanini ta'kidlab, ustozlarning hurmatini o'z o'rniga qo'ygan holda ularga uchta e'tiroz bildiradi:

*Biri bukim yo'q anda moyayi dard,
Qildilar ishq so'zidin ani fard.*

Shoirning fikricha, oldingi xamsanavislarning birinchi aybi dard-u g'amga yetarlicha ahamiyat bermasdan, uni ishqdan xoli tasvirlaganliklaridadir.

*Yana biri bukim anda ba'zi ish,
Zohiran nomunosabat tushmish:
Buyla tuhmatki, aysh uchun Bahrom
Yasadi yetti qasr surgali kom.
Yetti iqlim shohidin yeti qiz,*

*Har biri lutf-u husni g'oyatsiz...
Uyqu komin olurg'a mastona,
Sho'xlarg'a buyurdi afsona...
Anga xud g'aflat o'ldi da'b-u sifat,
Uyqusig'a fasona ne hojat?*

Bahromning ayshi uchun yettita qasr qurilishi, yetti malikaning o'zi mastlikdan g'aflat holatiga yetgan shohni uxlatish uchun afsonalar aytishlari asossiz, deydi Navoiy. Buning ustiga, agar afsona aytish zarur bo'lsa, ulardan boshqa qissaxon yo'qmididegan savolni ham qo'yadi.

Salaflarning uchinchi kamchiliklari dardsiz va nodon kishining sarguzashtlarini ko'rsatishni maqsad qilib olganliklarida edi:

*Bo'yla nodon uchun yozib avsof,
Anga qilgaylar o'zlarin vassof.*

Bob so'ngida Navoiy g'oyat kamtarlik bilan o'zini salaflarning faqir shogirdi deb atab, men go'yo pashshadek bo'lib, fil ishini qilmoqchiman, osmon tomiga narvon, quyoshga shamdon yasamoqchiman, o'rgimchak ipidan kamand qilib, ajdahoni tutmoqchiman deydi va Allohdan doston yozishda madad so'raydi.

9-bob Sulton Husayn Boyqaro madhi haqidadir. Bu bobda Navoiy falakdagi barcha sayyoralarga birma-bir murojaat qilib, ularni o'z hunarlaridan bir oz tinmoqqa chaqiradi, shoh madhida qalam surmoqchiligini aytadi. Shohning ikki tomonlama xon avlodi ekanligini, ulug' otasi Chingizxon, onasi Alanquvo ekanligini aytadi. Navoiy Husayn Boyqaroni cheksiz saxovat, chumoliga ham marhamatli adolat egasi deya ta'riflab, adolat bobida hatto Anushervon ham uning oldida xijolat chekadi deb yozadi:

*Anda Nushirvon kerak boqqay,
Bos'nini erg'atib ovuch qoqqay.*

*Chun qilib yod o'z adolatidin,
Mutag'ayyir bo'lub xijolatidin.*

Dostonning o'ninchi bobi "Xamsa"ning avvalgi dostonlarida keltirilmagan Bilqisi Soniy – *Xadichabegim* madhiga bag'ishlangan. Bu holat tasodifiy bo'lmay, shoir sulton Husayn Boyqaro saroyida alohida nufuzga ega bo'lgan malika Xadichabegimni ta'riflash orqali shoh Bahrom yonidagi Diloromga ishora qiladi, bu uning shoh taqdirida muhim o'rin tutganligiga ishora edi. Navoiy talmeh san'ati vositasida Xadichabegimni payg'ambarlar ayollari Sorai Uzmo (Ibrohim payg'ambarning rafiqalari) va Xadichai Kubro (Muhammad (s.a.v)ning ayollari)ga o'xshatadi. Navoiyning yozishicha, uning go'zalligidan sunbul va nargis gullari tashvishda, nargis uyatda. Shuningdek, Navoiy Xadichabegimning ikki farzandi Muzaffar Mirzo va Shoh G'arib Mirzo (Shoir G'aribiy) haqida ham to'xtalib o'tib, ularni ikki saodatli yulduz, ularning onasini oy-u quyoshga o'xshatadi:

*Oy-u kun yo'q agarchi monanding,
Ikki sa'd axtar ikki farzanding.*

11-bob Bahrom tarixi haqidadir. Navoiy Bahromni sostoniyalar hukmdori Yazdijurdning o'g'li bo'lsa-da, otasidan farqli ravishda ezgu ishlar bilan shug'ullandi, otasi nimani buzgan bo'lsa, u barchasin qaytadan tuzdi deydi:

*Har ne ul buzdi, bu borin tuzdi,
Bu borin tuzdi, har ne ul buzdi.
Kimni o'turdi ul qilib majruh,
Bu qo'yub marham, o'ldi jismig'a ruh.*

Navoiy salafilar bo'yicha shoh Bahrom tarixini qisqacha bayon etib, endi men aytadigan qissa avvalgilaridan farq qiladi deydi va Allohga shukrona keltirib, Bahrom qissasini boshlaydi.

Asosiy voqealar oʻn ikkinchi bobdan ibtido topadi. Yetti iqlim shohi boʻlgan Bahrom ov qilib yurib, rassom Moniyning uchratib qoladi. Moniy Chinda tengi yoʻq bir goʻzal Dilorom haqida xabar berib, oʻzi chizgan suratni shohga taqdim etadi. Shoh suratni koʻrishi bilan Diloromga oshiq boʻlib qoladi va Chin mamlakatining bir yillik xirojini toʻlab, qizni saroyga keltiradi. Shundan keyin Bahrom qizga butunlay mahliyo boʻlib, davlat, mamlakat ishlarini unutadi, kayf-safoga berilib ketadi. Natijada saltanat-u mamlakatda tartibsizliklar boshlanib, xalq orasida shikoyat va norozilik kuchayadi, shaharlar vayronaga aylanadi:

Ish anga yettikim bu yangligʻ shoh,

Mulk ishidin emas edi ogoh.

Boqmayin mulk ila sipoh sori,

Qilmayin mayl dodxoh sori...

Firdavsiy “Shohnoma”sida tasvirlanganidek, ovda kiyik hodisasi yuz beradi. Dilorom Bahromning merganlik mahoratini “mashqning natijasi”, – deb aytadi. Shoh mastlikda qizning oyoq-qoʻlini oʻz sochlari bilan bogʻlab, biyobonga tashlab kelishni buyuradi. Ertasi gʻazab va mastlik tarqab, afsuslanganidan keyin, uni oʻzi borib izlaydi, lekin topa olmaydi. Hijron azobidan oʻzini butunlay yoʻqotadi:

Joni ikki balo arosinda,

Moʻr ikki ajdaho arosinda.

Ne oʻluk erdi, ne tirik soni,

Boʻlmas erdi tirik demak oni.

Shohning ahvoli ogʻirlasha boradi. Navoiy bu oʻrinda shoh Bahromda endi chin maʼnoda oshiqlik sifatleri paydo boʻlayotganligiga eʼtibor qaratadi, zero ruhiy iztiroblar va hijron dardi ishqning ortishiga sabab boʻladi. Iztirobdan oʻzini butunlay yoʻqotgan Bahromning avval falakka, soʻng xalqi va qoʻshiniga murojaat qilib, notavon jonini bu azoblardan qutqarishini soʻrab chekkan faryodlari dostonning 16- va 17-boblarida nihoyatda taʼsirli tarzda ifodalanganligini koʻramiz:

*Manga ne qilding, ey sipehr, oxir,
Yo 'q emish senda zarra mehr, oxir!
Mehrsizlik ishim aro qilding.
Ro 'zgorim yuzin qaro qilding...
Naylayin bu jahonni jonsiz men?
Bal jahon birla jonni onsiz men?
Jonni olg 'ilki, to 'ymisham, billoh!
Ko 'ngul o 'lmakka qo 'ymisham billoh!..
Yorliq qayda ketti, yoronlar?
Yo 'q musulmonliq, ey musulmonlar!
O 'lturub g 'avrima yeting oxir!
Ming o 'lumdin xalos eting oxir!*

Saroy ahli tashvishga tushadilar. 400 hakim va tabib to'planib, ikki yil davomida shohni davolaydilar. Shoh bir oz o'ziga kelganday bo'ladi. Maslahat bilan yetti iqlim shohi yetti qasr quradilar. Bu yetti qasr yetti shohning mamlakatiga olib boradigan yo'l ustida quriladi. Rassom Moniy uning har birini alohida bir rang bilan bezaydi. Bahrom ularni tomosha qilarkan, kasali tuzala boshlaydi. Yetti rangdagi yetti qasr bitgach, yetti iqlim shohining yetti qizi Bahrom bilan nikohlanadi. Yetti qasrning har biri yetti sayyoradan birining rangiga mos bo'lib, haftaning shu sayyora homiy hisoblangan kuniga xos edi. Shanba kuni uchun shu kunning homiysi Zuhal (Saturn) sayyorasining rangiga mos qora qasr, yakshanba uchun uning homiysi Quyosh sayyorasining rangiga mos sariq qasr, dushanba uchun dushanba homiysi Oy sayyorasining rangiga mos keluvchi yashil qasr, homiysi Mirrix (Mars) bo'lgan seshanba kuni uchun Mirrix rangini ifodalovchi qizil qasr, chorshanba kuni uchun uning homiysi Utorud (Merkuriy) rangiga mos moviy qasr, payshanba uchun Mushtariy (Yupiter) rangiga mos keluvchi sandal qasr va juma uchun uning homiysi Zuhra (Venera) rangiga mos oq qasr barpo qilingan edi. Navoiy har bir qasrdagi shoh, malika va musofir hamda jihozlar tasvirini berishda ranglarning turfa xil

nomlanishlaridan ustalik bilan foydalanadi. Hikoyatlarda ham ramziy ma'no mujassam topgan bo'lib, ularning hammasida hikoyat qahramonlari qiyinchiliklar orasida toblanib, oqibatda baxtiyorlikka erishadilar. Bu kelajakda Bahromni ham baxt-tole kutayotganligidan dalolat edi. Darhaqiqat, u yettinchi hikoyatda o'z vafodori Diloromdan xabar topadi. Barcha hikoyatlarda shoh yoki shahzoda ishtirok etadi, dabdabali qasrlar, tilla-javohirlar, qimmatbaho harir liboslar, tantanali bazmlar, serishva, jafokor va ayni paytda vafodor go'zallar tasviri "Ming bir kecha"dagi hikoyatlarni eslatadi. Hikoyatlarda shoh va shahzoda obrazlarining muhim o'rin tutishi ularning aynan shoh (Bahrom) uchun aytilganligiga ishora. Har bir hikoyatdagi voqealar, albatta, safar asnosida ro'y beradi, hikoyat qahramonlari sayr-u sayohat orqali o'z maqsadlariga erishadilar. Bu bilan Navoiy sayyoralarining tinimsiz harakatiga, shu bilan insonning o'z maqsadiga yetish uchun sa'y-ko'shish qilmog'i darkorligiga ishora qiladi. Hikoyatlarda jo'mardlik, vafodorlik, taqvo kabi futuvvat – javonmardlik g'oyalari ham kuylangan bo'lib, bundan muallifning maqsadi mazkur hikoyatlar orqali shoh Bahrom ongiga juvonmardlik g'oyalarini singdirib borishdir. Hikoyatlarining mavzu ko'lamini keng, ularda hayot masalalaridan tortib, turmush voqea-hodisalarigacha, tabiat va uning bag'ridagi nabotot va hayvonot olamidani tortib, koinot va undagi jismlargacha – barcha-barcha masalalar hamda ularga xos xossa va xususiyatlar mujassamlashgan. Mutafakkir shoirning xayoloti Movarounnahr, Xuroson, Ajam, Hindiston, Sarandib, Misr, Rum, Yaman va boshqa o'lkalarga, sarhadsiz sahrolarga, to'lqin urib yotgan dengizlarga, sirli-sinoatli jazirama joylarga parvoz qiladi, turli manzil va makonlar, xilma-xil e'tiqod va ijtimoiy guruhlarga hamda kasb-korga ega bo'lgan ko'plab kishilarning timsollarini, ularning shakli-u shamoyillarini yaratadi.

Shanba kuni uchun shu kunning homiysi Zuhul (Saturn) sayyorasining rangiga mos qora qasr – mushkfom qasrda shoh Bahrom hindistonlik sayyohning Farrux va Axiy haqidagi hikoyatini tinglaydi. Unga ko'ra, Hind mamlakati podshosi

Jasratxonning aql-u husnda tengsiz o'g'li shahzoda Farrux tushida bir parivashni ko'rib, sevib qoladi. O'sha sanamga yetishish ishqida safarga chiqqan shahzoda Halab shahrida tushida ko'rgan mahvashni uchratib, hushidan ayriladi va taqdir taqozosi bilan birgina palosga o'ranib, og'ir ahvolda qolganida unga saxovati bilan nom qozongan Axiy yordam ko'rsatadi. U bilan suhbatda bo'lgan Axiy Farruxning zakovatiga qoyil qoladi va shahzodaning dardiga davo topishni chin dildan xohlaydi. Nihoyat Farruxning ishqiy tushgan go'zal o'z ayoli ekanini bilib oladi va jufti halolini taloq qilib, Farruxga nikohlab beradi. Farrux o'z yurtiga qaytadi va otasi vafot etgani uchun taxtga o'tiradi. Bu orada Axiyning ishlari orqaga ketadi, tuhmatga uchraydi, o'z yurtidan qochib, jon saqlab qoladi. Farrux uylangach, Axiyning mardligidan hayratga tushadi, ayolni o'ziga singil kabi tutadi va do'stini izlaydi. Axiy esa Hind mulkiga borib qoladi, shu yerda ikki do'st topishadi, Farrux singlim deya Axiyning o'z ayolini unga katta to'y bilan nikohlab beradi. Shu tariqa ular chin do'st sifatida, bir-biridan yordam va mehrini ayamay uzoq umr kechiradilar. Mazkur hikoyat yakunida sayyoh shoh Bahromga o'zining Axiy avlodidan ekanini ma'lum qiladi. Shoh uni siylab, saroyda olib qoladi.

Yakshanba kuni uning homiysi Quyosh sayyorasining rangiga mos sariq qasrda shoh Bahrom rumlik sayyohning Zayd Zahhob haqidagi hikoyatini tinglaydi. Unga ko'ra, juda o'tkir bilim egasi bo'lgan Zayd Zahhob ismli zargar Rum mamlakati podshosining eng yaqin do'sti edi. U shohning ishonchini qozongan bo'lib, hukmdor u bilan har bir ishda maslahatlashar edi. Bir kuni Zayd Zahhob shohga oltin taxt yasab berishni taklif qiladi. Shoh ko'nadi va xazinadan ikki ming botmon oltinni zargarga olib beradi. Zayd Zahhob sirti oltin bilan qoplangan, lekin ichki tomoni kumush bilan to'ldirilgan taxt yasaydi. Qolgan oltinlarni esa o'zlashtirib yuboradi. Shoh bundan bexabar bu hashamatli taxtga chiqib, qoyil qoladi. Zayd Zahhobning dushmanlari shohga uning firibini ma'lum qiladilar. Shoh Zayd Zahhobni zindonga tashlaydi. Zayd zindondan qochib,

Qustantaniyaga borib, butxonada rohiblik qila boshlaydi. U yerda hammani o'ziga muxlis qilib, butxonaning oltindan yasalgan barcha buyumlarini shisha va boshqa metallar bilan almashtirib qo'yadi. Keyin o'z muxlislariga bu yurtni tark etishini aytganda, hamma uni yig'lab kuzatadi, Zayd keta turib, ularga bir xat qoldirganligi haqida ma'lum qiladi. "Rohib" ketgach, muxlisleri uning xatini topib, ko'zga surib o'qisalar, unda Zaydning hamma kirdikorlari bitilgan bo'ladi. Butparastlar oh-voh qilib qolaveradilar. Zayd esa Runga qaytib, bemor bo'lib qolgan shohni davolaydi, qayta uning ishonchiga kirib, dushmanlarini jazolaydi. Hikoya yakunlangach, sayyoh o'zining Rum mamlakatidan, Zayd Zahhobning avlodlaridan biri ekanligini aytadi. Shoh Bahrom bu sayyohga ham muruvvat ko'rsatib, saroyda olib qoladi.

Dushanba kuni shu kun homiysi Oy sayyorasining rangiga mos yashil qasrda shoh Bahrom misrlik sayyohdan Sa'd haqidagi hikoyatni tinglaydi. Unga ko'ra, misrlik boy xojaning kamolga yetgan o'g'li Sa'd otasi kabi musofirlarni mehmon qilishni xush ko'rar edi. Bir kuni uning dargohiga shahrisabzlik ikki sayyoh kelib, o'z yurtlaridagi g'aroyib xususiyatli dayr – butxona haqida aytib beradilar. Mazkur butxonaning o'ziga xos tomoni shu ediki, kimki u yerda bir kun tunasa, tush ko'rar va tushi, albatta, o'ng kelar edi. Sa'd shu butxonaga borish ishqiga tushadi va otasining roziligini olib, safarga otlanadi. Unga shahrisabzlik ikki musofir hamrohlik qiladilar. Dayrga yetib borgan Sa'd tush ko'radi. Tush ta'sirida xayolga botib o'tirsa, eshikdan bir mo'ysafid kirib keladi. Mo'ysafid unga o'z taqdirini aytib beradi va Sa'dni ancha vaqtdan buyon kutayotganligini ma'lum qiladi. Sa'd bu donishmand mo'ysafidning maslahat va ko'rsatmalari bilan harakat qiladi. Uzoq sarguzashtlarni, sinovlarni boshdan kechirib, gul yuzli go'zalning vasliga yetishadi. Sayyoh hikoyatni yakunlagach, o'zining Shahrishabzdan, Sa'd avlodlaridan biri ekanligini ma'lum qiladi. Shoh Bahrom sayyohni Shahrishabzga voliy etib tayinlaydi. Umuman olganda, hikoyatning bosh qahramoni Sa'dning

sarguzashtlari Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhod bilan bogʻliq voqealarni yodga soladi.

Homiysi Mirrix (Mars) boʻlgan seshanba kunida Mirrix rangiga mos qizil qasrda shoh Bahrom navbatdagi sayyohdan shoh Juna va uning doʻsti Masʼud haqidagi qissani tinglaydi. Roviyy shohga Dehlida sultonlik qilgan Junaning saxovati cheksiz ekanligini hikoya qilish bilan oʻz qissasini boshlaydi. Sulton Juna shu qadar saxovatli boʻlib, uning saxiyligi chegara bilmasdi. Bir kuni bir musofir uning mehmoni boʻlib, bir koʻzgu sovgʻa qiladi. Koʻzgu rost gapirgan odamning yuzini oq, yolgʻonchining yuzini qora koʻrsatar edi. Shoh Juna musofirni siylab, undan mendan ham oʻtadigan saxiy bormi, deya soʻraydi. Yoʻq, deb javob bergan sayyohning yuzi koʻzguda qora boʻlib koʻrinadi. Shohning qistovidan soʻng uyalib, “sizdan ham saxiyroq odam bor, bu goʻzal Taroz oʻlkasida yashovchi Masʼuddir”, deydi. Shoh esa hammaga ruxsat berib, payt topib, Tarozga joʻnaydi. U yerda Masʼud bilan uchrashib, doʻst tutinadi. Masʼudning fasohatidan hayratda qoladi. Masʼud unga oʻzi uchun eng aziz boʻlgan nimaiki boʻlsa, hammasini ikkilanmay hadya qilib yuboradi: sevimli, kuy va qoʻshiqda mohir kanizagini, mayi tugamaydigan jomini, Gulgun laqabli otini. Bundan taʼsirlangan shoh Masʼudni Tarozga hokim qilib tayinlash toʻgʻrisida farmon beradi. Taroz hokimi Jaypur esa bundan bezovta boʻlib, Ballu degan qattol vaziri bilan maslahatlashib, Masʼudni yoʻq qilish rejasini tuzadi. Unga koʻra, Jaypur Masʼud bilan doʻst tutinadi, bir kuni Masʼudni mast qilib, bir chohga tashlatadi. Soʻng qaygʻurgan boʻlib yigʻlaydi, boshqalarni ham ishontiradi va Masʼud uchun motam ham ochtiradi. Ballu esa Masʼudni azoblay boshlaydi. Jaypurning bir goʻzal qizi boʻlib, Masʼudga oshiq edi. U Masʼud haqida bilib qoladi va ikki sodiq kanizi yordamida uni qutqarib, davolaydi va otasining saroyidan Masʼud bilan qochib ketadi. Jaypur ularga yetolmay dogʻda qoladi. Ikki sevishgan yoʻlda koʻp qiyinchilik bilan Dehliga borib qoladilar. Masʼud oʻzi mehmon qilgan Junaning shoh ekanini bilmasdi, shuning uchun pul topish ilinjida shoh saroyiga borganda sehrli jomini, kuy chalib, qoʻshiq

aytayotgan kanizini, Gulgun otini ko'rib, avval hayron bo'ladi, keyin shohning ham Juna ekanini bilib qoladi. Mas'udni tanigan boshqa mahramlar bu haqda Junaga aytadilar. Do'stini yo'qotib. hajr azobida qolgan shoh bundan bag'oyat shodlanib, do'stiga mehribonlik ko'rsatadi, uning yorini ham olib keltiradi, Jaypur va Balluni esa jazolaydi.

Hikoyasini shu tariqa yakunlagan sayyoh shoh Bahromga o'zini Tarozdan, Mas'ud avlodlaridan biri ekanligini aytadi. Bahrom uni Tarozga hokim qilib tayinlaydi.

Chorshanba kuni uchun uning homiysi Utorud (Merkuriy) rangiga mos moviy qasrda Bahrom navbatdagi jahongashtadan Mehr va Suhayl haqidagi hikoyani tinglaydi. Unga ko'ra, Adan degan joyda bir orolni o'z makoniga aylantirib, dengizda qaroqchilik qilishni kasb qilgan Jobir degan yo'lto'sar Behishtsaro shahrining go'zal malikasi sayr qilib chiqqan qayiqni qo'lga kiritadi. Lekin Mehr shu qadar go'zal ediki, Jobir uni ko'rib, hushini yo'qotardi. Shuning uchun qizga yaqinlasha olmay, o'zining baland devorlar bilan o'ralgan bog'ida yashashiga ruxsat beradi. Mehraing otasi Navdarshoh Yaman mamlakati shohi No'monning o'g'li Suhaylga qizini bermoqchi edi, shuning uchun shoh No'mon o'g'lini kemaga chiqarib, Navdarning mamlkatiga yuboradi. Suhayl dengizda Jobirga yo'liqadi va Jobirning biylasi tufayli unga asir tushadi. Suhaylning jang qilishiga, jasoratiga qoyil qolgan Jobir uni o'ldirmasdan o'z bog'idagi bir chohga tashlatadi. Shoh Navdar va No'mon o'zaro xat yozishib, birgalikda Jobirga hujum qilishga kelishadilar. Navdarshoh quruqlikdan, No'monshoh dengizdan Jobir ustiga qo'shin tortishga kelishadilar. Quruqlikdan kelayotgan Navdar ovga bo'lgan ishtiyoqi tufayli askarlaridan ajrab, Jobir qo'lga asir tushadi. Dengizda esa No'monshoh ham yengilib, dengiz qaroqchisiga tutqun bo'ladi.

Mehr visoliga yetisholmagan Jobir esa ichkilikka zo'r beradi. Mehr bog'da aylanib yurib, chohda yotgan Suhayl haqida xabar topib, uni qutqaradi. Suhayl Jobir bilan jang qilib, uni yengadi va tutqunlikdagi asirlarni ozod qiladi. Hikoyat so'ngida

barchalari murod-maqsadlariga erishadilar. Hikoya poyon topgach, shoh Bahrom roviyni munosib taqdirlab, uyquga ketadi.

Payshanba kuni shu kun homiysi Mushtariy (Yupiter) rangiga mos sandal qasrda shoh Bahrom Muqbil va Mudbir haqidagi qissani tinglaydi. Unga ko'ra, Muqbil va Mudbir Boxtar degan joydan Xovarga yo'l oladilar. Muqbil ibodatli, rostgo'y bo'lib, Mudbir kazzob va pastkash edi. Ular qaynoq vodiysi hamimdan birga o'tadilar. Mudbirning axmoqona gaplaridan Muqbil ko'p ozor chekib, undan voz kechmoqchi bo'lsa, Mudbir unga yolvorib, tavba qiladi. Ular shu tariqa safarda davom etadilar. Dengiz sohiliga borib, bir kemaga chiqadilar. Muqbil odatdagidek ibodat qilib, tasbih o'girib o'tirsa, Mudbir Xudoga shirk keltirib, valdiray boshlaydi. Shunda to'fon boshlanib, ularning kemasini g'arq qiladi. Bu ikkisi taqdir taqozosi bilan qutulib, qirg'oqqa chiqib, o'rmonga duch keladilar. Shu yerdagi bir daraxt kovagida buloq bo'lib, uning suvini ichgan odam mutlaqo ochiqmaligi, suvsamasligi, lekin yolg'on gapirsa, yorilib o'lishi haqida yozilgan bo'ladi. Muqbil va Mudbir bu suvdan to'yib ichib, yozuvni o'qisalar, buloq suvida boshi bilan sho'ng'ib cho'milgan odam g'aroyib voqealarni ko'rishi aytilgan ekan. Faqat rostgo'y odam cho'milishi mumkin, yolg'onchi esa kuyar ekan. Natijada, suvga Mudbir tusholmaydi, Muqbil buloqqa sho'ng'ib, bir qasrga duch keladi, u yerda bir mahvashga oshiq bo'lib qoladi... O'ziga kelib, suvdan chiqqanida esa oshiq bo'lgan go'zal ishqida o'zini yo'qotib bexud bo'ladi. Muqbil va Mudbir qirg'oqda bir kemaga duch keladilar. Bu kema sandal daraxti yog'ochi bilan to'la bo'lib, odamlari o'lib yotardilar. Gap shundaki, Xovar mamlakati shohining qizi kasalga chalingan bo'lib, tabiblar unga sandal daraxtidan yasalgan qasrda yashashni tavsiya qilganlari uchun ko'plab savdogarlar shu daraxt yog'ochlarini olib kelayotganlarida dengizda po'rtanaga tushib, chiqolmay, ochdan o'lgan edilar. Ular qirg'oqqa borganlarida, Xovar shohiga duch keladilar. Mudbir o'zini savdogar, kema egasi, Muqbilni qulim, deb tanishtiradi va shu zahoti yorilib o'ladi. Muqbil esa bor gapni yashirmay aytib beradi. Shoh uni

o'ziga kuyov qilishni xohlab, to'y boshlaydi. Malikaning qasriga borgan Muqbil xuddi buloqda ko'rgan holatiga duch keladi: sandal qasr, go'zal qizlar va... o'sha u sevib qolgan mahvash. Keyin ma'lum bo'ladiki, bu go'zal Xovar shohining qizi bo'lib, unga jinlar shohi oshiq bo'lgan ekan. Lekin qizga yetisholmagan jinlar shohi o'sha oroldagi daraxt kovagida qizning suvratini, uning qasrining nusxasini paydo qilib, o'zini ovutib o'tirarkan. Muqbil shunga duch kelgan ekan. Shu tariqa Xovar shohining go'zal qizi va rostgo'y Muqbil vaslga erishadilar. Hikoya yakunlangach, xushnud bo'lgan shoh Bahrom uyquga ketadi.

Juma uchun uning homiysi Zuhra (Venera) rangiga mos oq qasr barpo qilingan edi. Muborak juma (odina) kunida Bahrom oppoq – kofuriy kiyimda oq qasr ichida fil suyagidan yasalgan taxt ustida o'tirib, oq kiyimli go'zal bilan billur jomda oq may ichadi va Chin go'zali qoshida xorazmlik musofirning hikoyasini tinglaydi. Musofir o'zining Xorazmdan ekanligini, soz chalishini, iqlimdagi barcha ustozlar uning shogirdlari ekanligini, kutilmaganda bir chinlik savdogarning go'zal kanizagi Xorazmga kelgach, uning ishi kasodga uchraganini, kanizak huzuriga borib arz qilganini, uning sozini tinglab, tarixi bilan qiziqqanini va kanizak unga boshidan o'tganlarni so'zlab berganini aytadi. Shoh Bahrom aytilganlardan bu kanizak Dilorom ekanligini bilib, Diloromni olib kelish uchun Xorazmga sipohlarini jo'natadi.

Ko'ringanidek, Bahrom birinchi hikoyani o'z ruhiy holati kabi qora qasrda, qora libosda tinglagan edi, chunki u o'z Diloromidan ayrilgan, hijron zulmatiga giriftor bo'lgan edi. Yettinchi hikoyani esa oq qasrda oq libosda tinglaydi va bu hikoyat unga visol umididan darak beradi, qalbiga yorug'lik olib kiradi. Lekin Bahrom Diloromni topgach, yana ovga, aysh-ishratga beriladi. Bir kuni u saroy ahli, sonsiz qo'shin va Dilorom bilan katta ovga chiqqanida, yomg'ir yog'adi va eski botqoqning og'zi ochilib Bahromni Dilorom va butun arkoni davlati bilan birga yer yutadi.

Bahrom bo'lib o'tgan voqealardan va tinglagan hikoyatlaridan xulosa chiqarmaydi: oshiqlik va shohlikni bir

qiyofada olib bormoqchi bo'ladi, aslida esa chin oshiqlik toj-u taxt va boylik bilan muvofiq kelmaydi:

*Ishq ila shohlig' muvofiq emas,
Ishq lofida shoh sodiq emas.*

Shu bilan birga shoh Bahromning halokatini tasavvuf ta'limotiga ko'ra yana shunday izohlash mumkin: Butun jonzotlar, tabiat, hayvonot va nabotot olami Allohning zuhuridir. Ularning barchasini Alloh yaratgan ekan, ularga zarar yetkazish Yaratgan irodasiga qarshi borish bilan tengdir. Shu ma'noda shoh Bahromning tabiatga yetkazgan jabr-zulmi uning halokatiga olib keldi.

Shoir Bahrom timsoli munosabati bilan o'z davridagi ba'zi dolzarb masalalarga ham ishora qilib o'tgan. Xususan, haqiqiy hukmdor har qanday illatlardan xoli bo'lishi zarurligi, xalq ahvolidan g'ofillik va aysh-ishratga berilish oxir-oqibat shohni va mamlakatni tanazzulga olib borishi mumkinligi shoir aytmoqchi bo'lgan muhim g'oyalardan biridir.

Shu ma'noda Navoiy dostonning o'ttizinchi bobida tush ko'rganligini aytadi. Tushida shoirni shoh Bahrom yo'qlab, uni nazm mulkida sohibqiron deb atab, yozgan dostoniga yuqori baho beradi va farzandi qatorida sanalmish Sulton Husayn Boyqaroni ogohlantirishini iltimos qiladi va unga quyidagi so'zlarni yetkazishni aytadi:

*Ki jahon kimsaga vafo qilmas,
Shohlig' tarkiga kiro qilmas.
Shahki, ming yil oning hayotidir,
G'araz – o'lganda yaxshi otidur.*

“Sab'ai sayyor”da Navoiy dahosining qudrati shoirning o'z tilidan aytilgan o'rinlarda ham namoyon bo'ladi. Jumladan, doston yakuniga yaqinlashganda shoir asarning yozilish muddatiga to'xtalib, shunday deydi:

*Bo 'ldi chun bu raqam ishi tayyor,
Qo 'ydum otini "Sab'ai sayyor".
Tortqonda bu turfa savti maddin,
Bayti besh mingga tortti addin.
Manga ayyomi garchi yod ermas,
Lek to 'rt oydin ziyod ermas.
Bo 'lsam o 'zga umurdin emin,
Bor edi to 'rt hafta ham mumkin...
Garchi tarixi erdi sekkiz yuz,
Sekson o 'tmish edi yana to 'qquz.
Oyi uning jumodiussoniy,
Panjshanba yozildi unvoni.*

Doston xafif bahrining *xafifi musaddasi maxbuni mahzuf*
(ruklari va taqti'i: foilotun mafoilun failun) vaznida yozilgan.

“SADDI ISKANDARIY” DOSTONI HAQIDA

Bu asar dunyodagi buyuk siymolardan biri, uch sohibqironning eng mashhuri jahongir Iskandarga bag‘ishlangan bo‘lib, "Xamsa"ning yakunlovchi dostonidir. Sharqda u Iskandar Zulqarnayn (“ikki shoxli” yoki “kun chiqish va kun botish hukmdori”) nomi bilan mashhur. Dastlab Iskandar mavzusi Firdavsiyning “Shohnoma” dostonida qalamga olingan. Keyinroq Nizomiy Ganjaviy u haqda maxsus “Iskandarnoma” degan doston yozadi. Xusrav Dehlaviy bu dostonga javob tarzida “Oyinayi Iskandariy” asarini yozgan bo‘lsa, Abdurahmon Jomiy o‘z dostonini “Xiradnomayi Iskandariy” deb ataydi. Alisher Navoiy esa bu mavzuni turkiy tilda qayta ishlab, o‘z asariga “Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori”) deb nom beradi.

“Saddi Iskandariy” Navoiy “Xamsa”sidagi eng yirik doston bo‘lib, 89 bob va 7215 baytdan tashkil topgan. Dostonning muqaddimasi 14 bobni o‘z ichiga oladi.

Birinchi bob an'anaviy hamd – Allohning sifatleri ta'rifiga bag‘ishlangan. Navoiy ushbu bobda tasavvuf ta'limoti asosida olamning yaratilish tarixiga to‘xtalib o‘tadi: 9 qavat osmon, sayyoralar, yulduzlar turkumining har biriga alohida ta'rif beradi. Yaratganning buyukligiga hamd-u sano aytadi. Bularning barchasidan maqsad eng oliy zot – Odamni yaratish ekanligini ta'kidlaydi:

*Karam birla xalq aylagay olame,
Bu olamda maqsud anga odame.
G'araz odame anga olam tufayl,
Nekim g'ayri olamdur, ul ham tufayl.*

2-bob munojotni o‘z ichiga oladi. Navoiy bobda Allohning karami kengligi haqida gapirar ekan, banda zoti mavjud ekan, uning gunoh ishlar qilishi tabiiy degan aqidani ilgari suradi:

Ilohiy, alarkim gunahkor ekin,

*Sen o'tkarmagan ne gunah bor ekin?
Chu har mujrimelim, sen etting karam,
So'rulmas hamul jurm ila o'zga ham.
Agar afv birla karam budurur,
Bori xalqning jurmi ma'rufdurur.*

Munojot so'ngida Navoiy "quyosh yerni o'z nurlari bilan munavvar qilgan chog'da zarralar orasidagi farqni fahmlab bo'lmaganidek, zarralarga karam qilgan chog'ingda Navoiyga ham bir zarra kabi karam aylagil, uning gunohlarini kechirgil" deb iltijo qiladi:

*Yorurda quyosh partavidin saro,
Qachon farq o'lur fahm zarrot aro.
Qilur vaqt bu zarralarg'a karam,
Navoiyg'a lutf ayla bir zarra ham.
Sazo andin ar jurmu pindor erur,
Sen ul qilki, sendin sazovor erur.
Xato aylaganni hisob aylama,
Xatosig'a loyiq azob aylama.*

Dostonning 3-bobi "sayyid ul mursalin" (payg'ambarlar ulug'i) rasuli akram vasfi (na't)dan iborat. Navoiy dastlabki baytlarda payg'ambarlik nuri haqida gapirar ekan, Odam Ato unga o'g'il, qolganlar nabira qatoridadir deydi va barcha muqaddas kitoblarda uning xususiyatlari bayon qilinganligini ta'kidlaydi. Rasuli akramning tug'ilishi go'yo ko'kda yana bir quyoshning porlashiga o'xshatiladi:

*Sening tug'mog'ing ravshan aylab jahon,
Aningdekki, tuqqay quyosh nogahon.*

An'anaga muvofiq, na'tdan so'ng me'roj tuni ta'rifi keladi. Navoiy bu bobda payg'ambarimizning birin-ketin 9-osmonga ko'tarilganlari, sayyoralarning bu holatni ko'rib, hayratga

tushgani, nihoyat Lomakon olamiga sayr qilib, 70 ming qavat parda ko'tarilib, Janobi Haq bilan diydorlashganlari jarayonini kuchli pafos bilan tasvirlaydi. Ularning yerga qaytishlari ham falak ahli va maloyiklar tomonidan chuqur hayrat bilan kuzatilgani betakror badiiy san'atlar vositasida bayon qilinadi:

*Falak ahli ichra alolo tushub,
Malak xaylig'a sho'r-u g'avg'o tushub.
Maloyik tutub yo'l boshin javq-javq,
Tamoshosida borcha ko'nglida shavq.
Jamolig'a chun ko'zlarin ochibon,
Tabaq nurlar boshig'a sochibon.
Anga nur sochmoqqa monand bu
Ki, sochqay kishi Bahri Ummong'a suv.*

Dostonning 5- bobi “Xamsa” takmili (mukammal bitkazish) xususida bo‘lib, Navoiy bu bobda unda “Xamsa” yozish havasi ancha ilgari, Nizomiy va Dehlaviy “Xamsa”larini o‘qib yurgan chog‘laridayoq uyg‘onganligini bayon qilib, ulug‘ ustozlari ruhidan madad so‘raydi:

*Bu vodiy aro Xizri rohim bo'ling,
Qayon yuz ketursam panohim bo'ling.
Burundin chu ko'rguzdunguz yorliq,
Base yetti sizdin madadkorliq.
Kichik erkanimdin bo'lub qoshima,
Ulug' muddao soldingiz boshima.*

6-bob so‘z ta’rifi, Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy madhiga bag‘ishlangan.

Navoiy bu bobda dastlab so‘zga ta’rif berar ekan, uni o‘z ahamiyati bilan inson idrok etgan hamma narsadan yuqori deb baholaydi, uni “javhari jon”, “obi hayvon” degan sifatlashlar bilan madh qiladi:

*Biyikrak maqom ichra aflokdin,
Ne aflokdin, vahmu idrokdin...
Bashar zotida javhari jon ham ul,
O'luk jismi-da obi hayvon ham ul.*

Navoiy soʻz xazinasiga ega boʻlganlarning nodiri yaktosi sifatida Ganjada parvarish topgan zot Nizomiy Ganjaviyni tilga olib, kotiblarning homiysi Atorud (Merkuriy) uning xizmatkoridir deydi. Shuningdek, bu bobda Nizomiy beshligiga munosib javob bitgan Xusrav Dehlaviy ham madh etilib, unga soʻz jodugari, ilm-hikmat bilimdoni deb taʼrif beriladi. Soʻz avjida Nizomiy quyosh boʻlsa, Dehlaviy Mushtariy kabidir deyiladi:

*Soʻz avjida gar ul mahi xovariy,
Bu gar yoʻq mahi xovariy, Mushtariy.*

7-bob Nizomiy va Dehlaviyning nazmdagi izdoshlari Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhiga bagʻishlangan. Navoiy kitobot (harf) sanʼati vositasida Jomiyning taxallusiga ishora qilib, uning nazmini “jom” va “may” deb taʼriflaydi va bu nazmdan yer-u koʻk eli mast-u notavon boʻlganini aytadi:

*Dema jom ila mayki, nazmi ravon,
Yer-u koʻk elin ayladi notavon.*

Shuningdek, Navoiy ushbu bobda Jomiyning gʻazal-u masnaviy janrlarida erishgan yutuqlariga ham toʻxtalib oʻtib, uning “Xamsa” tarkibiga kiruvchi dostonlarini nomma-nom sanab oʻtadi:

*Gʻazal dard-u soʻzini, vah-vah, ne dey,
Desa masnaviy, Alloh-Alloh, ne dey...
Boʻlub jilvagar tabʼi koʻzgisida
Ki, sabb ayladi “Xamsa” oʻtrusida...
Burun jilva aylab ayon “Tuhfa”si,
Berib olam ahliga jon tuhfasi.*

*Yana "Subha" jon rishtasin tor etib
Ki, har muhra bir durri shahvor etib.
Chu Yusuf so'zin oshkor aylabon,
Zulayho kibi elni zor aylabon.
Chekib xoma "Layliyu Majnun" sari,
Yuz ofat solib tog'u homun sari.
Bu damkim qilib xomasin durfishon,
Sikandar hadisidin aytur nishon.*

Bu ma'lumotlar adabiyotshunoslikdagi Jomiyning "Xamsa" yozgan-yozmaganligi bilan bog'liq bahslarga ham munosib javob bo'la oladi.

Dostonning 8-bobi – "Inoyat quyoshi vasfi va hidoyat buluti ta'rifida" deb atalib, bu bobda Navoiy kimgaki baxt-u iqbol yor bo'lsa, uning hamma ishida zafar bo'ladi, tikan ushlasa g'uncha, tuproq olsa oltin bo'ladi, bularning barchasi Xudodan, shunday ekan, unga shukrona bildirish kerak degan fikrlarni keltirar ekan, Alloh unga nazm yozish fazilatini taqdim qilgani uchun Unga shukrona aytadi va nazmning turli sinf (janr)larida shuhrat qozonganini faxr bilan bayon qiladi:

*G'azal tarziga avval aylab sitez,
Jahon ichra soldim ulug' rustaxez.
O'qur vaqti ahli salomat muni
Ko'rub olam ichra qiyomat kuni...
Har asnofi zikri emas sha'nima,
Bilur har kishi hoqsa devonima.*

Shuningdek, Navoiy nazmdagi bu muvaffaqiyatlariga qanoat qilmay, ulug' muddao "Xamsa" yozish niyatida ekanini, bu yo'lda Nizomiy va Dehlaviylarning nuroniy ruhiga, Jomiyning ilohiy quvvatiga Qur'on tilovat qilib, fотиha o'qiyman deb yozadi:

*Alarning ravoni pur anvorig'a,
Bu birning dog'i quvvati korig'a.*

*Qilib fotiha xatmi ixlos ila,
Ko'zum bahrida jismi g'avvos ila.*

9-bob Shoh G'oziy Husayn Boyqaro ta'rifiga bog'ishlangan. Navoiy bu bobda mubolag'a san'ati vositasida Muhammad (s.a.v) payg'ambarlar orasida alohida mavqeda bo'lsa, Sulton Husayn Boyqaro ham barcha shohlar ichida shunday maqomdadir deb yozadi. Shuningdek, uning janggohdagi mahoratini tasvirlar ekan, doston mazmuni bilan bog'liq ravishda dushmanlariga nisbatan saddi Iskandariydek g'ov chekadi, agar jahonda Iskandardek ulug'sifat zotni topish kerak bo'lsa, Sulton Husayndan boshqasi mos kelmaydi deb yozadi.

Dostonning 10-bobi shahzoda Badiuzzamon Bahodir madhidadir. Navoiy unga donishmandlik bog'ining sarvi, zamona ahlining shahzodasi deb ta'rif berar ekan, zoti ham, sifati ham malak (farishta)ga o'xshashini aytib, *tavze'* (bir tovushni bir necha marta takrorlash) va *takrir* (bir so'zni baytda ikki va undan ortiq holda takrorlash) san'atlari vositasida uning boshdan-oyoq yaxshilik va yaxshi xislatlardan iborat ekanligini bayon qiladi:

*Yig'ib yaxshiliq birla yaxshi qiliq,
Qiliqdek boshingdin ayoq yaxshiliq.*

11-14 boblarda qadimgi fors-eron shohlarining to'rt tabaqasi: peshdodiyalar, kayoniylar, ashkoniylar va sasoniylar tarixi haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Dostonning asosiy qismi 15-bobdan boshlanadi. Asosiy qism o'ziga xos kompozitsiyaga ega. Uni shartli ravishda quyidagi 4 qismga bo'lish mumkin:

- 1) Iskandar voqeasi – Iskandar hayoti bilan bog'liq biror voqea yoki hodisa bayoni;
- 2) nazariy masala – muayyan axloqiy muammoning ta'rifi;
- 3) hikoyat – shu axloqiy masalaga doir hikoyat;

4) hikmat – Arastu va Iskandarning suhbatlari.

Birinchi qism lirik xotimaga ham ega. Bu soqiy, mug‘anniy va Navoiyga murojaat tarzidagi baytlar bo‘lib, Nizomiyda “Iskandarnoma”ning birinchi qismi bo‘lmish “Sharafnoma”da soqiyga, ikkinchi qism “Iqbolnoma”da mutribga murojaatni ko‘rsak, Dehlaviy dostonida ham soqiy, ham mutribga murojaat mavjudligini kuzatamiz. Navoiyda esa soqiy va mutribdan so‘ng, o‘z-o‘ziga ham murojaat qilinganligi ko‘rinadi. Xususan, 15-bobning lirik xotimasi quyidagicha:

*Ayog‘chi, ber ul javhari g‘amzudo,
Dema g‘amzudo, jomi motamzudo.
Ki, andin sumursam g‘amim qolmasun,
Ato so‘gidin motamim qolmasun.
Mug‘anniy, qilib soz rudi nishot,
Aning birla tuzgil surudi nishot.
Ki, so‘z taxtida bo‘ldum oromgir,
Bo‘lay tahniyat bazmida jomgir.
Navoiy, jahonning firibin yema,
Xirad ollida naqsh-u zebin dema.
Chu davron ishi bevafoliqdurur,
Fuzun shohlig‘din gadoliqdurur.*

Asosiy qism voqealari Iskandarning tug‘ilishidan boshlanadi. Rum mamlakatining shohi Faylaqus tangridan farzand so‘raydi. Bir kuni ovdan qaytar ekan, shaharga kiraverishdagi vayronada yangi tug‘ilgan chaqaloq va o‘lik onani uchratadi. Shoh o‘likni dafn ettirib, chaqaloqni o‘ziga farzand qilib oladi va unga Iskandar deb nom beradi. Shoh Iskandarning ta‘lim-tarbiyasiga katta e‘tibor beradi va Arastuning otasi Naqurnojisni unga ustod qilib tayinlaydi. Iskandar toj-taxt va boylikka emas, balki ilm-fan va olijanob fazilatlarga muhabbat ruhida ulg‘ayadi.

Doston bilan tanishish jarayonida Navoiy shunchaki Iskandar tarixini yozishni emas, balki u bilan bog‘liq

voqealarning ma'nosini ochishni maqsad qilganligini ko'ramiz. Buni yuqorida keltirganimiz muayyan axloqiy masalaning ta'rifi, hikoyatlar, savol-javob va lirik xotimalarning o'zaro almashinib kelishidan ham sezish mumkin.

Faylaqus vafot etgach, valiahd sifatida taxtni Iskandar egallashi kerak edi, lekin u taxtga chiqishga oshiqmaydi. Xalq uning shoh bo'lishini qattiq talab qilib turib olgandan keyingina Arastu unga toj kiygizadi. Iskandar xalq oldiga shart qo'yib, kimning arz-dodi bo'lsa, shohni o'zi bilan teng ko'rib, ahvolini aytishini so'raydi:

*Ki, berdi munga dodgarlik Iloh,
Bor ersa xaloyiq aro dodxoh,
Kelib ol'ima arzi hol aylasun,
O'z ahvolini qiyhu qol aylasun!*

Iskandar taxtga o'tirgach, adolat bilan mamlakatni boshqara boshlaydi. Xalqni ikki yillik xirojdan ozod etadi. Dostonda shu o'rinda adolatning ta'rifi beriladi. Bu ta'rif hadislar vositasida tushuntiriladi. Masalan, bir soatlik adolat farishtalarning, dunyodagi barcha insonlarning toatidan afzal degan hadis keltiriladi. So'ng shoh Mas'udning bir kuni tushida otasi Mahmudni nurga g'arq bo'lgan holda jannat bog'larida yurganini ko'rgani va otasidan bu holga qanday sazovor bo'lganini so'rganida, otasi Hindistonni egallash vaqtida elga qilgan birgina adolati tufayli Alloh unga shunday martabani loyiq ko'rgani haqida so'zlab berganiga doir hikoyat ilova qilinadi. "Hikmat" bobida esa Iskandarning Arastu bilan adolat haqidagi savol-javobi keltiriladi. Arastuning fikricha, shoh har bir ishda adolat mezoni asosida ish tutsa, uning mulk-u mamlakati obod, xalqi badavlat bo'ladi. Xalq badavlat bo'lsa, askarlarning maoshi ham ortadi va qo'shin hamisha g'olib bo'ladi.

Yigirma uchinchi bobdan dostonga Doro obrazi kirib keladi. Navoiy Doroga tavsif berar ekan, uning Kayoniylar sulolasi vakili ekanligini, jahon podshosi sifatida Kayxisra-vu

Kayqubodlarning avlodi ekanligini, uning davlatni boshqarishida Luxrosbning tartiblari, qo'shinida Gushtosbning qonunlari ustuvor ekanligini bayon qiladi. Doro va Iskandar orasidagi xiroj mojarosi bu ikki shoh o'rtasida ixtilofning paydo bo'lishiga olib kelganligini afsus bilan ta'kidlaydi.

Yigirma to'rtinchi bobda kishilik jamiyatida ko'p uchraydigan hodisa – ziddiyat va ixtilof haqida mulohaza yuritarkan, mutafakkir shoir bu hodisa inson bolasiga azaldan xos ekanligi, muayyan tabaqa, jamiyat yo qatlamga tegishli emas, balki barcha uchun umumiy bo'lgan muammo ekanligini qayd etadi. Uningcha, bir kasbda mahorat hosil qilishning o'zi kishiga kasbdoshlari orasida ziddiyat va qarama-qarshilikni keltirib chiqarishga yetarli asos bo'ladi. Masalan, biror kasb yo hunar ahli o'z sohasida katta malaka hosil qilib, el orasida nufuzi oshaversa, kasbdoshlari bunga g'ashlanib qolaveradilar. Podshoh bilan qaysi amaldor o'rtasida yaqinlik paydo qilsa, boshqa amaldorlar unga dushmanlik qila boshlaydilar. Hatto gadoy va tilanchilar ham o'z hollariga yarasha o'zaro nizo va ixtiloflarni keltirib chiqaradilar. Ammo bularning eng qo'rqinchli va ashaddiysi – ikki podshoh o'rtasidagi adovat va kelishmovchilikdir. Chunki podshohlarning adovati albatta urush va qon to'kilishiga olib keladiki, bu urushlar minglab begunoh odamlarning qoni to'kilishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, deydii Navoiy, o'zaro do'st tutingan ikki darvesh adovatda bo'lgan ikki podshohdan afzalroqdir:

Rafiq ikki darvesh beishtiboh –

Erur yaxshiroqkim, aduv ikki shoh!

Fikrining tasdig'i sifatida keyingi bobda Chingizxon va Muhammad Xorazmshoh zamonida bo'lib o'tgan bir voqeani keltiradi: Chingizxon Xorazmshoh bilan o'rtalariga nifoq tushgach, mo'g'ul lashkari barcha shaharlarda ketma-ket g'alaba qozonib, Xorazmshohni ta'qib qila boshlaydi. Navbatdagi – Shom (hozirgi Suriya) mamlakatidagi jangda ham Chingizxon qattiq urushdan keyin g'alaba qozongach, aholini qatliom qilishga buyuradi. Ana shu jarayonda ikki do'st mo'g'ul qilichi damiga duchor bo'ladilar. Do'stlar bir-birining ustiga tashlab, "oldin

meni qatl eting, men do'stimning halok bo'lishini ko'rishga toqatim yo'q", deb yalinishadi. Bu paytda Chingizxon uxlab yotgan bo'ladi. Tushida bu ikki do'stning ishi ayon bo'lib, birov unga: "Sen Xorazmshoh bilan dushman bo'lgansan, oddiy xalqning gunohi nima?!" deya tanbeh beradi. Chingizxon uyg'ongach, omonlik e'lon qiladi. Ikki do'st sharofati bilan qatliom to'xtatiladi. Ushbu hikoyat o'z g'oyaviy mazmuni bilan "Hayrat ul-abror"dagi "Ikki vafoli yor" hikoyatini yodga soladi.

Urush boshlanadi. Ikki tomondan katta qo'shin saf tortadi. Dastlab maydonga oldin Doroga xizmat qilgan, ammo xizmatiga yarasha qadr topmaganidan xafa bo'lib, Iskandar tomonga o'tgan Boriq Barbariy maydonga chiqadi va Harron, Shayda kabi to'qqiz pahlavon ustidan g'alaba qozonadi. Oxiri Mag'ribiy degan bir pahlavon chiqib, Boriqni asir oladi, ammo Doroning oldiga keltirmasdan, noma'lum tomonga ketib qoladi.

Ikkinchi kuni Doroning noiblari xiyonat qilib, jang payti Doroni pichoqlaydilar. Iskandar Doroni yarador holda topadi. Doru o'limi oldidan uch narsa – xiyonatkorlarni jazolash, kayoniylar – o'zining qarindosh-urug'lariga ozor bermaslik va qizi Ravshanakka uylanishni Iskandarga vasiyat qiladi. Iskandar Doroning barcha vasiyatlarini ortig'i bilan ado etadi, Doroni izzat-ikrom bilan dafn qiladi. Shu o'rinda Iskandarning jahongir shoh bo'lish bilan birga cheksiz mehr sohibi ekanligi ham g'oyat mohirlik bilan tasvirlanadi.

Ushbu voqea bayonidan so'ng 28-bobda Navoiy davlatchilik asoslari haqida o'z fikrlarini bayon etishga kirishadi. Bobda berilishicha, olamning barcha ishlarida muayyan tartib, nizom va uyg'unlik mavjud bo'lganidek, davlatchilikda ham bexato va aniq ishlaydigan tizim bo'lishi lozim. Mamlakatdagi barqarorlik va rivojlanishni ta'minlovchi asosiy masala – har bir odamni o'z layoqati va vazifasiga qarab tayinlash, har bir davlat xodimining o'z ishi bilan shug'ullanishi va boshqalar ishiga daxl qilmasligidir. Navoiy bunga ajoyib bir hayotiy misol keltiradi:

Eshik it yeridur, gar o'lsun bo'ri,

Mushukka maqom o'ldi uyning to'ri.

*Gar ul dasht saydini aylar figor,
Valekin bu uy saydin aylar shikor.*

Itning vazifasi uyni tashqi dushmanlardan himoya qilish bo'lgani uchun eshik ortida, mushuk esa, sichqon va boshqa xonaki zararkunandalardan tozalashi uchun uyning to'rida bo'lgani, bularning har biri o'z o'rnida kerakli bo'lgani kabi, davlatchilikdagi turli muammolarning yechimi uchun layoqati va lavozimiga qarab xodim tanlash va ularga shunga munosib maqom va martaba berish lozim bo'ladi. Xizmatlarni rag'batlantirish va qadrlashda ham alohida yondashuv talab qilinadi: bo'ri agar qo'zi bilan boqilsa, cho'ponning dushmaniga aylanadi, sher agar molning qorni bilan oziqlansa, paytini topib egasining qornini yorishi hech gap emas. Shuning uchun podshohdan talab qilinadigan eng asosiy masala – odamlarning qobiliyatini to'g'ri aniqlash va shunga muvofiq ularga amal yo martaba berish hisoblanadi. Iste'dodlining qadriga yetmaslik yo iste'dodsiz odamni ulug'lash – gavharning qadriga yetmaslik va eshakmunchoqni e'zozlash kabi bir xil ziyon keltiruvchi ishlardan hisoblanadi.

Navoiy shu o'rinda tarixda yuzlab marotaba o'z isbotini topgan ana shunday hayotiy haqiqatlarga amal qilmagan Sulton Abu Said Mirzoning fojiasini ibrat qilib ko'rsatadi. Unga ko'ra, Amir Temur Ko'ragondan keyin Xuroson va Movarounnahr mintaqalarini yagona davlat bayrog'i ostiga birlashtira olgan bu temuriy sulton o'z qo'shini va raiyatiga yetarlicha muruvvat ko'rsatmagani sababli Doru kabi dushman qo'lga asir tushdi va qatl etildi. Shu sababli, hukmdor hamisha xalq bilan birga hamnafas bo'lishi shart. Aks holda:

*Sipahdin judo shoh erur bir kishi,
Ne bo'lg'usidur bir kishining ishi.*

Iskandar Eronni egallagach, Doru o'rnini egallagan jahon podshosi sifatida ko'plab o'lka podsholariga xat yozib,

mamlakatda adolat va osoyishtalik oʻrnatmoqchi ekanligini va shunga mos holda oʻz ixtiyorlari bilan unga taslim boʻlishlarini soʻraydi. Aksariyat podshohlar unga boʻyin egib keladilar. Faqat Kashmir, Hind va Chin xoqonlarigina unga boʻysunishni istamaydilar. Kashmir hukmdori Mallu ibn Mabok ochiqdan-ochiq Iskandarga boʻysunmasligini izhor etgan boʻlsa, Hind hukmdori mamlakati belgilangan xirojni vaqtincha toʻlay olmasligini bildiradi. Chin Xoqoni esa, uning mamlakati Doru zamonida ham Doroga tobe mamlakat emas, balki toʻlaqonli mustaqil davlat boʻlganligi, agar Iskandar xohlasa, oʻzaro teng sharoitda hamkorlik qilishi mumkinligini bildiradi.

Iskandar bu javoblarni olgach, ustozlari Arastu maslahati bilan jahongirlik yurishlarini boshlaydi. Dastlab Balx, Moxon, Marv, Zobul, Isfahon shaharlarini oldingidan ham obod va ma'mur etib, Xurosonda Hirot, Movarounnahrda esa Samarqand shaharlarini bunyod etadi. Soʻng Kashmirga Malluga qarshi qoʻshin tortadi:

*Sikandar otodi Samarqand ani,
Samarqandi firdavsmonand ani,
Ani chun tugatti qilib ehtimom,
Ravon qildi Kashmir sori xirom.*

Iskandar sehrgarlari bilan mashhur boʻlgan Kashmir shahrini tilsimlangan holda topib, tilsimni hikmat ahli yordami bilan juda osonlik bilan yechadi. Mallu bu ahvolni koʻrib, mamlakatni tashlab qochadi. Iskandar Kashmir ahliga omonlik berib, bir muddat bu yerda yashaydi. Kashmirda qoʻlga kiritgan gʻanimatlardan biri – Jamshid zamonidan qolgan sehrlil jom edi. Jomning davrida yozilishicha, Jamshid oʻz zamonida ikkita jom yasatgan ekan:

*Birisin dedi: Jomi Getinamoy,
Birisin dedi: Jomi Ishratfizoy.*

Iskandar qoʻlga kiritgan jom Jomi Ishratfizoy (shodlik koʻpaytiruvchi jom) boʻlib, uning xosiyati shunda ediki, qancha ichilsa ham, sharobi tugamasdan, mayga limmo-lim turardi va egri tutilganda ham bir tomchi undan toʻkilmasdi.

Mallu ibn Mabok magʻlub va yarador holda Iskandar oldiga taslim boʻlib keladi hamda undan kechirim soʻraydi. Iskandar uzrini qabul qiladi. Koʻp oʻtmay, Mallu vafot etadi. Iskandar uning vasiyatiga binoan qizi Mehrnozga uylanadi, oʻgʻli Feruzni Kashmirda podsho qiladi.

Kashmirdan soʻng Iskandar Hindiston tomonga yurish qiladi. Hind Royi Iskandarning Kashmirda koʻrsatgan shijoat va hikmatini eshitib, had-hisobsiz sovgʻa-salomlar bilan bir guruh donishmandlarni elchi qilib joʻnatadi. Iskandar hindistonlik donishmandlarni katta izzat-ikrom bilan qabul qilib, taxtda emas, tuproqda ular bilan birga oʻtirib, muzokara olib boradi. Ular Iskandarning aql-u zakovati va bagʻrikengligiga tan berib, Hind Royining gunohini soʻraydilar. Iskandar Hindistonning ikki yillik xirojidan kechib, Royning ham gunohidan oʻtadi.

“Qissadan hissa” tariqida keltirilgan keyingi – 44-bobda Navoiy kechirimlilik fazilati haqida soʻz yuritadi. Bobda berilishicha, kechirimli va saxovatpesha boʻlgan kishi hukmdorlar orasida alohida ehtimomga sazovordir:

*Birov shahlar ichra erur muhtaram,
Ki boʻlgʻay aning daʼbi afv-u karam.
Ani bil javonmard yoxud karim,
Ki bedodidin boʻlmagʻay elga bim.*

Navoiy talqiniga koʻra, agar gunohkor oʻz aybiga iqror boʻlib kechirim soʻrasa, gunohidan oʻtish yoki yengilroq jazo muqarrar qilish javonmardlik belgisidir. Kechirimlilik shohlarning asosiy xislati boʻlmogʻi lozim. Hattoki qatl hukmi vojib boʻlgan joyda ham hukmni zindonga almashtirish toʻgʻriroq boʻladi. Chunki har bir mahkumning onasi bor. Ona farzandini bilib-bilmay jinoyat qilib, kimningdir gʻazabiga duch kelishi va qatl etilishi uchun tarbiya bermaydi:

*Ani koʻrkim, ul zori mazlum ona,
Necha koʻrdi hizida ranj-u ano.
Ul uygʻonmasin deb yebon qaygʻusin,
Harom ayladi kechalar uyqusin.*

Iskandar qishni Hindiston o'rmonlarida ovchilik va ayshishrat bilan o'tkazib, ko'klam faslida Chin va Xitoy tomonga yurish qiladi. Chin xoqoni katta qo'shin bilan Iskandar istiqboliga chiqadi, ammo unga bas kelolmasligini anglab, o'zi elchi libosida Iskandar huzuriga borib, tinchlik bitimi tuzishga erishadi. Chin xoqoni ham Iskandar sharafiga katta ziyofat beradi. Ziyofat chog'ida xoqon oliymaqom mehmoniga ikkita ajoyib narsa sovg'a qiladi. Birinchisi -- ikki tomoni ham "oy-u kundek yorug'" bo'lib, bir tomoni rostni yolg'ondan ajrim qiluvchi, ikkinchi tomoni mast odamning haqiqiy qiyofasini ko'rsatuvchi Chin ko'zgusi, ikkinchisi -- ham husn-u jamolda, ham fazl-u kamolda benazir Chin go'zali edi. Iskandarga bu sovg'alar juda ma'qul tushib, hakimlariga ushbu sovg'aning evaziga biror ixtiro qilishlarini topshiradi. To'rt yuz hakim ikki guruhga bo'linib, ishni boshlaydilar. Aflotun va Suqrot boshchiligidagi guruh osmon ahvolini ko'rsatuvchi usturlobni, Arastu va Buqrot rahbarlik qilgan guruh esa, olam ahvolini ko'rsatuvchi Iskandar ko'zgusini yaratadilar:

Ul o'ldi suturlobi maxfisamo,

Bu bir o'ldi mir'oti getinamo.

Chin xoqoni bu kashfiyotlarni ko'rib, Iskandar va uning saroyidagi hakimlarga qoyil qoladi. Iskandar Chin mulkida Malluning qizi -- Nozmehr va Doroning qizi Ravshanakni o'z nikohiga olib, bir muddatdan keyin Mag'rib tomonga yurishni boshlaydi. Mag'rib tomonda ko'kko'z, soqoli sariq, rangpar yuzli vahshiy qabilalar bilan urushadi. Vahshiylar xaylidan bir pahlavon chiqib, Iskandar qo'shinidan o'n uch pahlavonni asir oladi. Iskandar bu holatdan muztar bo'lib turgan chog'da Chin lo'batini maydonga kirib, dushmanni osonlikcha mag'lub etadi va Iskandar oldiga asir etib keltiradi. Iskandar bundan xursand bo'lib, Chin lo'batini o'zining xos haramiga oladi. Tutqun pahlavonni esa, iltimosiga ko'ra ozod etadi. Ozod bo'lgan pahlavon borib, o'zi asirga tushirgan o'n uch pahlavon bilan birga Doru bilan bo'lgan urushda asir tushgan Boriq Barbariyini ozod qilib, Iskandar xizmatiga keladi.

Iskandar Mag'rib diyorini fath etib, o'z vatani – Rumi tomonga ot surganda, yo'lda Qirvon diyori ahli unga Ya'juj va Ma'juj zulmidan panoh istab murojaat qiladilar. Iskandar bu yerda olti oy davomida ikki tog' orasida mashhur Saddi Iskandariyni bunyod etib, Ya'juj va Ma'juj balosini daf qiladi:

*Bo'lub olame buyla san'atnamoy,
Kecha-kunduz ish qildilar olti oy.
Ki necha ming ustoju san'atgari
Tamom ettilar Saddi Iskandariy.*

Jahonning quruqlik qismini to'la fath etgan Iskandar Rumga qaytib, bir muddat o'z vatanida maskan tutadi. Endi unga daryo sayri ishtiyoqi g'olib kelib, uch ming kema bilan dengizga chiqadi. O'n ikki yil davomida Suqrot rahnamoligida yetti daryo – Rum, Mag'rib, Zang, Hind, Ummon, Qulzum, Chin, Mashriq dengizlari hamda bu dengizlar ichidagi o'n ikki mingta orolni kezib chiqadi. Iskandarning keyingi dengiz safari butun olamni o'rab turuvchi Muhit (okcan) uzra bo'lib, bu safarda xalq uning valiylik va payg'ambarligidan bahramand bo'ladi:

*Berib xaylig'a mujda ul holdin,
Bo'lub barcha muqbil ul iqboldin.
Bilib xalq shohi muzaffar oni,
Hakim-u vali-yu payambar oni.*

Iskandar safardan qaytishda xastalanadi va tutingan onasi Bonuga o'g'illikni o'miga qo'ya olmaganidan uzr so'rab, maktub yozadi. Mazkur maktub butun dunyoni zabt etsa-da, oxir-oqibat u dunyoga hech bir narsasiz, ochiq qo'l bilan ketayotgan, bu olamga shoh bo'lgandan ko'ra onadek buyuk zotga qullik qilish sharafi yuksakroq ekanligini anglagan ulug' jahongirning iqronomasi edi:

*Boshimg'a tushub harza andeshae,
Dedim olam ochmoq erur peshae.*

*Ne qilg'on xayolim bori xom emish,
Havas jomi ko'nglumga oshom emish.*

*Kerak erdi, to kirdi mag'zing'a hush,
Xirad toki soldi dimog'img'a jo'sh.*

*Demon qilsam erdi o'g'ulluq sanga,
Qabul aylasam erdi qulluq sanga.*

*Sanga aylabon xoki dargohliq,
Aning otin aytsam edi shohliq.*

Asosiy qismning so'nggi bobida yetti faylasuf hakim: Aflotun, Suqrot, Balinos, Buqrot, Hurmus, Farfinyus va Arastu Iskandarning onasiga ta'ziya bildirgani keladilar va shu bilan Iskandar voqeasi poyoniga yetadi.

Doston boshqa dostonlardan farq qilib, kattagina xotima bilan yakunlanadi. Xotima 6 bobdan iborat bo'lib, "Saddi Iskandariy" dostonini tugallash bilan muayyan ma'noda "Xamsa"ga ham yakun yasaydi. Xotima quyidagi boblarni o'z ichiga oladi:

84- bob – Husayn Boyqaro va uning farzandlari ta'rifi

85- bob – Hakimlar (donishmandlar) ta'rifi

86- bob – Gadoning shohga nasihati xususida

87- bob – So'z gavhari xususida

88- bob – Darveshaliga nasihat

89- bob – Xulosa.

Dostonning so'nggi bobida Navoiy unga baxt-davlat rahnamolik qilib, nihoyat "Xamsa"ni yakunlaganini yozar ekan, "Hayrat ul-abror" dostoni yozilishidan boshlab "Saddi Iskandariy" yakunlanguncha bo'lgan jarayonni birma-bir eslab o'tadi. Navoiy tong otib kech kirguncha el-yurt tashvishi bilan band bo'lgani holda salaflari uzoq muddat yozgan "Xamsa"ni juda qisqa muddatda – ikki yilda yakunlaganini, agar bevosita faqat yozish uchun ketgan vaqt hisoblab chiqilsa, olti oyga ham bormasligini faxriya tarzida bayon qiladi:

Sangakim yo'q emgakda g'oyat padid,

Ulus mehnatida nihoyat padid.

*Qilib tongdin oqshomg'acha qiylu qol,
Yuzungga yetib har nafas yuz malol.
O'zung tinmayin xalq g'avg'osidin,
Qulog'ing xaloyiq alolosidin.
Bu mehnatlar ichra chekib so'zga til,
Zamondin kamo besh o'tub iki yil.
Chekib xoma bu noma itmomig'a,
Yeturgaysen og'ozin anjomig'a
Ki, aqli muhosib shitob aylasa,
Deyilgan zamonin hisob aylasa.
Yig'ishtursa bo'lmas bori olti oy
Ki, bo'ldung bu ra'nog'a suratnamoy.*

Navoiy o'z beshligi kitobxonlar tomonidan qanday baholanishini bilish uchun ustoz Abdurahmon Jomiyning huzuriga boradi va unga "Xamsa"ni taqdim etadi. Jomiy asarni birma-bir varaqlab, shoirga lutf bilan munosabatda bo'ladi va bir qo'lini shoirning yelkasiga qo'yadi. Ustoz va pir Jomiyning qo'li yelkasiga tekkach, shoir bir lahza hushini yo'qotadi va taxayyul olamiga g'arq bo'ladi: Navoiy ajoyib bir gulistonda sayr qilib yurib, bir guruh suhbatdoshlarni ko'rib qoladi. Ulardan biri shoir tomonga kelib, o'zini fors-tojik shoiri Hasan Dehlaviy deb tanishtiradi va davradagilar shoirni ko'rmoqchi ekanliklarini aytadi. Navoiy hayajon bilan davra ahliga yaqinlashadi. Hasan Dehlaviy davradagilarni Navoiyga tanishtiradi. O'rtada Nizomiy Ganjaviy, uning ikki yonida Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy, ularning atrofida o'tirganlar esa Firdavsiy, Unsuriy, Sa'diy, Sanoiy, Hoqoniy va Anvariylar edi:

*"... O'rtodag'i piri farruxjamol
Ki, vasfida keldi xirad nutqi lol,
Erur hazrati Shayx, ogoh bo'l!
Niyoz aylabon xoki dargoh bo'l.
O'ng ilgi sori anga payravdurur,
Jahon ofati – Mir Xusravdurur.*

*Yana bir yon ustodu piring sening,
Raqa:taxoni lavhi zamiring sening
Chu Sa'diyu, Firdavsiyu, Unsuriy,
Sanoiyu, Xoqoniyu, Anvariyy”...*

Davradagilar Navoiyni ko‘rishlari bilan o‘rinlaridan turadilar. Uning bir qo‘lidan Xusrav Dehlaviy, ikkinchi qo‘lidan Abdurahmon Jomiy tutib, Nizomiyning yoniga o‘tqizadilar. Navoiy Nizomiya ta‘zim bajo keltirib, uning yoniga o‘tiradi. Nizomiy Navoiyning “Xamsa”siga yuksak baho beradi va Jomiydan shoir haqqiga duo o‘qishini so‘raydi...

Shu onda Navoiy taxayyul olamidan qaytib qarasa, Jomiy qo‘lini uning yelkasidan olgan va unga qarab turgan ekan. Jomiy Navoiyni ulug‘ muddaoga yetishganligi bilan qutlab, Tangriga shukrona keltirishga chorlaydi. Nihoyat Allohdan madad so‘rab, ilohiy jumla bilan ibtido topgan “Xamsa” buyuk Yaratganga shukronalik bilan yakun topadi:

*Navoiy, qilib Tengri koming ravo,
Sanga ro‘zi etti ajoyib navo.
Uzot Tengri shukri navosig‘a til,
Navo ortuq istar esang, shukr qil!*

Professor Najmiddin Komilov talqiniga ko‘ra, “Saddi Iskandariy” dostonining markaziga qo‘yilgan bosh g‘oya bu – ibrat va ogohlikdir. Navoiy talqiniga ko‘ra, Iskandar aslida shahzoda emas, balki vayronadan topilgan chaqaloq – onasi uni tug‘ib, so‘ng vafot etgan. Farzandsiz Faylaqus go‘dakni topib, uni o‘ziga farzand bilib, parvarish etadi. Tabiatan darveshlar sulukiga ishtiyoqmand, saltanat savdosidan bezor Iskandar zimmasiga jahongirlik missiyasi tushadi. Jahongirlik va fotihlik da‘vosi bilan tarix sahnasiga chiqqan boshqa hukmdorlardan farqli o‘laroq, Navoiy xalq orzu-istagi va Haq roziligi asosida dunyoda adolatli hukmdorlikni o‘rnatish, bilim va aql-zakovat, xayr-u saxovat, mehr-u shafqat tantanasiga erishishni o‘zining burchi deb bilgan

Iskandar obrazini yaratdi. Shu sababli, bu dostonning oxiri qayg'uli tugasa-da, Navoiy voqealar bayoni davomida inson va jamiyat, shoh va darvesh, hayot va o'lim, ustoz va shogird, yaxshilik va yovuzlik, hikmat va hukumat kabi turli ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-falsafiy masalalar ustida mushohada yuritadi. Ana shu xulosalar, qissadan chiqarilgan hissalar tufayli Navoiy tasvirlagan Iskandar jahongir podshohdan ko'ra, xaloskor, adolat o'rnatuvchi, tabiati hukmdordan ko'ra darveshlikka ko'proq moyil, ilm-hikmatga maxzan bo'lgan ma'rifatli shaxs sifatida ko'ngilga o'rtnashadi.

"Saddi Iskandariy" dostoni "Xamsa"ning oxirgi dostoni bo'lganligi sababli, muayyan darajada oldingi dostonlardagi g'oyalarni umumlashtiruvchi xulosaviy xarakterga ega. Bu dostondagi adolat, afv, yigitlik, to'g'rilik, karam va saxovat, yigitlik, falakning jafokorligi haqidagi fikrlar "Hayrat ul-abror"ning shu mavzularga bag'ishlangan maqolatlardagi fikrlarning davomi bo'lsa, oldingi dostonlarning markaziy qahramonlari bo'lgan Majnun (33- va 66-boblar), Bahrom Go'r (54-bob) va Farhod (68-bob)lar hikmatli boblardan so'ng asosiy g'oyaning isboti sifatida keltirilgan hikoyatlarda qatnashadi. Bu esa, Navoiyning "Xamsa"siga beshta mustaqil doston majmui emas, balki murakkab arxitektonikaga ega yaxlit bir asar sifatida qarash va o'rganishni taqozo etadi.

"Saddi Iskandariy" mutaqorib bahrining *mutaqoribi musammani mahzuf* (ruklari va taqti'i: fauvlun fauvlun fauvlun faul V - - / V - - / V - - / V -) vaznida yozilgan.

МУНДАРИЖА

| | |
|---|-----|
| SO‘ZBOSHI..... | 4 |
| IKKI XALQNING BUYUK SIYMOLARI..... | 4 |
| MUQADDIMA..... | 17 |
| SHAYX NIZOMIY GANJAVIY HAQIDA | 22 |
| NIZOMIY MAQBARASI..... | 27 |
| O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA NIZOMIY GANJAVIY IJODINI O‘RGANISH MASALASI..... | 45 |
| “MAXZANUL ASROR” DOSTONI HAQIDA | 55 |
| NIZOMIY GANJAVIYNING “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONI..... | 77 |
| OSHIQLARGA TUMOR BO‘LGAN ASAR | 80 |
| NIZOMIY “XAMSA”SI TARJIMALARI HAQIDA | 86 |
| “SHAYX NIZOMIY GANJAVIY “XAMSA”SINI QANDAY TARJIMA QILDIM?” | 96 |
| “IQBOLNOMA” HIKMATI..... | 102 |
| NIZOMIY GANJAVIY VA ALISHER NAVOIYNING IJOD TUTUMI..... | 108 |
| IJODKOR TUTUMI – POETIK TAFAKKUR YUKSALISHINING ASOSI..... | 109 |
| Xulosa | 119 |
| ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINING O‘RGANILISH TARIXI HAQIDA | 121 |
| ALISHER NAVOIYNING HAYOTI VA IJOD YO‘LI | 123 |
| ALISHER NAVOIY FENOMENI | 142 |

| | |
|--|-----|
| O‘TMISH NAVOIYSHUNOSLIGI AN‘ANALARI..... | 148 |
| BOLALIGI..... | 174 |
| YIGITLIK DAVRI | 176 |
| NAVOIY VA ABU SA‘ID MIRZO MUNOSABATLARI | 179 |
| NAVOIY SAMARQANDDA | 186 |
| ALISHER NAVOIYNING BALOG‘AT DAVRI..... | 192 |
| XULQ-ATVORI..... | 199 |
| XAYRIYA AMALLARI | 210 |
| MOL-MULKI | 212 |
| YAQINLARI VA SUHBATDOSHLARI | 215 |
| VAFOTI..... | 216 |
| NAQL VA RIVOYATLAR..... | 219 |
| NIZOMIY VA NAVOIY SHE‘RIYATINING LIRIK QAHRAMONLARI HAQIDA..... | 224 |
| “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDAGI HIKOYATLARNING | 227 |
| MAVZULARI. G‘OYAVIY TASNIFI | 227 |
| XAMSANAVISLIK AN‘ANASI TAKOMILI..... | 252 |
| “HAYRAT UL-ABROR DOSTONI HAQIDA | 273 |
| “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI HAQIDA | 302 |
| “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONI HAQIDA | 318 |
| “SAB‘AI SAYYOR” DOSTONI HAQIDA | 334 |
| “SADDI ISKANDARIY” DOSTONI HAQIDA..... | 353 |

**SHUHRAT SIROJIDDINOV
GULBAHOR ASHUROVA**

**“NIZOMIY GANJAVIY VA ALISHER NAVOIY
IJODIDA TURKONA TAFAKKUR VA G‘OYAVIY
BADIY ASOS”**

monografiya

Muharrir: S.Xashimov

Musahhih: S.Alimbayeva

Sahifalovchi: A.Hidoyatov

Nashriyot litsenziyasi №AI 242, 04.07.2013 y.
Ofset qog‘ozi. Bosishga ruxsat etildi 29.12.2021.
Formati 60x84 1/16. Garnitura «Times New Roman».
Bosma taboq 11.5 Adadi 300. nusxa. Buyurtma №9.

«VNESIINVESTPROM» mas’uliyati
cheklangan jamiyati.
100011, Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 30.
Tel./faks:(+99871) 244-75-75

UO‘K:23.265.6

KBK:83.2

S 48

Shuhrat Sirojiddinov, Gulbahor Ashurova

Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodida Turkona tafakkur va g‘oyaviy badiiy asos / Shuhrat Sirojiddinov, Gulbahor Ashurova. - Toshkent: “VNESHINVESTPROM” nashriyoti, 2021 - 376 b.

